

R.Shamsutdinov
Sh.Karimov
S.Xoshimov



VATAN
TARIXI

1

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BOHUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

RUSTAMBEK SHAMSUTDINOV, **SHODI KARIMOV**,
SOIBJON XOSHIMOV

VATAN TARIXI

Birinchi kitob

Qayta tayyorlangan uchinchi nashri

5220200-tarix ta'lim yo'nalishi

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi tomonidan universitetlar, pedagogika
institutlari tarix fakulteti talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya qilindi*

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2016

UO'K 94(575.1)
KBK 63.3(50')ya721
Sh 22

Mas'ul muharrir:

Anatoliy Sagdullayev,
tarix fanlari doktori, professor.

TAQRIZCHILAR:

Tarix fanlari doktori, *professorlar*: **M. Is'hoqov, H. Sodiqov,**
F. Haydarova, F. Nabiyeu, S. Inoyatov, Q. Usmonov, B. Matboboyev;
tarix fanlari nomzodi: **O. Bo'riyev.**

Sh 22 **Shamsutdinov R.** va boshq.
Vatan tarixi. K.1 / Mas'ul muharrir: A. Sagdullayev;
Taqrizchilar: H. Sodiqov va boshq. – T.: «Sharq», 2016. – 536 bet.

ISBN 978-9943-26-492-2

UO'K 94(575.1)
KBK 63.3(50')ya721

Mustaqil taraqqiyot yo'ldan borayotgan O'zbekiston xalqi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritmoqda. Qo'lingizdagi «Vatan tarixi» o'quv qo'llanmasi ham ana shu istiqbol mevasidir. Mazkur qo'llanmada o'zbek xalqi tarixining eng qadimgi davrlaridan to XVI asrgacha bo'lgan davri tarixi o'z ifodasini topgan. Qo'llanmani tayyorlashda tarixiylik, ilmiy yondashuv, xolislik bosh mezon bo'lib xizmat qildi.

Mazkur qo'llanmadan mustaqil diyorimiz yoshlari ajdodlarimizning tarixiy taraqqiyot yo'llarini o'qib, o'rganadilar, mustaqil tahlil qiladilar, o'z hukm-xulosalarini chiqaradilar. Ular ongida milliy tafakkur, vatanparvarlik his-tuyg'usi, milliy mustaqillik bilan g'ururlanish, milliy istiqbolimizni yanada mustahkamlash uchun mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotida yanada faolroq qatnashish, O'zbekiston mening Vatanim, men uning egasi va himoyachisiman, degan burch tushunchasi shakllanadi, deb umid qilamiz.

Qo'llanmada juz'iy kamchiliklar bo'lishi mumkin. Kitobxonlarning barcha fikr va mulohazalari samimiyat bilan qabul qilinadi.



KIRISH

Kechagi tarix biz uchun hayot maktabi, bamisoli tiniq bir ko'zgu. Unga qarab saboq olamiz, xulosa chiqaramiz, kelajak yo'lini belgilaymiz.

O'zlikni anglash degani – bu o'z tariximizni, ming-ming yillik an'analarimizni bilish degani. Agarki har qaysi odam kechagi kunini yaxshi biladigan bo'lsa, hech qachon avvalgi xatosini yana takrorlamaydi.

...tarix bilan, haqiqat bilan qurollanib olsak, hayotimizni shunday to'g'ri yo'lga qo'yamizki, uning aniq manzillari barchaga ayon bo'ladi, butun xalqimizga kuchg'ayrat bag'ishlab turadi'.

ISLOM KARIMOV

Buyuk istiqbolimiz sharofati ila «Biz tariximiz, madaniyatimizni o'zimiz va butun dunyo uchun ham qayta tiklayotgan», hozirgi o'tish bosqichida O'zbekiston tarixi fani va uning milliy istiqbol mafkurasi, milliy g'oya ruhida tadqiq etish va o'qitish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida O'zbekiston tarixi o'qitilmoqda. Bu fanni o'qitish va uni butun xalq ommasi ongiga va qalbiga singdirish borasida Prezident I.A.Karimov respublikaga birinchi rahbar bo'lib kelganidan boshlaboq g'amxo'rlik qilib kelmoqda: «Biz o'z tariximizni yo'qqa chiqara olmaymiz. Bu tariximizda ham qahramonona, ham fojiali sahifalar ko'p bo'lgan. Axlr, keksa avlodlarning, ota-bobolarimizning kurashi va mehnatini inkor etib bo'ladimi? Ular yarim feodal holdagi qoloq mamlakatni ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy jihatdan taraqqiy etgan zamonaviy darajaga ko'tardilar. Bu aniq-ravshan dalilni hech kim rad qila olmaydi.

¹ *Karimov Islom*. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy suodatdir. T.: «O'zbekiston», 2015, 112–114-betlar.

Ayni vaqtda, sotsialistik qurilishning ko'pgina bosqichlarida qo'pol xatolar va buzilishlarga yo'l qo'yilganini ham hech kim, hech narsa shubha ostiga qo'ya olmaydi».¹

O'zbekiston tarixi fanini ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida va bosqichlarida o'qitish borasida davlat va hukumatning ko'plab qaror va farmonlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 27-yanvardagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik ilmiy kengashi va markazi tashkil etildi. Kengash va markaz O'zbekistonning eng yangi tarixini yaratish, O'zbekiston tarixidan darslik, qo'llanmalar, xrestomatiyalar tuzish bo'yicha tashkiliy va ilmiy ishlarni boshab yubordi, joylarda ilmiy seminarlar o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-dekabrda 365-sonli «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda oliy malakali va ilmiy-pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlariga kiruvchi talabgor doktorlik dissertatsiyasini himoya qilguncha, O'zbekistonning yangi tarixi bo'yicha imtihon topshirishlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchi hamda mustaqil izlanuvchi sifatida o'qish uchun kirayotgan shaxslar O'zbekiston tarixi bo'yicha kirish imtihonlari topshirishlari shart qilib qo'yildi. O'z-o'zidan ravshanki, endilikda O'zbekiston tarixi fanining umumiy, o'rta va oliy ta'lim hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimidagi o'rni va roli yanada ortadi. Shu bois, bu fandan ta'lim beruvchi va tashviqot ishlari olib borayotgan ilmiy-pedagogik hodimlarning mas'uliyati yanada kuchayadi, ularning ilmiy-pedagogik salohiyatiga, o'quv-metodik hamda zamonaviy apparat texnologiyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalariga bo'lgan talab ham ortib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yil 18-yanvarda 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida mustaqillik yillarida Respublikamizda xalq maorifi, oliy va o'rta maxsus ta'limda

¹ *Karimov Islom. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011, 165-b.*

amalga oshirilgan ulug'vor ishlar umumlashtirib berildi. «Ta'lim sohasidagi ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, – deb ko'rsatdi I.Karimov, – Fransiyadagi dunyoning eng yaxshi 5 ta biznes maktabi qatoriga kiradigan «Inssad» xalqaro biznes maktabining 2012-yilgi «Innovatsiyalarning global indeksi» ma'ruzasida bayon etilgan ma'lumotlarni keltirish o'rinli, deb o'ylayman. Ma'ruza jahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda tayyorlangan. Ushbu ma'ruzada dunyoning 141 mamlakatidagi innovatsion rivojlanish kompleks tarzda tahlil qilingan. Tahlilning asosiy tarkibiy qismlaridan biri inson kapitalini rivojlantirish darajasi bo'lib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha bizning mamlakatimiz 35-o'rinni egallagan. Ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi bo'yicha esa O'zbekiston – shunga e'tibor beringlar – dunyoning 141 mamlakati orasida 2-o'rinni band etgan»¹.

Yurtboshimizning ma'ruzasida ta'lim-tarbiya sohasining yaxlit, uzluksiz tizimi shakllanganligi va mustahkamlanganligi, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'limning barcha bosqichlarida yuksak bilimli va malakali kasb tayyorgarligiga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish ishlari izchil davom ettirilayotganligi alohida ta'kidlandi. Ma'ruzada 2014-yilning 1-yanvaridan boshlab, oliy o'quv yurtidan keying ta'lim, doktorlik ilmiy ishlarini tayyorlash va himoya qilish, ilmiy daraja va ilmiy unvonlar berish tizimi joriy etiladigan bo'ldi. Endilikda, ilmiy kengashlar nafaqat yuqori malakali kadrlar tayyorlash maskani, ayni vaqtda, ilmiy taqdiqotlar olib boriladigan markazga aylanishi lozim bo'lgan yetakchi oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladigan bo'ldi. Milliy istiqloq o'zbek xalqining asriy orzusi, armoni uning qo'lga kiritilishi ulkan tarixiy g'alabadir. Bu g'alabani qadrlash, mustahkamlash, avaylab-asrash har bir yurt farzandining fuqarolik va milliy burchidir. Har qanday mamlakatning kuch-qudrati, uning mustaqilligi, davlat chegaralarining daxlsizligi, o'sha mamlakat fuqarolarining o'z vataniga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalanganliklari, milliy istiqloq uchun kurashda zarur bo'lsa, jon fido qilishga ham tayyor bo'lishdek yuksak ma'naviy fazilatlariga ega bo'lishliklariga bog'liqdir. Ana shunday fazilatlarining xalqimizga, birinchi navbatda yosh va barkamol avlodlarda shakllantirishda O'zbekiston tarixining o'rni va imkoniyatlari cheksizdir.

¹ Xalq so'zi. 2013-yil, 19-yanvar.

Milliy istiqlol o'zbek xalqining asriy orzusi, armoni edi. Bu yo'lda ming-minglab Vatan, yurt fidoyilari aziz jonlarini qurbon qildilar. Milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi katta yutuq, uning qadriga yetish, mustahkamlash, avaylab saqlab qolish muhim vazifa. Har qanday mamlakatning qudrati, uning milliy mustaqilligi, davlat chegaralarining daxlsizligi – o'sha mamlakat fuqarolarining o'z yurtiga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalanganliklari, Vatan mustaqilligi va milliy istiqlol uchun kurashda zarur bo'lsa jon fido qilishga ham tayyor bo'lishdek oliyjanob fazilatlariga ega bo'lishliklariga bog'liqdir. Bu fazilatlarini xalqimizga eng muhimi, yurtimiz kelajagi – yoshlar ongida qaror toptirish va shakllantirishda Vatan tarixining o'rni va imkoniyatlari cheksizdir.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining eng ulug'ne'matlaridan biri shu bo'ldiki, Vatan tarixini hech qanday bo'yoqlarsiz, amalda hayotda qanday bo'lgan bo'lsa, shunday xolisona o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Sovet hokimiyati yillarida kommunistik partiya yurgizgan «ulug'» rus saltanati mafkurasi siyosatining natijasi sifatida maktablarda, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida Vatan tarixini o'qitish masalasiga, umuman e'tibor berilmadi.

Ajablanarlisi shundaki, Sovetlar hokimiyati yillarida mamlakatimizning haqiqiy, tom ma'nodagi tarixi xolisona yaratilmadi. Yurtboshimiz shunday yozadi: **«Ilgari maktablarda O'zbekistonning haqiqiy tarixi o'rgatilmadi. O'tgan asrning 17-yilidan boshlab yozilgan tarix kitoblari yolg'on g'oyalar asosida yaratilgan sir emas».**¹ Maktablar va o'quv yurtlarida o'qitilgan darslik va adabiyotlarda esa O'zbekiston xalqlari tarixi soxtalashtirildi. Bu tarixiy kitoblarning ko'pchiligida o'zbek xalqining milliy manfaatlarini oyoqosti qilindi, ulug' rus millatchiligi, «Katta va ulug' og'a» manfaatlarini yetakchi mavqega ega bo'lib, hamma voqea va hodisalar unga bo'ysundirildi. Natijada, o'zbek xalqining ma'naviy hayotiga putur yetdi, xalqning siyosiy ongi o'tmaslashdi, ijtimoiy-siyosiy voqealarga befarqlik, loqaydlik hissi kuchaydi.

Albatta, bu kommunistik partiya mafkuraviy kurash maydonida yurgizgan siyosatining aks sadosi edi. Chunki, mustamlaka asoratiga solingan xalqlarni siyosiy qorong'ulik va zulmatda saqlash yo'li bilan ular ustidan hukmronlikni o'rnatish mumkin edi.

¹Karimov Islom. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011, 111-bet.

G'oyaviy-siyosiy dunyoqarashi uyg'oq, imon-u e'tiqodi butun xalqni milliy zulm asoratida saqlash mumkin emas. Shu boisdan ham Chor Rossiyasi va sovet mustamlakachiliklarining qariyb 130 yillik hukmronliklari davomida o'lkamiz xalqlari o'rtasida ruslashtirish siyosatini olib bordilar, xalqimizni tarixidan, o'z ona tilidan, dinidan judo qilish yo'lini tutdilar, shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat bayrog'i ostida milliy urf-odatlarimiz, axloq-odob va madaniyatimizga xuruj qildilar. O'zbekistonni Markazning xomashyo yetkazib beruvchi bazasiga aylantirdilar. Kommunistik partiya bunday siyosatni SSSR hududidagi barcha respublikalarda va sotsialistik hamdo'stlik mamlakatlarida yurgizgan. Buni biz quyidagi misolda yaqqol ko'ramiz.

Ikkinchi jahon urushidan keyin sobiq ittifoqning barcha respublikalarida sotsialistik hamdo'st mamlakatlarga Markazning buyrug'i yuborilib, unda turli mavzularda ko'rsatmalar belgilandi. Xususan, buyruqlardan birida quyidagi jumlar ham bor edi: «Mahalliy aholi orasidan yetishib chiqqan rahbarlarning ommaviy chiqishlarida milliy bo'yoq berilishiga yo'l qo'yiladi, ammo u millatning o'sishiga, birlashuviga xizmat qilmasligi kerak. Boshlang'ich va o'rta maktablarda, o'rta va oliy oquv yurtlarida o'ta e'tibor qozongan o'qituvchilar ishdan chetlashtirilishi lozim bo'ladi. Ularning o'rniga biz tomondan belgilangan kishilarni qo'yish kerak. Tarix darslarida o'tmishdagi siyosatdonlardan kimlar vatan ravnaqi uchun xizmat qilishgani yoki xizmat qilishga urinishgani haqida gapirish mumkin emas, e'tiborni faqat podsholar zulmi va ularga qarshi qaratilgan xalq kurashiga burmoq lozim bo'ladi.

Oliy o'quv yurtlariga shunday kishilarni qabul qilishga erishish kerakki, ular xalqning omi qatlamidan bo'lishsin va ularni mutaxassislik bo'yicha chuqur bilim olish emas, balki faqat diplom qiziqtirsin».¹

Kommunistik partiyaning yurgizgan bunday «ulug'» davlatchilik mafkuraviy siyosati xalqimiz va millatimiz taqdiri uchun ayanchli oqibat va natijalarga olib keldi. Vatan tarixini bilmaslik o'zbek xalqining milliy qadriyatatlari va urf-odatlaridan uzoqlashish oqibatida jamiyatda shunday avlod vakillari shakllandiki, ularning aksariyatida milliy ong va milliy g'urur tushunchalari so'nib ketdi. Ularning ongida O'zbekiston taqdiriga, o'zbek millati taqdiriga,

¹ «Turon tarixi». Ommabop majmua. To'plam, 1993-yil, may, 4-bet.

madaniyatimiz, tariximiz va tilimiz, dinimiz taqdiriga loqayd va befarqlik munosabatlari g'oyasi ustuvor mavqeni egalladi. Millat istiqboli uchun vaziyat shu darajada halokatli nuqtaga yetdiki, O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligiga erishgandan keyin ham, o'z taqdirimizni o'zimiz hal qilish imkoniyatiga ega bo'lganimizdan so'ng, Vatan tarixini o'qitishga qarshi kurash yo'lini tutuvchilar ham bo'ldilar. Ular o'z «g'oyalari»ni asoslashga intilib, «O'zbekiston tarixini jahon xalqlari tarixi bilan birga qo'shib o'qitish kerak», «O'zbekiston tarixi – bu maktab fani», «Oliy o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixining o'rniga O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy tarixini o'qitish lozim», «Jahon xalqlari tarixini o'qitishga o'tish darakor», «Oliy o'quv yurtlarida, umuman, O'zbekiston tarixini o'qitishga ehtiyoj yo'q», – kabi fikrlarni o'rtaga tashladilar. Albatta, bu milliy g'oyasizlik milliy g'aflat va milliy vijdon inqirozining tub o'zagida o'z ona tarixidan bexabarlik yotadi. Bu esa qullik, tobelik va mustamlaka muteligining asosiy ayanchli ko'rinishidir. Taniqli turk adibi Ziyo Ko'kalning: «Turk asoslari» (T., 1994) risolasidagi quyidagi jumlar shu ma'noda g'oyatda e'tiborga loyiqdir: «Tarix va hozirgi kunning bu shahodatlari bizga shuni ko'rsatadiki, bugun Yevropada milliy vijdonga ega bo'lmagan hech bir qavm qolmadi. Shunga ko'ra, Yevropaning hech bir o'lkasida mustamlaka ta'sis etishga imkoniyat yo'qdir.

Bog'chalardan tortib oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimlarida mazkur fan va bilimlarni o'qitishga muhim siyosiy vazifa sifatida qaralmog'i lozim. Bu esa, o'z navbatida, darsliklar va qo'llanmalarni milliy ma'naviyat nuqtayi nazaridan yangitdan qarab chiqishni taqozo etadi¹».

Prezidentimiz Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ta'kidlaganidek, «Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon – e'tiqodini butun qiladigan, vijdonni uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha kurashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz²».

Vatan ostonadan, inson yashab nafas olib turgan go'shadan, insonning kindik qoni to'kilgan xonadon tuprog'idan boshlanadi. Shu

¹ «Xalq so'zi». 1995-yil, 24-fevral.

² Karimov Islom. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008, 19-20-betlar.

bois, inson ilk bor nafas olib, ulg'ayib voyaga yetgan ona zaminga mehr-muhabbat va sadoqatda bo'lishi, uning har bir hovuch muqaddas tuprog'ini ko'ziga to'tiyodek surtishi, unga nisbatan bir umr farzandlik hissi bilan yashashi uning uchun ham farz, ham qarzdır.

Miloddan avval yashagan yunon adibi Lukianning «Vatan sha'niga» nomli asarida shunday so'zlar bor: «Mening bu gaplarim g'oyat eski gaplardir. Lekin haqiqat shundaki, o'z otasini sevmagan farzand o'zganing otasini ham hurmat qila olmaydi, o'z Vatani sevmagan kishi o'zgarlar Vatani ham qadrlay olmaydi». Ikki ming yildan ortiqroq vaqt o'tgan bo'lsa ham, Lukianning bu gaplari naqadar zamonaviy jaranglaydi. Zero, har birimiz uchun ota va ona naqadar aziz va mo'tabar, naqadar e'zozli va muqaddas bo'lsa, Vatan ham, uning tarixi ham shu qadar aziz va muqaddasdir.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Vatan tarixining barkamol insonni shakllantirishdagi ahamiyatiga yuksak baho berib: «*Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi*»¹, – degan edi. O'tmishni bugun yaratib bo'lmaydi, o'tmish bugunni yarata-di. Tarixdagi har bir ijtimoiy yuksalish jamiyatning o'z merosiga, o'z o'tmishiga bo'lgan munosabatini isloh qilishdan boshlangan. O'tmishga bo'lgan har qanday ijodiy murojaat esa hamisha inqilobiy o'zgarishlarga zamin tayyorlagan, o'tmish aqidalari bugun uchun xizmat qilgan. Biroq o'tmishga murojaat qilishdan avval, unga bo'lgan munosabatni halol, to'g'ri yo'lga solish kerak. Busiz tarixni holisona yaratish mumkin emas. Soat millarini orqaga bur-gan bilan Vatan tarixini to'xtatib yoki qaytarib bo'larmikan, sar-hadi yo'q falakda uchib yurgan buyuklarning ruhlarini o'q uzgan bilan o'ldirib bo'larmikan? «Muhabbatsiz yurakka Vatan sig'maydi. Har bir go'dak, har bir fuqaro o'z davri bilan Vatanni yod etadi. Dardsiz yurakka Vatan sig'maydi. Vatan dardi, Vatan muhabbati bilan yashagan yurakkina insoniyatni sevadi, insoniyat uchun kuyi-nadi», – deydi shoir Xurshid Davron.

Ulug' mutafakkirlar va donolar hamisha Vatanni ulug'lab, ardoq-lab kelganlar. Vatan va millat xoinlari, sotqinlariga qarshi kurashib o't ochganlar. M. A. Sholoxov: «Bizni ona yanglig' oq yuvib, oq taragan Vatanni sevmog' bu muqaddas burchdir», – desa, bobokalon shoirimiz Alisher Navoiy:

¹ Karimov Islom. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. –T.: «O'zbekiston», 1992, 71-bet.

*Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranji g'urbat havas aylama,*

deydi.

Yurtboshimizning: «**Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi**»¹ deb aytgan fikrlari nihoyatda katta metodologik, konseptual ahamiyatga egadir.

Zero, Vatandan tashqarida baxt bo'lmagan va bo'lmaydi ham. O'zgalar yurti, begona diyori hech qachon Vatan bo'lolmaydi. «O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'lgan afzal», – degan naql bejiz aytilmagan. Haqiqiy vatanparvar Vatanning og'ir kunida ham, yengil kunida ham uni tark etmaydi, u bilan birga bo'ladi.

O'zingni Vatanga qanchalar yaqin his etsang, uni shu qadar vujud kabi aniqroq va sevibroq tasavvur qilasan.

Barcha jinoyatlar orasida eng tubani, eng og'iri – bu Vatanga, millatga xiyonat va sotqinlikdir. «O'z yurtidan yuz o'giranlar, o'z vatandoshlaridan ham yuz o'giradilar», – deydi Ya. Galan.

Vatanga, el-u yurtga, millat va xalqqa xiyonat va sotqinlik hayotda turlicha ko'rinishlarda va shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. U ba'zan ochiq-oydin Vatanni, yurt va millatni sotish, xiyonat tarzida, ba'zan esa yashirincha, zimdan va xufiya ko'rinishda sodir etilishi ham ehtimol. O'zining xatti-harakati bilan Vatanga, yurtga va millat sha'niga dog' tushirish ham Vatanga, millatga xiyonatdir. Vatan taqdiri, millat taqdiriga aloqador masala va muammolarga e'tiborsizlik loqaydlik bunday masalalardan o'zini chetga olishlik, qo'rqqoqlik, betaraflik, go'llik va shu singari xatti-harakatlar ham Vatanga, xalq va millatga xiyonat va sotqinlik hisoblanadi. Bu xususda hayotdan juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, o'tish bosqichi davridagi hayotda ma'lum sabablar oqibatida mavjud bo'lgan vaqtinchalik iqtisodiy qiyinchiliklar oldida esankirab, ba'zi bir kimsalarning sobiq SSSRni qayta tiklashni qo'msaganlari O'zbekistonga nisbatan, milliy manfaatimizga nisbatan xiyonat va sotqinlikdir. Chunki bunday shaxslar bilib-bilmay, ongli yoki ongsiz suratda o'z xatti-harakatlari bilan O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini barbod qilishga intilayotgan kuchlar tegirmoniga suv quyadilar, milliy birligimizga rahna soladilar. Yoki

¹ Karimov Islom. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008, 97-bet.

Sovet hokimiyati yillarida O'zbekiston tarixining Rossiya «ulug'» saltanatchiligi tarafida turib soxta bir tarzda yozilishi, maktablarda jahon xalqlari tarixi, SSSR tarixi bayrog'i ostida amalda Rossiya tarixining o'qitilishi hamda Vatan tarixining umuman nazar-pisand qilinmaganligi o'z davrida o'zbek xalqining milliy manfaatlariga xiyonat edi.

«**Vatan tarixi**» mualliflari bir necha ming yilliklarni o'z ichiga olgan ko'hna va qadimiy ona tariximizni imkoni boricha har tomonlama yoritishga harakat qildilar. Zero, nihoyatda boy va qadimiy Vatan tarixini to'laqonli va nuqsonlarsiz yoritish masalasi bosh vazifa qilib qo'yilmadi, buning iloji ham yo'q. Chunki benuqson va kamchiliksiz ona Vatan tarixini bitmoqlik uchun shoir Erkin Vohidovning timsolli badiiy ifodasi bilan aytganda juda katta kuch va idrok kerak:

*Tarixing bitmakka xalqim mingta Firdavsiy kerak,
Chunki bir bor chekkan ohing, mingta doston, O'zbekim.*

Mazkur qo'llanmani yaratishda o'zbek xalqi tarixiga oid yaratilgan asarlar, yozma meroslardan ijodiy foydalanildi. Ayni paytda, ona tariximizni yaratishda beg'araz ilmiy holislik, biror-bir mafkuraning ustuvorligiga sun'iy yo'l qo'ymaslik va tariximizga insonparvarlik ko'zi bilan qarash g'oyasiga amal qilindi. Vatan tarixini o'rganish va yoritishda uning davrlarini ilmiy asosda to'g'ri belgilash ham katta ahamiyatga ega.

Sovetlar hokimiyati yillarida chop etilgan O'zbekiston tarixiga oid asarlar, darslik qo'llanma va boshqa adabiyotlarda, tarixiy obyektiv jarayonlar buzib talqin qilindi va sun'iy tarzda tarixiy davrlar o'ylab topildi. O'zbekiston tarixini davrlarga bo'lishda, K. Marks, F. Engels va Lenin asarlari, KPSS syezdlari, konferensiyalari va partiya markaziy komiteti qarorlari nazariy asos bo'lib xizmat qildi va o'lchov mezoni bo'ldi. Ko'p hollarda, tarixiy davrlarni belgilashda xalqimizning tarixiy o'tmish jarayonlaridan kelib chiqqan holda yondashmasdan Rossiya olimlari asarlaridan ko'r-ko'rona andoza ko'chirildi, Vatanimiz tarixini Rossiya tarixiga moslashtirish yo'lidan borildi.

Akademik A. Asqarovning «**O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi**» kitobi'da, kishilik tarixi o'z taraqqiyot yo'lida 5 marta sivilizatsiya yuksalishlarini boshidan kechirganini ta'kidlab, ana shu sivilizatsiyalarni nomma-nom keltirgan. **Birinchi sivilizatsiya** dast-

lab, miloddan avvalgi III ming yillikda Frot va Dajla, Nil, Sind va Xuanxe daryolari havzalarida yuz berdi. Shuning uchun, u tarixga «Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi» nomi bilan kirdi. **Ikkinchi jahon sivilizatsiyasi**, miloddan avvalgi 1-ming yillikning o'rtalarida Gretsiya va Rimda yuz berdi. U tarixda «Antik davr sivilizatsiyasi» nomi bilan mashhur. **Uchinchi sivilizatsiya** o'chog'i Movarounnahr va Xuroson bo'lib, ushbu hududlarda u milodiy IX–XIII boshlarida yuz berdi va uning ta'sirida G'arbiy Yevropa uyg'ondi. Rivojlangan o'rta asrlar davriy doirasida **to'rtinchi jahon sivilizatsiyasi** Movarounnahrda, Amir Temur va temuriylar saltanatidan boshlanib, XV–XVII asrlar davomida butun Yevropa va Osiyoga yoyildi, ya'ni Amir Temur saltanatining shon-shuhrati Yevropaga buyuk Uyg'onish davri madaniyatini olib keldi. Nihoyat, **beshinch** **sivilizatsiya** jamiyat rivojining barcha jabhalarini qamrab olgan XX asr sivilizatsiyasidir¹.

A. Asqarov shunday yozadi: «Jamiyatda yuz beradigan tub o'zgarishlar hisobga olingan holda, birinchidan, har bir tarixiy davrda jamiyat iqtisodiy asosini harakatlantiruvchi kuchlari kimlar edi? Ikkinchidan, jamiyatda mulkka egalik qilishning xarakteri qanday bo'lgan? Uchinchidan, jamiyat ijtimoiy hayotining ma'naviy asosini qanday mafkura tashkil etgan? Kishilik jamiyati tarixi qanday davrlashtirilishi kerak?»² Olim ana shu 3 omilga tayangan holda O'rta Osiyo tarixini davrlashtirish, uning yuragi, ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan O'zbekiston tarixini 7 ta xronologik davriy tizimda ko'rish mumkin degan xulosani ilgari surdi. Ular quyidagilardir: **1. O'zbekistonda «ibtidoiy to'da davri»;** **2. O'zbekistonda «ibtidoiy urug'chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri»;** **3. O'zbekistonda «Ilk o'rta asrlar davri»;** **4. O'zbekiston tarixining «O'rta asrlar davri»;** **5. O'zbekiston tarixining «Mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri»;** **6. O'zbekiston tarixining «Sovetlar davri»;** **7. O'zbekiston tarixining «Milliy istiqlol, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish davri».** Bu katta davrlarni o'z navbatida bir necha kichik davrlarga bo'lib o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Vatan tarixini yoritishda qaysi manbalar asos bo'lganligi ham g'oyat katta o'rin tutadi. Sovet hokimiyati yillarida yozilgan O'zbekistan tarixiga oid adabiyotlar uchun marksizm-leninizm klassiklarining asarlari, KPSS hujjatlari, Kommunistik partiya

¹ Karimov Islom. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008, 70–77-betlar.

² O'sha asar.

va Sovet davlati rahbarlarining ma'ruza, nutq, maqola va asarlari, Rossiya, Rim tarixchilari, adiblari va olimlarining asarlari asosiy manbaa bo'lib xizmat qilgan. Tariximiz va madaniyatimizning durlari hisoblangan Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Narshaxiy, Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Xondamir, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Muhammad Haydar va boshqa juda ko'plab dunyoga mashhur al-loma va mutafakkirlarning qimmatli asarlari va meroslari esa deyarli e'tibordan chetda qolgan. Vatan tarixini yaratish va o'rganishda quyidagi manbalar asos bo'lishi lozim:

1. Arxeologik va etnografik manbaa va materiallar, «Avesto», mixxat yozuvlari qadimgi yunon, xitoy, hind, fors, rim va Vizantiya tarixchilarining qo'lyozma asarlari.¹

2. Qadim zamonlardan to shu kunlarga qadar ulug' ajdodlarimiz, buyuk allomalar va dono mutafakkirlar, shoirlar, yozuvchilar qoldirgan ma'naviy boy asarlari.

3. Turli hujjatxonalarda saqlanayotgan qo'lyozma asarlar, hujjatlar, ashyolar.

4. Kutubxonalarda saqlanayotgan yozma kitoblar, ilmiy, badiiy, memuar asarlar, darsliklar, qo'lyozmalar, risolalar, to'plamlar.

5. Har xil muzeylarda saqlanayotgan ko'rgazma zallari hujjatlari, birinchi navbatda arxeologiyaga oid qazilma yodgorliklari.

6. Muzey-shaharlar, tarixiy obidalar, yodgorliklar.

7. Kino, fono, foto hujjatlar va hokazolar.

Ona Vatanimiz tarixining nomlanishi masalasida ham olimlar o'rtasida turlicha fikr va qarashlar bor.

Ko'plab fikr-mulohazalarni hisobga olib ona tariximizni «**Vatan tarixi**» deb atashni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Bu nom Turon zaminida – O'rta Osiyo tuprog'ida yashab kelayotgan barcha turkiy xalqlar va qavmlarning talab-ehtiyojlariga to'la javob beradi, deb o'ylaymiz. Chunki ikki daryo oralig'i va uning atrofidagi barcha yerlar – O'rta Osiyo, bu hududda azal-azaldan yashab kelayotgan o'zbek, qirg'iz, qozoq, tojik, turkman va qoraqalpoq degan nomlar bilan atalib kelayotgan barcha xalqlarning vatani. Darhaqiqat, bu xalqlarning azal-azaldan tuprog'i, vatani, tarixi, madaniyati, urf-odati, tili, dini bir bo'lgan ekan, ayni shunga monand va mushtarak

¹ Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. Terma parchalar. –T.: «YURIST MEDIA-MARKAZI», 2008.

suratda istiqboldagi taqdiri ham, tarixi ham birdir. Istiqbolda ulug' va buyuk maqsadni ro'yobga chiqarishga intilayotgan bu diyordagi, Turkistondagi xalqlarning dushmanlari ham, ularning istiqloq uchun kurashiga to'sqinlik qiladigan va unga qarshi bo'lgan raqiblari ham umumiy – birdir. Bas, shunday ekan, O'rta Osiyo hududida yashab kelayotgan barcha xalqlar ulug' va mushtarak baxt-saodatga faqat o'zaro mustahkam birlik va hamkorlik orqaligina yetisha oladilar. Vatan tarixi fani oldida quyidagi dolzarb masalalar turadi:

Bunda «Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur, – deb ko'rsatdi I. A. Karimov – Bu xazina asrlar davomida misqolab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish»¹. Ayni ana shu ma'naviy boyligimizning durdonalaridan, tamal toshlaridan biri – milliy tariximizdir. Prezidentimiz iborasi bilan aytganda, biz yoshlarni vatanimizning chin tarixi bilan qurollantirishimiz, qurollantirishimiz va yana qurollantirishimiz lozim.

Birinchidan, Vatan tarixi fani yosh avlod ongida g'oyaviy-siyosiy, nazariy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirishi lozim, voqea va hodisalarga tarixiy nuqtayi nazardan yondashadigan, har tomonlama yetuk barkamol insonni tarbiyalashi kerak.

Ikkinchidan, Vatan tarixi fani mustaqil O'zbekiston yoshlari ongida milliy vijdon uyg'onib shakllanishiga ko'maklashadi. Yoshlar ajdodlarimizning taraqqiyot yo'lining tarixiy tajribasini o'rgangandagina, ularda istiqloq tafakkuri, hozirgi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy turmushni o'tmish bilan qiyoslash va kelajakka nazar solish malakasi shakllanadi, milliy jihatdan uyg'onadi. Milliy o'zlikni anglamasdan, milliy tafakkurni shakllantirmasdan turib, baynalmilalchilik haqidagi har qanday g'oya va qarashlar mantiqiy asosga ega emas.

Uchinchidan, Vatan tarixi fani yoshlarimizni otashin harbiy va tanparvarlik an'analari ruhida tarbiyalaydi. Tarix fanining deyarli har bir mavzusi bu borada boy imkoniyatlarga egadir.

To'rtinchidan, Vatan tarixi yosh avlodni ulug' xalqimizning oliyjanob milliy qadriyatlari va axloqiy fazilatlarini: halollik va poklik, odillik va adolatlilik insonparvarlik va rostgo'ylik, mehnatsevarlik va kamtarlik, iymonlik va e'tiqodlik ruhida tarbiyalamog'i kerak. Vatan va xalq oldidagi burchga sadoqatni qaror toptirmog'i darkor.

¹ Karimov Islom. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008, 78-bet.

Beshinchidan, Vatan tarixi fani yoshlarimizni baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash quolidir. Yoshlarimiz bu fanni o'qish, o'rganish va mutolaa qilish jarayonida O'zbekiston jahon hamjamiyatining ajralmas tarkibiy qismi va bir bo'lagi ekanligini tushunib oladilar. O'zbekiston azaldan ko'p millatli mamlakat ekanligi, o'zbek xalqi va buyuk allomalarimiz, fan va madaniyat arboblarning jahon taraqqiyotiga qo'shayotgan munosib hissasi bilan qonuniy suratda faxrlanadilar.

Vatan tarixini yoritishning metodologik asoslari va tamoyillari

Vatan tarixi fanini yaratish va uni yosh avlodga o'qitish va o'rgatish bo'yicha birdan-bir to'g'ri nazariy, ilmiy va uslubiy asoslarni ishlab chiqish nafaqat tarixiy, balki amaliy, hayotiy ahamiyatga ham egadir. Sovetlar hukmronligi davrida barcha fanlarda bo'lgani singari tarix fanining ham nazariy-ilmiy va uslubiy asosi qilib, marksizm-leninizm olindi. Natijada, tarixiy jarayonga baho berishda xolislik, haqqoniyatlik, ilmiylik o'rnini shaxsiyatparastlik va bir tomonlama baho berishlik egalladi. Bu hol tarix fanining fan sifatida ahamiyatining so'nishiga olib keldi va u arboblarning va siyosatdonlarning qo'g'irchog'iga aylanib qoldi. Vatan tarixi fani yoshlarimizning g'oyaviy-siyosiy dunyoqarashini shakllantirishda quyidagi nazariy-ilmiy asoslarga suyanmog'i kerak:

Birinchidan, Vatan tarixini o'qish va o'rganish jarayonida yoshlarda tarixiy bilimlar, ilmiy-nazariy tushunchalar va tasavvurlar shakllanmog'i lozim. Chunki, voqea va hodisalarni bilmasdan, ular haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'lmasdan turib, g'oyaviy-siyosiy dunyoqarash milliy g'oya mustaqillik mafkurasi haqida gap yuritish mumkin emas.

Ikkinchidan, Vatan tarixini yoritish, o'qitish va o'rganish jarayonida chuqur ilmiylik, xolislik, tarixiy haqiqatning ustuvorligi, asosiy va bosh yo'nalish bo'lishi lozim.

Uchinchidan, Vatan tarixining har bir satri, har bir varag'i milliy qadriyatlarga hurmat ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi va milliy istiqlol tafakkuri va mafkurasining kamol topishiga xizmat qilishi darkor.

To'rtinchidan, Vatan tarixining boshidan oxiriga qadar singib ketgan asosiy g'oya - otashin vatanparvarlik, baynalmilalchilik, insonparvarlik kabi ulug' fazilatlariga qaratilmog'i kerak.

Beshinchidan, Vatan tarixi mustaqil siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy qadriyatning yanada mustahkamlanishi va ravnaq topishiga xizmat qilishi, davr va zamon bilan hamnafas bo'lmog'i ayni mud-daodir.

O'zbekiston tarixi fanining predmeti

Tarix – tabiat va jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayonini aks ettiruvchi fandır. Tarix ikki qismdan iborat bo'lib, uning birin-chisi tabiat tarixi, ikkinchisi jamiyat tarixidir. Tarix – insoniyat va uning mahsuli bo'lgan tamaddunlar rivoji, jamiyat va davlatlar o'tmishi, taraqqiyotini o'rganuvchi fandır.

O'z navbatida, har bir mamlakat va uning xalqi uzoq va yaqin, o'ziga xos, betakror tarixiga egadir. Shu jumladan, O'zbekistonning ham o'z tarixi bor. O'zbeklarning milliy tarixi ham g'oyatda boy, sermazmun, salobatli, jozibalidir. Tur, Turon, Turk, Turkiston, Movarounnahr, deb atalgan bu aziz yurtimiz tarixiy yozma va arxeologik manbalarda Xitoy, Hindiston, Eron, Misr, Rim kabi qadimiy va buyuk mamlakatlar qatori azal-azaldan dunyoga mashhur bo'lib kelgan.

Turk qavmlari turkiylar orasidagi eng qadimiy qavmlardandir. Turon (Turkiston) davlati barcha turkiy davlatlar ichida ilk bor tashkil topgan. Bu o'rinda Amir Temur shunday aytgan:

*Biz kim - Mulki Turon,
Amiri Turkistonmiz.
Biz kim – mamlakatlarning
Eng qadimi va eng ulug'i,
Turkning bosh bog'inimiz!*

«Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zaminda ne-ne buyuk zotlar, olim-u ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng

¹ Boboyev Halimboy. O'zbek davlatchiligi tarixi. 1- kitob. –T.: «Fan». 2004, 30–31-betlar.

yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib, kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftihor bag'ishlaydi»¹, – deb yozadi Prezidentimiz Islom Karimov.


Ana shunday qadimiy va buyuk mamlakat deb atalmish, Vatanimizning tarixini, tabarruk zaminimizda ko'p ming yillar davomida yashab, kurashib, bunyodkorlik va ijod qilib kelayotgan xalqimiz o'tmishini, ayni O'zbekiston, Vatan tarixi fani o'rgatadi. Bu fanning predmeti O'zbekiston sarhadlaridagi xalqlarning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargacha bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, buyuk bunyodkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy hayotini xolisona o'rganishdan, tushuntirishdan iboratdir.

Bu fan predmeti doirasiga avlod-u ajdodlarimizning turmush tarzi, bosqinchilariga qarshi kurashi, yurt mustaqilligi uchun tinimsiz jang-u jadallari, uzluksiz mehnat faoliyati, dini, yozuvi, ilm-u fani, adabiyoti va san'ati kiradi. Shuningdek, O'zbekiston tarixi fani o'zbeklarning elat, millat bo'lib shakllanish jarayonini, ajdodlarimiz milliy an'analarini, ularning ichki va tashqi siyosatini o'rgatadi. Vatan tarixida xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi, istiqlol yo'llarida milliy, huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini yaratish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish, jahon hamjamiyatidagi tutgan o'rni va rolini o'rgatadi.

Vatanimiz tuprog'ida sodir bo'lgan tarixiy voqealar va jarayonlarni aks ettirgan manbalarsiz chin tarixni bayon etish, yaratish mumkin emas. Shu bois, har qanday tarix mustahkam, asosli manbaviy bazaga asoslanib yoziladi, tahlil etiladi. Tarixiy manbalarning ikki turi bo'lib, ularning biri moddiy manbalar, ikkinchisi esa yozma manbalardir.

Moddiy manbalarga, ajdodlardan bizgacha yetib kelgan mehnat qurollari, idish-tovoqlar, tanga-pullar, vasiqalar, muhrlar, harbiy qurol-aslahalar, uy-joylar, qal'alar, shaharlar xarobalari, qabrlar qoldiqlari, rasmlar, me'morchilik obidalari, masjid va madrasalar, sug'orish inshootlari, ko'prik va yo'llar, kiyim-kechaklar va boshqa moddiy narsalar kiradi. Bu singari moddiy tarixiy manbalar qoldiqlari arxeologlar tomonidan ko'plab miqdorda topilgan.

¹ Karimov Islom. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 30-bet.



Ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik), savdo-sotiq munosabatlari yuzaga kelib rivoj topgan sivilizatsiya davri tarixini o'rganishda yozma manbalar birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Akademik Abdulahad Muhammadjonovning yozishicha, ...bu davr manbalarining soni va sifati kishilik jamiyatining ma'naviy kamoloti, xususan, yozuv va xat-savodning yuksaklikka qanchalik tarqalgani va yozma manbalarning saqlanish holatiga bog'liq bo'lgan. Shu boisdan, bizning davrimizgacha, ayniqsa, qadimgi yozma manbalar oz saqlangan bo'lsa, keyingi tarixiy davrlar uchun xos hisoblangan tosh, sopol, taxtaga va qog'ozga bitilgan, shuningdek, bosma asarlar keng tarqalgan. Manbalar shartli ravishda 8 turkumga bo'linadi: yozma, ashyoviy, etnografik, lingvistik, toponimik, og'zaki (folklor), kino, fono va fotomateriallar.


Vatanimiz tarixini o'rganishda yunon va rim, xitoy, turkiy, fors, arab, rus manbalarining ahamiyati benihoya kattadir. Ayniqsa, o'zbek xalqining o'rta asrlardagi tarixini o'rganishda mahalliy muarrixlarimiz tomonidan bitilgan nodir kitoblar muhim tarixiy manba bo'lib, xizmat qiladi.

Ayni vaqtda, yetakchi zamonaviy tarixchi olimlarimiz tomonidan mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar, o'quv qo'llanmalar, darsliklar, monografik tadqiqotlar, hujjat va materiallar to'plamlari Vatan tarixini yangicha ruhda yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu manbaa va asarlarning eng muhimlari «Vatan tarixi»ning I,II,III kitoblarining oxirida, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bo'limida berilmoqdaki, ularni o'qish, o'rganishni muhtaram talabalarga tavsiya etamiz.

Nazorat savollari

1. Prezidentimiz Islom Karimovning «Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir» asarida O'zbekiston tarixiga oid qanday metodologik, konseptual g'oyalar ifodalangan?
2. Tarix so'zining ma'nosini qanday tushunasiz?
3. Sovet tarixshunosligida Vatanimiz tarixiga bo'lgan e'tibor qanday edi?
4. Milliy istiqlolning Vatanimiz tarixida tutgan o'rni va ahamiyati nimalardan iborat?
5. Vatan deganda nimani tushunasiz?
6. Milliy g'oya va mafkurani yoshlarimiz ongiga singdirishda Vatan tarixining o'rni va ahamiyati qanday?
7. Vatan tarixi fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

8. Moddiy va ma'naviy manbalar va ularning qanday turkumlarini bilasiz?
9. Vatan tarixining sovet davridagi metodologik asoslari nimalardan iborat edi?
10. Vatan tarixining mustaqillik davridagi metodologik asoslari nimalardan iborat?
11. Vatanimiz tarixi qanday tarixiy davrlarga bo'linadi?



I B O B**O'RTA OSIYO IBTIDOIY TARIXINING DAVRI VA
BOSQICHLARI. IBTIDOIY TARIXNI DAVRLASHTIRISH****1. O'ZBEKISTON HUDUDIDA ENG QADIMGI
ODAMLARNING IZLARI**

O'rta Osiyo hududi dunyoning eng qadimgi odamlari yashagan makon bo'lganligi yuqorida ta'kidlandi. Ammo, bu hududda odamzodning dastlabki avlodlarining paydo bo'lganligiga necha yil bo'ldi, degan savolga olimlar turli xilda javob berib keldilar. Ba'zi manbalarda dastlabki odam izlari bundan 500 ming yil ilgari topilgan deyilsa, boshqalarida 800 ming yil sanasi tilga olinadi. Arxeologlarning eng so'nggi xulosasiga ko'ra, eng qadimgi odamsimon maymunlar ajdodi hisoblangan zinjantroplardan keyin paydo bo'lgan pitekantroplar bundan I million yil ilgari yashaganlar. Biroq na zinjantroplarning va na pitekantroplarning izlari mamlakatimiz hududida shu paytga qadar uchragan. Bundan 500–600 ming yillar burun yashagan odam ajdodining izlari Xitoydan topilgan. Olimlar uni sinantrop yoki lantyan odami, deb ataganlar. Ular, asosan, g'orlarda yashaganlar. Sinantrop davridan boshlab, odam birinchi marta olovni kashf etdi va undan o'z hayotida foydalana boshladi. olimlarning fikricha, ana shu «Sinantroplarga zamondosh ibtidoiy odam izlari» O'rta Osiyoning bir necha joylarida uchraydi. Bu davrda odamlar hali to'da-to'da bo'lib yashar edilar. Ularning kundalik tirikchiliklari, asosan, yovvoyi daraxtlarning mevalari, o'simlik ildizlari, qurt-qumursqa, mayda jonivorlardan iborat bo'lgan. Odamlar birgalashib yirik hayvonlarni ham ov qilganlar. Ammo bu ish o'ta xavfli bo'lib, ko'p hollarda fojiali oqibatlariga olib kelardi.

Bu davrda odamlar hali metall ishlatishni bilmaganlar, ular oddiy maxsus toshlardan, yirik hayvonlarning suyaklaridan, shoxlaridan va daraxtlarning qattiq shoxlaridan mehnat quroli sifatida foydalanaganlar. Shu sababdan ham bu davrni «Qadimgi tosh davri», ya'ni paleolit davri deb yuritiladi. Paleolit davri uch bosqichdan iborat: ilk paleolit, o'rta paleolit va yuqori paleolit.

Ilk paleolit davrining diqqatga sazovorligi shundaki, bu davrda odamlar va ularning dastlabki mehnat qurollari paydo bo'ldi. Achinarli tomoni shundaki, tosh qurollaridan boshqa mehnat qurollari bizgacha yetib kelmagan. Insonning ilk bor ishlatgan mehnat qurollari chopperlardir.

Bu davrning tosh qurollari arxeolog olimlar tomonidan yetarli darajada va yaxshi o'rganilgan. Bu mehnat qurollari dastlabki mehnat quroli topilgan makon – joy nomi bilan ashel' (Farangiston) qurollari deb nom olgan. Olimlarning ilmiy xulosalariga qaraganda, ashel' davri bundan bir million yil burun boshlangan va miloddan avvalgi 200–100 minginchi yillargacha davom etgan. Bu davrda yer kurrasida bir qator tabiiy geografik o'zgarishlar yuz berdi. Himolay, Tibet, Pomir va Tyanshan singari baland va osmono'par tog'lar qad ko'tardi. Geologlarning hisobiga ko'ra, tabiatning yozi issiq, qurug' va qishi sovuq, yog'ingarchilik kam bo'lgan. Natijada, O'rta Osiyoning hozirgi cho'l va dashtlari shakllangan, shu sharoitga moslashgan hayvonot dunyosi vujudga kelgan, o'simliklar olami qaror topgan. Ashel davrining oxirlarida havo keskin soviy boshlagan, tog'larda yirik muzliklar vujudga kelgan, ular vaqt-vaqti bilan goh ko'payib, goh kamayib turgan. Yangi-yangi daryolar vujudga kelib, Chu, Sarisuv, Qashqadaryo va Zarafshon daryolarida suv ko'p bo'lgan. Chu bilan Sarisuv Sirdaryoga, Qashqadaryo bilan Zarafshon Amudaryoga quyilgan. Pasttekisliklarda esa uzluksiz yomg'ir yog'ib turgan. Havo goh sovib, goh isigan. Natijada, o'simliklar dunyosida ham o'zgarishlar yuz bergan. Cho'l mintaqasiga xos o'simliklar katta-katta maydonlarni egallaydi. O'rta Osiyo mintaqasida bu davrda mastodont o'rmon fili, ibtidoiy ot, qadimgi tuya, bizon, qoplon, kiyik, g'orda yashovchi sirtlon va mamont kabi hayvonlar yashagan. Tabiatdagi bunday o'zgarishlar mintaqaning ayrim tumanlarida ilk ajdodlarimizning makon topishiga imkon bergan. O'rta Osiyo xalqlari tarixi juda qadimiy ekanligini biz yuqorida ta'kidlab o'tdik. Bu zaminda yashagan ajdodlarimiz tarixi qadimgi tosh davrining ashel bosqichiga (bundan 1 million 200 ming yil oralig'i) borib taqaladi. Bu davrga tegishli arxeologik obidalar O'zbekiston hududlarida Farg'ona vodiysining Sux tumanidagi Selung'ur g'oridan va Toshkent viloyatining Angren shahri yaqinidagi Ko'lbuloq makonlaridan topib o'rganildi. Selung'urda hatto ilk ajdodlarimizning mehnat qurollari bilan birga odam suyaklari qoldiqlari ham topilgan. U tarixda Fergantrop nomi bilan ma'lum bo'lib, uning yil sanasi

1 million yil, hatto, undan ham qadimiyroq sana bilan belgilanmoqda.¹ Bu borada arxeolog olimlar A. P. Okladnikov, U. Islomov, M. R. Qosimov, V. P. Alekseyev, T. K. Xo‘jayovlarning xizmatlari kattadir. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi O‘. Islomov Selung‘ur g‘orida arxeologiyaga oid takroriy ishlar olib borib (birinchi marta bu ishni 1958-yilda akademik A. P. Okladnikov boshlagan) yangi kashfiyotlar qildi. U g‘ordan topilgan tosh qurollari va hayvon suyaklarini chuqur o‘rganib, Selung‘urda yashagan ajdodlarimiz g‘orni qadimgi tosh davrining yuqori paleolit bosqichida emas, balki ashel davrining birinchi bosqichida o‘zlashtirganliklarini isbotladi. Selung‘ur qalinligi 30 smdan 1 metrgacha bo‘lgan 5 ta madaniy qatlamlardan iborat. Bu qatlamlardan tabiiy jins parchalari va siniqlaridan tayyorlangan qo‘l chopqisi, to‘mtoq boltalar, pichoqsimon va tishli hamda qush tumshug‘iga o‘xshash qurollar topilgan. Shuningdek, madaniy qatlamlardan 32 turdagi sut emizuvchi hayvonlarga tegishli bo‘lgan 5 mingdan ortiq suyak qoldiqlari tadqiq etilib, Selung‘ur hayvonot dunyosi majmuasi qayta tiklangan². Bu qatlamlardan juda ko‘plab ibtidoiy tosh qurollar topilgan. Bu qurollar ko‘p hollarda, Olduvay qurolariga o‘xshab ketadi.

O‘. Islomov o‘zi ochgan kashfiyotga suyanib, Selung‘ur g‘orida yashagan ajdodlarimizning yoshi yaqin bir million yil atrofida degan xulosaga keldi. Selung‘ur odamining qoldiqlari Farg‘ona vodiysi hududidan topilganligi sababli unga shartli suratda **«Fergantrop»**, **ya‘ni «Farg‘ona odami»**, – **degan nom qo‘yildi**.

Biz yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, bu davrga oid yodgorliklar Ko‘lbuloq makonidan (Toshkent viloyati) ham ko‘p qatlamli yodgorlik ochilgan bo‘lib, uning eng pastki qatlamlari ilk paleolit davriga oiddir. Shuningdek, Qizilolmasoy va Toshsoy (Ohangaron) makonlaridan ham ilk paleolit qatlamlari ochilgan hamda bu yerdan 100dan ziyod chopper, nukleus, qirg‘ich va tarashlagich tosh qurollari topilgan.

Ko‘lbuloqda 1993–1998-yillarda o‘zbekistonlik arxeologlarning chet ellik hamkasblari bilan qo‘shma ishlari natijasida paleolitning barcha bosqichlariga oid ko‘plab madaniy qatlamlar, xususan, ilk paleolitga oid 22 ta, o‘rta paleolitga oid 24 ta, so‘nggi paleolitga oid 3 ta madaniy qatlam aniqlandi. 2007-yilda qazishmalar qayta bosh-

¹ *Asqarov A.* O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –T.: O‘zbekiston, 2015, 91-b.

² *Eshov B., Odilov A.* O‘zbekiston tarixi. I jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o‘rtalarigacha. –T.: Yangi asr avlodi, 2014, 39-b.

lanib, Qizilolmasoyda tadqiqotlar davom ettirildi. Yangi tadqiqotlar natijasida topilgan moddiy madaniyat buyumlari qadimgi tosh davri industriyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlariga yanada aniqlik kiritish imkoniyatini berdi. Tadqiqotchilar Tyan-Shan etaklaridagi Onarcha (Qirg'iziston) makonidan hamda Pomir etaklaridagi Qoratov (Janubiy Tojikiston) makonlaridan ham ilk paleolit davri qatlamlarini aniqlab, bu qatlamlardan juda ko'plab tosh qurollar topganlar. Ilk paleolit davri odamlari toshdan qurol yasash jarayonida bu qurollarni takomillashtirib, o'zlari ham rivojlanib borganlar. Bundan, 500 ming – 1 mln. yil ilgari o'ziga xos ibtidoiy madaniyat yaratgan, oddiy tosh qurol – cho'qmor yasash orqali kishilik madaniyatiga asos solgan odamlar o'zlari yashash uchun qulay bo'lgan hududlarga o'rnatadilar. Ularning faoliyati izlari hozirgi kunda noyob moddiy yodgorliklar hisoblangan makonlar va ulardagi madaniy qatlamlarda qoldirilgan. O'rta Osiyo, jumladan, hozirgi O'zbekistonning geografik sharoiti ibtidoiy odamlarning yashashi hamda turmush tarzi uchun qulay bo'lganligini ham ta'kidlash lozimdir. Ilk paleolit (Ashel madaniyati) davri eng qadimgi odamlarning makonlaridagi topilmalarda sodda va qo'pol tosh qurollar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu davr kishilarining qurollari o'zining soddaligi, qo'polligi, turlarining kamligi jihatidan keyingi davrlardan keskin farqlanadi. Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqli jihatdan ham hozirgi qiyofadagi aql-idrokli odamlardan ajralib turadilar. Ular, asosan, termachilik va ovchilik bilan tirikchilik o'tkazganlar hamda tabiat oldida juda o'jiz bo'lib, unda mavjud bo'lgan tayyor mahsulotlarni o'zlashtirib yashaganlar.

Qadimgi tosh davri (paleolit)ning o'rta bosqichi (bundan qariyb 100–40 ming yil avval) arxeologiya fanida Muste davri deb ataladi. Bu davrda muzlanish keng tarqala boshlagan, iqlim sharoiti ancha yomonlashgan. Bu hol ibtidoiy odamlarni tabiat kuchlariga qarshi kurashga va himoyalashga majbur qilgan. Ular ilgarigidek yirik hayvonlarni ovlaganlar; olov chiqarishning turli yo'llarini ixtiro qilganlar; turli sharoitlarda yashash uchun o'zlariga boshpanalar izlaganlar. Bu davrda yangi mehnat qurollaridan qo'l cho'qmori paydo bo'lgan. To'da-to'da bo'lib yurish bu davrda ham davom etgan. Insoniyat tarixi shajarasida bu davrning odami «neandertal odami» nomi bilan yuritiladi. O'rta paleolit davriga oid makonlar O'rta Osiyo hududlaridan topib o'rganildi. O'rta Osiyo hududining 300 dan ortiq joylaridan o'rta paleolit davriga oid ma-

konlar topilgan. Jumladan, Surxondaryo (Teshiktosh), Samarqand (Omonqo‘ton, Qo‘tirbuloq, Zirabuloq, Xo‘jamazgil deb nomlangan buloq yoqalari), Toshkent (Obirahmat, Xo‘jakent, Ko‘lbu‘loq yoqasidagi Paltov nomli ungur va g‘orlarida), Navoiy (Uchtut) hududlari, qo‘shni Tojikiston (Qorabura, Jarqo‘rg‘on) va Qirg‘iziston (Tossar va Georgiy do‘ngligi) hududlaridan o‘rta paleolit, ya‘ni muste davriga oid yodgorliklar juda ko‘plab topilgan. Xususan, 1938-yilda Boysun tog‘ining Teshiktosh deb atalgan g‘oridan topilgan yodgorliklar alohida qimmatga egadir. Teshiktosh g‘ori shimoli sharqqa qaragan bo‘lib, kengligi 20 m, balandligi 9 m, chuqurligi 20 m. Bu yerdan arxeologlar beshta madaniy qatlamni aniqlaganlar.

Bu yerda o‘tkazilgan arxeologiyaga oid izlanish natijasida ko‘pgina ashyoviy dalillar bilan bir qatorda g‘or devorining ostidan 9 yashar bolaning qabri topilgan. Undagi suyak qoldiqlari mayitning chalqanchasiga yotqizilgani va qabr atrofi arxaik shoxlari, hayvon suyaklari, shoxlari, shuningdek, 3 mingdan ortiq tosh qurollar topiladi. Bundan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, neandertal odamlarining asosiy mashg‘uloti – hayvon ovi bo‘lgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, teshiktoshliklar o‘zlari uchun muqaddas hisoblangan hayvon shoxlari bilan bolalarini o‘rab, «narigi dunyoga» jo‘natganlar. Bu hol neandertal odamlar yashagan zamonda asta-sekinlik bilan diniy tasavvurlarning dastlabki belgilari paydo bo‘la boshlaganligini ko‘rsatadi. O‘rta paleolit davridayoq dastlabki diniy e‘tiqodlar va marosimlar kelib chiqqan: animizm (ruhga sig‘inish, insonlarni o‘rab turgan muhitda jon va ruhlar borligiga ishonish), fetishizm (portugalcha «feitico», fransuzcha «fetiche» – sehrli narsa, tumor predmetlarni muqaddas bilish va ularni omad keltiradi, deb tasavvur qilish. Jonsiz narsalar – fetishlarga sig‘inish), totemizm (Shimoliy Amerika indeyslarining «Ojibve» qabilasi tilidagi «o totem» – «uning urug‘i» so‘zidan) ibtidoiy diniy e‘tiqodning ilk shakllaridan biri. Hayvonlar, o‘simliklar, jonsiz predmetlar – yuqoridagi diniy e‘tiqodlarning namunasi hisoblanadi. Totemlar ko‘pincha hayvonlarni muqaddas sanab ularni o‘ldirishmagan, ular go‘yo kishilarning qudratli himoyachisi hisoblangan, magiya (sehrgarlik) shular jumlasidandir.

Teshiktosh g‘oridan topilgan arxeologiyaga oid ma‘lumotlarni chuqur o‘rganish asosida uning yoshi aniqlandi va olimlar bu ashyolar muste davrining ilk bosqichiga tegishlidir, deb xulosa chiqardilar.

Toshkent viloyatidagi Obirahmat makoni (1962-yilda ochilgan, g‘or yaqinidagi buloq nomi bilan nomlangan) Tyanshan-Chotqol

tizmasidagi Paltov soyining yuqori oqimidan topilgan. G'or-makon yoysimon shaklda bo'lib, janubga qaragan, sahni keng, quruq va yorug'. G'orda 10 metr qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam aniqlangan bo'lib, ushbu qatlamlar qadimgi odamlar bu yerda uzoq vaqt yashaganlaridan dalolat beradi. Madaniy qatlamlardan ohak toshli chaqmoq toshdan yasalgan xilma-xil mehnat qurollari, jumladan, nukleuslar, parrakchalar, o'tkir uchli sixchalar, qirg'ichlar va kurakchalar, uchrindidan tayyorlangan kesgichlar topilgan bo'lib, ularning umumiy soni 30 mingdan oshadi. Shuningdek, Obirahmatdan hayvon suyaklaridan yasalgan bigizlar hamda bug'u, tog' echkisi, to'ng'iz, jayron, arxar va boshqa hayvonlarning suyaklari, gulxan, kul, ko'mir va boshqa narsalar qoldiqlari ham topilgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Obirahmatda qadimgi odamlar miloddan 120–40 ming yil ilgari yashab, terim-termachilik va yovvoyi hayvonlarni ovlab tirikchilik qilganlar. Obirahmatda tadqiqotlar yangidan boshlanib, 2003-yilning yozida arxeologlar g'or-makondan zamonamizdan kamida 50 ming yil muqaddam yashagan qadimgi odamlarning suyak qoldiqlarini topdilar. Bu yerdan topilgan qadimgi odam suyaklari faqat O'zbekiston emas, balki Markaziy Osiyo qadimgi tosh davri uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki topilgan kalla suyagi va tishlar hozirgi zamon odamining neandertal odami bilan omuxtalashganligini namoyon etadi. Shuning uchun ham uning ko'pgina morfologik jihatlari noyob bo'lib, paleoantropologik jihatdan o'xshashi deyarli yo'q. Undan tashqari, bu topilma yaqin-yaqinlargacha ehtimoldan uzoq deb hisoblab kelinganligiga dalildir. Ushbu qadimgi odam suyak qoldiqlari qadimgi tosh davri O'rta Osiyo aholisi tashqi qiyofasiga yanada aniqliklar kiritish uchun muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Topilmalari bilan mashhur bo'lgan Qo'tirbuloq makoni Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on hududlaridan topilgan. Tadqiqotlar natijasida makonda 5 ta madaniy qatlam aniqlangan. Qatlamlarning qalinligi har xil bo'lib, ulardagi topilmalar ham bir xilda tarqalmagan. Bu qatlamlarda o'tkir uchli paykonlar, qirg'ichlar, teshkichlar, ikki tomoniga ishlov berilgan bargsimon qurollar va boshqa turli-tuman tosh qurollar topilgan. Bundan tashqari, Boysun tog'idagi Amir Temur g'ori, Toshkent vohasining Xo'jakent, Bo'zsuv, Ko'lbuloq makonlari, Farg'ona vodiysidagi Jarqo'ton, Bo'ribuloq, Tomchisuv yodgorliklari, Zarafshon vohasidagi Omonqo'ton, To'rdara, Qo'tirbuloq makonlari ham o'rta paleolit davriga oiddir.

Qadimgi tosh davrining so‘nggi bosqichi bundan 35–40 ming yil ilgari boshlangan va milodimizdan ilgarigi 12–10 ming yillikkacha davom etgan. Bu davr tarixda yuqori paleolit nomi bilan ataladi.

Arxeologlar esa bu davrni o‘sha davrga oid topilgan arxeologik yodgorliklar tosh qurollarining eng ko‘p namunalari topilgan Fransiya hududidagi Solyutre, Madlen, Orinyak manzilgohlari nomlari bilan atashadi.

Bu davrda hozirgi zamon odami (kromanyon) shakllandi. Toshni yo‘nish usullari (retusha qilish, sindirib olish, o‘tkirlash) takomillashdi. Mehnat qurollari prizmati, konussimon nukleuslardan ajratib yoki sindirib olingan plastinkalar asosida tayyorlangan. Ayni vaqtda, tosh bilan birga suyak va yog‘ochdan ham foydalanildi. Yuqori paleolitdagi eng muhim yutuqlardan biri shu ediki, qo‘llanilayotgan qurollar (nayza paykonlari, irg‘itiladigan kalta nayza va nayza otqichlarning ixtiro qilinishi) shakllarining ko‘payishi va ularning ishlatilishiga qarab turli xillarga ajralishi (ov qilish, go‘shni nimalash, teriga ishlov berish, baliq ovlash uchun sanchqi (garpun) va qarmoq, arralovchi qurollar, suyak ignalar, bigiz va h.k.lar paydo bo‘ldi. O‘sha davr odamlari fanda «Homo sapiens» idrokli odam deb nomlanadi. Yuqori paleolit davrida O‘rta Osiyo hududida iqlim quruq va mo‘tadil bo‘lgan. Sovuq iqlim sharoitida yashagan hayvonlar – serjun karkidonlar, yovvoyi otlar, kiyiklar paydo bo‘lgan.

Yuqori paleolit bosqichiga kelib, ibtidoiy to‘da davrining vayronalarida kishilik jamiyatining dastlabki bo‘g‘ini – ibtidoiy jamoa davri tarkib topdi. Bu davrda toshdan mehnat qurollari yasash uslubida, ibtidoiy xo‘jalik shakllarida, ibtidoiy odamning turmush tarzida, ularning ijtimoiy munosabatlarida, odamlar dunyoqarashida, hatto, uning jismoniy tuzilishida ham keskin va jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi. Jumladan, bu davr odamida rosmana peshana va pastki jag‘ shakllandi. Bu davr odamlarining suyaklari neandertal davri odamlariniki singari yirik emas, oyoq, qo‘l harakatlarida ham chaqqonlik paydo bo‘ladi, hozirgi zamon odamlariga xos jismoniy xususiyatlari vujudga keladi. Olimlar bu davr odamini zamonaviy qiyofadagi odam deb atadilar. Antropolog olimlarning ilmiy kuzatuv va xulosalariga ko‘ra, keyingi 35–40 ming yillar davomida odamzodning biologik va jismoniy tuzilishida aytarli katta o‘zgarishlar bo‘lmagan. Xuddi shu davrda hozirgi zamon qiyofasidagi odamning shakllanishi bir vaqtning o‘zida yevropoid, negroid va mongoloid irqularining paydo bo‘lishiga olib kelgan edi. Ular bir-birlaridan terisining rangi,

soch va ko'zlarining shakli hamda rangi, muskullar va bo'ylarining uzun-kaltaligi, bosh suyagining shakli, yuz tuzilishi va boshqa belgilari bilan farqlangan. Irqlarning shakllanishida tabiiy sharoit ham muhim rol o'ynagan. Negroidlar Afrikada, Yevropoidlar Yevropada, mongoloidlar Osiyo hududlarida keng tarqalgan. Mongoloid irqqa mansub vakillar Shimoliy, Markaziy va Sharqiy Osiyo hududlarida yashaganlar. Ularning bo'ylari past, bosh suyaklari dumaloq, qosh-ko'zlari, sochlari qora, yuzlari va peshanalari keng, ko'zlari qisq bo'lgan. Buning asosiy sababi avlod ajdodlarimiz yashagan mo'tadil, geografik iqlim sharoitining uzoq yillar davomida ularning tanasiga tabiiy ta'sirining natijasidir. Yevropadagi oq tanlilar va Afrika qit'asidagi qora tanli negroidlar xususida ham xuddi shu fikr va g'oya asoslidir. Aytmoqchimizki, oq tanlilarning «Oliy irq» ekanligi, ularning boshqa irq vakillari ustidan hukmron bo'lishlari va butun dunyoga egalik qilish huquqini da'vo qilishlari butunlay noto'g'ri qarashdir. Bu g'oya va qarash fashistik irqchilik nazariyasining asosiy o'zagidir. Bu nazariyasidan fashistlar Germaniyasi 1939–1945-yillardagi ikkinchi jahon urushi yillarida dunyoga hokimlik qilishni da'vo qilib foydalangan edilar.

So'nggi paleolit davrida O'rta Osiyo hududida yashagan odamlarning mehnat qurollari ham ancha takomillashdi, suyak va shoxdan yasalgan buyumlar: igna, qarmoq, har xil bezaklar shakllangan, tosh qurollar ancha ixchamlashgan. Parma paydo bo'lgan, asosan, bu davrda tosh va suyaklarni parmalaganlar. Bundan 25-30 ming yillar burun insonlar kesuvchi, qirquvchi va parmalovchi qurollarni ixtiro qilganlar.

So'nggi paleolit davrida tasviriy san'at rivoj topdi. Bu davrda odamlar yashash uchun o'zlariga turar joylarni kashf etganlar, toshlarga rasm solganlar, tosh va suyaklarga hayvonlar, baliqlar va odamlarning qiyofalarini o'yganlar. Tosh va suyakdan yasalgan haykalchalarda ona urug'iga e'tiqod qilinganligi tasvirlanadi. Demak, bu davrda jamiyatda «ibtidoiy to'da» o'rnini Matriarxat – ona urug'i jamiyati, ya'ni «urug'chilik jamoasi» egallaganligini ko'ramiz. Bu davrga kelib ayollar jamiyatda yetakchi mavqeni egallaganlar. Jinslar o'rtasida mehnat taqsimoti kelib chiqqan. Ayollar oziq-ovqatlarni saqlash, ovqat tayyorlash, oilani zarur yoqilgi bilan ta'minlash, bolani boqish va tarbiyalash ishlari bilan mashg'ul bo'lganlar. Erkaklar esa asosan, ovchilik bilan shug'ullanganlar, mehnat qurollari tayyorlaganlar. Bu davrda qarindosh-urug'lar

o'rtasidagi nikoh taqiqlangan, ya'ni Ekzogamiya paydo bo'lgan. Bu esa insonning biologik jihatdan takomillashib borishini ta'minlagan.

O'rta Osiyoda so'nggi paleolit davriga mansub topilmalar, yodgorliklar kam, albatta bu tarixiy o'tmishimizni yetarli darajada o'rganilmaganligi oqibatidir. So'nggi paleolit davrida odamlar yashagan makonlar Samarqand shahar istirohat bog'i hududida, Buxoro viloyati Qoratov tog'ining yonbag'rida, Ohangaron ustaxonalari, To'ytepadagi Ko'lbuloq makonlari va Oqtosh g'oridan topilgan.

O'rta Osiyo hududida bugungi kunda yuqori paleolit davriga oid 30 dan ortiq yodgorlik madaniyatlari topib o'rganildi. Samarqand (shaharning o'zida), Xo'jag'or (Farg'ona vodiysi), Shug'nov (Pomir etaklari), Ko'lbuloq (Toshkent viloyati), Qorakamar (Tojikiston), Achisoy (Qozog'iston) yodgorliklari shular jumlasidandir.

2. O'RTA VA YANGI TOSH ASRI

Insoniyat tarixiy taraqqiyotida *Mezolit* deb atalmish davr o'ziga xos bir davr hisoblanadi. «Mezolit» yunoncha so'z bo'lib, «mezos» – «o'rta», «litos» – «tosh» birikmalaridan tashkil topgan va «o'rta tosh» davri ma'nosini anglatadi. Bu davr olimlarning xulosalariga ko'ra, bundan 12 –10 ming yillar ilgari boshlanib 7 ming yillikgacha davom etgan, mezolit davrida O'rta Osiyo iqlimi issiqlasha borgan, yog'ingarchilik ko'p bo'lgan, daryo bo'ylari va botqoqliklarida to'qay va o'rmonlar vujudga kelib, o'simliklar va hayvonot dunyosi asta-sekin hozirgi zamon hayvonlari va o'simliklari qiyofasini ola boshlagan. O'rmonlarda Buxoro bug'ulari, los, ayiq, to'ng'iz, cho'l va adirlarda esa sayg'oq, qulon, ot, ho'kiz to'dalari yurardi. Bu davrda ovchilik hayot manbai hisoblanar edi. Bu borada o'q-yoyning kashf etilishi katta ahamiyat kasb etdi. O'q-yoy inson kashf etgan birinchi mexanizmdir. O'q-yoy odamning tabiat kuchlariga qarshi kurashda buyuk burulish bosqichi bo'ldi, ovchilik endi yangi mazmun kasb etdi va uning yangi usullari paydo bo'ldi. Ovdan keladigan daromad manbai ko'paydi, ovda qo'lga kiritilgan hayvonlarning iste'moldan ortiqchasi qo'lga o'rgatila boshlandi. Inson qo'lga o'rgangan va u bilan do'stlashgan dastlabki hayvon – itdir. It bilan bir vaqtda odamlar bug'uni ham qo'lga o'rgatganliklari arxeologiyaga oid manbalarda qayd etiladi.

Mezolit davrining o'ziga xos yana bir xususiyati shuki, bu davrda ovchilikning ahamiyati oshishi bilan birga termachilikning o'rnini ham ortdi. Bu davr termachiligi, qadimgi tosh davri termachiligidan keskin farq qilardi. Bu davrda endi odamlar o'simliklarni ildizi bilan birga iste'mol qilmasdan, balki ularni saralab, shirin va mazali o'simliklarni iste'mol qilishni o'rgandilar. Bu hol odam tanasining sifat jihatidan tozalanishi va kamol topishiga, inson aqli va tafakkurining o'sib rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Termachilik bilan asosan, ayollar shug'ullanardilar.

Mezolit davrida O'rtta Osiyoning deyarli barcha tumanlari, xususan, «Ikki daryo oralig'i» aholi yashashi uchun juda qulay imkoniyatlarga ega joylar bo'lgan. Farg'ona vodiysining tog'li va tog'oldi tumanlarida, Markaziy Farg'onada vujudga kelgan katta va kichik ko'llar bo'ylarida mezolit davri ajdodlarining juda ko'plab manzilgohlari topildi. Olim O'. Islomov va uning hamkasblari bu hududda 1970–1980-yillarda keng miqyosda arxeologiyaga oid qidiruv ishlari olib bordilar va So'x yaqinida Obishir nomi bilan aholi o'rtasida ma'lum bo'lgan ungurlarda mezolit davri jamoalarining qarorgohlari kashf etdilar. Bu joylar hozir tarix fanimizda Obishir - 1 va Obishir - 5 nomlari bilan ataladi. Ayniqsa, Markaziy Farg'onada 100 dan ortiq mezolit davri yodgorliklari topildi. Ularning asosiy qismi qadimgi ko'l yoqalarida joylashgandir.

Mezolit asriga oid boshqa guruh yodgorliklar Toshkentning Sariqamish tumanida qadimgi Bo'zsuv havzasida ham topildi. Bunda ham arxeolog olim O'. Islomov olib borgan ilmiy qidiruv ishlari o'z natijalarini berdi. Bulardan tashqari, O'zbekistonning Surxondaryo viloyati Ayritom, Kattaqo'rgon, Zaranchuk'ut, Dukanxona, Eski Termiz, Podaxona, Oqtosh, Ko'hitongning Machay soyi ustida qad ko'targan qoya ostidagi g'orda ham mezolit davriga oid arxeologiyaga doir ma'lumotlar topib o'rganildi.

1970–1971-yillarda Machay g'orini tekshirgan olim O'. Islomovning fikricha, machayliklar shoxli va mayda hayvonlarni xonakilashtirganlar. Bu g'ordan topilgan ma'lumotlar ushbu yodgorlikning mezolit davrining eng so'nggi bosqichi va ilk neolit (yangi tosh) davriga tegishli ekanligini tasdiqlamoqda.

Mezolit davri odamlarining diniy tasavvurlari haqida Qayla, Tutkaul va Machay qabristonlaridan topilgan yodgorliklar ma'lumot beradi. Har uchala qabriston ham mezolit davrining so'nggi bosqichi – ilk neolit davriga to'g'ri keladi. Qayla g'ori yaqinidagi qabris-

tonda tana suyaklari chalqanchasiga yotqizilgan bo'lib, oyoqlari biroz bukilgan. Dafna ustiga qizil rang (oxra) sepilgan. Ularning yon-atrofida dengiz chig'anoqlaridan qilingan taqinchoqlar, bosh tomonda esa mayda toshmunchoqlar terib qo'yilgan. Tutkaulda 4 ta, Machayda 7 ta qabr qoldiqlari ochilganda ularda ham xuddi shu holat kuzatildi.

Mezolit davri odamlari tasavvurida «narigi» dunyoga ishonish, olovga talpinish alohida ahamiyat kasb etgan. Buni Qayla qabrishtonidan topilgan mayitga sepilgan qizil rang bo'yog'i isbotlaydi.

Ibtidoiy rassomlar odamlarning tabiat kuchlariga munosabatlarini, dunyoqarashlarini qoyalarga chizilgan rangli suratlari orqali ifodalaganlar. Shu xildagi manzilgohlardan biri Surxondaryoning Zarautsoy darasi qoyalariga solingan suratlar hisoblanadi. Bu suratlar orasida «Yovvoyi hayvonlarni ov qilish» deb nomlangan manzara diqqatga loyiqdir. Unda bir poda yirik shoxli hayvonlar orqasidan ovchilarning o'z itlari bilan quvib ketayotgan manzarasi tasvirlangan. Ovchilar ustiga chaylasiymon yopinchiq yopib olib, o'q-yoy, palaxmon toshlari bilan qurollanganlar. Yana bir qoyada esa ikki guruh ovchilarning yovvoyi buqani o'rab olish manzarasi aks ettirilgan. Arxeolog olimlar bu topilmalarni mezolit davrining so'nggi bosqichi va ilk neolit davriga oid ekanligiga ishonch hosil qilib, ularning Qayla, Tutkaul va Machay yodgorliklari bilan tengdosh ekanligini asosladilar.

Xullas, Zarautsoy qoya suratlari mezolit davri rassomlarining dunyoqarash doirasini, ularning diniy tasavvurlarini, o'sha davr mafkurasi darajasini tasviriy san'atda qay darajada aks ettira olganliklari haqida fikr yuritish uchun asos bo'ladi.

Insoniyat o'z taraqqiyot yo'lida mezolit davridan so'ng, neolit deb atalmish davrni ham o'tkazdi. «*Neolit*» *yunoncha so'z bo'lib, «neo»- yangi va «lit»- tosh, ya'ni «yangi tosh» davri, degan ma'noni anglatadi.* Neolit davri mehnat qurollariga ishlov berishda silliqlash, pardoqlash, arralash va parmalash usullarining ixtiro etilishi e'tiborga loyiqdir. Bu narsa ibtidoiy ishlab chiqaruvchi kuchlarining oldingi davrlarga nisbatan, tezroq rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Yangi mehnat qurollari: tosh-boltalar, ponalar, tosh-teshalar, iskanalar paydo bo'ldi. Shu boisdan, Yevropa olimlari hatto, neolit davrini «boltalar asri» deb atashni ham taklif etgan edilar. Tosh-boltalar daraxt kesishda, uy qurilishi ishlarida, ovchilikda o'zining tengi yo'q mehnat quroli ekanligini isbotladi.

Mehnat qurollari ancha takomillashgan neolit davriga odamlarning yuqori paleolit, ayniqsa, mezolit singari daydi hayot kechirishlariga zaruriyat qolmadi. Ular o'troq hayot kechirishga o'tdilar. Bu davrga kelib doimiy yerto'lalar, kulbalar qurish, loydan, guvaladan uylar solish, qishloqlar barpo etish neolit davri odami-ning asosiy odatiga, turmush tarziga aylanib bordi. Ana shu tariqa, doimiy o'troqlik xo'jaligi vujudga keldi. Bu hol dehqonchilikning kelib chiqishiga, cho'lli mintaqalarda, azim daryo va ko'l bo'ylarida o'troq ovchilik xo'jaligining qaror topishiga sabab bo'ldi, chorvachilik qaror topdi.

Yangi tosh davri jamoalari hayotida paydo bo'lgan yana bir yangilik – bu bo'lajak hunarmandchilik xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblangan sopol buyumlar (keramika) ishlab chiqarishning kashf etilishi bo'ldi. Insoniyat hayotida katta voqea bo'lgan bu yangilikka asoslanib ayrim arxeologlar, hatto neolit davrini «sopol asri» deb atashni ilgari surganlar.

Neolit davri kashfiyotlaridan yana biri *hunarmandchilikning* vujudga kelishidir. Endi ibtidoiy odamlar faqat hayvon terilaridan yasalgan kiyim-kechaklarnigina emas, balki uning junidan hamda o'simliklar tolasidan to'qilgan matolardan kiyim-kechaklar tikib kiyadigan bo'ldilar. Bu davrda jamoada hali ibtidoiy urug'chilik «kommunasi» hukmron bo'lib, ona urug'i davom etar edi. Shu boisdan, dunyo olimlari neolit davrini matriarxat urug'chilik tartiblarining gullagan davri, deb baho beradilar.

Bu davrda matriarxat urug' jamoasining guruhli nikoh doirasida juft oila qurish vujudga keldi. Ayollar tug'ilgan farzandlarining otalaridan o'z urug' jamoasi manfaatiga ishlab berishni talab qiladigan bo'ldilar. Ana shu tariqa, ichkuyovlik mazmunidagi juft oilaning dastlabki ko'rinishlari shakllandi. Endi ayollar o'zlari uchun aniq sherik tanlab, jinsiy aloqalar asosan ana shu doimiy shiriklar bilan amalga oshiriladigan bo'ldi. Bu oilada ayolning huquqi cheklanmagan bo'lib, erkak unga qaram bo'lgan. O'rta Osiyo hududlarida xo'jalik miloddan oldingi V ming yillikning boshlarida kelib chiqqan bo'lib, ikki yo'nalishda rivojlanib borgan. Jumladan, Turkmanistonning Kopetdog' etaklarida qabilalar madaniy o'simliklarni o'stirishga o'ta boshlaganlar. O'rta Osiyoning shimoliy, dasht va cho'l hududlarida yashagan qabilalar esa ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Dehqonchilik uchun juda qulayliklarga boy hududlardan biri – Ashxoboddan 40 kmlar chamasi

shimoli g'arbdagi joylashgan, turkmanlar Chaqmoqli deb atagan joy edi. Bu yerning «Chaqmoqi» deb atalishining boisi shundaki, turkman cho'ponlari bu joydan chaqmoqtosh terishar ekan. «Chaqmoqi» asli o'z atrofidan baland bo'lib, uning ustini 2–3 metrli ko'chma qum bosgan. 1952-yilda olib borilgan arxeologiyaga oid ishlar «Chaqmoqi» tepaligi neolit davri dehqon jamoalarining qarorgohi ekanligini aniqlashga yordam berdi. 1956–1957-yillardan e'tiboran arxeolog V. M. Masson olib borgan bu yerdagi izlanishlar tarix va arxeologiya fani uchun katta natijalar berdi. Bu yerda guvaladan yasalgan bir xonali, devor osti o'chog'i va markazida sandal kuldoni – chuqurchali kulbalar topildi. Uning devorlari somonli loy bilan shuvalgan, hatto guvalaga somon ham qorishtirilganligi aniqlandi. Xonaning to'rt tomoni supali bo'lib, u yotish va dam olish uchun mo'ljallangan. Xonalar orasida tor yo'laklar bor. Bu yo'lak va xonalardan nomi yuqorida tilga olingan chaqmoqtoshdan ishlangan yuzlab tosh qurollar topib o'rganildi. Chaqmoqtoshlar sochilib yotgan joy keng taqir joy bo'lib, unda bahorgi yomg'irdan so'ng, ko'lmak suvi to'plangan. Oydin kechada ko'lmak suvi qop-qora bo'lib ko'ringani uchun turkman cho'ponlari bu joyni «Joyi-tun», ya'ni qorong'u joy, deb nomlaganlar. Ana shu tariqa, bu joy fan olamiga «Joytun madaniyati» nomi bilan kirdi. Joyitun (Joytun) madaniyatini o'rganish chog'ida bu yerda juda ko'plab mehnat qurollari – qistirma o'roq, pichoq, suyakdan ishlangan igna, bigiz va boshqa anjomlar topildi. Joytunni o'rganish jarayonida uning atrof tumanlarida ham arxeologiyaga oid qidiruv ishlari yo'lga qo'yildi. Natijada, Joytun madaniyatiga doir o'nlab neolit jamoalarining qarorgohlari (Nayzatepa, Bami, Cho'pontepa va boshqalar) ochildi va o'rganildi. Bu yer aholisi dehqonchilik, chorvachilik bilan ham shug'ullanganlar. Chorva hayvonlari: qoramol, qo'y va echkilarning suyak qoldiqlari Joytun va shu madaniyatga daxldor bo'lgan barcha yodgorliklardan topilgan. Joytun madaniyatining yoshi olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, bundan 7–8 ming yil burun o'tgan, ya'ni uning yoshi miloddan avvalgi VI–V ming yilliklar bilan o'lchanadi. Bulardan tashqari, akademik olim S. P. Tolstov tomonidan qadimgi Xorazm yerlarida, Amudaryoning quyi havzasida «Kaltaminor madaniyati» nomi bilan tarixga kirgan madaniyat yodgorligi topildi. Bu madaniyat Xorazm hududidagi Jonbosqal'a nomi bilan ma'lum bo'lgan 4 ta makonni tekshirish orqali aniqlandi va o'sha makon yaqinidagi joy nomi bilan «Kaltaminor madaniyati» nomini oldi. Bu milodimizdan ilgarigi IV–III ming yillikda yashagan ovchilar va

baliqchilar jamoasi madaniyatidir. Kaltaminorliklar sopol buyumlar ishlab chiqarishda ham ilg'or bo'lganlar. Xo'jalikning uchinchi tarmog'i termachilik bo'lgan. Buni manzilgohdan topilgan jiyda urug'lari tasdiqlaydi.

Neolit davri madaniyati topilmalari Vatanimizning Zarafshon, Qashqadaryo vohalari va boshqa hududlarda ham mavjud va ular olimlar tomonidan o'rganilgan.

3. MIS-TOSH VA BRONZA ASRI

Milodimizdan avvalgi IV ming yillikning oxirlariga kelib, O'rtta Osiyo hududida tosh davri tugadi, u o'z o'rnini eneolit va keyinchalik bronza asriga bo'shatib berdi. Arxeologiyaga oid qazilma manbalarning guvohlik berishicha, ibtidoiy odam metall olamiga dastlab, misni ixtiro qilish orqali kirgan. Odamlar misdan uncha katta bo'lmagan pichoqlar, bigiz, ignalar, boltalar, uzuklar, munchoqlar, sirg'alar tayyorlaganlar. Shuning uchun, metalni qo'llashning bu ilk davri **Eneolit¹ - Mis-Tosh davri (mil. avv. 4-mingyillik – 3-mingyillik o'rtalari) deb ataldi.**

Bu davrda dehqonchilik va chorvachilikda ham birmuncha malaka hosil qilingan, yashash uchun zarur bo'lgan o'simliklarni sun'iy o'stirishga o'ta boshlaganlar. Ba'zi ov qilingan hayvonlarni qo'lda boqish odat tusiga kira borgan.

Eneolit davrida xom g'isht qurilishda ishlatildi, qishloqlarda ko'p xonali uylar va katta-katta inshootlar qurish ishlari amalga oshiriladi. Milloddan avvalgi 4-mingyillikda O'rtta Osiyoning janubida sug'orma dehqonchilik vujudga kelib, anhorlar va ariqlar ochildi, unumdor yerlardan keng foydalanib, turli o'simliklar – arpa, bug'doy, javdar ekildi, mevachilik rivojlandi².

Mis-tosh davri makonlari janubiy Turkmanistondagi Anov, Namozgohtepa, O'zbekistondagi Amudaryoning quyi oqimlari va Zarafshon vohalaridan, jumladan, Lavlakon, Beshbuloq, Zamonbobo, Kaptarqumi, Kattatuzkon makonlari, Sarazm kabilarda qazib o'rganilgan³.

¹ «eneus» – mis va yunoncha «ditos» – «tosh» so'zlaridan olingan.


² *Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O., Norqulov N.* O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000, 11-bet.

³ *Eshov B.* O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Ma'rifat, 2009, 17-bet.

Kulolchilik ancha ravnaq topgan: idishlarga geometrik naqshlar solingan, odam va hayvon tasvirini solish ham odat bo'lgan. Eneolit davri yodgorliklaridan qazish paytida, pishirilgan loydan yasalgan ko'plab ayol haykalchalari, ma'budalar topilgan¹.

Sekin-asta mehnat qurollari takomillashtirilib, rudali metallar, mis, qalay, kumush, oltinni ixtiro qilganlar va ularni eritish, quyish, ulardan foydalanish yo'llarini o'rganganlar.

Bronza mis va qalay aralashmasidan iborat bo'lib, u misga qaraganda, katta afzalliklarga ega. Ishlab chiqarishda bronzaning ishlatilishi bilan jamiyat taraqqiyotida **Bronza davri (mil. avv. 3-mingyillik o'rtalari – 2-mingyillik) boshlangan**. Insoniyat jamiyat taraqqiyotida xalq xo'jaligi, texnika va madaniyat sohasidagi erishilgan yutuqlar ana shu davr bilan bog'liqdir. Zarafshonning quyi oqimidagi Zamonbobo ko'li yonida va Sarazmda o'tkazilgan arxeologiyaga oid tadqiqot natijalari yuqoridagi fikrlar haq ekanligiga guvohlik beradi. Zamonbobo ko'li atrofidagi qabrlar ochib ko'rilgan. Ularda bittadan, ikkitadan va hatto uchtdan ko'milgan mayit qoldiqlari, naqshli sopol idishlar va har xil buyumlar topilgan. Erkaklarning qabrlarida chaqmoqtoshdan ishlangan qurollar, pichoqsimon, yapasqi buyumlar topilgan. Ayollarning qabrlarida esa qizil va sariq oxira, surma uvoqlari, misdan ishlangan kichik-kichik ko'rakchalar hamda lojuvarddan, aqiqdan, firuzadan ishlangan bezaklar, tosh bezaklari va hatto oltindan yasalgan marjonlar bo'lgan.




Sopollitepa qishloq jamoasining jez muhri.

(Achchiqko'l, Yangiyer tumani, Toshkent kanali atrofi, Burg'uluq), Namangan (Buvana mozor), Andijon (Dalvarzintepa), Qashqadaryo (Yer-qo'rgon, To'rtko'ltepa) va boshqa viloyatlarida ham ko'plab topilgan.

Kuzatish natijasida Zamonbobo manzilgohidagi aholi dehqonchilik bilan, chorvachilik bilan ham shug'ullangan, degan xulosaga kelingan. Bunday madaniyat yodgorliklari O'zbekistonning Surxondaryo (Sopollitepa, Jarqo'ton), Xorazm (Tozabog'yob), Toshkent

¹ «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005, 10-tom, 220-bet.



Sopolga bitilgan piktografik yozuv belgilari.



Dalvarzin qurilishida ishlatilgan va kuyib ketgan guvalalar (mil. avv. XI–X asrlar).

Bronza davrida O'rtta Osiyoning janubiy viloyatlarida baland bo'yli, boshi cho'zinchoq, yuzi ingichka odam vakillari tarqalgan. Mintaqaning cho'l qismida janub aholisidan farq qilgan boshi dumaloq, yuzi juda keng va cho'ziq bo'lgan qabilalar yashagan. Bronza davriga oid makonlarni qadimshunoslar Surxondaryo, Buxoro va Xorazm vohalaridan topib tekshirganlar. Surxon vohasida o'troq makonlar tog' daryolari qirg'oqlari bo'yida joylashgan bo'lib, soylardan dehqonlar dalasiga suv chiqarilgan. Sopolli makoni Muzrobd vohasi uch qatorli mudofaa devori bilan o'rab olingan edi. Bu yerdan ko'p xonali uy-joylar, hunarmandchilik ustaxonalari, bronza-dan yasalgan mehnat qurollari, yarog'-aslahalar, kulolchilik charxda ishlangan sopol idishlar va boshqa buyumlar qazib topildi¹. Qal'adan 20 dan ziyod kulolchilik xumdoni ochib, o'rganildi. Kulolchilikda yuqori sifatli nafis idishlar: qadah, ko'za, xum, choynak, piyola, kosa, lagan va h.k. tayyorlangan. Ovchilik va terimchilik ijtimoiy va iqtisodiy hayotda o'zining dastlabki ahamiyatini yo'qotdi. Ot, eshak, tuya va ho'kizdan transport vositasi sifatida foydalanildi, hayvonlarga qo'shiladigan aravalar vujudga keldi². O'zbekiston hududidan qadimgi davrga oid ko'plab Bronza san'ati namunalari ham topilgan³. Bronza davriga oid boshqa bir makon – Jarqo'ton,

¹ Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000. 13-bet.

² «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 12-tom. 91-bet.

³ «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 2-tom. 220-bet.

Sherobod vohasi manzilgohi ancha katta maydonga ega bo'lib, mudofaa devorlari bilan o'ralgan va mustahkamlangan qismlarga bo'lingan. Xorazmda bronza davri dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan qabilalarining moddiy madaniyat yodgorliklari Tozabog'yob madaniyati bilan mashhur¹. So'nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqot natijalariga qaraganda, mil. avv. III ming yillikning o'rtalariga kelib O'rta Osiyoning Qizilqum, Qoraqum cho'llarining ichkarilari, Pomir hamda Oloy tog'larining etaklari aholi tomonidan o'zlashtirilib boriladi. Bu davrda O'rta Osiyoning shimoli hamda shimoli sharqda yashagan aholi, asosan, chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Bu hududlarda topib tadqiq etilgan Andronov, Tozabog'yob, Zomonbobo, Qayroqqum kabi yodgorliklar bronza davrining o'ziga xos jarayonlaridan dalolat beradi². So'nggi bronza davrining yodgorliklari Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari hududida devorlar bilan o'ralgan qishloqlar paydo bo'lganligiga guvohlik beradi. Bu O'rta Osiyoda qadimgi shaharlarning vujudga kela boshlash jarayoni edi. Bu qadimgi xo'jaliklarning taraqqiy etganligi, ko'p oilali jamoalarning boyliklari oshib borganligi, jamiyatda sinfiy tabaqalanish jarayoni boshlanganligini ko'rsatadi.

Rivojlanib borayotgan dehqonchilik va chorvachilik madaniyati va iqtisodi zaminida katta oilali jamoalarda erkaklarning mavqeyi osha borgan va matriarxat yemirilib, **Ota huquqi – patriarxat qaror topgan**. Endi qarindoshchilik otaga qarab olib boriladigan bo'lgan. Bolalar ham ota mulki hisoblanib, merosni otadan ola boshlagan. Jamoalarning mol-mulklarini qo'riqlash ehtiyoji harbiy qabila ittifoqlarini vujudga keltirgan.

Nazorat savollari

1. Yerda hayotning paydo bo'lishi haqidagi diniy, ilmiy va boshqa qarashlarga qanday ta'rif bera olasiz?
2. Vatanimiz hududlarida eng qadimgi odam izlari, makonlari va ularni topgan olimlardan kimlarni bilasiz?

¹ *Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O., Norqulov N.* O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000, 13-bet.

² *Eshov B.* Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. – T.: O'zbekiston milliy universiteti, 2006, 62-bet.

3. Arxeologiya, antropologiya, etnografiya, lingvistika fanlari nimalarni o'rganadi?
4. Qachon va qayerdan neandertal tipidagi odam suyaklari topilgan?
5. Farg'ona, Toshkent viloyatlari hududlarida topilgan ibtidoiy davr yodgorliklarini tadqiq qilgan olimlarni sanang.
6. «Fergantrop» kim va u qaysi olim tomonidan o'rganilgan?
7. Qaysi davrda tosh va suyaklarni parmalash boshlangan?
8. Patriarxat va matriarxat deganda nimalarni tushunasiz?
9. Mikrolitlar(mayda tosh uchungisi) qaysi davrda shakllangan?
10. Paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza davrlarini ta'riflang.

II BOB

O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI ENG QADIMGI DAVLAT TUZILMALARI. CHET EL BOSQINCHILARIGA QARSHI KURASH. (MILLODDAN AVVALGI BIRINCHI MINGYILLIK)

1. URUG'CHILIK JAMOASINING YEMIRILISHI VA UNING SABABLARI

Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikning oxiri – birinchi ming yillik boshlarida jamiyat tuzumining asosini ota urug'doshligi jamoalari «Patriarxat» tashkil etgan. Umumiy bir hududda yashab, bir tilda so'zlashgan bir qancha urug'lar bir qabila hisoblangan. Urug' boshliqlari yig'ilib, qabila kengashini tashkil etgan. Eng kuchli va obro'li urug' boshlig'i qabila boshlig'i bo'lib saylangan. Bunday jarayon O'rta Osiyo, xususan, hozirgi O'zbekiston hududlarida miloddan avvalgi bir mingyillik boshlariga kelib, temir asriga o'tish jarayonida ro'y bergan.

Temirdan biror buyum yasash ko'p mehnat talab qilgan. Temir 1500°, mis 1000°, bronza 300° da eriydi. Shunga qaramasdan, temir ularga qaraganda ko'p afzalliklarga ega bo'lib, ulardan qattiqroq edi¹.

Mehnat quollarini yasash uchun temirdan foydalanish eng avvalo, dehqonchilik texnikasi rivojiga ta'sir o'tkazdi. Temir uchli omochlari, temir boltalar paydo bo'ldi. Bu mehnat quollari katta-katta maydonlarni o'zlashtirib, ziroatchilikni rivojlantirishga imkon yaratib berdi. O'rta Osiyodan topilgan eng qadimgi temirdan yasalgan buyumlar miloddan avvalgi IX–VIII asrlarga oid bo'lsa-da, ulardan ko'pi miloddan avvalgi VII–VI asrlarga oiddir.

Temir quollarining keng tarqalishi mehnat unumdorligini oshirdi. Bu narsa yanada rivoj topgan ishlab chiqarish usuliga o'tishga zamin hozirladi. Urug' jamoasining o'rnini hududiy qo'shnichilik jamoasi egallay boshladi.

¹ *Sultonov F., Yodgorov Sh., Bozorboyev F., Shoimov U.* Tarix. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2007, 17-bet

Miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlarida O'rta Osiyoda aholi to'rt guruhga ajratilgan: kohinlar, jangchilar, dehqonlar, hunarmandlar. Turmush va yashash tarzidan kelib chiqib, bu davrda bir tomondan, o'troq hayot va dehqonchilik, ikkinchi tomondan, chorvachilik turmush tarzi uch toifadagi jamoalarni shakllantirdi: qishloqda o'troq dehqonlar, yaylov chorvador dashtliklar, tog'li joylarda esa chorva, ov va qisman dehqonchilik bilan kun kechiruvchi tog'liklar jamoasi yashardi. Hududiy jihatdan bu uch toifa uch xil geografik sharoitga ega maktablarda yashasalar ham, ular o'rtasida doimiy, o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar muhim qaror topgan edi. Bunday uch toifali jamiyat qishloqda «katxudo», dashtda «biy» tog' va tog'oldi yaylovlarda esa «to'pboshi»lar, ya'ni Avesto kitobida ta'rif etilgan «vispati»lar tomonidan jamoa oqsoqollarining umumkengashi – qurultoyi asosida boshqariladi.

Shuningdek, bu davrda qabila, urug' boshliqlarining nufuzi asta-sekin orta bordi. Harbiy sardorlarning nufuzi ayniqsa, ortib, hokimiyat otadan o'g'ilga o'tadigan bo'ldi. Doimiy harbiy to'qnashuvlar sharoitida qabila sardorlarining ahamiyati va nufuzi orta bordi, jamiyat esa harbiy demokratiya qoidalariga asosan yashay boshladi.

«Avesto»dan O'rta Osiyoda jamiyatning negizi «nmana» deb ataluvchi katta patriarxal oila bo'lganini bilib olamiz. Bir necha «nmana»lar urug' jamoasi –«vis»ni tashkil etgan. Hududiy qo'shni-chilik jamoasi esa «varzana» deb nomlangan. Bunday jamoalar qabilaga – «zantu»ga birlashgan. O'z hududini himoya qilish uchun bir qancha qabilalar ittifoqqa – «daxyu»ga uyushganlar. «Avesto»ga ko'ra, jamiyatni idora qilishning quyidagi tizimi mavjud bo'lgan:

- Oqsoqollar kengashi
- Xalq yig'ilishi
- Alohida tumanlar hukmdorlari
- Viloyatlarning hukmdorlari

Aholi urug' va qabila bo'yicha emas, balki hududiy tamoyilga ko'ra, guruhlarga ajratilishi miloddan avvalgi IX–VIII asrlarda O'rta Osiyoda vujudga kelayotgan ilk davlat birlashmalarning muhim alo-mati edi.

O'zbekistonda Temir davriga oid yodgorliklarni sanalashtirish va dastlabki turkumlarga ajratilishiga doir tadqiqotlar: S.P.Tolstov, A.I.Terenojkin va Ya.G'ulomovlar tomonidan amala oshirilgan. O'zbekiston hududida Temir davri yodgorliklari mil. avv. VIII–VI asrlarga mansub. Ular Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo,

Samarqand, Buxoro, Toshkent viloyatlarida va Fargʻona vodiysida oʻrganilgan; Koʻzaliqir, Qalʼaliqir va Dingilja singari qadimgi qalʼa va qishloq, shahar xarobalari, Tagisken va Uygarak qabriston-qoʻrgʻonlari, Boʻkantov qoyatosh suratlari tekshirilgan. Temir davrida qadimgi Xorazm hududlarida dastlabki yirik sugʻorish inshootlari vujudga kelgan.

1960–1970-yillarda Surxondaryoda Kuchuktepa, Jondavlat va Qiziltepaning quyi qatlamlari; Pachmoqtepa, Qilchatepa yodgorliklari oʻrganildi. L.I. Albaum Kuchuktepadan mil. avv. VI–IV asrlarga oid uy-joy qoldiqlari, kulolchilik, temirdan yasalgan uy-roʻzgʻor va dehqonchilik buyumlarini topgan. 1960-yillarda Buxoro viloyatida Xazora yodgorligi va Sarmishsoy petrogliflari tekshirildi. Qashqadaryoda temir davriga oid Chimqoʻrgʻon yodgorligi (1972-y) oʻrganildi. 1973-yilda Chordana istehkomi (Konimex tumani) va Romushtepa (Jondor tumani) tekshirildi.

Temir davriga mansub arxeologik yodgorliklar Toshkent viloyatida Burganliktepa, Qovunchitepa, Tuyaboʻgʻiztepa va Burchmulla xazinasi, Fargʻona vodiysida esa Eylaton yodgorligi va Oqtosh qabristoni asosida oʻrganilgan. 80–90-yillardan Koʻktepa (Samarqand viloyati), Yerqoʻrgʻon va Uzunqir (Qashqadaryo viloyati) kabi mil. avv. VII–VI asrlarga oid nodir obidalarda arxeologik qazishlar oʻtkazildi. Bu yodgorliklarning tadqiqotlarida R. Sulaymonov, M. Filanovich, A. Saʼdullayev, M. Isamiddinov, Sh. Odilov, B. Matboboyevlarning hissasi katta boʻldi¹.

Oʻrta Osiyoda eng qadimgi temir buyumlar Dalvarzintepa (Fargʻona vodiysida), Anov (Turkmanistonda), Qiziltepa (Surxon vohasida), Daratepa (Qashqadaryo vodiysida) kabi manzillardan topilgan. Ularning eng qadimgisi mil. avv. IX–VIII asrlarga oiddir. Lekin buyumlarning koʻpchiligi mil. avv. VII–VI asrlarga taalluqlidir².

Temir davriga oid yodgorliklarning tadqiqot natijalari, shubhasiz, Oʻzbekiston tarixining eng muhim masalalaridan hisoblanadi. Shaharsozlik madaniyatining shakllanishi shaharlar va mamlakatlararo savdo-sotiq munosabatlarining rivoji hamda ilk davlatchilik tizimlarining shakllanishi va rivoji tarixini oʻrganishda samarali natijalar bermoqda. Chunki Temir davrida mamlakatimiz hududida Xorazm, Baqtriya, Sugʻd, Choch va Fargʻona kabi qadimiy tarixiy-

¹ «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi». – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 8-tom, 353-bet.

² *Sultonov F., Yodgorov Sh., Bozorboyev F., Shoimov U.* Tarix. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2007, 17-bet.

madaniy o'lkalar shakllanib, Katta Xorazm, Yunon Baqtriya (Baxtar) podsholigi, Sug'd mahalliy hokimlar konfederatsiyasi, Qang' davlati va Farg'ona afshinlari kabi hokimiyatlar tashkil topgan edi¹.

2. O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI ENG QADIMGI DAVLAT TUZILMALARI

O'zbek davlatchiligining tamal toshlari bundan 2700 yil muqaddam ayni Xorazm vohasida qo'yilgan. Shu ma'noda, milliy davlatchiligimiz tarixi Misr, Hindiston, Yunoniston, Eron kabi eng qadimiy davlatlar tarixi bilan bir qatorda turadi.

Islom Karimov

Mustaqillik tufayli o'zbek xalqi davlatchilik tarixini anglash, tadqiq etish, o'rganish sari katta yo'l ochildi. Bunda Yurtboshimizning shaxsan o'zi tomonidan o'zbek davlatchiligi konsepsiyasini yaratish va shu asosda davlatchiligimizning chin tarixini bunyod etish vazifasi qo'yildi. Ana shu vazifani bajarish borasida tarixchilar, huquqshunoslar, siyosatshunoslar milliy g'oya, mustaqillik mafkurasini ruhida yozilgan bir qator tadqiqot ishlarini nashr qildilar.

Bu o'rinda Azamat Ziyoning² monografik tadqiqotini ko'rsatish mumkin. Asarda mavzuning o'rganilganlik darajasi, manbaviy asosi umumlashtirilib berilgan. Kitob besh bobdan iborat bo'lib, unda O'rta Osiyodagi ilk davlatchilik, o'rta asrlardagi o'zbek davlatchiligi, jumladan, Amir Temur va Temuriylar davlati, Shayboniylar, Ashtarxoniylar davlatlari, o'zbek xonliklari tarixi umumlashtirilgan.

Mualliflar jamoasi (A. Sagdullayev, B. Aminov, O'. Mavlonov, N. Norqulov)ning «O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti» I qism³ kitobida o'zbek davlatchiligining kelib chiqishi va uning rivojlanish bosqichlari, qadimgi va o'rta asrlardagi o'zbek

¹ «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 8-tom, 353-bet.

² *Ziyo Azamat. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar.* – T.: «Sharq», 2000, B-365.

³ *Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O'. Norqulov N. O'zbekiston tarixi. davlat va jamiyat taraqqiyoti.* – T.: «Akademiya», 2000, B-271.

davlatchiligi tizimidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot va uning o'ziga xos xususiyatlar keng va katta hajmdagi arxeologik, etnologik, antropologik va yozma manbalar asosida yoritilgan. Asarda davlatchilik mexanizmini, boshqaruv tizimini ochib beruvchi qator chizma (sxema)lar berilganki, ular orqali masala mohiyati, shakl-shamoyili o'quvchida yaxshi tushuncha hosil qiladi.

Taniqli davlatshunos, huquqshunos olim Halimboy Boboyevning «O'zbek davlatchiligi tarixi» kitobida o'zbek davlatchiligi tarixi eng qadimgi davrdan o'rta asrlarga qadar mavjud turkiy, forsiy, arab, xitoy, rus tillaridagi manbalar asosida keng va chuqur yoritilgan. Asarda o'zbek xalqining davlatchilik tarixi dunyodagi qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy kabi davlatlar tarixi bilan barobar bo'lib, bundan taxminan uch-to'rt ming yillar avval shakllangan. Bugungi kunga kelib, davlatchilik tarixi masalasi turli yangi adabiyotlarda ko'rib chiqilgan (E. Rtveladze, A.Sayidov, D. Alimova), jumladan, quyidagi muammolar: davlatchilik tushunchasi va uning kelib chiqishi, davlat kelib chiqishida nazariyalarning ko'p xilliligi, O'zbekistonda qadimgi davlatchilikning qaror topishi va rivojlanishi, davlatlar rivojlanishini davrlarga bo'lish, O'zbekiston hududidagi qadimgi davlat turlari tahlil qilingan.

B.Eshovning «O'zbekiston davlatchiligi tarixi» I qism o'quv qo'llanmasida O'zbekistondagi eng qadimgi davlatlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, davlatchilik tushunchasi, qadimgi Baqtriya, Xorazm va Sug'diyona, O'rta Osiyodagi Ahamoniylar davridagi boshqaruv, Qang', Davan, Kushon davlatlari, antik davr shaharozlik an'analari, «Avesto»da davlatchilik tarixini o'rganishdagi muhim manbaa masalalari o'z aksini topgan. Shuningdek, asarda Eftaliylar, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi davridagi boshqaruv tizimi faktik materiallar asosida tahlil qilingan. Ayniqsa, Tohiriylar, Safforiylar, Samoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlari boshqaruv tizimlari va bu davlatlardagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot taraqqiyoti umumlashtirilgan. Muallif davlatchilik tarixi masalalari bo'yicha so'nggi yillarda nashr qilingan ilmiy adabiyotlar hamda yordamchi fanlar tadqiqotlaridan keng foydalangan. Qo'llanmada ilk davlatlar paydo bo'lishi va rivojlanishining davrlarga bo'linishini, davlat boshqaruvida siyosiy, mulkchilik va harbiy tizimni, shuningdek, boshqaruvda mansablar va xizmatlar chizma (sxema)lar orqali keng ko'lamda yoritilgan.

¹ Eshov B. O'zbek davlatchilik tarixi. I qism. – T.: «Ma'rifat», 2009, B-269.

Qo'llanmaning afzallik tomonlaridan yana biri har bir mavzu yuzasidan tayanch so'zlar, savol va topshiriqlar, foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati, izohli lug'at berilganligidir.

B.Eshovning navbatdagi «Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi»¹ o'quv qo'llanmasida ham o'zbek davlatchilik tarixiga oid ma'lumotlar, tarixiy umumlashmalar berilgan. Ayniqsa, shahar – davlat to'g'risidagi materiallar diqqatga sazovordir. Bu asarning ham metodik saviyasi talab darajasida. Unda tayanch so'zlar, savol va topshiriqlar, foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati keltirilgan. Xullas, O'zbekiston hududidagi ilk davlatchilikning maydonga kelishi va uning bosqichlari jarayoni yuqoridagi asarlarda fanning eng so'nggi yutuqlari asosida yoritib berilgan.

Shu boisdan biz mazkur masalani u qadar keng va atroflicha tahlil qilishni lozim ko'rmadik va qadimgi davlatlarning shakllanishi haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish bilan kifoyalidik.

Vatanimiz hududidagi eng qadimgi davlatlar tarixini o'rganishda bizga arxeologiyaga oid qazishmalar natijalari, mahalliy yozma adabiyotlar, masalan, «Avesto», Beruniyning «Osorul-boqia» (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) kabi asarlar, ko'hna eroniy yozuvlar, yunonlik, xitoylik mualliflar yozib qoldirgan ma'naviy meroslar yordam beradi. Ana shu hujjatlarning guvohlik berishicha, o'tmish ajdodlarimiz miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida temirni kashf etdilar. Natijada, har qanday taraqqiyotning turtkisi bo'lib kelgan mehnat qurollarining takomillashuvi uchun keng imkoniyat ochildi. Oqibatda inson faoliyati kengaydi va jadallashdi. O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, miloddan avvalgi I-mingyillikning birinchi yarmidayoq mintaqada tog' jismlarini (temir, oltin, qalay, qo'rg'oshin va h.k.) qayta ishlash, ulardan jang, mehnat qurollari yasash, kulolchilik, to'quvchilik, quruvchilik, zargarlik kabi sohalar-da foydalanish keng yo'lga qo'yilgan.

Bundan tashqari, xuddi o'sha davrda, ya'ni miloddan avvalgi IX–VIII asrlarda Xorazmda uzunligi bir necha o'n kilometr, eni bir necha o'n metrni tashkil etgan ulkan sun'iy sug'orish kanallari ishlab turgani tarixdan ma'lum. Bu hol sun'iy sug'orish ishlarining avlod-ajdodlarimiz hayotida dehqonchilik katta o'rin tutganligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, qadimdan Xorazm vohasi don, moy beruvchi o'simliklarni yetishtirish, polizchilik, bog'dorchilik, uzumchilik xo'jaligi munosib ravishda rivoj topgan o'lkalardan biri bo'lgan. Biz

¹ Eshov B. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. – T.: «Universitet», 2006. 235-bet.

bu dalil-ashyolarni bekorga keltirmadik. Gapning mohiyati shundaki, bunday katta hajmdagi xo'jalik – ijtimoiy ahamiyatga molik ishlarni e'tiborli va nufuzli kuchga ega bo'lgan davlat tuzilmasi bo'lmasa, uni amalga oshirib bo'lmazligi aniq. Zero, miloddan avvalgi I minginchi yilning birinchi yarmidayoq vatanimiz hududida dastlabki davlat tuzilmalari bo'lganligiga hech qanday shubha yo'q. Turli yozma manbalarda, bu davrda bir necha qadimgi davlatlar bo'lganligi tilga olinadi. Bular: Katta Xorazm – Amudaryoning quyi oqimidagi shimoliy yerlar, Murg'ob vohasi va Parfiya hududlari, Baqtriya – hozirgi Surxondaryo, Tojikistonning Amudaryoga yaqin yerlari va Shimoliy Afg'oniston hududlari, Sug'diyona – Zarafshon daryosidan suv ichgan yerlar va Kashqa vohasi hududlaridir. Eng qadimgi quldorlik davlatlari konfederatsiyasiga katta Xorazm va Baqtriya kirgan. Sug'diyona esa bu davrda mustaqil davlat sifatida faoliyat ko'rsatmagan. Ammo quldorlik davlati O'rta Osiyo sharoitida nisbiy xarakterga ega. Chunki bu hududda quldorlik tuzumi va quldorlik davlati tom ma'noda sodir bo'lmagan. Xo'sh, quldorlik jamiyati xususida qanday fikr bayon qilish mumkin?

Quldorlik jamiyati kishini kishi tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga asoslangan birinchi sinfiy jamiyatdir. Bu jamiyat shunisi bilan tavsifga loyiqki, quldorlar va qullar asosan, qarama-qarshi sinflar bo'lib, ular o'rtasidagi doimiy kurash mazkur jamiyat tarixini harakatga keltiruvchi kuch bo'lib kelgan. Demak, ana shu sinfiy kurash tufayli jamiyatning butun tuzilishi iqtisodiy, huquqiy normalari, turmushi, urf-odati, texnikasi va bilim darajasi, etikasi, dini, falsafasi va ijtimoiy qarashlari to'la kuch bilan namoyon bo'lgan.

O'tmishdan ma'lumki, eng qadimgi ilk davlatchilik birlashmalari bu miloddan avvalgi IV–III ming yilliklarda vujudga kelgan Mesopotamiya va Misr hisoblanib, qolgan hududlarda esa ancha keyinroq, ya'ni miloddan avvalgi II–I ming yilliklarda vujudga kelgan va rivoj topgan.

O'rta Osiyoda miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida vujudga kelgan Baqtriya, Xorazm kabi davlatlar Rim va Gretsiyaga nisbatan, birmuncha boshqacha yo'ldan rivojlanib bordilar.

Agar Gretsiya va Rimda qulchilik munosabatlari ijtimoiy taraqqiyotning eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan va ijtimoiy turmush tarzi to'la tarzda belgilangan bo'lsa, O'rta Osiyoda uning aksini ko'ramiz. Bu yerda qulchilikning ayrim elementlari ma'lum tarzda mavjud bo'lsa-da, jamoa mavqeyi katta bo'lganligidan u taraqqiyotning yuqori darajasiga ko'tarila olmagan. Shu bois, K. Marks buni «Osiyocho ishlab chiqarish usuli», deb bejiz aytmagan bo'lsa kerak.

O'rta Osiyoning o'ziga xos tabiiy, geografik va xo'jalik iqtisodiy sharoitlari, xususan, bu yerda sug'orma dehqonchilik madaniyatining ustunligi qullar mehnatiga nisbatan, erkin dehqonlar mehnatini ustunroq mavqeda bo'lishini ta'minladi. Chunki dehqon ko'p ishlasa, ko'p hosil yetishtirsa, ko'p daromad va foyda oladi, qul esa ishlasa ishlamasa xo'jayin beradigan bir burda non uning uchun o'zgarmas nasiba bo'lgan. Shu boisdan O'rta Osiyoda qulchilik Misr, Gretsiya, Vaviloniya singari davlatlardagidek, sinfiy jamiyat darajasida rivojlanmagan. Yozma manbalarda qadim zamonlarda Amudaryo – Oks, Sirdaryo – Yaksart va Zarafshon esa Politimet, deb atalgan. O'rta Osiyoning keng cho'l hududlarida yashagan xalqlar Yunon manbalarida – **Skiflar** nomi bilan yuritilgan. Skiflar tarixi to'g'risida yunon muarrixlari juda qimmatli ma'lumotlar beradilar. Jumladan, Pompey Trog skiflarni dunyodagi eng qadimiy xalqlardan biri, deb hisoblaydi. Qadimiylkda ular misrliklar bilan bahslasha oladilar. «Skif» so'zi xalqning aniq nomi emas, balki ularning turmushini sifatlovchi ma'noni anglatgan. Yaqin o'tmishlarga qadar ham dasht va saholarda yashovchi xalqning maishiy turmushini anglatuvchi «sahrat», «sartlar» kabi iboralar ishlatib kelinganligi tarixda sir emas. Yunon muarrixlarining ma'lumotlariga qaraganda, skiflar qadimda g'arbda Dnepr daryosidan tortib, sharqda Tyan Shan tog'larigacha cho'zilgan dasht va saholarda yashaganlar. Ularning qabilalari Massaget, Dah, Sak (shak), Debrik kabi nomlar bilan atalgan.

Qadimgi skif qabilalarining Volga, Don, Dnepr, Dunay daryolari bo'ylarida yashaganliklarini qayd etgan olim A. B. Ditmer «Skifiyadan Elefantingacha» nomli asarida: «Skiflar O'rta Osiyodan tarqalgan edi»¹, deydi. Uning yozishicha, skiflarning tili sharqiy Eron tillari guruhiga kiradi va ular Sak, Massaget qabilalari bilan urug'doshdirlar.

Hikoya qilishlaricha, Lipoqsoydan tarqagan skiflarni Axvatovlar deb atashgan. O'rtancha o'g'il Arnaqsoydan tarqalgan skiflarni Katiaram va Troniyamlar deyishgan. Kichik o'g'il shoh Qoloksaydan tarqagan skiflarni Paralatam deb nomlaganlar. Skiflar shohi ularni Skolotlar deb atagan. Skiflar esa ularni ellinlar deb atashgan, «Bu voqea Doroning skiflar yeriga hujumidan ming yillar ilgari bo'lib o'tgan edi»².

¹ *Дитмер А.В.* От скифии до ЭлеФантины. М., Изд-до географической литературы, 1961. стр. 22.

² O'sha asar, 23-bet.

Yunon muarrixlari bergan ma'lumotlarga qaraganda, skiflar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Ular, deydi Gerodot: «...bug'doy, piyoz, sarimsoq va mosh iste'mol qilganlar. Ular bug'doyni faqat o'zlari uchungina ekib qolmasdan, balki savdosotiq uchun ham ekardilar»¹.

Gerodot skiflarning chorvachilik ishlariga ham qiziqib qaraydi. Ko'chmanchilik bilan shug'ullangan skiflar ko'chganda qulay bo'lsin uchun namatdan g'ildirakli arava – uy yasab olgan edilar. Yuk tashishda ular otlardan tashqari, mollardan ham foydalanganlar». Gerodot fikricha, skiflar kuchli davlatga ega edilar. U shohlik hukmron bo'lgan skiflar yurtiga kelgan. (Demak, ayrim o'lkalarda skiflar o'zlarining shohlariga ega bo'lmagan, degan xulosa kelib chiqadi.) Podshohlik skiflar o'zga skiflarni o'zlariga qul deb bilganlar. Gerodot skiflarning harbiy yurishlari va qurollari bilan ham tanishadi.

Gerodot bergan ma'lumotlarga qaraganda, Kaspiy dengizidan sharqdagi tekislik (Qoraqum)da, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida massagetlar qabilasi yashagan. Strabon xorazmiylarni ham massagetlarga kiritadi. Muarrixlar, «Massaget» nomi biror qavmning asl nomi emas, balki xalqning maishatini anglatuvchi laqab bo'lishi kerak, deydilar. Masalan, «Massaget» so'zi tarkibidagi o'zak va qo'shimchalarni ajratib, «Mas'ya» baliq, «ka» eguvchi, «ga»lar, ya'ni «baliq, eguvchilar» degan laqab bo'lganini taxmin qiladilar. Eronliklar xorazmliklarni «baliqxo'rlar» deb kamsitib ataganlari ham tarixdan ma'lum. Qadim zamonlardan beri siyosiy adovat va urush tufayli eronliklar xorazmiylarni «baliqxo'rlar», deb kelgan bo'lsa, xorazmiylar ham eronliklarni «qizilboshlar» laqabi bilan kamsitib kelganlar. Ba'zi muarrixlar, massagetlar Sak qavmining harbiy birlashmasi bo'lgan, deb ko'rsatadilar.

Sak qavmiga mansub aholi Aleksandr istilosigacha Sirdaryoning quyi oqimida yashagan bo'lsa, keyinchalik, Karki, Kalif, Shimoliy Afg'oniston yerlariga ko'chib o'tganlar, Strabon ularni «dax», «day», «dov» nomlari bilan ataydi. Qadimgi Xitoy manbalarida, ular Amudaryodan janubda yashovchi «daxa» nomi bilan atalgani aytiladi. Antik manbalarda va Eron manbalarida Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya va Sug'diyona saklarining Ahamoniylar davlatiga boj to'lab turganlari qayd etiladi. Saklar hozirgi Qozog'iston va Sharqiy Turkiston, Amudaryo va Sirdaryoning shimolidan tortib

¹ Дитмер А.В. От скифии до ЭлеФантины. М., Изд-до географической литературы 1961, 26-бет.

to Janubiy Sibir yerlarigacha bo'lgan tog'lar, cho'llar va dashtlarda ko'chmanchi holda yashaganlar. O'troqlashganlari Sug'd, Baqtriya va Parkana xalqlari tarkibiga singib ketganlar.

Xullas, O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari yozma manbalar, arxeologiyaga oid topilmalar, toponimik nomlar, folklor ashyolar, qadimgi yozma bitiklar ma'lumotlariga qaraganda, miloddan ilgari bir minginchi yillikda massagetlar, saklar, daxlar kabi urug' va qabilalarga uyushib yashaganlar. Milodning boshlarida esa, bu qabila va urug'lar ular yashagan o'lkalar nomi bilan atalgan: xorazmiylar – Xorazm va Amudaryoning quyi oqimi, baqtriyaliklar – Surxondaryo va Tojikistonning Amudaryoga yaqin yerlari, sug'diyonaliklar – Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo yerlari, chochliklar – Toshkent vodiysi, parkanaliklar – Farg'ona vodiysi.

Ammo tarix fani oldida turgan bir muammo bor, u ham bo'lsa, O'rta Osiyo va Sharqiy Eron Ahamoniylar davlatiga qadar mavjud bo'lgan ilk davlat birlashmalari tarixini chuqur tadqiq etish masalasidir. To'g'ri, bir qator muarrixlarning yozma asarlarida yuqorida katta Xorazm va Baqtriya podsholigi haqida qaydlar borligi qayd etilgan. Ammo bu manbalar xronologik tartiblarda berilmagan, uzuq-yuluq va juda qisqa xabarlardan iborat, xolos. Ularning kattagina qismi afsonaviy tavsifdadir.

«Katta Xorazm» davlati to'g'risida xorazmshunos olim S. P. Tolstov, yevropalik olim V. Xenl, I. Gyershxovichlar va birinchi o'zbek arxeolog olimi Yahyo G'ulomov ham qimmatli xulosalar beradilar. Jumladan, S.P.Tolstov Zardushtning vatani Ar'yanem Vaychax – Xorazm bo'lgan, deydi. Uning xulosasiga ko'ra, Zardusht vatani Ar'yanem Vaychax Daitiya daryosining sohilida joylashgan. S.P.Tolstov va boshqa bir qator olimlar Daitiya bu Amudaryodir, deydilar. Xorazmshunos olim xulosasiga ko'ra, Zardusht shu zamin-dan chiqib, boshqa viloyatlarga o'z ta'limotini tarqatgan: «Avesto»da «Katta Xorazm»ga qarashli bir qancha viloyatlar sanab o'tiladi. Bunga ko'ra, O'rta Osiyoning deyarli katta qismi «Katta Xorazm» hududiga qarashli ekanligi isbotlanadi. Bu fikrni yunon muarrixlari ham tasdiqlaydilar, jumladan, Gerodot «Katta Xorazm» davlatining ekin maydonlarini sug'orish uchun Oks daryosiga to'g'on qurilganligi xabarini beradi. U Oks va Tajan daryolarini o'zaro taqqoslab, hozirgi Hirot va Marv viloyatlari ham «Katta Xorazm» yerlari bo'lgan, degan g'oyani beradi. Bundan shu narsa anglashiladi-ki, yunon tarixchisi Gerodotning asosli ma'lumotlariga qaraganda,

milodimizdan oldingi VIII–VII asrlarda Oks-Tajan vohasi, ya'ni hozirgi Turkmaniston hududlari «Katta Xorazm» yerlari bo'lgan. Xorazmda hukmronlik qilgan eng qadimgi sulolalar to'g'risida ma'lumotlar saqlanmagan. Ammo rivoyat va afsonalarga ko'ra, Xorazmning eng qadimiy siyosiy sulolalari sifatida Siyovushiylar tilga olinadi. «Avesto» bo'yicha Siyovarsxon Kaykovusning o'g'li bo'lgan. Siyovarsxon o'limidan so'ng, uning nabirasi Kova Xisrav bobosi qotilidan o'ch olib, Xorazmda birinchi sulolaga asos soladi. Abu Rayhon Beruniy «Osorul-baqiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») kitobida Xorazmga aholi milodimizdan avvalgi 1292-yilda kela boshlagan deb ko'rsatadi. Afsonaviy Siyovushning Turon zaminiga kirib kelgan sanasini esa milodimizdan avvalgi 1200-yilda deb belgilaydi¹.



Doro I ga sovg'a keltirgan saklar (barelev).




**Hayot daraxti (oltin, mil.av. 3–2-asrlar)
2. ikki grifon tajovuzini daf qilayotgan
sak aksi tushirilgan feruz va yoqut
ko'zli oltin baldoq.**

Ammo «Katta Xorazm» davlatining yaxlit tarixi, uning qachon inqirozga uchraganligi haqida yozma ma'lumotlar saqlanmagan. Biroq shu narsa ma'lumki, «Katta Xorazm» yerlarining ko'pgina janubiy viloyatlari Midiya davlati davridayoq, Xorazmdan ajralib ketgan, yana bir katta qismini esa Eron Ahamoniylari bosib olgan. Milodimizdan avvalgi IV asrga kelib, «Katta Xorazm»ning Amudaryoning quyi havzasidagi hududi «qadimgi Xorazm» davlatiga uyushdi. Bu davrda Farasman degan podshoh o'tganligi yozma manbalarda tilga olinadi. U g'oyatda tadbirkor hukmdor bo'lgan. Yunon muarrixlari bergan ma'lumotlarga qaraganda, Aleksandr Hindikush tog'lari osha Baqtriya va Sug'diyonaga bostirib kelganda, Farasman katta sovg'a-salomlar bilan uning huzuriga o'z qo'shinlari bilan keladi va agar Aleksandr shimolga tomon yurmoqchi bo'lsa, yor-

¹ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I-Jild. – T.: «Fan» nashriyoti, 1968, 18–20-betlar.

dam berajagini bildiradi. Bu bilan Farasman Aleksandr Zulqarnaynning Xorazm ustiga qo'shin tortib borishining oldini olgan edi.

O'rta Osiyoda Ahamoniylar bosqiniga qadar tashkil topgan ikkinchi davlat – **Baqtriya** podsholidir. Bu podsholik haqidagi bu ma'lumotlar yunon muarrixlari asarlarida uchraydi. Jumladan, olim va tabib Ktesiy Ossuriya podshosi Nin Belidning Baqtriyaga qilgan harbiy yurishi haqida ma'lumot beradi. Nin baqtriyaliklarning jangovarliklarini bilgan bo'lsa-da, juda katta qo'shin va jang aravasi bilan Baqtriyaga hujum boshlaydi, baqtriyaliklar o'z davlatlari poytaxti Baqtra (hozirgi Balx)ni mustahkam mudofaa qo'rg'oniga aylantirdilar. Baqtriya hukmdori Oksiart vatan himoyasiga 400 ming kishidan iborat katta qo'shinni hozirlaydi. Baqtriya qo'shinlari ossuriyaliklarni katta talafotga uchratadi. Biroq jang maydoniga ularning asosiy qo'shinlari tugagach, baqtriyaliklar chorasiz chekinadilar. So'ngra baqtriyaliklar kichik-kichik guruhlariga bo'linib, saklarni mudofaa qilishga o'tadilar. Nin bundan ustalik bilan foydalandi va shaharlarni birin-ketin qo'lga kiritadi. Ammo poytaxt Baqtrani ossuriyaliklar egallay olmaydilar. Ossuriyaliklarning shaharni egalashga qaratilgan barcha urinishlari muvaffaqiyatsiz tugaydi.





**Baqtriya jangchisi boshi
(Xolchayon).**

Bu o'rtada Nin qo'shinlariga uning rafiqasi Semiramida boshliq yangi qo'shin kuchlari kelib qo'shiladi. Shundan so'ng, uzoq davom etgan shahar qamali va ketma-ket qilingan hujumlar oqibatida Baqtra shahri egallanadi. Uning boyligi talanadi. Ma'lum bir muddat o'tgach, Midiya bilan Ossuriya o'rtasida urush kelib chiqadi. Yunon tabibi va olimi Ktesiy ana shu voqea munosabati bilan yana Baqtriyani eslaydi. Uning ma'lumotiga qaraganda, Baqtriya Ossuriya tomonida turib, Midiyaga qarshi qo'shin tortib borgan. Bundan xabar topgan Midiya aslzodalari Baqtriya qo'shini lashkarboshisi va uning qo'shinlarini o'z tomonlariga ag'darib olganlar. Midiya va Baqtriyaning birlashgan qo'shinlari Ossuriya qo'shinlariga katta talafot yetkazadilar, Ktesiy Ahamoniylar podshosi Kir II ning O'rta Osiyoga yurishi munosabati bilan uchinchi marta Baqtriya haqida to'xtaladi. U bergan ma'lumotda, Kir dastlab Baqtriyani egallay olmaydi. Faqat baqtriyaliklar Midiya podshosi Astiagning Kirni o'zining qonuniy vorisxo'ri sifatida tan olganligini eshitgach, unga qarshiliksiz taslim bo'ladilar. Shu paytga qadar Ktesiy xabarlari afsona va uydirmalardan iborat, deb baholandi. Holbuki, Ktesiy o'zi yozib qoldirgan xabarlarini to'qib yozgan emas, balki Ahamoniylar podshosi Doro II va Artakserks II davrida u Eronda saroy tabibi bo'lib ishlagan edi. O'sha davrda saroy tarixchilari va hukmron doira vakillari bilan bir necha bor suhbatda bo'lgan Ktesiy ularning og'zidan Ahamoniylar podsholigi haqidagi tarixiy voqealarni eshitib, o'sha hikoyalar asosida va o'zi shaxsan ko'rgan-bilganlari haqida xotirotda kundaliklar yozib qoldirgan.

Ktesiy ma'lumotlari asosida tarixiy haqiqat borligiga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas. Chunki Baqtriya bilan Ossuriya o'rtasida tarixiy aloqalar bo'lganligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Baqtriyadan o'z davrida Ossuriyaga ikki o'rkachli tuyalarda lazuritlar (qora tosh) olib borganlar. Sargon II davriga (miloddan avvalgi VIII asr) oid manbalarda, bu haqida aniq xabarlar be-

riladi. Bu xabarlarda Ossuriya ayg'oqchilari Baqtriyaning ichki tumanlariga kirib borganliklari va o'z podsholariga Baqtriya lazuriti haqida ma'lumot berganliklari hikoya qilinadi. Jumladan, Ossuriya ayg'oqchisining xabarlaridan birida shunday deyiladi. «Podshohim, mening lazurit qidirib tog'li joylarga borganimni janobi oliyim bilmaydilar. Men lazurit olib ketayotganimdan xabar topgan mahalliy xalq menga qarshi g'alayon ko'tardi. Agar hazrati oliylari lozim topsalar, bu tomonlarga qo'shinni yuborsin va lazuritni olib ketsin. Faqat men mahalliy xalqqa yaqinlashmayman va ular bilan birga suv ham ichmayman, bir dasturxon atrofida o'ltirmayman ham»¹.

Bundan tashqari, Gerodot asarlarida ham Baqtriya haqida ba'zi bir ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, u Kirning Midiya podshosi Krez ustidan qozongan g'alabasi haqida hikoya qilar ekan, endi Kir yo'lida Bobil, Baqtriya xalqi, saklar va misrliklar yotadi, deb qayd etadi.

Yunon mualliflarining «qadimgi Baqtriya podsholigi» haqidagi hikoyalari zaminida tarixiy haqiqat borligini Janubiy Baqtriyada Oltin-1 va Oltin-10 hamda Baqtra shahri vayronalarida, Shimoliy Baqtriyada esa Kuchuktepa, Qiziltepa, Tallashkantepa, Bandixon – 2 kabi yodgorliklarida olib borilgan arxeologiyaga oid qidiruv topilmalari ham isbotlaydi.

Xulosa shuki, O'rta Osiyoni Ahamoniylar saltanati bosib olgunga qadar (bu voqealar miloddan avvalgi VI – IV asrlarda sodir bo'lgan edi) bu ona zaminda ikkita davlat mavjud bo'lgan. Bu davlatlar «Katta Xorazm» va «qadimgi Baqtriya podsholigi» edi. Bu davlatlarning hududiy doirasi, ichki davlat tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy aloqalari tog'risida «Avesto» asari va yunon muarrixlari qisqacharoq bo'lsa-da, ba'zi bir ma'lumotlarni beradilar.

O'rta Osiyoning eng qadimiy o'lkalaridan yana biri Sug'diyonadir, bu o'lka qadimda hozirgi Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy va Buxoro viloyatlari hududida shakllangan. Tarixiy yozma manbalarda, miloddan oldingi VI–IV asrlarda Sug'diyona aholisi Ahamoniylarga katta jarima to'lab turganligi ta'kidlanadi. Sug'd tili qadimda va ilk o'rta asrlarda jahon savdo tili sifatida katta nufuzga ega bo'lgan. Bu davlatning poytaxti Samarqand, Sharq bilan G'arbni savdo-iqtisodiy jihatdan bog'lagan «buyuk ipak yo'li»da Sharq darvozasi hisoblangan, Samarqandning tub yerli aholisi arxeolog olimlarning ma'lumotlariga qaraganda, bu shaharni «Smaraqansa», deb

¹ Asqarov A. O'zbekiston tarixi. – T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 1994-yil, 119- bet.

atagan. Keyinchalik, sugʻd tilida «Samarqand», deb atala boshlagan. Qadimshunos olim A.Asqarovning «Oʻzbekiston tarixi» kitobida taʼkidlashicha, Samarqand turkiycha Semizkent, Xitoy manbalarida Kan deb yuritilgan. Oʻlkamizda olib borilgan arxeologiyaga oid qazilma ishlari Sugʻdiyona yashagan aholining yuksak dehqonchilik madaniyatiga ega boʻlganliklarini koʻrsatadi. Bu yerda hunarmandchilik ham rivoj topgan.

3. OʻRTA OSIYO XALQLARINING ERON AHAMONIYLARIGA QARSHI OZODLIK KURASHLARI

Milodimizdan avvalgi VI asrda Eronda Ahamoniylar davlati vujudga kelgan. Bu davlat qariyb ikki yuz yil mobaynida yashagan. Uning hududlari Misrdan to Shimoli Gʻarbiy Hindistonga qadar choʻzilgan edi. Ahamoniylar davlatining poytaxti Persopol keyinroq esa Suza shaharlari boʻlgan. Forslarga qadar bu oʻlkada Elamitlar yashaganlar. Forslar dastlab, faqat Janubiy Eron hududlarida yashaganlar. Soʻngra ular butun Eron hududini egallaganlar. Forsiylar «Avesto»da «Azadlar» nomi bilan tilga olinadilar. Azadlar ariylarni tashkil etganlar. Ariylar joylashgan yurt keyinchalik Eron, deb atalgan. Akademik A.Asharovning taʼkidlashicha, juda qadim zamonlarda Eronning forslar egallagan janubiy hududi shumerlar tomonidan Nim (baland) deb yuritilgan, akkadlar esa uni «Elamtu» deb ataganlar. Elamtu xalq orasida «Togʻli mamlakat» nomini anglatgan. Elamitlar esa oʻz yurtlarini «Hotamtu» deb ataganlar. Rivoyatlarga koʻra, shu yurtga qachonlardir koʻchib kelib, hukmronlikni qoʻlga kiritgan forslarning nufuzli oilalaridan biri Ahamon miloddan avvalgi VIII asrning oxiri va VII asrning boshlarida oʻz sulolasiga asos solgan. Ahamonning oʻgʻli **Chishpish** miloddan avvalgi VII asrda fors qabilalari ittifoqini tuzadi va shu tariqa Eronda Ahamoniylar sulolasi (miloddan avvalgi 558-yillar) tashkil topadi. Xususan, Ahamoniylar davlatiniig shuhrati Kir II (Kurush) davrida kuchayadi. U Midiya, Elam, Vaviloniya, Lidiya podshohliklarini buysundirib, dunyoda birinchi saltanatga asos soldi. Ahamoniylar davlatining poytaxti avval Persepol, soʻngra Bobil, Suza va Ekbatana shaharlari boʻlgan. Aholining etnik tarkibi va ijtimoiy tuzilishi turlicha boʻlgan. Ular bosib olingan viloyatlarda mahalliy xalqning urf-odatlarini, dini,

qonun-qoidalarini, og'irlik- uzunlik o'lchovlari, yozuvi va tilini saqlab qolganlar. Mamlakatda qadimgi fors tili bilan bir qatorda, Oromiy tili keng tarqalib, davlatning idora tili hisoblangan. Bundan tashqari, devon ishlarida Elam tilidan foydalanilgan. Eronning Ahamoniylar davri madaniyati va san'atida Yunoniston, Ossuriya, Misr va boshqa chet el xalqlari madaniy an'analarining ta'siri kuchli bo'lgan. Bu davrga kelib Kir o'zining bosqinchilik nigohini Markaziy Osiyo hududlariga qaratadi. Baqtriyani Ahamoniylar tomonidan qachon egallanganligi hozircha ma'lum emas. Muarrixlar: Ksenafont, Ktesiy Baqtriyani Kir tomonidan bosib olinganligini aytgan bo'lsalar-da, lekin aniq sanasi va tafsiloti to'g'risida yetarli ma'lumotlar bermaydilar. Biroq qadimgi yunon muarrixlari: Geradot va Ksenafontlarning xabar berishicha, miloddan avvalgi 545–539-yillarda Kir II Sharqiy Eron, Xorazm, Sug'd va Marg'iyona viloyatlari hamda sak qabilalarini o'ziga bo'ysundiradi, degan ma'lumotlar yo'q emas. Shu boisdan, Bexustun kitoblarida O'rta Osiyoning Marg'iyona, Baqtriya, Xorazm kabi viloyatlari va saklarning yerlari forslarga tobe bo'lgan xalq va mamlakatlar ro'yxatida qayd etilgan.

Kir II skif qabilalaridan bo'lgan massagetlar ustiga miloddan avvalgi 530-yilda ikki yuz ming kishilik qo'shin bilan bostirib keladi. Bu paytda, umr yo'ldoshi vafot etgan malika To'maris mamlakatda podsho edi. Kirga qarshi To'marisning jasoratini Gerodot o'zining «Tarix» kitobida yorqin tasvirlaydi: O'z kuchi va omadiga ishongan, Bobil, Ossuriya, Misr, Kichik Osiyo mamlakatlarini zabt etib muvaffaqiyatlardan esankirab qolgan Kir Araks daryosiga ko'priq qurishni buyuradi. U To'marisga o'z elchilari orqali sovg'a-salomlar va noma yuborib unga turmushga chiqishini so'raydi. Elchilarini sovchi deb ataydi. Kirning asl maqsadi esa To'marisga ayon edi. Shu sababdan, u Kirga rad javobi beradi. Kirga noma yozib uni urush boshlamaslikka, tinch yashashga undaydi: «Ey Midiya shohi! (U vaqtda yunonlar Eronni shunday deb atashgan.) Bu niyatingdan qayt. Mazkur ko'priklar senga baxt keltiradimi, falokatmi? Bilmaysan-ku? Yaxshisi, xudo bergan kattakon davlatingga podshohlik qil. Biz o'z yurtimizga podshohlik qilaylik, lekin sen bu maslahatga kirmay, o'z aytganingdan qolmasang, biz daryo bo'yidan uch kunlik yo'l yurib, olisroqqa borib turaylik. Xohlasang, biz sening yerlaringga ko'chib o'taylik. Sen uch kunlik olisga borib tur». Bu maktubni olgan Eron shohi o'z a'yonlari bilan maslahatlashdi. Vazirlar biz orqaga qay-

tib, To‘marisni o‘z yerimizda kutib olaylik», degan maslahatni beradilar. Shohning Kryoz (yoki Korun) degan vaziri (sobiq podshoh edi) o‘zgacha maslahat beradi. U Eron qo‘shinlari massagetlar yurtiga kirsin, sahroyilar bazm-ziyofatlarga o‘rganmaganlar. Ular yerida bazm dasturxonlarini yoyib qo‘yaylik. Ular lazzatli taomlarni va lazzatli sharoblarni yeb-ichib, mast bo‘lib, uxlab qolishganda, ular ustiga bostirib boramiz», – deydi. Shohga shu maslahat manzur ko‘rinadi va shunday yo‘l tutishga qaror qiladi. O‘z omadiga ishongan Kir Massagetlar yurtida bir kunlik yo‘l masofasini bosib to‘xtaydi, chodirlar qurdirib turli taomlar, may, sharbat-u sharoblar, ziyofatlarni tayyorlatib, jangchilarining oz qismini qoldirib, o‘zi chekinadi. To‘marisning yolg‘iz o‘g‘li Sparangis o‘z lashkarlari bilan oz miqdordagi Kir askarlarini yengadilar.

G‘alabaga erishgan Sparangis bu dushmanlarning hiylasi ekanligini bilmay qo‘shiniga to‘kin dasturxon ustiga maishatga ruxsat beradi va o‘zi mast holda uxlab qoladi. Hufiyadagi Kir lashkarlari bilan qaytib kelib, uyqudagi navkarlarni va Sparangisni asir oladi. Voeadan habar topgan To‘maris habarchi orqali Kirga «Qonxo‘r Kir! Bu jasorating bilan mag‘rurlanma! Makkorlik bilan o‘g‘limni yengding. Halol jangda yengilarding. Mening maslahatimga ko‘n, o‘g‘limni omon qaytar. Yaxshilikcha yerlarimdan ket... Yo‘qsa tangrimiz Quyosh haqqi hurmati qasamyod qilaman, o‘z qoningga o‘zingni to‘ydiraman», – degan mazmunda noma yuboradi. Kir To‘marisning so‘zlariga zarracha ahamiyat bermaydi. Kayfi tarqagach, o‘zini dushman iskanjasida asir ko‘rgan Sparangis joniga qasd qiladi va o‘zini o‘zi o‘ldiradi. Voqedan xabar topgan To‘maris Kirga qarshi jangga otlanadi. Mirkarim Osim o‘zining «To‘maris» qissasida To‘marisni ulug‘lab bunday hikoya qiladi: «...Quyosh tangrisiga iltijo qilish uchun bir tepalik ustiga chiqdi (To‘maris – **R.Sh., Sh.K., S.X.**), belidagi oltin kamariga osilgan qilichi va qalqonini yerga qo‘yib, massagetlar nazdida xudolarning xudosi bo‘lgan Mitraga sig‘ina boshladi: «Ey, butun mavjudotni – yer-u ko‘kni, suv va o‘tni yaratgan – Quyosh tangrisi! Sen ko‘zingni ochsang – olam nurga to‘ladi. Ko‘zingni yumsang – yer yuzini qorong‘ulik lashkari bosadi. Odamlarga o‘t bergan ham sen, daryolarni toshirgan, ekinzor va o‘tloqlarga suv bergan ham sen! Qo‘y va kiyiklarni ko‘paytirgan, don-dunga baraka bergan ham sen! Ey, ulug‘ quyosh tangrisi, bizni eroniylarga xor qilma, dilimizga g‘ayrat, bilagimizga quvvat ato qil, yuragimizga o‘ch olovini sol! Qilichimizni

o'tkir qil, toki, yurtimizni oyoqosti qilgan makkor dushmanni tormor aylab, qullik balosidan xalos bo'laylik»¹ Gerodot ikki o'rtadagi jangni eng dahshatli jang, deb baholaydi. Avval raqiblar uzoqdan turib, bir-birlariga kamonda o'q uzadilar, o'q-nayzalar tamom bo'lgach, xanjar va nayzabozlikka o'tadilar. Jang maydonida juda ko'p eroniylar halok bo'ladilar, Massagetlar g'alaba qozonadilar. Jangda Kirning o'zi ham halok bo'ladi. To'maris maydan bo'shagan meshlarni qonga to'ldirishga va Kirning boshini uzib olib kelishga farmon beradi. Tezda To'marisning kelini Zarina Kirning jasadini topadi va uning boshini kesib olib, To'marisga keltirib beradi. To'maris soch va soqoliga qonlar yopishib qotib qolgan, ko'zlari yumuq, dahshatli boshni qo'lga olib, unga qarab dedi:

«Men seni mag'lub etib, tirik qolgan bo'lsam ham, sen hiyla bilan o'g'limni nobud qilib, baribir meni ham o'ldirding. Ey Kir! Umr bo'yi jang qilib, odam qoniga to'ymading, mana endi to'yguningcha ich!», – deya shivirladi-da, uning boshini qon bilan to'ldirilgan meshga soldi. Gerodotning yozishicha, qadimda turonliklar, xususan, massagetlar Quyoshga, Yerga sajda qilganlar. Ular o'z vatanlarini quyosh kabi muqaddas, deb bilganlar, To'maris barcha turonliklarning onasi timsolidir. Vatanga sadoqat ramzidir. Ammo Kir o'limi O'rta Osiyoni Eron Ahamoniylariga tobelikdan asrab qola olmadi. Kirning o'gli Kambiz mamlakatda ko'tarilgan erk va ozodlik qo'zg'olonini bostirdi va hatto u o'z otasining jasadini toptirib, maxsus daxmaga solib, dafn ham etdi.

Kambizning Bardiya ismli inisi bo'lib, uyushtirilgan fitna tufayli o'z ukasini o'ldiradi. Bu voqea xalqdan sir tutiladi. Miloddan avvalgi 525-yilda Kambiz Misrni istilo etishga o'tlanadi. Xuddi shu davrda xalq Bardiya o'limidan xabar topadi va bu to'g'rida har xil rivoyatlar to'qiladi. Milodimizdan avvalgi 522-yilda Gaumata ismli zardushtiyar kohini «men Kirning o'g'li Bardiya bo'laman», – deb xalqqa murojaat qiladi va Kambizga qarshi bosh ko'taradi. Oddiy xalq Kambizdan aynib, Gaumataga ergashadi. Gaumata Persidada hokimiyatni qo'lga oladi. Bu voqeadan xabar topgan Kambiz zudlik bilan Misrdan Eronga qaytadi. Ammo yo'lda noma'lum sabablarga ko'ra halok bo'ladi. Gaumata Bardiya nomi bilan shoh bo'ladi. U hokimiyatni qo'lga kiritish jarayonida keng xalq ommasiga tayyanadi va zodagonlarga qarshi choralar ko'radi, aholini uch yilgacha

¹ *Mirkarim Osim*. Jayhun ustida bulutlar. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1975, 19-bet.

davlat soliqlaridan va harbiy xizmatdan ozod etadi. Bu saroy zoda-gonlari noroziligiga sabab bo'ladi. Saroy oqsuyaklari miloddan avvalgi 522-yil 29-sentabrda Gaumatani o'ldirib, Ahamoniy Doro I ni podsho qilib ko'taradilar. Bundan norozi bo'lgan keng xalq ommasini-ning butun mamlakat bo'ylab qo'zg'olonlari boshlanadi. Jumladan, miloddan avvalgi 522-yil 30-sentabrda Marg'iyonada Frada boshchiligida qo'zg'olon bo'ladi. Bu qo'zg'olon 10-dekabr kuni Doro I tomonidan shafqatsizlik bilan bostiriladi. Bixustun qoyalariga bit-tirgan kitobasida Marg'iyona qo'zgoni haqida shunday deyiladi: «Shoh Doro aytdi: Margush (Mag'iyona) nomli mamlakat mendan ajralib ketdi. Qo'zg'olonchilar Frada ismli marg'iyonalik kishini o'zlariga bosh qilib oldilar. Keyin men Baqtriya satrapi xizmatkorim Dadarshishga odam yubordim. Unga shunday dedim: Bor, meni tan olmayotgan uning lashkarlarini yanchib tashla. Keyin Dadarshish qo'shin bilan uning ustiga yurish qilib, marg'iyonaliklar bilan jang qildi. Axuramazda menga yordam qildi. Axuramazdaning irodasi bilan mening qo'shinlarim dushman kuchlarini yanchib tashladi. Keyin mamlakat yana meniki bo'ldi».

Doro I ga qarshi ko'tarilgan Marg'iyonadagi qo'zg'olon O'rta Osiyo viloyatlarida yagona qo'zg'olon emasdi. Bunday qo'zg'olon Parfiyada ham ko'tarilgan. Bu qo'zg'olon miloddan avvalgi 521-yil-ning yozigacha davom etgan edi. Doro I davrida Ahamoniylarga qarshi erk va ozodlik uchun saklar ham bosh ko'targanlar. Buni biz Bixustun yozuvlarida ochiq ko'ramiz. Doro I saklarni quvib Orol sohillarigacha borgan. U saklar hukmdorini asir olganligi, boshqa bir Skunxa ismli lashkarboshini saklarning o'zlari Doro I ga topshirganliklari qayd etiladi. Bu voqealar miloddan avvalgi 520–518-yillarda yo'z bergan. Ahamoniylar hukmronligiga qarshi ozodlik va erk deb bosh ko'targan xalq qahramonlari timsoliga Shiroq harakati ham yorqin misol bo'la oladi.

Jangnoma tilidagi mashhur afsona hisoblangan «Shiroq» tarixiy voqealar asosida vujudga kelgan va barchaning e'tiborini o'ziga tortgan. Bu qadimgi afsonani birinchi marta yunon tarixchisi Poliyen o'zining «Harbiy hiylalar», degan asarida keltirgan. Asarda Shiroq – Siyrak deb nomlangan. Afsonada sak qabilasidan chiqqan otboqar Shiroqning buyuk jasorati, tadbirkorligi, vatanparvarligi va erkparvarlik fazilatlarini hikoya qilinadi. Shiroq o'z qabilasi manfaatlarini himoya qilib, Eron shohi Doro lashkarlariga qarshi chiqadi va harbiy hiyla bilan uning qo'shinlarini chalg'itib, suvsiz Qizilqumning

dasht-sahrosiga boshlab boradi. Suvsizlik, ochlikdan, darmonsiz qolgan g'anim lashkarlar halokatga uchraydi. El-yurt vayrongarchilikdan saqlab qolinadi.

Asarning eng e'tiborli, ta'sirchan joyi shundaki, Shiroqning o'zi ham dushman qo'lida halok bo'ladi, lekin Shiroq uchun bu o'lim mag'lubsiz emas edi, uning orqasida ona Vatan himoyasi, katta bir xalqning taqdiri yotardi. Shiroq o'zi halok bo'lsa-da, yurtdoshlarini, vatanini katta bir ofatdan saqlab qoldi. Ona Vatanning taqdiri, Vatan mudofaasi asarning bosh mavzuyi bo'lib, ajnabiy bosqinchilarga qaqshatqich zarba berish va ularni o'z yurtidan surib chiqarish, mardlik va jasorat ko'rsatish esa uning g'oyaviy mazmunini tashkil etadi.


«Shiroq» asarida bosqinchilikning barcha kirdikorlari qoralanadi va unga minglab la'natlar o'qiladi, tinchlik va ozodlik yo'lidagi barcha urinishlar xalqning Doru I ga qarshi kurashidagi qahramonliklari yanada ulug'lanadi. Shiroqning buyuk qahramonligi bugungi kunda ham og'izdan-og'izga o'tib, Vatan tuyg'usi bilan yashayotgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim tarbiya maktabini o'tashiga hech bir shubha yo'q.

Bu ko'tarilgan qo'zg'olonlar Doru I ni bir qator islohotlar o'tkazishga majbur qilgan. U hatto, saroy zodagonlari huquqlarini ham cheklab qo'yadi va qattiqqo'llik bilan siyosat olib boradi, mamlakatda o'zining mutlaq hokimiyatini joriy qiladi. Doru I Gerodot ma'lumotlariga qaraganda, mamlakatni satrapliklarga bo'lib idora qilgan. Satraplik tepasida hokim-satrap turgan. U cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan. Uning ixtiyorida harbiy va fuqarolik hokimiyati markazlashgan edi. Odatda, satraplar faqat Ahamoniylar oilasiga mansub forslardan tayinlangan. Ularning faoliyatini doimo nazorat etib turish maqsadida maxsus amaldor-ayg'oqchilar qo'yilgan. Ular odatda shahanshohning eng ishonchli «ko'z-quloqlari» edilar.

O'rta Osiyo hududi Ahamoniylar tomonidan Baqtriya va Marg'iyona bilan birga hisoblaganda, 12-satraplikka birlashtirilib idora qilingan. Bu satrapliklar podsho xazinasiga har yili 360 talant¹ o'lpon to'lagan. Parfiya, Xorazm, Sug'd va Areya birgalikda 16-satraplikda bo'lib, 300 talant, saklar va kaspiylar esa 15-satraplikda bo'lib, ular har yili Doru I xazinasiga 250 talant soliq to'laganlar.

¹ Talant – soliq miqdori, 1 talant 34 kg. kumushga teng bo'lgan. Ammo bu pul birligi B.Eshovning asarida 1 talant 30 kg kumushga teng bo'lganligi ko'rsatilgan (88-bet). A. Sagdullayev, B.Aminov, O. Mavlonov, N. Norqulovlarning «O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti» kitobida bir talant 25,92 kg kumushga tengligi ko'rsatilgan (43-bet).

O'rta Osiyo viloyatlari Ahamoniylar davlati tarkibida¹



Bundan tashqari, O'rta Osiyo aholisi shahanshoh xazinasiga har yili to'lab turgan aniq miqdordagi soliqlarga qo'shimcha yirik davlat qurilishlarida ham ishlab berar edilar. Xullas, O'rta Osiyo xalqlari miloddan avvalgi VI–IV asrlarda, ya'ni qariyb 200 yil mobaynida Eron Ahamoniylari hukmronligi ostida yashadilar. Bu davr mobaynida O'rta Osiyo viloyatlari bilan ahomoniylar Eron va unga tobe bo'lgan mamlakatlar o'rtasida savdo va madaniy aloqalar o'rnatildi. Bu davrda O'rta Osiyo aholisi ilk bor zarb qilingan tanga pullar bilan muomala qila boshladi. Ular Eronda amalga oshirilgan yirik me'morchilik qurilishlarida ishtirok etdi. Birgina Suzada podsho saroyi qurilishi uchun oltin Baqtriyadan, lojuvard va qimmatbaho toshlar Sug'ddan olib borilgan edi.

¹ *Sagdullayev A* va boshq. Ko'rsatilgan adabiyot, 43-bet.

Gerodotning yozishicha, Sak va Baqtriya suvoriylari Fors qo'shinida katta kuchni tashkil qilardi. Sug'diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar va saklar ahamoniylar qo'shini tarkibida yunonlarga qarshi janglarda qatnashardilar. Miloddan avvalgi 490-yilda sodir bo'lgan mashhur «Marafon jangi»da fors qo'shinlarining markaziy qismida saklar o'z jangovarliklarini namoyish qiladilar.

Shunday qilib, O'rta Osiyo xalqlarining taqdiri qadimgi ulkan Sharqning tadrijiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'lanib, uning ajralmas qismiga aylandi. Yurtimizda ahamoniylar davriga oid yodgorliklar u davrga oid topilmalar Afrosiyob, Uzinqir, Yerqorg'on, Qiziltepa kabi yodgorliklardan topilgan. Shuningdek, shu davrning eng nodir topilmalaridan biri 1877-yilda topilgan – Amudaryo xazinasi topilmasidir. Unda o'sha davrga oid oltin, kumushdan qilingan ko'plab taqinchoqlar va hunarmandchilik buyumlari topiladi.

O'rta Osiyo xalqlari doimo erk va ozodlikka intilib kurashdilar. Faqat miloddan avvalgi IV asrlarga kelib Ahamoniylarning markaziy hokimiyati kuchsizlana boshlagach, zulm asoratida bo'lgan xalqlar o'z mustaqilliklariga erishish imkoniyatiga ega bo'ldilar. O'rta Osiyoda o'z mustaqilligiga birinchilar qatorida Xorazm vohasi erishdi.

Baqtriya esa to Aleksandr istilosiga qadar Ahamoniylar hukmronligi ostida bo'lgan.

4. O'RTA OSIYO XALQLARINING ISKANDAR ZULQARNAYNGA QARSHI ERK VA OZODLIK UCHUN KURASHLARI

Miloddan avvalgi VI–V asrlarda Eron Ahamoniylari manfaati bilan Yunoniston manfaati Kichik Osiyoda to'qnashib qoladi. Har ikkala davlat bu hududda o'z ta'sir doirasini kengaytirish va mustahkamlash uchun, iqtisodiy va siyosiy jihatdan yuqori mavqeni egalash uchun harakat qiladilar. Ana shu ezgu niyatni amalga oshirish ilinjida Iskandar Zulqarnayning otasi shoh **Filipp II (miloddan avvalgi 382–336-yillar)** zo'r berib, Eronga qarshi urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Xususan, u miloddan avvalgi 338-yilning 2-avgust Xeroneyaning Biote qishlog'ida bo'lgan jangda yunon askarlarini mag'lubiyatga uchratgandan so'ng, Eronni zabt etishni maqsad qilib qo'ygandi, shu maqsadda, Attal boshchiligidagi 10 ming kishilik

qo'shinni ahamoniylar ustiga yuboradi. Biroq Filipp II o'z niyatini amalga oshirolmay 336-yilda uyushtirilgan fitna oqibatida saroy bazmi vaqtida o'ldiriladi (ba'zi muarrixlar buni ahamoniylar sulolasi xonadoni vakillari uyushtirgan fitna desa, ba'zilar Filipp II ni hotini Olimpiada rashkdan zaharlatgan, deb ma'lumot beradilar).

Filipp II o'ldirilganda Elippa shohining qizi Olimpiadadan tug'ilgan o'g'li Aleksandr (miloddan avvalgi 356 – 323) yigirma yoshda bo'lib, otasi uning tarbiyasiga katta e'tibor bergan edi. Uni 13 yoshda bo'lgan chog'ida buyuk olim Aristotel (miloddan avvalgi 383–322-yy.) tarbiyasiga beradilar. Olim Iskandarga falsafa, etika, yunon adabiyoti, san'ati, tibbiyot fanlari, geografiya va boshqa fanlardan 3 yil mobaynida ta'lim va tarbiya beradi. Taxminan, 340-yillardan boshlab, Filipp II o'g'lini davlat ishlariga ham aralashtira boshlaydi, u dastlabki janglarda qatnashadi va ilk g'alabalar nashidasini suradi. Iskandarning jangdagi eng yirik muvaffaqiyatlaridan biri miloddan avvalgi 338-yil 2-avgustdagi Xeroneyaning Biote qishlog'idagi yunonlar ustidan qozonilgan g'alaba bilan bog'liq. Unda u otliq qo'shinga bosh bo'lib, otasining g'alabasiga katta hissa qo'shadi. Filipp II o'ldirilgach, Iskandarni lashkarlar yig'ini shoh qilib ko'taradilar. Taxtni egallagan Aleksandr o'z raqiblari va taxtga da'vo qilishi mumkin bo'lgan barcha erkak zotini qilichdan o'tkazadi va mutlaq hokim bo'lib oladi. U o'z faoliyati davomida qadimgi dunyoning mashhur lashkarboshisi va buyuk davlat arbobi darajasiga ko'tarildi. Aleksandr 22 yoshida jahon saltanatini tashkil qilishga bel bog'ladi. Miloddan avvalgi 334-yilda 30 ming piyoda, 5 ming otliq askar, 160 ta harbiy kema bilan qurollanib, Sharqqa yurishni boshlaydi. Bu yurish qariyb 10 yil davom etadi. Ana shu yurish davomida u Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Eron va Hindistonning katta-katta hududlarini bosib oladi.

Aleksandr miloddan avvalgi 334–330-yillarda Ahamoniylar shohi Doro III ning qo'shinlarini Gavgamel, Granik, Issa yonlarida mag'lubiyatga uchratishga muvaffaq bo'ladi. Shundan so'ng, Eronning asosiy viloyatlarini bosib olgach, miloddan avvalgi 329-yilning bahorida Hindikush tog'idan oshib, O'rta Osiyo hududlariga kirib keladi. Baqtriyada bu paytda Ahamoniylar urug'idan bo'lgan Bess hukmron edi. U Doro III ni zaharlab o'ldirishda qatnashib, o'zini Artakserks nomi bilan podsho deb e'lon qilgan edi. Dastlab baqtriyalik Oksiart, sug'dlik Spitamen va fors Datafarnlar Bessning niyatini anglab yetmadilar va u bilan birga bo'ldilar. Ular

Amudaryodan o'tib, Termizga yaqin bo'lgan joyda ko'prik vazifasini o'tab kelgan yakka-yu yagona kemani yoqib yubordilar va Nautak shahri (Qashqadaryo) tomon chekinadilar. Shu yerda ular o'rtasida nizo kelib chiqadi. Sababi, Bess o'z ittifoqchilari bilan Ahamoniylar zulmi va Iskandarga qarshi birgalashib kurashishga so'z bergan edi. Endi esa u o'zining ittifoqchilardan ustun qo'ya boshlaydi. Buni sezgan Spitamen, Oksiart va Datafarnlar u bilan aloqani uzib, uning o'zini kishanlab, Iskandarga topshirishga qaror qiladilar, bu paytda Aleksandr Eronni egallab, Bess tomonidan o'ldirilgan Doru jasadini topib, uni izzat-ikrom bilan dafn qilish uchun Persepolga yuborib, o'zi Bessni ta'qib qilishga tushgan edi. Ittifoqchilar Bessni kishanlab, qal'ada qoldiradilar. Iskandarga chopar yuborib, o'zlari esa mamlakat ichki tumanlariga chekinadilar. Bu bilan ular dushman istilolarini shu yerda to'xtatmoqchi bo'lgan edilar. Buning sababi shundaki, Aleksandr Eronga qarshi yurish boshlaganda u o'z dushmani Doru III ni zaharlab o'ldirgan Bessdan o'ch olish niyatida ekanligini e'lon qilgan edi. Aleksandr Nautakda Bessni qo'lga tushiradi va Arrian bergan ma'lumotlarga qaraganda, u Ptolomeyga «Bessni yalang'och qilib, ko'chaning o'ng tomoniga bog'lab qo'yishni buyuradi. Sharmandalarcha yap-yalang'och turgan Bessning yonidan Iskandarning butun qo'shinlari saf tortib o'tadi. Uni sharmandali holda yalang'och qilib, Eronga olib keladida, o'limga mahkum etadi. O'limi oldidan qo'li, burni va oyoqlarini kesib, qiynaydi»¹. Bu sotqinning sharmandali o'limi edi. Sotqin, xoin va xiyonatchilardan antik davrlardan e'tiboran xalqimiz naf-ratlangan. Jumladan, qo'l-oyog'i bog'liq Bessni Spitamenning o'zi ham tutib, Iskandarga topshirishi mumkin edi. Lekin Bess har qancha xoin bo'lmasin Spitamen uni o'z qo'li bilan tutib bermaydi. Arrianning ta'kidlashicha, «Bessni o'z qo'li bilan tutib berishdan Spitamen or qiladi». U mard o'g'lon. Shu bois, Spitamen Bessning qo'l-oyog'ini bog'lab, ona Vataniga bostirib kelayotgan dushmani Iskandarga topshirib tiz cho'kishni o'zi uchun or deb biladi.

Yunon bosqinchilari O'rta Osiyoni juda osonlikcha qo'lga kiritishni mo'ljallagan bo'lsalar-da, ular hisob-kitob va re'jada yang-lishgan edilar. Aleksandr qo'shinlariga avvalo, birinchi zarba Oriyona (hozirgi Hirot viloyati)da berildi. Shimoli Sharqiy viloyatlar – Girkaniya, Ariya, Parfiya, Drongiana, Araxoziya, Baqtriya va Sug'diyonani bo'ysundirish uchun uch yil vaqt kerak bo'ldi. Ayniqsa, Baqtriya va Sug'diyonani qo'lga kiritish Aleksandr uchun

¹ Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. – T.: Iqtisod – moliya, 2006, 83-bet.

juda qiyin bo'ldi. O'rta Osiyo xalqlari erk va ozodlik uchun kurashga otlandilar. Ahamoniylarning qo'shinlarini uch marta mag'lub etgan Aleksandr O'rta Osiyoda mislsiz katta qiyinchiliklarga duch keldi. Bu qiyinchiliklar haqida Elian shunday deb yozgandi: «Bessni ketidan quvgan Aleksandr lashkarlari katta mashaqqatlarga yo'liqadilar, oziq-ovqat yetishmaydi, hammalari, hatto shoh ham yuk hayvonlari go'shti bilan tamaddi qiladi. Yoqilg'i ham yo'q bo'lgani uchun go'shtni xomligicha yeydilar... Baqtriyada bir qishloqqa yo'liqadilar, uylarni qor bosgan edi, faqat qorni tozalabgina uylarga kira oladilar»¹.

Bosqinchilarga qarshi umumxalq urushi e'lon qilgan baqtriyaliklar, sug'diyonaliklar va skiflar uch yil davomida dushman bilan mardonavor jang qildilar. Yunon adiblari yozib qoldirgan ba'zi manbalarda chuqur ma'noli xabarlar o'z aksini topgan. Jumladan, Kursiy bunday yozadi: «Lashkarlar avval hech ko'rmagan azoblarni, ochlik, sovuq, charchash, umidsizlik, tushkunlikni boshdan kechiradilar. Ko'plari sovuqdan o'ladilar... horg'inlikdan qorga yotib oladilar». Yoki lashkarlarning yoz issig'ida qiynalganliklarini quyidagicha ifoda etadi: «Iskandar... Sug'diyona dashtlarida kechalari yo'l bosdi. Suv yetishmas edi, tashnalik suvsagandan emas, noumidlikdan, o'ta mushkul ahvoldan ham yuzaga kelardi... Yozgi quyosh issig'i dashtni alangalatadi: bir o't tushgandan keyin cho'l-u biyobon gulxanga aylanadi... issig'idan og'iz va tananing ichi qurib qolgandek tuyuladi. Jangchilar ruhan tushadilar, keyin holdan toyadilar. Hatto bir joyda turish ham qiyin, olg'a bosishning ham iloji yo'q edi... Shunchalik falokatdan shoh tashvishga tushadi»².

Kursiy Rufning hikoya qilishicha, Aleksandr Kiropolis shahri ni ishg'ol qilayotganida qiynaladi. Katta tosh qirradi bo'yniga zarb bilan urilib, yaralanadi. Ko'z o'ngini qop-qora tuman qoplab olganidan Aleksandr holsizlanib otdan yiqiladi. Uning jangchilari taxlikaga tushib yig'lashadi, ular Iskandarni o'ldi, deb o'ylaydilar. Manbalar bergan ma'lumotlarga qaraganda, Baqtriya va Sug'diyona xalqlari skiflar bilan birga Spitamen, Datafarn, Oksiart rahbarligida Aleksandr lashkarlariga nafas olishga imkon bermasdan kurashganlar. Ayniqsa, Samarqandni egallash oson kechmagan, buning uchun ikki yil kerak bo'lgan. Dastlab, Makedonlar bu shaharni sulh yo'li bilan egallaganlar. So'ng, Aleksandr bu yerda kichik bir lashkarni qoldirib, o'zi Sirdaryo tomon yo'l olgan.

¹ *Sulaymonova F.* Sharq ba G'arb. – T.: «Fan» nashriyoti, 1992 yil, 89-bet.

² *Sulaymonova F.* Sharq ba G'arb. – T.: «Fan» nashriyoti, 1992 yil, 89–90-bet.

U O'rta Osiyoda birinchi bor Ustrusxonada Samarqand bilan Xo'jand oralig'ida tog'liklarning qattiq qarshiligiga duch keladi. Tog'liklar bilan bo'lgan jangda Aleksandr mislsiz darajada shafqatsizlik qilgan. Arrian bergan ma'lumotlarga qaraganda, u 30 ming mahalliy aholidan 22 mingini qirib tashlagan. Asirga tushishni istamagan tog'liklarniig ko'plari o'zlarini qoyalardan tashlab, halok bo'lganlar. Kiropol (Krushkat – manbalarda, Kir qurdirgan shahar – S.X) shahrini mudofaa qilishda esa 8000 kishi halok bo'ladi. Yunon-Makedon qo'shinining talafoti ham oz emas edi. Hatto Aleksandrning o'zi ham jarohatlangan edi. Bunday dahshatli voqealar Spitamenga saboq bo'ldi. U endi Iskandarning haqiqiy basharasini ko'radi va unga qarshi muqaddas kurashga otlanadi. Aleksandr jang bilan tog'liklarni qirib, Sirdaryo bo'ylariga chiqib oladi. Bu yerda Iskandarni do'stlarcha sovg'a-salomlar bilan Tanais (Sirdaryo)ning narigi tomonidan **tiataradarayya** saklari kutardi. Aleksandr sak elchilarini garovda qoldirib, o'z odamlaridan bir kishini Tanais ortidagi saklar yurtiga ayg'oqchilik maqsadlarida yuboradi. Xuddi shu paytda Iskandarga Samarqanddan chopar kelib, Spitamen boshchiligida shaharda unga qarshi qo'zg'olon ko'tarilganligi xabarini beradi. Spitamen Samarqandni egallab, Iskandarning u yerda qoldirilgan Farnux qo'mondonligidagi 3000 piyoda, 800 otliq qo'shinlarini qirib tashlaydi. Aleksandr zudlik bilan Samarqandga yo'l oladi. Aleksandr ketishi bilan Xo'jand qal'asida garovga qoldirilgan saklar bosh ko'taradilar va yunon qo'shinlarini qirib tashlaydilar.

Miloddan avvalgi 328-yilda Aleksandr Spitamen boshchiligida Samarqandda ko'tarilgan qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi va shaharni ikkinchi marta egallaydi. Diodor bergan ma'lumotlarga qaraganda, «Aleksandr qo'zg'olon ko'targan sug'diylarni yengib, 120 ming aholini qirib yubordi», uning ikkinchi bosqichida «u baqtriyaliklarga jazo berib, sug'diylarni qaytadan o'ziga bo'ysundirdi va joylarda qal'alar barpo etdi». Qo'zg'olonning uchinchi bosqichida «qo'zg'olon ko'targan sug'diylarning tog'larga qochib yashiringanlari asirlikka olindi»¹. Ana shu davrdan e'tiboran, Aleksandr uchun Spitamen eng asosiy va dahshatli kuchga aylandi. Tarixchi olim Fozila Sulaymonova sug'diylar qahramoni Spitamenning nomi yunonchadir, deb hisoblaydi. Uning fikricha, Spitamen sug'diy tilida, taxminan, Spenta Mayi'o (harakatchan yoki muqaddas ma'nosini

¹ Asqarov A. O'zbekiston tarixi. –T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 1994, 189-bet.

bildiradi) bo'lsa kerak¹, deydi. Spitamenning tarjimai holi va shaxsi to'grisida hech qanday ma'lumotlar saqlanmagan. Uning qizi Apamani Aleksandr o'z qo'mondonlaridan biri bo'lgan Salavkga xotinlikka olib beradi. Buni yunon muarrixlari ham tasdiqlaydilar. Jumladan, Plutarx Salavkning xotini «eroniy», – deydi. Bu fikrni Strabon ham tasdiqlaydi. Arrian esa uni «baqtriyalik», deb hisoblaydi. Xullas, qayerlik bo'lganda ham Spitamen O'rta Osiyoning yerli mahalliy xalq farzandidir. Salavkiylar avlodidan bo'lgan shohlar ota tomonidan yunon va ona tomonidan Spitamen avlodidan bo'lganlar.

Kvint Kursiy Rufning asarida Spitamen jismonan baquvvat, jasur, mard va tadbirkor bir kimsa suratida tasvirlanadi. Dastlabki paytda, «Aleksandr Spitamenga katta-katta va'dalar beradi, hatto, Sug'diyona hokimligini in'om etmoqchi bo'ladi. Spitamen esa vatanfurushlik qilgandan ko'ra, o'limni afzal biladi»².

Spitamen dastlab, masalaning mohiyatiga chuqur baho bera olmasdan, Iskandarni Turon xalqini Ahamoniylar zulmidan ozod qiluvchi haloskor deb bilgan. Iskandarning amalda xalqqa o'tkazgan jabr-zulmi, qilgan yovuzliklari va shafqatsizliklarini o'z ko'zi bilan ko'rgach, uning fikri keskin o'zgaradi. «Iskandarnoma»da ham Iskandarning xalqqa o'tkazgan zulm-sitamlari quyidagi satrlarda ifodalangan:

*Ey, Aleksandr, nadir xohishing,
Bayon ayla, bizga bu g'araz ishing,
Urub tig' devlarni sahr aylading,
To'kib qonimiz, lolazor aylading.*

Aleksandr Doroning yuz minglab muntazam qo'shinlariga qarshi kurashdan ko'ra, Spitamen boshchiligida bosh ko'targan xalq qasoskorlariga qarshi kurashish qiyin ekanligini tushunib yetadi. Chunki, qo'lga tushmas Spitamen dushman kutmaganda hali u yerda, hali bu yerda paydo bo'lar va makedoniyaliklarga ofat va talafot keltirardi. Jumladan, Kvint Kursiy Ruf Spitamen faoliyati bilan bog'liq quyidagi voqeaviy misolni keltiradi: «Jangchilarning chaqqonligi otlarning tezligiga mos edi. Spitamen lashkarlariga o'rmonni qurshab olishni buyurdi va bir vaqtda ularni dushmanning yon tomoniga front orqasidan olib chiqdi. Menedem har tomonlama qurshovda qoldi... lekin uzoq vaqt qarshilik ko'rsatdi...

¹ Sulaymonova F. «Sharq va G'arb», «Fan» nashriyoti, 1992, 91-bet.

² Boynazarov F. «Antik dunyo», 47-bet.

Bu jangda 2000 piyoda va 300 suvoriylar halok bo'ldilar. Bu talafotni Aleksandr ustalik bilan hammadan yashirdi»¹ yoki makedoniyaliklarning Zarafshon daryosidan o'tish voqeasi ham bu borada jonli misoldir». Arrian bunday ma'lumot beradi: «Makedoniyaliklar daryodan mutlaq tartibsizlik bilan o'ta boshladilar. Varvarlar² ular qo'ygan xatolikni sezib... har tomondan o'rab oladilar... ularni qayta daryoga itarib tashlaydilar yoki o'q-yoy bilan otadilar... chorasiz qolgan makedoniyaliklar daryo o'rtasidagi orolga chiqib oladilar. Skiflar va Spitamen lashkarlari ularni qurshab kamondan otib tashlaydilar, bir qismini asir oladilar, ammo keyincha ularni ham otib tashlaydilar».³ Darhaqiqat, Aleksandr qo'shinlari juda katta talafot ko'rib, Sug'diyona va Baqtriyadagi qo'zg'olonni bostira olmagan. U o'ziga qarashli viloyatlardan 19 ming yollanma qo'shin yordamga etib kelgach, bu isyon bostirilgan. Yunon muarrixlarining asarlarida Spitamen bilan birgalikda Iskandarga qarshi jang qilgan skiflar, baqtriyaliklar, massagetlarning jasorati va ularning ajoyib urf-odatlari va madaniyatlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Jumladan, Kvint Kursiy Rufning ta'kidlashicha, skiflar boshqa «varvar» xalqlaridan farq qiladilar, «ularning fikr ifodalanishlari qo'pol emas, madaniyati ham durust edi». Yana u davom etib yozadi: «Aytishlaricha, ularning orasida donishmandlari ham bor ekan»⁴. Kvint Kursiy Rufning qayd qilishicha, «skiflarning hatto nutqi ham jozibador edi. O'zining go'zal nutqiga, madaniyatiga ega bo'lgan skiflarning o'sha davrlarda o'ziga xos adabiyoti ham bo'lgan».

Kvint Kursiy Ruf «Aleksandr tarixi» asarida skiflarning jasurligi va mardligini ta'riflaydi. Uning yozishicha, Aleksandr skiflarning katta bir guruhini asir oladi. «Jismoniy jihatdan baquvvat bo'lgan skiflardan 30 kishini o'limga mahkum etganda, ular o'limdan ham qo'rqmasdan, xalq qo'shiqlarini baralla aytib, xursand bo'lib borardi»⁵, – deydi u. Skiflarning mardligiga qoyil qolgan Aleksandr asirlarni o'limdan saqlab qolib, hibsdan ozod qiladi.

Asarda massagetlarning jasoratlari haqida ham yorqin satrlar bor. «Massagetlar 800 nafar otliq jangchilarini qishloq yaqinidagi o'rmonga yashirib qo'yadi. Bir necha kishi poda haydab o'rmonga

¹ *Sulaymonova F.* «Sharq va G'arb». «Fan» nashriyoti, 1992, 91-bet.

² Qadim zamonlarda greklar grek bo'lmagan boshqa xalqlarni «varvarlar» – madaniyatsiz, nodon, qo'pol, yovvoyi xalq deb kamsitganlar.

³ *Sulaymonova F.* «Sharq va G'arb». «Fan» nashriyoti, 1992, 91-bet.

⁴ *Boynazarov F.* «Antik dunyo». 1989, 50–51-bet.

⁵ O'sha asar, 54-bet.

qarab bemalol ketaveradi. Tayyor o'ljani qo'ldan chiqarmaslik uchun Attin o'zining 300 otliq jangchisi bilan hech shubha qilmasdan o'rmonga kirib boradi. Massagetlar Attin qo'shiniga qo'qqisdan hujum qilib, ularning hammasini qirib tashlaydi».¹

Kvint Kursiy Rufning asarida Spitamen fojiasiga sabab bo'lgan xoinlar, qo'rqoq va sotqinlarga nafrat o'tini sochuvchi yorqin satrlar ham anchagina. Ana shunday sotqinlardan biri Spitamenning xotinidir. Horib-charchagan Spitamen shirin taom va sharob ta'sirida qattiq uyquda yotardi. «Xotini pinhona kelib, qilichini sug'urib oldida, Spitamenning boshini kesib tashladi. Qonga belangan erining kallasini bu jinoyatdan ogoh bo'lgan qulga keltirib beradi. So'ngra, makedon qo'shinlari joylashgan lagerga kelib, Iskandarga xabar qilishni, muhim xabar olib kelganligini, bu xabarni shohga shaxsan o'zi yetkazishi lozimligini aytadi. Aleksandr bu mudhish voqeadan ogoh bo'lib g'azablanadi.

Aleksandr Spitamen bilan yakkama-yakka jangda olishish niyatida edi. U jallod xotinni lagerdan tashqariga haydab yuborishni, unga sherik bo'lgan qulni yerli xalqning eng og'ir jazosiga mahkum etishni buyuradi. Spitamenning xotini erining boshi evaziga Iskandardan katta mukofotga umidvor edi. U xor-zor bo'lib o'ladi. «O'z eriga xiyonat qilgan xotin menga do'st bo'lardimi», – deydi Iskandar»². Spitamenning o'limi haqida Arrian boshqacharoq rivoyatni keltiradi. Uning yozishicha: «Skif-massagetlar yengilganlaridan so'ng, o'zlari bilan birga ittifoq bo'lib dushmanga qarshi jang qilgan baqtriyaliklar va sug'dlar yuklarini talaydilar va qochadilar. Spitamen ham ular bilan birga ketadi. Ularga «Aleksandr dashtga hujum boshlar emish», – degan xabar yetgach, Spitamenning boshini tanasidan judo qilib, shohga yuboradilar va shu yo'sinda Iskandarning hujumining oldini olmoqchi bo'ladilar».

Tarixiy yozma manbalarda, katta sovg'a-salomlar bilan do'stlik aloqalarini o'rnatish maqsadida, Xorazm shohi 1500 otliq suvoriylar bilan Aleksandr oldiga bosh egib kelganligi yoziladi. Jumladan, «Iskandarnoma»da Xorazmshoh «Feruzbax va Jamshidshoh o'z askarlari bilan yordamga» kelgani ta'kidlanadi. Arrian esa «Xorazmliklar shohi Farasman Iskandarga bosh egib keldi», – deydi. Strabon bo'lsa, «...massaget va saklarga attasiy va xorazmiylar ham kiradilar, Spitamen u yerga qochib ketgan... Iskandarga

¹ *Boynazarov F.* «Antik dunyo», 1989, 57-bet.

² O'sha asar, 55-bet.

bo'ysunmagan», – deydi. F. Sulaymonovning «Sharq va G'arb» asarida esa «Xorazmiylar shohi Farasman ham yurishda ittifoq etish uchun Iskandarga suvoriylar otryadini olib keldi», – deyiladi.

Aslida Xorazm hukmdori o'zining donishmandligi va uzoqni ko'ra bilganligi tufayli mamlakat mustaqilligini saqlab qola oldi. U vaziyatni to'g'ri baholay oldi va Samarqandga Aleksandr huzuriga keldi. Farasman mazkur uchrashuv chog'ida harbiy ittifoq tuzib, Qora dengiz tomon yurishni taklif etadi. Sug'dlik Spitamen qo'zg'olonini bostirish bilan band Aleksandr «Farasmanga tashakkur aytib, u bilan do'stlik ittifoqini tuzadi». Shu bilan birga hozir Pontiga (ya'ni Qora dengizga – **R.Sh., Sh.K.**) yurish vaqti emas», – deb aytadi. Aleksandr ishonchini oqlagan Farasman yunonliklarning keyingi harbiy rejasi hind zaminiga yurish ekanligini ham bilib oladi. Uzoqni ko'ra bilgan Farasman shu tariqa, mintaqadagi yagona barqaror yer – Xorazm daxlsizligini saqlab qoladi hamda Iskandarning kelgusi rejalaridan voqif bo'lib oladi. Farasmanning Aleksandr bilan ittifoqi strategiya nuqtayi nazaridan amalga oshirilgan siyosiy qadam ekanligini shundan ham aniq ko'rish mumkin, bir yil o'tar-o'tmas miloddan avvalgi 328-yili u yunonliklar tazyiqidan qochishga majbur bo'lgan Spitamenga Xorazmdan boshpana beradi (Strabon, miloddan avvalgi 1-asr – milodiy 1-asr). Fikrimizcha, Xorazm hukmdorining Iskandarning ashaddiy dushmani Spitamenni qabul qilishni nafaqat uning vatandoshlik hissidan, balki Iskandarning ahvolidan boxabarligi hamda ma'lum ma'noda, kezi kelganda o'z imkoniyatlariga ishonganligidan hamdir. Zero, Xorazm bu zamonda janubiy sharqda o'z ta'sirini yo'qotgan bo'lsa-da, shimoliy g'arbda Qora dengiz – Azov bo'ylarigacha bo'lgan yerlardagi mavqeyi saqlanib qolgandi. Xullas, Spitamen boshchiligidagi xalq qasoskorlari harakati o'lka xalqlari orasida mustahkam birlik, hamkorlik va ittifoqning bo'lmaganligi, dushman tomoniga o'tgan ba'zi qo'rqqoq va xoinlarning sotqinligi tufayli mag'lubiyatga uchradi. Ammo Spitamenni bartaraf etish, Baqtriya va Sug'diyonani egalash Aleksandr uchun oson kechmadi.

Makedon qo'shinlarining yengilmasligi haqidagi afsonalar O'rta Osiyoda chippakka chiqdi. Aleksandr askarlari Baqtriya, Sug'diyona va skiflardan bir necha marta yengildilar, juda ko'plab makedon qo'shinlari janglar davomida qirib tashlandi. Birgina Politimet (Zarafshon) daryosi bo'yidagi janglarda makedon qo'shinlari ikki marta talafot ko'rdi. Iskandarning shaxsiy hayoti ham Sug'diyonada

juda og'ir kechdi. Ayniqsa, Kiropil shahrini egallash paytida, boshi va bo'ynidan yaralanib, ko'p azob tortdi. Yana buning ustiga lashkarboshisi Karan boshliq qo'shinining qirib tashlanishi, skiflarning tinimsiz qilayotgan hujumlari Iskandarning ruhiy kasallanishiga sabab bo'ldi, uning xotirasi ancha zaiflashdi, asablari ishdan chiqdi. Natijada, u o'ziga eng yaqin bo'lgan sarkardasi Klitni achchiq ustida o'z qo'li bilan o'ldirib qo'ydi.

Klit Dronidning qizi Lanikaning ukasi bo'lgan. Lanika Iskandarni tarbiyalab voyaga yetkazgan, unga ko'krak suti bergan ayol edi. Aleksandr o'zi qilib qo'ygan fojiani ko'tara olmasdan ruhiy azobga tushadi. Lanika oldida o'zini gunohkor his qiladi. Uch kechayu kunduz hech narsa yemasdan, ichmasdan, tashqariga chiqmasdan, xonani ichidan berkitib yotib oladi. Ha, Iskandarni ruhiy tushkunlik ezayotgan edi.

Iskandarni bunday ruhiy tushkunlikka uchrashiga sabab O'rta Osiyoning erksevar va ozodlikka intiluvchi mard va jasur xalqlarining kelgindi dushmanlarga qarshi mardonavor kurashlari edi. Chunki Aleksandr mahalliy xalqqa og'ir zulm o'tkazdi, qanchadan qancha shaharlar vayron qilindi, yuz minglab yerli xalq qullarga aylantirildi, dunyo bozorlarida sotildi, qanchasi qirib tashlandi, behisob moddiy boyliklar talon-toroj qilindi, yerlar suv o'rniga qon ichdi, turar joylar, bog'-u bo'stonlar yondirildi, ularning kuli ko'kka sovurildi.

Bularning hammasi o'lkaning istiqboldagi rivoji va taraqqiyotini necha o'n yillar orqaga surib yubordi. Erksevar va hurriyatparvar, insoniy g'ururi yuksak va mag'rur ajdodlarimiz dushmanga bo'yin egmadilar, ularning qarshiligi borgan sari kuchaydi va ular dushmandan qonli qasos oldilar. Buni tushungan ayyor va tadbirkor Aleksandr endi hiylakorlik va ustamonlik yo'liga o'tdi.

Aleksandr mahalliy xalq vakillari, birinchi navbatda hukmdor oqsoqollar va rahbarlar bilan umumiy til topish, ularga yaqinlashish yo'llarini izlay boshladi. U miloddan avvalgi 327-yilni Nautakda o'tkazib bahorda Nautakka yaqin bo'lgan Sug'd qal'asini egallaydi. Tog'lar orasida joylashgan bu shaharning hokimi Aksiart edi. Yunon muarrixlarining ma'lumotlariga qaraganda, Aleksandr Aksiart bilan yaqinlashgach, Baqtriya va Sug'diyona tog'lari orasida joylashgan 4 ta qal'ani: Sug'd, Sizimeta, Arimaza va Xorienni egallaydi. Gap shundaki, Aleksandr Baqtriya zodagoni Aksiartning go'zal

qizi Roksana (Raxshona, Ravshanak)ga uylanadi va uni malika deb e'lon qiladi. Plutarx bergan ma'lumotlarga qaraganda, «Roksana Iskandarning xayoli, orzusidagi qiz edi». Arrianning yozishicha: «Jangchilar Doroning xotinidan keyin Osiyoda bunday go'zalni uchratmaganliklarini aytib, Roksananing husn-u jamoliga maqto'v so'zlar aytishadi.

Aleksandr Roksananani asir ushlab turmasdan, uni o'ziga faxriy xotinlikka oladi.

Oksiart qizi Roksanaga Iskandarning oshiq bo'lib qolganini eshitib, behad xursand bo'ladi va Iskandarning huzuriga keladi. Aleksandr uni o'z faxriy kishisi sifatida qabul qiladi»¹.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Aleksandr Roksana tufayli Oksiartning barcha gunohlarini kechiradi va uni Baqtriya satrapi etib tayinlaydi. Bu voqeani eshitgan Iskandarga raqib bo'lgan Eparx Xorien Iskandarga jangsiz taslim bo'ladi (qal'ani yunon-makedonlar uning nomi bilan atashgan) va o'z qal'asiga hokim bo'lib oladi. Ana shu tariqa, Aleksandr boshqa qal'alarni ham birin-ketin egallay boshlaydi. Plutarx Iskandarning yerli xalq urf-odatlarini va madaniyatiga katta hurmat bilan qaraganligini alohida ta'kidlaydi. «Hatto, – deydi u, – varvarlarning milliy kiyimlarini kiyib yurishni o'ziga ma'qul ko'radi... Hatto, shoh makedon jangchilariga ham yerli xalqning urf-odatlarini o'rganishni ta'kidlaydi»².

Zikr qilingan manbada ta'kidlanishicha, Aleksandr «varvar»larning (ya'ni yerli xalqlarning – R.Sh. Sh.K. S.X.) kiyimlarini dastlab ularning vakillari bilan uchrashganda, ularning uylariga tashrif buyurganda, ahyon-ahyonda kiygan bo'lsa, keyinchalik, u butunlay «varvarchasiga» kiyinib yurishga ko'nikib qoladi. Iskandarning yerli mahalliy xalqqa nisbatan, bunday «odilona» va «insoniy» munosabatda bo'lishi aholi ma'lum bir qismining, asosan, yuqori tabaqa vakillarining Aleksandr tomoniga o'tishiga sabab bo'ldi. Xalq rahbarsiz qoldi.

Aleksandr qalbining to'ridagi yashirin va pinhona istak va tilak ham aynan shu edi. Bu hol uning Baqtriya va Sug'diyona xalqlari ustidan to'la hukmronlik o'rnatilishiga imkoniyat yaratdi. Aleksandr miloddan avvalgi 327-yilda O'rta Osiyoni o'ziga bo'ysundirib ma-

¹ *Boynazarov F.* «Antik dunyo», 1989, 66–103-betlar.

² O'sha asar, 64-bet.

halliy aslzodalardan bo'lgan Oropiyani Sug'd podsholigiga tayinlaydi va Hindiqush orqali Hindiston sari o'tlanadi. Hindistonni ham o'ziga tobe etgan Aleksandr 324-yilda yana O'rta Osiyoga qaytadi. Shu yili Suzada Aleksandr katta ommaviy to'y uyushtiradi. Uning askarlaridan 10 ming jangchi, shu jumladan, shohga yaqin bo'lgan Gefestion, Krater, Ptolomey, Salavk, Evmen, Perdikka va boshqalar sharq ayollariga uylanadilar. Iskandarning o'zi malika Roksana ustiga sharq odatiga ko'ra, Doroning katta qizini xotinlikka oladi. Shoh kuyov-kelinlarga katta tortiqlar va sovg'a-salomlar beradi.

Iskandarning O'rta Osiyodagi xatti-harakatlari, uning bu yerda yurgizayotgan siyosati grek-makedon lashkarlarning ma'lum bir qismiga yoqmaydi. Ular, Iskandarning sharq xalqlari vakillarini grek va makedonlar, shoh yaqinlari – **Getayrlar** darajasiga ko'tarishidan norozi lashkarlar Tigr sohilidaga Opis degan shaharda isyon ko'taradilar. Iskandarning buyrug'iga bo'ysunmaydilar. G'azablangan Aleksandr 323-yilda 13 jangchini jazolaydi. F. Sulaymonova asarida ta'kidlanishicha, Baqtriya va Sug'diyonaga ko'chirib keltirilgan 10 ming faxriylar o'z vatanlariga qaytadilar. Biroq lashkarboshi Perdikka ularning barchasini qurolsizlantiradi va mol-mulklarini sodiq askarlarga bo'lib beradi. Endilikda Aleksandr qo'shinlarining ko'pchiligini eroniyalar, O'rta Osiyo xalqlari vakillari – «varvarlar» tashkil qilar edilar. Aleksandr miloddan avvalgi 323-yilda o'z davlatining yangi poytaxti – Mesopotamiyaning Bobil shahrida vafot etadi. Shunday qilib, makedoniyalik Aleksandr olib borgan bosqinchilik va talonchilik urushlari oqibatida O'rta Osiyoda Ahamoniylar zulmi yunon-makedon istilochilari zulmi bilan almashdi. Bu zulmdan qutulish uchun Sug'diyona xalqlariga 150 yil, Baqtriya xalqlariga esa 180 yil kerak bo'ldi.

Iskandarni O'rta Osiyo xalqlarining do'sti, adolatparvar, ilm-ma'rifat va madaniyatni yoyuvchi shahanshoh sifatida ta'riflaydilar. Plutarxning yozishicha: «Aleksandr Sharq xalqlari vakillarini yunon madaniyatidan bahramand qilishga...» uringan ekan. Hatto, O'rta Osiyoda bo'lganida «...yerli aristokratlarning 30 ming o'g'illarini tanlab olib, ularga yunon tilini o'rgatib, grek madaniyati ilmidan ta'lim berishni»¹ buyurgan ekan. Albatta yunonistonlik muarrixlar-

¹ Sulaymonova F. «Sharq va G'arb». «Fan» nashriyoti, 1992, 94-bet.

ning bu tutgan yo'llarini tushunmoq kerak. Ular nima bo'lganda ham O'rta Osiyoni zabt etgan, uni asoratga solgan fotih Aleksandr avlodidirlar. Zero, ular o'z davlatlarining, o'z vatandoshlari bosqinchi Iskandarning qonli yurishlarini oqlashga, uni ijobiy tomondan ko'rsatishga harakat qilishlari tabiiy ekanligini fahm etsa bo'ladi.

To'g'ri, Aleksandr O'rta Osiyo hududlarida ham shaharlar barpo etgan. Jumladan, Yustin «Pompey Trog epitomi» asarida Aleksandr Baqtriya va Sug'diyonada 7 shahar qurdirganligini yoza-di. Shulardan biri Sirdaryo sohilida 17 kunda qurib bitkazilgan qal'a «Aleksandriya Esxata», ya'ni «Olisdagi Iskandariya» edi. Bu shahar Xo'jand bilan Bekobod oralig'i (taxminan Farhod GESi)da joylashgan edi. Bu qal'a – shaharlarni Aleksandr nega qurdi? U bu shaharlarda grek-makedon qo'shinlarini joylashtirib, kelgusi joylarni zabt etishda bu shaharlardan plastdarm sifatida foydalangan edi. Shu sababdan, «Aleksandriya Esxata»ni tezda barpo etib, Iskandar, bu yerdan saklar ustiga yurish boshlagan. Bundan tashqari, Iskandarning O'rta Osiyoda olib borgan yaratuvchilik faoliyatiga qaraganda, uning vayron etuvchilik, buzg'unchilik faoliyati o'n chandon ortiqroq va ko'proq bo'lgan, behisob shahar va qishloqlarni vayron etgan.

Nazorat savollari

1. Odamlar nima uchun turli ijtimoiy tabaqalarga bo'linib ketdi?
2. Urug', qabila, jamoa, qabilalar ittifoqi nima?
3. Qanday sharoitlar davlatlarning shakllanishiga sabab bo'ldi?
4. Urug'chilik jamoasining yemirilish sabablari nimalardan iborat?
5. «Avesto» kitobi – Vatanimiz tarixini o'rganishda muhim manba.
6. «Avesto»da urug', qabila, davlat, katta oila tushunchalarining talqin etilishi.
7. Ilk davlat birlashmalari qanday paydo bo'lgan?
8. O'rta Osiyo xalqlarining Eron ahamoniylariga qarshi kurashi qahramonlari kimlar bo'lgan?
9. Bu davrdagi aholi qaysi dinlarga e'tiqod qilgan?
10. Qulchilikning qanday o'ziga xos xususiyatlari bo'lgan?
11. Aleksandr zulmiga qarshi kurash qahramonlari kimlar edi?
12. Xorazmliklar, baqtriyaliklar, sug'diyonaliklar yashagan hududlarni ta'riflab bering.

III BOB

O'RTA OSIYODAGI QADIMGI DAVLATLAR (miloddan avvalgi IV asrdan milodning IV asrigacha)

1. O'RTA OSIYO SALAVKIYLAR HUKMRONLIGI OSTIDA

Makedoniyalik Aleksandr vafotidan so'ng, taxt vorisligiga da'vogar shaxs yo'q edi. Aleksandr vafotidan so'ng, to'rt oy o'tgach, Roksana o'g'il ko'radi. Unga Aleksandr deb ism qo'yadilar. Kichik Aleksandr Sharqiy viloyatlar hukmdori etib tayinlanadi. Hukmdor hali yosh bo'lganligi uchun bu viloyatlarga rahbarlik qilish qo'mondonlardan Perdikka va Antipatr zimmasiga yuklanadi. Ammo toj-taxt uchun olib borilgan kurash yosh go'dakni ham omon qoldirmaydi. Taxt uchun kurashda Aleksandr lashkarboshilarining birortasi ham yorqin g'alabaga erisha olmaydi. Buning ustiga Aleksandr vafotidan xabar topgan xalqlar ozodlik kurashiga otlanadilar. Tarixiy manbalarga qaraganda, Murg'ob vodiysida barpo etilgan Margiana Aleksandriya shahrini «varvarlar» vayron etadilar. Miloddan avvalgi 301-yilda Frigiyaning Ips deb atalgan joyida yuz bergan qonli janglar oqibatida Aleksandr saltanati uch mustaqil davlatga: Makedoniya, Misr, Suriya va Sharqqa bo'linib ketadi. Makedoniya – Antiox avlodlariga, Misr – Ptolomey avlodlariga va Suriyadan to O'rta Osiyo – Hindistongacha Salavka tegadi. Salavka 312-yildayoq Vaviloniyada o'z hukmronligini mustahkamlagan edi. Shundan so'ng, Salavka Sharqiy satrapliklarni ham egallaydi. Bu masalada Salavka bilan Nikanor o'rtasida kurash kuchayadi. Nikanor birinchi jangdayoq mag'lubiyatga uchraydi. Salavka miloddan avvalgi 311–302-yillarda boshqa satraplar bilan ham jang olib boradi va Sharqda o'z hukmronligini mustahkamlaydi. Ana shu tariqa, Salavka I parfiyanlar, baqtriyalik sug'diylar, girkanlar ustidan o'zining tanho hukmronligini o'rnatadi.

302-yildagi Suriya, Kichik Osiyo va Mesopotamiya viloyatlari uchun Salavka bilan Antigon o'rtasidagi jang bir yilga cho'ziladi, bu jang Salavkaning yorqin g'alabasi bilan yakunlanadi.

Ana shu tariqa, Aleksandr saltanatining katta qismi Salavka qoʻli ostida birlashadi. U mustaqil siyosat olib bordi, satrapliklarni maydalab yubordi, ularning sonini 72 taga yetkazdi. Salavkaning maqsadi satrapliklarning qudratini pasaytirish va ular ustidan hukmronlikni kuchaytirishdan iborat edi. Ammo Salavka I ning oʻgʻli Antiox I davrida satrapliklar yana yiriklashtirildi.

293-yilda Salavka oʻz poytaxtini Bobildan Suriya – Antioxiyaga koʻchiradi.

Satraplar qoʻlida katta hokimiyat boʻlgan, ammo ularda oliy harbiy hokimiyat yoʻq edi. Oliy harbiy hokimiyat markaziy hukmdor podshoh ixtiyorida boʻlgan. Bu markaziy hokimiyatning ustunligini taʼminlash uchun zarur edi. Ammo bu boshqaruv usuli sharqiy viloyatlarda keyinchalik buzilgan boʻlsa-da, harbiy viloyatlarda saqlangan edi.

Salavka 293-yilda sharqiy viloyatlarning ishini oʻz oʻgʻli Antioxga topshiradi va uni hukmdor qilib tayinlaydi. Bu viloyatlar Salavka davlati iqtisodiyotida katta oʻrinni tutar edi.

Antiox Spitamenning qizi Apamadan tugʻilgandi. Salavkaning toʻngʻich oʻgʻli ham boʻlgan. Yunon muarrixlari, Salavka I va Antioxlar Oʻrta Osiyoga juda katta eʼtibor berganliklarini yozadilar. Ular davrida 75 shahar qurilganligi manbalarda qayd etiladi. Bu shaharlar Salavkiya, Antioxiya va boshqa nomlar bilan atalgan. Tarixchilar bunday shaharlardan biri eng uzoqlikda joylashgan «Yaksart» (Sirdaryo) ortidagi Antioxiya deb hisoblaydilar. Bu shaharni Xitoy manbalarida Oʻzgan shahri boʻlsa kerak, deb taxmin qiladilar. Salavka xalqaro tijorat ishlarini rivojlantirish masalasiga ham katta eʼtibor beradi. Ana shu maqsadda, u Kaspiy bilan Qora dengizni bogʻlab, Amudaryo orqali «Tosh minora»ga yoʻl ochishga qaror qiladi. (Beruniy fikricha «Tosh minora» yoki «Tosh shahar», yaʼni bu Toshkentdir.)

Strabon bergan maʼlumotlarga qaraganda, Antiox Margʻiyonada oʻz nomiga qurdirgan shahar – Antioxiyani koʻchmanchilarning tinimsiz hujumidan himoya qilish maqsadida, Murgʻob vohasi atrofini 250 km devor bilan oʻrab olgan, ammo koʻchmanchilarning hujumlari bu bilan toʻxtamagan. Ular u yoki bu shahar devorlari ostida yoki ekinzor dalalar hamda voha bogʻlarida kutilmaganda paydo boʻlar va yana tezda koʻzdan gʻoyib boʻlar edilar. Ana shunday ogʻir bir vaziyatda Salavka I Hindistonga qarshi urush boshlaydi. Bu urush uning magʻlubiyati bilan yakunlanadi. Natijada, salavkiylarning Oʻrta Osiyodagi obroʻsiga putur yetadi, ularga qarshi qoʻzgʻolonlar bosh-

lanadi. Salavkiylar og‘ir ahvolga tushib qoladilar. Antiox mahalliy aslzodalarga bir qadar yon bosib, og‘ir vaziyatning oldini oladi. U Baqtriyaning sharqiy viloyatlari uchun davlatning o‘z pullarini zarb etishga kirishadi. Antiox nomi bilan Baqtriyada pul zarb etilishi uning mustahkam davlat siyosatini olib borayotganligini ko‘rsatar edi. Miloddan avvalgi 280-yilda Salavka I vafot etadi. Salavkiylar davlatiga Antiox I bosh bo‘ladi. Ana shu davrdan boshlab, sharqiy viloyatlar Antiox I faoliyatidan chetda qoladi. Chunki harbiy viloyatlardagi harbiy vaziyat uning qo‘shin bilan birga bo‘lishini taqozo etar edi.

Ayni paytda, harbiy viloyatlarda ham vaziyat ko‘ngildagidek emas edi. Xullas, Salavka I vafotidan so‘ng, davlatning zaminiga putur yetadi. Sharqiy viloyatlar oltin, fil, lazuritlar bilan doimo jarima to‘lab tursalar-da, ularning mustaqillikka intilayotganliklari sezilib turardi. Bu jarayon, xususan, miloddan avvalgi III asr o‘rtalariga kelganda ko‘zga yaqqol tashlana boshladi.

Bu davrda Baqtriya va Sug‘diyona aholi dehqonchilik bilan shug‘ullanardi. Shaharlarning o‘sishi hunarmandchilik va suv xo‘jaligining taraqqiyotiga ta‘sir etgan. O‘rta Osiyoning salavkiylar davlati tarkibida bo‘lishi so‘zsiz suratda Ellin madaniyati ta‘sirining o‘lka xalqlari orasida tarqalishiga sabab bo‘lgan omildir.

2. PARFIYA DAVLATI. YUNON - BAQTRIYA PODSHOLIGI

Yuqorida qayd etilganidek, miloddan avvalgi III asrning o‘rtalarida salavkiylar saltanati inqiroz sari yuzlandi. Sharqiy satrapliklar markaziy hokimiyatga bo‘ysunishdan bosh tortib, mustaqil siyosat yurgizishga intildilar. Xususan, bu sohada Parfiya va Baqtriya satrapliklarining faoliyati alohida diqqatga molikdir.

Parfiya podsholigi¹ – miloddan avval taxminan, 250-yilda Kaspiy dengizining janubiy va janubiy-sharqiy tomonida vujudga kelgan qadimiy davlat. Azamat Ziyo bu davlat haqida shunday yozadi: «Mintaqamizning Atrek hamda Girkan daryolari yuqori havzasida joylashgan (Janubiy Turkmaniston, Shimoliy-Sharqiy Eron-

¹ Bu podshohlik tarixi quyidagi adabiyotlarda aks etgan: Вокшанин А.Г. Парфия и Рим (г.1–2) М.: 1960–1966; Кошеленко Г.Н. Культура Парфии. М.: 1966; Ziyo Azamat. O‘zbek davlatchilik tarixi. T.: «Sharq» 2000, 42–48-betlar; O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-Jild. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat nashriyoti. – T.: 2003, 698–699-betlar.

ning bir qismi) tarixiy makonlaridan biri qadimgi Parfiya nomi bilan yuritilgan. «Avesto»da Ahura Mazdaning beshinchi bo'lib, Nisaya o'lkasini yaralgani haqida so'z bor (Avesto II-jild. 660-bet). Nisayaning hozirda Ashgabat yaqinidagi harobalari saqlanib qolgan ko'hna Niso shahri Parfiyaning dastlabki markazi bilan bog'liqligiga shubha qilmasa ham bo'ladi¹».

Miloddan avval birinchi asr o'rtalarida Mesopotamiyadan Hindistongacha bo'lgan hududni o'ziga bo'ysundirgan. Parfiya milodiy 3-asrning 20-yillarigacha mavjud bo'lgan. Miloddan avval, taxminan, 250-yillarda saklarning qo'chmanchi parmlar (dahlar) qabilasi Arshak boshchiligida Salavkiylar davlatidan ajrab chiqqan. Parfiyona yoki Parfiya satrapiyasiga bostirib kirganlar va Parfiyani, so'ngra qo'shni Girkaniya viloyatini ishg'ol etganlar. Salavk II o'z hokimiyatini qayta tiklash maqsadida olib borgan bir necha muvaffaqiyatsiz urinishlar miloddan avvalgi 230–227-yillardan so'ng, Parfiyada arshakiylar hukmronligini tan olishga majbur bo'lgan. Salavkiylar podshohi Antiox III Parfiyani 209-yilda bosib oladi. Biroq Salavkiylar davlatining zaiflashganidan foydalanib, Parfiya tezda o'z mustaqilligini tiklab olgan.

Pompey Trog skiflar (saklar) haqida to'xtalib, «Ular Parfiya va Baqtriyaga asos solganlar», deb yozgani ma'lum. Yunonlik tarixchi Pompey yana Parfiya xususida to'xtalib, «Rimliklar bilan butun dunyoni o'zaro bo'lib olgan parfiyaliklar hozirda butun sharq uzra hukmdordirlar va ular (aslida) qachonlardir skiflar orasidan badarg'a qilinganlardandirlar, ularning nomi (ya'ni Parfiya – A.Z) bunga ishora, zero, skiflar tilida «Parfi» – «badarg'a qilinganlar»ni anglatadi.

Miloddan avvalgi birinchi mingyillikning VIII asr boshlarida osuriyaliklar Parfiyani bosib oladi, Parfiya Midiyaga bo'ysundiriladi. Ammo miloddan avvalgi 584–550-yillarda Parfiya Midiyadan ajralib chiqadi. Biroq parfiyaliklar «o'z yurtlarini saklarga topshiradilar». Oqibatda Midiya va Saklar (Xorazm) o'rtasida urush boshlanadi. Natijada, bu urush sulh va ittifoq tuzish bilan yakun topadi. Endi Parfiya yana mustaqillikka erishadi. Aftidan Parfiya shimoldagi Xorazm siyosiy kuchlari manfaatlari doirasida bo'lgan. Chunki bu davrda Xorazmning mavqeyi va qudrati ancha kuchli edi.

Miloddan avvalgi I asr boshida Parfiyaning qudrati yanada ortib, Rim imperiyasining xavfli raqibiga aylangan. Miloddan avvalgi

¹ Ziyozammat. Ko'rsatilgan adabiyot, 42-bet.

53-yilda Parfiya Rim bilan to'qnashib, Karri jangida Krass qo'mondonligi ostidagi Rim qo'shinini butkul tor-mor etadi. Miloddan avvalgi 40-yilda Parfiya Kichik Osiyoning deyarli butun hududini, Suriya va Falastinni zabt etgan. Bu Rimning sharqdagi hukmronligiga tahdid solmoqda edi. Miloddan avvalgi 39–37-yillarda rimliklar bu viloyatlar ustidan o'z hukmronliklarini tiklashgan. Tez orada Parfiya ichki nizolar va ko'chmanchi alanlarning hujumlari natijasida tanazzulga uchray boshlagan. Bundan foydalangan rimliklar Parfiyaning g'arbiy viloyatlarini qattiq talon-toroj qilgan. Parfiyaliklar vaqti-vaqti bilan rimliklar ustidan g'alaba qozonib turgan bo'lsalarda, davlatni siyosiy tushkunlikdan qutqarib qola olmaganlar. Marg'iyona, Sakaston, Girkaniya, Elimaida, Fors, Xarakena, Xatra shaharlari amalda mustaqil edilar. Tashqi va ichki nizolar mamlakatni holdan toydirgan. 224-yilda vassal Fors (Persida) viloyati hokimi Ardasher (q. Ardasher I) hal qiluvchi jangda Artabon V ni Ormizdagon tekisligida mag'lub etib, Parfiya davlatini tugatgan. Parfiya asoschisi Ardasher I bo'lgan. Sosoniylar davlatiga qo'shib yuborilgan¹.

Miloddan avvalgi III asrning o'rtalarida Parfiya va Baqtriya taxminan 250-yilda salavkiylar tobeligidan chiqib ketdilar. Bu davrda Baqtriya satrapi Diodot edi. Baqtriyaning salavkiylardan ajralib chiqishini Yevtidem ham qo'llagan edi. Yevtidem Sug'diyona yoki Marg'iyonaning hokimi bo'lib, u Diodotga qaram edi, Diodot Baqtriyada Salavkiylarga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonidan foydalangan. Yerli xalq qo'zg'oloniga yunon-makedon hokimlari rahbarlik qilganlar. Chunki yunon-makedon hokimlari mahalliy aholining ikki tomonlama zulmdan norozi ekanligini yaxshi bilar edilar. Ular mahalliy xalq Baqtriyaning Salavkiylarga qarshi mustaqillik uchun kurashini qo'llab-quvvatlashini ham bilar edilar. Shuning uchun, aholiga ham katta yengilliklar beradi. Shu boisdan ham Baqtriyada salavkiylarga qarshi harakat yunonlarga qarshi harakatga aylanmadi.

Mustaqillikka erishgan Baqtriya Diodot I davrida qudratli davlatga aylanadi. Bu davlatning poytaxti Zariasp-Bahtar hozirgi Afg'onistonning Mozori-Sharif shahriga 90 km yaqin qadimgi Balx shahri bo'lgan. Dastlab, u Salavka I tomonida turib, Parfiyaga qarshi bo'ldi. Ammo Arshak II podsholigi davrida Baqtriyadagi vaziyat Parfiya foydasiga o'zgardi. Natijada, Arshak II bilan Diodot II har-

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-Jild. –T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat nashriyoti, 2003, 698–699-betlar.

biy ittifoq tuzdilar. Lekin Diodot II Arshak II bilan tuzgan harbiy ittifoqdan o'z mavqeyini mustahkamlashda foydalanishni eplay olmadi. Sababi, viloyat hokimlaridan biri bo'lgan Sog'diyona hokimi Yunon Yevtidem Diodot II ga qarshi kurash boshladi. Bu kurashda Yevtidem g'olib chiqdi. U taxminan miloddan avvalgi 230-yilda Yunon-Baqtriya davlatida o'z hukmronligini o'rnatdi. Yevtidem Baqtriyada o'z hukmronlik mavqeyini mustahkamlashga harakat qildi. Chunki u kutilmaganda sak-massaget ko'chmanchi qabilalarining hujumga o'tishlari mumkinligini yaxshi bilardi. Ayniqsa, u Parfiya bilan chegaradosh tumanlarga e'tiborini qaratdi. Buning boisi Parfiya tomonidan xavf ehtimoli bor edi. Xuddi kutilganidek, 208-yilda Parfiya podshosi Antiox III Yevtidemga – Yunon-Baqtriyaga qarshi urush harakatlarini boshlab yubordi. Bu jangda Yevtidemning 10 ming kishilik qo'shini tor-mor qilindi, Yevtidemning o'zi esa Baqtriya harbiy qal'asida yashirindi.

Bu qal'a kuchli istehkomga ega edi. Antiox III qal'ani yil davomida qamal holatida saqladi. Ammo Baqtriyani egallay olmadi. Oqibatda ikki o'rtada 207-yilda tinchlik muzokaralari boshlandi, Yevtidem Antiox III ni Baqtriya podshosi deb tan oldi. Ayni paytda, Yevtidem ham podsholik unvonini saqlab qoldi. Yevtidem bitimga ko'ra, Antiox III ni bir necha jangovar fillar berish va tashqi siyosatda u bilan bamaslahat ish tutish majburiyatini ham o'z bo'yniga oldi.

O'z imkoniyati va kuchiga ishongan Antiox III Yevtidem Hindistonga urush e'lon qildi. U salavkiylar davlatining viloyatlarini o'ziga tobe etishni maqsad qilgan edi. Ammo salavkiylar uchun Markaziy Osiyo abadiy yo'qotilgan edi.

Miloddan avvalgi 206-yildan e'tiboran, Yunon-Baqtriya davlati uchun salavkiylar xavfi yo'qoldi. Chunki bu davrga kelib, Antiox III g'arbda Suriya uchun misrliklar bilan jang olib borar edi. Biroq shimoldan sak-massagetlar xavfi kuchaygan edi. Shu bois, Yevtidem o'z davlat chegaralarini kengaytirish uchun harakat qilishdan cho'chidi.

Yevtidem boshliq davlat tarkibiga Baqtriya, Sug'd, Areya va Marg'iyona hududlari qarar edi. Markaziy Osiyoning bu serunum yerlari, shaharlarga boy viloyatlarida hunarmandchilik keng tarqalgan bo'ylab rivojlangan, dehqonchilik madaniyati qadimdan sun'iy sug'orishga asoslangan edi. Cho'l zonalarida chorvachilik ham yaxshi yo'lga qo'yilgandi. Yevtidem o'z davlatining hududiy chegaralarini Hindiston yerlari hisobidan kengaytirishni orzu

qilar edi. Ammo bu ishni Yevtidemning o'g'li Demetriy (miloddan avvalgi 199–167-yillarda) amalga oshirishga harakat qildi. U Hindistondagi feodal beboshliklardan foydalanmoqchi bo'ldi. Demetriy ichki siyosatda Aleksandr va Antiox I larning yo'lidan borib, yerli aslzodalar bilan umumiy til topish yo'lini tutdi.

Natijada, Baqtriyaning davlat chegaralari kengayib, har jihatdan taraqqiy etdi. Uning nomi bilan ko'plab tangalar zarb etildi. Davlatni boshqarish bobida qator islohotlar o'tkazildi. U davlatni mayda hokimliklarga bo'lib, boshqarishni joriy etadi. Mahalliy aslzoda vakillarini davlatni boshqarish ishlariga keng jalb qildi. Demetriy davrida ko'plab harbiy qal'alar qurildi. Ana shunday qal'alardan biri Amudaryo sohilida qad ko'targan Termiz shahridir. Bu shahar o'z joylashgan mavqeyiga ko'ra, davlatning iqtisodiy va savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat chegaralarining Hindiston hisobiga kengayishi munosabati bilan Demetriy davlatining markazi janubga – Taksilaga ko'chirildi. Miloddan avvalgi 174-yilda Baqtriyada davlat to'ntarishi yuz berdi. Bu ishning boshida yunon harbiy qo'mondoni Evkratit turgan edi. U Demetriyning Hindistonda bo'lganligidan foydalandi. Davlat to'ntarishining asosiy sababi Yunon-Baqtriyadagi mahalliy hokimlar o'rtasidagi o'zaro nizolar edi. Demetriy davlat to'ntarishi haqidagi xabarni eshitgach, tezda Baqtriyaga qaytadi va Evkratit askarlari bilan jangga kiradi. Bu jangda Demetriy halok bo'ladi. Hokimiyat miloddan avvalgi 167-yilda Evkratit qo'lga o'tadi. Shimoli Sharqiy Hindistonda esa hokimiyatni Menandra egallaydi. Hindistonning janubi g'arbiy viloyatlarida Apollodot o'zini podsho deb e'lon qiladi va uning nomidan tanga pullar zarb etiladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, Evkratit Baqtriyada tinchlikni saqlab qololmadi. Hindiston yerlari qo'ldan ketdi. Buning sababi shunda edi, Yunon-Baqtriya davlatiga g'arbdan Parfiya xavf solmoqda edi. Parfiyada hokimiyat tepasiga Mitridat I kelgan edi. U qisqa muddat ichida biror-bir qiyinchiliklarsiz Marg'iyonani egallab oladi. Baqtriya esa borgan sayin siyosiy maydondan chetlashib bormoqda edi. Bu hol Sug'diyonaga, Yunon-Baqtriya podsholigi tasarrufidan chiqib olishiga qulay sharoit yaratdi.

Ko'zdan kechirilayotgan bu davrdagi siyosiy vaziyatni Zarafshon vohasida olib borilgan arxeologiyaga oid qazishma topilmalari ham yaqqol ko'rsatdi. Jumladan, miloddan avvalgi II asrning 80-yillaridan boshlab, Zarafshon vohasida Yevtidem zarb etgan

tangalarga taqlid qilingan mis chaqalar zarb etilgan. Zikr etilgan tangalarning ikkinchi yuzida Geraklning o'tirgan holdagi rasmi va Yevtidemning nomi chalasavodlik bilan yunon tilida bitilgan. Bu ashyolar Zarafshon vohasida mahalliy hokimlarning mustaqillikka harakat qilganliklarini ko'rsatadi. Binobarin, tez orada Sug'diyona Yunon-Baqtriya davlatidan mustaqil ajralib chiqdi. Parfiya Yunon-Baqtriyadan Marg'iyonani tortib olgach, uning siyosiy maydondagi mavqeyi yana ham pasayib ketdi. Bu davrga kelib endi Yunon-Baqtriya davlati uchun shimoldan ko'chmanchilar xavfi kuchaydi.

Albatta bu ishlarning hammasi davlatda ichki siyosiy tanglikni keltirib chiqardi, qo'shinlar orasida norozilik paydo bo'ldi. Oqibatda, miloddan avvalgi 155-yilda Yunon-Baqtriya davlatining podshosi Yevkratid og'li Geliokl tomonidan o'ldiriladi. Bu bilan Geliokl Yunon-Baqtriya davlatining qudratini saqlab qola olmadi. Uning ixtiyorida faqat Baqtriya yerlari qoldi, xolos. Yunon-Baqtriya davlatining katta hududini Parfiya bosib oldi va Sharqda antik dunyoning jahon ahamiyatiga molik bo'lgan yirik saltanatlaridan biriga aylandi. Baqtriyaga esa tobora yuechji qabilalari tahdidi kuchayib bordi. Miloddan avvalgi III asrda Sharqiy Turkiston va Shimoli Sharqiy Tibetda yashagan katta qabilalar Xitoy manbalarida katta yuechjilar «da yuechji» deb atalganlar. Xitoyning shimolida yashab kelayotgan Xunn qabilalari miloddan avvalgi II asrda kuchayib ketib, yuechjilar bilan bo'lgan jangda ularni mag'lub qiladilar (165-yilda). Yuechjilar O'rtasiyoga o'tib saklarni mag'lub etadilar va ular bilan birgalikda Yunon-Baqtriyaga zarba beradilar. Nihoyat, miloddan avvalgi 140 va 130-yillar orasida Yunon-Baqtriya davlatining taqdiri uzil-kesil hal qilindi.

Shunday qilib, Yunon-Baqtriya davlati 120 yildan ortiqroq davr yashadi. Ana shu davrda uning iqtisodiyoti va madaniyati rivojlandi. Bunday rivojlanish uchun o'lkada barcha zarur shart-sharoitlar bor edi. Rim tarixchisi va geografi Kvint Kursiy Ruf Baqtriyani tabiati turli-tuman va go'zal, unumdor yerlari ko'p, sersuv, ekinzorlarga boy mamlakat deb hikoya qiladi. Uning fikricha, o'lkaning aholisi ko'p, ular bug'doy va arpani ko'p ekadilar, uzumzorlari bepoyon. O'lkada mevalarning barcha turlari o'sadi. Chorva mollarini boqishga qulay, yilqisi ko'p, chopar otlarga boy mamlakat. Ayni paytda, o'lka hududida qumloq va ekin bitmaydigan yerlar ham anchagina. Pliniy esa bu o'lkani unumdor yerlarga, bugdoy ekinzorlariga boy mamlakat, u yerda sholi va dehqonchilikning qator boshqa sohalari yuksak

rivojlangan, – deb ta'riflaydi. Muarrixlar, Baqtriya bilan yonmayon bo'lgan Sug'diyona to'g'risida ham qimmatli fikrlarni bayon qiladilar. Sug'diyonaning Baqtriyaga nisbatan, cho'l zonasi ko'proq ammo u yerda aholi ancha zich joylashgan, unumdor yerlar, ekinzorlar, bog'-u rog'lar ko'p, u Zarafshondan suv ichadi, Sug'diyona yerlarining Zarafshondan olingan kanallar orqali sug'orilishi haqida ham ma'lumotlar bor. Yunon muarrixlari Marg'iyonada sug'orma dehqonchilik keng rivojlanganligi, mamlakatning hosildor bog'larga va unumdor boshqoqli ekinzorlarga burkanganligini hikoya qiladilar.

Binobarin, Yunon-Baqtriya davlatiga asos bo'lgan Baqtriya, Sug'diyona, Marg'iyona qadim zamonlardan iqtisodiy jihatdan o'ziga to'q, shaharlari ko'p, tabiiy boyliklari mo'l va iqlimi qulayliklarga ega o'lkalar bo'lgan. Bu viloyatlarda dehqonchilik madaniyati asosan, sun'iy sug'orishga asoslangan, boshqoqli ekinlardan sholi, bug'doy, tarh, arpa va boshqa ekinlar ko'p ekilgan.

Arxeolog olimlar keyingi 30, 40 yillar davomida Baqtriyaning Afg'oniston hududidagi Begram, Baqtra, Oyxonum, Tojikiston hududiga qarashli Qobadshoh, Qayqobod, Ko'hna Qal'a, O'zbekiston hududidagi Dalvarzintepa, Duniyotepa kabi qadimgi shahar xarobalarini ochib o'rgandilar va qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

So'g'diyonada Yerqo'rg'on, Afrosiyob, Buxoro, Tali Barzu, Marg'iyonada Govurqal'a kabi qadimgi shahar qoldiq topilmalari o'rganildi. Bu izlanishlar Yunon-Baqtriya davlati davrida miloddan avvalgi III–II asrlarda o'lkamiz xalqlari madaniyati yuksak bo'lganligini, ular dehqonchilik chorvachilikdan tashqari, ko'p tarmoqli hunarmandchilik xo'jaligi bilan ham keng shug'ullanganliklarini ko'rsatadi. Bu davrda saroy tili yunon tili bo'lgan. Strabon ma'lumotlariga qaraganda, Baqtriya, Sug'diyona, Midiya va Eron aholisi so'zlashadigan til bir-biriga yaqin bo'lgan. Topilgan ashyolar shuni ko'rsatadiki, bobokalonlarimiz hunarmandchilikning kulolchilik sohasida antik olamda tengi yo'q ustalar bo'lganlar. Baqtriya, Marg'iyona va Sug'diyona kulol ustalari yasagan sopol idishlar o'ziga xos san'at asarlari darajasiga ko'tarilgan. Bundan tashqari, shohona saroylar, ibodatxonalar, mudofaa inshootlari va uy-joy qurishda o'lkamiz xalqlari antik davr olamida tengsizlik darajasiga ko'tarilganlar.

Ayni paytda, tasviriy san'at, amaliy san'at, me'morchilik, zargarlik san'ati sohasida katta yutuqlarga erishildi. Jumladan, Baqtriyaning qadimgi Begrom shahrida olib borilgan qazish ishlari vaqtida yuksak mahorat bilan fil suyagiga ishlangan san'at asarlari topildi.

1978–1979-yillarda Tillatepada olib borilgan qazish ishlari chogʻida (Janubiy Baqtriya) 25 ming donadan ortiq oltindan ishlangan sanʼat asari topildi. Bu topilmalarning koʻpchiligi Yunon-Baqtriya davlati davriga taalluqlidir. Yoki Dalvarzintepada olib borilgan qazish ishlari vaqtida (1972-yil) 34 kg ogʻirlikda tilladan ishlangan 215 dona sanʼat asarlari topildi. Qazish ishlari jarayonida topilgan ashyolar, dalillar bu davrda toshga ishlov berish sanʼati yuksak darajada rivojlanganligidan guvohlik beradi. Tarixiy manbalarda Baqtriya yuksak rivojlangan 1000 shaharli mamlakat deb yuritilgan.

Bu davrda avlod-ajdodlarimiz asosan, zardushtiylik diniga sigʻinganlar. Xalqning diniy tasavvurlari yunon mifologiyasi, afsonalari obrazlari bilan aralashib-chatishib ketgan. Buni Demetriy zarb ettirgan tangalarda ham koʻrish mumkin. Bu tangalarda Naxid va Artamida suratlari birgalikda tasvirlanganligini koʻramiz. Oʻrta Osiyoda keng tarqalgan va xalq eʼtiqod qilgan Quyosh xudosi – Mitra tangalarda oʻz aksini topgan. Bunday tasvirlar koʻproq Demetriy va Yevditem I tangalarida uchraydi. Ammo mahalliy xudolardan hosildorlik xudosi Naxid timsoli alohida eʼtiborda boʻlgan. Unga atab maxsus ibodatxonalar qurganlar. Unga atab ishlangan haykalchalar, ibodatxonalarni bezab turgan. Xalqning diniy nazdda suvga, yerga, Quyoshga hurmat va eʼtiqod alohida diqqat va eʼtiborga loyiq boʻlgan.

Xulosa shuki, Parfiya, Yunon-Baqtriya davlatlari tariximizning muhim bosqichlaridan biridir. Bu davrda oʻlkamiz xalqlarining davlatchilik xalq xoʻjaligining barcha sohalarida erishgan yutuq va muvaffaqiyatlari moddiy va maʼnaviy ildizlarimizning buyukligi va qudratidan dalolat beradi.

3. QANGʻ DAVLATI

Vatanimiz tarixining miloddan avvalgi III–I asrlari va milodimizning IV asrlarigacha boʻlgan hujjatli maʼlumotlari, asosan, Xitoy manbalariga aloqadordir. Shu bois, Oʻrta Osiyoda bu davrda qanday davlatlar boʻlganligi, qanday qavm va qabilalar yashaganligi, shahar, daryo, joy, nomlari qanday atalganligi Xitoy manbalarida Xitoy tilida qanday yozilgan boʻlsa, hech qanday oʻzgarishsiz manbadagidek atalgan. Chunki bu nomlarning mahalliy tilda oʻsha paytda qanday atalganligi maʼlum emas. Jumladan, Xitoy tarixchisi Sima Szyan

miloddan avvalgi II asrning soʻnggi choragida Oʻrta Osiyoda boʻlgan bir Xitoy elchisi va sayyohining soʻzlariga asoslanib, bu yerning aholisi yuechjiga oʻxshash Qangʻyuy nomli katta koʻchmanchilar davlati boʻlganligini xabar qiladi. «Avesto» va «Maxabxorat»da ham sak (shak)lar, toharlar va qangʻarlar yashagan Qangʻ davlati haqida eslatib oʻtiladi. Qangʻarlar va Qangʻ davlati tarixi ustida olimlardan Y. F. Gʻulomov, S. G. Klyashtorniy, B. A. Litvinskiy, Y. F. Buryakov, Q. Sh. Shoniyozov va boshqalar katta ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordilar va Qangʻ davlati toʻgʻrisida qimmatli asarlar yaratdilar. Xitoy manbalarida qangʻarlarda davlat boʻlganligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar miloddan avvalgi III asr oxiri va II asr boshlariga toʻgʻri keladi. Tarixchi olim Karim Shoniyozovning fikricha: «Qangʻ davlati solnomalarda aytilgan davrdan ancha oldinroq mavjud boʻlgan... Soʻzsiz Qangʻ davlati Oʻrta Osiyoga bostirib kelgan makedoniyalik Aleksandr qoʻshinlari bilan yunon-makedoniyaliklardan tashkil topgan Salavkiylar sulolasi (miloddan avvalgi 312–250-yillar) bilan uzluksiz ravishda olib borilgan kurashlar natijasida, taxminan, miloddan avvalgi III asr boshida vujudga kelgan»¹.

Qangʻ davlatining chegarasi manbalarda aniq koʻrsatilmagan. Lekin Karim Shoniyozovning maʼlumotlariga qaraganda, qangʻlilar sharqda Fargʻona vodiysi, shimoli-sharqda usunlar, shimoli gʻarbda Sarisu daryosi va gʻarbda Sirdaryoning oʻrta oqimi bilan chegaradosh boʻlgan. Bu chegarada qangʻarlarga qarashli bir necha viloyat va ularga tobe boʻlgan qabilalar joylashgan. Qangʻarlar hukmron boʻlgan hududda miloddan avvalgi I va milodiy I–II asrlarda 120000 oila, 600000 kishi yashagan.

Oʻrta Osiyo xalqlari tarixida, shu jumladan, oʻzbek xalqining tarixida Qangʻ davlatinig oʻrni benihoya kattadir. Bu davlat hududida yashovchi qadimgi eroniy tillarga yaqin tilda soʻzlashuvchi tub yerli xalqlar Janubiy Sibir, Oltoy, Sharqiy Turkiston va Yettisuv viloyatlarida yashovchi turkiy tilda soʻzlashuvchi xalqlar bilan oʻzaro yaqinlashadi. Oqibatda, miloddan avvalgi II-I asrlarda Sirdaryoning oʻrta oqimlari tumanlarida turkiy tilda soʻzlashuvchi yangi etnos – xalq birligi vujudga kela boshlaydi. Bu yangi xalq – etnos sekin-asta son jihatdan koʻpayib, mazkur hududidagi viloyatlarda oʻz ustun mavqeyiga ega boʻla bordi. Natijada, ular alohida qangʻlar elati nomi bilan shakllanadi. Ana shu elat birligi asosida tashkil topgan. Qangʻ davlati yetti asr yashadi. Milodning V asri oʻrtalariga kelib,

¹ Shoniyozov K. Qangʻ davlati va qangʻlilar davlati. – T.: «Fan», 1990, 27-bet.

Qangʻ davlatining yemirilishi bilan uning tarkibidagi elat va qabilalar ham tarqalib ketdi, oʻrnida yangi siyosiy uyushmalar va etnik birliklar qaror topdi. Qangʻ soʻzining kelib chiqishi toʻgʻrisida fanda har xil fikr va qarashlar bor, Sirdaryoning oʻrta oqimida miloddan avvalgi III asrdan milodiy V asrgacha yashagan xalqlar Xitoy solnomalarida *qangʻuyalar* va *kantsuylar* deb atalgan. Vizantiya imperatori *Konstatin VII Bagryanorodniy* (945–959-yy.) «Imperiyani idora qilish haqida» asarida «qangʻar» soʻzining maʼnosi- «mardonavorlik jasurlik demakdir», – deydi. S. P. Tolstov esa «Qangʻni Xorazm», deb hisoblaydi. «Qangʻli» soʻzining kelib chiqishi haqida xalq rivoyatlari ham bor. Jumladan, Rashiddin (XIII asrning ikkinchi yarmi) «qangʻli» soʻzining kelib chiqishini afsonaviy shaxs boʻlgan Oʻgʻuzxon bilan bogʻlaydi. Rivoyatlarga koʻra, Oʻgʻuzxon oʻz urugʻ-aymoqlari bilan urushib yurgan kezlarda qoʻlga kirgizgan boyliklarni tashish uchun arava yasatibdi. Arava turkiy tilda «Qangʻil», deyilgan ekan. Shuning uchun ham Oʻgʻuzxon va unga qarashli kishilar *qangʻli* nomi bilan atalganlar. Qangʻlilarning barchasi ularning avlodlari emish. Abulgʻozi Bahodirxon ham taxminan shunga yaqin fikrni ilgari suradi. Ammo bu atamalar Karim Shoniyozovning fikricha, ilmiy haqiqatga toʻgʻri kelmaydi. Uning yozishicha, «qangʻ», «qanxa», «qangʻli» soʻzlarining negizi Eron, umuman hind-Yevropa tillari bilan bogʻliq boʻlishi ehtimoldan uzoq boʻlmasa kerak. Maʼlumki, **kan** oʻzbek va tojik tilida kanal maʼnosida ishlatiladi. U soʻzini davom ettirib yozadi: «Sirdaryoning quyi va oʻrta oqimlarining Qangʻ deb atalganligini yuqorida eslatib oʻtgan edik. Agar turkiy va tungus-manjur tillarida saqlanib qolgan «qangʻ» soʻzini qadimgi hind-Yevropa tillarida «daryo» yoki «suv»ni ifodalaganini tan olganimizda Sirdaryo (Qangʻ) nomining maʼnosi ham «daryo», «suv» boʻlganligi ehtimolga yaqin, Qangʻar qabilasining nomi bu azim daryo bilan uzviy bogʻliq boʻlgan. Bizni qiziqtirayotgan etnonimning (qangʻar, qangʻaris, xangakishi, qangʻli) oxirgi boʻgʻini – «ar», «er» (qangʻ erlari, odamlari), kishi (qangʻ kishilar), «li» (qangʻli) ham bu xalqning Sirdaryoning oʻrta asrlardagi nomi bilan yaqinligidan dalolat beradi. Boshqacha qilib aytganda, Qangʻ – daryo nomi boʻlsa, «ar», «kishi», «li» maʼlum bir xalqning shu daryo boʻylarida yashab kelganligidan dalolat beradi»¹.

¹ Shoniyozov K. Qangʻ davlati va Qangʻlilar. – T.: «Fan», 1990, 21–22-betlar.

Manbalarda Qang' davlatining idora-tartib usuli haqida hech qanday ma'lumotlar yo'q. Biroq to'ng'ich Xan sulolasi tarixida (miloddan avvalgi II–I asrlar) Qang'uy podshosi o'z oqsoqollari bilan bamaslahat ish tutishi haqida bir marta eslab o'tiladi. Bu davlatda oliy kengash katta o'rin tutgan. Oliy kengashda qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashganlar va muhim davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammolarni hal qilganlar. Podsho maslahat majlisi bilan hamnafaslikda ish olib borgan. Bu narsa Qang' davlati harbiy demokratik prinsiplar asosida ish yurituvchi davlat bo'lganligini ko'rsatadi. Mamlakat viloyatlarga bo'lib, idora qilingan. Viloyat boshliqlari *jabg'u yoki yabg'ular* deb atalganlar. Xoqonlar ana shu jabg'u yoki yabg'ularga tayanib, mamlakatni boshqarganlar. Shu boisdan, bunday hokimlar xoqonlarga yaqin kishilar, yoki ularning qarindosh-urug'laridan tayinlangan. Qang' davlatiga tobe bo'lgan viloyatlarni boshqarish mahalliy hokimlar qo'lida bo'lib, ular markaziy hokimiyatga boj to'lab turar edilar. Bunday tobe viloyatlar jumlasiga qadimgi Xorazm, So'gd hududlari va Orololdi tumanlari (alan va yan qabilalari) kirgan. Tarixchi olim Karim Shoniyozov bergan ma'lumotlarga qaraganda, Qang' davlatining ikkita markazi bo'lgan. Ulardan biri (Qang'diz) bo'lib, u Toshkent vohasida, Sirdaryoga yaqin yerda joylashgan. Bu shahar miloddan avvalgi III asrda bunyod etilgan bo'lib, u Qang' podsholarining doimiy qarorgohi bo'lgan. Aris daryosining quyi oqimida joylashgan O'tror (Tarband) esa Qang' davlati xoqonlarining yozgi qarorgohi bo'lgan.

Manbalarda Qang'uy davlati miloddan avvalgi II asrning oxiri va I asrning boshlarida buyuk davlat bo'lganligi va u Xitoyga nisbatan, mustaqil siyosat yurgizganligi qayd etiladi. Qang'uy hatto, Xitoy–Farg'ona mojarolariga aralashadi.

Xitoy bilan Qang'uy (Qang') o'rtasidagi adovat miloddan avvalgi II–I asr boshlarida boshlangan edi. Xitoy ma'murlari qang'uylarning (qang'arlarning) ashaddiy dushmanlari – usunlar bilan do'stona aloqa o'rnatib, g'arbda miloddan avvalgi 104-yili Davanga birinchi bor harbiy yurish boshlaydilar. Ammo bu yurish uncha muvaffaqiyatli chiqmaydi. Ular hozirgi O'zgan shahrini egallagach, juda ko'p jangchilardan ajralib, orqaga chekinadilar.

Miloddan avvalgi 102-yilda Xitoy qo'shinlari Farg'onaga ikkinchi marotaba yurish qiladilar. Bu yurishda qurol-aslaha va oziq-ovqat bilan yaxshilab ta'minlangan 60 minglik qo'shin ishtirok etadi. Oziq-ovqat, qurol-aslaha va boshqalar 100 ming ho'kizga, 30 ming otga va 10 ming eshakka yuklangan.

Xitoy qo'shinining Davanga ikkinchi marta yurishidan maqsad, bu viloyatning markaziy shahri bo'lgan Guyshanni (Kosonni) zabt etish, so'ngra boshqa shahar va qishloqlarni egallab, g'arbga, Sug'diyonaga yo'l ochish edi. Bosqinchilarning Guyshanga yaqinlashib kelayotganligidan xabar topgan guyshanliklar qang'arlarga chopar yuborib, ularni voqeadan xabardor qiladilar va ulardan yordam so'raydilar.

Guyshanliklar Xitoy qo'shini bilan to'qnashadilar va yengilib, chekinadilar. Ular qo'rg'onga (Guyshanga) kirib, uni mudofaa qiladilar. Xitoy qo'shini qo'rg'onni qamal qiladi. Ular qo'rg'onni osonlik bilan ololmasliklariga ko'zlari yetgandan keyin shaharni suv bilan ta'minlaydigan to'g'onni buzadilar. Natijada, qamaldagilar suvsizlikdan qiynaladilar, shunga qaramay, urush qirq kun davom etadi. Xitoy qo'shinlari tashqi devorni buzib, shaharga kiradilar, shahar amaldorlaridan bir nechasini asir oladilar. Qamal paytida, qahramonlik namunalarini ko'rsatgan guyshanlik sarkardalarni va shahar himoyasini boshqarib turgan Dovon podshosi, Muguanni qatl etadilar. Xitoy qo'shinlari qamal qilish bilan bir vaqtda yaqin oradagi qishloqlarni va chorvador aholini ham talar edilar. Chorasiz qolgan Guyshan oqsoqollari yig'ilib, maslahat qiladilar. Ularning fikricha, Dovon podshosi Muguon tomonidan birinchi yurish davrida «Xitoy» elchisining o'ldirilishi va Dovon otlarini bosqinchilarga bermasdan, yashirib qo'yilishi Xitoy qo'shinlarining ikkinchi marta bostirib kelishiga sabab bo'lgan. Endi Dovon arg'umoqlari ularga taqdim etilsa xitoyliklar urushni to'xtatishlari mumkin», – deydilar. Agar xitoyliklar bosqinchilik urushini to'xtatishmasa, o'lguncha kurashishni asosiy maqsad qilib qo'yadilar. Xitoy qo'mondonligi bilan muzokara olib borish uchun Guyshanning obro'li oqsoqollaridan birini elchi qilib yuboradilar. Elchi Xitoy sarkardasi Li Guanli huzuriga borib, oqsoqollar yig'inida bo'lgan gaplarni unga aytib «...arg'umohlardan tashqari, farg'onaliklar Xitoy qo'shinini yetarli darajada oziq-ovqat bilan ham ta'minlaydi. Agar bu shartlar qabul qilinmasa, dovonliklar barcha arg'umohlarni o'ldiradilar, shu orada qang'uylardan kutilayotgan yordamchi kuch ham yetib keladi», deb Xitoy armiyasining qurshovda qolganligini bildiradi. Ayni shu vaqtda qang'uyarning shaharga yaqinlashib kelayotganligidan xabar topgan Xitoy qo'mondonligi tezlikda harbiy maslahat chaqiradi. Li Guan-li Guyshan elchisining qo'ygan shartlarini ma'lum qiladi va qurshovni davom ettirish foydasiz, deb topadi. Xitoy qo'shinlari shaharni qamal qilishni to'xtatib, orqaga chekinadilar.

Shunday qilib, xitoyliklarning Farg'onaga qilgan navbatdagi yurishi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Bu yurish Xan imperatorligi saroyiga juda qimmatga tushadi. Harbiy yurishga o'tlanganda (miloddan avvalgi 102-y.) 60 ming jangchi qatnashgan bo'lsa, orqaga (miloddan avvalgi 101-y.) 10 ming kishi, 30 ming otdan faqat mingtaga yaqini qaytgan edi. Xitoyliklarning Dovonga o'z ta'sirini o'tkazish re'jasi barbod bo'ladi. Farg'onaliklar, xususan, ularning markaziy shahri Guyshan aholisi o'z ona yerlarini qattiq turib himoya qiladilar. Ularning bu kurashlari Farg'ona bilan do'stona aloqada bo'lib kelgan qang'arlar uchun ham ayni muddao edi.

Qang'arlar Qashg'ar va Yorkent viloyatlariga ham harbiy madad yuborib turganlar. Miloddan avvalgi 65-yili Yorkentda Xitoy ma'murlariga qarshi qo'zg'olon ko'tarilib, bu yerdagi Xitoy elchisini va ularning tarafdori bo'lgan hokimni o'ldiradilar. Bu qo'zg'olonni tashkil etishda qang'arlarning hissasi bor, albatta. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Qashg'ar, Yorkent va Farg'onaning Xitoy ta'sirida bo'lishi qang'arlarga ham katta xavf solar edi. Shuning uchun ham Qang' hukmdorlari qo'shni xalqlarga harbiy kuch bilan yordam berib, bosqinchi larni o'z chegaralariga yaqinlashtirmaslikka harakat qiladilar. Xitoy tarixchisi Sima Syan qang'lilar haqida yozgan. Ma'lumotlarida «ular urf-odatlarini bo'yicha yuechjilarga o'xshab ketadi», – deydi. Xitoyda – G'arbiy o'lkaning shu davrdagi noibi Go-Shun imperator saroyiga yuborgan ma'lumotlarida qang'arlarga ishonmaslikni hamda ularning xitoyliklarga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lib kelayotganliklarini ta'kidlaydi. «Qang'uyalar iftixori zo'r, qo'pol xalq, bizning elchilarimiz oldida tiz cho'kib, qulluq qilishga unamaydilar, biz tomonimizdan yuborilgan elchilarni usun elchilaridan ham pastga o'tkazadilar. Ularning (usunlarni – R.Sh., Sh.K., S.X.) knyaz va oqsoqollariga taomni bizning oqsoqollarimizga qaraganda, oldinroq beradilar. Ular (qang'uyalar. – R.Sh., Sh. K., S.X.) har xil yo'llar bilan o'zlarini yuqori qo'yib, qo'shni mamlakatlar oldida bizning obro'yimizni tushirishga urinadilar. Qang'uyalarning bu xildagi qilmishlaridan uning (Qang'uy xoqoni – R.Sh. Sh.K., S.X.) o'g'lini Xitoy imperatori huzuriga yuborishdan maqsadini tushunib olish qiyin emas. Qang'uy xoqoni mug'ambirlik yo'li bilan savdoni yo'lga qo'yimoqchi bo'ladi. Go-Shun imperator nomiga yuborgan xatida Qang'uy (qang') xoqonining o'g'lini qaytarib yuborishini hamda bundan keyin Xitoy elchilarini Qang'ga yubormaslikni va shu yo'l bilan Xan xonadonini (shu davrda hukm

surayotgan Xitoy imperatori sulolasini) qang'arlar bilan aloqa qilishni xohlamasliklarini qat'iy qilib, bildirishni uqtiradi.

Milodiy I asrning 80-yillari Xitoy qo'shinlari Qang' va Farg'ona yerlarini zabt etish niyatida navbatdagi harbiy yurishni boshlaydilar. Bu o'lkalarning davlat boshliqlari madad so'rab, qang'arlarga murojaat qiladi. Qang' kuchlari zudlik bilan yo'lga chiqib, bosqinchilarni Qashg'ar yerida kutib, ular o'rtasida qattiq jang bo'ladi. Xitoy qo'shinlariga G'arbiy o'lkaning noibi Ban-Chao qo'mondonlik qilar edi. Qang'arlar Xitoy qo'shinlarni qurshab olib, ularga katta talafot yetkazib, Xitoy qo'mondonini sarosimaga solib qo'yadi. U Kushon podshosiga murojaat qilib, ulardan qang'uy kuchlarining Qashqardan olib ketilishini iltimos qiladi. Chunki bu yillarda qang'arlar kushonlarning ta'sirida bo'lgan. Bundan tashqari, Kushon podshosi Qang' xoqonining qiziga uylangan edi. Ban-Chao kushonlarning qang'arlarga bo'lgan ta'siridan foydalanmoqchi bo'lib, ularga murojaat qiladi. Qang'arlar Kushon podshosining iltimosi bilan harbiy kuchlarini Qashg'ardan olib chiqadilar. Shu bilan Ban-Chao qo'shinlari tor-mor keltirilishdan qutilib qoladilar.

Shunday qilib, qang'arlar o'sha davrda Xitoyda hukmronlik qilayotgan Xan imperiyasining bosqinchilik siyosatiga qarshi chiqib, ularni o'z chegarasiga, hatto, unga yaqin bo'lgan Farg'ona va Qashqar yerlariga keltirmaslikka harakat qilardi.

I asrda Qang'arlar Buxoro va Xorazmni egallaydi. Ammo bu viloyatlar tezda Qang' davlati ta'siridan chiqib, Kushon saltanati tarkibiga o'tadi. G'arbda esa qang'arlar Parfiyaning kuchsizlanganligidan foydalanib, Alan yerlarini egallaydi.

Qang' davlatining iqtisodiy hayoti masalasida, Xitoy tarixchisi Sima-Syan (miloddan avvalgi II asr) uning ko'chmanchi mamlakat bo'lganligini yozadi. Ammo milodning boshlarida to'ng'ich Xan sulolasining tarixda qang'uylarning o'troq xalq ekanligiga ishora qilinadi. Qang'uylarda qoramol va qo'ylar ko'p bo'lgan. Ular zotli otlarni ham ko'plab yetishtirganlar. Chorva mollarining ko'pchiligi podsholari va uning yaqinlariga qaragan. Shuning uchun bo'lsa kerak, xoqon va uning urug'leri bahor kelishi bilan qishki qarorgohdan yozgi qarorgohga ko'chganlar. Chorvasi kam bo'lgan aholi esa vohadan chiqib keta olmagan. Yashab qolganlari esa dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lganlar. Angren-Chirchiq atroflarida saqlangan yuzlab tepaqo'rg'onlar bunga guvohlik beradi. Tarixiy ma'lumotlarda qang'arlarning Bityan, Yuni ham-

da arxeologlar ochgan O'tror 1, Oqtapa 2, Qorovultepa, Choshtepa harobalari o'rnida qadimiy qo'rg'onlari va shaharlari ham bo'lgan. Hunarmandchilik – urush qurollari (qilich, xanjar, oybolta, o'tkir uchli nayza va boshqalar) Toshkent vohasida ishlab chiqarilgan, Qoramozor, Qurama va Chotqol tog'larida temirchilik, misgarlik hunarining rivojlanishi uchun kerakli miqdorda ma'danlar bo'lgan. Bu joylardan juda qadim davrlardan boshlab, mis, temir, kumush va boshqa metallar olingan. Ustalar turli metallarni bir-biriga qo'shib mustahkam qurollar yasashni ham bilganlar.

1984-yili xo'jandlik A. Aminov tomonidan Sirdaryodan topilgan qadimgi dubulg'a yuqorida aytib o'tganlarimizga misol bo'ladi. Dubulg'a 2 ming yillik tarixga ega. Dubulg'aning zirxi qo'shqavat bo'lib, turli metall qotishmalaridan ishlangan. Mutaxassislar uni yasash uchun mahalliy xomashyo, jumladan, Qoramozor rudasi asosiy mahsulot bo'lib xizmat qilgan, deb taxmin qiladilar.

Qovunchitepa qazilmalaridan topilgan sopol idishlar Qang' davri madaniyatidan darak beradi. Sopol idishlar ko'pincha qizil ang'ob bilan bo'yalgan. Sopol idishlarning bir qancha turlariga hayvon boshi tasviri tushirilgan. Yuqorida tilga olingan arxeologiyaga oid barcha topilmalar «Qovunchi madaniyati» deb tarixga kirgan. «Qovunchi madaniyati» Toshkent vohasi, Sirdaryoning o'rta oqimi, Yettisuv va Shimoliy Farg'onada keng tarqalgan. Bu madaniyatning ayrim namunalari O'zbekistonning janubi va Tojikistonning bir qancha tumanlaridan ham topilgan. Qang' madaniyati, savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi va kengayishida bu davlat hududi orqali o'tgan qadimiy savdo yo'li – «Ipak yo'li»ning ahamiyati katta bo'lgan.

Qang'lilar e'tiqodi mafkurasida zardushtiylik dini yetakchi o'rinini egallagan. Ular quyoshni muqaddas deb bilganlar va unga sig'inganlar. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, madaniyatning boshqa turlari qatorida musiqa san'ati ham rivojlanganligi ta'kidlanadi.

Milodiy II–III asrlarga oid, Xitoy tilida yozilgan tarixiy kitoblarda va musiqa traktatlarida O'rta Osiyo xalqining mohir sozandalari, maqomchi va bastakorlari hamda raqqosalari haqida ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan ma'lumotlar mavjud.

Solnomalarda va musiqa traktatlarida O'rta Osiyodan olib borilgan juda ko'p musiqa asboblari eslatib o'tilgan. Ammo bularning aksariyati Xitoy tilida nomlanganligi tufayli ularning qaysi biri O'rta Osiyodan borganligini aniq aytish qiyin. Bu asboblarga berilgan

taʼriflardan va N. Ya. Bichurinning tarjimalarida keltirilgan ayrim asbob nomlaridan nay, surnay, childirma, nogʻora, dutor, beshtorli cholgʻu asbobi (gusla) va boshqalar Oʻrta Osiyodan borgan deyish mumkin.

Oʻrta Osiyo va boshqa mamlakatlardan borgan sanʼatkorlardan musiqachi va artistlar guruhleri tashkil etilgan. Jumladan, Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va Buxorolik sanʼatkorlardan tashkil topgan guruhlar mavjud boʻlgan. 12-24 kishidan iborat boʻlgan guruhlar bora-bora ansamblga aylanadi. Artistlar sahnaga oʻz milliy kiyimlarida chiqqanlar.

Milodiy IV – V asrlarga oid xitoy tilida yozilgan musiqa traktatlarida Buxoro (Ango), Samarqand (Qangʻo) va Qangʻlisijo yoki Qangʻli (Sirdaryoning oʻrta oqimi, Toshkent vohasi) nomli maqomlar mavjud boʻlganligi uqtirib oʻtilgan.

Xusyunu – oʻz davrining eng mashhur raqslaridan boʻlib, Movarounnahrda keng tarqalgan raqslardan biri hisoblangan. Bu oʻyinni asosan, qizlar, baʼzi vaqtda erkaklar ham ijro etganlar, Samarqand va Kitob – Shahrisabz viloyatlarida mashhur boʻlgan bu oʻyinni ijro etuvchi qiz-juvonlar ham koʻproq shu viloyatdan chiqqanlar.

Xitoyda milodiy bir minginchi yillarning oʻrtalarida Oʻrta Osiyodan borib qolgan va u yerda shuhrat qozongan raqslardan yana bir **Chjehji** - Toshkent nomi bilan atalgan boʻlib, buni asosan, qiz-juvonlar ijro etganlar. Dastavval bu raqsga bir kishi tushgan, yaʼni yakka oʻyin hisoblangan. Milodiy V–VI asrlarda esa besh kishi, keyingi asrlarda esa 24 kishi oʻynagan. Bu raqsga davra tutib, aylanib oʻynalgan.

«Toshkent» raqsi xitoyliklarni oʻziga maftun etgan. Oʻsha davrlarda yozilgan musiqa traktatlarida bu raqsga juda yuqori baho berilgan. Masalan, Chyan Yan oʻzining «Musiq kitobi» nomli asarida «Xitoyliklar chjehji raqsini ijro etishda *xuslar* (xorijiyalar – R.Sh., Sh.K., S.X.) bilan tenglasha olmaydilar», deb yozgan edi. Oʻsha davrdagi xitoy shoirlari «Toshkent» raqsining maftuni boʻlib, unga bagʻishlab 29 ta sheʼr va qasidalar yozganlar.

Xitoyda yashab, oʻsha yerning fuqarosi boʻlib, ketgan bir qancha sanʼat ustalari qaysi shahar va viloyatdan kelgan boʻlsalar, oʻsha joyning nomini oʻz ismlarining oldiga qoʻshib aytganlar: ularning avlodlariga esa bu nomlar familiya boʻlib, qolgan. Masalan, Buxorodan kelganlar – An (Ango–Buxoro), Samarqanddan kelganlar – Kan (Qangʻo – Samarqand), Shahrisabzdan kelganlar- Shi (Shigo –

Shahrisabz, Toshkent ham Shi deb beriladi, ammo uning belgisi boshqacharoq bo'lgan), Mi (Migo – Maymurg'–Samarqand yaqinidagi viloyat) Sao (hozirgi Xo'jand–Mirzacho'l va qisman Jizzax viloyatlarida joylashgan yerlar va boshqalar). Xullas, Qang' davlatining qariyb yetti asrlik tarixi ota-bobo, avlod-ajdodlarimiz qadim-qadimdan biz haqli suratda faxrlansak arziydigan tarixga, rivojlangan qadimiy madaniyatga ega bo'lganliklarini yana bir marta isbotlaydi.

4. QADIMGI FARG'ONA DAVLATI

(Parkana, Dovon)

Davlatchiligimiz tarixi bo'yicha, hali kashf qilinmagan masalalar anchagina. Qadimgi Farg'ona tarixida (Xitoy manbalarida bu o'lka Dovon nomi bilan tilga olinadi, boshqa manbalarda, Parkana deyilgan. Bu haqida keyinroq batafsil to'xtalamiz. **R.SH., SH.K., S.X.**) Tarixchilar uchun muhim bo'lgan uning tashkil topgan va inqirozga yuz tutish yillari aniqlanmagan. Bu davlat, taxminan miloddan avvalgi III asrdan to milodiy II asrgacha mavjud bo'lib, Farg'ona vodiysida joylashgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, Farg'ona vodiysining qadimgi davr tarixi yetarli darajada o'rganilmagan. Tarixiy yozma manbalarda ham bu haqida deyarli hech qanday ma'lumotlar uchramaydi. Xitoy manbalarida ba'zi bir qisqa, uzuq-yuluq ma'lumotlar uchrab turadi. Buning sababi Farg'ona vodiysining Xitoy bilan hududiy jihatdan chegaradosh va qo'shni bo'lganligida deb tasavvur qilish mumkin. Yuqoridagi sabablar taqozosi bilan darslik, qo'llanma va adabiyotlarda Farg'ona vodiysining qadimgi davri tarixi haqida maxsus so'z yuritilmagan. Akademik A. Asqarov «O'zbekiston tarixi» kitobida bu kamchilikni tuzatish bo'yicha dastlabki qadamni qo'ygan.

Qadimgi Farg'onaning tarixi haqida Xitoy manbalarida Dovon davlati bo'lganligi tilga olinadi. Ammo bu davlatning qachon paydo bo'lganligi tilga olinmadi. Ammo bu davlatlar qachon paydo bo'lganligi va inqirozga yuz tutib, qachon tarix sahnasidan tushganligi masalasida hech narsa deyilmagan. Biz bu davlatning midoddan avvalgi II- I asrlarda qudratli davlat uyushmasi bo'lganligini bilamiz, xolos.

Akademik A. Asqarov fikricha, miloddan avvalgi VI – IV asrlarda O'rta Osiyoning Baqtriya, Parfiya, Marg'iyona, Sug'd, Xorazm kabi o'lkalari Eron ahamoniylari tomonidan bosib olinganda qadimgi

Fargʻona bunday tobelikka tushmagan. Bu hudud Xorazm, Toshkent hududlari singari makedoniyalik Iskandarga ham tobe boʻlmagan.

Fargʻona vodiysining qadimda salavkiylar davlati tarkibida boʻlganligi haqida ham hech qanday maʼlumot yoʻq. Bundan chiqadiki, Fargʻona qadimgi davrda ahamoniylar va yunonlar hukmronligi davrida siyosiy erkini oʻz qoʻlida saqlab qola olgan. Yunon manbalarida salavkiylarning lashkarboshisi Demodam miloddan avvalgi 280-yilda Yaksart (Sirdaryo)dan oʻtib yunon xudosi Appolon shaʼniga altar (mehrob) (olovxona) oʻrnatdi, degan xabardan boʻlak hech narsani qoldirmagan. Bundan tashqari, antik tarixchilar Yunon-Baqtriya podsholardan biri Sharqiy Turkistonga Fargʻona orqali bir marta qoʻshin tortib borganligini qayd qilish bilan cheklanadi. Bu fikr-mulohazalar asosida xulosa qiladigan boʻlsak, qadimgi Fargʻona davlati Davan miloddan avvalgi II asrda emas, balki ancha ilgariroq, taxminan IV yoki III asrlardayoq tarix sahnasida boʻlganligi maʼlum boʻladi. U paytda, bu davlat **Parkan deb atalgan**. Dovon nomi esa xitoyliklar tomonidan berilgan nomdir.

Baʼzi bir xitoy yozma manbalarining guvohlik berishicha, miloddan avvalgi II-I asrlarda Dovon aholisi koʻp, dehqonchilik va hunarmandchilik xoʻjaliklari yuksak darajada rivojlangan, shaharlarga boy va kuchli qoʻshinga ega boʻlgan mamlakat edi. Buni boy arxeologiyaga oid ashyo topilmalar ham tasdiqlaydi. Dovon tarixining bu davri Shoʻrabashad bosqichi deb ham ataladi. Shoʻrabashad Oʻzgan yaqinida joylashgan boʻlib, vodiyning yirik shaharlaridan biri boʻlgan, uning yer maydoni 70 gektarga tengdir.

Dovonda miloddan avvalgi II asrda boʻlgan Xitoy elchisi Chjan Syan bergan maʼlumotlarga qaraganda, bu davlat kuchli siyosiy tizimga ega boʻlgan. Davlat tepasida mahalliy aholining aslzodalari-dan chiqqan hukmdor turgan. Manbalarda, ularning nomlari xitoycha Mugua, Chan Fin, Yanlyu deb tilga olinadi. Hukmdor oʻzining yonida eng yaqin ikkita qarindoshini yordamchi sifatida tutib davlatni boshqargan. U davlat ishlarini olib borishda oqsoqollar kengashiga suyanagan. Bu kengash hukmdor bilan birgalikda davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy, siyosiy va diniy muammolar bilan shugʻullangan va ularni hal etgan. Ayni paytda, oqsoqollar kengashi hukmdor faoliyatini baʼzi bir muhim masalalarda nazorat ham qilib turgan. Bu oqsoqollar kengashi oldida hukmdor huquqi cheklanganligini koʻrsatadi, xususan, urush, tinchlik elchilik masalalarida hal etuvchi kuch va huquq bu kengash qoʻlida boʻlgan. Oliy kengash zarur boʻlsa, hukmdorni hokimiyatdan chetlatishi, uning oʻrniga yangisini saylashi ham

mumkin. Hatto, o'zga davlatlar bilan bo'lgan janglarda dovonliklarning mag'lubiyati uchun oliy hokimiyat egasi – hukmdor oqsoqollar kengashi qarori bilan o'lim jazosiga tortilganligi ham manbalarda qayd etiladi.

Dovon davlatining siyosiy tuzumi ilk shahar-davlat yoki vohadavlatlarning erkin ittifoqiga tayanardi. Bunday davlat tizimining shakllanishida ilk temir davrida (miloddan avvalgi XI–VIII asrlarda) qaror topgan dehqonchilik vohalari va ular negizida tashkil topgan qadimgi shaharlar asos bo'lgan edi. Bunday dehqonchilik vohalarining soni arxeologiyaga oid izlanishlar ma'lumotlariga qaraganda, 10 dan ortiq bo'lgan. Bular Aravansoy, Akbura, Sultonobod, Qo'rg'ontepa, Andijonsoy, Qorabosh, Tentaksoy, Maylisoy, Ulug'nor, Shahrixonsoy, Akman, Yilg'insoy va boshqalardir. Ularning har birida o'nlab antik davr yodgorliklari mavjud. Bu vohalar, asosan, so'nggi bronza davrida o'zlashtirilgan, miloddan avvalgi IV-I asrlarga kelganda esa ular zamirida shaharlar qad rostlaganini ko'ramiz.

Xitoy sayyohi va elchisi Chjan Syanning ta'kidlashicha, qadimgi Farg'ona bilan Xitoy o'rtasida doimiy suratda siyosiy, iqtisodiy, savdo va madaniy aloqalari bo'lib kelgan. Xitoy hukmdorlari doimo Farg'ona vodiysi boyliklariga, uning samoviy uchar otlariga hasad bilan qaraganlar va shu negizda ikki o'rtada tez-tez urushlar ham kelib chiqqan. Ularniig ba'zilar haqida yuqoridagi mavzularda fikr yuritilgan edi. Dovonliklar o'z erki va ozodliklari uchun hamisha dushmanlarga qarshi shafqatsiz kurashib kelganlar.

Xitoy manbalarida qoldirilgan ma'lumotlarga qaraganda, miloddan avvalgi II–I asrlarda Dovonda dehqonchilik madaniyati va yilqchilik yuksak darajada rivojlangan. Chjan Syan bu davrda hammasi bo'lib, 70 ta obod shaharlar bo'lganligini, unda bir necha yuz ming aholi yashaganligini yozadi. Voha aholisi yerga ishlov berishda o'ta mirishkor bo'lgan. Ular sholi, bug'doy va boshqa ekinlarni ekib, dehqonchilik qilganlar. Farg'ona vodiysida qadimdan uzumchilik keng rivoj topgan, undan sharbat tayyorlash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Boylarning yerto'lalarida o'n yillab saqlangan sharoblar bo'lgan. Ammo bu yerda Parfiya, Baqtriya, Xorazm, Sug'dda bo'lgani singari tanga pullar zarb etilmagan. Savdo, asosan, pulsiz mol ayirboshlash yo'li bilan olib borilgan. Antik Farg'onada hunarmandchilikning qator tarmoqlari keng rivoj topgan. To'qimachilik va kulolchilik sohaları bundan mustasno emas.

Qadimgi Farg'onaning ijtimoiy va siyosiy hayotida ayollarning o'rni salmoqli edi. Ayollarga nisbatan, hurmat, tavoze kuchli bo'lgan. Yozma manbalarning guvohlik berishicha, agar ayol

eriga biror topshiriq buyursa, er topshiriqni soʻzsiz bajarishi lozim boʻlgan. Antik Fargʻona aholisinnig tashqi qiyofasi qangʻarlarga oʻxshab ketishi Xitoy manbalarida koʻrsatiladi. Ular chuqur koʻzli va qalin soqolli boʻlganlar. Chjan Syan Dovondan (Fargʻonadan) to Ansi (Parfiya)gacha boʻlgan hududlarda yashovchi aholi til jihatdan har xil boʻlsa-da, ular bir-birlarini tushunganlar, ularning urf-odatları ham bir-birlariga oʻxshash boʻlgan, deb taʼkidlaydi.

Chjan Syanning Dovon davlatining harbiy qudrati haqidagi maʼlumotları ham eʼtiborlidir. Bu davlat 60 ming qoʻshinga ega boʻlgan. Piyoda askarlar oddiy qurollar bilan qurollangan, otliq qoʻshinning harbiy mahoratda tengi boʻlmagan. Dovon suvoriylarining chopar ot ustida turib orqaga qayrilib, kamondan uzgan oʻqlari har qanday dushmani ham dogʻda qoldirgan. Vodiyning hatto, ayollari ham kamondan oʻq uzish va mohirlikda erkaklardan qolishmagan.

Qadimgi Dovon davlatini milodning dastlabki yuz yilliklari davomida mahalliy aslzodalar sulolasi boshqargan. Buni Xitoy manbalari tasdiqlaydi. Bu manbalarda koʻrsatilishicha, qadimgi Fargʻonani milodiy 419-yilgacha bir sulola vakillari uzluksiz idora qilganlar. Oʻrta Osiyo hududlarida Eftalitlar davlati qaror topgach, qadimgi Fargʻona davlati ham oʻz mustaqilligini yoʻqotib, ana shu Eftalitlar davlati tarkibiga kirgan edi.

5. KUSHON DAVLATI

Spitamen qoʻzgʻoloni magʻlubiyatidan soʻng, miloddan avvalgi IV asr oxirlarida xitoy manbalarida «yuechjilar» deb atalgan qabilalar Sharqiy Turkistondan to Moʻgʻuliston chegaralarigacha boʻlgan hududlarga borib oʻrnashganlar. Xitoyning shimolida esa xunn qabilalari yashardi. Yuechjilar xunnlariga janubiy qoʻshni boʻlganlar. Ular Sharqiy Turkistonda joylashib olib, xunnlarni oʻz tasirlariga olish niyatida boʻlganlar. Ularning bu niyati, ayniqsa, miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmida toʻla namoyon boʻla boshlaydi. Sababi xuddi shu davrda Oʻrta Osiyoning janubi sharqiy viloyatlarida Yunon-Baqtriya davlati tarkib topib, yuechjilarni bezovta qilmoqda edi. Yunon-Baqtriyaga qarshi Oʻrta Osiyo qabilalarining birlashgan mustaqil qoʻshinini tuzish zaruriyati kelib chiqqan edi. Yunon-Baqtriya podshosi Yevtidem massaget qabilalarining bu harakatlarini barbod etish maqsadida xunnlardan mohirona foyda-

lanadi. Yevtidem miloddan avvalgi 206-yilda salavkiylar hukmdori Antiox III bilan shimol ko'chmanchilariga qarshi harbiy ittifoq tuzadi. Bundan xabardor bo'lgan xunn shahzodasi Mode yuechjilar qo'lidan garovlikdan qochadi, o'z otasini hokimiyatdan ag'darib tashlab, yuechjilar ustiga lashkar tortib boradi.

Miloddan avvalgi 176-yilda xunnlar yuechjilar ustiga ikkinchi marta hujum uyushtiradilar. Oqibatda xunnlar 165-yilda yuechjilarni g'arbgga uloqtirib tashlaydilar. Rivoyatlarga qaraganda, xunn hukmdorlari mag'lub bo'lgan yuechjilar podshosining bosh suyagidan kosa yasab, g'alaba sharafiga unda sharob ichib yurgan ekanlar. Yuechji qabilalari qadimgi Farg'ona yerlariga chekinadilar va o'sha yerda istiqomat qila boshlaydilar. Xitoy manbalarida yozilishicha, qadimgi Farg'onaning shimoliy tumanlarida yuechjilar qishloq va shaharlar barpo qiladilar. Bu davrda yagona bir podsho bo'lmagan, balki qabila va urug' yabg'ulari qabila oqsoqollari qo'l ostida birlashganlar. Jumladan, hozirgi Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumani hududida Kushon qishlog'i va Kosonsoyda Koson shahrini yuechjilar barpo qilgan edilar. Yuechjilarning Guyshuan (Kushon), Syumi, Shuangmi, Sidun va Dumi nomli qabilasi bo'lgan. Ushbu qabilalar Tangritog' (Tyan'shan) orqali avval Dovon va Sug'd yerlariga kirib keladi. Ma'lumki, miloddan avvalgi II asr o'rtalarida Yunon-Baqtriya davlati inqiroz sari yuzlanadi. Ana shu qulay vaziyatdan foydalangan yuechjilar miloddan avvalgi 140–130-yillarda Sug'd yerlari orqali Baqtriyaga bostirib keladilar va Shimoliy Baqtriya hududlarini egallab oladilar, amalda Yunon–Baqtriya podsholigiga barham beradilar. Guyshuan (Kushon) qabilasi (yabg'usi Kudzula Kadfiz edi) to'rtta qabila yabg'ularini o'ziga tobe etib, barcha qabilalar ustidan hukmronlik qilardi. U o'z davlatini Kushon bekligi sifatida e'lon qildi va hozirgi Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepani bu beklkning poytaxtiga aylantirdi. Kudzula Kadfiz o'z davlat chegaralarini kengaytirish va uning qudratini mustahkamlash maqsadida, Amudaryoning chap sohili tumanlarini egallashga bel bog'ladi. U tez orada Parfiya, Afg'oniston va Kashmirni egalladi. Kudzula Kadfiz 80 yoshida dunyoni tark etdi. Uning davrida Kushon davlatining o'z pullari bo'lmagan. Kudzula Kadfiz tangalarni Rim saltanati va Parfiya podsholari zarb etgan tangalarga taqlid qilib chiqargan. Shu boisdan, ham bu davrdagi tangalarda «Kudzula Kadfiz Yabg'u» degan yozuvlarni uchratamiz. Keyinroq esa «Hukmdor Kadfiz» degan yozuvda tangalar zarb etilgan.

Kudzula Kadfiz vafotidan so'ng, uning o'gli Vima Kadfiz taxtga o'tiradi. Bu davrda Kushonlar davlati Pokiston va Hindistonning markaziy viloyatlarini bosib oladi. Vima Kadfiz o'z nomidan tangalar zarb etadi. Unga atab tosh haykal o'rnatadilar. Bu haykal Hindistonning Matxura shahrida qad ko'taradi. Vima Kadfiz 30 yil podsholik qiladi. Mamlakatda pul islohotini o'tkazadi.

Vima Kadfizdan so'ng, mamlakatni idora etish **Kanishka** zimmasiga tushgan. U podsholik qilgan davrda Hindistonning janubiy tumanlari, O'rtta Osiyoning Sug'diyona, Xorazm va Choch viloyatlarini zabt etadi. Kanishka davrida «shohlarning shohi-ulug' xaloskor» yozuvi bilan tanga pullar zarb etiladi. Kanishka tangalari Ashgabatdan Xorazmgacha, Toshkent vohasigacha bo'lgan katta hududlarda ko'plab topilgan. Kushon davlati bu davrda eng gullagan va hududlari juda ham kengaygan davrini o'z boshidan kechiradi. Kanishka budda dinini rasmiy ravishda davlat dini deb e'lon qiladi, buddizmni qabul qilib, uning saltanat miqyosidagi tashviqotchisi va himoyachisiga aylanadi. Kanishka davlat poytaxtini Dalvarzindan Peshovarga ko'chiradi.

Milodning I asr 70–80-yillarida Sharqiy Turkiston yerlari masalasida Xitoy-Kushon mojarolari boshlanadi. Shunga qadar Kushonlar xitoyliklarning Sharqiy Turkiston yerlarini egallash uchun qilgan harbiy harakatlariga hayrixoh bo'lganlar. Hatto, ular 84-yilda xitoylarga qarshi kurashish uchun Qashg'arga yuborilgan. Qang'uy qo'shinini tezda chaqirib oladi. Qashg'ar hokimligi esa xitoyliklarga taslim bo'ladi. Shundan so'ng, kushonlar Xitoyga Turfonni bosib olishga yordam ko'rsatadi. Oradan 2–3 yil o'tgach, ikki o'rtadagi munosabat buziladi. Buning sababi Kushon elchisi katta sovg'alar bilan Xitoy hukmdorining qizini kushonlar podshosiga unashtirish maqsadida Xitoyga borgan edi. Xitoy hukmdori uni qamoqqa oladi. Natijada, ikki o'rtaga sovuqchilik tushadi. O'zini haqoratlangan deb hisoblagan Kushon hukmdori 70 ming kishilik qo'shin bilan Xitoyga qarshi yurish qiladi. O'zaro kurashda u yengilib, Sharqiy Turkistondan qochishga majbur bo'ladi.

102-yilda Xitoyning nomdor va yengilmas lashkarboshisi Ban Chao vafot etadi. Bundan foydalangan Sharqiy Turkiston viloyatlari xalqlari birin-ketin Xitoyga qarshi qo'zg'olonlar ko'taradilar. Bu qulay vaziyat tufayli kushonlar 107-yilda Sharqiy Turkistonga yana lashkar tortadilar. Kushonlar Sharqiy Turkistonda o'z hukmronliklarini o'rnatgan bo'lsalar-da, Hindiston yilnomalarida, Kanishkaning Tarim havzasini bosib olganligi haqida ma'lumotlar

amaliy san'at, haykaltaroshlik rivojlanish borasida eng yuqori nuqtaga ko'tarilgan. Ichki va tashqi savdo taraqqiy etgan. Mamlakatda tinchlik va osoyishtalik hukmronligiga erishilganligi tufayli dehqonchilik va uning yurak tomirlari hisoblangan sug'orish inshootlarini barpo etish davlat tasarrufida bo'lgan. Hunarmandchilikning deyarli barcha tarmoqlari keng ko'lamda yuksalgan. Bu davrda etnik madaniyati, tili va dini bir xil bo'lgan xalqlarning siyosiy jihatdan birlashishi, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etgan. Turli xalqlar madaniyatining chatishishi natijasida bu yerda o'ziga xos yangi madaniyat shakllanib, rivoj topadi va keyingi asrlar madaniyatining taraqqiyotiga ham zamin bo'lib, xizmat qiladi. Shu bilan birga kushonlar davri – O'rta Osiyo xalqlarining oldingi davrdagi taraqqiyotiga yakun yasadi. Shundan so'ng, Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro ta'siri yangi tarixiy bosqichga qadam qo'ydi. Ellin madaniyatining an'analari Kushonlar davrida ijodiy jihatdan qayta shakllandi va yangicha talqin qilina boshlandi.

Kushonlar saltanati Kanishkaning vorisi Xuvishkadan keyin asta-sekinlik bilan inqiroz sari yuz tuta boshladi.

226-yilga kelib, kushonlar saltanatidan g'arbda Parfiya davlatining o'rnida Sosoniylar davlati siyosat maydoniga chiqdi. Bu davlat Parfiyaga tegishli hududlarda tashkil topdi. Biroq podsho Ardasher I davrida mustaqil davlat sifatida faoliyat ko'rsatishga intildi va Kushon davlatiga xavf sola boshladi. Bunday vaziyat kushonlarni befarq qoldirmadi. Kushon podshosi Vasudeva sosoniylar tomonidan bo'ladigan xavfga qarshi ittifoq qidirib, 230-yilda Xitoyga o'z elchisini yubordi. Kushonlar bilan sosoniylar o'rtasida jang bo'lishi tabiiy edi. 242–243-yillarda bo'lib, o'tgan ikki o'rtadagi jangda sosoniy Shopur I ning qo'shini kushonlarni mag'lubiyatga uchratdi. Shundan so'ng, sosoniylar hukmdorlari Sharqiy Xuroson hududlarida «Kushonshoh» unvoniga ega bo'ldilar. 252-yilda esa ular yana «Kushon shohlarining ulug' shohi» degan unvonga ega bo'ldilar. Bu yillarga kelib kushonlar Hindistondagi yerlarining ham katta qismidan judo bo'ldilar. Buni bir budda matnida (III asr o'rtalariga oid) «dunyo uch qismga (Xitoy, Rim va Kushon) bo'lingan, ammo «osmon o'g'lonlari» (saltanatlari) to'rtta: Xitoy, Rim, Kushon va Hind» deb bergan xabaridan ham bilish mumkin. Hind manbalarida ko'rsatilishicha, III asr o'rtalariga kelib Hindiston kushon-

lardan mustaqil davlat bo'lib, ajralib chiqqan. Xuddi shu yillarda **Xorazm** ham kushonlardan ajralib chiqadi. Ana shu tariqa, III asr **o'rtalaridan** e'tiboran kushonlar saltanati chuqur iqtisodiy va siyosiy inqiroz sari yuzlanadi. Ammo shundan keyin ham Kushon **davlati** O'rta Sharqning yirik davlatlaridan biri sifatida yana 100 yildan ortiq vaqt tarix sahnasida turdi. Soson podsholarining kuchayishi kushonlarning Rim saltanati bilan aloqasini mustahkamlanishiga sabab bo'ldi. Kushon elchilari 274-yilda Rim saltanati hukmdori Avrelining Palmir ustidan g'alabasiga bag'ishlangan **tantanalarda** qatnashganligi manbalarda ko'rsatiladi. Natijada, sosoniylar Rim-Kushon do'stligidan xavfsirab, kushonlar bilan aloqani yaxshilash yo'lidan boradilar. Bu maqsadning ijobiy natijalanishiga erishish yo'lida sosoniylar shohi Xurmuzd II (301-309) kushonlar malikasiga uylanadi. Biroq IV asrning o'rtalariga kelib kushonlar bilan sosoniylar o'rtasidagi munosabatlar yana keskinlashdi. Bu davrda Shopur II (309-379) kushonlarga zarba berib, Shimoliy Baqtriya yerlarini bosib oladi. Kushonlar bu zarbaga ham bardosh beradilar. Kushonlar sulolasining so'nggi vakillari **kidariylardir**. Ularni taxtga o'tkazish tantanalari IV asrning oxirida Balxda bo'ldi. Kidariylar tarix sahnasida uzoq yashamadilar. Maydonga yangi kuchlar chiqdi. Bu kuchlar o'z vaqtida Kushonlar saltanatining tarix sahnasidan o'chishiga olib keldi.

Kushon podsholigi va kushonlar davri O'zbekiston, Tojikiston, Afg'oniston, Pokiston, va Hindiston tarixida muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, Kushonlar saltanati tarix maydonida o'z o'rnini boshqa, o'zidan kuchliroq siyosiy uyushmalarga bo'shatib berdi. Kushonlar o'zlarining taxminan 400 yillik hukmronlik davrida insoniyat jamiyati taraqqiyotida o'chmas iz qoldirdilar. Bu davrda yaratilgan noyob san'at asarlari, madaniyat yodgorliklari uning o'tmishidagi qudratidan dalolatdir.


6. BUYUK IPAK YO'LI

Tarixda «Buyuk ipak yo'li» katta ahamiyatga egadir. Qadimgi-qadim zamonlar tarixiga ko'z tashlar ekanmiz, jamiyat taraqqiyotini bronza davridan ham ilgarigi davrlardan boshlab, hududlararo

bog'lovchi vosita sifatida unga xos ixtisoslashgan yo'llar paydo bo'lganligini ko'ramiz. Tarixda miloddan avvalgi VI–IV asrlarda Eron ahamoniylari saltanati davrida uning hududi bo'ylab «shoh yo'li» o'tgan. Undan ham ilgariroq O'rta va Yaqin Sharqda Badaxshon lazuritiga bo'lgan ehtiyoj «lazurit yo'li»ning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Badaxshon lazuritlari Mesopotamiya va Misr podsholari saroylarini, ibodatxonalarini bezagan, ayollarning turli bezaklarini ishlashda keng qo'llanilgan. G'arb bilan Sharqni bir necha ming yillar davomida bir-biriga bo'g'lab kelgan qadimga yo'llardan biri – «Buyuk ipak yo'li»dir. Bu yo'l fanga «Ipak yo'li» nomi bilan faqat XIX asrning 70-yillaridan boshlab, nemis olimi Ferdinand fon Rixtgofer tomonidan kiritildi. Unga qadar bu yo'l «G'arbiy meridional yo'l» deb atalar edi. Ana shu karvon savdo yo'lining asl mazmunini tashkil etgan ipak qachon va qayerda paydo bo'ldi, degan masalada fanda har xil qarashlar bor. Bu to'g'rida turli xil rivoyat va afsonalar to'qilgan.

Fanda ipakning Vatani Xitoy deb tan olingani sir emas. Ammo hind olimi Mukerji Hindistonda ipakning qachon paydo bo'lganligi haqida aniq va ishonarli ma'lumot bera olmasa-da, u ipakning Xitoyda paydo bo'lib, u yerdan boshqa yerlarga tarqalganligi haqidagi fikrga qo'shilmaydi. U Hindistonda ham tog'li tumanlarda yovvoyi ipak qurti tut daraxtlari ustida pilla o'rashlarini ta'kidlaydi. Xitoyda ipakning paydo bo'lishi haqida juda ko'p rivoyatlar bor. Xitoy hukmdori Chin Chong ipak va ipak qurti, tut daraxti maydonlarini kengaytirish haqida katta g'amxo'rlik qilgan. Rivoyatlarning birida miloddan avvalgi 2698-yilda, yana bir rivoyatda esa miloddan avvalgi 2600-yilda Xitoy malikasi Si Ling Chi bog'da, tut daraxtlari soyasida choy ichib o'tirgan paytida uning piyoyalasiga yuqoridan pilla tushib, issiq choyda yumshab, uning tolalari yoyilib ketadi. Malika Si pilla iplarini piyoladan olib tashlashga qancha urinmasin, uning uzundan-uzun tolalari chuvalib bo'lmaguncha choyni ipak ipdan tozalay olmaydi. Rivoyatda aytilishicha, pilla tolasini olish usuli ana shu voqeadan so'ng ma'lum bo'lgan. Xitoy xalqi pilla kalavasini topib olishni Osmon xudosi – Si Ling Chiga bog'laydi. Si – bu Osmon xudosining nazari tushgan malika, deb u ilohiylashtirilgan va unga atab ibodatxonalar qurilgan. Hozirgacha Xitoyda malika Siga atab har yili ipak bayrami o'tkazilar ekan. Xitoy yilnomalari Fu Gi ismli hunarmandning miloddan avvalgi 3400-yilda musiqa asbobi yasab, uning torlarini ipakdan qilganligini xabar beradi. Xullas, ipakning Vatani Xitoy

bo'lganligiga shubha yo'q. «Ipak yo'li» Xitoydagi ana shu ipak savdosi bilan bog'langan yo'ldir. Xitoyda ipakchilikning dastlab, keng tarqalgan joyi Xuanxe daryosining quyi havzasida joylashgan Shandun viloyatidir. Qadimgi Xitoydagi Sian shahri (Shensi viloyati) «Ipak yo'li»ning boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Yunon muarrixlarining ma'lumotlariga qaraganda, Xitoy ipagi Shimoliy Qora dengiz tumanlarida va Yaqin Sharq mamlakatlarida miloddan avvalgi V asrdan boshlab ma'lum. O'rta Osiyo hududlarida esa Sopollitepada olib borilgan izlanishlarga qaraganda, ipakchilik janubiy viloyatlarda bronza davridan (miloddan avvalgi II ming yillik



Buyuk ipak yo'li xaritasi.

o'rtalaridan) mavjud bo'lgan. Sopollitepadan topilgan ipak matolari Xitoydan keltirilgan matolarmi yoki shu yerning o'zida yetishtirilgan matolarmi, degan masala hozircha javobsiz qolmoqda. Akademik A.Asqarov ma'lumotlariga qaraganda, «Buyuk ipak yo'li» yuqorida ta'kidlanganidek, Xitoyning qadimgi markazi Siandan boshlanib, Lanchjou orqali Dunxuanga keladi. Bu yerda u ikkiga ajraladi. Ipak yo'lining Janubi-g'arbiy tarmog'i Taklamakon sahrosi orqali Xotanga, undan Yorkentga kelib, Pomir tog'ining daralari orqali Vaxonga, undan Baqtriyaning bosh shahri Zariaspga (Balx) kelgan. Balxda yo'l yana uch tarmoqqa ajraladi: g'arbiy tarmog'i Marvga,

janubiy tarmog‘i Hindistonga, shimoliy tarmog‘i Termiz orqali Darband, Nautak, Samarqandga qarab ketadi.

«Ipak yo‘li»ning shimoli g‘arbiy tarmog‘i esa Dunxundan Bami, Kuchi, Turfan orqali Tarim vohasiga – Qashg‘arga boradi. U yerdan Toshqo‘rgon orqali O‘zgan, O‘sh, Quva, Axsikent, Popga, undan Asht dashti orqali Xo‘jand, Zomin, Jizzaxga, so‘ngra Samarqandda Nautak yo‘li bilan birlashadi. Yo‘l Samarqanddan g‘arbga – Dabusiyaga, Malikcho‘li orqali Buxoro va Romitonga, undan Varaxsha orqali Boykent va Forobga borib, Amul shahriga o‘tadi. Amuldan Marvga, Urganch tomon Amu bo‘ylab ketayotgan yo‘lga qo‘shilgan. Qadimda Marv shahri o‘zining qadimiy an‘analari va turli yo‘nalishdagi karvon yo‘llari tutashadigan geografik qulayliklariga ko‘ra, ipak yo‘lidagi eng yirik shahar edi. Shuning uchun ham Marvda mahalliy din - zardushtiylik ibodatxonalaridan tashqari, Hindistonning budda, Vizantiya xristian olamining tayanchlari bor edi. Qadimgi «ipak yo‘li» ungacha shu mintaqadan «lazurit yo‘li», «shoh yo‘li» asosida Marvdan G‘arbga tomon katta karvon, savdo yo‘li bo‘ylab Xitoy, Hindiston va O‘rta Sharqni Yaqin Sharq va O‘rta Yer dengizi mamlakatlari bilan bog‘lab turadi. Tarixiy yozma manbalar va arxeologiyaga oid ma‘lumotlarning guvohlik berishicha, Marvdan g‘arbga tomon yo‘nalgan «ipak yo‘li» Tabriz va Parfiya davlatining Nisa shahri orqali Eronning Gekotompil, Apaliya va Ekbatana (Hamadon) shaharlariga va ulardan o‘tib Mesopotamiyaning Ktesafon va Bag‘dod shaharlariga tarqalgan. Undan Dajla, Frot daryosining o‘ng sohili bo‘ylab, shimol tomon yo‘nalib, Antioxiya (Antokiya) orqali Damashqqa, undan Tir va Quddus shaharlari orqali Misrga o‘tgan. Marvdan chiqqan shimoliy yo‘l esa Amul orqali Urganchga, undan Shimoliy Kaspiy bo‘ylab Shimoliy Kavkazga, so‘ngra Qora dengizning shimolidan Konstantinopolga borib, Bosfor va Dardanell orqali O‘rta Yer dengiziga o‘tib, Vizantiya shaharlarini oralagan. «Buyuk ipak yo‘li» orqali Sharq va G‘arb mamlakatlari va elchilik aloqalari qilganlar. Jumladan, Xitoy hukmdorlari o‘z elchilarini katta sovg‘a-salomlar bilan O‘rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya va Kichik Osiyo davlatlariga yuborganlar. Manbalarda Xitoy sayyohi Gan In 97-yilda Fors qo‘ltig‘igacha borib yetganligi xabar qilinadi. Makedoniyalik May Titsian esa 100-yilda Lanchmodgacha yetib borganligi manbalarda ta‘kidlanadi. O‘rta Osiyoliklar va eronliklar, Xitoy bilan Vizantiya yoki osiyoliklar va eronliklar, Xitoy bilan Yaqin Sharq davlatlari

o'rtasida bevosita savdo aloqalarining rivojlanishidan hech qachon manfaatdor bo'lmaganlar. Chunki bu harakatning «ostida» juda katta iqtisodiy manfaat siyosati bor edi. Shu boisdan ham «Ipak yoli» uchun III asrdan boshlab, Eron bilan O'rta Osiyo o'rtasida hayot-mamot kurashi kuchaydi. Eron va Parfiya o'rtasida qattiq janglar bo'ldi.

O'rta Osiyo orqali Xitoydan g'arbga o'tadigan savdo karvon yo'llari doimo sug'diylar nazorati ostida edi. Sug'dlik savdogarlar o'zlarining bu yo'ldagi hukmronliklarini saqlab qolish uchun Sharqiy Turkistonda, Yettisuvda, Oltoydan to Yenisey sohillariga qadar bo'lgan hududlarda, Shimoliy Xitoyning Shamsiy viloyatida, Dunxuan shahrida III–IV asrlarda ming xo'jalikdan iborat Sug'd qishloqlari qad ko'targan. Sug'dlar IV–V asrlarda tarkib topgan va Turfondan Shimoliy Mo'g'ulistonga tomon ketgan uyg'ur yo'li, VIII asrda qaror topgan va Sharqiy Turkistondan Jung'oriya orqali Haqasiyaga borib yetgan qirg'iz yo'lidan ham foydalanganlar. Bu yo'llar ichida Dunxuandan shimoli g'arbga ketgan ipak yo'li alohida ahamiyatga ega edi. Bu yo'lning ahamiyati Xitoy hukumatiga Xan sulolasining hukmdori U-Di tomonidan Sharqiy Turkiston xunnilariga qarshi ittifoq izlab, Qang'uyga yuborilgan Xitoy elchisi va sayyohi, saroy zobiti Chjan Syan orqali ma'lum bo'lgan. Bungacha Xitoy G'arbiy meridianal yo'lidan foydalanilgan. Bu yo'l orqali Xotan nefriti Xitoyning markaziy viloyatlariga miloddan avvalgi II mingyillikdan kela boshlagan edi. Nefrit savdosi yuechji qabila ittifoqi asosiy vositachi bo'lgan. Xan sulolasi davrida ana shu nefrit savdo yo'li orqali Sharqiy Turkistonga ko'plab ipak matolari borardi. Xitoy bu yo'lni iqtisodiy zaruriyat tufayli qo'lga kiritishga harakat qildi. Biroq miloddan avvalgi 165-yilda bu yo'l xunnilar qo'liga o'tdi. Ular bu yo'l uchun kurashib, yuechjilarni Xotan, Turfon, Qashg'ar vohasidan g'arbga siqib chiqardilar. Xunllar hatto, Shimoliy Xitoy yerlariga ham da'vogarlik qildilar. Natijada, Xitoy o'sha davrning qudratli davlatlaridan biri bo'lgan Qang'yuyga yaqinlashishga majbur bo'ldi. Shu boisdan ham Xitoy hukmdori U-Di Chjan Syanni miloddan avvalgi II asrda Qang'yuyga yuborgan. Ammo yo'lda xunnilar qo'lida 10 yil asirlikda bo'lib, Qang'yuyga yetib borgan bo'lsa- da o'z maqsadiga yeta olmagan. Shundan keyin Xan podshosi U-Di Farg'ona (Dovon)ga ko'z tikib, miloddan avvalgi 104–101-yillarda bu hududga ikki marta harbiy yurish qiladi. Shimoliy-g'arbiy ipak yo'li faqat iqtisodiy jihatdagina ahamiyatli bo'lib qolmasdan, ayni paytda, u diniy, madaniy meros yutuqlarini

tarqatuvchi, mamlakatlararo diplomatik aloqalarni ta'minlovchi yo'l ham edi. Budda dini xuddi mana shu yo'l bilan Xitoyga Markaziy Osiyo orqali kirib kelgan. IV-V asrlarda Xitoyning tashqi olam bilan har sohada aloqalari kengayadi, buddizm keng yoyiladi, O'rta Osiyoning moddiy va ma'naviy qadriyatlari keng ko'lamda Xitoyga tarqaladi. Xitoyda ipakchilik, xususan, ilk feodalizm davrida yuksak darajada rivojlandi. Xitoy hukmdorlari yollagan turkiy suvoriylarga ipak parchalaridan homashyo tarzida maosh to'laganlar. Ipaklar Xitoydan arzon narxlarda O'rta Osiyoga Sug'd savdogarlari orqali olib kelingan. Xususan, samarqandlik sug'dlar xalqaro savdoda ustasi farang bo'lganlar. Qadim zamonlarda savdogarlar xalq orasida eng nufuzli, obro'li, mo'tabar insonlar edilar. Chunki ular faqat mol olib, mol sotuvchi va undan foyda oluvchi jamiyatni boy qatlamigina emas edilar, balki uzoq safarlarga katta savdo karvonlari bilan boruvchi savdogar elchilar, ziyo va madaniyat, yangiliklar tarqatuvchilar, u yoki bu hududdan yangi joylarga ilg'or xo'jalik ixtirolarini olib boruvchi nufuzli kishilar ham bo'lganlar. Ayni vaqtda, o'zga mamlakatlarning urf-odatlarini, kuchi va qudrati, hududiy joylashishi, tabiati va davlatni boshqarish tizimini chuqur bilishda o'ta hushyor davlat ayg'oqchilari ham bo'lganlar.

«Ipak yo'li» savdosida Xitoy manbalariga qaraganda, otlar alohida ahamiyat kasb etgan. Otlarning bahosi ipakning bahosi singari juda yuqori bo'lgan. VIII asr boshida bitta otning bahosi 40 taxlam ipakka teng bo'lganligi ta'kidlanadi. IX asrning birinchi yarmida esa 100 ming otga bir million taxlam ipak bergan. Ayniqsa, Tuva, Haqasiya, Oltoy, Farg'ona vodiysi va Yettisuv viloyatlarida yetishtirilgan otlar zotdor va bebaho bo'lgan.

Yozma manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda, III–VII asrlarda O'rta Osiyo va O'rta Sharq orqali o'tgan ipak yo'lining nazorati sug'dlarning qo'lida bo'lgan bo'lsa, VIII asr o'rtalariga kelib, «Ipak yo'li»ning g'arbiy qismi arablar nazoratiga o'tadi. XIII asrda esa ipak yo'lining barcha tarmoqlari bo'ylab nazoratni Chingizxon o'z qo'lga oladi. Bu holat to XIV asr o'rtalarigacha davom etdi. So'ng, «Ipak yo'li» Temur va Temuriylar nazorati ostida o'tdi. «Ipak yo'li» orqali Xitoydan G'arb mamlakatlariga, asosan, ipak ilk o'rta asrlardan boshlab, qog'oz chiqarilgan bo'lsa, g'arb mamlakatlaridan Xitoyga shisha, jundan ishlangan har xil gazlamalar, gilam, palos, oyna, metall, zebi-ziynat bezaklari, qimmatbaho toshlar: lazurit, biryuza, serdalik har xil dorivorlar, arg'umoq otlar olib borilgan.

Xullas, «Buyuk ipak yo'li» O'rta Osiyo xalqlarini siyosiy, iqtisodiy-madaniy va savdo sohasidagi hayotida katta o'rin tutgan, o'lka xalqlari bu yo'l tufayli G'arb va Sharq dunyosi hamda ularning xo'jalik ixtirolaridan keng bahramand bo'lganlar.

«Ipak yo'li» O'rta Osiyo, Sharq bilan Garb o'rtasida vositachilik qilgan. Bir so'z bilan aytganda, «Ipak yo'li» Sharq va G'arb xalqlari hayotida g'oyatda muhim va tarixiy o'rin tutgan. U xalqlarni siyosiy, iqtisodiy, savdo va madaniy sohalarda bog'labgina qolmasdan, balki ayni zamonda, bu yo'l dunyo xalqlari o'rtasida tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, qo'shnichilik, do'stlik va qardoshlarcha birodarlik yo'li ham bo'lgan. Qadimiy avlod-ajdod ruhlarini shod etib, «Buyuk ipak yo'li» an'alarini tiklash va unga sayqal berish, ozod, hur, erkin va yashashdan manfaatdor bo'lgan barcha sof vijdonli fuqarolarning millati, irqi, diniy e'tidodidan qat'i nazar, muqaddas burchidir.

Hozirda «Buyuk ipak yo'li» an'alarini tiklash uchun keng harakat boshlangan. 1987-yili YUNESKO madaniy taraqqiyot bo'yicha BMTning umumjahon dekadasi doirasida «Ipak yo'li – mu-loqot yo'li» xalqaro dasturi qabul qilindi. Dastur O'rta Osiyo xalqlari boy madaniy tarixlarini keng qamrovda tadqiq etishni nazarda tutadi. Lekin uning asosiy maqsadi – Sharq bilan G'arb o'rtasida yanada mustahkamroq madaniy va iqtisodiy aloqalar o'rnatish, ushbu buyuk qit'alarda yashovchi ko'p sonli xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashdan iborat. 30 dan ortiq xalqaro ilmiy konferensiya va seminarlar o'tkazildi. Ana shunday anjuman 1990-yil oktabrida Samarqandda, 1996-yil fevralida Buxoroda o'tkazildi. «Buyuk ipak yo'li» bo'ylab birgalikda xalqaro ekspeditsiyalar uyushtirildi, kinofilmlar yaratildi, kitoblar, broshyuralar va maqolalar chop etildi, ba'zi arxeologik va me'moriy yodgorliklar ta'mirlandi. Hindiston, Xitoy, O'zbekiston, Shri-lanka, Yaponiyada «Buyuk ipak yo'li»ni o'rganish bo'yicha maxsus ilmiy institutlar ochildi. Ulardan biri Samarqand shahridagi Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro institutidir. 1997-yil mayida O'rta Osiyoni Eron bilan bog'lagan Saraxs – Saraxs Mashhad temir yo'l uchastkasi qurilishi tugallandi. O'zbekistonda «Buyuk ipak yo'li»ni tiklashga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «Buyuk ipak yo'li»ni qayta tiklashda O'zbekistonning ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro sayyohlikni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Shu asosida «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi «Ipak yo'li» o'tgan tarixiy

manzillar bo‘ylab 200 dan ortiq yo‘nalishlar ishlab chiqdi. Ular asosiy sayyohlik zonalarini qamrab oladi va Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva hamda Farg‘ona vodiysi shaharlari bo‘ylab o‘tadi. «Ipak yo‘li»ning tarmoqlari hisoblangan Andijon, Namangan, Farg‘ona, Termiz, Nukus shaharlari orqali o‘tuvchi yo‘nalishlar ishlab chiqilmoqda. Farg‘ona vodiysi bo‘ylab o‘tuvchi yo‘nalish – «Farg‘ona oltin xalqasi» Qo‘qon, Andijon, Namangan shaharlarini o‘z ichiga oladi. «Buyuk ipak yo‘li» sayyohlik yo‘nalishlari bo‘ylab safar qiluvchilar soni yil sayin ortib bormoqda¹.

7. «AVESTO» – MUQADDAS KITOB

Ma‘lumki, dastlabki sivilizatsiyalar tarixi qadimgi sharqda, so‘ngra Yunonistondagi Krit orolida Minoy sivilizatsiyasi bilan boshlangan edi. Shuningdek, sivilizatsiyalar dunyoning ko‘plab mintaqalarida bo‘lganidek, O‘rta Osiyo, jumladan, hozirgi O‘zbekiston hududlarida ham vujudga keldi. Buni «Avesto» nomi bilan ma‘lum bo‘lgan muqaddas kitob ham isbotlaydi. Dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri Zardushtiylik (Otashparastlik zoroastrizm) dinidir. «Avesto» ana shu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanadi. Unda O‘rta Osiyo hududlarida yashagan barcha turkiy xalqlar, fors-tojik, ozarbayjon, afg‘on va boshqa xalqlarning qadimgi davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to‘g‘risidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, ma‘naviy madaniyatlarini o‘z aksini topgan. Manbalarda «Avesto» kitobining muallifi Zardusht (ba‘zi manbalarda Zardo‘sh) bo‘lganligi qayd etiladi, u hayotda yashab o‘tgan tarixiy shaxs. Taniqli faylasuf olim Ibrohim Karimov «Muloqot» jurnalining 1992-yil 11–12 (23–24)-sonlarida chop etilgan «Zardushtiylik haqida haqiqat» maqolasida Zardushtning miloddan avvalgi 589–512-yillarda, ya‘ni bundan 2600 yil muqaddam yashab o‘tganligini yozadi. Olimning ta‘kidlashicha, Zardusht Spitoma O‘rta Osiyo hududida faoliyat ko‘rsatgan ilohiyotchi, faylasuf, shoir va tabiatshunos olim bo‘lgan. Uning uch o‘g‘il va bir qizi bo‘lgan. Zardusht 30 yoshga yetganda o‘zigacha bo‘lgan ko‘p xudolilik diniy aqidalariga hamda tabiat hodisalariga qarshi chiqib, yakkaxudolikka asoslangan birinchi diniy kitob – «Avesto»ni yaratgan. Zardusht –

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-Jild. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2001, 320–321-betlar.

zardushtiylik dinining payg'ambari sifatida tan olingan va e'tirof etilgan.

Shu paytga qadar zardushtiylik haqida olimlar o'rtasida turlicha qarash va g'oyalar mavjud. Bu eng avvalo, zardushtiy dini qaysi maskanda paydo bo'lgani. Ikkinchisi, yakkaxudolik dini bo'lganmi yoki ko'pxudolik kabi masaladir.

Ba'zilar Zardushtiylik dinini Midiyada kelib chiqqan desalar, ayrimlar uni Eronda paydo bo'lgan deb isbotlaydilar. Zardushtiylikning vatani Erondir deb isbotlovchi olimlardan biri E. Berzinning fikricha, zardushtiylik dini «Hind- Eron qabilasi dinidan kelib chiqqan».

Olimlarning katta bir guruhi: V. V. Struve, V. V. Trever, S. P. Tolstov, N. Proxorov va boshqalar zardushtiylik dinining Vatani O'rtta Osiyo deb isbotlaydilar. A. O. Makovelskiy ham shu fikrga qo'shilishga moyildir. Bu guruh olimlar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da yakka-yu yagona xudo – Axuramazda («Axuramazda» – «Yuksak daholi hukmron» demakdir) yaratgan 16 mamlakatning nomi berilgan. Bu mamlakatlardan ikkitasi afsonaviy bo'lsa, to'qqiztasi O'rtta Osiyoga tegishli bo'lgan viloyat va shaharlardir. Qolgan beshtasi Hindiston, Ozarbayjon, Armaniston hududlariga qarashlidir. Masalan: Sug'diyona (Gava), Marg'iyona (Mavru), Baqtriya (Baxdi), Nisoya (Ashg'abot atrofi), Hirot, Qobul, Tus (Xuroson), Aryonvayjon (Xorazm), Varana (Turkmaniston Eron chegaralari oralig'i) tilga olinadi. «Avesto» kitobida yer dumaloq shaklda yaratilganligi, uning atrofi okanlar o'ralganligi, nomlari keltirilgan mamlakatlarda xudo Axuramazda ezgulik qonunlarini Zardusht orqali vahiy qilganligi haqida yozilgan.

Iymonsiz odamlar yashayotgan mamlakatlar jumlasiga Parfiyona podsholigining markazi Nisoya va Midiyaning eng katta shahri Raga kiritiladi. Fors tadqiqotchisi Kapadia fikricha, Zardushtning diniy faoliyati Vishtaspa podsholigining poytaxti Balx shahri bilan bog'liqdir. U podshohlar homiyligida Zardusht Baqtriya payg'ambariga aylanganligiga diqqat-e'tiborni qaratadi.

Zardushtiylik bo'yicha ilgarigi ko'pxudolilik dinidan rasm-odat bo'lib, qolgan murdalarni olovda kuydirib, kulini dafn etishni qat'iy qoralab, marhum suyaklarini maxsus ostadon (ossuar)larga solib, ko'mishdan iborat yangicha odatlar joriy qilingan. Bundan ostadonlar, tadqiqotchi Y. A. Rapoportning ta'kidlashicha, asosan, O'rtta Osiyo hududlari yerostidan topilayotir, Eron hududida esa bittayarimta uchramoqda, xolos. Bu hol zardushtiylikning Vatani O'rtta Osiyo deb aytish uchun tarixiy asos bo'la oladi.

Zardusht yaratgan ilohiy kitobning o'zi bizgacha yetib kelmagan. Faqat u haqida yozilgan tarixiy manbalar bor, xolos. Zardusht yashagan davrda kishilik jamiyati ilgarilab rivojlana bordi. O'rta Osiyoda o'troq xo'jalikka o'tila boshladi, sug'oriladigan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik borgan sayin taraqqiy etdi. Yangi-yangi shaharlar, obod qishloqlarning paydo bo'lishi o'troq yashash turmush tarzining afzalliklarini ko'rsata bordi. Ana shu o'troqlik turmush tarzining odamlarga benihoya kulfatlar keltirayotgan ko'chmanchilikka asoslangan turmush tarziga nisbatan afzalliklarini ommaga yetkazish davrning asosiy muammosi bo'lgan. Ana shu zaruriy muammoni Zardusht hammadan oldin ko'ra olgan va uni hal qilish yo'llarini topa olgan. Xalqlarni, qabilalarni birlashtirib, farovonlikka erishtirishning birdan-bir yo'li yakkaxudolik – vahdoniyatga o'tish, deb bildi va o'zining butun ongli faoliyatini shu muqaddas ishga bag'ishlab, yakkaxudolik uchun olib borilgan urush (jihod)da o'zi ham halok bo'ldi.

Zardushtiylikning muqaddas kitoblar to'plami «Avesto» Aleksandr hokimiyati inqirozga yuz tutgach, miloddan avvalgi 250-yillarda, arshakiylar davrida yana tiklana boshlagan va u yangi matnlar bilan to'ldirilgan. Sosoniylar hukmronligi davrida (milodning III – VII asrlarida) bu ish poyoniga yetkazilgan. «Avesto»ning uchta kitobi qadimgi oromiy tilda va bittasi pahlaviy tilda tiklangan. Birinchi kitob «Videvdat», ya'ni «devlarga qarshi qonun», – deb ataladi. «Yosin» va «Visparad»ni qo'shganda, u «Videvdat» – «Sade» deb ham yuritiladi. «Videvdat»ni poklanish qonun-qoidalari majmuasi, deb aytsak bo'ladi. Ikkinchi kitob «Yosin» bo'lib, Zardusht xat (noma) lari uning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu kitob 72 bashoratdan iborat bo'lib, birinchi bashoratida tabiat va halolliklar hukmdori, hamma narsani biladigan va hamma narsaga qodir Axuramazdaning vahiyolari haqligiga iymon keltirishga doir duolar bor. 19-bashoratda olam yuzaga kelmasdan oldin mavjud bo'lgan xudo sha'niga shukronalar bayon qilinadi.

Kitobda poklanish (yuvinish gigiyenasi), yovuzlikni qarg'ayotgan paytda, tanani qanday maromda tutishlik shayton-iblisni haydashga qaratilgan harakatlar, gunohdan forig' bo'lish, kechirim so'rashga doir duolar ham katta o'rin olgan. Jumladan, iymonni saqlab qolish, gunohdan forig' bo'lishlik uchun quyidagi duoni o'qish tavsiya qilinadi: «Ey, olamning hukmdori Axuramazda! Men barcha gunohlarimga iqrorman, ularni takrorlamaslik uchun senga so'z beraman, har qanday yomon niyat (fikr)lardan, har qanday yomon so'zlardan, har

qanday yomon amallardan voz kechaman, men fikrlagan va gapirgan yoki qilmoqchi bo'lgan va qila boshlagan va qilgan hamma nojo'ya ishlarimdan voz kechaman, niyatlarim, so'zlarim va amaliy ishlarim orqali bundan buyon ishonchingni oqlayman, qilgan gunohlarimni keng karaming ila kechirgil, tanam va jonimni u dunyo-yu bu dunyoda munavvar etgil, ey parvardigorim». Ikkinchi kitobning 7 ta bobida Zardusht orqali xabar berilgan bashoratlar o'z ifodasini topgan. Zardusht xudo Axuramazdadan o'z axloqiy qonun-qoidalarini ma'lum qilishni so'raydi. Axuramazda butun mavjudlikning ikki oliy ibtidosi – ezgulik va yovuzlik to'g'risida vahiy qiladi. Bir-biriga qarama-qarshi bu boshlang'ich kuchlar doimo birgalikda mavjud bo'lib, ular hayot va o'lim, osmon, jahannam ma'nolarini bildiradi. Jahannam Axuramazda vahiyisida «Hayotning eng yomon onlari», osmon esa ruhning eng yuksak holati sifatida gavdalanadi. Olamdagi yovuzlik va notakomillik – hodisalar va ularning mohiyatidan kelib chiqadi. Ularni bartaraf etish esa istiqboldagi ish bo'lib, iymonli kishilarning faolligi tufayligina bunga erishiladi. Iymonli kishilar Axuramazda yuborgan qonun-qoidalar, tartibotlar, nasihat va o'gitlarga amal qilsalar, ezgulik yovuzlik ustidan albatta g'alabaga erishib boraveradi.

Kitobda qayd etilishicha, olam qarama-qarshiliklar asosida qurilgan jismoniy narsalarda yorug'lik bilan zulmat, jonli tabiatda hayot bilan o'lim, ma'naviy olamda ezgulik bilan yovuzlik ijtimoiy hayotda adolatli qonunlar bilan qonunsizliklar o'rtasida doimiy qarama-qarshiliklar bor. Diniy sohada ezgulikni qaror toptirish ruhi bilan yovuzlik ruhi o'rtasida keskin kurash boradi. Axuramazda ezgulikni vujudga keltiraveradi, yovuzlik ruhi bo'lgan Axriman unga qarshi kurashib odamlarni yomonlik sari, yovuzliklarga boshlayveradi. Kitobning 30-bashoratida takidlanishicha, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi abadiy kurashda oraliq yo'q, har bir odam bu jarayonning u yoki bu tomonida ishtirok etishga majbur. Shu boisdan, dindorlikda iymon-e'tiqod barakamollik nishonasi sifatida muhim o'rin tutadi. Iymon-e'tiqod odamlarga ezgulikni yovuzlikdan farqlash imkonini beradi. Iymonli, e'tiqodli odam albatta ezgulik, yaxshilik sari intiladi. Yovuz ruhlar – dev, pari, iblis va boshqalar gunohlar, adashishlar, yolg'onlar, kasalliklar timsoli sifatida tasvirlanadi. Axuramazda odamlarni ulardan saqlanish, o'zini chetga olishga da'vat etadi. Yosinning 14-bashoratida xudo: «Men ezgu fikr (niyat)larni, ezgu so'zlarni va ezgu amallarni yoqtiraman. Men mazdayosin qonunlariga asoslangan tartibotlarni ulug'layman», – deydi, Bundan

ko‘rinadiki, zardushtaylik iymoni uch tayanchga asoslanadi: fikrlar softligi, so‘zning sobitligi, amallarning insoniyligidir. Axuramazda odamlarni «...o‘z istaklarida holis bo‘lib, bir-birlari bilan murosa qilib yashashni odat qilishlari, g‘arazgo‘ylik, hasadgo‘ylik, kattazanglik (dimog‘dorlik), shuhratparastlik, qonunsiz ishlardan o‘zlarini tiyib yurishi uchun...» intilishga chaqiradi. «...Bergan so‘zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiqda shartnomalarga qat‘iy amal qilish, qarzni vaqtida to‘lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo‘lish» iymonlilik alomatlaridir, deyiladi. Iymonli odam o‘g‘irlik va talonchilikdan, begonalarning mol-dunyosiga ko‘z olaytirishdan, o‘z-o‘ziga xiyonat qilish, ya‘ni iymonga xilof ishlardan o‘zini saqlay biladigan komil insondir. «Tanlaringizga nisbatan, qalbingiz haqida ko‘proq qayg‘uring», ya‘ni avval ma‘naviy dunyoyingiz musaffo bo‘lsa, moddiy turmushingiz ham mukammal bo‘lib boraveradi, deydi Axuramazda.

«Avesto»da shaxsning axloqiy xislatlari, haqgo‘ylik, adolatlilik ulug‘lanadi. Bunday ezgu sifatlarga Axuramazdaning o‘zi ham ega bo‘lib, u shu bilan birga ezgulikka zid bo‘lgan yovuzlikka murosasiz dushmandir. Asarda Axuramazda tilidan bunday deyiladi:

*«Men borliqning qo‘riqchisiman
 Nomdir menga tag‘in himoyat
 Yana bir nom bilguvchilikdir
 Voqiflikdir yana bir tarzim,
 Mening nomim haqgo‘ylik erur
 Mening nomim aldovsizlikdir.
 Mening nomim asraguvchidir
 Mening nomim erur qaqshatqich,
 Ostin-ustun qilguvchi ham men
 Barchani vayron etguvchi ham men,
 Yo‘qlikdan bor etguvchi ham men,
 Yana bir nomim ezgu farog‘at,
 Haqqoniyat yana bir ismim¹».*

«Avesto» kitobida materialistik dunyo, borliq muqaddaslashtiriladi. Yer, suv, havoni bulg‘ash, ifloslantirish eng og‘ir gunohlar qatoriga qo‘shiladi. Axuramazda «...yerga yaxshi, sog‘lom urug‘lar sepishdan ortiq savob ish yo‘q...», – deydi. Xudoyi taoloning bu aytganlariga amal qilish, 10 ming marta ibodat etish yoki yuzlab jonivorni xudo yo‘liga qurbonlikka so‘yishdan afzalroq hisoblangan. Axuramazda yerga ekin ekishni yerdagi yovuzliklarga barham berishdan iborat, deb hisoblaydi. Bashoratlardan birida: «Olam

¹ «Fan va turmush», 1993-yil, № 3–4, 23-bet.

go'zalligi dehqondan, dehqonchilikdan, kimki yerga urug' qadabdi, u odamiylikka iymon keltiradi, yagona shu yo'lgina haqiqat bo'lib, qolgani sarobdir», – deyiladi. Boshqa bir bashoratda esa quyidagi jummalarni o'qiymiz: «Bug'doy o'stirila boshlasa, devlarni ter bosadi, sovurilgan bug'doy tayyor bo'lsa, devlar zaiflashib qoladi. Un tayyor bo'lgach, devlar nola-yu fig'on chekishadi... Devlarni mag'lub etish uchun xonadonda hamisha unli ovqat bo'lishi lozim. Bu ovqatni odam yegandan so'ng, devlar juda qizishib ketishadi va qocha boshlashadi».

Axuramazda qonunlarida qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, uni jamoa o'rtasida adolatli taqsimlash eng savobli ishlardan hisoblangan. Undan keyingi savobli ish esa oziq-ovqat tayyorlash, uy hayvonlari va chorva mollarini ko'paytirishdan iborat bo'lgan. Zardusht xudo nomidan hukmdorlarga qarata bunday deydi: «Yomon ovqatlanigan xalq na yaxshi, kuchli ishlovchilarga va na sog'lom, baquvvat bolalarga ega bo'ladi. Yomon ovqatlanishdan odob-axloq ham aynib ketadi. Agar non mo'l-ko'l bo'lsa, muqaddas so'zlar ham yaxshi qabul qilinadi». Bir qarashda oddiygina ko'rinadigan bu so'zlarda juda katta falsafiy ma'nolar, tarbiyaviy o'gitlar borligiga amin bo'lamiz. Zardushtiylik o'gitlarida ona zaminga, dehqonchilikka, hunarmandchilikka, chorvachilikka, Vatan va xalqqa ulug' muhabbat ruhi markaziy o'rinni egallaydi. Buni biz zardushtiylikning Navro'z, Ro'za, Mehr va boshqa barcha marosimlarida ochiq-oydin ko'ramiz.

Yosinning 29-bashorat 5-hikmati va 50-bashorat 8-hikmatida ibodatdan so'ng, ikki kaftni oldinga ochiq holda yozib ko'targan holda Ollohdan o'z talablarini qondirishni iltijo qilish rasm-rusumi haqida gap boradi. Undagi bashoratlarda Yer, osmon, ummon boshlanishi, jannat haqida fikrlar bayon qilinadi.

Bashoratlardagi Odam Ato haqidagi fikrlar o'ziga xos bir tarzda bayon etiladi. Unda ta'kidlanishicha, Iyim nomi bilan atalgan birinchi odam Axuramazda irodasiga ko'ra, 900 yil yashaydi va u shu davrda odamlarni, hayvon va qushlarni parvarish qiladi, qizil shu'lali olovni ko'paytiradi. Axuramazda Iyimga oltin nayza bilan oltin qamchi sovg'a qiladi. Yer odamlar yashashi uchun torlik qilib, qolganda, u nayzani yerga sanchib, yerni kengaytirishni iltijo qilib, xudodan so'raydi va unga erishadi. Axuramazda Odam Atoga yerga sovuq ofat kelayotganligini va uning oldini olish lozimligini aytadi. Iyim o'ziga bir uy qurib, hayvonot va o'simlik zotlarining eng yax-

shilaridan bir juftdan olib, bu uyda ularni saqlab qoladi va shu tariqa, Odam Ato tirik tabiatni ofatdan saqlab qolishga erishadi.

Ammo Odam Ato o'z qilgan ishlaridan ortiqcha mag'rurlanib ketadi va xudo tomonidan taqiqlangan ne'mat – qoramol go'shtidan iste'mol qilib qo'yadi. U xudoning qahriga uchraydi va abadiylikdan judo bo'ladi. Odamzod hayotning bu birinchi bosqichidan so'ng, ikkinchi bosqich boshlanadi. Ikkinchi davr Zardusht faoliyati va uning diniy islohoti bilan bog'liq. Bu davr din va imon uchun kurash bilan xarakterlanadi. Olib borilgan 3000 yillik kurashlardan so'ng, Zardusht farzandi boshchiligida dunyoda tinchlik, osoyishtalik va farovonlik yuzaga keladi. Yomonlik va yovuzlik kuchlari timsoli bo'lgan dev – Axriman yengiladi. Uchinchi davrda qiyomat-qoyim bo'ladi. Barcha o'lganlar tirilib, xudo oldiga keladilar va o'z qilmish kechirmishlari bo'yicha unga hisobot beradilar. Xudoyi taolo hamma ishlardan voqif va uni ko'rib turibdi. Xudoni aldab bo'lmaydi. Zardushtiylik dini bo'yicha odamzod olamdan o'tgach, uch kunga qadar joni uning tanasida saqlanadi. To'rtinchi kunida har bir odam zoti go'zal qiz qiyofasidagi o'z mahrami – farishta yo'l boshchiligida narigi dunyodagi qilko'prik – «Chinvot»dan o'tadi. Yaxshi va ezgu ishlar qilgan insonlarga bu ko'prik kengayib turadi va yo'l beradi. Undan omon inson o'tgan har bir zot abadiy rohat-farog'atda janнатga yo'l oladi va o'liklar tiriladigan kunda o'z tanasiga jon kirishini kutib yotadi. Yomon va yovuz ishlar bilan shug'ullanganlarga «Chinvot» qilday torayadi va ular jahannam azoblariga mahkum bo'ladilar, do'zaxga tushadilar.

«Avesto»ning uchinchi kitobi «Vasparat» deb ataladi. Bu kitobda olamni, hamma narsani bilishga oid pand-u nasihatlar o'rin olgan. Kitob, asosan, ibodat namozlari yig'indisi bo'lib, 25 qismdan iboratdir. Bu kitob «Bundaxash», qadimiy Eron tili paxlaviy tilidan yozilgan.

Eshtlar va Yosinlar uch qatlamdan iborat: birinchisi xalq eposlarining Zardushtgacha bo'lgan qo'shiqlari (she'rlari), ikkinchisi Zardusht xat (noma)lari va uchinchisi Zardusht halok bo'lgandan keyin kitob holiga keltirilgan va «Kichik Avesto» nomi bilan yuritiladigan qismi hisoblanadi. Shuning uchun, «Avesto» ning dastlabki ilk va kichik (so'nggi) qismlarida uning asosiy qismi Zardusht nomalarini bir-biridan farq qila bilish kerak. Zardushtnomalar ko'pxudolikni, o'tga va tabiatning stixiyali kuchlariga sajda qilib, sig'inishni qoralaydi va yakkaxudolikka da'vat qiladi. Shu payt-

ga qadar ilmiy adabiyotlarda bildirilgan fikrlar, asosan, «Kichik Avesto»ga asoslangan g'oyalar bo'lgan. Bunda ko'pxudolik bilan yakkaxudolik g'oyasi aralashib, qorishib ketganligidan Zardushtiylikni ko'pxudolilik va yakkaxudolilik dini sifatida qarab kelganlar. Bu yakkahudolikka asoslangan Zardushtiylikni asosiy yo'nalishi ko'pxudolikdan iborat bo'lgan mazdakiylik bilan aralastirish oqibatidir. Zardushtgacha ham Axura, Matra, Mazda va boshqa xudolar haqida fikrlar bo'lgan. Ammo u xudolar xuddi odamlardek hayot kechirganlar. Zardusht talqinidagi Xudo Axuramazda esa Oliy ibtido bo'lgan, uning xotin, bola-chaqalari yo'q. U hamma narsani, butun borliqni yaratuvchi Oliy ruh bo'lib, barcha ezguliklar va yaxshiliklar bilan odamlar qalbini munavvar qiladi. Zardusht asos solgan yakkaxudolilik dini Eronda Ahamoniylar hokimiyat tepasiga kelib, ular O'rtta Osiyoni bosib olgach, zavo'lga uchraydi. To'g'ri, Eron shohlari o'z saltanatlarini barqaror qilishda zardushtiylik dinining ahamiyati va o'rniga yetarli darajada baho berganlar. Ammo bu dindagi o'rtahol dehdonchilik mo'tadil, kamtarona hayotdan iborat turmush tarzini ilohiylashtirib, quldorlik munosabatlarini qoralash Eron shohlariga yoqmaydi.

«Kichik Avesto»da Axuramazda olamni yaratuvchi va tartib o'rnatuvchilikdan ko'ra, ko'proq qabilaviy xudolarni birlashtiruvchi bosh xudoga aylanib qoladi; Ahamoniylar Yunonistonni bosib olish uchun olib borgan urushlari hamda yunonlarning Eron va Turonni ishg'ol qilishlari oqibatida Axuramazda Yunonistonda bosh xudo – Zevs, Zardusht esa Aflotun (Platon) sifatida talqin etiladi. Ahamoniylar zardushtiylikni o'z e'tiqodlariga bo'ysundirgan bo'lsalar, Aleksandr bu dinni butunlay yo'q qilib tashlamoqchi bo'ldi, bu dinga oid kitoblarni butunlay yoqtirib yubordi.

«Avesto» haqida Abu Rayhon Beruniyning «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarida yozib qoldirgan ma'lumotlari diqqatni tortadi. Beruniy bunday yozadi: «Podshoh Doro ibn Doro xazinasida uning o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi, Aleksandr otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun, «Avesto»ning beshdan uchi yo'qolib ketdi. «Avesto» o'ttiz nask (qism) edi. Majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qoldi».

O'lkamiz arab xalifaligi qo'shinlari tomonidan fath etilib, islom dinining tarqalishi davrida ham zardushtiylik va uning muqaddas kitobi «Avesto» qattiq ta'qib ostiga olindi.

Zardushtiylikning O'rta Osiyoda vujudga kelganligi va uning jahon madaniyatiga ko'rsatgan ijobiy ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. «Avesto»ning bizgacha yetib kelganligi uchun eng avvalo, ingliz va fransuz olimlaridan minnatdor bo'lishimiz kerak, chunki 1755-yilda fransuz olimi A. Dyupperon Hindistonga ilmiy safar qilib, u yerdagi zardushtiy (mazdaiy)lar orasida uch yil yashadi, ularning ibodatlari, urf-odatlari bilan yaqin tanishdi va «Avesto»ni fransuz tiliga tarjima qildi. «Avesto» G'arbiy Yevropa, Eron va Hindiston orqali bizga yetib kelganligidan undagi nomlar, ismlar va terminlar asliga to'g'ri kelmaydi.

Beruniy yozgan rivoyatlarga qaraganda, Zardusht Baqtriya podshohi Vishtasp (Gushtasp) huzuriga kelib, «Avesto»ni unga tortiq qiladi. O'ng va so'l tomonlari kesilgan ko'ylak kiygan, yuziga parda tortilgan, qo'lida bir eski qog'ozni ko'kragiga mahkam bosganicha Zardusht kunduz kuni Gushtasp qasriga tushadi. Shunda tom ochilgan va Gushtasp kunduzgi uyqudan uyg'onib ketgan. Zardusht «Avesto» kitobini Gushtasp oldiga qo'ydi va xudoga iltijo qildi. «Avesto» agar shu kitob daqiqadan seniki bo'lsa, sen shu kitob bilan meni podshoh huzuriga yuborgan bo'lsang, meni misning zararidan saqlagin», - deydi. So'ng, uning iltijosiga ko'ra, qizdirib eritilgan mis keltirildi, uni Zardushtning ko'kragiga va qorni ustiga qo'ydilar. Mis tanasi ustidan oqib tuklarga donachalar bo'lib yopishdi, lekin kuydirmadi. Shu mahaldan e'tiboran, Gushtasp Zardusht e'tiqodini qabul qildi va o'ziga tobe o'lkalarga bu e'tiqodni qabul qilishni buyurdi.

Tarixdan ma'lumki, zardushtiylik miloddan oldingi VII asrdan milodimizning VII asrigacha qariyb ming yil O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalarda diniy e'tiqod sifatida yashadi.

Zardusht yashagan va «Avesto» kitobi yozilgan davrda O'rta Osiyoda aholining asosiy qismi o'troq hayotga, dehqonchilik va hunarmandchilikka o'ta boshlagan, ko'chmanchi chorvachilikka e'tibor kuchaygan, qadimgi shaharlar va dehqonchilik viloyatlari (Sug'diyona, Marg'iyona, Baqtriya, Parfiya, Xorazm)ning shakllanish jarayoni kechayotgan palla. Vatanimiz xalqlari hayotida yuz berayotgan bu ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar uning taraqqiyot yo'liga g'ov bo'layotgan mafkuralari yangilashni, yangi jamiyat talablariga javob bera oladigan diniy islohotlarni amalga oshirishni talab etar edi. «Avesto»da ana shu islohiy talab o'z ifodasini topdi.

«Avesto» asarida patriarhal urug' jamoasi haqida, uning so'ngi

qismi Videvdotda iqtisodiy tengsizlik sinfiy tabaqalanish haqidagi muammolar ochiladi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi va undagi sinfiy tabaqalanish jarayoni toʻgʻrisida qimmatli maʼlumotlar beriladi. Shunday qilib, miloddan avvalgi IX–VII asrlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot haqida gʻoyatda muhim maʼlumotlar beruvchi xalqimizning merosiy-maʼnaviy boyligidir.

«Avesto»da keltirilgan jamiyatning ijtimoiy tarkibi haqidagi maʼlumotlarga suyanib fikr yuritadigan boʻlsak, miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi choragida Oʻrta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib, yangi, ilk sinfiy jamiyat tarkib topayotgan jarayonning guvohi boʻlamiz.

Islom Karimov taʼbiri bilan aytganda, «Avesto» ning tub maʼno-mohiyati belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu soʻz, ezgu amal» degan tamoyilda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli boʻlgan saboqlar borligini koʻrish mumkin. «Ezgu niyat, soʻz va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor gʻoyasi sifatida talqin etish bizning bugungi manaviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bogʻliq, nechogʻli mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa, etiborlidir»¹, – deb yozdi Islom Karimov.

8. MONIYLIK DINI

Oʻrta Osiyo hududlarida zardushtiylik bilan bir qatorda Moniylik dini ham milodimizning III asri oʻrtalaridan boshlab, keng tarqalga boshlagan dinlardan biridir. Moniylikning asoschisi **Moniy ibn Fatak (216–276)dir.** U 216-yilda **Taysafun** (Ktesifon) yaqinida tavallud topgan. Shu bilan birga Moniy 230-yillarda Eron, Oʻrta Osiyo, Hindiston boʻylab safar qilib, zardushtiylik, buddiylik, braxmanlik dinlari bilan va turli diniy taʼlimotlar bilan tanishadi. 240-yillardan boshlab, Moniy oʻzining mustaqil taʼlimotini targʻib qila boshlaydi. Oʻz ichiga zardushtiylik, buddiylik, braxmanlik, xristianlik dinlarining baʼzi tomonlarini olgan bu taʼlimot boshqa maamlakatlarda ham qiziqish uygʻota boshlaydi. Jumladan, sosoniylar sulolasidan boʻlgan Eron shohi Shopur I bu taʼlimotni quvvatlab, Moniyning Eronga taklif etadi. Moniy 242-yilda Shopur I ning taxtga oʻtirib, toj kiyish marosimi paytida, birinchi marta oʻz taʼlimotini bayon etib

¹ Karimov Islom. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. 32-bet.

va'z o'qiydi. Shopur I ushbu Moniylik ta'limotini xristianlik va mahalliy dinlarga qarshi qo'ymoqchi bo'ladi. Biroq zardusht kohinlari bu diniy ta'limotga shubha bilan qarab, unga keskin qarshi chiqadilar. Zardusht kohinlarning kuchayishi tufayli Moniy muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Erondan qochishga majbur bo'ladi. Shundan so'ng, Moniy O'rta Osiyo yerlarida, shu jumladan, O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatadi.

Moniy samo nuri elchisi hisoblangan. Uning ta'limotida borliqning 2 substantsiya asosi – yorug'lik, yaxshilik, ruh olami bilan zulmat, yovuzlik materiya olamining o'zaro kurashini e'tirof etuvchi Zardushtiylik dualizmi yotadi. Birinchi olamda xudo, ikkinchisida shayton, iblis hukm suradi. Ikki olam kurashi falokat bilan tugaydi, natijada, materiya halokatga uchraydi, ruh ozodlikka chiqadi. Moniy ta'limotiga ko'ra, bu dunyo yovuzlik dunyosidir. Inson ikki unsurdan (ruh – nur farzandi, jism – zulmat farzandi) iborat bo'lgani uchun zulmat kuchlariga qarshi kurashda nur kuchlariga yordam bera oladi. Shuning uchun, moniylik hayotda zohirona yashashni targ'ib etganlar. Ular go'sht iste'mol qilmasliklari, foni dunyoning o'tkinchi moliga qo'l urmasliklari lozim bo'lgan. Moniy tarafdorlarining shiori «Kimki boy bo'lsa, keyin qashshoq bo'lib, sadaqa so'raydi va abadiy azob chekadi». Moniylik keng tarqaldi. U O'zbekiston hududidan tashqari, Sharqiy Turkiston, Italiyadan to Xitoygacha yoyildi. Keyinchalik, bu ta'limot Misr va Ispaniyagacha tarqaldi.

Moniy 273-yilda Eronga qaytadi va Shoh Bahrom I ning topshirig'i bilan 275-yilda hibsga olinib, zindonband qilinadi va 277-yilda qatl etiladi. Moniy bir necha kitoblar muallifidir. Jumladan, «Shoburaqon», «Kanz ulahyo» («Tirilganlar xazinasi»), «Jabborlar haqida», «Sirlar kitobi», «Avangelion», «Kefalaya», «Bungoxik» (Bukgohang) kitoblari uning qalamiga mansubdir.

Moniylik ta'limoti Moniy o'limidan keyin ham keng tarqaladi. U VIII asrda Uyg'ur xonligida hukmron dinga aylanadi. Ammo keyinchalik, moniylik islom dini ta'qibiga uchraydi va asta-sekin Yevropa va Osiyo mamlakatlarida barham topadi. XIV asrga kelib bu diniy ta'limot Xitoyda ham taqiqlanadi. Biroq moniylikdagi yaxshilik va yomonlik kurashi haqidagi dualistik ta'limot keyinchalik, yevropa mamlakatlarida **pavlikianchilik**, Sharq mamlakatlarida esa **mazdakiychilik** harakatlarini keltirib chiqardi.

Moniy o'rta asr Sharq she'riyatida mashhur naqqosh rassom sifatida doimo tilga olingan. Buyuk shoirlardan Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiylar o'z «Xamsa»larida Moniyni ta'rif va tavsif etib o'tganlar. Jumladan, Alisher Navoiy o'z «Xamsa»siga kirgan «Farhod va Shirin», «Sab'ayi sayyor» kabi dostonlarida Moniyni alohida tilga olgan.

9. QADIMGI YOZUVLAR

O'rta Osiyo xalqlari dunyodagi eng boy tarixga ega bo'lgan xalqlardan ekanligi yuqoridagi mavzularda qayd etildi. Bu o'lkada qadim-qadimdan yashab kelgan xorazmiylar, baqtriyaliklar, sug'diyonaliklar, parfiyonlar, dovonliklar, qang'lilar, kushonlar va boshqalar o'z paydo bo'lish, rivojlanish va taraqqiy qilish tarixlariga monand o'z madaniyatlari va yozuvlariga ham ega bo'lganlar. Hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan manbalarda, O'rta Osiyo xalqlarining yozuv tarixi yoshini taxminan 2300–2500-yillar atrofida deb hisoblaydilar. Xorazm, baxtar va sug'dda eron tillari bir necha lahjalardan iborat bo'lgani kabi, turkiy tillar ham xilma-xil lahjalarni o'z ichiga olgan. Uzoq yillar o'tishi bilan eron tillari zaminida fors-tojik tili, turkiy tillar lahjalari zaminida turkiy xalqlar tillari paydo bo'lgan. Qadim-qadimdan bu hududda yonma-yon, yelkama-yelka yashab kelgan, doimo iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan aloqador va bog'lanib ketgan eron va turk tillarida so'zlashuvchi xalqlar so'zlashuv tili jihatdan ham bir-birlariga kuchli ta'sir o'tkazganlar. Buni nafaqat og'zaki so'zlashuv tilida, balki yozma madaniyatda ham ko'rish mumkin.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida Eron, O'rta Osiyo va boshqa o'lkalarda oromiy yozuvi keng tarqalgan. O'rta Osiyoni Aleksandr bosib olgach, bu yerga yunon yozuvi kirib keldi. Xullas, bu davrda Ahamoniylarning oromiy yozuvi asosida parfiyon, sug'd, baxtar va Xorazm yozuvlari paydo bo'lgan. Keyinchalik, Runiy (O'rxun-Enasoy), Uyg'ur kabi bir qator yozuvlar vujudga kelgan. Tarixiy yozma manbalarning guvohlik berishicha, Kushon davlati davrida hind xalqlari bilan o'zaro aloqadorlik negizida Braxma va Qharoshhi deb atalgan Hind alifbolari ham ishlatilgan.

Muarrixlar, muqaddas «Avesto» kitobini miloddan avvalgi VII–V asrlarda bitilganligini taxmin qiladilar. Oʻrta Osiyoda uzoq vaqtlar qoʻllanib kelingan xorazm va sugʻd yozuvlari ham qadimiydir. Xorazm yozuvi oromiy yozuvning qadimiy anʼanalarini oʻzida saqlab qolgan edi. Buni rus olimi S. P. Tolstov oʻz hamkasblari bilan Xorazmdagi Qoʻyqirilgan qalʼasida arxeologiyaga oid tadqiqotlar uyushtirib topgan ashyolar asosida isbotladi. Bu yerdan u xorazm yozuvi namunalarini topdi. Bu yozuvlar qadimgi xorazm tangalari, muhrlari, hujjatlari, sanʼat asarlari, uy-roʻzgʻor buyumlarida aks etgan edi.

Massagetlar va shaklar orasida tarqoq holda yashagan sugʻdlarning yozuvi bitilgan baʼzi manbalar bizgacha kelgan. Jumladan, Sugʻdiyonadan topilgan miloddan avvalgi II asrga mansub sugʻd tangalariga zarb urilgan «Geray jabgʻu», «Kadfuz jabgʻu» soʻzlariga qarab, arxeolog olimi O. N. Smirnova sugʻdlar turk tilida soʻzlashganlar, degan xulosaga keladi. Sugʻd hokimlari va lashkar-boshilarining koʻpchiligi turk boʻlganligini mashhur tarixchi Tabariy ham taʼkidlaydi.

Shunday qilib, yuqoridagi dalil-asoslar Oʻrta Osiyo hududidagi xalqlar eng qadimgi yozma madaniyatga ega boʻlganligini isbot qiladi. Bu gʻoyatda muhim siyosiy ahamiyatga molik masaladir. Chunki qadimgi ajdodlarimiz oʻz rivojlangan davlatchiligi, yuksak rivoj topgan madaniyati va yozuviga ega boʻlgan. Qadim-qadim zamonlarda shimoliy mintaqalarda yashovchi xalqlar hali yovvoyilik bosqichidan ham chiqmagan edilar.

Nazorat savollari

1. Makedoniyalik Aleksandr va uning hayot yoʻli haqida nimalarni bilasiz?
2. Salavka va salavkiylar davlati haqida nimalarni bilasiz?
3. Oʻrta Osiyoning salavkiylar hukmronligi ostiga tushib qolishining sabablari nimada?
4. Parfiya davlati va boshqaruv tizimi qanday boʻlgan?
5. Oʻrta Osiyoda Yunon – Baqtriya davlatining tashkil topishi va boshqaruv tizimi qanday boʻlgan?
6. Qangʻ davlati, uning hududi va tarixiy ahamiyati nimadan iborat?
7. Qadimgi Fargʻona (Dovon) davlatining tashkil topish omillari nimalardan iborat edi?

8. Kushon davlatining vatanimiz tarixida tutgan o'rni va ahamiyati
9. Buyuk ipak yo'li
10. «Avesto»ning o'tmish va bugungi kundagi tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?
11. Prezidentimiz I.A.Karimovning «Avesto» haqidagi fikrlarini aytib bering.
12. Qadimgi yozuvlar va ularning manbaviy ahamiyati qanday?
13. Moniylik dinining mohiyati nimadan iborat?

IV BOB

O'RTA ASRLAR DAVRI

O'RTA OSIYO XALQLARI ILK O'RTA
ASRLAR DAVRIDA (V –VIII asrlar)YERGA EGALIK MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI.
EFTALITLAR VA TURK XOQONLIGI DAVRI (V –VII asrlar)

1. EFTALITLAR DAVLATI

O'zbekiston hududida yerga egalik munosabatlari ma'lum darajada o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Soliqni ma'lum hududdagi jamoaga uyushgan erkin dehqonlar to'laganlar. Bu erkin dehqonlar «kashovarzlar» deb atalganlar. Yer egasi bo'lib, qolgan harbiy zodagonlar esa «dehqon» deb atalgan. «Dehqon» qishloq xo'jayini ma'nosini anglatadi. Kashovarzlar jamoa boshligi «dehqon»ga soliq to'laganlar. X asr tarixchisi Tabariy shu ma'noda bunday dehqonlarning qayerdan kelib chiqqanligini tushuntiradi. Go'yo afsonaviy podsho Monuchehr har bir qishloqqa bir dehqonni boshliq qilib tayinlab, bu qishloq aholisiga shu dehqonga bo'ysunish va uning uchun ishlashni buyurgan ekan. Bu hol quldorlikka asoslangan eski shaharlarni tushkunlikka uchrashiga sabab bo'ldi va feodallarning mulklari yonida juda ko'p mayda xo'jalik markazlari vujudga kela boshladi. Kushon davlati inqirozga uchrab tarqab ketgach, ayrim vohalarda mustaqil mulklar paydo bo'ldi. Bu mulklarining o'z podshochalari bor edi. Ularning nomlari har vohada har xil bo'lgan. Jumladan, Buxoroda – *buxorxudotlar*, Chog'an'iyonda – *chog'anxudotlar*, Vardanzida – *vardonxudotlar*, Totkentda – *tudunlar*, Samarqand va Farg'onada – *ixshidlar*, Osrushanda – *afshiniylar*, Xorazmda – *xorazmshohlar*, Toharistonda – *malikshohlar*, Iloqda – *dehqonlar* kabi.

IV asrning o'rtalarida kushon, Eftalit va yana bir massaget qabilalari boshqa bir qabila bilan birlashgan. Arman tarixchilari bu qabilani «Xonlar», vizantiyalik tarixchilar esa «Xioniylar» deb ataganlar. Arman va suriyalik tarixchilar «Xonlar»ni kushonlar bilan bir xil

bilishgan, vizantiyaliklar esa ularni «Oq xunlar» deb atashgan. Bu yerda xionitlar badanining oqligi, o'troq turmush sharoiti va boshqa ko'chmanchi xunlarga nisbatan, ancha yuqori madaniyat darajasiga egaligi e'tiborga olingan.

Birinchi marta xioniylar Ammian Marselian asarida qalamga olingan. 356-yilda xioniylar begi Grumbat o'z o'g'li bilan Eron sosoniylari podshosi **Shopur II (309–379-yillar)** tomonida turib Amida (Suriya) shahrini qamal etgan paytda, ittifoqchi sifatida qatnashadi. Sosoniylar podshosi **Varaxran V (418–438-yillar)** xioniylarga qarshi qattiq kurashlar olib borgan. Bu davrda xioniylar Amudaryo havzasini egallab olib, o'z hududlarini yanada kengaytirishga harakat qilayotgan edilar. Marv atrofida olib borilgan jangda xioniylar ustidan galaba qozongan Varaxran V o'z davlati chegaralarini Talqon (Marv bilan Balx oralig'i)gacha kengaytirdi va bu yerda toshdan chegara minorasi qurdirdi. Undan keyingi sosoniylar podshosi **Yazdigard II (438–457-yillar)** xioniyarning to'xtovsiz bo'lib turadigan hujumlaridan himoyalaniib, qarorgohini shimolga tomon, Shahriston Yazdigard shahriga ko'chirdi. Bu davrda u xioniyarning juda ko'p qishloq va shaharlarini vayron qildi hamda Balxan tog'i yaqinidagi Cho'l shahrida (hozirgi Krasnovodsk shahri yaqinida) o'rnashib olgan xioniylar podshosini o'ldirdi. Ammo ikkinchi yurish paytida (**453–454-yillar**) Yazdigard qo'shini xioniylar tomonidan tor-mor keltirildi va uning o'zi qatl etildi.

V asr boshlarida massaget qabilalari ittifoqidan yana bir qabilaviy guruh ajralib chiqdi. Ular **kidariylar** deb atalib, Tohariston hududlarida joylashgan edilar. Bu nom qabila boshlig'i va podshosi Kidar nomidan olingan. Kidariylar bir necha marta sosoniylar Eroniga hujumlar uyushtirganlar. Ammo 456-yildagi bo'lgan jangda sosoniylar kidariylarni tor-mor qiladilar, Kidariylar halok bo'lgan o'z podsholari Kidarning o'g'li Kungas («Skuxa» deb ataluvchi sak nomi bilan taqqoslang) boshchiligi Hindikush orqali Qandaxor (Peshovar)ga ketadilar va Shimoliy Hindistondagi Gupta podsholigini o'zlariga bo'ysundiradilar.

Kidariylar bu yerda 75 yil mobaynida hukmronlik qilganlar. V–VI asrlardagi tarixshunos olimlarning asarlarida (masalan, suriyalik Ieshu Stilit, Vizantiyalik Prokopiy Kesariskiy, armanistonlik Sebeos va boshqalar) xioniylar Eftalitlar bilan, ba'zilarida kushonlar bilan aynan bir bo'lgan deb yuritiladi. Bu hol bizga bu qabilalar o'rtasidagi farq etnik harakterda bo'lmasdan sulolaviy jihatdan farqlanadi, deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Ilk oʻrta asrlar davrida tashkil topgan yirik davlatlardan biri – **Eftalitlar** davlatidir. Eftalitlarning etnik jihatdan qaysi qabila-xalqqa mansubligi va qaysi tilda soʻzlashganliklari toʻgʻrisida fan olamida har xil fikrlar bor. Ammo aksariyat olimlar Eftalitlarni milodimizdan avvalgi I asr bilan milodimizning IV asri oʻrtalarida Yettisuvdan va yanada sharqroqdagi rayonlardan Orol dengizi boʻylariga kelib qolgan xunlar bilan aralashib ketgan holda Xunn qabilalaridan turkiy tilini qabul qilgan Orol boʻyi sak-massaget qabilalarining avlodlaridirlar, degan gʻoyani ilgari suradilar. Eftalitlar tarixiga oid maʼlumotlar rimlik tarixchi Ammian Martsellin (IV asr), vizantiyalik tarixchi Prisk Paniyskiy (V asr), Prokopiy Kesariyskiy (VI asr), Feofan Vizantiyskiy (VI asr), suriyalik yozuvchi Zenob Glak (VII – VIII asrlar), armanistonlik tarixchilar Lazar Parbski (V asr), Favsto Buzanda (IV asr), Yerishe (V asr) asarlarida berilgan. Birmuncha keyinroq yozilgan Xitoy solnomalari «Vey-Shu» (VI asr) va «Man-shu» (IX – X asr)da ham Eftalitlar toʻgʻrisida qimmatli manbalar bor.

Eftalitlar tarixi bilan rus sharqshunos olimlari P. I. Lerh, N. I. Veselovskiy, V. V. Bartold, A. Yu. Yakubovskiy, S. P. Tolstov, A. N. Bernshtam, chet ellik tarixchilardan Shnext, Druen, Markvart Xyermon, Mak Govyern va boshqalar ham shugʻullanganlar va qimmatli asarlar yozganlar. Eftalitlar turli tillarda, turlicha nomlarda talqin qilinganlar. Xitoylarda E-da yoki I-da, armanlarda – Xental, yunonlarda abdel.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, «Eftalitlar» degan nomning oʻzi V asrning ikkinchi yarmidan eʼtiboran paydo boʻlgan. Feofan Vizantiyskiyning maʼlumotlariga qaraganda, Eftalitlar shohi Vaxshunvor Eftalon deb nomlangan. Arman tarixchilaridan biri esa Eftalitlar degan nom «xaft» (yetti), yaʼni massagetlarning yettinchi qabilasi nomidan olingan, deb hisoblaydi.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, 457-yildan eʼtiboran Eftalit podshosi Vaxshunvor, Chagʻoniyon, Tohariston va Badaxshonni oʻziga boʻysundiradi. Eftalitlarning kuchayib ketayotganligidan xavfsiragan sosoniylar shohi Peroʻz Eftalitlarga qarshi yurish qiladi. Ammo u yengilib asirga tushadi va yordam soʻrab Vizantiyaga murojaat qiladi. Vizantiyadan yuborilgan pul evaziga asirlikdan ozod qilingan Peroʻz Eftalitlarga ilgari bosib olingan Taliqon shahrini qaytarib berish va **Veraxran V** (418–438-yillar) tomonidan belgilangan chegaradan nariga oʻtmaslik majburiyatini oladi. Taliqon shahrida oʻrnatilgan chegara minorasi fillar yordami-

da ko'chiriladi. Ammo Pero'z o'z va'dasini bajarmaydi va eftalitlar ustiga ikkinchi marta qo'shin tortib keladi. Ikkinchi marta ham mag'lubiyatga uchrab, Suriya manbalarida ta'kidlanishicha, u ikkinchi marta asir tushadi. Sosoniylar shohi eftalitlarga kumush dirhamlar bilan to'ldirilgan qoplar ortilgan 30 ta xachir berish majburiyatini oladi. Lekin u faqat yigirmata xachir va shunga loyiq tangalar topa oladi, xolos. Majburiyatning qolgan qismi evaziga Pero'z o'zining go'dak o'g'li Kubodni (488–531) garovga qoldiradi va ikki yil davomida Eftalitlarga katta hiroj to'lab turishga majbur bo'ladi. Bu hirojni Pero'z aholiga og'ir jon boshi soliqlarini solish yo'li bilan to'laydi. Shu munosabat bilan arman tarixchisi Lazar Perbskiy Pero'z Eronni Eftalitlarga sotganligini va uning hech qachon bu qullikdan qutula olmasligini zorlanib yozgan edi. Majburiyatdagi qarzni to'lab bo'lgan Pero'z Eftalitlarga do'st qilib ko'rsatmoqchi bo'ladi va o'z singillaridan birini Eftalitlar podshosi Vahshunvorga xotinlikka taklif qiladi. Biroq Pero'z singlisining o'rniga boshqa qizni yuborib, Vaxshunvorni aldaydi. Vaxshunvor bunga javoban, Eftalitlarning iltimosiga ko'ra Erondan kelgan harbiy maslahatchilarni kaltaklattiradi va o'ldiradi.

Pero'z Vizantiya yordamida uchinchi marta Eftalitlar ustiga yurish qiladi. Bu yurishda Eftalitlar chegarasidan o'tgan Pero'z o'z askarlari bilan ular uchun maxsus, ataylab tayyorlab qo'yilgan bo'ri uyalariga tushib qoladi va halok bo'ladi. Pero'zni tor-mor keltirgan Eftalitlar Eronga juda katta o'lpon soliqlar soladilar va Marvni egallaydilar. Sug'dni esa ular allaqachon o'zlariga qaratgan edilar, so'ngra Eftalitlar Qobul va Panjob vodiysini, Qarashar, Urumchi (490), Qoshg'ar (497–509) va Xo'tanni ham zabt etadilar. Umumiy xulosa shundan iboratki, Eftalitlar massagetlar avlodidir, ular kushonlar siyosatini davom ettiradilar va O'rta Osiyoda yagona markazlashgan davlatni barpo etdilar. Eftalitlar qo'li ostida tarbiyalangan Pero'zning o'g'li Kubod davrida Eron Eftalitlarga hiroj to'lashda davom etdi, Kubod hukmronligi davridagi (488–531-yillar) tengsizlik va ekspluatatsiya zulmiga qarshi xalq ommasi o'rtasida norozilik qo'zg'olonlari bo'lgan, bu davrda barcha yerlar jamoa qo'lidan tortib olinib, «dehqon mulki»ga aylantirilgan. Barcha boylik va hokimiyat boylar qo'lida bo'lgan. Ayollar huquqi poymol qilingan. Boylar ko'ngil xushi uchun istagancha xotinlar olganlar. Bu hol Mazdak boshchiligida qo'zg'olon kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Mazdakchilar «3» harfi bilan boshlanadigan to'rt narsa-

ning aholi o'rtasida teng bo'lishini talab qilganlar: **1) Zamin (Yer); 2. Zar (oltin); 3, Zo'rlik (kuch-hokimiyat) va 4. Zan (xotin).** Kubod dastlab, bu qo'zgolonna himoya qildi va qo'llab-quvvatladidi. So'ngra u bu qo'zg'olonga qarshi kurashdi va Eftalitlar tomoniga qochib ketdi. Kubod hukmronligi davrida Eron bilan Eftalitlar orasidagi munosabatlar ancha yumshab, do'stona tus ola boshladi. Bu hol Eftalitlar orasida o'sgan Kubodning Eftalitlar bilan shaxsiy do'stona munosabatlarining natijasi bo'lganligi ehtimoldan uzoq emas. Kubod Eftalitlar podshosining qizi, ya'ni o'z jiyaniga uylanadi. Chunki uning opasi asirga tushgach, Vaxshunvorning xotini bo'lgan edi. Ikki tomon o'rtasidagi yaqinlik shu darajada kuchaydiki, Eftalitlar 502-yilda Eron tomonida turib, Vizantiyaga qarshi urushda qatnashganlar. 506-yilda tuzilgan sulh bitimiga ko'ra, Vizantiya tillasidan va ulushlarini olishga muvaffaq bo'lganlar. Eron bilan Eftalitlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar Kubodning o'g'li Xusrav I Anushervon davrida ham davom ettirilgan. Chunki Xusrav I Eftalitlarga yil sayin kumush hisobida belgilangan xirojni to'lab turgan. Ammo Turk xoqonlarining Eftalitlarga qilgan hujumidan foydalanib, Xusrav I 554-yilda Eftalitlardan Toharistonni tortib oladi. 563–567-yillarda esa turk xoqoni Silsivul Eron bilan ittifoqda Eftalitlarga qaqshatqich zarba beradi va bu podsholikni tobe ahvolga solib qo'yadi. Lekin VI asr oxirlariga kelib, turk xoqonligi roziligi bilan Eftalitlar Eronga qarshi urush olib bordi va Toharistonni qaytarib olishga muvaffaq bo'ldilar. So'ngra Eronda boshlangan fuqarolar urushidan foydalanib, sosoniylarga qaram bo'lishdan ozod bo'lgan Eftalitlar allaqachon g'arbiy turkiy xoqonlik ta'siriga tushib, qolganliklaridan o'zlarining avvalgi mustaqilliklarini saqlab qololmadilar. Eftalitlar davlatining siyosiy markazi – poytaxti qayerda bo'lganligi to'g'risida qat'iy aniq ma'lumot yo'q. Taxminiy fikrlarga ko'ra bunday markaz Poykand yoki Balx bo'lgan deyiladi. Davlatning boshida podsho turgan. Podsholar Vizantiya tarixchisi **Prokopiyning** (VI asr) so'zlariga qaraganda, vizantiyaliklar bilan forslar orasida mavjud bo'lgan adolatdan zarracha bo'lsa-da, kam bo'lmagan adolatga suyanib faoliyat ko'rsatganlar. Odamlar, asosan, shaharlarda yashaganlar. Eftalitlar hukmronligi davrida astasekinlik bilan yerga bo'lgan egalik munosabatlari qaror topa boshlaganligining guvohi bo'lamiz. Bu davrda olib borilgan to'xtovsiz urushlar ishlab chiqarish kuchlarining inqirozga uchrashiga ham sa-

bab bo'ldi, sug'oriladigan yer maydonlari qisqardi, shaharlar son jihatdan kamaydi. Eftalitlardan oldingi kushonlar davridayoq yer va qo'rg'onlarga ega bo'lgan aslzodalar ajralib chiqa boshlagan, dehqonlar mahalliy zodagonlarga ko'proq tobe bo'la borgan. Bu hol feodal munosabatlarning shakllana boshlashi uchun shart-sharoit yetila borganligini ko'rsatadi. Aholining asosiy qismi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan, ayrim qismigina ko'chmanchilik asosida yashagan, o'tovlarda istiqomat qilishgan. Eftalitlar davrida aholi sonining o'sishi natijasida obikor yerlarga bo'lgan talab ortib bordi. Natijada, V–VI asrlarda hozirgi Toshkent va Janubiy Qozog'iston yerlarini sug'orish uchun Bo'zsuv va Zog'ariq kanallari, Samarqand viloyati yerlarini sug'oruvchi Darg'om kanallari qazildi.

Jamiyatda yerga bo'lgan egalik munosabatlar paydo bo'la borishiga qaramasdan, antik xo'jalik elementlari va hatto, ibtidoiy jamiyatning qoldiq sarqitlari ham saqlanib qolgan. Qullar mehnatidan foydalanish davom etgan. Xalqning urf-odat va turmush tarzida eski tuzum davrining sarqitlari keng qo'llanilgan. Oliy tabaqa vakillari-da, patriarhal tuzum urf-odatiga ko'ra, ko'p xotinlilik hukm surgan. Oddiy Eftalit vafot etganda tuproqqa qo'yilgan, boylarning murdasini esa maxsus tayyorlangan tosh dahma (yodgorlik toshi, maqbara)-ga ko'mishgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdagi o'zgarishlar munosabati bilan eski tartibdagi shaharlar inqirozga uchrab, yangi qo'rg'on, qal'alarning mustahkamlanishi ko'zga yaqqol tashlanadi. Bundan tashqari, yangi-cha tipdagi shaharlar, shahar-qal'alar yuzaga keladi. Eftalitlar Eron, Vizantiya, Hindiston, Xitoy va boshqa davlatlar bilan keng ko'lamda savdo aloqalari olib borganlar, elchilik munosabatlari o'rnatganlar. Savdoda Xitoy va Vizantiya, asosan, ipak oyna, turli meva-chevalar, qimmatbaho toshlar, bo'yoqlar va boshqalar bilan muomala qilar edi. Bu savdo jarayonida sosoniy tangalar bilan bir qatorda mahalliy tangalar ham qo'llanilgan: buxorxudotlar tangasi, so'gdiy tangalar, Xorazm tangalari va hokazo.

Tarixiy yozma manbalarda, Eftalitlarning kundalik turmush va madaniyati haqida deyarli hech qanday ma'lumotlar saqlanmagan. Askarlari qo'lida harbiy qurol-yarog'lardan gurzi, o'q-yoy va asosiy-si qilich muhim o'rin tutgan¹. Xitoy manbalarida ko'rsatilishicha,

¹ *Sagdullayev F., Minov B., Mavlonov O., Norqulov N.* O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: «Akademiya», 2000, 62-bet.

Eftalitlar cho‘qmorlar bilan jang qilganlar (forslar – kamonlar, arablar – nayzalar bilan), ular nihoyatda bahodir, jangovar va mard xalq bo‘lishgan. Eftalitlarning tili haqida yuqorida eslatganimiz singari, aniq bir xulosaga ega emasmiz. Eftalit podsholigida sug‘d tilining keng qo‘llanilganligi to‘g‘risida manbalar yetarli darajada ma‘lumot beradi. *Sug‘d yozuvidan tashqari, undan biroz farq qiluvchi buxor yozuvi, xorazmiy va Eftalit yozuvi keng tarqalgan*, Eftalitlar davri xalq qo‘shiq-lari va eposlari Firdavsiy «Shohnoma»sida tasvirlangan. Eftalitlar podsholigida har xil diniy g‘oyalarga e‘tiqod qilish davom etgan. Bunga asosiy sabab Eftalitlarning juda ko‘p xalqlarni siyosiy birlashtirganligidir. Bu yerda Zardushtiylilik Erondagiga nisbatan boshqacharoq shaklga ega bo‘lgan, U Anaxit va Siyovushga ehtirom ko‘rsatish bilan qo‘shilib ketgan. IV asrda Navro‘z (Yangi yil) kuni Zardushtiylar erta tongda Siyovushning Buxorodagi qabriga kelib, xo‘roz so‘yib qurbonlik qilganlar. Bundan tashqari, Vaxsh, Mitra, Anaxit (quyosh)ga sig‘inish ham mavjud bo‘lgan. Manixeizm, Mazdak ta‘limoti (Eronda), buddizmning yoyilishi o‘z yo‘lida davom eta berdi.

Eftalitlar davri tarixiga oid ba‘zi bir moddiy-madaniyat yodgorliklari mamlakatimiz hududida saqlanib qolgan. Bular Xorazm viloyati hududidagi Firqala (Qiyot – Beruniy yaqinida), Buxoro viloyatida Poykand va boshqalardir. Bu tarixiy obidalar xalqimizning Eftalitlar davri madaniy va turmush hayoti to‘g‘risida qimmatli xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

Eftalitlar davrida shuhrat topgan yirik shaharlardan biri Paykent (Baykend)dir. Tarixchi Narshahiy Baykendni «Buxoro shahridan qadimiyroq» deb hisoblaydi¹. Bu shahar harobalari va uning o‘tmish tarixi ham yetarli darajada o‘rganilgan emas. Yoki Bolaliktepa ibodatxonasidagi binoning devorlariga ishlangan suratlar rang-barangligini aytmayisizmi, qo‘llarida qadahlar ushlab o‘tirgan erkak va xotinalarning ziyofatlari rangli bo‘yoqlarda jonli bir suratda hayratomuz o‘z ifodasini topgan. Bu daliliy ashyolar qadimgi ajdodlarimizning buyuk aql, tafakkur va ijod egalari bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ammo Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va kichik-kichik mayda hukmdorlarning raqobatlari natijasida VI asrning o‘rtalariga kelib, Eftalitlar davlati asta-sekin yemirila boshladi.

¹ Narshahiy. Buxoro tarixi. – T.: «Kamalak», 1991 yil, 100-bet.

2. TURK XOQONLIGI

VI asrning oʻrtalariga kelib, Oltoy, Yettisuv va Oʻrta Osiyodagi turli qabilalar va xalqlar birlashib, katta Turk xoqonligi davlatini tashkil qildilar. Lekin bundan turkiy xalqlar va ularning davlatga uyushuvi VI asrning oʻrtalariga qadar boʻlmagan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak I. Bichurin, N. Gumilev va boshqa turkshunos olimlarning bergan maʼlumotlariga koʻra, eng qadimgi turkiyzabon xalq xitoy solnomalarida miloddan avvalgi 1756-yildan boshlab tilga olinadi.

Turkiylar – jahondagi eng qadimgi va yirik etnoslardan birining nomi. Soʻnggi davrda jahon olimlari, jumladan, oʻzbek olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida va qadimgi Xitoy manbalaridagi maʼlumotlarga koʻra, ushbu atama bundan 3,5–4 ming yil muqaddam rasmsimon iyerogliflar bilan yozilgan bitiklarda «tiek» va «tiauk» shaklida uchraydi. Turk soʻzi baquvvat, barkamol, odillik kabi maʼnolarni anglatadi, degan fikrlar mavjud. Qadimgi Xitoy manbalarida, turklar qiyofasi chuqur koʻzli, qirra burunli, basavlat va sersoch, deb koʻrsatiladi.

Bir necha ming yilliklar davomida turkiy qabilalar koʻp marta birlashgan va parchalanganligi tufayli ularning qabilaviy tarkibi oʻzgarib turgan.

Miloddan avvalgi II asrdan – milodiy III asrgacha boʻlgan davrda turklar Xunn xoqonligi tarkibida boʻlganligi sababli Xitoy manbalarida shyunno, xunnu deb ham atalgan. Mazkur xoqonlik yemirilgandan keyin 300 yilga yaqin davr davomida xitoylar turklarni tiekle (zamonaviy tilda tele) deb atashgan¹.

Turkiy xalqlar toʻgʻrisida turlicha afsonalar tarqalgan. Ulardan birida aytilishicha, Gʻarbiy dengiz sohilida yashagan turkiylarning ota-bobolari qoʻshni qabilalar tomonidan qirib tashlangan. Oʻn yoshli bola yashirib, favqulodda tirik qolgan. Oʻsha yerda yashaydigan urgʻochi boʻri unga xotin boʻladi. Ochlikdan va dushmanlardan qutqarish uchun oʻsha bolani boʻri olib, Turfon togʻlari tomon ketadi. Togʻda bir gʻor bor edi. U yerda urgʻochi boʻri, oʻnta bola tugʻadi. Bolalarning otasi oʻsha qutqarilgan turk edi. Boʻri bolalari Turfondagi ayollarga uylanadilar. Har bir boladan bir urugʻ kelib chiqadi. Oʻgʻillardan birining ismi Ashin edi. Uning nomi hamma

¹ Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-Jild. – T.: «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 640-bet.

qabila nomini anglatadigan bo'ladi. U o'z aka-ukalariga nisbatan aqlliroq bo'lganligidan qabilaning dohiysi bo'lib oladi. Urug' asta-sekin bir necha yuz kishiga yetadi. Ashinning merosxo'rlaridan biri qabila dohiysi Asan Shad bo'ri avlodlarini Turfondan Jujan qabilalari yerlariga olib keladi, ular fuqarolarga aylanib, temir qazib olish bilan shug'ullanadilar. Oltoyda ular turk nomini oladilar. Afsonaga ko'ra, «Turk» so'zi Oltoy tog'ining eng qadimgi nomidir. Ikkinchi afsonaga ko'ra, turk qabilasining ota-bobolari SO saltanatiga borib taqaladi. Bu saltanat Oltoynining shimolida joylashgan edi. Qabila boshlig'i Abanbuning o'n oltita ukasi bor edi, shulardan biri Ichasin Ishid «Bo'ri o'g'li» deb nom olgandi. SO saltanati dushmanlar tomonidan tor-mor qilinadi. Omon qolganlari tarqalib ketadilar. Bo'ri o'g'li juda tadbirkor bo'lgan. Shu bois, imkoniyat topib, urug'ini qiyin ahvoldan olib chiqadi. Uning o'g'illaridan biri Oqqush bo'lib, Abakan daryosi bo'ylarida hukmronlik qiladi. Ikkinchi o'g'li esa Sig'u saltanatiga asos soladi. Bu saltanat Kama daryosi bo'ylarida edi. Uchinchi o'g'li Chjuchje daryosi bo'ylarida hukmronlik qiladi. Katta o'g'li Nudulu Shad G'arbiy Sayanga o'rnashadi. Nudulu Shadning o'nta xotini bo'lgan. Uning o'g'illari onasining qabilasi nomini oladilar. Eng kichik xotining o'g'li Ashin edi. Nudulu Shad vafotidan keyin, taxtga o'g'illaridan bironyasi o'tirishi kerak edi. Shunda aka-ukalar kimki kuchli bo'lsa, o'sha urug' boshlig'i bo'ladi, deb qaror qiladilar. Musobaqada Ashin g'alaba qozonadi. U Asan Shad nomini olib, urug' boshlig'i bo'ladi. Uning vafotidan keyin esa o'g'li Tuu taxtga o'tiradi. Tuuning o'g'li Tumin (Bumin) turk xoqonligiga asos soladi.

Tuba qabilasi Shimoliy Xitoyni bosib oladi. U yerdagi qabilalar orasida Ashinning besh yuz oilasi bor edi. Shu paytda Ashin urug'i Xunn hokimi Muganga qaram edi. 439-yilda tubalar xunnlar ustidan g'alaba qozonadi. Shundan keyin, Xunnlarga tobe bo'lgan Ashinning besh yuz qabilasi Jo'janlar huzuriga ko'chib boradi. Oltoy tog'larining Janubida o'rnashib, jo'janlarga temir qazib bera boshlaydilar, Ashin urug'i qayerda, kimning hukmronligi ostida bo'lmasin, o'z tilini saqladi. Albatta bu afsonadan turkiy xalqlar bo'ri urug'idan tarqalgan, degan xulosa chiqmaydi.

Taniqli olim, Ashraf Ahmedovning yozishicha, V asrning ikkinchi yarmida Xunn davlati parchalanib ketgan. Xunnlarning uncha katta bo'lmagan bir toifasi o'z atrofiga qisman mo'g'ul va xitoy muhojirlarini birlashtirib, hech qanday hokimiyat va davlatga

bo'ysunmasdan, ko'chmanchilik qilib, kun kechirganlar. Ana shu toifani ularga qo'shilgan mo'g'ullar «Turk-utu», ya'ni «bo'ri urug'i»¹ deb atalgan ekanlar. Ammo bu degan so'z turklar bo'ri urug'idan degan ma'noni bildirmaydi. Balki barcha xalqlarning ham uzoq o'tmishida bo'lgani singari har bir qabilaga go'yo homiylik qilgan hayvon, daraxt va jismlar nomi bilan atalgan. Jumladan, arab qabilalaridan birining nomi «**Banu qalb**» «it o'g'illari», degan ma'noni bildiradi. Biz bundan shu arab qabilasi itdan tarqalgan deb tushunmasligimiz kerak, albatta. It qachonlardir o'sha qabilani himoya qilgan yoki ular itga topingan deb tushunmoq kerak bo'ladi. Xuddi shuning singari xunnlarning bir urug'i ham o'zlarini bo'ri urug'iga mansub bo'lib, «**Bo'z qurt**» deb atashgan. Lekin atrofda qabilalarga bu so'zning mo'g'ulcha atalishi «turk-utu» ko'proq qulay bo'lgan. VI asrning boshlariga kelib, o'sha qabilalar uyushmasi son jihatdan osha borgan. Nomlanishdagi ikkinchi so'z tushib qolib, turk deb atalavergan. Ana shu tariqa, VI asrning o'rtalariga kelib, O'rta Osiyoda Turk xoqonligi tarkib topadi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu xoqonlikka asos solgan kishining ismi Ashin bo'lib, uning mo'g'ulcha ma'nosi ham bo'ri ekani ta'kidlanadi.

545-yilda qo'zg'olon ko'targan jo'janlarga Tele qabilalari zarba beradi va o'z navbatida turklar Tele qabilalarini tor-mor keltiradi. Shundan so'ng, 545-yildan e'tiboran Turk xoqonligi O'rta Osiyo, Mo'g'uliston, G'arbiy Sibir va Dashti Qipchoq yerlarida hukmron davlatga aylanadi.

Umuman aytganda, birinchi va ikkinchi turk xoqonining 545-yilda to'liq mustaqillikka erishganlaridan so'ng, o'z hukmronliklarini deyarli ikki yuz yil davom ettirdilar. Turk xoqonlari nihoyatda katta hududlarga ega bo'lgan mamlakatlarini sakkizta tobe xonliklar asosida boshqardilar. Sharqiy xoqonlik markazi Oltoyda, G'arbiy xoqonlik Yettisuvda bo'lgan. Yozma manbalarda Sharqiy va G'arbiy Turk xoqonliklarini tashkil etishda qatnashgan turkiy urug'larning nomlari tilga olingan: *Ashin, Argu, 'Az, Basmil, Izgil, Ug'uz, To'qqiz o'g'uz, Uch uguz, O'n uygur, O'tuz tatar qarluq, Kurdanta, Qimchoq, Kiton, Qirqaz, Tordush, Tatabi (tunguzlar), Dulu Nushub, Tuqri (taharlar), Tolis, Turgan, Tupuri, Turk, Uyg'ur, Sir, Kuriqan, Duba (tuba)*².

¹ *Ahmedov Ashrab*. Turon. «Muloqot», 1991-yil, 6-son, 48-bet.

² *Maxmudov Q.* Turkiy xoqonliklar – «Turon tarixi» to'plami. – T., 1992-yil, 32-bet.

VI asrning oxiri, VII asrning boshlarida kuchli Turk xoqonligi davlati bo'lganligini yozma manbalar xabar qiladi. Xitoy tarixchisi «qadimgi zamonlarda shimoldagi ko'chmanchilar hech mahal bunday kuchli bo'lmagan edilar», deb yozadi. «Qariyb barcha xonlar Xitoy malikalariga uylandilar, xitoy xonadoni esa har yili yuz bo'lakdan ipak mato armug'on qilib turdi».

Turklar Bumin hukmronligi davrida jo'janlarga zarba berib, qaramlikdan xalos bo'ldilar. Jo'janlar bilan aloqani uzish uchun bahona kerak edi. Turk xoqoni Bumin jo'janlar hukmdori Anauxaning qiziga sovchi yuboradi, bundan Anauxa g'azablanadi. Bumin g'o'yo o'zini Anauxaga tenglashtirayotganday va bu bilan u Anauxani haqoratlayotganday tuyuldi. Anauxa Buminga shunday javob qaytaradi: «Ey mening temir erituvchim, sen menga bunday taklif kiritishga qanday jur'at etding?», Bumin o'z maqsadiga erishadi. Jo'janlar bilan aloqani uzadi va jo'janlar elchisini o'ldiradi. 552-yilda Bumin jo'janlarga qarshi urush e'lon qiladi va tarixiy g'alabaga erishadi. So'ng, Xitoy malikasiga uylanadi va Vey saltanatining hukmdori Vendi bilan shartnomani yangilaydi.

552-yilda Bumin vafot etadi. Taxtga uning o'g'li Qora Issiqxon o'tiradi. Bumin vafotidan foydalangan jo'janlar Turk xoqonligiga yana hujum qiladilar. Lekin Qora Issiqxon ularga qaqshatqich zarba beradi. Qora Issiqxondan so'ng, taxtga uning ukasi Mug'anxon o'tiradi. 558-yilda u jo'janlarga so'nggi hal qiluvchi zarbani beradi. Mug'anxon yigirma yil (553–572) xonlik qiladi. Bu davrda Turk xoqonligi har tomonlama yuksalib, butun O'rta Osiyoda siyosiy hukmronlikni o'rnatdi. Mug'an xongacha ham amakisi Istami (Buminning ukasi) xoqonlikning g'arbiy qismini, boshqarar edi. Istami akasi vafotidan keyin (555-yilda) Toshkent va uning atroflarida, Qozog'iston, Yettisuv va Xorazm hududlarida mustahkam o'rnatib oldi. Endi Turk xoqonligining chegaralari Amudaryogacha yetib boradi. Xususan, 563–567-yillarda Turk xoqonligi Eftalitlarni tor-mor keltirgach, uning chegaralari Eron bilan bevosita yaqinlashib qoladi. Bu hol Eron va Turk xoqonligi manfaatlarining o'zaro to'qnashuviga olib keladi.

Eronda Shahanshoh Xusrav Anushervon taxt so'rardi. U ham Eftalitlar hisobidan o'z chegaralarini kengaytirishni o'ylardi. Dastlabki paytlarda Eron bilan turklar o'rtasidagi munosabatlar yaxshi edi. Hatto, Xusrav turk malikasiga uylangan ham edi. Biroq turklar Eftalitlarni tor-mor keltirgandan so'ng, har ikki o'rtadagi

munobatlar keskin tus oldi. Turk xoqonining Eron bilan munosabatlarini o'rnatishga intilishlari foyda bermaydi. Xusrav Turk xoqoni Istaming birinchi marta yuborgan elchisi Maniax olib kelgan ipak buyumlarning hammasini ko'zi oldida o'tga tashlaydi. Istami tomonidan yuborilgan ikkinchi elchilarni esa Xusrav zaharlab o'ldiradi. Eron bilan aloqani o'rnatish imkoniyati bo'lmagach, Turk xoqonligi 568–569-yillarda Vizantiya bilan bunday munosabatlarni o'rnatish uchun Konstantinopolga Yusti II saroyiga elchi yuboradi. Konstantinopoldagi Yusti II saroyiga kelgan Turk xoqonligi elchilariga yuqorida nomi tilga olingan sug'd savdogari Maniax boshchilik qilardi. U Eron davlati chegaralarini chetlab Kaspiy dengizining shimoli va Kavkaz orqali borishi kerak edi. O'z navbatida, Vizantiya ham Zemarx boshchiligida Turk xoqonligiga javob tashrifi bilan elchilar yuborgandi. Muzokaralar davomida asosiy diqqat ipak savdosi va birgalashib Eronga qarshi kurash olib borish masalalariga qaratiladi.

Turk xoqonligi VI asrning 70–80-yillariga (588-yilda) kelib, o'zining ichidagi ichki nizolar va Xitoydagi Suy imperiyasining aralashuvi natijasida ikkiga bo'linib ketadi. G'arbiy va Sharqiy xoqonliklarga, G'arbiy Turk xoqonligi, Sharqiy Turkistondan to Kaspiy dengizigacha cho'zilgan hududlarni o'z ichiga olib markazi Yettisuv edi. Sharqiy Turk xoqonligi esa Old Osiyo yerlarini o'z ichiga olib, uning markazi – Oltoyda joylashgan.

VI asrning 70-yillarida Turk xoqonligi uchun juda qulay vaziyat vujudga keldi. Bu davrda Eron bilan Vizantiya o'rtasida urush boshlandi. Turk xoqonligi bu paytda ancha kuchaygan edi.

Sharqiy Turk xoqonligi Xitoyga bir necha bor yurishlar qilgan va xitoyliklarni har yili 1000 bo'lak miqdorida ipak o'lpon to'lashga majbur etgan edi. Biroq 589–617-yillarda Xitoyda hokimiyat tepasiga Suy dinastiyasi kelgach, mamlakat iqtisodi yuksalib, tashqi hayotda ijobiy o'zgarishlar boshlandi. Shundan so'ng, Turk xoqonligi kuchlari xitoyliklar bilan bo'lgan to'qnashuvda mag'lubiyatga uchradi. Mag'lubiyatga uchragan turk beklari o'z urug'-aymoqlari bilan g'arbgacha tomon ko'chishga majbur bo'ldilar. Ulardan qashshoqlashgan bir qismi Buxoro vohasi tomon ko'chib ketdilar va ular aslzoda yer egalari zulmidan adoyi tamom bo'lgan kambag'al mahalliy aholi bilan birgalashib, turk shahzodasi Abruy boshchiligida yer egalari qarshi qo'zgonon ko'taradilar. Abruy boshliq qo'zg'olonchilar Poykend shahrini egallaydi. Abruy hukm-

ronligi davrida zarar koʻrgan aslzodalarning katta bir qismi Turkiston va Toroz tomonlarga qochganlar. Ular Gʻarbiy Turkiylar Sultoni Qorachuringa murojaat qilib, undan yordam soʻraydilar. Qorachurinning qoʻshinlari 585-yilda Abruy qoʻzgʻolonini bostirib, yer-suvni Yettisuvdan qaytib kelgan dehqonlarga qaytarib beradi. Abruy oʻlim jazosiga hukm qilinadi va u «qovogʻarilar toʻldirilgan qopga tashlanadi», qoʻzgʻolon koʻtargan kambagʻallarni esa qaytib kelgan boylarga xizmatkor va kashovarlar qilib, taqsimlab beradilar.

Qorachurin oʻz oʻgʻli Barmudni Buxoro noibi etib tayinlaydi. 588-yili Qorachurin Eronga qarshi Xazorlar va Vizantiya yordamida urush boshlaydi. Lekin u sosoniylarning mashhur lashkarboshisi Bahrom Chubin tomonidan oʻldiriladi. Bu magʻlubiyatdan soʻng, Turk xoqonligi yanada tushkunlikka uchradi. Bahrom Chubin Qorachurinning oʻgʻlini ham Poykendda boʻlgan jangda oʻldiradi. VII asr boshlarida gʻarbiy Turk xoqonligi yana yuksalish sari yoʻl tutadi. Bu yuksalish Xitoyda Suy sulolasining qulashi davriga toʻgʻri keladi. Tan sulolasi hukmronligi (618–907) davrida Xitoy bilan Turk xoqonligi oʻrtasida qizgʻin munosabatlar oʻrnatiladi. Buxoro, Samarqand, Ishtixon va boshqa shaharlardan Xitoyga elchilar bilan sovgʻasalomlar kelib turardi.

VII asrning 30-yillarida xitoylik ziyoratchi Syuan Sin xoqonlik hududlarini kezman va oʻz xotiralarida Issiqkoʻl, Chu vodiysi, Choch, Samarqand, Buxoro va Amudaryo boʻylab sayohatlar qilganligini yozadi.

630-yildan eʼtiboran, Gʻarbiy Turk xoqonligi chegaralari kengayib, Eftalitlar davrida boʻlgani singari Hind daryosi qirgʻoqlarigacha yetib boradi. Shaharlarning oʻsishi oqibatida Xitoy va Eron bilan savdo munosabatlari jonlandi. Savdo karvonlari Marv orqali Chorjoʻy, Buxoro, Samarqand, Choch, Isfijob, Talas, Siyob va Sharqiy Turkiston vohasigacha borgan.

Xitoyliklar VII asrning 30-yillarida turklarni yana magʻlubiyatga uchratganlar. Natijada, 659-yilda bir necha magʻlubiyatdan soʻng, turklar Xitoy oliy hokimiyatini tan olganlar. 660-yillarda esa xitoyliklar Oʻrta Osiyo hududlarida ham xuddi oʻzlaridagi kabi maʼmuriy-uslubiy boshqaruvni joriy qilmoqchi boʻldilar, ammo bu ishni eplay olmadilar. Chunki, 670-yilda tibetliklar Sharqiy Turk xoqonligini tashkil etdi. Bu voqea Xitoy maʼmurlarining diqqat-eʼtiborini Oʻrta Osiyodan chalgʻitib, Tibetga qaratishga majbur qildi.

VII asrning oxirlarida O'rta Osiyo hududlarida Turk xoqonligini qaytadan tiklashga bir qadar urinishlar bo'ldi. Biroq bu ishni amalga oshirib bo'lmadi. G'arbdan arablar Movarounnahr ustiga yopirilib bostirib keldilar.

3. TURK XOQONLIGIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Turk xoqonligi qo'li ostida birlashgan xalqlar, taraqqiyotning turli bosqichlarida bo'lganlar, aholining bir qismi o'troq dehqonchilik bilan, qolgan bir qismi esa ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Sug'diyona, Xorazm va Toharistonda dehqonchilik qiluvchi aholining kattagina qismi patriarhal oila sifatida yashar edilar. Erkin dehqon bilan bir qatorda kashovarlar ham bor bo'lib, ular iqtisodiy jihatdan boy yer egasiga va hatto, o'z mustaqilligini saqlab qolgan dehqonga ham qaram bo'lganlar. Kashovarlar kurtak ochayotgan feodal jamiyatdagi asosiy kuch hisoblangan. VI–VII asrlarda, qishloq, qo'rg'on va shaharlarda mustahkam o'rnashib olgan, yer egasi bo'lgan zodagonlarning iqtisodiy va siyosiy quvvati kuchaya boshlaydi. Bu zamindor zodagonlar yozma manbalarida «dehqonlar» deb yuritilgan. Xususan, konlarda va yer ishlarida qul mehnatidan ko'proq foydalanilgan. Bu davrda Xorazmda va ayniqsa, Sug'dda savdogarlar jamiyatda yetakchi o'rinni egalaganlar. Ko'chmanchi turk qabilalari VI–VII asrlarda o'tovlarda yashaganlar va to'rt g'ildirakli aravalarda ko'chib yurganlar aholining mehnatkash qismi «Budun» yoki «Qora budun» deb atalgan. Urug' – qabilaning yirik vakillari esa «beklar» nomi bilan yuritilgan. Jamoani «xoqon» va zodagonlar kengashi – «qurultoy» boshqargan. Patriarhal oilalarga oila boshliqlari – «Kadxudotlar» bosh bo'lganlar. Kadxudot atamasi sug'diyolarga xos so'z bo'lib, ko'chmanchi hayot kechiruvchi turklar esa «Kadxudot» so'zi o'rniga «Arxaun» atamasini ishlatar edilar. G'arbiy Turk xoqonligida markazlashgan davlat bo'lmagan. U o'nlab turkiy qabilalardan tashkil topgan uyushma-ittifoq bo'lib, ularning har qaysisini alohida xonlar idora qilganlar. «Tan-Shu» nomli Xitoy yilnomasi bergan ma'lumotlarga qaraganda, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo bo'yida mustaqil to'qqizta hokimlik bo'lgan: Samarqand, Maymurg', Kesh, Naxshob, Ishtixon, Kushoniya, Buxoro, Amul va Andxoy shular jumlasidandir.

Ularning eng kattasi Samarqand hokimi edi. Kan hokimi mahalliy suloladan bo'lgan. Sug'diyona shohi, Xorazm va Choch hokimlari ma'lum darajada o'z mustaqilliklarini saqlab qolganlar.

Sug'diyona shohligi o'sha davrda Panjikentdan Karmanagacha bo'lgan uncha katta bo'lmagan hududni egallar edi. Ichki boshqaruvda ba'zi erkinliklarni saqlab qolgan bo'lsa-da, xoqonga doimo o'lpon to'lab turardi. Turk xoqonligi hududida yashovchi aholi bug'doy, arpa, sholi tariq, beda va boshqa mahsulotlarni yetishtirish bilan band bo'lgan. Eftalitlar davriga nisbatan, sug'orish tizimi bu davrda birmuncha ko'payadi, Xorazm vohalarida esa aksincha, kamayadi. Aholi uzumchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullangan. Paxta, beda, tut daraxti ekishga va uy hayvonlarini boqishga katta e'tibor berilgan.

Farg'ona va Sug'dda aholi kon ishlari bilan shug'ullanib oltin, mis va temir, Iloqda qo'rg'oshin, kumush, Shahrisabzda tosh, qizil tuz qazib olingan.

VI–VII asrlarda harbiy to'qnashuvlar tez-tez bo'lib turganligidan shaharlar unchalik rivojlanmagan. Bu davrda qo'rg'on-qal'a qurish avj olgandi. Boy yer egalari ana shunday qo'rg'on-qal'alarda yashaganlar. Xorazm vohasidagi bunday qal'alar ancha keng o'rganilgan. Birgina Berqutqal'a mavzeyida boy va zodagonlar yashaydigan 96 ta shunday qo'rg'onchalar bo'lganligi aniqlandi. Tarixchi arxeologlar, Sug'dda ham bunday qal'achalar bo'lganligini isbotlamoqdalar. Qo'rg'onchalar atrofi devor bilan o'ralgan, uning o'rtasida minorasi bo'lgan. Bu minoralar mudofaa inshootlari vazifasini o'tagan.

VIII asrda shaharlar odatda unchalik katta bo'lmasdi. Masalan, Afrosiyob harobalari 216 gektar atrofida bo'lgan. Eski Paykent devorining umumiy uzunligi 2 km atrofida, Chochdagi asosiy shahar Binkent chegarasi 5, Koson 2, Termizning umumiy doirasi – 7–10 km atrofida bo'lgan. Turk xoqonligida ichki va tashqi savdo ancha rivoj topgan. Ayniqsa, Buxoro hududi savdoning markazlaridan hisoblanardi. Paykent «Savdogarlar shahri» deb nom chiqargan. Savdotsotiqda, xususan, Xitoy bilan munosabat yetakchi o'rinni egallagan. Faqat 627–647-yillar mobaynida Samarqanddan Xitoyga to'qqizta savdo elchiligi yuborilgan. Turk xoqonligidagi har bir hokimlikda bir necha yuzdan tortib, bir necha ming sonli o'z qo'shinlari bo'lgan. Qo'shin to'plashda ham sinfiy tabaqalanish asosiy rol o'ynagan. Jumladan, otliq askarlar urug' zodagonlari vakillaridan tanlanib, o'q-

yoy, dubulg'a, qilich va shamshir bilan qurollangan. Piyoda askarlar esa yollangan fuqarolar va qullardan iborat bo'lgan.

Xoqonlikda yashagan aholi, asosan, matodan, jundan va teridan kiyim kiyganlar. Erkaklar chakmon kiyib, sochlarini oldirib yurganlar, «xotinlar esa sochlarini boshlariga o'rab, zarg'ul solingan qora ro'mol bilan bog'lab yurardilar», deb yozadi Syuan Szyan.

Turk xoqonligi davrida avlod-ajdodlarimiz madaniyati o'z davriga nisbatan, yuksak taraqqiyot darajasida bo'lgan. Juda qadim zamonlardan beri rasm odat bo'lib kelgan tantanali bayramlar bu davrda ham davom etgan va yangi mazmunlar bilan boyigan. Masalan, Navro'z (Yangi yil) tantanalarida yakkama-yakka kurashlar va kuch sinashlar bo'lgan.

Avlod-ajdodlarimiz sho'x, hushchaqchaq bo'lganlar, o'yin-kulgi, ashula va musiqani yaxshi ko'rganlar, qilli asboblari, do'mbira, karnay-surnay kabi asboblarni ishlatganlar. Turkiy xalqlar dunyodagi qadimiy yozma madaniyatga ega bo'lgan xalqlardan hisoblanadi. Turk hukmronligi davrida sug'd yozuvi, oromiy yozuvi, xorazm yozuvi bilan bir qatorda qadimiy turkiy xalqlarning yozuvi «Turk-Run yozuvi», «O'rxun-Enasoy yozuvi», «Ko'k Turk yozuvi» nomalarda keng ishlatilgan. Yaqinlarga qadar (ya'ni 1970-yillargacha) turkiy yozuv milodimizning VI–VII asrlarida shakllangan, degan fikr yetakchi bo'lgan. Lekin 1970-yilda Olmaota yaqinidagi Issiq nomli qadimgi qo'rg'on-qabrda arxeologiyaga oid tadqiqot ishlari o'tkazilganda milodimizdan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalariga oid ko'plab buyumlar qatori kumush kosacha ham topildi. Uning sirtida chizma shakllari qadimgi turkiy yozuvga o'xshash bitik bo'lib, u fanda «Issiq» yozuvi nomini oldi. Bu turkiy yozuvni taniqli olim A. S. Omonjo'lov o'qib talqin etdi. Demak, qadimgi turkiy yozuvning ildizlarini ancha uzoq o'tmishdan izlamoq kerak. Bu fikrni Afg'onistonning Dashti Navur, Surxondaryoning Xolchayon, Dalvarzintepa, Fayoztepa kabi yodgorliklaridan topilgan miloddan avvalgi II–I, milodimizning I–II hamda V–VII asrlariga oid yodgorliklaridagi «Issiq» yozuviga o'xshash bitiklar ham tasdiqlamoqda. Bitik yozuvlar avvalo, turkiylar tarixi uchun asosiy manba bo'lsa, undan keyin yozma adabiyotning ilk namunasi hamdir. Yosh va iqtidorli olim Nasimxon Rahmonning fikricha, turkiylar qanchalik katta hududni egallagan bo'lsalar, ular yaratgan yodnoma bitiklar ham shunchalik katta hududga yoyilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- 1. Shimoliy Mo'g'uliston yodnomalari.**
- 2. Lena-Boyko'lbo'yi yodnomalari.**
- 3. Oltoy yodnomalari.**
- 4. Sharqiy Turkiston yodnomalari.**
- 5. O'rta Osiyo guruhi yodnomalari.**
- 6. Sharqiy Yevropa yodnomalaridir.**

Har bir bitiktosh Vatan va xalq taqdiridan ogoh etib turadi. Ayniqsa, Turk xoqonlari: Kultigin, Bilga xoqon, Tunyuquq sharafiga o'rnatilgan bitiktoshlarda el va budun (xalq) taqdiridan xavotirlik bosh masala qilib ko'tarilgan. Vatan mustaqilligi uchun kurash, xalqni asoratdan olib chiqish, mustaqil mamlakatda qonun-qoida joriy qilish, Bumin, Istami va Eltarish xoqonlar, Eltarishning o'g'illari Bilga xoqon va lashkarboshi Kultegin, dono maslahatchi Tunyuquq zimmasiga tushdi. Bitiktoshlarda ana shu shaxslarning qahramonliklari, fidoyiliklari haqida hikoya qilinadi. Bilga xoqonga ko'proq e'tibor berilgan. Bu bejiz emas albatta. Bitiktoshlarning aksariyati ana shu Bilga xoqon davrida yaratilgan, Bilga xoqon turkiylar tarixida adolatparvar, elparvar xoqon sifatida nom qozongan. Bilga – dono degan ma'noni anglatadi. Bilga xoqon turk xalqining Vatani abadiy bo'lishi uchun kurashgan. U xalqqa qarata shunday nasihat qiladi:

«Falakday xudodan bo'lgan turk dono xoqoni bu dunyoga keldim. So'zimni tugal eshitgin, keyinimdagi ini, jiyanim, o'g'illarim, ittifoq urug'im, xalqim, o'ngdagi shadapit beklar, chapdagi tarxonlar, buyruq beklar, o'ttiz to'qqiz o'guz beklari, xalqi bu so'zlarimni yaxshilab eshit, diqqat qilib tingla! Oldinga – kunchiqarga, o'ngga – janubga, orqaga- kunbotarga, chapga – shimolgacha bo'lgan yer ichidagi xalq menga qaraydi. Shuncha xalqni mamnun qildim. U endi yovuz emas»¹. Xalqni birlashtirish, Vatan mustaqilligini ta'minlash Bilga xoqonning ezgu niyati bo'lgan, u o'z so'zini davom ettirib, o'g'it qiladi: «Vatanni saqlab qolish faqat xoqonning o'ziga emas, xalqqa ham bog'liq. Ajdodlarning yutuqlari-yu xatosi buni tasdiqlaydi. Xalq o'z xoqonining yo'l-yo'riqlarini amalga oshirishi lozim, aks holda, uning boshiga ko'p kulfatlar keladi. O'ta ishonuvchan bo'lmaslik, boshqalarning gapini mulohaza qilgandan keyin ish yuritish kerak. Samimiylik bilan yolg'onni farqlay bilish kerak. Samimiylikning ortida ko'pincha yolg'on bo'ladi. Qattiq gapirgan,

¹ *Nasimxon Rahmon. Turk xoqonligi. –T., 1993, 71-bet.*

qattiqqo'l xoqon o'z xalqiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Odamni ajrata bilmay, to'kis ishonuvchan bo'lsa, fojiaga ko'ra yo'l ochiladi, darbadarlik shundan boshlanadi: «Ey turk xalqi, to'kis, ishonuvchan, samimiy, nosamimiyligni ajratmaysan, kim qattiq gapirsa, samimiyligni ham tanimaysan. O'shandayliging uchun tarbiyat qilgan xoqoningni so'zini olmayin, har qayerga ketding u yerlarda butunlay g'oyib bo'lding, nom-nishonsiz ketding. O'sha yerda qolganing har joyda zo'rg'a o'lib-tirilib yurgan eding»¹

Iste'dodli Bilga xoqon tarqoq, darbadar xalqni bir yerga to'pladi. U xoqon bo'lib o'tirgach: «Yo'q qashshoq xalqni yaxshilab oyoqqa turg'azdi. Qashshoq xalqni boy qildi, oz xalqini ko'paytirdi». Bilga xoqon bek va xoqonlarga ularning xato va kamchiliklarini ro'yi rost aytib nasihat qildi: «Turk beklari, xalqi, buni eshiting! Turk xalqini to'plab davlat tutishingizni bu yerda toshga o'yib yozdim. Adashib ayrilganingizni ham bu yerda yozdim».

Turk xoqonligidagi xalqlarning bir qismi Eftalitlar singari «J»lovchi shevalarda so'zlashganlar. VI asrga kelganda u «Y»lovchi lahjaga aylanib davlat tili bo'lib qolgan. Turk yozuvi bilan bir qatorda sug'd va xorazm yozuvi ham keng qo'llanilganligini yuqorida takidlagan edik. Sug'd yozuvi 25 ta belgidan iborat bo'lib, chapdan o'ngga qarab yozilgan. Ularning kalendari bo'lgan. Bunday kalendarlar Tojikiston tog'laridan topilgan. Mirsodiq Is'hoqovning fikriga ko'ra sug'd tilining amaliy ko'lami shu darajada keng bo'lganki, O'rta Osiyo va Yettisuv viloyati hamda Sharqiy Turkistonning ko'p yerlarida aholi sug'd va turkiy tillarda bimalol so'zlashavergan. Shaharlarda sug'd-turk ikki tilliligi rasmiy holat bo'lganligi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida ham qayd etilgan. Xullas, o'tmish avlodlarimiz yuksak darajada qadimiy yozma madaniyatga ega bo'lgan, deb qat'iy xulosa chiqarish uchun hamma asoslarga egamiz. Bu yozuv madaniyat durdonalari keyinchalik, arablar va Mo'g'ullar bosqini davrida yo'q qilib yuborilgan.

Daliliy ashyolar VII asrda mamlakatimiz hududida savodxonlik kuchli bo'lganligidan guvohlik beradi. 5 yoshga to'lgan bolalar yozish va hisob-kitobga o'rgatilgan. 20 yoshga to'lganda esa savdo-sotiq bilan shug'ullanish uchun savdo karvonlariga qo'shib, chet davlatlarga yuborilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar bor.

¹ Nasimxon Rahmon. Turk hoqonligi. – T., 1993, 72-bet.

VI–VII asrlarda Turk xoqonligi hududida yashagan xalqlar diniy nuqtayi nazardan turli-tuman g'oyalari ta'sirida bo'lganlar. Deyarli har bir urug' qabila va xalqning o'z diniy e'tiqodi bo'lgan. Shu boisdan, turk qabilalarida ko'p xudolilik keng tarqalgan. Jumladan, buriyatlar 99 tangriga topinganlar va bu tangrilar dunyoni boshqaradi, deb tushunganlar. Bundan tashqari, tabiat jismlariga sajda qilish va topinish xalqning kundalik odatiga aylangan. Jumladan, xoqon va amaldorlar quyosh, osmon, oy ruhiga sig'inib, qurbonliklar keltirsalar, kambag'al, oddiy xalq yer-suv, osmon, oy va quyosh ruhiga, hayvon va qumlarga ham sajda qilib topinaverganlar.

O'rta Osiyoda Animizm ko'pchilik turkiy xalqlar uchun umumiy din bo'lgan. Bu diniy g'oya bo'yicha odamlar hamma narsaning ruhi bor, deb bilganlar. Shunga muvofiq tabiat hodisalari, turli ofatlarni jonli deb qaraganlar va unga sajda qilganlar.

Turkiy xalqlar o'zlaricha biror hayvonga topingan va uni o'zining xudosi deb bilgan.

Ota-bobolar ruhiga sig'inish ham turkiy xalqlar o'rtasida X asrga qadar keng tarqalgan diniy e'tiqodlardan bo'lgan. Bu hol ruh o'lmaydi, u narigi dunyoda ham yashaydi, degan tasavvurlardan paydo bo'ladi. 576-yilda Istami xoqonni dafn qilish marosimida uning o'g'li otasining minib yurgan otlarini, shu bilan birga to'rt harbiy asirni otasining arvohiga qurbon qilgan. Shu bilan birga Istaming o'gli dunyodan o'tgan otasiga yetkazish uchun haligi asir qullarga qandaydir topshiriqlar bergan ekan. Demak, turkiylar u dunyodagi hayotni bu dunyodagi hayotning davomi deb bilganlar. Bu jihatdan u ko'pchilik ruhni tan olishga asoslangan animizmdan farq qiladi va tanho ruh g'oyasi ilgari suriladi. Bu degan so'z tangri – turkiylarning bosh xudosi, hamma turkiy qabilalar tangriga topinganlar.

V–VII asrlarda turkiy xalqlar o'rtasida otashparastlik buddizm va xristian dini ham rivojlana bordi.

Turk xoqonlari davriga oid manbalar, tarixiy obidalar nisbatan kam saqlangan. Ammo Xitoy manbalarida ta'kidlanishicha, VI –VII asrlarda Turk xoqonligida tasviriy san'at, haykaltaroshlik ancha keng taraqqiy etgan. Ustrsxona, Xolchayon, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Panjikent harobalaridan topilgan naqshlar va suratlar bu fikrimizni yorqin ifoda etadi. Buxoro hokimining ko'hna Varaxshadagi saroy binolaridagi suratlar diqqatni jalb etadi. Oq fil mingan, nayza, qilich va arqonlar bilan qurollangan askarlar, hayvonlar va qanotli ajdaholar bilan jang qilmoqdalar. Fillar, beligacha yalangoch askarlar oltin

va qimmatbaho toshlardan yasalgan har xil bezaklar bilan bezatilgan. Boshqa bir katta xonada esa podsho o'z saroy a'zolarini tantanali suratda qabul qilayotganligi manzarasi aks ettirilgan. Podsho qanotli, ikki tuyaning surati solingan taxtda o'tiradi. Taxtning ikki tomonida esa juda qimmatbaho kiyimlar kiygan, qilich va xanjar taqqan, qo'llarida qadahlar ko'targan erkaklar, taxt yonida ustida olov yonib turgan idishning surati solingan. Bu davrda kulolchilik san'ati ham rivoj topgan. Turli idishlar, uy-ro'zg'or anjomlari, hayvon, meva-cheva, odamlar tasviri bilan bezatilgan va sirtiga sirli shaffof mineral ishlatilganligi uchun ular yaltirab turgan. Turk xoqonligi davrida yaratilgan moddiy madaniyat yodgorliklaridan biri loydan yasalgan har xil tasvirdagi haykalchalardir. Bu haykalchalar qo'lida kosa yoki qurol-yarog' ushlab turgan kishi shaklida bo'lib, odatda ular qo'rg'oncha yoki marhumlar qabrlariga qo'yilgan.

Vizantiyalik tarixchi Menandr, turk xoqoni Istami Dizovul chodirlaridan oltindan ishlangan taxt, yotoq, ko'za, kuvachalar, kumush idishlar, hayvonlar shaklida ishlangan buyumlar topilganligini aytib, bu san'at asarlari Vizantiyada ishlangan shu xildagi buyumlardan qolishmaydigan va kishini hayratga soladigan darajada go'zal bo'lganligini yozadi. Shunday qilib, IV asrning oxiri va V asrning boshlaridan e'tiboran, mamlakatimiz hududida feodal tuzumning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshladi. Asta-sekinlik bilan feodal taraqqiyoti tomon rivojlanib borgan sari, mamlakatimiz xalqlari jahon taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'ldilar, jahon davlatchiligi, sivilizatsiyasi va madaniyatiga o'z hissalarini qo'shdilar. Ilk feodalizm davrining taraqqiyot jarayoni tezlashuvida Turk xoqonligi nomi bilan tarix silsilasidan munosib o'rin olgan buyuk davlatning katta hissasi borligidan har birimiz haqli suratda faxrlanamiz.

Nazorat savollari

1. O'zbekiston tarixida qaysi davrlar o'rta asrlar davri hisoblanadi?
2. «Eftal» so'zining ma'nosi nima?
3. Eftalitlar davlati va boshqaruv tizimi qanday tashkil topgan?
4. Krepostnoylik huquqi nima?
5. Feodalizm nima?
6. «Turk» so'zining ma'nosi nima?
7. Turk xoqonligining tashkil topish omillari nimalardan iborat?
8. Turk xoqonlari (hukmdorlari)ni sanay olasizmi?
9. Turk xoqonligida davlat boshqaruvi qanday bo'lgan?
10. Turk xoqonligi davrida madaniy hayot darajasi qanday bo'lgan?

V BOB

ARAB XALIFALIGI DAVRIDA MOVAROUNNAHR VA XUROSON

1. Arab xalifaligining tashkil topishi

VI asrning oxiri va VII asr boshlarida, ya'ni islom dinining vujudga kelishi arafasida **Somiy** qavmiga mansub arab qabilalari o'rtasidagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot darajasi bir xil emas edi. Yamanda savdo-sotiq rivojlanib, ilk davlatchilik belgilari shakllanayotgan bir paytda, yarimorolning shimoliy qismida joylashgan shaharlarda hali ham ibtidoiy turmush tarzi saqlanib qolgan edi, sahrolarda ko'chmanchi chorvachilik bilan hayot kechirayotgan arab qabilalari esa hatto, patriarhal urug'chilik tuzumining ilk bora yemirilish bosqichida turadilar. Aytmoqchimizki, Arabiston yarimorolida yashagan qabilalarning asosiy ko'pchiligi ularga qo'shni yashagan Misr, Vizantiya, Eron, Mesopotamiya kabi qadimiy madaniyat markazlariga qaraganda, tarixi taraqqiyotning ancha quyi bosqichida bo'lib, orqada qolgan edi.

Arabiston yarimorolining g'arbiy qismida Qizil dengiz sohil-larida geografik qulay bir hududda joylashgan va **Hijoz**, deb nom olgan tuman bu davrda iqtisodiy taraqqiyot birmuncha ilgarilab ketgandi. Karvon savdo yo'llari bu hududni janubda Yaman orqali Habashiston va Hindiston, shimolda Shom yurti (Suriya) orqali Misr, Vizantiya va Sosoniylar Eroni bilan bog'lar edi. O'z davrida katta, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan bu hududning markazi Makka shahri bo'lib, bu yerda yoz va qish fasllarida katta karvonlar tashkil etilgan (tarixchi Tabariy bergan ma'lumotlarga qaraganda, ba'zan bu karvonlar 2000 tuyagacha yetgan). Bu karvonlarning shimolga va janubga yuborilib turgani haqida Qur'oni karimning 106-«Quraysh» surasida qayd etiladi¹. Savdo karvoni yo'lida joylashgan Makkadan tashqari, yana Yasrib (keyinchalik, Madina), Toif, Xaybar kabi shaharlar ham rivojlanib, kengayib ahamiyati oshib

¹ Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima. – T.: «Cho'lpon», 1992, 524-bet.

bordi va VI asrlarga kelib gavjum savdo markazlariga aylandilar. Albatta bu davrda Makka shahri bilan biror-bir sohada bo'lsin raqobatlashadigan savdo markazi hali yo'q edi. Arab qabilalari o'rtasida Makkaning diniy markaz sifatida ham o'rni ancha yuqori bo'lgan. Islomshunos olim A. Hasanov o'z kitobida «Makkadagi Zam-zam qudug'i qadim zamonlardan beri atrofdagi ko'chmanchi qabilalar va o'tkinchi savdogarlar e'tiborini qozongan. Nihoyat, rivoyatlarga qaraganda, Makkada qurilgan birinchi bino – Ka'ba bora-bora arablarning muqaddas joyiga aylanganini hisobga olsak, Makkaning shuhrat qozonishi uchun omillar yetarli bo'lganini ko'ramiz», – deydi. Qur'onning 108-«**Alkavsar**» (chashma, buloq) surasida arablarning Ka'ba ziyoratiga kelib, qurbonlik so'yish odatlari (526- bet) o'z ifodasini topgan. Xullas, Makka shahri arab qabilalarini birlashtirishda markaziy o'rinni tuta bordi. Chunki V–VI asrlarda arab qabilalari ittifoqi mustahkam emas edi. Ular goh birlashar, goh tarqalib parchalanib ketar, qabilalar o'rtasida tez-tez nizolar kelib chiqardi va shu asnoda urushlar bo'lib turardi. Negaki, har bir urug' qabila turli dinlarga: xristianlik, otashparastlik kabilarga sig'inar, ularning har qaysi birining o'z xudosi, o'z payg'ambari bo'lardi. Ko'pxudolilik va ko'p payg'ambarlilik negizida tez-tez kelib chiqadigan va sodir bo'ladigan urug'lar va qabilalar o'rtasidagi urushlar xalq ommasining noroziligini kuchaytirib borar, arab qabilalari o'rtasida borgan sayin birlashishga intilish ishtiyoqi kuchayardi. Kuchli urug' jamoalar ibodatxonasi va ular sig'anadigan, topinadigan qadamjolarning ahamiyati osha borardi. Ojiz urug'-qabilalar topinishi va xudolari haqidagi ta'limotlar tobora o'rtadan surib chiqarila boradi.

Arabiston yarimorolining ayrim tumanlarida yahudiylar va xristianlarning yashaganligi tarixdan ma'lum. Shu bois, yahudiylik Yaman arablari o'rtasida qadimdan keng tarqalgan. Yahudiylikka e'tiqod qiluvchi qabilalar markaziy va g'arbiy Arabistonning ayrim vohalarida ham bo'lgan. Xristian dini esa, asosan, yarimorolning shimoliy qismida Shom yurti, Falastin, Mesopotamiyada yashaydigan arab qabilalarining ba'zilar o'rtasida tarqalgan edi.

Muhammad alayhissalom g'oyaviy ta'limotining asosini tashkil etgan yakkaxudolilik islom diniga qadar ham bo'lgan, Muhammad alayhissalom davrida ham bu g'oyani bayroq qilib ko'rganlar bor edi. Jumladan, A. Hasanov «Makka va Madina tarixi»da payg'ambarlikni da'vo qilganlar jumlasiga: «Yamomada – *Musaylima*, Yamanda – *Asvad*, Markaziy Arabistonda – *Sajjoh* ismli bir ayol va *Tulayxa*,

Madina (Yasrib)da Ibn *Sayyod...*¹ ni kiritadi. Muhammad alayhissalom yo'li g'alaba qozongach, faqat uning nabiyliги (payg'ambarligi) e'tirof etilib, boshqalari esa musulmon tarixchiligida, mutanabbiylar (ya'ni soxta payg'ambarlar) deb nom oladilar. Islom dinida payg'ambar hisoblangan Muhammad alayhissalom 570-yil 27-avgustda Makka shahrida Quraysh qabilasining Hoshimiylar xonadonida dunyoga keladilar. Xoshimiylar xonadoni Quraysh qabilasining nufuzli oilalaridan biri bo'lgan. Muhammad alayhissalomning bobolari Abdulmuttalib Makkadagi Ka'ba ibodatxonasi kalitining nigohboni (saqlovchisi) bo'lgan. Ota-onalaridan juda yosh yetim qolgan Muhammad alayhissalom dastlab, bobolari, so'ng, amakilari Abu Tolib qo'lida tarbiya oladilar. Amakilarining maslahatiga ko'ra, b davlat savdogar ayol Xadicha binti Xuvaylidning savdo ishlariga boshchilik qiladilar va 25 yoshlarida unga uylanadilar, Xadicha bu davrda 40 yoshda edilar.

Muhammad alayhissalom bir necha yillar mobaynida diniy tafakkur va ibodat bilan muttasil shug'ullanganlar, taqvodorlik bilan hayot kechirganlar. U kishi har doim Makka yaqinidagi Xiro g'origa borib ibodat qilganlar, oziq-ovqat va suv olib ketib, g'orda bir necha kunlar qolib, ibodat qilish odatlari bo'lgan. Diniy manbalarda ta'kidlanishicha, Muhammad alayhissalomga payg'ambarlik 40 yoshga to'lganda nasib etadi. Bu 610-yilga to'g'ri keladi. Vahiyning boshlanishi to'g'risida «Sirat ur-Rasululloh» asarida keltirilgan rivoyatga qaraganda, Muhammad alayhissalom Xiro tog'ida tunab qolgan kechalaridan birida osmondan nido kelgan. Farishta Jabroil «O'qi» deb buyurgan. «Men o'qishni bilmayman» deb javob berganlar Mudammad alayhissalom, Jabroil u kishini ko'tarib bir siqib qo'yadi-da, yana «O'qi» deydi. Hech joyda ta'lim olmagan Muhammad alayhissalom: «Men o'qishni bilmayman», – deb yana javob qaytaradilar. Shu holat uchinchi marta takrorlangach, Jabroil alayhissalom unga ko'rsatib turgan «Alaq» surasi avvalidagi bir necha oyatlarini o'qib unga eshittiradi va bu oyatlar Muhammad alayhissalom qalbida o'rnashib yod bo'lib qoladi. Bu holatdan qo'rqib vahimaga tushgan Muhammad alayhissalom titragan holda ayollari Xadicha oldiga keladilar va bo'lgan voqeani bayon etadilar. Xadicha u kishini yupatib, taskin beradi: «Sizni hech qachon Alloh xor etmaydi. Chunki siz qarindoshlarga mehribon, kambag'alga yor-

¹ Hasanov A. Makka va Madina tarixi. –T.: «Mehnat», 1992, 65-bet.

dam beruvchi, odamlar mashaqqatini oson qilguvchi kishisiz, deydi. U kishi Muhammad alayhissalomni Injil ilmini yaxshi bilgan nasroniy dinidagi amakisining o'g'li, keksa Varaqa ibn Navfal huzuriga boshlab boradi. Bo'lgan voqeani unga bayon etadilar. Shunda Varaqa xursand bo'lib, bu Muso alayhissalomga kelgan farishta ekanligini aytadi.

Muhammad alayhissalom hayotida birinchi ro'y bergan va-hiy hodisasining vaqti haqida barcha ilk islom manbalaridagi ma'lumotlar Qur'onning 97-«Qadr surasi» dagi ma'lumotga asoslangan. U «Laylatulqadr kechasi», deb ataladi. Tarixda bu kecha xijratdan 12 yil ilgari ramazon oyining 26-sidan 27-siga o'tar kechasi milodiy hisob bilan 610-yil 15 dan 16 avgustga o'tar kechaga to'g'ri keladi. Dunyodagi barcha musulmonlar bu kechani toat-ibodat bilan o'tkazadilar. Muhammad alayhissalom yakka xudolikka asoslangan Islom dini g'oyasini xalq o'rtasida tashviqot va targ'ibot qilishni boshlaganda juda katta qarshiliklarga va to'siqlarga duch kelgan. Uning targ'ibotiga ishonib, Islomni birinchilar qatorida qabul qilganlardan Xadicha, Abu Bakr, Ali, Zayd ibn-Xorisa, Abu ur-Rahmon ibn Avf, Zubayr ibn Avom, Amir Hamza, Usmon ibn Affon va boshqalardir. Payg'ambarimiz Muhammad ta'limotiga, qurayshlarning ummaviylar xonadoniga mansub bo'lgan va Makkada siyosiy hokimiyat tepasida turgan zodagonlar qattiq qarshilik ko'rsatganlar. Ikki o'rtada ziddiyat g'oyat darajada keskinlashgach, ma'lum davrlardan beri Muhammad alayhissalom diniga sodiqlikda bo'lgan va Makka hukmronlari bilan raqobatlashib kelgan Yasribdagi Avs va Hazraj qabilalari bilan muzokaralar olib borgan Muhammad alayhissalom u yerga ko'chib boradilar. Hijrat (arabcha ko'chish – R.Sh., Sh.K.) deb atalgan mazkur voqea 622-yil 24-sentabrda yuz bergan. Makkadan Yasribga ko'chib borganlar Islom tarixida «Muxojirlar» (ko'chib kelganlar), islomni qabul qilgan yasribliklar esa «Ansorlar» (yordamchilar), deb nom oladilar. Shu davrdan e'tiboran, Yasrib shahri Madina (payg'ambar shahri) nomi bilan ataladigan bo'ldi. Musulmon yil taqvimini ham ana shu sanadan boshlanadi. Keyinchalik, islom adabiyotda Makka va Madina islomning muqaddas markazlari sifatida «Makkayi Mukarrama» va «Madinayi Munavvara» deb ataladigan bo'ldi. 623–630-yillarda Muhammad alayhissalom Makka shahri uchun bir necha bor o'z raqiblariga qarshi urushlar olib bordi. Nihoyat 630-yilda Makkaga 10 ming kishilik qo'shin bilan bosib borildi va Makka sardori Abu

Sufyon nochorlikdan taslim bo‘lib, islom dinini qabul qildi. Uning o‘gli Muoviya Payg‘ambarning noiblaridan biri bo‘ldi. 630-yilda Muhammad Arabistonning ayrim mintaqalarida paydo bo‘lgan soxta payg‘ambarlar ustiga yurishlar qilib, butun boshli Arabistonning yarimorolini egallab, kuchli davlatga asos soladi. Bu davlat Yamandan Sino yarimoroligacha, Qizil dengiz sohillaridan Markaziy Qum saharosigacha cho‘zilgan yerlarni o‘z ichiga olar edi. 632-yil 25-yanvarda Makkayi Mukarramaga so‘nggi xajga safar qilgan Muhammad alayhissalom xaj safaridan so‘ng, qattiq betob bo‘lib qoladilar. U kishi betobligida Ka‘ba masjidiga imomlikni o‘tashni qaynotalari Abu Bakrga topshiradilar (622-yilda Xadicha vafotidan so‘ng, Abu Bakrning qizi Oyshaga uylangan edilar). Muhammad alayhissalom o‘limi oldidan quyidagilarni aytgan ekanlar: «Dunyoda barcha insonlar barobardir. Nasab, rang yoki irq o‘z-o‘zicha insonni yaxshi yoki yomon etolmagay. Men sizga uch narsani meros qoldirdim: bular – mening oilam, Qur‘oni karim va ko‘rsatgan ibratlarimdir. Shularni mahkam tutsangiz, hech qachon kam bo‘lmaysiz»¹.

Muhammad alayhissalom nasroniy yil hisobida 632-yil (hijriy yil hisobida 10-yili) 25-mayda o‘z uylarida vafot etadilar. Payg‘ambarimiz vafotidan so‘ng, u kishining ishonchli noiblari yoki o‘rinbosarlari (arabcha xalifalar) davlatni boshqarganlar. Ana shu tariqa, tarixda «arab xalifaligi» paydo bo‘lgan. Islom musulmonlarida, asosan, ilk to‘rt xalifa alohida ahamiyatga ega. **Bular – Abu Bakr (632–634), Umar (634–644), Usmon (644–656) va Hazrat Ali (656–661). So‘ng, xalifalik 661–750-yillarda ummaviylar sulolasiga o‘tgan. Bu sulolaga Muoviya bin Abu Sufyon (661–680) asos solgan.** Ummaviylardan so‘ng, xalifalik taxti **Abbosiyilar (750–1258) sulolasi qo‘liga o‘tgan.** Bu sulolaning asoschisi Muhammad alayhissalomning amakilari avlodlaridan **Abul Abbos as-Saffoh (749–754) edi.**

Muhammad alayhissalom ishining davomchilari bo‘lgan xalifalar davrida islom g‘oyasi yangidan-yangi davlatlar va hududlarga tarqaldi. Bu din qisqa muddat ichida VI–VIII asrlarda Shimoliy Afrika, Shom yurti, Falastin, Iroq, Eron va O‘rta Osiyo hududlariga tarqaldi. IX–XV asrlarda esa islom Xitoy chegaralaridan Farangiston janubigacha, Hindiston yerlaridan to Qizil O‘rdagacha cho‘zilgan hududlarni qamrab olib tantana qildi.

¹ Muhammad payg‘ambar qissasi. Hadislar. – T.: «Kamalak», 1991-yil, 47-bet.

VII asrning o'rtalarida arablar sosoniylar Eronini istilo qilishni tugallab, Xurosonning g'arbiy chekka qismini xalifa tayinlaydigan noib – amir boshchiligidagi noiblikka aylantirdilar. VII asrning ikkinchi yarmida islomda ro'y bergan dastlabki ixtiloflar natijasida ikkita yo'nalish paydo bo'ldi: sunniylar va shialar. Sunniylar eng asosiy yo'nalish bo'lib, dunyodagi barcha musulmonlarning 90 foizini bir-lashtiradi. Sunniylar Qur'on bilan birga Sunnaga (Qur'ondan keyin uni to'ldiruvchi hadislar manba, islom ilohiyoti va shariat asoslari) ham e'tiqod qiladilar. Unda Muhammad alayhissalom bilan birga Abu Bakr, Umar, Usmon va Hazrat Ali e'tirof etiladi.

Shialar, asosan, Eron va Iroqda tarqalgan yo'nalish bo'lib, doimo sunniylikka qarshi yo'nalishdadir. O'n foizga yaqin musulmonlarni o'z atrofiga uyushtirgan shialar Muhammad alayhissalomdan so'ng, payg'ambar sifatida faqat Hazrat Alini va uning avlodlaridan bo'lgan o'n ikki imomni tan oladilar, xolos.

2. O'RTA OSIYODA ARABLAR BOSQINI

O'rta Osiyoning qulay va go'zal tabiiy iqlim va sharoiti hamda behisob boyliklari hamisha arablarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelgan.

Arablarning O'rta Osiyoga dastlabki yurishlari Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida 651-yilda Marvni ishg'ol etish bilan boshlandi. Arablar Amudaryodan shimolda joylashgan yerlarga «Movarounnahr», ya'ni, «daryoning ortidagi yerlar» deb nom berishadi. 652-yilda arablar Balx shahri va Chag'oniyonni egallashga muvaffaq bo'ldilar. Bu esa ilk bor Movarounnahrni egallash edi. 654-yilda Sug'ddagi Maymurg' qal'asiga arablarning birinchi hujumi bo'ldi. 657-yilda arablar Chag'oniyonga qayta yurish qilib, Eftalitlarga kuchli zarbalar berdilar¹.

Arablar bosqini arafasida Movarounnahr hududida feodal tarqoqlik hukm surgan. Bu yerda 15 dan ortiq kichik-kichik davlatchalar bo'lib, ular o'zaro urushlar olib borar edilar. Bu hol arablar tomonidan O'rta Osiyo yerlarini bosib olishni tezlashtirdi. Arab bosqini ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqich 705-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, bu davrda arablar Vatanimiz hududiga vaqti-

¹ Eshov B. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: «Ma'rifat», 2009, 204-bet.

Sufyon nochorlikdan taslim bo‘lib, islom dinini qabul qildi. Uning o‘gli Muoviya Payg‘ambarning noiblaridan biri bo‘ldi. 630-yilda Muhammad Arabistonning ayrim mintaqalarida paydo bo‘lgan soxta payg‘ambarlar ustiga yurishlar qilib, butun boshli Arabistonning yarimorolini egallab, kuchli davlatga asos soladi. Bu davlat Yamandan Sino yarimoroligacha, Qizil dengiz sohillaridan Markaziy Qum sahosigacha cho‘zilgan yerlarni o‘z ichiga olar edi. 632-yil 25-yanvarda Makkayi Mukarramaga so‘nggi xajga safar qilgan Muhammad alayhissalom xaj safaridan so‘ng, qattiq betob bo‘lib qoladilar. U kishi betobligida Ka‘ba masjidiga imomlikni o‘tashni qaynotalari Abu Bakrga topshiradilar (622-yilda Xadicha vafotidan so‘ng, Abu Bakrning qizi Oyshaga uylangan edilar). Muhammad alayhissalom o‘limi oldidan quyidagilarni aytgan ekanlar: «Dunyoda barcha insonlar barobardir. Nasab, rang yoki irq o‘z-o‘zicha insonni yaxshi yoki yomon etolmagay. Men sizga uch narsani meros qoldirdim: bular – mening oilam, Qur‘oni karim va ko‘rsatgan ibratlarimdir. Shularni mahkam tutsangiz, hech qachon kam bo‘lmaysiz»¹.

Muhammad alayhissalom nasroniy yil hisobida 632-yil (hijriy yil hisobida 10-yili) 25-mayda o‘z uylarida vafot etadilar. Payg‘ambarimiz vafotidan so‘ng, u kishining ishonchli noiblari yoki o‘rinbosarlari (arabcha xalifalar) davlatni boshqarganlar. Ana shu tariqa, tarixda «arab xalifaligi» paydo bo‘lgan. Islom musulmonlarida, asosan, ilk to‘rt xalifa alohida ahamiyatga ega. **Bular – Abu Bakr (632–634), Umar (634–644), Usmon (644–656) va Hazrat Ali (656–661). So‘ng, xalifalik 661–750-yillarda ummaviylar sulolasiga o‘tgan. Bu sulolaga Muoviya bin Abu Sufyon (661–680) asos solgan. Ummaviylardan so‘ng, xalifalik taxti Abbosiylar (750–1258) sulolasi qo‘liga o‘tgan. Bu sulolaning asoschisi Muhammad alayhissalomning amakilari avlodlaridan Abul Abbas as-Saffoh (749–754) edi.**

Muhammad alayhissalom ishining davomchilari bo‘lgan xalifalar davrida islom g‘oyasi yangidan-yangi davlatlar va hududlarga tarqaldi. Bu din qisqa muddat ichida VI–VIII asrlarda Shimoliy Afrika, Shom yurti, Falastin, Iroq, Eron va O‘rta Osiyo hududlariga tarqaldi. IX–XV asrlarda esa islom Xitoy chegaralaridan Farangiston janubigacha, Hindiston yerlaridan to Qizil O‘rdagacha cho‘zilgan hududlarni qamrab olib tantana qildi.

¹ Muhammad payg‘ambar qissasi. Hadislar. – T.: «Kamalak», 1991-yil, 47-bet.

VII asrning o'rtalarida arablar sosoniylar Eronini istilo qilishni tugallab, Xurosonning g'arbiy chekka qismini xalifa tayinlaydigan noib – amir boshchiligidagi noiblikka aylantirdilar. VII asrning ikkinchi yarmida islomda ro'y bergan dastlabki ixtiloflar natijasida ikkita yo'nalish paydo bo'ldi: sunniylar va shialar. Sunniylar eng asosiy yo'nalish bo'lib, dunyodagi barcha musulmonlarning 90 foizini birlashtiradi. Sunniylar Qur'on bilan birga Sunnaga (Qur'ondan keyin uni to'ldiruvchi hadislar manba, islom ilohiyoti va shariat asoslari) ham e'tiqod qiladilar. Unda Muhammad alayhissalom bilan birga Abu Bakr, Umar, Usmon va Hazrat Ali e'tirof etiladi.

Shialar, asosan, Eron va Iroqda tarqalgan yo'nalish bo'lib, doimo sunniylikka qarshi yo'nalishdadir. O'n foizga yaqin musulmonlarni o'z atrofiga uyushtirgan shialar Muhammad alayhissalomdan so'ng, payg'ambar sifatida faqat Hazrat Alini va uning avlodlaridan bo'lgan o'n ikki imomni tan oladilar, xolos.

2. O'RTA OSIYODA ARABLAR BOSQINI

O'rta Osiyoning qulay va go'zal tabiiy iqlim va sharoiti hamda behisob boyliklari hamisha arablarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelgan.

Arablarning O'rta Osiyoga dastlabki yurishlari Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida 651-yilda Marvni ishg'ol etish bilan boshlandi. Arablar Amudaryodan shimolda joylashgan yerlarga «Movarounnahr», ya'ni, «daryoning ortidagi yerlar» deb nom berishadi. 652-yilda arablar Balx shahri va Chag'oniyonni egallashga muvaffaq bo'ldilar. Bu esa ilk bor Movarounnahrni egallash edi. 654-yilda Sug'ddagi Maymurg' qal'asiga arablarning birinchi hujumi bo'ldi. 657-yilda arablar Chag'oniyonga qayta yurish qilib, Eftalitlarga kuchli zarbalar berdilar¹.

Arablar bosqini arafasida Movarounnahr hududida feodal tarqoqlik hukm surgan. Bu yerda 15 dan ortiq kichik-kichik davlatchalar bo'lib, ular o'zaro urushlar olib borar edilar. Bu hol arablar tomonidan O'rta Osiyo yerlarini bosib olishni tezlashtirdi. Arab bosqini ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqich 705-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, bu davrda arablar Vatanimiz hududiga vaqti-

¹ *Eshov B.* O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: «Ma'rifat», 2009, 204-bet.

vaqti bilan hujumlar uyushtirib turdilar, mamlakat boyliklarini taladilar, ko'plab odamlarni qul qilib, o'z yurtlariga olib ketdilar va o'lkani bosib olish maqsadida harbiy ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullanganlar.

O'rta Osiyo yerlariga birinchi bor lashkar tortib kelgan hukmdor Ziyod bin Abu Sufyondir. U 667-yilda Amudaryo bo'ylarigacha keladi, Marvni egallab, katta boylik va o'ljalar olib yurtiga qaytib ketadi. 673-yilda Ziyodning o'g'li Ubaydulloh Ziyod yana Buxoroga qo'shin tortib keladi. U Poykand va Romiton yerlarini egallaydi. Bu davrda Buxoro taxtini malika Xotun boshqarar edi. U Buxoro hukmdori bevaqt olamdan o'tgan Bidun Buxorxudotning bevasi bo'lib, o'g'li Tog'shoda yosh bo'lganligidan davlatni o'zi boshqarmoqda edi. Xotun oqila va tadbirkor bo'lganligidan aholi qirg'in bo'lmasligi va mamlakatni vayronalikdan saqlab qolish maqsadlarini ko'zlab, Ubaydulloh bilan sulh bitimi tuzadi va arablarga har yili bir million dirham tovon to'lab turish majburiyatini oladi. Chunki kuchlar teng emas edi, yordamga chaqirilgan turk lashkarlari ham vaziyatni biror-bir darajada o'zgartira olmasdi. Arablar buxoroliklardan to'rt ming kishini asir qilib oldilar, juda ko'plab boylik, xazina, qurollar, kiyimlar, oltin, kumush narsalarni o'ljaga tushirdilar. Ular podsho xotinning bir poy etigi va paypog'ini ham topib oladilar. Tilla ishlatilib, har xil qimmatbaho toshlar bilan bezatilib tayyorlangan etik va paypoq sahroyi arablarni juda ham hayratga solgan. Bu etik va paypoq ikki yuz ming dirham baholangan¹.

O'rta Osiyoning boyliklari mol-dunyoga o'ch arab sahroyilarining tinchligi va farog'atini buzgan edi. Har ikki o'rtada shartnoma, bitim tuzilgan bo'lsa-da, Ubaydulloh o'rniga Xuroson amiri etib tayinlangan Said ibn Usmon 675-yil 25-noyabrdan 676-yil 13-noyabrgacha Buxoro ustiga qo'shin tortadi. U juda ko'p hiylanayranglar ishlatib, Buxoro va unga yordamga kelgan Sug'diyona, Kesh, Nasaf qo'shinlarini tor-mor keltirdi. Buxoro podshosi Xotun ibn Usmonning talabi bilan uning huzuriga borishga majbur bo'ldi va juda ko'p o'lponlar to'lab, shahzoda va aslzodalardan 80 kishini garovga berdi. Shundan so'ng, arablar Movarounnahr va uning poytaxti Samarqandga yurish qildilar. Ular bu joylarni egallab, juda ko'p boyliklarni qo'lga kiritdilar va samarqandliklardan 30 ming kishini asirlikka oldilar. Yozma manbalarda Said ibn Usmon bilan

¹ *Narshaxiy*. Buxoro tarixi – T.: «Kamalak», 1991-yil, 115-bet.

Movarounnahrda kelgan ko'p ming kishilik arab qo'shinlari qatorida Muhammadning avlodlaridan Qusam ibn Abbos ham bo'lgan (Tarixchi Abu Tohir Xojaning ma'lumotiga qaraganda, Abbos o'g'li Qusam Abbos ibn Abdulmutallib ibn Hoshim al-Qarshi al-Hoshimiy Muhammad payg'ambarning amakisi). Sa'id ibn Usmon Buxoro va Samarqanddan qo'lga olgan o'ljalarni Qusam ibn Abbosga ko'rsatib: «Bu o'ljalardan har kishiga bir hissa, senga esa ming hissa bera-man» deganda, Qusam ibn Abbos shariat buyurganidan bir hissa ham ortig'ini olmayman, degan ekan. Qusamning taqdiri to'g'risida turlicha ma'lumotlar bor. Ba'zilar uni Samarqandda o'ldirilgan desalar, yani ba'zi birovlar u Marvda vafot etgan, deb isbotlaydilar. Lekin nima bo'lganda ham Narshaxiyning «Buxoro tarixi»da yozilishicha, Samarqanddagi Shohizinda maqbarasi shu shaxs nomi bilan bog'liqdir. Said ibn Usmon garovga olingan buxorolik shaxzodalarni Marvga qaytishda ozod qilishga so'z bergan edi. Lekin u va'dasida turmaydi va shahzodalarni aldab Madinagacha olib borib ularni barcha zarbop kiyimlarini yechib olib, qullarga aylantiradi. Erkparvar buxoroliklar bunday haqorat va pastkashlikka chiday olmasdan Said ibn Usmon saroyiga bostirib kiradilar va avval uni, so'ngra o'zlarini o'ldiradilar.

Xuroson amirligiga **Muslim ibn Ziyod ibn Abiyx**¹ tayinlanadi. U ham o'z faoliyatini Buxoroga yurishdan boshlaydi. Buxoro hukmdori har galgidek yana turklarga va sug'dlar hokimi Tarxun²ga yordam so'rab murojaat qiladi. Biroq bu safar ham musulmon arablarning qo'li baland keladi. Juda ko'p boyliklar o'lja olinadi. Har bir arab askariga 10 ming dirhamdan o'lja ulashib beriladi. Xotun bilan Muslim ibn Ziyod o'rtasida sulh tuziladi. Arablar Marvga qaytadilar. Ammo bu qaytish mol-dunyo va boylikka yuztuban ketgan sahroyi arablarning oxirgi qaytishi emas edi.

704-yilda Xuroson taxtiga Qutayba ibn Muslim o'tiradi va Xurosonni batamom o'ziga bo'ysundiradi. Ana shu davrdan e'tiboran arab bosqinchilari tomonidan Movarounnahrni zabt etishning ikkinchi davri boshlanadi. Endi ular O'rta Osiyoni batamom bosib olishga qaror qiladilar. Qutayba ibn Muslimning 705-yilda ushbu maqsad yo'lidagi Axorun va Shuman (Surxon va Kofirxon oraliq idagi yerlar) hududlariga uyushtirgan birinchi yurishi muvaf-

¹ Arablarda otasi noaniq bo'lgan kishiga ushbu so'z qo'shib ishlatiladi.

² Tarxun – turkcha «tarxon» degan unvondan kelib chiqqan.

faqiyatsiz yakunlanadi. Tarixchi Narshaxiyning ma'lumotiga qaraganda, Qutayba katta tayyorgarlikdan so'ng, «sakson sakkizinchi yili (12-dekabr 706–30-noyabr, 707) Jayhun daryosidan o'tadi. Poykand aholisi bundan xabardor bo'lib, Poykandni juda mustahkam hisor bilan o'raydilar, qadimgi vaqtlarda Poykandni shahriston, deganlar va mustahkamligidan, uni «jez shahar», deb ataganlar («Buxoro tarixi», 120-bet). Musulmonlar qattiq va shiddatli janglardan so'ng, bu shaharni egallaydilar. Ikki o'rtada sulh tuziladi. Qutayba Poykand shahrida amir qilib, **Varqo ibn Nasr Bohiliyni** tayinlab, o'zi Buxoro tomon ilgari yurishni davom ettiradi. Poykandda hukmron bo'lib qolgan Varqo shahar xalqiga jabr va zulm o'tkazadi, axloqiy buzucular bilan shug'ullanadi. Bunga javoban shahar fuqarolari qo'zg'olon ko'taradilar. Qutayba bu xabarni eshitib, tezda orqasiga qaytadi va qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi. Uning buyrug'i bilan arab sahroyilari shaharni talaydilar va xarob qiladilar. Rivoyat qilishlaricha, Qutayba Poykandni fath qilganda bir butxonadan og'irligi to'rt yuz dirham (bir dirham – 3,186 gr.) keladigan bitta kumush but, ko'plab kumush jomlar, har biri kabutar tuxumidek keladigan marvaridlar topiladi. O'lja olingan barcha boyliklarni tarozida tortganlarida bir yuz ellik ming misqolni (1 misqol – 4,240 gr) tashkil etadi. Xalqdan talab olingan barcha oltin va kumushlarni sovg'a o'laroq, Hajjojga yuborganlarida u Qutaybaga xat yozib, minnatdorchilik bildirgan va «...Xudo senga barakat bersin!» degan.

Qutayba Poykandni batamom o'ziga tobe etgach, uning atrofidagi barcha qishloqlarni ham egallaydi va 707-yilda Kesh, Naxshabni fath qiladi. 708 (90)-yilda Vardan (hozirgi Vardonze) ustiga yurishga tayyorgarlik ko'rayotganda kutilmagan qarshilikka duch keladi. Turk xonlari Qutaybaga qarshi ittifoq tuzib, Torob, Xunbun va Romiton oralig'ida uni ko'p lashkar bilan o'rab oladilar. Xitoy podshosining jiyani Ko'rmag'onun ham bu ittifoqqa qo'shiladi. Natijada, Qutayba og'ir ahvolga tushib qoladi. Qutaybaning yaqin kishilaridan bo'lgan Xayyoni Nabatiy ishlab chiqqan re'ja asosida musulmon arablar og'ir vaziyatdan eson-omon qutuladilar.

Marvda biroz muddat dam olib 709 (91)-yilda Narshaxiy bergan ma'lumotlarga qaraganda, Iroq va Xurosondan yordam kuchlari olib, Buxoro ustiga yurish boshlaydilar, bu Qutaybaning to'rtinchi safar Buxoro ustiga lashkar tortib kelishi edi. Buxoro aholisi har safar Islom lashkari kelganda musulmon bo'lar, qaytib ketgach esa dindan chiqar edi. Bu paytda, Xotun juda qarib qolgan edi, davlat-

ni endi uning o'gli Tog'shoda boshqarardi. Qutayba qattiq jangdan so'ng, Buxoroni egallaydi. Tog'shoda Islom dinini qabul qilgach, Qutayba uni Buxoro taxtida hukmron sifatida qoldiradi. Tog'shoda o'ttiz ikki yil Buxoroni boshqaradi. Tog'shoda islom dinini qabul qilgandan keyin tug'ilgan farzandiga Qutaybaga bo'lgan hurmat va e'tiqodi ramzi sifatida Qutayba deb ism qo'yadi. Qutayba otasidan so'ng, Buxoro taxtiga o'tiradi. U Abu Muslim davrida dindand qaytadi. Shu bois, Abu Muslim Qutayba ibn Tog'shodani o'ldiradi. Qutaybaning serdaromad va g'allakor yerlari uning birodari Bunyod ibn Tog'shodaga beriladi. Bu yerlar Ismoil Somoniy davriga qadar Bunyod hukmronligi ostida bo'ldi. Qutayba ibn Muslim shimoliy sharq tomon g'olibona bosqinchilik yurishlarini davom ettirdi. U 710-yilda Shuman, Nasaf, Keshni zabt etadi. 711-yilda aka-uka Chag'on va Hurzod janjalidan foydalanib, Xorazmni bosib oladi. Shundan so'ng, Qutayba endi asosiy zarbani kuchli raqib, lekin laqma siyosatdon Sug'd hokimi Tarxunga qarshi qaratadi. O'rtada uzilgan sulh shartnomasiga qaramasdan, o'zaro kelishuv asosida Samarqanddagi masjid qurilishini tezlashtirish bahonasida shaharga g'isht teruvchilar o'rniga 4000 qurollangan arab kiritiladi. Shahar talanib, aholi xarob qilinadi. Tarxun ham qatl etiladi. Sosoniylarning eng so'nggisi Yazdigarning qizi ham asir olinadi va u Xalifa Validga yuboriladi. Samarqandda qo'lga olingan oltin butlar va ularning jihozlari 50 ming misqolni tashkil etadi. Samarqandni egallashda 300 ta devorbuzar moslamalar ishlatilib, arablar Samarqandni batamom vayron etadilar. Nihoyat Samarqandning yangi hokimi **G'urak (709–738)** bilan Qutayba o'rtasida sulh bitimi imzolanib, bu bitimga ko'ra, u arablarga – yiliga 200 ming dirham tovon to'lashi kerak bo'ladi. Yana arablarga 30 ming sog'lom kishini qul o'rnida berish sharti ham bor edi. Shartnomaga asosan, shahar markazi arablarga bo'shatib beriladi. Qutayba u yerda masjid qurdiradi. (Afrosiyobda)

713–715-yillarda u Toshkent, Xo'qand, Turkiston Chini (Sharqiy Turkiston) yerlarini to Qashg'argacha bo'lgan yerlarni egallaydi. Ana shu tariqa, Qutayba ibn Muslim O'rta Osiyo yerlarini zabt etib, Xitoy hududigacha cho'zilgan o'lkada yashayotgan xalqlarni islom diniga kiritadi.

Farg'ona orqali Qutayba Marvga yo'l oladi. Marvda xalifa Valid vafot etgan bo'lib, xalifalik taxtiga uning raqibi Sulaymon ibn Abdulmalik o'tirgan edi. Qutayba undan xavotirlanar va Sulaymonga ishonmas edi. Shu sababdan, u Sulaymonga qarshi


ochiq isyon ko'taradi. Ammo isyonchi sifatida o'z askarlari tomonidan o'ldiriladi. Bu voqea Vamberi bergan ma'lumotlarga ko'ra, 714 (96)-yilda Qutayba ibn Muslim 47 yoshida ekanida sodir bo'lgan edi. Boshqa manbalarda esa 715-yilda arab askarlari tomonidan o'ldiriladi, deyiladi.

Shunday qilib, sahroyi arablar dunyoning eng qadimiy va madaniyat o'lkalaridan biri bo'lmish Movarounnahrni o'z mustamlakalariga aylantiradilar. Movarounnahr hududida yashagan ajdodlarimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda sahroyi arablariga qaraganda, anchagina oldinda edilar. Nima sababdan, ularni arab istilochilari nisbatan tez va oson bosib ola oldilar? Buning sabablari – birinchidan, o'lka xalqlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy birlikning bo'lmaganligi va feodal tarqoqlikning mavjudligidir. Arablar Movarounnahr yerlariga bostirib kelgan paytda, o'lkada bir-biriga dushman bo'lgan 15 dan ortiq kichik-kichik feodal davlatchalar bor edi. Bu holdan arablar ustalik bilan foydalandilar. Ikkinchidan, arablar ko'chmanchi turk qabilalari bilan mahalliy o'troq xalqlar o'rtasida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklardan ham foydalandilar. Uchinchidan, arablar Movarounnahrqa qadar juda ko'plab boshqa mamlakatlar va aholi hududlarini bosib olgan edilar. Ular bu mamlakatlarning aholi kuchlari, moddiy boylik imkoniyatlaridan ona tuprog'imiz hududlarini bosib olish chog'ida foydalandilar. To'rtinchidan, arablar Movarounnahr hududlariga bostirib kelganlarida bu yerda ko'pdinlilik hukm surardi. Bu hol arablarga qarshi o'lkamiz hududi xalqlarining birlashuviga to'sqinlik qildi va arab bosqinchilarining g'alabasini yengillashtirdi.

3. QUR'ONI KARIM

Islom so'zi arabcha «Xudoga o'zini topshirish», «Itoat», «Bo'ysunish» ma'nosini anglatadi. Shundan bu dinga ishonuvchilar arabcha «muslim» (bo'yin eguvchi) deb ataladi. Bu so'zni buzub talaffuz etilishi oqibatida Eronda «**Musalman**», O'rta Osiyo mamlakatlarida «**Musulmon**», Rossiyada «**Basurman**» atamalari kelib chiqqan. Qur'on – arabcha **qiroat**, o'quv degan ma'noni anglatib, unda Islom shariatining asosiy manbalari o'z ifodasini topgan. Bu muqaddas kitobda Islom aqidalari, e'tiqod talablari, huququy va axloqiy normalari, cheklash va taqiqlari bayon etil-

gan. Qur'on Allohning kalomi sifatida talqin qilinadi: «Albatta Biz bu (Qur'on)ni Qadr kechasida nozil qildik» (515-bet). Islom an'anasida Qur'on Alloh tomonidan Payg'ambarimiz Muhammadga 23 yil davomida farishta Jabroil orqali vahiy (uqtirilgan) deb tasavvur qilinadi. Islomshunos olimlar bu muqaddas kitobning yozilishi tarixini ilmiy asoslaganlar. Payg'ambarimiz Muhammad hayotlik chog'larida uning targ'ibotlari ma'lum tartibda yozib borilmagan, omma orasida faqat og'zaki tarqalgan, uning ba'zi targ'ibotlarigina turli ma'lumotlar va ashyolar (tosh, sopol taxtakach, pergament va boshqalar)ga yozib kelingan. Muhammad alayhissalom vafotidan so'ng, uning targ'ibotlarini xalifa Abu Bakr tartibga solib yozishini Muhammad alayhissalom hayotlarining so'nggi davrlarida unga kotiblik qilgan Zayd ibn Zobitga topshiradi. Ana shu tariqa, 632-yilda birinchi marta Qur'onning to'la bo'lmagan xomaki (birinchi marta) nusxasi paydo bo'ladi. Manbalarda u «Suhuf» («Sahifalar») deb tilga olinadi. Keyinchalik, boshqa nushalar ham paydo bo'ladi Xalifa Usmon davrida Qur'onning hozirgi nusxasini yozib tugallash muammosi hal qilinadi. U Zayd ibn Zobitga Qur'on matnlarini to'plagan ba'zi shaxslar bilan mavjud to'plamlarni taqqoslab yagona matn yaratishni topshiradi. Matn tayyor bo'lgach, 651-yilda Qur'on kitob shakliga keltiriladi. Bu tarixda «mus'haf», ko'pincha, «Usmon mus'hafi» nomi bilan yuritiladi. Xalifa bu to'plam tuzilib bo'lgach, boshqa undan farq qiluvchi to'plamlarning barchasini yuqotish haqida buyruq beradi. «Usmon mus'hafi» muqaddas kitob sifatida rasmiy ravishda e'tirof etilgan.



Qur'oni karim namunalari (IX asr).

Hazrat Usmon zamonida ko'chirilgan Qur'onning nushalari haqidagi fikrlar ham bir xil emas. Ba'zilar uni to'rt nusxada ko'chirilgan desalar, boshqa birovlar yetti nusxada ko'chirilgan, deb isbotla-



moqchi bo'ladilar. Boshqa fikrlar ham bor. Har holda xalifa Usmonning topshirig'i bilan tuzilgan hay'at tomonidan yozilgan Qur'on olti nusxada bo'lgan deb isbotlovchi muarrixlar ko'pchilikni tashkil etadi. Tarixiy manbalar asosida aniqlangan bu nushalar: **Makka nusxasi; Damashq nusxasi; Basra nusxasi; Kufa nusxasi va Madina umumiy nusxasi; Madina Xos nusxasi. So'nggi oltinchi nusxa - Hazrat Usmonning shaxsan o'zlariga tegishli bo'lgan nusxadir**¹.



Qur'oni karim kitobi dunyodagi barcha xalqlarning diqqat-e'tiborini o'ziga qaratib kelmoqda. Darhaqiqat, U 1698-yilda lotin tiliga, 1770–1828-yillar orasida sakkiz marta Fransuz tiliga, 1734–1826-yillarda o'n marta ingliz tiliga, 1946-yilda nemis tiliga, 1716–1986-yillarda yetti marta rus tiliga tarjima qilingan. O'zbek xalqining qariyb 1300 yilga yaqin tarixi islom dini va madaniyati bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, Qur'on o'zbek tiliga tarjima qilinmadi. «Din – xalq uchun afyundir» degan markschalenincha g'oya asosida islom dini va muqaddas Qur'oni karim kitobi xalq ommasi uchun zararlidir, uning ongini zaharlaydi, deb bu kitobni ommadan uzoqda sir saqladilar. Faqat mustaqillik sharofati tufayli xalq Qur'onning «Usmon mus'hafi»ni 1992-yilda o'z ona tilisida o'qish imkoniyatiga ega bo'ldi. Qur'onning «Usmon mus'hafi» bugungi kunda Movarounnahr musulmonlari diniy boshqarmasida, Toshkentda saqlanadi. Xo'sh, O'zbekistonga bu nusxa qanday kelib qolgan? Bu muammo to'g'risidagi rivoyatlar ham har xil. Yusufxon Shokirovning yuqori-



O'zbek tilida nashr qilingan Qur'oni karim nusxalari.

da tilga olingan risolasida bu haqida batafsil ma'lumot berilgan. Birinchi rivoyat: Misr podshosi Zoxir Ruknuddin Baybars al-Bundukdoriy As-Solihiy saroy xoni Barakotxon bilan do'stlashib qoladi-

¹ Yusufxon Shokirov. Islom shariati asoslari. – T.: «Mehnat», 1992. 17-bet.

lar, ular bir-birlariga sovgʻalar yuborib turadilar. Zoxir Baybars ana shunday sovgʻalarning birida Chingizxon avlodidan birinchi boʻlib, islomni qabul qilgan doʻstiga Usmon Musxafini joʻnatadi. 1395-yilda sohibqiron Amir Temur Toʻxtamishxonni tor-mor keltirgach, Saroy Berkadan boshqa oʻljalar qatorida Musʻhafi Usmon Qurʻoni karimni ham Samarqandga olib keladi. Ikkinchi rivoyat: Bu «Talfik ul-axbor fi Tarixi Qozon va Bulgʻor» («Qozon va Bulgʻor haqida haqiqiy xabarlar) kitobining muallifi Shayx Muhammad Murod ibn Abdullo Ar-Ramziyga tegishlidir. U Musʻhafi Usmon Qurʻoni karim Oʻrta Osiyoga qanday kelib qolganligi haqida quyidagilarni yozadi: «Samarqanddan Peterburgga olib ketilgan va hozirda imperator kutubxonasida saqlanib turgan Musʻhafi Usmon deb tanilgan Qurʻoni karim saroyda saqlanib, uni zabt qilgan Amir Temur olib ketgan nusxa shu boʻlishi kerak, bu haqiqatga yaqin taxmindur. Buni inkor qiluvchilarning hech bir qatʻiy dalillari yoʻqdur» (28-bet). Uchinchi rivoyat: Bu rivoyat «Golos» gazetasining 1870-yil 243-sonida bosilgan. Unda hikoya qilinishicha, salkam 400 yil avval Bahovuddin Naqshbandiy diniy jamoasining piri Xoʻja Ahrorning muridlaridan biri xajdan qaytayotib Rimda, yaʼni Konstantinopolda toʻxtaydi. Bu vaqtda Rim hukmdori ogʻir dardga chalingan edi. Xoʻja Ahror muridi uni bu ogʻir darddan forigʻ etadi. Hukmdor agar shifo topsam, u nimani talab qilsa, shuni soʻzsiz bajaraman, deb ont ichgan ekan. Murid esa Qurʻoni karimni berishni soʻrabdi. Noiloj qolgan hukmdor vaziri va boshqa yaqin aʼyonlari bilan maslahatlashib, Qurʻoni karimni muridga berishga majbur boʻlibdi. Murid bu noyob asarni darhol Turkistonda istiqomat qilayotgan piriga yuboribdi. Qurʻoni karim ana shu tariqa, Xoʻja Ahror masjididan joy olgan ekan. Taniqli tarixchi olim Hamid Ziyoyev bu maʼlumotni «...afsonaga oʻxshaydi, chunki Qurʻonning asl nusxasini qandaydir muridga berilishiga ishonish qiyin, uni faqat zoʻravonlik bilangina qoʻlga kiritish mumkin edi»¹, deydi. Hamid Ziyoyev shu munosabat bilan toʻrtinchi rivoyatga qoʻshilganligini bildiradi. Toʻrtinchi rivoyat: Bu rivoyatga koʻra, Qurʻoni karimni sohibqiron Amir Temur Turkiya Sultoni saroyidan keltirgan. U Sulton Boyazid ustidan gʻalaba qozongach, uning kutubxonasida saqlanayotgan Qurʻoni karimni oʻz davlatining poytaxti – Samarqandga olib kelgan. Bu nusxa temuriylar saltanati agʻdarilgandan keyin – Xoʻja Ahror masjidiga berilgan boʻlishi mumkin. Beshinchi rivoyat: asli toshkentlik, bi-

¹ «Sharq yulduzi», 1991, 1-son, 130-bet.

roq ko'p vaqtlar Iroqda istiqomat qilgan imom Abu Bakr Qaffol Ash Shoshiy o'z vatanlariga qaytishga qaror qiladilar va Bag'dod shahridan Mus'hafi Usmon Qur'oni karimni o'zlari bilan birga olib keladilar. Xullas, boshqa rivoyatlar ham bo'lishi mumkin. Nima bo'lganda ham muqaddas Qur'oni karim kitobi 1869-yilga qadar Samarqandagi Xo'ja Ahror masjidida saqlangan. Rus zobitlari Samarqand shahrini egallagan General fon Kaufman buyrug'iga asosan, kufa yozuvidagi Qur'oni karimni qo'lga tushirish harakati boshlanadi. 1869-yil 24-oktabrda fon-Kaufman imzosi bilan bu muqaddas kitob Samarqanddan Peterburgga olib ketiladi. Usmon Qur'oni karimni General mayor Abramov Xo'ja Ahror masjidining ulamolari mulla Abdujalil va mulla Muchiniga 500 kokon (100 so'm) to'lab sotib olgan¹. 1917-yil oktabr to'ntarilishiga qadar Mus'hafi Usmon Peterburgda saqlangan. Ko'p vaqt o'tmasdan Butun Rossiya musulmonlar jamiyatinnng raisi Usmon Turkumbayev muqaddas kitobni o'z egalariga qaytarishni so'rab, RSFSR xalq komissarlari sovetiga murojaat qiladi, RSFSR XKS: 9 (22)-dekabr 1917-yilda Muqaddas «Usmon Qur'onini musulmonlar s'yezdiga qaytarib berish to'rg'isida»gi hujjatni tasdiqlaydi².

Mus'hafi Usmon Qur'oni shu yili katta tantana bilan Ufa shahriga keltiriladi. Lekin bu bilan Turkiston musulmonlari tinchimadilar. Toshkent, Ufa va Moskva o'rtasidagi bir qancha o'zaro bordi-keldi va yozishmalardan so'ng, markaziy hukumatning 1923-yil 25-iyundagi qarori bilan Qur'on kitobi o'zining «haqiqiy vorislari» bo'lgan Turkiston musulmonlariga beriladi.

Usmon Qur'oni Ufadan Toshkentga olib kelish uchun Toshkent shahar va Sirdaryo viloyati islom jamiyati tomonidan jamiyat raislari shayx Muhammadxo'ja boshchiligida obro'li hay'at tuziladi. Bu hay'atga Zaxirutdin A'lam va O'zbekiston hukumati vakili Qosimxo'jayevlar kiradi.

1924-yil 18-avgust kuni Tatariston, Boshqirdiston va Turkiston ulamolaridan tashkil topgan sharafli soqchilar kuzatuvida maxsus poyezd Mus'hafi Usmonni Ufadan Toshkentga olib keladi. U bir qancha vaqt Toshkentdagi masjidlardan birida saqlanadi, so'ngra xavfsizlik maqsadlarini ko'zlab, O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyiga topshiriladi. 1989-yil 14-mart kuni Toshkentda bo'lib o'tgan umumiy Musulmonlar to'rtinchi qurultoyida O'zbekiston hu-

¹ «Yosh Leninchi», 1990- yil, 21-aprel.

² Декрет советской власти. том 1. Москва, 1957. № 136, стр. 195.

kumatining qarori bilan Mus'hafi Usmon musulmonlar ixtiyoriga qaytarib berilganligi e'lon qilindi. Hozirda bu muqaddas Mus'hafi Usmon Qur'oni Movarounnahr musulmonlari Diniy idorasi qoshidagi «Mo'yi Muborak» kutubxonasida saqlanmoqda.

Muqaddas Qur'oni karim kitobi 114 suradan iborat: har bir sura oyatlarga bo'lingan. Suralarning har biri nomlangan. Qur'oni karim o'ttiz juz, ya'ni qismga bo'linadi. Buni odatda o'ttiz pora deydilar. Qur'oni karim Hidoya kitobi bo'lib, ilm-ma'rifatni ulug'laydi. Darvoqe unda 750 martadan ortiq «ilm» va «ilm olish» so'zlari takrorlanadi. Islom olamida barcha fanlarning taraqqiyoti Qur'on bilan bog'lab o'rganiladi. Qur'on nafaqat falsafiy, huquqiy yozma yodgorlik bo'lib qolmay, balki unda axloq-odob, ota-ona va qarindosh-urug'larga hurmat, halollik, poklik, to'g'rilik, yetim-yesir, kambag'al miskinlarga muruvvat, bironing haqini yemaslik, omonatga xiyonat qilmaslik, do'stlik, birodarlik kabi juda ko'p g'oyalar o'zining mujassam ifodasini topgan. Qur'on, poraxo'rlik, o'g'rilik, ichkilikbozlik, zino (fohishalik), yolg'onchilik, g'iybat, nohaq qon to'kish kabi juda ko'plab illatlarni nihoyatda qattiq qoralaydi.

Vatanimiz hududida islomning tarixi va musulmon dunyosining juda ko'p qirrali tarixiy taraqqiyoti jarayonini tushunishda Qur'oni karimning o'rni beqiyosdir. O'z vaqtida Qur'on O'rta Osiyoda feodal tarqoqlikka qarshi kurashda, markazlashgan feodal davlatlarning vujudga kelishida so'zsiz ijobiy o'rin tutgan. Bugungi kunda ham xalqimizning o'zini anglashida, milliy o'tmish qadriyatlarimizning tiklanishida va O'zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlashda Qur'oni karimning ahamiyati nihoyatda kattadir. Xususan, Qur'on yosh avlodning axloqiy-g'oyaviy dunyoqarashini shakllantirishda va oliyjanob insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda bebaho o'rin tutadi.

4. MOVAROUNNAHRDA ARABLAR ZULMINING KUCHAYISHI

Arablar O'rta Osiyo hududlarini bosib olgach, o'lkada mustamlakachilik zulmi siyosatini kuchaytirdilar. Endi mahalliy xalq ikki tomonlama zulm siyosati ostida qoldi. Bir tomondan, shu paytga qadar mahalliy boy va zodagonlar xalqni ezib jabr-zulm qilib, kelgan bo'lsalar, endi bunga kelgindi sahroyi arablarning zulmkorlik siyosati ham qo'shildi. Arab istilochilari Movarounnahrda birinchi kundan boshlab, qattiqqo'llik bilan arablashtirish siyosatini olib

bordilar. Ushbu maqsad yo'lida ular ming-minglab arablarni O'rta Osiyo hududlariga ko'chirib kelganlar va eng yaxshi yerlarni ularga zo'rlik bilan olib berganlar. Movarounnahr hududlarida arablar egallab olgan ba'zi yerlar hozirgacha ham «arab qishloq»lari nomi bilan saqlanib qolgan. Dali ibn Ziyod davridayoq o'lkaga 50 mingdan ortiq arab aholisi Basra, Kufa atroflaridan ko'chirilib keltirilgan. Belozuriy va Narshaxiyning bergan ma'lumotlariga qaraganda, arab lashkarboshilari ko'chirib keltirilgan arablarga mahalliy xalqlarning uy-joylarini zo'rlik yo'li bilan tortib olib berganlar. Jumladan, Qutayba Samarqand va Buxoroni egallagach, shaharlardagi uylarning yarmini arablarga bo'shatib berilishini talab qilgan. Faqat quraysh qabilasining o'zidan Samarqandga besh ming aholi ko'chib kelgan. Buxoro, Samarqand, Marv va boshqa shaharlarning aholisi o'z yashash joylaridan masjid qurish bahonasida ko'chirilgan.

Qutayba ibn Muslim hali batamom bo'ysundirilmagan o'lkada islomni keng yoyishga katta e'tibor bergan. Chunki u oddiy va mehnatkash Movarounnahr xalqini arablarga bo'ysundirishda islom mafkurasining o'ta ta'sir kuchiga ega ekanligini juda yaxshi bilardi. Arab istilochilari mahalliy xalq sig'inib kelgan va ularning ma'naviy hayotida katta o'rin tutgan Zardushtiylik Buddizm va boshqa dinlarni soxta, xurofiy va yolg'on g'oyalar deb e'lon qilganlar. Bu dinlarning targ'ibot markazlari bo'lgan ibodatxonalar buzib tashlanib vayron qilingan, ularning o'rinlariga musulmon jome' masjidlari qurilgan. Sahroyi arablar mahalliy xalqning ming-ming yillik ma'naviy hayot boyligi va o'tmish tarixining yozma namunalari bo'lmish asarlar, kitoblarni gulxanlarda yondirdilar. Bu sohada, xususan, Qutayba ibn Muslim mislsiz vahshiyliklar qilgan edi.

Arablar ayni zamonda, islom dinini qabul qilgan va musulmon bo'lgan mahalliy aholi vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatladilar va ularga imtiyozlar berdilar. Jumladan, islomni qabul qilganlar Juz'ya va Xiroj soliqlaridan ozod qilingan bo'lsa, undan bo'sh tortganlardan bunday soliqlar qattiqo'llik bilan undirib olingan. Tarixchi Narshaxiyning guvohlik berishicha, Qutayba ibn Muslim «Juma namoziga hozir bo'lgan har bir kishiga ikki dirham beraman»¹, deb chaqirtirar ekan.

Islom dinini qabul qilganlarni Juz'ya va Xiroj soliqlaridan ozod qilish siyosatini xalifa Umar II ham yurgizgan va u bu siyosatni Xurosonga 717-yilda noiblikka tayinlangan Jarroh ibn Abdulladan

¹ *Narshaxiy*. Buxoro tarixi. – T., «Kamalak», 1991, 124-bet.

bajarilishini talab qilgan. Jarroh rasman xalifaga bo'ysungan bo'lsa-da, bosib olingan mamlakat aholisi islomni qabul qilgan bo'lishidan qat'iy nazar Xiroj solig'ini to'lashi kerak, deb hisoblardi. Bundan tashqari, Jarroh islomni qabul qiluvchilar uchun sunnatni shart qilib, qo'ygan. Mahalliy xalq o'rtasida Jarroh zulmidan norozlik kuchaygan. Umar II vaziyatning murakkabligini hisobga olib, Jarrohni 719-yilda ozor va arman yurtiga hokim qilib jo'natadi.

Arablar mahalliy xalqni islom mafkurasiga bo'ysundirishda rag'batlantirishdan tashqari, zo'rlash va majburlash uslubidan ham foydalanganlar. Narshaxiyning yozishicha, Buxoroda islom dinini savdogarlar tez qabul qilgan bo'lsalar-da, unga qattiq qarshilik ko'rsatgan guruhlar ham bo'lgan. Ular islomni qabul qilmasdan va jome' masjidiga namoz o'qishga bormasdan Buxoro shahrining chetida o'z qasrlari (ko'shklari)da zardushtiylik odati bo'yicha ibodat qilib yurganlar. Kunlardan bir kun musulmonlar bu qasrlarning darvozasi oldiga kelib, u yerda yashovchilarni jome namoziga borishga undaganlar. Bunga javoban qasrlarning tomlaridan tosh ota boshlaganlar. Bu joyga juda ko'p musulmonlar to'plangan va rosmama jang bo'lgan. Oqibatda ko'p qasrlar vayron qilinib, talangan.

Xullas, Movarounnahr hududida yashagan xalqlar orasiga islom dinining kiritilishiga, ayniqsa, yoshi ulug' keksalar qattiq qarshilik ko'rsatganlar. Narshaxiy «Buxoro tarixi» kitobida: «Qutayba ibn Muslim shahar (Buxoro shahri – R.Sh., S.X.) ichkarisidagi xisorning ichida masjidi jome bino qilgan vaqtida, odamlar «Registon» deb ataganlari bo'sh maydonni Iyd namozi o'qiladigan joy qildi va musulmonlarni Iyd namozini o'qish uchun o'sha yerga chiqardi. U kishilarga (Iyd namoziga chiqqanda) qurollarini ham olib chiqishga buyurdi, chunki islom dini hali yangi bo'lib, musulmonlar kofirlardan xotirjam emas edilar» (127-bet), – deydi. Hatto, Buxoro hukmdori Tog'shoda Buxorxudot musulmonchilikni yuzaki qabul qilgan, yurakdan esa unga qarshi bo'lgan Narshaxiy kitobida yozilishicha: «Asad ibn Abdulloh al-Qushariy zamonida bir kishi chiqib Buxoro aholisini (islom diniga) da'vat qilgan. Buxoro podshohi Tog'shoda edi. U o'zi yashirin ravishda kofir bo'lganligi uchun bundan g'azablendi va Xuroson amiri Asad ibn Abdullohga (quyidagicha) xat yozdi: «Buxoroda bir kishi paydo bo'lib, viloyatni betinch qilyapti va bir guruhni bizga qarshi ko'tardi. U guruh biz musulmon bo'ldik, deb yolg'on aytadilar, ular tillaridagina musulmon bo'lganlar, dillarida esa o'zlarining o'sha il-

garigi e'tiqodlari bilan mashg'ullar. Shu bahona bilan ular viloyat va mamlakatni betinch qilmoqdalar va xiroj to'lamayaptilar. «Shu sababli Asad Ibn Abdulloh o'zining soliq yig'uvchisi Sharik ibn Harisga xat yozib, unga: «O'sha odamlarni qo'lga olib Buxoro podshohiga topshir, toki u nimani xohlasa shuni qilsin», deb buyuradi. Aytishlaricha, u guruh masjidida bo'lib, hammalari baland ovoz bilan «Ashhadu an lo iloha illollohu va ashhadu anna Muhammadan Abduhu va Rasuluh», deyishar va «Vo Muhammado», «Vo Ahmado», deb faryod qilishar ekanlar. Tog'shoda Buxorxudot ularning kallasini olar va ularga shafqat qilishni so'rashga hech kim botina olmas edi. Nihoyat, u to'rt yuz kishining boshini oldirdi va dorga ostirdi, qolganlarini esa Asad ibn Abdulloh nomidan asir qilib, uning oldiga Xurosonga yubordi» (133-bet). Tog'shoda vafot etgach, uni mahalliy zaroastr urf-odati bo'yicha dafn qildilar. Uning o'gli Qutayba ibn Tog'shoda ham birmuncha vaqt musulmon bo'lib, turdi va hatto, Sharik qo'z'golonini bostirishda abbosiylar va Abu Muslimga yordam ham berdi. Biroq keyinchalik, islom dinidan qayditi va Abu Muslim buyrug'i bilan o'ldirildi. Tog'shodaning ikkinchi o'gli Buniyod esa Muqanna qo'zg'olonni qo'llab-quvvatladi va u ham o'ldirildi. Arab istilochilari yerli xalqni arablashtirish maqsadlarini ko'zlab islomni o'rganish va uni tashviqot va targ'ibot qilish bahonasida Sug'd, Xorazmiy, zardushtiylik kabi mahalliy xalq yozuvlarini batamom yoq qilib tashladilar, mahalliy yozuv va adabiyotlarning bilimdonlarini yo mamlakatdan quvg'in qildilar yoki qatl etdilar. Arab tili va arab alifbosi davlat tili darajasiga ko'tarildi, fan va adabiyot tili bo'lib qoldi. Arab tilining aholi keng qatlamlari orasiga yoyilishi va tarqalishiga to'sqinlik qiladigan hamma g'ovlar olib tashlandi va bu ishga zarracha bo'lsa-da, qarshilik qiluvchilar shafqatsizlik bilan yo'q qilindi. Abu Rayhon Beruniy bergan ma'lumotlarga qaraganda, «Qutayba Xorazm yozuvini yaxshi bilgan, ularning rivoyatlaridan xabardor bo'lib, xorazmliklarda bo'lgan fanlarga o'rgatgan kishilarni o'ldirdi va ularni har turli azob-uqubatlarga duchor qildi hamda bu rivoyatlar shunchalik yashirin bo'lib, ketdiki (hatto, xorazmliklarga) islom paydo bo'lganidan keyin nima bo'lganligini aniq bilib bo'lmay qoldi»¹.

Arablar Movarounnahrning tabiiy yerosti va yerusti boyliklarini talash bilangina cheklanmadilar, ular xalqni qattiq ekspluatatsiya qilish va ishlatishdan keladigan boyliklardan qanoat hosil qilma-

¹ Beruniy A. Saylanma asarlar. – T., 1957, 48-bet.

dilar. Mahalliy xalq kelgindi arablarga og‘ir miqdordagi «Juz‘ya» va «Xiroj» deb nom olgan soliqlarni to‘lashga majbur qilinardi, «Juz‘ya» jon boshiga solinadigan soliq bo‘lib, musulmon bo‘lmagan fuqarolardan olingan. U, asosan, pul va natura shaklida undirilgan. «Xiroj» solig‘i, asosan, dehqonlarning daromadidan undirilgan va odatda bu daromadning 1/3 qismiga, hatto, undan ortig‘iga ham teng bo‘lgan. Bulardan tashqari, xalq ommasini istilochi arablarga «Zakot» deb nomlangan soliq ham to‘lagan. «Zakot» dini islom bo‘yicha gunohlardan «tozalanish» uchun mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-ehson deb hisoblangan va shariatning besh asosiy talablaridan biri bo‘lgan. «Zakot» odatda pul daromadlarining 1/40 ulushi (2,5)ga teng bo‘lishi kerak edi. Yana «Ushr»- arabcha o‘ndan bir deb atalgan soliq ham bo‘lgan. Bu soliq turi davlat foydasiga olinadigan soliq bo‘lib, natura va pul shaklida, asosan, dehqonchilik mahsulotlaridan olingan. Arablar og‘ir soliqlarni o‘z vaqtida to‘lay olmagan fuqarolarni haqoratlab va xo‘rlab taxtachalarga «qarzdor» degan yozuvlar yozdirib, ularning bo‘yniga osdirib qo‘yar edilar. Jumladan, Tabariyning so‘zicha, Xuroson va Movarounnahrning 735–738-yillardagi noibi Asad ibn Abdulla Juz‘ya to‘laydigan kishilarning bo‘yniga tamg‘a ostirgan.

Arablar madaniy taraqqiyotda mahalliy xalqdan orqada bo‘lsalarda, o‘zlarini har tomonlama ustun qo‘yar edilar, yerli aholini nazar-pisand qilmasdilar. Ular biz oqsuyak «xo‘jalar», «sadbalar» va «saidlar» avlodidanmiz deb gerdayar edilar. Bizning davrimizgacha saqlanib kelayotgan «xo‘jalar» va «qoralar» degan tushunchalar mavjud ijtimoiy tengsizlikning bir ko‘rinishi sifatida o‘sha davrdan qolgan tushunchadir. Albatta arab istilochilarining mahalliy xalqqa nisbatan o‘tkazgan bunday adolatsizlik va zulmkorlik siyosatlari o‘zining keskin norozilik harakatlari va qo‘zg‘olonlari uyushtirishiga sabab bo‘lgan.

5. ARABLARGA QARSHI XALQ OZODLIK KURASHLARI

O‘rta Osiyo xalqlari arablar istilochilik yurishining birinchi kunlaridan boshlab, o‘z erki va ozodligi uchun muqaddas kurashga otlanganlar, ona Vatan tuprog‘ining biror qarich yeri bo‘lsa-da, uni jangsiz va kurashsiz bosqinchilarga bermaganlar, arablarga qarshi olib borilgan erk va ozodlik kurashining eng e‘tiborli tomoni shun-

daki, bu kurashda Movarounnahrning o'troq qadimiy yerlik aholisi bilan turk qabilalari doimo birgalashib yagona ittifoqda jang qilganlar.

720–722-yillarda birinchilar qatorida arablarga qarshi Sug'diyonada qo'zg'olon ko'tarilgan. Bu qo'zg'olonga Samarqand hokimi G'urak va Panjikent hukmdori Divashtich boshchilik qilganlar. Har safar bo'lganidek, sug'dliklarning ozodlik va erk uchun kurashlarini turklar qo'llab-quvvatlaganlar. Yettisuvdan, Turkash xoqon shaxzoda Kursul boshchiligida katta qo'shinni yordam berish uchun Samarqandga yuborgan. Sug'dliklarning birlashgan kuchlari arablarga qarshi muvaffaqiyatli janglar qilib, bir necha zarbalar berganlar. Bu paytda, Xurosonda Said ibn Abdulaziz noib edi. U yumshoq tabiatli va ayni zamonda, kiyim-kechakka o'ch bo'lganligidan «Xuzayna» (uy bekasi) laqabini olgan edi. Xurosonga yangi tayinlangan Said ibn Amr Al-Xoroshiy (721) sug'dliklarga qarshi keskin choralar ko'rgan. U Iroqda ko'tarilgan xalq qo'zg'olonini bostirishda o'zining shafqatsizligi bilan nom qozongan edi. Xoroshiy ko'rgan keskin choralardan jabr ko'rib norozi bo'lgan Sug'd aholisi mamlakatni tark etib, Farg'onaga ko'chishga qaror qilgan. Sug'd aholisidan taxminan 10 ming kishi yo'lga o'tlanib, Xo'jand shahriga yetib kelganlarida Farg'ona podshosi ularni shaharda joylashtira olmay Isfara hududlarida joylashishini taklif etgan, bu birinchi guruh edi. Ikkinchi guruh Panjikent hokimi Divashtich boshchiligida Zarafshon bo'ylab tog'lar oshib, Obgar (Obargar) qal'asi oldidan o'tib ilgari lab borgan.

Birinchi guruh hali Isfaraga yetib bormasdan Al-Xoroshiy yuborgan arab qo'shinlari Xo'jandga yetib borganlar va sug'dliklarni qamal qilganlar. Farg'ona hokimi sug'dliklarga yordam bermagan. Qamalda qolgan sug'dliklarni arablar batamom qirib tashlaganlar. Ba'zi ma'lumotlarda, uch ming, yana boshqalarida esa yetti ming odam ana shu qirg'inda halok bo'lganligi ta'kidlanadi. Arablar juda katta o'ljalarni qo'lga olganlar.

Said Al-Xoroshiy Divashtich boshchiligida Obargar yaqinida turgan panjikentliklarni tugatishga kirishadi. Shu maqsadda, u Sulaymon ibn Abussari boshchiligida katta qo'shin jo'natadi. Bu qo'shin tarkibida O'rta Osiyo hududlaridagi bir necha hokimlar, jumladan, Xorazm vohasi kuchlari ham bor edi. Umumiy qo'shinga rahbarlik qilish **Musayyob ibn Bashir Ar-Riyohiyga** yuklatiladi.

Qo'zg'olon ko'targan Divashtich boshchiligidagi kuchlar Obargar qal'asidan chiqib, dushmani qarshi oladi. Bu jangda arab-

larning qo'li baland kelib, qo'zg'olonchilar Obargar qal'asiga chekinadilar. Qal'a arablar tomonidan qurshovga olinadi. Kuchlar nisbatining teng emasligini hisobga olgan Divashtich Sulaymonga qal'ani topshirishga rozi bo'ladi va o'zini Musayyob bilan birga Xoroshiy oldiga yuborishni so'raydi. Xoroshiy Divashtichni izzat-ikrom bilan kutib oladi, samimiy qabul qiladi, so'ngra Arbinjonga (ba'zi manbalarda Rabinjon – Kattaqo'rgonga yaqin joyda) olib borib qatl etadi. Divashtich tanasi zardushtiylarning xilxonasi – novus devoriga qoqib qo'yiladi. Xoroshiy sug'dliklar qo'zg'olonini bostirgach, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida «tartib» o'rnatadi. Unda, ayniqsa, Kesh va Nasaf katta taassurot uyg'otadi. U Sulaymon ibn Abussariyni bu shaharlarga hokim qilib tayinlaydi. Bundan tashqari, Sulaymon ayni zamonda, harbiy ishlarga hamda xiroj to'plash bo'yicha ham boshliq edi. Bunday mas'uliyatli ikkita lavozimga bir vaqtning o'zida u davrda hech kim qo'yilmasdi. Bu Sulaymonga bo'lgan o'ziga xos katta ishonch edi, albatta.

Arab istilochilariga qarshi kurash bir daqiqa bo'lsa-da, to'xtamadi va u muttasil davom etdi. 723-yilda Farg'ona podshosi bosh ko'tardi. Uni Shosh, Nasaf aholisi va turklar qo'llab-quvvatladilar. Ittifoqchilarning birlashgan kuchlari arablarni Xo'janddan to Samarqandgacha bir necha zarbalar berib ta'qib etib bordilar. Bu voqealar shundan dalolat beradiki, sug'dliklar arablardan bir necha bor mag'lubiyatga uchragan bo'lsalar-da, ular o'zlarini hali batamom zabt etilgan, deb hisoblamas edilar va arablarga qarshi kurashni davom ettira berdilar.

725–729-yillar davomida arab xalifaligining soliq siyosatiga qarshi Samarqand, Buxoro va Xuttaliyonda qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Bu davrda Ashros ibn Abdulla As-Sulomiy noib bo'lib, u ikki tomonlama siyosat olib borib, mahalliy aholining g'azabiga duchor bo'lgandi. U dastlab, – musulmon dinini qabul qilgan fuqarolardan hech qanday soliq olinmaydi, deb Xuroson va Movarounnahr aholisining ishonchiga sazovor bo'lgan edi. Ashros arablar kuchi islomda, islomni qabul qilgan mahalliy xalq arablarga hech qanday qarshilik qilmaydi, deb o'ylagandi. Sug'dliklar uning va'dasiga ishonib, islom diniga kirgan va musulmon bo'lgandilar.

Ayniqsa, 728-yil arablar uchun juda og'ir bo'lganligi qayd etiladi. Qo'zg'olonchilar ularni juda ko'plab hududlardan haydab chiqarganlar. Faqat G'o'rakning ikkiyuzlamalik va sotqinlik siyosati tufayli Dobussiya va Samarqand arablar qo'lida qolgan. G'o'rak bu ozodlik

kurashida katta rol o'ynashi mumkin edi. Ammo u bu yo'lni tanlamadi. Faqat 729-yilda juda katta urinishlardan so'ng, arablar yana Buxoroni qaytarib olishga muvaffaq bo'ldilar. Turklarning qo'zg'olonchilarga ko'rsatgan yordamidan ta'sirlangan G'o'rak kechikib bo'lsa-da, arablar bilan aloqani uzdi va sug'dliklar qo'zg'oloniga qo'shildi. Bu uning ilgari obro'sining tiklanishiga sabab bo'ldi. Tabariy, ayniqsa, Kesh atrofida – arablariga qarshi Shosh, Farg'ona qo'shinlari va turk lashkarlarining qahramonlarcha jang qilganligini alohida ko'rsatadi. Bu olib borilgan janglar Samarqand, Buxoro va boshqa joylarni istisno qilganda Movarounnahr xalqining yana besh yil mobaynida arablar hukmronligiga bo'ysunmagan jasoratidan bir namunadir.

736–737-yillarda Tohariston va Sug'dda arablariga qarshi yana qo'zg'olon ko'tarildi. Natijada, arablar juda og'ir ahvolga tushib qoladilar. Og'ir vaziyatdan qutulish maqsadida, Xuroson va Movarounnahrning noiblari va amirlari bir necha marta o'zgartiriladi. Xususan, Nasr ibn Sayyor (738–748) davrida ko'rilgan tadbirlar tufayli arab istilochilari o'lkada o'z mavqelarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. U qo'zg'olonchilarni bostirish uchun Samarqand, Shosh, Farob va Farg'onaga bir necha bor qo'shinlar tortib bordi. Nasr ibn Sayyorning noiblik davri O'rta Osiyo yerlarining arablar tomonidan istilo qilinishi tarixida yangi va so'nggi davrdir. U ma'lum bir muddat davomida mamlakatda nisbiy osoyishtalik o'rnatildi. Nasr bunga qanday erishdi, avvalo, u oqsuyak dehqonlar o'rtasidagi nizolardan foydalandi, ularning ko'pchiligini o'z tomoniga og'dirib oldi. Oqsuyak dehqonlar, lashkarboshilar imtiyozlarini saqlashga alohida e'tibor berdi, ular o'rtasida qon-qardoshlik va qarindosh-urug'chilik aloqalarini o'rnatishni har taraflama qo'llab-quvvatladi. O'zi bu sohada namuna ko'rsatib, Tog'shoda Buxorxudotning qiziga uylandi. Va nihoyat Nasr ibn Sayyor moliyaviy islohot o'tkazdi. Unga ko'ra islom dinini qabul qilgan barcha kishilar juz'ya soliqlaridan ozod qilindilar va barcha musulmonlar huquq jihatdan tenglashtirildi. Yer egasi esa qaysi e'tiqodga bo'lishidan qat'i nazar, xiroj solig' to'lashi shart qilib qo'yildi.

Albatta, Nasr ibn Sayyor davridagi o'lka osoyishtaligi vaqtinchalik va nisbiy xarakterda edi. Xalifalikning sharqiy mustamlakalari hisoblangan O'rta Osiyo hududlari erk va ozodlik uchun kurashga bel bog'lagan avlod-ajdodlarimizning ulug'vor yangi chiqishlari arafasida turar edi.

6. ABU MUSLIM QO'ZG'OLONI

Arablar bosib olgan barcha hududlarda VIII asrning 40-yillaridan boshlab, ummaviylar xonadoniga nisbatan norozilik xatti-harakatlari kuchayib ketdi. Xususan, Xuroson va Movarounnahrda kuchayib ketgan mustamlakachilik zulmi xalq ommasining ummaviylar xalifaligiga nisbatan nafrat va noroziligini kun sayin oshirib bordi. Mamlakatdagi umumiy siyosiy vaziyat bu sulola umrining tugab borayotganligidan yorqin dalolat berar edi. Oqibatda ummaviylarni siyosiy hokimiyatdan ag'darib tashlashni o'z oldiga bosh vazifa qilib qo'ygan raqib guruhlar paydo bo'la boshladi. Ana shunday guruhlardan biri abbosiylar edi.

Bu sulolaga Muhammadning amakisi Abbosning evarasi Muhammad ibn Ali asos solgan. Abbosiylar ummaviylarni rasululloh avlodini qirib tashlashda ablaydilar. Shu munosabat bilan Muhammad avlodidan bo'lgan abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishi e'tiqodi mustahkam islom yo'lining tiklanishidir, deb talqin qilindi, Abbosiylar g'oyasi harakatini tashviqot va targ'ibot qilish maqsadida, bu guruhning eng ishonchli va sodiq vakillari xalifalikning barcha hududlariga yuborildi. Ayniqsa, ummaviylarning bosqinchilik va mustamlakachilik zulmi siyosatiga qarshi ommaviy xalq chiqishlari va qo'zg'olonlari kun sayin kuchayib borayotgan sharqiy viloyatlarga alohida e'tibor berildi. Dinovariyning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Xuroson va Movarounnahrning Marv, Buxoro, Samarqand, Kesh, Nasaf, Chag'oniyon, Marvirud, Hirot, Tolikon, Bo'shanj va Seyiston kabi hududlarida VIII asrning 40-yillaridayoq abbosiylar harakatini targ'ib qilish avj olib ketgan edi. Targ'ibotchilar, barcha zulm va sitamlarning sababchisi qilib ummaviylar hukmronligini ko'rsatadilar va hokimiyatga abbosiylar kelgach, vaziyatning o'zgarishiga da'vat qiladilar. Ummaviylarga qarshi qo'poruvchilik harakati ayniqsa, xalifa Marvon II (744–750) davrida g'oyatda kuchaydi. Abbosiylar bu davrda xalifalikning aholiga soladigan soliq miqdorlarining oshirilishi va mehnatkashlarni ko'plab hasharlarga majburan jalb qilinishi oqibatida kuchayib ketgan xalq noroziligidan ustalik bilan foydalandilar. Bu davrda ummaviylarga qarshi uyushtirilgan harakatga abbosiylarning e'tiborli va obro'li vakillaridan bo'lgan imom Ibrohim ibn Muhammad boshchilik qildi.

Xuddi mana shu davrda, ya'ni 746-yilda Xurosondagi abbosiy-lar harakatiga boshchilik qilish maqsadida, Abu Muslim (asli ismi Abdurahmon ibn Asad, taxminan 727–755-yillar) bu yerga yubori-ladi. Abu Muslimning tarjimayi holi to'g'risida bir-biriga qarama-qarshi ma'lumotlar bor. Jumladan, Tabariyning yozishicha, Kufaning Savad yaqinidagi Xutorniyn degan joyda tavallud topgan. U yosh-ligida bir boyning uyida gumashta bo'lib ishlagan, sarrojlik qilgan.

Dinovariy esa Abu Muslim yigitlik chog'ida Isfahon atrofida-gi bir qishloqda qul bo'lgan, degan ma'lumotni beradi. Biroq Abu Muslim to'g'risida batafsilroq va to'laroq ma'lumotni Tabariy yoz-ganligidan uning ma'lumotlari haqiqatga yaqin bo'lishi ehtimoldan uzoq emasdir.

Imom Ibrohim ibn Muhammad Abu Muslimni Xurosonga jo'-natish oldidan unga bir qator aniq ko'rgazmalar va maslahatlar ber-di. Abu Muslim Xurosonga yetib kelgach, o'zining qarorgohi qilib, Marv shahridan uch farsax g'arbda Harkon kanali bo'yidagi mus-tahkamlangan Safizanj qishlog'ini tanlaydi. Abbosiy-larning tamg'asi tim qora rang bo'yog'i bo'lganligidan Abu Muslim hamkorlari bilan birgalikda o'z kiyimlarini ana shu Safizanj qishlog'ida qora rang-ga bo'yab oladi. Abu Muslim o'zining qo'shiniga kelib qo'shilgan kishilarga dastlab 3 dirham, keyinroq esa 5 dirhamdan maosh tayin-laydi. U shuningdek, o'z faoliyatini Xuroson aholisining yuqori ta-baqa vakillariga murojaatdan boshladi. U o'z murojaatida islom di-nining g'oyaviy asosi bo'lgan Qur'oni karimga va Muhammad alay-hissalom sunnatiga amal qilishga da'vat etadi. Shu munosabat bilan Abu Muslim Muhammad avlodlarini qo'llab-quvvatlash va ularga bo'ysunishga chaqiradi. Abbosiylik harakatini qo'llab-quvvatlash-ga qaratilgan bu murojaat tez orada katta ijobiy natijalar berdi va har tarafdan Abu Muslim qarorgohiga madadkor kuchlar oqib kela boshladi. Tabariyning yozishicha, ular otda, eshakda va ko'proq pi-yoda, qurolli va qurolsiz bo'lgan kimsalar edi. Kunlardan bir kuni Abu Muslim huzurida 60 qishloqning aholisi to'plangan va ular Abu Muslim bilan hamkor ekanliklarini bayon qilganlar. Tabariy ber-gan ma'lumotlarga qaraganda, Marv shahri atrofidagi qishloqlar-dan juda ko'plab Abu Muslimga tarafkashlar to'plangan. Jumladan, Saqodim qishlog'ining aholisidan 900 piyoda va 5 otliq, Xurmuzfar qishlog'idan esa 1300 piyoda va 16 nafar otliq askar kelgan. Abu Muslim qo'shinlari safi tobora ko'paya borgan. Shu boisdan, Safizanj

qishlog'i har tomonlama mustahkam bo'lsa-da, u bu yerda uzoq qola olmas edi. Chunki bu qishloq endi Abu Muslim uchun torlik qilib qoldi. U tez orada Moxuvon (Turkmanistonning hozirgi Marv shahri) qal'asiga ko'chib o'tadi. Bu qal'a Abu Muslimning mustahkam markaz istehkomiga aylantiriladi. Bu yerda boshqaruv devoni, qoshin, qozilar, mirshablar va soqchilar joylashtiriladi. Qal'a atrofi devorlar bilan o'rab olinadi va mudofaa xandaqlari qaziladi. Qal'aga kiriladigan joyda ikkita darvoza o'rnatiladi. Abu Muslim ummaviylarga qarshi ochiqdan-ochiq kurash yo'liga o'tib, o'zi joylashgan qal'ada bir qancha mustahkam istehkomlar barpo etadi. Xuroson hokimi **Nasr ibn Sayyor** Balx, Marvarid va Toharistondan keladigan oziq-ovqat yo'llarini to'sib qo'yadi.

Abu Muslim o'zi tuzgan qo'shinda qattiq tartib-intizom o'rnatdi. Qo'shiniga kelib qo'shilgan fuqarolar ro'yxatga olindi, ularga dastlab uch dirhamdan, so'ngra besh dirham miqdorida oylik maosh belgilandi. Ro'yxatdan o'tgan fuqarolarning kattagina qismini har tomondan kelgan qullar tashkil etar edi. Qullarga qo'shinning asosiy tarkibiga kirishga ruxsat berilmagan. Chunki qullar aholi o'rtasida eng past tabaqa hisoblanar edi. Shu bois, boshqa tabaqa vakillari ular bilan bir safda turishni o'zlari uchun or deb bilardilar. Abu Muslim Moxuvonga yaqin Shavval qishlog'ida qullar uchun devorlar bilan o'ralgan alohida joy tashkil qiladi va ularga Dovud ibn Korrozni boshliq qilib tayinlaydi. Bu yerda qullar juda ko'payib ketgach, ularni keyinchalik, Abu Muslim Obivardga ko'chiradi. Xullas, Abu Muslim atrofida to'plangan qo'zg'olonchi kuchlar tarkibi har xil tabaqalarning vakillaridan iborat bo'lgan va ularning bu qo'zg'olonda qatnashishdan ko'zda tutgan maqsadlari ham bir bo'lmagan. Bir toifalari Xurosondagi feodallashgan va ummaviylarga raqiblashgan kuchlar bo'lib, bu kuchlarning asosiy maqsadlari hokimiyatini ummaviylar qo'lidan tortib olish va uni abbosiylarga topshirish orqali yangi hokimiyatda o'z mavqelarini mustahkamlashdan iborat edi. Ikkinchi toifalari Xuroson va Movarounnahrning mahalliy zodagonlari edi. Bu guruh abbosiylarni qo'llab-quvvatlab, siyosiy jihatdan arablar bilan teng huquqda bo'lishning tarafdori edi. Bundan tashqari, ular agar qulay vaziyat bo'lib qolsa, o'z Vatanlarini arab xalifaligidan ajratib olib, uni mustaqil idora qilishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edi. Abu Muslimning o'zi ham abbosiylar harakatiga xuddi ana shu maqsadni ko'zlab qatnashgan edi. Uchinchi toifadagilar, mazlum mehnatkash xalq vakillari, shahar hunarmandlari va

qishloq kashovorlaridirlar. Bu aholi tabaqalari ummaviylar zulmidan, haddan tashqari og'ir soliqlardan va uzluksiz davom etadigan hasharlardan ozod bo'lishni istar edilar. Va nihoyat, to'rtinchi toifa kuchlar bu – qullar. Albatta, qullarning eng asosiy istak, orzusi – bu qullik kishanlaridan xalos bo'lish edi.

Abu Muslim Moxuvon qal'asida ham uzoq qolmadi. U bu yerda to'rt oy chamasi turgach, vaqtincha nisbatan qulayroq Alin qal'asiga ko'chib o'tdi. Buning sababi shu ediki, Nasr ibn Sayyor Moxuvonga keladigan daryoni qirqib, qal'ani suvsiz qoldirishi ehtimoli bor edi. Abu Muslim hali daryoning yuqori qismini egallashga ulgurmagan edi.

Dinovariy bergan ma'lumotlarga qaraganda, Abu Muslim kuchlari safi va geografik doirasi tobora kengayib bordi. Uning qal'asi atrofida Hirot, Bushang, Marvirud, Taliqon, Marv, Niso, Obivard, Tus, Nishopur, Saraxs, Balx, Chag'oniyon, Tohariston, Xuttalon, Kesh, Nasaf va boshqa viloyatlardan 100 mingdan ortiq lashkar to'plangan edi. Yetarli miqdorda kuch to'plaganligiga ishonch hosil qilgan Abu Muslim 747-yilda o'zining qora rangli libos kiygan qo'shinlarini ummaviylarga qarshi ochiq kurashga da'vat etdi.

Ummaviylarga qarshi Abu Muslim boshchiligidagi kuchlar xavfi tobora kuchayib borayotgan bir paytda, Xurosonda hokimiyat tepasida turganlar o'rtasida qabilaviy kurashlar goh pasayib, goh alangalanib turdi. G'oyatda ayyor siyosatdon bo'lgan Nasr ibn Sayyor Abu Muslimga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bormoq uchun arab qabilalari ittifoqi birligini hammadan ko'ra yaxshiroq tushunar edi. Lekin u arab qabilalari bilan o'zi o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishga ojizlik qildi. Bunday nizo Nasr ibn Sayyor bilan Marvning xo'jayini Al-Kirmoniy o'rtasida g'oyatda kuchli edi, oxir oqibatda, ikki o'rtada urush kelib chiqdi. Abu Muslim bu ikki o'rtadagi nizodan foydalandi va Kirmoniyga yordam berishga va'da qildi. Abu Muslim ko'rsatgan yordamga qaramasdan, Nasr urushda g'alaba qozondi va Kirmoniyni asir olib, oyoq-ko'lidan mixlab o'ldirdi. Bu bilan Xuroson hokimi Nasr ibn Sayyor juda katta xatoga yo'l qo'ygan edi. Chunki arablarning Azd qabilasining boshlig'i Kirmoniyning o'ldirilishi, bu qabila a'zolari o'rtasida Nasrga nisbatan dushmanlik va o'ch olish tuyg'usini alangalatib yubordi. Darvoqe, Kirmoniy qatl etilgach, uning o'gli Ali ibn Juday Kirmoniy Abu Muslim oldiga kelib, Nasrga qarshi kurashda unga yordam berajagini izhor etdi. Tahlikaga tushgan Nasr ibn Sayyor

748-yilda Marvni jangsiz tashlab chiqdi va Nishopurga chekindi. Ammo Abu Muslim boshchiligidagi qo'zg'olonchi kuchlar Nasrga hal qiluvchi zarbani berdilar. Bu mag'lubiyat ummaviylar hukmronligi taqdirini uzil-kesil hal qildi. Xalifa Marvon II o'z ixtiyoridagi barcha kuchlarni ishga solib, abbosiylar harakatining g'oyaviy rahbari va rahnamosi **Imom Ibrohim ibn Muhammadni** qatl ettirgan bo'lsa-da, ummaviylar sulolasini halokatdan saqlab qola olmadi.

Abu Muslim erishgan muvaffaqiyat uning obro'-e'tiborining arab xalifaligida keng yoyilishiga sabab bo'ldi, uning qo'shini tobora yangi kuchlar hisobidan ko'payib bordi, tez orada, qo'zg'olonchilar Xurosonni egallab oldilar va 749-yilda Iroq va Jazoirda ummaviylar qo'shinlariga bir necha bor qaqshatqich zarbalar berdilar. Shundan so'ng, Abu Muslim lashkarlari poytaxt Damashqqa tomon yurish qildi va xalifa Marvon II ni taxtdan ag'dardi. Bu janglarda lashkarboshi sifatida arab *Kaxtaba* va xurosonlik Xolid ibn Barmoq o'zlarini ko'rsatdilar. Xalifalik taxti abbosiylar qo'liga o'tdi. Ular 750–1258-yillar davomida xalifalikni o'z qo'llarida saqladilar. Taxtga birinchi bo'lib, Muhammadning amakisi avlodlaridan bo'lgan Abul-Abbos as-Saffoh (750–754) o'tirdi. Xalifalikning hamma hududlarida ummaviylar xonadonining vakillari va yaqinlari batamom qirib tashlandilar.

Shunday qilib, arab xalifaligida davlat hokimiyati ummaviylar sulolasidan abbosiylar sulolasi qo'liga o'tdi. Abbosiylar faoliyatining boshlang'ich davrida xalq ommasiga berilgan katta-katta va'dalarning birontasi ham bajarilmadi. Ular hokimiyatni egallab olgach, mahalliy oqsuyak boy va zodagonlar bilan ummaviy hukmdorlar singari hamtovoq bo'lib oldilar. Ular bu yo'lni tutishga majbur edilar. Chunki, birinchidan, bosib olingan o'lkalardagi xalqlarni tutib turmoq uchun ularning yordami kerak edi. Ikkinchidan esa, mahalliy hukmdorlar va oqsuyak zodagonlar sahroyi arablarga qaraganda, ko'p asrlar davom etgan madaniy an'analar va tajribalarga ega edilar. Abbosiy hukmdorlarga ana shu an'ana va tajribalar asqotar edi. Shu bois, ular mahalliy oqsuyak va zodagonlar vakillarini yuqori lavozimlar va mansablarga ko'tardilar. Ana shunday shaxslardan biri balxlik katta yer egasi Xolid ibn Barmoq edi.

Abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishida Abu Muslim so'zsiz sur'atda juda katta xizmatlar qildi. U o'z davrining yirik davlat arbi va mashhur sarkarda edi. Abu Muslim Xuroson va Movarounnahr xalqining ummaviylar zulmidan noroziligidan foydalanib, o'z orqa-

sidan ergashtira oldi va ularni bir maqsad yo'lida birlashtirdi. Biz Abu Muslim siymosida ikki yoqlama ish tutgan shaxs timsolini ko'ramiz. Abu Muslimni xalq manfaatlarini uchun kurash olib borgan qahramon shaxs deb bo'lmaydi. Sababi, u o'zining erishgan g'alabasidan keyin ko'tarilgan xalq ommasining adolatli chiqishlari va qo'zg'olonlarini shafqatsizlik bilan bostirdi. Ayni zamonda, abbosiylarning xalifalikda yurgizgan siyosatlarini uchun Abu Muslimni javobgar shaxs deb ko'rsatish ham mumkin emas. Chunki u xalifa yurgizgan siyosatga mutlaqo qarshi bo'lgan. Buning ustiga Abu Muslimning xalifa bilan shaxsiy munosabatlari ham juda yomon edi. Xalifa Abu Muslimning shaxsiy jasorati, sarkardalik qobiliyati, uning Xuroson va Movarounnahrda katta obro'-e'tiboridan qo'rqr edi. Abu Muslim shuhratparast odam, u davlat to'ntarishi yasamoqchi degan bahona bilan dastlab Iroqdan chiqarib yuborildi, so'ngra Xuroson va Movarounnahrda noib qilib jo'natildi. Bu davrda u o'z Vatani katta ijobiy davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ishlar bilan shug'ullandi, katta-katta qurilishlarni amalga oshirdi, suv inshootlari barpo qiladi va karvon yo'llari soldiradi. Biroq shu narsani alohida qayd etish lozimki, Abu Muslim Xuroson va Movarounnahrda noib bo'lib turgan davrda mehnatkash xalq ommasining ahvolidan biror-bir ijobiy o'zgarish bo'lgani yo'q. Aksincha, xalq ommasi ikki tomonlama feodal zulmi ostida azob chekdi, soliqlar siyosati yana ham kuchaytirildi, mehnatkash ommaning joniga tekkan hashar ishlari tag'in ham avjga mindirildi. Xullas, demoqchimizki, Abu Muslim ikki o'rtada arosatda qolgan yo'lni tutdi. Aslida u o'z Vatani arablardan mustaqilligini yuragi va qalbida pinhona saqlaganicha uni oshkor qila olmasdan bu dunyoni tark etdi.

Abbosiylar harakati va Abu Muslim qo'zg'olonidan hafsalasi pir bo'lgan Movarounnahr aholisi abbosiylar o'tkazgan zulm va ekspluatatsiyaga qarshi kurashini ummaviylar bilan kurash tugamasdanoq boshlab yuborgan edi. Buni biz Buxoro shahrida 750-yilda Sharik ibn Shayx Almaxriy boshchiligida ko'tarilgan qo'zg'olon timsolida ko'ramiz. Asli arablardan bo'lgan Sharik Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobida yozishicha, shia mazhabida bo'lib, abbosiylar harakatiga qarshi bo'lgan. U «payg'ambarning kuyovi» – to'rtinchi xalifa Alining avlodlarigina xalifa bo'lishga haqlidir, degan g'oyani ilgari surgan. Qo'zg'olonchilar biz «abbosiylarga bo'ysunish uchun ummaviylarga qarshi kurashmadik» degan shiorni ilgari surdilar. Qo'zg'olon O'rta Osiyo hududlarining kattagina qismiga yoyilgan va

unda 30 ming kishi qatnashgan. Hatto, Buxoro amiri Abdujabbor ibn Shayx va Xorazm xoni Abdumalik ibn Xuzayl kabi nufuzli kishilar ham bu qo'zg'olonga tarafdorlik qilganlar. Qo'zg'olonning asosiy kuchi sug'd va arab mehnatkashlar ommasi bo'ldi. Buxorxudot ibn Tog'shoda esa boshidan boshlab, bu qo'zg'olonga ashaddiy dushmanlik qilgan va o'zining 10 ming kishilik qo'shini bilan uni bostirishda qatnashib, abbosiylarga homiylik ko'rsatgan. Chunki dastlab, Abu Muslim bu qo'zg'oloni bostirish uchun Ziyod ibn Solih boshchiligida 10 ming qo'shin yuborib uni bostira olmagan edi. Faqat Tog'shoda bu ishga bosh qo'shgach, qo'zg'olon bostiriladi. Shahar uch kun mobaynida yondiriladi. Ziyod ibn Solih qo'zg'olonchilardan qattiq o'ch oladi va ularni shafqatsizlarcha qirg'in qiladi. Buxorodagi Sharik qo'zg'oloni bostirilgach, arab lashkarlari Samarqand shahriga o'tadilar va buxoroliklarga qo'shilgan xalqdan o'ch oladilar.

Movarounnahrda arablarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon tufayli mamlakatda vujudga kelgan ichki ziddiyat va to'polonlardan foydalanган Xitoy davlatining qo'shinlari sarkarda Gao-Syan-Chji boshchiligida O'rta Osiyo hududiga bostirib kiradilar. 751-yilda Talos vodiysida Xitoy qo'shinlari bilan Abu Muslim tomonidan yuborilganlar o'rtasida dahshatli jang bo'ladi. Bu jang arablarning g'alabasi bilan yakunlanadi.

Xuroson va Movarounnahrda abbosiylar hokimiyatini mustahkamlash uchun butun qalbi-vujudi bilan kurash olib borayotgan bir paytda, abbosiy xalifalar Abu Muslimni taxtga birinchi da'vogar hisoblab, uni yo'qotish uchun tuzoq tayyorlamoqda edilar, Nihoyat, 755-yilda Xalifa Abu Ja'far Davonaqiy – Mansur (754–775) Makkaga yo'lga otlangan Abu Muslimni o'z saroyiga kirib o'tishini so'raydi. Qurolsiz va yolg'iz saroyga kirgan Abu Muslimni Mansur poyloqchilari qo'lga oladilar va uni o'ldiradilar. Bu dahshatli fojia Xuroson va Movarounnahrda abbosiylarga qarshi xalq harakatlarining yanada kuchli tus olishiga turtki bo'ladi. Ana shunday harakatlardan biri Abu Muslimning o'chini olish maqsadida, 755-yilda Rayda Sunbod boshchiligida bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olon Tabariy ma'lumotlariga ko'ra 70 kun davom etgan. Qo'zg'olonchilar Ray, Nishopur va Kumis shaharlarini egallaganlar. Qo'zg'olon qattiqqo'llik bilan bostirilgan, qo'zg'olonchilardan olti mingga yaqin kishi o'ldirilgan. Qo'zg'olon rahbari Sunbod qo'lga olinib, qatl etilgan.

Sunbod qo‘zg‘oloni bilan bir vaqtning o‘zida Movarounnahrda ham abbosiylarga qarshi harakat bo‘lgan. Bu qo‘zolonning rahbari Is‘hoq degan kishi edi. U Abu Muslim harakatining otashin tarafdori bo‘lgan, 772-yilda Ustoz Sis boshchiligida Xurosonda 300 ming kishini o‘z harakatiga ergashtirgan qo‘zg‘olon bo‘lgan. 782-yilda Jurjonda isyon ko‘tariladi. Lekin arablarga dahshat solgan va deyarli butun Movarounnahrni qamrab olgan harakat – bu Muqanna qo‘zg‘olonidir.


7. MUQANNA QO‘ZG‘OLONI

Arab istilochilari istibdodiga qarshi Movarounnahrda eng katta qo‘zg‘olon 769-yilda boshlandi. Bu tarixda «Oq kiyimlilar» (chunki qo‘zg‘olonchilarning asosiy jangovar guruhi oq rangdagi kiyim kiygan edilar) yoki qo‘zg‘olon rahbarining nomi bilan Muqanna qo‘zg‘oloni deb yuritiladi. Bu qo‘zg‘olon deyarli butun O‘rta Osiyo hududlariga tarqaldi. Muqanna ism emas, balki laqabdir. Bu so‘z «niqobdor», «pardali» ma‘nolarini anglatadi. Muqannaning asli ismi Hoshim ibn Hakim bo‘lib, uning ismi va shaxsi to‘g‘risida yozma manbalarda turlicha ma‘lumotlar mavjud. Jumladan, Yaqubiy uni Hakim al-A‘var (bir ko‘zli) Hoshim deb atagan.

Ibn Hallikan esa Muqannaning ismi Ota bo‘lgan, deydi. Muqannani yomon ko‘rgan feodal zamon tarixchisi Narshaxiy yozadi: «Hoshim ibn Hakimni Muqanna deyishlariga sabab shu ediki, u juda xunuk boshi kal va bir ko‘zi ko‘r bo‘lganidan hamisha boshi va yuziga ko‘k parda tutib yurardi¹. Muqannaning ish faoliyati to‘g‘risida ham har xil rivoyatlar bor. Ba‘zi birovlar uni qul bo‘lgan desalar, boshqa birovlar u kir yuvish bilan shug‘ullangan, yana ba‘zi kimsalar esa kigizchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan deb rivoyat qiladilar. Manbalarda, Muqannaning yoshlik chog‘larida kundugarlik (ya‘ni matolarga ohor beruvchi) bilan shug‘ullanganligi ham qayd qilinadi. Narshaxiy Muqannani yomon ko‘rganligini sir saqlamagani holda uni aqlli va o‘qimishli bo‘lganligini tan oladi. Darhaqiqat, u savodli va nihoyatda bilimdon bo‘lgan.

Muqanna Abu Muslim (750–755) qo‘shinida kichik lashkarboshi edi va Abduljabbor Azdiy davrida (757–759) esa vazirlik darajasiga-

¹ *Narshaxiy*. Buxoro tarixi. – T.: «Kamalak», 1991-yil, 138-bet.



cha ko'tarilgan. U Mazdak g'oyalarining ilhomchisi sifatida faoliyat ko'rsatgan, ijtimoiy tenglik va erkin hayot da'vatini targ'ib etgan. Muqanna o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. U ilgari xudo Odam, Nuh, Ibrohim, Muso, Iso, Muhammad va Abu Muslimlarda qanday gavdalangan bo'lsa, menda ham xuddi shunday gavdalanadi, deb odamlarni o'z orqasidan ergashishga da'vat etadi. Shu bois, uni xalifa Mansur qamoqqa olib, yangi qurilgan Bag'dod zindoniga tashlaydi. Narshaxiyning ma'lumotiga qaraganda, Muqanna ancha vaqt zindonda yotib, so'ng qochib Marvga keladi va 776-yilda Xalifaga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga rahbarlik qiladi. Bu haqida Beruniy aniq ma'lumot beradi. «Undan keyin Marvda, Kavaqimardon degan qishloqda Al Muqanna laqabi bilan tanilgan Hoshim ibn Hakim paydo bo'ldi. Uning bir ko'zi ko'r bo'lganligidan yuzini yashil ipak mato bilan bog'lab olardi. U Jayhun (Amudaryo) daryosidan o'tadi. Kesh va Nasafgacha yetib boradi, unga «oq kiyimlilar» va turklar qo'shiladi. Muqanna ularga (begona) mol-mulk va ayollarni olishga hamda o'zlariga qarshi turgan kishilarni o'ldirishga yo'l qo'yib beradi...»

Muqanna Marvdan turib O'rta Osiyoning turli viloyat va shaharlariga o'zining ishonchli odamlarini jo'natadi. Ular joylarda Muqanna g'oyalarini targ'ib qiladilar. Muqannaga ixlosmand va

tarafdor kuchlar, ayniqsa, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida ko'pchilikni tashkil etardi. Narshaxiyning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Naxshab va Kesh atrofidagi aholini Muqanna g'oyalari orqasidan ergashtirishda asli arab Abdulla ibn Amirning xizmatlari katta bo'lgan. Muqanna Abdullaning qiziga uylangan edi. Shu bois, u o'z qaynotasiga ishonganligidan Abdullani Qashqadaryo vohasiga ishonchli vakil sifatida jo'natgandi.

Muqanna Sug'dda «oq kiyimlilar» harakatining keng quloch yoyib rivojlanganligiga ishongach, qo'zg'olonga bevosita rahbarlik qilish maqsadini ko'zlab, o'zining 36 muxlisi bilan Jayhun daryosining o'ng qirg'og'iga o'tib, Naxshab va u yerdan Kesh shahriga yetib boradi. Kesh shahri yaqinidagi tog' tepasida bino qilingan Som qal'asini o'zining mustahkam qarorgohiga aylantiradi. Tez orada butun Qashqadaryo vohasi qo'zg'olonchilar tomoniga o'tadi. «Oq kiyimlilar» harakati Zarafshon vohasiga ham yoyiladi. Samarqand bilan Buxoro ham aslida qo'zg'olonning markazlaridan biriga aylanadi. Hatto, buxorxudot Bunyod ibn Tog'shoda islom dinidan qaytib, Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olonchi vatanparvarlar tomoniga o'tadi. Tez orada Iloq (Ohangaron) vodiysi, Shosh, Farg'ona ham qo'zg'olonchilarni yo'qlab chiqdi. Turk xoqoni ham o'z og'asi Kil boshchiligida Muqanna qo'zg'oloniga xayrixoh bo'lib, qo'shin yuboradi. Xullas, «oq kiyimlilar» qo'zg'olonining dovrug'i Xurosongacha borib yetadi va abbosiy hukmdorlarni vahimaga soladi. Muqanna qo'zg'olonining harakatlantiruvchi kuchlari Movarounnahrning turli feodal tabaqalaridan iborat bo'lgan. Shu boisdan ham ular bu qo'zg'olonda qatnashib, o'z oldilariga turlicha maqsad-muddaoni qo'yanlar. Ammo bu kuchlarning hammasiga xos bo'lgan g'oya, maqsad birligi bo'lgan, u ham bo'lsa, bosqinchi arablarni ona Vatan tuprog'idan haydab chiqarish, erk va ozodlik uchun kurash g'oyasidir. Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki, ana shu ulug'vor vatanparvarlik g'oyasini Movarounnahrda barcha aholi tabaqalari o'z vaqtida tushunib yetdilar va uni qo'llab-quvvatladilar, deb ayta olmaymiz. Muqanna harakatiga dushmanlik ko'zi bilan qaragan va bosqinchi arablarga yordam bergan kuchlar ham bor edi. Masalan, Naxshab atroflarida arablar tomonida turib qo'zg'olonchilarga qarshi jang qilgan mahalliy boy feodal Ahmad Mudi ana shundaylardan biridir. Bunday kuchlar xususan, mulkdor

tabaqalar va oqsuyak zodagonlar safida ko'proq edilar va ular xalq erki va ozodligi manfaatlariga nisbatan o'z shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yardilar.

«Oq kiyimlilar» qo'zg'olonidan dahshatga tushgan xalifa Abu Ja'far 775-yilda Muqanna qo'zg'olonini bostirish uchun Jabroil va Uqaba boshchiligida o'n ming qo'shin yuboradi. Lekin Samarqand ostonalarida arablar yengilib, katta talafot ko'radilar. Qo'zg'olonchilar hujumni janubga tomon davom ettiradilar va Termiz yaqinida qo'shimcha yordamga kelayotgan arab qo'shinlariga kutilmaganda hujum qilib, uni tor-mor keltiradilar. Natijada, Naxshab va Chag'oniyon vodiylari batamom qo'zg'olonchilar tomoniga o'tadi.

«Oq kiyimlilar» qo'zg'olonining markazlaridan biri Buxoro va uning atrof hududlari bo'lganligini yuqorida ta'kidlagan edik. Muqanna tarafdorlari bu yerda ham juda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Biroq qo'zg'olonchilar Buxoroni qo'lga kirita olmaydilar. «Oq kiyimlilar» Buxoroga yaqin bo'lgan Narshax qishlog'ini o'zlarining mustahkam qo'rg'onlariga aylantirgan edilar. Bu qishloq hokimi (ayol kishi edi) ham qo'zgonchilar tomoniga o'tgan edi. Albatta, bu Buxoro uchun katta xavf ekanligini arablar yaxshi bilar edilar. Shuning uchun, 776-yil aprelida Samarqand noibi arab qo'mondoni (u 775-yilda Samarqandga noiblikka tayinlangan edi) Jabroil va Buxoro amiri Husayn ibn Maozning birlashgan kuchlari «oq kiyimlilar» qo'rg'oni Narshaxga hujum boshlaydilar. Qo'zg'olonchi kuchlarga buxorolik Hakim ibn Ahmad, Qo'shkifazl degan joydan Xishriy va Bog'iy, G'ijduvondan Girdak ismli pahlavonlar boshchilik qildilar. Kuchlar teng emas edi. Qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchrab, ulardan 700 kishi o'ldiriladi. Qo'zg'olonchilar uchun bu mag'lubiyat eng katta yo'qotish edi. Ikki o'rtada sulh shartnomasi tuzilib, shartnomaga binoan qo'zg'olon qatnashchilari hatto, yo'ldan voz kechib, islom yo'liga qaytishlari, o'z qishloqlariga tarqab ketishlari, qonuniy amirlarga bo'ysunishlari, musulmonlarni talamasliklari va ularga har xil zo'rvonliklar qilmasliklari kerak edi. G'oliblar esa qo'zg'olonchilardan o'ch olmasliklari lozim edi. Ammo musulmon askarlari hali Buxoroga yetib kelishga ulgurmasdanoq Muqanna tarafdorlari yana qo'zg'olon ko'taradilar. Jabroil ibn Yahyo boshchiligidagi arablar yana orqaga katta kuch bilan qay-

tadilar va to'rt oy davomida Narshax qal'asini qamal qiladilar. Son jihatdan ustun bo'lgan arab qo'shinlari Narshax qo'rg'onining devor tagidan uzunasiga 50 gazli chuqur qazib, uni qulatgach, qishloqqa bostirib kiradilar. Qattiq qirg'in bo'lib, qo'zg'olonchilar yengiladilar. Narshax qishlog'i egallanadi. Qo'zg'olon rahbarlari Hakim ibn Ahmad, Bog'iy va Xishriylar o'ldiriladi. Faqat Girdak qutulib qoladi va qayg'uli xabarni yetkazish uchun Muqanna huzuriga jo'nab ketadi. Arablar Narshax qishlog'ida isyonchilarni qonga botirgach, o'zlarining butun diqqat-e'tiborlarini qo'zg'olonning markazi bo'lgan Samarqand va Keshga qaratadilar. Chunki hali butun Movarounnahr Muqanna qo'li ostida edi. Buning ustiga 777-yilda turk sarkardasi *Qiyoyi Go'zi* ham o'zining katta lashkari bilan Muqanna kuchlariga kelib qo'shilgandi. Qashqadaryo vohasidagi «**oq kiyimlilar**» kuchlariga Muqannaning o'zi bosh bo'ldi. Samarqand va Zarafshon atrofidagi kuchlarga esa Muqanna tomonidan tayinlangan sug'dli Sug'diyon ismli kishi rahbarlik qildi.

O'lkadagi vaziyat arablar uchun g'oyatda og'ir va tashvishli edi. Buni to'g'ri hisobga olgan Xalifa Mahdiy qo'shimcha harbiy kuch to'plash maqsadida Nishopurga keladi. Kurashning bu bosqichida Buxorodagi oqsuyak feodal zodagonlar ham batamom arablar tomoniga o'tadilar va arab lashkarboshisi Maoz ibn Muslim boshchiligida katta qo'shin to'planadi. Narshaxiyning mubolag'a bilan bergan ma'lumotlariga qaraganda, Muqqanaga qarshi to'plangan arablarning birlashgan kuchlari 570 ming kishidan iborat bo'lgan. Lekin shunday katta kuch bilan ham Jabroil ibn Yahyo va Maoz ibn Muslim boshchiligidagi istilochilar qo'zg'olonchilar ustidan sezilarli yutuqqa erisha olmaganlar. Faqat 777–778-yillar davomidagi urush harakatlari chog'ida buxorolik bir kishi tomonidan iste'dodli sarkarda Sug'diyonning o'ldirilishi «oq kiyimlilar» uchun juda katta yo'qotish bo'lgan. Shundan so'nggina, arablar Samarqandni ishg'ol qilganlar.

Muqanna qo'zg'oloniga qarshi kurashning haddan tashqari cho'zilib ketganligi xalifa Mahdiyini juda tashvishga solayotgan edi. U qanday qilib bo'lmasin, qo'zg'olonni tezroq bostirish uchun zarur choralar ko'radi. Shu maqsadda, u arab lashkarlarining qo'mondonlik tarkibini keskin yangilaydi. Maoz ibn Muslim ham o'zining chaqirib olinishini iltimos qiladi. Arab qo'shinlariga o'zining johilligi va

shavqatsizligi bilan nom chiqargan Sayid Xoroshiy bosh qo'mondon etib tayinlanadi.

«Oq kiyimlilar»ga qarshi arablarning kurashi yangi davrga kiradi. 780–783-yillarni o'z ichiga olgan bu kurash davrining bosh maqsadi «oq kiyimlilar» qo'zg'olonining bosh rahbari Muqannani tor-mor keltirishdan iborat edi. Bu davrga kelib, mahalliy oqsuyaklar va zodagon dehqonlar ozodlik va erk uchun olib borilgan kurash manfaatlariga xiyonat qilib, sotqinlarcha arablar tomoniga o'tadilar. Ular Sayid Xoroshiy lashkarlari bilan birgalashib, Muqanna boshchiligidagi vatanparvar kuchlarga qarshi jang qildilar. Kesh shahri va Muqanna qarorgohi bo'lgan nihoyatda mustahkam Som qal'asi atrofida keskin va shiddatli janglar bo'ladi. Mana shunday qaltis va nozik bir paytda, Qulartegin boshchiligidagi turk suvoriylari Muqannaga yordamga keladilar. Xalifa Mahdiy esa arab qo'mondonligiga yangi madad kuchlari yuboradi. Madad kuchlar yetib kelgach, arablar va mahalliy sotqin kuchlar birlashib, Muqannaning so'nggi tayanchi bo'lgan Som qal'asini chor atrofdan qurshovga oladilar. Qo'zg'olonchilar bu siquvga bardosh bera olmaydilar va yengiladilar. Muqannaning og'asi Qabzam 3000 va Som qal'asi atrofida mudofaa janglariga qo'mondonlik qilgan Sarham 3300 kishilik qo'shin bilan sotqinlarcha Sayid Xoroshiyga taslim bo'ladi. Uzoq davom etgan kurash oqibatida Muqanna qo'shinining tinkasi qurigan edi. Shu bois, qo'zg'olon yengiladi va Muqanna halokatga uchraydi. Yozma tarixiy manbalarda Muqannaning taqdiri to'g'risida turlicha talqinlarga duch kelamiz. Tarixchi Tabariyning yozishicha, Muqanna o'z halokatining muqarrarligiga ko'zi yetgach, zahar ichgan. Som qal'asiga kirgan arablar uning jasadini topganlar va boshini kesib, o'sha davrda Halabda turgan xalifa Mahdiyga olib borganlar. Narshaxiy bo'lsa afsonaga o'xshashroq rivoyatni hikoya qiladi. Uning yozishicha, Muqanna o'zini yonib turgan o'tga tashlagan. Bu fikrni Bar Yahudiy (Abul Faroj) ham takrorlaydi. Beruniy o'zining «**Xronologiya**» asarida Muqannaning o'limi xususida ikki xil rivoyat keltirgan. Bu rivoyatlarga qaraganda, Muqanna o'ldirilgan, ikkinchi rivoyatda esa Muqanna o'zini-o'zi o'tga tashlab o'ldirgan, deyiladi. Muqannaning qachon vafot etganligi haqidagi fikrlar ham bir xil emas. Narshaxiyning o'zi Muqannaning vafoti to'g'risida bir-birini inkor etuvchi ikkita yilni tilga oladi – bu 782

va 783-yillardir. Beruniy ma'lumotiga ishonsak, Muqanna 785-yilda olamdan o'tgan.

Shunday qilib, qariyb o'n yil davom etgan va o'z davrida jahonning eng yirik davlatlaridan biri hisoblangan Arab xalifaligini larzaga solgan Muqanna qo'zg'oloni yengildi. «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni yengilganligining asosiy sabablari nimalardan iborat? **Birinchidan**, «oq kiyimlilar» qo'zg'oloniga qarshi kurashgan arab istilochilari-ning lashkarlari davlat hokimiyati qo'shini bo'lib, u tartibli, uyushgan katta kuch edi va u doimiy suratda Arab xalifaligi tomonidan harbiy va moddiy tomondan ta'minlanib turdi. Muqanna kuchlari esa nima bo'lganda ham turli toifa va tabaqalarning vaqtinchalik qurama uyushmasidan tashkil topgan edi va doimiy muntazam ta'minlanib turadigan harbiy va moddiy zaxiraga ega emas edi. **Ikkinchidan**, Muqanna tomonida turib jang qilgan kuchlar turli toifa, tabaqa va guruhlariga mansub bo'lganliklaridan ularda mustahkam birlik bo'lmadi. Ularning kattagina qismi, xususan, mulkdorlar, oqsuyak mahalliy hukmdorlar va zodagon dehqonlar dushman ustidan tez, yengil va osongina g'alaba qozonishga ko'z tutgan edilar. Urush cho'zilib ketgach va borgan sari dahshatli tus ola borgach, vatanfurush kuchlar xoinlik, xiyonat va sotqinlik yo'liga o'tdilar, hatto, arab bosqinchilari tomonida turib, o'z vatandoshlari, birodarlari, og'a va inilariga qarshi jang qildilar. Arab bosqinchilari esa bundan ustalik bilan foydalandilar. **Uchinchidan**, «oq kiyimlilar» qo'zg'oloni onglilik va dasturiy kurash darajasidan ancha yiroqdagi olomon kurashinig nisbatan rivojlangan bir ko'rinishi edi. Albatta, biz qo'zg'olonga XX asr oxirlaridagi xalq ko'zi bilan qarab uning oldiga buyuk va yuksak talablar qo'ya olmaymiz. Qo'zg'olon rahbari Muqannaning o'zi ham zamonasining davriga xos vakili edi, ko'p hollarda qo'zg'olonga bevosita o'zi rahbarlik qila olmadi. Ko'p vaqtini u malikalar davrasida sharob ichib o'tkazdi.

Muqanna rahbarligidagi «oq kiyimlilar» qo'zg'oloni yengilgan bo'lsa-da, juda katta tarixiy iz qoldirdi va Movarounnahrda Arab xalifaligining mustamlakachilik, bosqinchilik ildizlariga bolta urdi. Bu qo'zg'olon xalq ommasining kuch-qudrati birlikda, hamkorlikda ekanligini ko'rsatdi. IX asrdan boshlab, o'lkada tashkil topa boshlagan mahalliy markazlashgan feodal davlatlarning shakllanish ibtidosi ham «oq kiyimlilar» qo'zg'oloni davrlaridan boshlangan

desak, mubolag'a bo'lmaydi. Muqanna qo'zg'oloni, ayniqsa, hozirgi sharoitda O'zbekiston fuqarolari Vatan mustaqilligini yanada mustahkamlash uchun kurash olib borayotgan bir paytda, g'oyat katta ijtimoiy-siyosiy va tarixiy ahamiyatga egadir. Muqanna va u bilan birga Vatan ozodligi va erki uchun kelgindi arab bosqinchilariga qarshi kurashgan fidoyi qahramonlar timsoli, ayniqsa, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida asrlar osha xizmat qilaveradi.

Muqanna qo'zg'oloni yengilgan va halokatga uchragan bo'lsa-da, «oq kiyimlilar» harakati darhol to'xtab qolgani yo'q, balki u yana bir necha o'n yillar mobaynida davom etdi va istilochi arablarning tinkasini quritib bordi. Bu, albatta, o'lkamiz xalqlarining erksevar, hurriyatparvar, haq va adolat uchun kurashda juda katta tarixiy an'anaga ega bo'lgan jasur va mard xalq bo'lganliklaridan dalolatdir.

Nazorat savollari

1. Arab xalifaligining tashkil topishi qanday bo'lgan?
2. Arablarning O'rta Osiyoga yurish qilishidan ko'zda tutilgan maqsadlar nimalardan iborat?
3. Arablar bosqiniga qarshi xalq ozodlik harakatlari va ularning qahramonlarini tavsiflang.
4. Arablar hukmronligi davrida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayot qanday bo'lganligini mushohada qiling.
5. Qur'oni karim va islom dini haqida nimalarni bilasiz?
6. Qachon, qaysi tashkilot tomonidan va nima uchun Toshkent shahri «Islom madaniyati poytaxti» deb e'lon qilingan?
7. Muhammad alayhissalom (SAV) haqida nimalarni bilasiz?
8. Abu Muslim qo'zg'oloni ishtirokchilari kimlar edi?
9. Muqanna kim va u boshchilik qilgan qo'zg'olonning ahamiyati nimada?
10. Narshaxiy kim va uning qanday asarlarini bilasiz?
11. Arablar bosqinining oqibatlarini sanab bering.

VI BOB

MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MUSTAQIL
DAVLATLARNING TASHKIL TOPISHI

1. TOHIRIYLAR VA SOMONIYLAR DAVLATLARI

IX asrda O'rta Osiyo hududida hali ham arablar hukmronligi davom etardi. Ammo erk va hurlik singari oliyjanob tarixiy an'analarga sodiq bo'lgan avlod-ajdodlarimiz arab bosqinchilariga qarshi kurashni bir daqiqa bo'lsa-da, to'xtatmadilar va mustaqil markazlashgan davlat barpo qilishga intildilar. Bu harakat arab istilochilarini har doim tahlika va qo'rquv ostida saqlab turdi. Ular joylardagi hatto, o'zlaridan chiqqan hukmdorlarga ham shubha bilan qarar va ishonmas edilar.

Xolid ibn Barmoq – Barmoqiylar misolida buni ko'rib ishonch hosil qilamiz. Barmoqiylar Xuroson va Movarounnahrni idora qilish bilangina cheklanib qolmadilar. Ularning ta'siri markaziy arab xalifaligida ham kuchli bo'lgan. Abbosiylar hukmronlik qilgan davrda qariyb ellik yil mobaynida davlatni idora qilishning mas'ul lavozimlari Balxdan chiqqan barmoqiylarning qo'lida bo'lgan. Abbosiylar bunday mas'uliyatli lavozimlarni barmoqiylar qo'lga berishga majbur bo'lsalar-da, biroq ularning faollashib borayotganligidan qo'rqqar edilar. 786–809-yillarda xalifalik qilgan Xorun ar-Rashidning barmoqiylar xonadoniga qaqshatqich zarba berganligini shu ma'noda tushunsa bo'ladi. U hatto, o'ziga yaqin bo'lgan qishloqlar aholisini ham qirib tashlagan. Hokimiyat tepasiga barmoqiylar o'rniga **Tohiriylar keladi**. Tohiriylar Xurosonning yirik oqsuyak yer egalari-dan bo'lib, bu sulolaning asoschisi **Tohir ibn Husayn** edi. Bu sulola asli Hirot viloyatining Bushang shahridan edi. Tohir 809–813-yillarda Xorun ar-Rashidning o'g'illari Ma'mun bilan Amin o'rtasidagi bo'lgan kurashda Ma'mun tomonida bo'ldi, unga Bag'dodni va xalifalik taxtini egallashda yordam berdi.

Ma'mun 813-yilda xalifalik taxtiga o'tirgach, Tohir ibn Husayn katta hurmat va e'tiborga loyiq nufuzli kishi bo'lib qoldi. 821-yilda

u Xurosonning noibi etib tayinlandi. Movarounnahr ham Xuroson noibliги tarkibiga kirardi. Uning qarorgohi Nishopurda edi. Tohir o'z qo'l ostidagi keng viloyatlarni mustaqil davlatga aylantirish uchun ochiqdan ochiq harakat qildi. U noiblikka tayinlangan kundan bir yil o'tar-o'tmas, jome' masjidida juma namozida o'qiladigan xutbadan xalifa nomini chiqarib tashlashga buyruq berdi. Bu o'sha davr uchun xalifaga qarshi ko'tarilgan isyon bilan teng edi. Bu voqeadan ko'p vaqt o'tmay Tohir ibn Husayn to'satdan vafot etdi. Shundan keyin, Tohirning har bir qadamini kuzatib yurgan xalifa uni zaharlab o'ldirgan degan gap tarqaldi. Xalifa bunday mayda-chuyda gaplarga asos qoldirmaslik maqsadida, Xuroson noibliги taxtiga Tohir ibn Husaynning og'illari Talxa va Abul Abbos Abdullohni navbat bilan qo'ydi va Tohiriylar nasliy sulolasiga asos soldi. Abul Abbos Abdulloh noibliги davrida (830–844) xalifaga rasman qaram – vassal bo'lsa-da, amalda mustaqil davlatga aylanib, poytaxtni Marvdan Nishopurga ko'chirdi. Buning eng asosiy sababchisi xalifalik hukmronligini xavf ostida qoldirgan va tez-tez ko'tarilib turadigan xalq qo'zg'olonlari edi. Ana shunday qo'zg'olonlardan biri 806-yilda bo'lgandi. Xalifalikni zirqiratgan bu qo'zg'olon Nasaf, Buxoro, Ustruxon, Shosh, Xorazm va boshqa hududlarni qamrab oldi. Qo'zg'olonga isyonkor arab lashkarboshisi **Rofe ibn Lays** boshchilik qildi. Qo'zg'olon Muqanna an'analarni davom ettirdi. Bu harakat ayniqsa, Shosh viloyati shahrida kuchli tus oldi. Chunki bu yerda VIII asrning 80-yillarida yengilgan Muqanna muxlislari ko'proq yashiringan edilar. Qo'zg'olonni har galgidek turklar yana qo'llab-quvvatladilar. Qo'zg'olonchilar Samarqandni egalladilar. Xalifa Ma'mun bu harakatning o'ta xavfli ekanligidan tashvishda edi va uni bostirish uchun turli vositalarni ishga soldi. Nihoyat, qo'zg'olon 810-yilda bostirildi. Uni bostirishda Somon ibn Asad faol qatnashdi. Bu ishda Somonxudotning nabiralari Asadning o'g'illari Nuh Ahmad, Yahyo va Ilyoslar katta hissa qo'shdilar. Ular aslida Balx viloyatining Somon qishlog'i oqsoqoli Somonxudotning avlodlari bo'lganlar. Somon ibn Asad va farzandlari xizmatlari evaziga xalifa Ma'mun Nuh ibn Asadni Samarqandga, Ahmad ibn Asadni Farg'onaga, Yahyoni Shosh va Ustursxonaga, Ilyosni Hirotga noib etib tayinladi. Bu voqea 819–821-yillarda ro'y beradi. Ana shu tariqa, Movarounnahrda somoniylar sulolasi qaror topdi. Albatta, bu yerda Tohirning Somon ibn Asad o'g'illarini yaxshi bilganligi va ularga xayrixohligi ham katta ro'l o'ynagan. Somon hali Marvda

noib bo'lib turgan paytida, Tohir ibn Husayn va xalifa Ma'munning diqqatini o'ziga tortgan edi. Somon Ma'munning ta'sirida otash-parastlik dinidan chiqib, islom dinini qabul qilgan.

Aniq bo'lmagan ma'lumotlarga qaraganda, aka-uka somoniylarning, xususan, Ahmad ibn Asadning ahvoli og'irlashib qoladi. Farg'ona va Ustursxonada xalifalikka qarshi qo'zg'olon ko'tarilib, Ahmad o'z noibligini tashlab ketadi. Qo'zg'olonni Tohirning o'gli Talxa bostirgach, Ahmad Farg'onaga qaytadi va bu yerda uzoq vaqt hokimlik qiladi. Nuh Samarqandda 819–820-yildan 841–842-yilgacha, Ahmad Farg'onada 819–820-yildan 864–865-yilgacha, Yahyo – Shosh va Ustursxonada 819–820-yildan 855–856-yilgacha noiblik qiladilar. Noiblik alohida xizmatlari uchun in'om – mukofot tariqasida berilgan. Mansab bilan bir qatorda, foydalanish uchun yer-mulklar ham hadya qilingan. Somoniylar ikkinchi darajali noiblar bo'lganliklaridan, ularga mis tangalar (falslar), tohiriylarga esa ayni zamonda, kumush tangalar (dirham) zarb qilishga ham ruxsat berilgan. Somoniylarga in'om qilingan yerlarning naqadar boy bo'lganligini IX asrdagi mashhur arab geografi Ibn Hurdodbekhning viloyatlarning soliq miqdori to'g'risidagi ma'lumotlaridan bilsak ham bo'ladi. Uning yozishicha, butun Sug'd hududi xalifalik xazinasiga tohiriylar orqali 326 ming muhammadiy dirhamdan to'lab turgan. Farg'ona Ahmad ibn Asad orqali 280 ming, Yahyo ibn Asad orqali Shosh – 607 ming, Ustursxona – 50 ming dirhamdan to'lagan. Iqtisodiy yuksalish harbiy qudratni ham belgilagan. Movarounnahrda 600 ming suvoriy va piyoda qo'shin bo'lgan. Hozirgi O'zbekistonning shimoliy chegaralariga yaqin viloyatlarda, asosan, ko'chmanchi turk qabilalari yashaganlar. Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida ularning shaharlari ko'p bo'lgan.

Ko'chmanchi turkiy qabilalar Movarounnahr vohalarida sug'diylar, farg'onaliklar, xorazmliklar va boshqalar bilan birga umumiy hayot kechirardilar.

IX asrning birinchi yarimlaridan e'tiboran turkiy – o'g'uzlar Movarounnahrning o'troq va madaniy hayot kechirayotgan vohasi xalqlariga hujumlar uyushtirib, ularni tez-tez bezovta qila boshlaganlar. Shu boisdan ham, Abdulla ibn Tohir X asrning 30-yillarida turk-o'g'uzlardan himoyalaniş uchun Farobod (Qizil Arvotga yaqin) va Dohiston (Mashhadi Misriyon)da mustakam ravotlar qurdirgan, hatto, o'z o'g'li Tohirni qo'shinga bosh qilib, turk-o'g'uzlarga qarshi jang qilish uchun urushga yuborgan. Bunday istehkom

devorlari Buxoroda (Kampir devor nomi bilan hozirgacha mashhur), Samarqandda (Qiyomat devor deb ataladi) va boshqa joylarda ham qurilgan.

Ko'chmanchi turk qabilalari IX asrning birinchi yarmida Yahyo ibn Asad hokimlik qiluvchi Shosh (Chosh)ga tez-tez hujumlar uyushtirganlar. Yahyoning iltimosiga binoan va uning ishtirokida, akasi Nuh ibn Asad 840-yilda Isfijobning turk hokimiga qarshi yurish qildi va tarixiy g'alabaga erishdi. U Isfijobda ulkan va mustahkam mudofaa devori qurdirgan. Nuh ibn Asad 841-yilda vafot etdi. Manbalarning guvohlik berishicha, Samarqand viloyatini bir vaqtlar aka-uka Ahmad va Yahyo birgalikda idora qilganlar. 855-yilda Ahmadning o'g'li Nasr ibn Ahmad Samarqand noibligiga tayinlanadi. Bu hol Movarounnahrda Ahmad ibn Asad nufuzining oshuviga olib keladi. 856-yilda Yahyo ham vafot etdi. Ahmad endi Shosh va Usrusxona noibligini ham o'z qo'liga oladi va bu viloyatlarni o'g'li Yoqub ibn Ahmadga beradi.

Ana shu tariqa, IX asrning o'rtalariga kelganda Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari va Chag'anrud (hozirgi Surxondaryo) vodiylaridan boshqa Movarounnahrning barcha hududi Ahmad va uning o'g'illari ta'siri doirasiga kirdi. Bu ishga Tohir ibn Abdulla (844-862) qarshilik qilmadi. Chunki endi somoniylar ustidan ilgarigidek ota-bobosi singari hukmronlik qila olmasligini yaxshi bilardi. Sababi, tohiriylar sulolasi borgan sayin inqiroz sari yuz tutmoqda edi.

IX asrning 60-yillaridan e'tiboran, tohiriy hukmdorlarga qarshi xalq harakatlari kuchaydi. Bu harakatga g'oziyalar boshchilik qildilar («G'oziyalar», asosan, ko'chmanchi qabilalar hujumini bartaraf qilish maqsadida, kambag'al hunarmandlar va yersiz ziroatchilardan tashkil topgan qurolli qo'shin). G'oziyalar harakatini aka-uka Yoqub va Amr binni Lays boshqardilar. Ular dastlab, Seiyistonda hokimiyatni qo'lga olgach, 873-yilda tohiriylarning qo'shinlariga katta zarba berib, Xuroson poytaxti Nishopurni egalladilar. Shu davrdan e'tiboran, tohiriylar sulolasi barham topdi va Xurosonda hokimiyat Safforiylar qo'liga o'tib ketdi. Rasmiy suratda Xuroson va Movarounnahr ustidan hukmronlik qilib turgan tohiriylar sulolasining inqirozga uchraganligi Movarounnahrdagi mahalliy hokimlarning o'lkaning to'la mustaqilligini ta'minlash sari harakatlari uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endi bu davrda somoniylar siyosiy kurash maydonida erkin harakat qila boshladilar va ular Movarounnahrda markazlashgan bir butun davlat barpo qilishga

kirishdilar. Birlashtirish g'oyasini shaharliklar ham, dehqonlar ham qo'llab-quvvatladilar. Chunki birlashgan va markazlashgan yagona va qudratli davlatgina ko'chmanchi qabilalarning hujumini daf qila olishi mumkinligini ular yaxshi bilar edilar. Markazlashgan yagona va qudratli davlat kuchli harbiy kuch yaratish imkoniyatini berardi.

864–865-yilda Ahmad ibn Asad vafot etdi. Taxtga uning o'g'li Nasr ibn Ahmad (865–892) o'tirdi. Nasr oldida ikkita muhim vazifa turardi. Birinchisi, ko'chmanchi qabilalarning hujumini zaiflashtirish bo'lsa, ikkinchisi Buxoro, Naxshab va Kesh hududlarini qo'shib olishdan iborat edi. Nasr birinchi maqsadni amalga oshirish niyatida Turkiston shahri yaqinidagi Shovgar shahriga yurish uyushtirdi va qo'shinga o'zi boshchilik qildi.

Nasr o'zining ikkinchi maqsadini amalga oshirish uchun Buxoroni egallashga kirishdi. Buxoroni 874-yilda so'nggi tohiriylar Muhammad ibn Tohirning ukasi Husayn ibn Tohir qo'lga kiritdi. Husayn Buxoroga Xorazm qo'shinlariga bosh bo'lib keldi va aholini ayovsiz taladi. U o'zini Buxoro hokimi deb e'lon qildi. Ammo hokimligi uzoqqa cho'zilmasligini o'zi ham payqagan Husayn ibn Tohir aholidan ko'proq o'lponlar to'plashga shoshildi. To'plangan o'lponlar past qiymatli dirhamlardan iborat bo'lganligi uchun ularni kumush tangalarga almashtirishni buyurdi. Bu esa aholining g'azabini qo'zg'atdi, xalq qo'zg'olon ko'tarib. Husayn saroyini egallab oldi va uni taladi. Shahar jamoasining yuqori tabaqalari Samarqandga – Nasr ibn Ahmadga o'z vakillarini yubordilar va somoniylar xonadonidan biror kishini hokim qilib jo'natishni iltimos qildilar. Bu taklif, albatta, Nasrni xursand qildi va u o'z ukasi Ismoil ibn Ahmadni Buxoroga hokim qilib jo'natdi. Ismoil Somoniy 849-yilda Farg'onada tavallud topgan. 14 yoshida otasi vafot etib, akasi Nasr qo'lida qolgan. Ismoil Somoniy o'z hokimligining (874–907) dastlabki davrlarida katta qiyinchiliklarga duch keladi. Chunki xalq ommasi somoniy noiblaridan shu paytgacha biror-bir yaxshilik ko'rgan emasdi. Ismoilidan ham albatta yaxshilik kutish uchun hech qanday asos yo'q edi. 875-yilda Ismoil o'zining ikkinchi marta Buxoroga kelishida yo'lda xalqning notinch ekanligini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Tarixchi Narshaxiylarning yozishicha, Barket bilan Romiton o'rtasida 4 ming dehqon qo'zg'olon ko'tarib chiqdi. Hokim sifatida Ismoilning dastlabki ko'rgan tadbiri dehqon oqsuyaklari va lashkarboshilariga suyanib, xalq qo'zg'olonini bostirishdan iborat bo'ldi.

Oʻzini butun boshli Movarounnahr hokimi deb hisoblagan Nasr ibn Ahmad kumush tangalar zarb qila boshladi. 886–887-yili Nasr tomonidan Samarqandda zarb qildirilgan somoniylarning eng birinchi kumush dirhamlarining namunasi Oʻzbekiston tarixi muzeyida saqlanmoqda. Nasr ibn Ahmad oʻz ukasi Ismoilni oʻziga tobe noib deb hisoblar va istagan paytda, uni almashtirish mumkin deb oʻylardi. Ammo Ismoil akasiga boʻysunishni ochiqdan ochiq xohlamagan va Buxoroning mustaqil boʻlishiga harakat qilgan. Bu harakat Ismoilning turli bahonalar bilan Samarqandga soliq va oʻlponlar toʻlashdan bosh tortganligida yaqqol koʻzga tashlanadi. Ikki aka-uka oʻrtasida 888-yilda kuchayib ketgan dushmanlik urush boshlanishiga sabab boʻldi. Bu urushda Nasr batamom magʻlubiyatga uchradi va Ismoil butun Movarounnahrni boshqarishni oʻz qoʻliga oldi. Nasr somoniylar xonadonining boshligʻi sifatida hurmatga loyiq boʻlsa-da, unda hech qanday hokimiyat yoʻq edi. U toʻrt yil Samarqandda yashab, 893-yilda vafot etdi. Manbalar tili bilan aytganda, Ismoil Somoniy «aqli, adolatli, shafqatli, fikr va tadbir egasi» edi. U 892-yilda butun Movarounnahr hukmini oʻz qoʻliga olishga erishib, «haqiqatdan ham podsholikka loyiq va haqli ekanligini» isbotladi.

Ismoil Somoniy 893-yilda koʻchmanchi turk qabilalari ustiga yurish qildi. Bu yurishda u katta tarixiy gʻalabani qoʻlga kiritdi. Taroz (hozirgi Jambul)ni egalladi va turklarning xonini 10 ming askari bilan birga asir oldi. Bu jang davomida shu darajada katta oʻlja qoʻlga kiritildiki, har bir jangchiga 10 ming dirhamdan boylik ulashib berildi.



Nasr ibn Ahmadning mis puli
(X asr).

Ismoil Taroz shahridagi xristian qasrini musulmon masjidiga aylantirdi. Movarounnahr siyosiy hayotidagi bu oʻzgarish Xuroson hukmdori Amr ibn Laysga ham, arab xalifasi Mutazzidga (892–902) ham hush kelmagani aniq. Buning isbotini xalifaning Ismoilni Movarounnahr taxtidan mahrum etib, Amr ibn Laysni Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan ham hukm yuritish huquqi bilan taʼminlagani haqidagi farmonidan bilib olish mumkin. Bu bilan bu ikki hukmdorni xalifa bir-biri bilan gijgijlagan. Natijada, 900-yilda Ismoil bilan Xuroson hokimi safforiy Amr ibn Lays oʻrtasida urush

keltirib chiqardi. Amr ibn Lays hukmronligi (879–900) davrida oʻzining aqlliligi va sergʻayratligi tufayli kuchli hokimiyat barpo qildi. Xalifa undan qoʻrqardi. Xalifa Amr ibn Laysni Xuroson bilan Movarounnahr ustidan ham hukmronligini taʼminlovchi farmon chiqardi. U Amr bilan Ismoilni toʻqnashtirib oʻrtada oʻzi yutib chiqishni moʻljallagan edi. Lekin voqealar rivojlanib borishi xalifa umidlarini chippakka chiqardi. Bu urushda Ismoil katta gʻalaba qozondi va uning davlati, kuch va qudrati yanada yuksaldi. Safforiylar qoldirgan meroslarni oʻziniki qilib olgan Ismoil butun Xurosonni ham somoniylar davlatiga qoʻshib oldi.

Ismoil Somoniy shu darajada kuchli va qudratli davlat barpo qildiki, koʻchmanchi qabilalarga qarshi kurashmoq uchun mudofaa istehkomlari boʻlgan devorlarga umuman, hech qanday ehtiyoj qolmadi. Narshaxiyning maʼlumotlariga qaraganda, mamlakat mudofaasini taʼminlashda devorlariga qaraganda, qoʻshinlarning roliga katta baho berib, Ismoil Somoniy «Men – Buxoroning devoriman», degan edi. Kuchli markaziy hokimiyat va qudratli qoʻshinning barpo etilishi Ismoil Somoniy va uning izdoshlariga Movarounnahr va Eronning ichki muammolariga asosiy diqqat-eʼtiborini qaratish imkoniyatini berdi.

Ismoil Somoniy oʻz davrining yirik va aqlli davlat arboblari bilan boʻlgan. U yirik va markazlashgan davlat barpo qilishdan manfaatdor boʻlgan barcha oqsuyak amaldorlarni oʻz atrofiga toʻplaydi. Ularning yordami bilan Ismoil shunday bir qudratli markazlashgan davlat barpo qiladiki, bu davlat oʻsha vaqtda Sharqda shuhrat topadi. Ismoil Somoniy davrida Movarounnahr Arab xalifaligini istiqbolidan abdulabad ozod boʻldi. Ammo bir qarashda qudratli boʻlib koʻringan bu davlatni ichdan yemirayotgan bir qator ijtimoiy ziddiyatlar bor ediki, buni hatto Ismoil Somoniy ham bartaraf eta olmadi. Bu markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat oʻrtasidagi qarama-qarshilik edi. Somoniylar har qancha urinsalar-da, Seiston, Gʻuzgʻon, Gʻazna, Garjiston, Isfijob, Xorazm hozirgi Tojikistonning togʻli viloyatlari: Chagʻoniyon va Rashtani oʻzlariga batamom boʻysundira olmadilar. Bu viloyatlarning hokimlari markaziy hokimiyatni rasman tan olsalar-da, amalda mustaqil siyosat yurgʻizdilar. Somoniylar davrida qoʻshinda yetakchi mavqeni turk sarkardalari va gʻulomlari egallagan edilar. Ularga hamma vaqt ham ishonib boʻlmasdi.

Ismoldan so'ng, uning vorislari davrida somoniylar sulolasi inqiroz sari yuzlandi.

Ismoilning o'g'li Ahmad hukmronligi (907 –914) davrida arab tili yana davlat tiliga aylantirildi, arab tilini bilgan shaxslarning mansab va martabalari oshirildi. Holbuki, Ismoil Somoniy davrida bu narsa yo'q edi. Albatta bu hol saroy amaldorlarining, birinchi navbatda, turklardan iborat harbiy oqsuyaklarning noroziligini oshirdi. Shu bois, Ahmadning turk g'ulomlari tomonidan o'ldirilishi tasodif emasdir. Ahmad o'ldirilgach, taxtga uning sakkiz yoshli o'g'li Nasr II (914 –943) o'tqazildi. Uning hukmronligi davrida, Buxoroda Registon maydonida devonlar uchun saroy qurdiradi. Davlat boshqaruvida esa Nasr II davrida amaliy ishni vazir Abdullo Muhammad ibn Ahmad Jayxoniy olib bordi. Hali Ahmad ibn Ismoil hayotlik chog'idayoq, bir qator viloyatlarda xalq ommasining qo'zg'olonlari bo'lganligi qayd qilingan. Ahmadning o'ldirilishi munosabati bilan bunday harakatlar yanada avj olgan. Ahmad hayotlik chog'ida, Ismoilning ukasi Is'hoq ibn Ahmad Samarqandda qo'zg'olon ko'taradi. Bu qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostiriladi. Ahmad Ray va Seyistonda ko'tarilgan isyonlarni ham shafqatsizlar-cha bostirdi.

Nasr II saroyida vazirlik lavozimida, amalda esa hokimiyatni boshqargan Jayxoniy mamlakatda tartib-intizom va osoyishtalik o'rnatmoqchi bo'lsa-da, uni eplay olmadi, xalq noroziligini bartaraf eta olmadi va isyonchi feodallar kayfiyatini tinchlantira olmadi. Uning qilgan ishi Abusolih Mansur ibn Is'hoq boshchiligida Samarqandda ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirishdan iborat bo'ldi, xolos. Bu qo'zg'olon 914-yilda boshlangan edi. Nasr II davlatining janubiy viloyatlarida qo'zg'olon yanada kuchliroq ko'tarildi. Bu qo'zg'olonga Ahmad ibn Ismoil davrida ishonchli va sadoqatli lashkarboshi bo'lgan Husayn ibn Ali Marvaziy boshchilik qildi. Marvaziy xalq ommasining noroziligidan ustalik bilan foydalan-gan. Bu harakatda Karmatlar¹ diniy oqimining ta'siri katta bo'lgan. Karmatlar Misrdagi fotimiylar bilan mustahkam aloqada ish olib borganlar. Ular somoniylar davlati ichiga yashirincha kirib olib xalq ommasining kurashlaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanmoq-chi bo'lganlar. Nasr II zamonida Karmatlar ta'limoti Xuroson va Movarounnahrda keng quloqch yoydi. Ish shu darajaga borib etdiki, Nasr II ning o'zi ham Karmat ta'limotini qabul qilgan. Yana shunisi

¹ Islomda Karmatlardan tashqari, «Shialar», «Islomiylar», «Xorijiyalar» kabi har xil mazhab oqimlar bo'lgan.

diqqatga sazovorki, Nasr II Buxoro zindonida vafot etgan Xuroson karmatchilari harakatining yirik rahbarlaridan biri bo'lgan. Husayn ibn Ali Marvaziyning xuni uchun 119 ming dinor to'lashga rozilik bergan. Husayn ibn Ali esa Misr fotimiylarining maslahati va yo'l-yo'riqlari asosida ish ko'rgan edi. Xullas, Husayn ibn Ali Marvaziy bosh bo'lgan qo'zg'olon 918-yilda bostirildi va uning o'zi asir olindi.

Somoniylar hukmdorining karmatchilarga nisbatan, samimiyligi musulmon ruhoniylari va turk lashkarboshilari noroziligiga sabab bo'ldi. Ular Nasr II ga qarshi fitna uyushtirdilar. Uyushtirilgan fitna fosh qilinadi. Biroq Nasr II o'z o'g'li Nuh foydasiga taxtdan voz kechishdan boshqa chora topa olmaydi. Nuh o'z otasini kishanlab, qal'aga qamab qo'yishga buyruq beradi. Movarounnahrda karmatchilar harakatining rahbari Muhammad ibn Ahmad Narshaxiy (Nasafiy) esa Buxoro maydonida osib o'ldiriladi. Shundan so'ng, mamlakatda karmatchilarni yoppasiga qirish boshlandi. Ammo Nuh har qancha urinsa-da, karamatchilarni yo'qota olmadi, u Movarounnahr va Xurosonda uzoq vaqtgacha yashab keldi.

Somoniylar davlati Nuh ibn Nasr (943–954) hukmronlik qilgan davrda har tomonlama og'ir ahvolga tushib qoldi. Davlat xazinasi batamom bo'shab qoldi, moliyaviy ahvol og'irlashdi. Xalqdan olinadigan soliq va o'lponlar ko'payib ketdi. Hatto, soliqlarni muddatidan ilgari undirib olish odati chiqarildi.

Nuh ibn Nasr vazirlik mansabiga uquvsiz va jaholatparast dindor Abdulloh Muhammad as-Sulomiyni tayinlaydi. Tayinlangan vazir faqat diniy ishlar bilan shug'ullandi-yu, davlat ishlarini o'z holiga tashlab qo'ydi. Har tomonlama iqtisodiy qiyin ahvolga tushib qolgan xalq ommasi Nuhga qarshi qo'zg'olonga tayyorlandi. 947-yilda hatto, qisqa muddatga bo'lsa-da, qo'zg'olon ko'targan xalq Xuroson noibi Abu Ali Chag'oniy yordami bilan Buxoro taxtini bosib oldi. Natijada, Nuh Samarqandga ketishga majbur bo'ldi. Faqat Abu Ali Chag'oniy Buxorodan ketgandan keyingina, Nuh o'z taxtiga qaytib keladi va qo'zg'olonda qatnashgan qarindoshlarini jazolaydi. Nuh ibn Nasr yon berib, Abu Ali Chag'oniy bilan yarashgan bo'lsa-da, ikki o'rtadagi kurash Nuhning o'limi (954)dan so'ng, o'g'li Abdulmalik (954–961) davrida ham davom etdi. Somoniylar davlatida turk lashkarboshilarining ta'siri shu darajada kuchayib ketdiki, ular davlatni boshqarish ishlarini batamom o'z qo'llariga oldilar. Bu borada turk lashkarboshisi Ali Taginning roli va o'rni g'oyatda katta bo'ldi.

Abdulmalik vafoti (961)dan so'ng, somoniylar hukmronligi batamom inqirozga uchradi, desa ham bo'laveradi. Buni shu narsa ochiq-oydin ko'rsatadiki, Abdulmalik vafotidan so'ng, qo'zg'olon ko'targan xalq Buxoro taxtini egallab, talon-toroj qiladi, taxt uchun kurash kuchayadi. Bu kurash jarayonida Ali Taginning nufuzi pasayadi. Bu holni shundan ham bilsa bo'ladiki, Ali Taginning talabi bilan amir taxtiga qo'yilgan Abdulmalikning o'g'li Nasr III bir kundan keyinoq taxtdan tushirildi. Ayni zamonda, Ali Tagin ham G'aznaga ketishga majbur bo'ldi va u yerda mustahkam davlat barpo qildi. Somoniylar davlatining bundan keyingi taraqqiyot bosqichi ham hokimiyat, davlat va mol-dunyo talashib, kurash bilan o'tdi va oxir-oqibatda yuz tuban inqiroz sari ketdi.

2. SOMONIYLAR DAVRIDA IJTIMOIIY-SIYOSIIY VA XO'JALIK HAYOTI

Somoniylarning eng aqlli va tadbirkor vakili Ismoil Somoniy bo'lganligini yuqorida ta'kidladik. U asosiy diqqat-e'tiborni o'z davri uchun ilg'or hisoblanmish markazlashgan davlat tizimini joriy etishga qaratdi. Bu tizim asosini oliy hukmdor dargohi (saroyi) va devonlar (vazirliklar) majmui tashkil etgan. Oliy hukmdor Amir unvoniga ega edi. Shu sababdan, yozma manbalarda, Amir Ismoil, Amir Ahmad kabi ta'kidlarni uchratamiz. Bundan tashqari, Xoris amiri lavozimi ham bo'lib, u oliy hukmdorning barcha hukm va topshiriqlari ijrosining bajarilishini nazorat qilgan. Dargoh hamda boshqa qator muhim davlat idoralarning xavfsizligini amalga oshirish vazifasini bosh Hojib va uning xodimlari bajarganlar. Dargohning xo'jalik yumushlari faoliyatini Vakil boshqargan. Bundan tashqari, dargohda dasturxonchi, eshik og'asi, sharbatdor kabi xizmatchilar ham bo'lgan.



**Buxoro. Ismoil Somoniy
maqbarasi. X asr.**

Devon boshqaruvi 10 ta yoʻnalishdan iborat boʻlib, poytaxt Buxoroda alohida binolarda joylashgan edi: Bosh vazir devoni; Moliya (kirim-chiqim) ishlari devoni; davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish devoni; soqchilar boshligʻi devoni; xat-xabarlar mutasaddisi devoni; saroy ish boshqaruvchisi devoni; muxtasib devoni (uning xizmatchilari zimmasiga shahar va qishloqlarda, koʻcha va bozorlarda ijtimoiy tartibni himoya qilish, diniy marosimlarni amalga oshirishda chegaradan chiqmaslik kabi ishlar yuklangan); vaqflar devoni; sozilik ishlari devoni ana shular jumlasidandir. Bu zikr qilingan devonlarning mahalliy joylarda boʻlimlari boʻlgan. Viloyatlar boshliqlari – hokim, shahar boshliqlari – rais, deb yuritilgan. Davlat ishlariga qabul qilishda maʼlum bir talablar oʻlchovi boʻlgan, bular: davlat tilini mukammal bilish, zamona huquq – meʼyorlaridan toʻliq xabardorlik tarix, adabiyot kabi ilmlardan boxabarlik, hisob-kitob ishlaridan bilimdonlik kabilardir.

Harbiy lashkar ikki toifaga boʻlingan: doimiy ravishda faoliyat koʻrsatuvchi saralangan (gvardiya) va zarur hollarda yigʻiladigan koʻngillilar. Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkin-ki, somoniylar davrida davlat boshqaruvi va harbiy siyosatning oʻz davri uchun murakkab va salohiyatli tizimi tashkil topgan. Mazkur masalaga juda katta eʼtibor berilganligini shu narsadan ham bilsa boʻladiki, davlatning umumiy yillik daromadi 45 million dirhamni tashkil etgani holda, shundan 20 million dirham davlat boshqaruvi va lashkarga sarflangan.

Somoniylar sulolasi hukmdorligi davrida Movarounnahrda xoʻjalik taraqqiyoti faqat Oʻrta Osiyoninggina emas, balki Old Osiyoning ham yetuk hududlaridan biri hisoblanardi. Shahar bilan qishloq oʻrtasidagi, oʻtroq dehqonchilik hududlari bilan koʻchmanchi qabilalar oʻrtasidagi mahsulot ayirboshlashning kuchayib borishi, karvon savdosining oʻsishi oʻlkaning qishloq xoʻjaligini, kon ishlari va hunarmandchilikning rivojlanishi omili boʻladi. Movarounnahr iqtisodi musulmon mamlakatlari orasida yetakchi oʻrinlardan birini egallar edi.

IX asrda Movarounnahr, asosan, qishloq xoʻjaligi mamlakati boʻlganligidan hatto, hunarmandlar ham bu soha bilan shugʻullanar edilar, hech boʻlmaganda ular oʻz tomorqa yerlarida ishlab oʻzlariga kerakli boʻlgan mahsulotlarni bu yerlardan olardilar. Yozma manbalarning bergan maʼlumotlariga qaraganda, Zarafshon, Qashqadaryo vohalari, Fargʻona, Eloq Shosh va Xorazmda IX–X asrlarda

bug‘doy, arpa, sholi, tariq, g‘o‘za va boshqa ekinlar ekib, dehqonchilik qilganlar. O‘lkaning kattagina qismida lalmikorlik, dehqonchilik madaniyati ham bo‘lgan. Bundan tashqari, beda, zig‘ir, kanop ekish ham aholi dehqonchiligida qo‘llanilgan. Zig‘ir va kanopdan olingan yog‘lar o‘sha davrda katta shuhrat topgan. Xorazmda sedana, kunjut yetishtirilgan va ulardan yog‘ mahsulotlari tayyorlangan.

Movarounnahr va Xorazmda ko‘plab bog‘dorchilik, polizchilik taraqqiy etgan, meva-cheva yetishtirilgan. Shaftoli, o‘rik, nok, olma, anor, anjir, uzum, olcha, olxo‘ri, qovun-tarvuz, xullas, deyarli hamma mevalarning turlari bo‘lgan.

O‘lkamiz o‘z davrining yirik hunarmandchilik markazlaridan hisoblangan. Jumladan, Buxoroning **Zandona va Iskijkat** qishloqlarida to‘qilgan bo‘z matolar, Samarqandning Vadori qishlog‘ida yaratilgan mato buyumlar Eron, Iroq va Hindistondan tashqari joylarga ham olib ketilgan va mashhur bo‘lgan. Buxorodan chet mamlakatlarga qo‘y terisi, yog‘, soch moyi, mayin gazlamalar, joynamoz gilamlar, gilamlar, mehmonxonalariga yoziladigan matolar, Ushmundan – matolar, egarlar, Taboristondan – matolar, go‘sht va qovunlar, har xil shoyilar, ro‘mollar, uzangilar, suvluqlar, qayishlar, qozonlar, yong‘oqlar, Jizzaxdan – jun gazlamalar va kiyimlar, Shoshdan – a‘lo sifatli charm va charm mahsulotlari, o‘qdonlar, egarlar, chodirlar, chakmonlar, namoz gilamchalar, yelkapo‘shklar, kamonlar, ignalar, bo‘z, g‘alla va qaychilar chiqarilgan.

Arab geograflari, Eloq viloyatini Shosh bilan Farg‘ona oraliq‘ida joylashganligini qayd etadilar. Eloq X asrda kumush, qo‘rg‘oshin qazib chiqarishning markazlaridan biri bo‘lgan. Eloqda Movarounnahrning uchinchi kumush zarbxonasi ochilgan. Biri Samarqandda, yana boshqasi Buxoroda bo‘lgan. Eloq chekani – «Shosh koni», deb o‘sha davrda shuhrat topgan. O‘z vaqtida Xuroson noibi Ma‘mun ibn Xorun ar-Rashid nomidan zarb qilingan kumush dirhamlarning birida «Shosh konida» 189-hijriy yilida (805-yil) zarb qilindi», yana boshqa birida esa «190 (805–806)-yilda» degan so‘zlar bor.

Eloqdagi kumush konining nechog‘li katta ahamiyatga molik ekanligini tasavvur qilish uchun e‘tiborni shunga qaratmoq joizdir, o‘sha vaqtlarda kumushni muomalada juda ko‘p ishlatgan Sharqiy Yevropaning o‘zida bironta ham kumush – qo‘rg‘oshin koni bo‘lmagan. Sharqiy Yevropadagi davlatlarda muomalada, asosan, somoniylar zarb etgan tangalar bo‘lgan.

Movarounnahr xo'jaligida temir qazib chiqarish ham katta o'rin tutgan. Temir Ustursxonaning ikki hududidan – Mink va Marsmandan qazib olingan. Temir rudaning bir qismi shu yerning o'zida eritilgan va ishlatilgan, qolgan qismi esa Farg'onaga olib ketilgan. Asbar (Isfara)da toshko'mir qazib olingan, Farg'onada neft borligi aniqlanib, undan harbiy maqsadlarda foydalanganlar. Marsmandada har oyning boshida bir marta bozor ochilardi. Bu bozorga juda uzoq joylardan odamlar kelardi. Somoniylar davrida Movarounnahr xo'jalik hayotida Xorazm katta o'rinni egallagan. Xorazm chetga savsar mo'ynasi, oq suvsar mo'ynasi, sassiqqo'zan mo'ynasi, latcha mo'ynasi, tulki, quyon va echki mo'ynalari, sham, o'q, oq terak po'stlog'i, uzun qalpoqlar, baliq yelimi, kanakunjut moyi, anbar, oq terisidan ishlangan charm, asal, yong'oq, lochin, qalqonlar, slavyan qullari, qo'ylar va sigirlar chiqarar edi. Xorazm bu buyumlarni bulg'orlardan olardi. Bulardan tashqari, Xorazm chet mamlakatlar bilan ko'plab quruq mevalar, targ'it, movud, qand-qurs, gilamlar, kimxoblar, choyshablar, qulublar, kamonlar, pishloq, bo'za, baliq, qayiqlar va boshqa mahsulotlar bilan ham savdo qilardi.

Somoniylar davrida Movarounnahrda «Buyuk ipak yo'li» orqali bo'ladigan karvon savdosi katta ahamiyat kasb etdi. Karvon savdosi O'rta Osiyo orqali Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlarini Sharq mamlakatlari, avvalo, Mo'g'uliston va Xitoy bilan bog'lab turar edi. Old Osiyo davlatlarini Mo'g'uliston va Xitoy bilan bog'laydigan yo'l eng gavjum va serqatnov karvon yo'li bo'lgan. Bu yo'l Bag'doddan boshlanib, Hamadon, Nishopur, Marv, Omul (Chorjo'y), Buxoro, Samarqand, Shosh, Taroz (Jambul), Kulon (Lugovaya bekati), Marki, Bolosog'un, Suyob, Issiqko'lning janubiy qirg'og'i orqali o'tib, Sharqiy Turkiston orqali Xitoyga borar edi.

O'rta Osiyodan Yevropaga olib boradigan yo'lning ahamiyati juda katta bo'lgan. Lekin o'sha davrda Xazar podsholigi bilan Xalifat va bulg'orlarning munosabatlari yaxshi bo'lmaganligi tufayli karvonlar Kavkaz va Xazarlar hududi orqali borish imkoniyatidan mahrum bo'lganlar. Yo'l endi O'rta Osiyo orqali Marv, Buxoro, Qiyot, Urganch, Zamjan, Emba, Yoyik (O'rol), Samara, Kinel, Cheremshan daryolaridan o'tib, so'ng, Bulg'oriyaga borgan.

Xorazmning o'ziga kelganda u Xazar podsholigi bilan turli sohalarda savdo va madaniy aloqalar o'rnatgan. Bu davrda savdo-sotiq ishlarida ko'proq cheklar qo'llanilgan. Cheklarni ko'rsatish orqali mo'ljalidagi joydan chekka to'langan miqdordagi pulni olish mum-

kin edi. Savdo, asosan, ayirboshlash yo‘li bilan olib borilgan, pul esa hisob-kitob birligi vazifasini o‘ynagan, xolos. Karvonlar o‘tadigan shahar va qishloqlarda karvonsaroylar qurilgan. Karvonsaroylarda savdogarlar, ularning xizmatkorlari, ot-ulovlari uchun barcha shart-sharoitlar bo‘lardi. Zarur hollarda karvonsaroylarning o‘zida ko‘tara savdolar qilindi. Odamlar bu yerga savdo qilish uchun kelib boshqa shaharlar va mamlakatlardagi tovar mollarning qiymatlarini ham bilib olar edilar. Karvonlar bir necha o‘ndan bir necha mingga qadar ot va tuyalardan iborat bo‘lgan. Ularni qo‘riqlab boruvchi maxsus qurolli soqchilari bo‘lardi. Har bir karvonda tilmochlar olib yurilgan. U paytda, karvonlarga faqat savdo uyushmasi, deb qaramaganlar. Karvon tarkibida savdogarlardan tashqari, hunarmandlar, olimlar, rassomlar, san’atkorlar, ustalar, sayyohlar va elchilar ham bo‘lardi. Savdo karvonlariga odatda elchilik topshiriqlari ham berilardi.

Jumladan, 922-yilda xalifa **Muqtadirdan** bulg‘or podshosiga yuborilgan karvon butun boshli bir elchixonona edi, desa bo‘ladi. Karvonda mirzalik – kotiblik vazifasini bajargan Ahmad ibn Fadlanning yozib qoldirgan xotiralariga qaraganda, bu karvon savdogarchilik ishlaridan tashqari, yana elchilik, harbiy-texnika va diniy vazifalarni ham ado etgan.

Savdo karvonlari «Buyuk ipak yo‘li» orqali Xitoydan ipak va ipak matolari, kimxob va shoyi, oltin va kumush aralashtirilib to‘qilgan zarbof matolarni Movarounnahrda olib kelganlar. O‘rta Osiyodan Xitoyga esa shisha-oynalar, otlar olib borib sotganlar.

Sharqiy Yevropa bilan olib borilgan savdoda Xorazm muhim o‘rinni egallagan. IX–X asrdagi karvon savdosi Xorazm bilan ikki yirik savdo markazi – xazarlar va bulg‘orlar o‘rtasida olib borilgan. Bu davrda ikkita savdo markazi Volga bo‘yida shuhrat qozongan. Bu – Itil bilan Bulg‘or bo‘lgan. Itil shahri ikki qismdan iborat edi. Shaharning g‘arbiy qismi Itil, sharqiy qismi esa Hazoron, deb atalgan va u savdo markazi bo‘lgan. Hazoron aholisining ko‘pchilik qismini xorazmliklar tashkil qilgan. Ibn Havkalning ta’kidlashicha, musulmonlar shahri bo‘lgan Hazoronda 30 ta machit bo‘lgan. Mas’udiy esa Hazoron xoqonining qo‘shinlari asosan, xorazmliklardan bo‘lganligini yozadi. Ibn Havqal xoqon qo‘shinlari tarkibida 12 ming xorazmlik bo‘lganligiga alohida e’tibor beradi.

Volga bo‘yining O‘rta Osiyo va xususan, Xorazm bilan savdosida bulg‘orlar ham katta o‘rin tutgan. Sharqiy Yevropaga O‘rta Osiyodan zarb etilgan dirhamlar, sholi, ip-gazlama, jun va boshqa

matolar olib kelganlar. Xorazmga esa Sharqiy Yevropadan har xil terilar, mo'ynalar, teri oshlashda ishlatiladigan po'stloq, qoramol, asal, qullar va bandilar olib kelingan.

Xullas, o'lkamizda somoniylar sulolasi hukmronlik qilgan asrlar voqea va hodisalarga boy, jo'shqin hayot mavj urgan davr bo'lib, davlatchiligimiz taraqqiyotida muhim bir bosqichdir. Chunki xuddi ana shu davrdan e'tiboran, arab bosqinchilariga qarshi erk va ozodlik uchun kurash olib borgan o'lkamiz xalqlari o'zlarining markazlashgan mustaqil davlatlariga asos soldilar va bu davlatlar xalqaro maydonda o'z munosib o'rinlariga ega bo'ldilar.

3. QORAXONIYLAR DAVLATI

Movarounnahr hududlarida o'troq sug'dliklar bilan bir qatorda ko'plab turk qabilalari ham yashaganlar, ularning ko'pchiligi Shosh va Farg'onada, qisman, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida istiqomat qililar edilar.

VIII–IX asrlarda turkiy xalqlar til jihatdan Farg'ona va Shosh hududlarida yashagan sug'dliklarga o'z ta'sirlarini kuchli bir tarzda o'tkazganlar va bu joylarda turkiylashish jarayoni kuchaygan. Bu hududlardagi turkiylar o'troq hayot kechirganlar. Farg'onada turkiy qarluqlar, Shoshda esa turkiy o'g'uzlar ko'proq bo'lganlar. Arab geografi ibn Havkalning bergan ma'lumotlariga qaraganda, islom diniga o'tgan mingga yaqin turk oilasi sharqdan Farob, Kenjida va Shosh oralig'idagi, ya'ni hozirgi Chimkentning janubi g'arbiy hududlariga kelib joylashganlar. Bular turkiy o'g'uzlar edilar. Shosh hududlarida turkiy-o'g'uzlar shu darajada ko'p bo'lganki, ularning ta'siri xalq og'zaki ijodida ham o'z aksini topgan. O'zbek xalq og'zaki ijodida o'g'uzlar hozirgi o'zbek xalqining o'tmish avlod-ajdodlari sifatida talqin etiladi.

O'g'uzlar turkmanlarning ham avlod-ajdodlaridir. XII asrning birinchi yarmida yashagan Sharof az Zamon Tohir Marvaziyning so'zlariga qaraganda, o'g'uzlar islom dinini qabul qilganlaridan so'ng, Xorazm hududlaridan «kofirlar»ni pecheneglar yashayotgan hududlarga siqib chiqarib, bu yerlarni o'zlari egallab oladilar. Tarixga turkmanlar nomi bilan kirgan bu saljuqiy qabilalar somoniylarning ruxsati bilan Buxorodan janubdagi hududlarni egallab, ko'chmanchi-chorvadorlar sifatida hayot kechirganlar. Shoshni

turklashtirishda o'g'uzlar bilan bir qatorda turgashlarning o'rni katta bo'lgan.

VIII–IX asrlarda turkiy qabilalarning asosiy qismi Yettisuv hududlariga kelib o'rtnashganlar. Sug'dliklar turkiy xalqlar orasiga o'zlarining oliy darajadagi dehqonchilik va hunarmandchilik texnikasini tarqatganlar. «Buyuk ipak yo'li» savdosida ular faollik ko'rsatganlar. Sug'dliklar turkiy xalqlarga va aksincha turkiy xalqlar sug'dliklarga o'zaro ta'sir o'tkazganlar, ular bir-birlariga qiz berib, qiz olganlar, quda-anda bo'lib ketganlar. Sug'dliklar turk tilida so'zlashga o'ta boshlab, asta-sekin o'z ona tillarini unuta boshlaganlar.

Mashhur turkshunos olim Mahmud Qoshg'ariy XI asrda arab tilida «Devoni lug'atit turk», ya'ni «Turkiy so'zlar lug'ati»ni yaratgan. Bu asarda olim qanday qilib, turk tilining sug'dliklar tiliga nisbatan, ustuvor mavqega ega bo'la borishi va sug'dliklar o'z ona tillarini yo'qota borganliklari jarayonini ustalik va mohirlik bilan bayon qiladi. Albatta, sug'dliklar jismonan yo'q bo'lib ketmadilar, balki ular turkiylar bilan aralash-quralash bo'lib, qorishib – assimilyatsiyalashib ketdilar. Bu jarayon, ayniqsa, X asrda somoniylar davrida juda avj olgan.

X asrda yashagan geografiya sohasidagi olimlar ham, Mahmud Qoshg'ariy ham o'sha davrda Yettisuvda va Sirdaryo havzalarida turklarning shaharlari bo'lganligi haqida ma'lumotlar beradilar. Maqdisiyning ko'rsatishicha, Isfijob yaqinidagi Beruket va Boloj shaharlarida turkman-o'g'uzlar joylashganlar. Lekin turkman-o'g'uzlarning asosiy qismi ilgarigidek Sirdaryoning quyi oqimida yashaganlar. Faqat, 894-yildan so'ng, qipchoqlar o'g'uzlarni Emba daryosidan shimolroqdagi tumanlardan siqib chiqargach, u xalqning bir qismi hozirgi Turkmaniston hududlariga o'tgan. Ko'chmanchi o'g'uzlar Turkmanistonning bir qancha hududlarida, shu jumladan, Forobiy tumanlarida yashaganlar. Bu holni Belazuriy tohiriylar hokimi Abdulla ibn Tohir (830–844) hukmronligi davrida o'z o'g'li Tohirni o'g'uzlarga qarshi yurishga otlantirdi, deb isbotlaydi.

Xullas, O'rta Osiyoning Oltoy janubiy yonbag'ridan boshlanadigan sharqiy qismida, Markaziy Tyanshan etaklarida, Chu, Ili, Norin, Talas daryolari vodiylari bo'ylab to Pomirgacha bo'lgan hududlarda turk tilida so'zlashuvchi xalqlar uyushmasi yashagan. Bu turk qabila va urug'lari turlicha nomlar bilan atalsalar-da, sheva jihatidan-gina, bir-birlaridan farqlanadigan yagona bir tilda so'zlashar edilar,

ularning turmush tarzi, madaniyatlari, urf-odatlari bir xil bo'lgan. Ularning jismoniy baquvvatligi, tabiatidagi xususiyatlari, mardligi, urushqoqligi va epchilligi ham bir-biriga o'xshagan. Bu turkiy xalqlar tashqi ko'rinish jihatidan ham bir-birlariga o'xshaganlar: «Yuzlari yalpoq, ko'zlari kichik, burni tekis, siyrak sochli, temir qilichli va qora libosli» kishilar edilar. Bu ulkan xalqlar tarkibiga turk qabila va urug'larning juda ko'plab guruhlarini: qarluqlar, chigillar, yag'molar, tuhsiyalar, uyg'urlar, o'g'uzlar, qipchoqlar kirgan. Bular orasida eng yirigi va madaniyatlisi qarluqlar bo'lgan.

Qarluqlar 766-yilda turgashlarni tor-mor keltirib, Yettisuvni egallaganlar. Qarluqlar to'g'risidagi to'la ma'lumotni, noma'lum muallif tomonidan yozilgan «Hudud al Olam» kitobidan olish mumkin. Unda hikoya qilinishicha, qarluqlar yashagan mamlakat barcha turk xalqlar yashagan mamlakatlarga nisbatan, eng boy va go'zal bo'lib, oqar suvlari ko'p va iqlimi mo'tadil bo'lgan ekan. Bu mamlakatda qishloqlardan tashqari, shaharlar ham bo'lgan. Qarluqlar xo'jalik ishlarining turi bo'yicha bir-birlaridan farq qilganlar: ba'zilar dehqonchilik bilan, boshqa birovlar chorvachilik bilan va uchinchilari ovchilik bilan shug'ullanganlar. Qarluqlarning Qulon (hozirgi Lugovaya temir yo'l bekati), Marki (Marki bekati) va hokazo kabi shaharlari bo'lgan. Qarluqlar shu qadar katta hududlarga egalik qilganlarki, aytishlaricha, ularning yerlarini g'arbdan sharqgacha bosib o'tish uchun 30 kun kerak bo'lar ekan. Ular Farg'ona vodiysi, Chu, Ili va qisman Norin daryolari vodiylarini to'la egallaganlar. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishida hal qiluvchi rolni qarluqlar o'ynadilar va bu davlat qo'shinining asosiy o'zagini ham ular tashkil qilar edilar.

Qarluqlar hukmron bo'lgan hududlarda chigillar (jikel), to'xsilar, argular, yag'molar, turgashlar, qipchoqlar, yabakular, qaylar, jumullar, o'g'uzlar yashaganlar. Toroz tumani va Issiqko'l atroflarida joylashgan chigillar V.V. Bartoldning xulosalariga qaraganda, qoraxoniylar davlatida katta mavqega ega bo'lganlar. Ular madaniy taraqqiyotda qarluqlarga qaraganda orqada bo'lsalar-da, boy, to'q va farovon turmush kechirganlar, chorvachilik bilan shug'ullanganlar, quyosh va yulduzlarga topinganlar.

Turk qabilalarining uchinchi yirik guruhi **yag'molar** edi. Ular Issiqko'lning janubida, Qashg'ar shahri tomonlarda, ko'pchilik qis-

mi esa Sharqiy Turkiston hududlarida ko'chib yurgan. «Hudud al Olam» asarining muallifi yag'molarni madaniyatda orqada qolgan qabila edi, deb yozadi. Ular dehqonchilik bilan shug'ullanmaganlar, asosan, yovvoyi hayvonlarni ovlash va mo'ynachilikni o'zlariga kasb qilib olganlar. Shu bois, yag'molarning yilqi va qo'y podalari ko'p bo'lgan va boshqa turk qabilalariga nisbatan nihoyatda jasur va jangovarliklari bilan mashhur bo'lganlar.

Qoraxoniylar davlatining tashkil topishida boshqa turk qabilalari: qipchoqlar, kenjeklar, yabaqular, qirg'izlar, o'g'uz-turkmanlar, qanchlar va sug'dliklar ham faol qatnashganlar.

Qoraxoniylar davlati X asrning ikkinchi yarmida tashkil topdi. «Qoraxoniylar» so'zi qarluqlarning islomni qabul qilgan boshliqlaridan biri – Satuk Abdulkarim Qoraxon unvonidan kelib chiqqan («Qora» so'zi qadimdan turkiy xalqlarda buyuklik va ulug'lik ma'nosida ishlatilgan). Xon hokimiyati madaniyatli bo'lsa-da, qarluqlar yoki chigillar qabilasidan chiqmadi, balki madaniy taraqqiyotda orqaroqda bo'lgan yag'molardan chiqqan. Buni Satuk Abdulkarim Qoraxonning yag'molar urug'idan bo'lganligi ham ochiq-oydin isbotlaydi. «Majmuayi at tavoriy» («Tarixning qisqartma to'plami») asarining muallifi «yag'molar podshoni bo'g'raxon deydilar», deb aniq aytgan fikrlari yuqoridagi xulosalarni to'la tasdiqlaydi. Markazi ikki shahar: Qashqar va Bolosog'undan iborat bo'lgan yangi davlatning birinchi podshosi «Bo'g'raxon» unvonini olganligi tavsiflidir. Bu xonning turkcha nomi bizgacha yetib kelmagan va biz uni «Bo'g'raxon» unvoni bilan yoki arabcha-turkcha Xorun ibn Satuk nomi bilan bilamiz. Lekin hujjatlarda faqat Bo'g'raxon deb keltirilgan. «Bo'g'ra» so'zi yarmolar tushunchasi bo'yicha qo'sh o'rkachli tuya ma'nosini anglatadi.

Qoraxoniylar sulolasining asoschisi Satuk Bo'g'raxon islom dinini qabul qilgach, yangi turk davlatini barpo qilish ishini boshlab berdi. Uning qachon tug'ilganligi haqida hech qanday ma'lumot yo'q. V. V. Bartold ma'lumoti bo'yicha, Bo'g'raxon 955-yilda Bolosog'unda vafot etgan. Manbalarda keltirilishicha, uning vorislari davrida qoraxoniylar butun Markaziy Tyanshan va Yettisuvni o'zlariga tobe qiladilar, so'ngra Movarounnahr hududlariga yetib boradilar.

Qoraxoniylar 990-yillardan e'tiboran, Movarounnahrda o'z hokimiyatlarini o'rnatish uchun astoydil harakat qiladilar. 990-yilda

ular Farg'onani egallab, bu yerda o'z tangalarini zarb qilganlar. Eng qudratli hukmdorlardan biri bo'lgan Hasan Xorun Bo'g'raxon Isfijob (Sayram)ni o'ziga tobe qilib olgach, 992-yilda Buxoroga hujum boshlaydi. Turk g'ulomlaridan iborat bo'lgan lashkarboshilar Somoniy hukmdorlarga xiyonat qiladilar. Manbalarda shu narsa ma'lumki, g'ayratli va shuhratparast turk harbiy boshlig'i Abu Ali Simjuriy Bo'g'raxonning hujumi oldindan somoniy hukmdori Nuh ibn Mansurdan yashirin ravishda u bilan muzokara olib bordi. Bo'g'raxon bilan bo'lgan bu muzokarada somoniylar davlati ikkiga bo'linishi, Movarounnahr Bo'g'raxonga o'tishi, Amudaryoning janubidagi yerlar esa Abu Ali Simjuriyga topshirilishi kerak edi. Mulkdor dehqonlar ham qoraxoniylar tomoniga o'tadilar.

Bu davrda Buxoro taxtida o'tirgan Nux II ibn Mansur har qancha g'ayratli va qat'iy hukmdor bo'lsa-da, hech kim madadiga ko'z tika olmas edi. Bo'g'raxonga qarshi yuborilgan turk harbiy boshlig'i Ayach tor-mor qilinib, asir olinadi. Noiloj qolgan Nuh o'zining juda qobiliyatli, ammo ishonchsiz harbiy qo'mondonlaridan biri Foyiqqa murojaat qilishga majbur bo'ladi. Foyiq katta qo'shin boshida turib, Buxoro ostonalarida, Karmana yaqinida Bo'g'raxonga qarshi jang qiladi va jo'rttaga yengiladi. Buxoro himoyasiz qolib, jangsiz taslim bo'ladi. Foyiqning xoinligini shu narsadan ham bilish mumkinki, Bo'g'raxon uni tez kunda Termiz va Balxga noib etib tayinlaydi.

Bo'g'raxon 992-yilda Buxoroni egallagach, Nuh II ibn Mansur shaharni tashlab qochadi. Bo'g'raxon o'z qarorgohi qilib, Joyi Muliandagi go'zal saroyini tanladi. Ammo qoraxoniylar xoni salomatligi tufayli Buxoroda uzoq qola olmadi. Buxoro taxtiga Nuh II ning o'gli Nasr somoniyini noib etib tayinlab, Bo'g'raxon Samarqand sari otlandi. Nuh II bundan foydalanib, Abu Alidan yordam olib, Buxoroga qaytib keladi. Bo'g'raxon salomatligi borgan sayin og'irlashib borayotganligi tufayli Samarqandni ham tashlab, Qashqar sari yuzlanadi va yo'lda vafot etadi.

Bo'g'raxonning vafoti go'yo Nux II uchun qulay vaziyatlar vujudga kelayotganday tuyular edi. Amalda esa somoniylar inqiroz sari yuztuban ketgandilar. Nux o'zining yaqin kishilaridan hatto, bittagina bo'lsa-da, ishonchli va qobiliyatli harbiy boshliq topa olmadi. Xuroson bo'lsa vaqtincha birlashgan ikki dushman – Abu Ali va Foyiq qo'lida edi. G'azna bilan Hirot viloyatlarida oddiy g'ulomlikdan tezda qudratli davlat boshlig'i darajasiga ko'tarilgan

Sobuqtegin Nuxga bo'ysunishni istamas edi. Sobuqtegin 977-yilda Nuxning ruxsatisiz G'aznaga hokim bo'lib oladi, shu bois, ikki o'rtadagi munosabat buziladi. Lekin og'ir vaziyat Nuxni undan yordam so'rashga majbur etadi. 996-yilda Qoraxoniylar Buxoroga qarshi navbatdagi hujumni uyushtirdilar. Qoraxoniylarning yangi xoni Nasr ibn Ali g'ayrat va qat'iylikda Bo'g'raxondan qolishmasdi.

G'azna hokimi Sobuqtegin katta qo'shin bilan Nuxga yordam berish uchun yo'lga chiqdi. Balxga yetganda unga Chag'oniyon, G'ozg'on va Xuttalon hokimlarining lashkarlari ham qo'shildilar. Sobuqtegin Kesh tumani hududida chodir qurib, Buxoro hokimi Nux II ni ham o'z lashkarlari bilan kelib qo'shilishini talab etdi. Albatta, bu hol somoniylar hukmdorining nafsoniyatiga qattiq tegdi. Nux bu taklifni rad etdi va Sobuqteginning o'zini Buxoroga kelishini talab qilib, farmoyish berdi. Sobuqtegin bunga javoban Buxoroga o'zining 20 ming kishilik qo'shinini yubordi. Buxoro Sobuqtegin qo'liga o'tdi. U Nasr bilan muzokaralar boshladi. Bu muzokaralar natijasida, Sirdaryo havzasining hammasi qoraxoniylar qo'liga o'tadigan bo'ldi. E'tiborli tomoni shundaki, qoraxoniylar tomoniga batamom o'tgan Foyiqni Nasr ibn Ali Samarqandga o'z noibi qilib tayinladi.

Sobuqtegin esa shartnomaga asosan, Amudaryo janubidagi yerlarga, eng avvalo, Xurosonga to'la xo'jayin bo'lib oldi. Somoniylarga faqat Movarounnahrning markaziy qismigina qoldirildi, xolos. Bu shartnomalar Nux ibn Mansursiz tuzildi. Nux ibn Mansur bunday ko'ngilsiz voqealardan so'ng uzoq yashamadi va 997-yilda vafot etdi. Taxtga Nuxning o'g'li Mansur ibn Nux (997–999) o'tirdi. Taxt vorisi o'zgargani bilan ahvol yaxshilanmadi. Mansur bilan harbiy boshliqlar o'rtasidagi xusumat va kelishmovchiliklar tufayli vaziyat yanada og'irlashdi va oqibatda fitna uyushtirishga borib yetdi. Buxoroda Mansur saroyida qoraxoniy Nasrning homiyligi ostida haqiqiy mansabni egallagan Foyiq fitnaning boshida turdi. 999-yilda turk g'ulomlariga suyangan Foyiq Mansurni qo'lga tushirdi va ko'zini ko'r qilib, uni hokimiyatdan mahrum etdi. Ana shu tariqa, kuchsizlanib qolgan somoniylarga kutilmaganda katta zarba berildi. Somoniylar haqiqatda qarshilik ko'rsatish uchun kuchga va kurashni boshqaruvchi tadbirkor va mard bir kishiga ham ega emas edilar. Xalq esa bo'layotgan voqealarga butunlay befarq qarar edi. Natijada, somoniylar sulolasi batamom quladi. Nasr tomonidan 999-yilda Buxoroning egallanishi barcha muammolarga nuqta qo'ydi va

Movarounnahrda hokimiyat masalasi uzil-kesil hal bo'ldi. Albatta, somoniylar 1005-yilga qadar yana o'z qaddilarini rostlash uchun qarshilik ko'rsatgan bo'ldilar. Ammo bu qarshilik voqealarning rivojlanib borishiga bir qadar bo'lsa-da, ta'sir qilmadi. 1005-yildan e'tiboran esa qoraxoniylarga qarshilik umuman to'xtadi.

Qoraxoniylar qariyb, yuz yil davomida mustaqil hukmronlikning nashidasini surdilar. 1005-yilga qadar davom etgan mustaqil taraqqiyot davrida qoraxoniylar bepoyon katta davlatga asos soldilar. Ularning mulklari g'arbda Buxoro va Sirdaryoning quyi oqimidan sharqda Yettisuv va Qashqargacha cho'zilib ketgan edi. Qoraxoniy xonadonlari o'rtasida 1016-yildayoq boshlanib ketgan urug'chilik adovatli urushlar tufayli 1041-yilda xonlik ikkiga bo'linib ketdi. G'arbiy xonlik markazi Buxoro bo'lib, uning tarkibiga Movarounnahr va Xo'jakentgacha bo'lgan Farg'onaning g'arbiy qismi kirgan. Sharqning xonlik markazi Bolosog'un bo'lib, uning tarkibiga Talas, Isfijob, Shosh, Farg'onaning sharqiy qismi, Yettisuv va Qashqar vohalari kirgan. Yer, mol-dunyo va davlat talashish qoraxoniy Tomg'achxon Ibrohim (1046–1068) hukmronligi davrida ikki turkiy sulola: qoraxoniylar va saljuqiylar o'rtasida kuchaydi. Dushmanlikka sabab bo'lgan bu kurash markazida Amudaryoning o'ng va chap qirg'og'i bo'yidagi Termiz va Balx shaharlari atrofidagi yerlar yotardi. Bu yerlarni g'aznaviylarga tashlab ketishga majbur bo'lganlaridan so'ng, saljuqiylar egalik qilgan edilar.


1068-yilda Tomg'achxon Ibrohim taxtdan voz kechgach, Movarounnahrda hokimiyat Tomg'ochxonning o'g'li Shamsulmulkka o'tishi munosabati bilan xonning o'g'illari o'rtasida Buxoro va Samarqand taxti uchun kurash avj olib ketdi. Bu kurashda Shamsulmulk g'alaba qozondi. Termiz va Balx uchun kurash saljuqiylar bilan Shamsulmulk davrida yanada kuchaydi. 1072-yilda saljuqiylar xoni Alp Arslonning o'ldirilishi va saljuqiylarning vaqtincha kuchsizlanganligidan foydalanib, Shamsulmulk Termiz va Balxni ishg'ol qildi. Lekin tez orada Alp Arslonning vorisi Malikshoh bu hududlarni qaytarib oldi. Shundan so'ng, ichki va tashqi siyosatdagi tashabbus saljuqiylar xoni Malikshoh (1072–1092)ga o'tdi. Xususan, 1080-yilda Shamsulmulk vafot etgach, Movarounnahrning ahvoli yanada og'irlashdi. Bundan foydalangan Malikshoh, 1089-yilda juda katta qo'shin bilan Amudaryodan o'tdi va Buxoro bilan Samarqandni egalladi. Qoraxoniylar xoni asir va Isfahonga

jo'natildi. Malikshoh Ahmad bilan o'zaro muzokaralar olib borgach, uni Samarqand taxtiga qaytishiga rozilik beradi. Ammo Samarqand taxtiga qaytgan Ahmadni mutaassib Ruhoniylar va turk sarkardalari 1095-yilda Kosonga (Farg'onadagi) yurish paytida, yoy ipi bilan bo'g'ib o'ldiradilar.

Saljuqiylar, ayniqsa, Sulton Sanjar (1118–1157) hukmronligi davrida Qoraxoniylarni deyarli o'zlariga batamom tobe etdilar. Garchi Arslonxon (1102–1130) o'z hukmronligining birinchi yarmida mustaqil davlat siyosati olib borishga intilgan, juda ko'plab qurilish ishlari va obodonchiliklarni amalga oshirgan bo'lsa-da, mamlakat ichidagi halokatli ziddiyat va qarama-qarshiliklarning oldini olishga ojizlik qildi. Shu bois, Arslonxon davri Qoraxoniylar davlatining siyosiy tushkunlik davri sifatida tarixga kirdi. Bu borada johil Ruhoniylar va harbiy boshliqlar davlatni boshqarish ishlariga aralashib hokimiyatni barbod qildilar. Arslonxon kasalligi tufayli davlat ishlarini boshqarishda o'g'li Nasrni yarim podsho qilib ko'tardi. Bundan norozi bo'lgan Ruhoniylar fitna uyushtirib, Nasrni o'ldirdilar. Arslonxon noilojlikdan Marvdan yordamga Sulton Sanjarni taklif qildi. Fitnani Arslonxonning ikkinchi o'g'li Ahmad bostirgan va isyonchilarni qatl qilishga hukm qilgan bo'lsa-da, Sulton Sanjar Movarounnahr sari ot qo'ydi. Do'st qo'shni sifatida yordamga chaqirilgan Sulton Sanjar bosqinchilik bilan shug'ullandi. U Samarqandni qamal qilib, 1130-yilda uni egalladi. Arslonxon shahar qamali chog'ida zambarga solib olib chiqildi va Balxga jo'natildi. Ko'p vaqt o'tmay shu yerda u olamdan o'tdi. Garchi 1130-yildan to 1147-yillarga qadar ham Samarqandni qaraxoniylar sulolasiga mansub xonlar boshqargan bo'lsalar-da, bu davlat amalda mustaqil emasdi va Sulton Sanjarning izmidan zarracha bo'lsa-da, chiqqa olmasdi. 1211-yilda Xorazmshoh Oloviddin Muhammad Qoraxoniylar xonadonidan bo'lgan so'nggi qo'g'irchoq xon Usmonni o'ldirib, qaraxoniylar davlatiga so'nggi hal qiluvchi zarbani beradi. Qoraxoniylar urug'i batamom qirib bitiriladi. O'tror, O'zgan va Buxoro hukmdorlari ag'darilib, qatl etiladi.

Ana shu tariqa, qaraxoniylar tarix sahnasidan tushdilar, ammo o'zlaridan so'ng, tarixda ma'lum ma'noda iz qoldirdilar.

4. QORAXONIYLAR DAVRIDA IJTIMOYIY-SIYOSIY VA IQTISODIY HAYOT



Buxoro. Minorayi kalon. XII asr.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahrda bir qator ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar va tadbirlar siyosiy va iqtisodiy hayotning hamma sohalarini o'z ichiga qamrab olgan edi. Ular nimalardan iborat?

Birinchidan. somoniylar hukmronligi davrida vujudga keltirilgan markazlashtirilgan davlat boshqaruvi tugatildi. Qoraxoniylar markazlashtirilgan davlat boshqaruvi o'rniga mamlakatni udel tizimi asosida boshqarishga o'tdilar.

Qashqardan tortib Amudaryogacha bo'lgan hamma yerlar qoraxoniylar xonadoning shaxsiy mulki hisoblanib, uning tepasiga ulug' xon turdi. U ko'pincha

Qashg'arda, onda-sonda Bolosog'unda bo'lgan. Qoraxoniylar xonadonining boshlig'i xuddi Erondagi singari «xonlar xoni» (shahanshoh), «Sultonlar Sultoni» nomi bilan yuritilgan. Manbalarda, qoraxoniylar xonadonining boshlig'i – xonlar xoni «tamg'achxon» yoki «tobg'achxon» deb nomlangan. Turklar Xitoy imperatorini ham shu nom bilan ataganlar. Xonlar xoni idora qilayotgan Qoraxoniylar davlati bir necha bo'laklarga qismlarga – udellarga bo'lingan. Bu udellarning tepasida Qoraxoniylar xonadonining avlodlari vakillaridan **Iloqxon** unvonini olgan a'zolari turardi.

Qoraxoniylar va saljuqiylar tarixining bilimdoni, XIII asr boshlarida yashagan arab tarixchisi **Ibn Al Asir 1043–1044**-yillarga aloqador qimmatli misollarni keltiradi. Bu davrda Qoraxoniylar davlatini boshqargan Tamg'achxon Sharaffuddavla o'ziga qarashli viloyatlarning hammasini aka-ukalari, o'g'illari va qarindosh-urug'lariga bo'lib bergan. Jumladan, ukasi Arslontakinga ko'pchilik turk shaharlarini, ikkinchi ukasi Bo'g'raxonga Torozni, Isfijobni amakisi

To'g'anxonga Farg'onaning hammasini bergan. O'ziga esa faqat Qashg'ar bilan Bolosog'unni qoldirgan, xolos.

Markaziy xonlar xoni bilan iloqxonlar o'rtasida aloqa mustahkam bo'lmagan. Iloqxonlar bir-birlari bilan doimo dushmanlik kayfiyatida yashaganlar va har biri o'zicha mustaqil bo'lishga intildi. Somoniylar inqiroziga qadar Qoraxoniylar davlatining markazi Bolosog'un bo'lgan, XI asrda esa tamg'achxonlar ko'pincha Qashqarda turganlar. O'zgan (hozirgi Qirg'iziston hududida) shahri ham bir vaqtlar Qoraxoniylar davlatining markazi vazifasini bajar-gan.

Tamg'achxonlar mis tanga pullar zarb qilganlar.

Udel xonliklar orasida Movarounnahrning ahamiyati katta edi. Movarounnahr iloqxoni Samarqandda yashagan.

Ikkinchidan, yozma manbalarda udellarni, iloqxonlarni boshqa-rish tartiblari tasvirlangan. Idora ishlarini tashkil etishda Qoraxo-niylar iloqxonlarga somoniylar hukmronligi davridagi fuqaro amal-dorlari bo'lib ishlagan shaxslar yordam berganlar. Qoraxoniylar ular-ni ta'qib qilmadilar. Samoniylar davrida idora etish tartib-qoidalari-ning ko'pchiligi Qoraxoniylar davrida ham saqlab qolindi. Iloqxonlar qoshida vazirlar, sohibberdilar, mustafiylar bo'lgan. Shaharlarda ho-kimlar, raislar, muhtasiblar somoniylar davridagidek tartibda edi. Qoraxoniylar Ruhoniylar bilan tezda umumiy til topdilar. Imomlar, saidlar, shayxlar, sadrlar bu davrda har qachongiga qaraganda ham katta obro'-e'tiborga ega bo'ldilar.

Uchinchidan, Qoraxoniylar hukmronligi davrida o'troq dehqon aholisi o'rtasida yer egaligi munosabatlarning rivojlanish jarayoni ancha tez sur'atlar bilan borganligi sinfiy tabaqalanish kuchayganligi ko'zga tashlanadi.

Aholini to'rtta toifasi: boylar, o'rtahollar, chig'aylar (kamba-g'allar), shuningdek, mulksizlar – qora avom (budun) aniq belgilar kasb etadi. Chorikorlar sifatida feodallar yerlarida ishlagan yersiz va kam yerli dehqonlar «akkarlar» o'troq dehqonlar ommasini tashkil etardi. Akkar yerni ijaraga olganda hosilning bir qismini davlatga, boshqa qismini yer egasiga berishi, qolganini o'zi olishi kerak edi.

Qoraxoniylar davrida aholi dehqonchilik, hunarmandchilik, chor-vachilik, ovchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Ko'chmanchi chorvadorlar oilasidan chiqqan qoraxoniylar xonadoni a'zolari bilan mahalliy o'troq xalq orasidagi munosabatlar juda e'tiborlidir. Bu bo-rada Yusuf Xos Hojib Bolosog'unning 1069-yilda yozgan «Qutadg'u

bilig» («Qutga, ya'ni baxt-saodatga erishtiruvchi bilim») asari bizga juda ko'p muammolarni yechib beradi. Yusuf Xos Hojib Bolosog'un va Qashg'arda bo'ladi, xon saroylarida yashab, saroy muhiti bilan tanishadi. Tomg'och xonlardan biriga bag'ishlangan bu asarda u ijtimoiy hayotning o'troqlik va ko'chmanchilik tartibiga baho berishda hech ikkilanmasdan ijobiy fikr yuritadi. Yusuf Xos Hojib fikricha, feodal jamiyatning asosiy kuchlari bo'lgan dehqonlar, hunarmand-kosiblar, olim-u donolar va savdogarlar, ko'chmanchi chorvadorlarga nisbatan jamiyat uchun foydaliroqdir. Shu munosabat bilan u o'zining didaktik asarida Tamg'ochxonga murojaat qilib, ularga qanday munosabatda bo'lish kerakligini bildiradi.

Qoraxoniylar davlatida butun siyosiy tizim g'oyat ulkan yer fondi hisobidan yashagan. Bu yer fondi bir necha turlarga bo'lingan: 1. Sulton yerlari. Bu yerlar davlat xazinasiga tushadigan asosiy soliq tushumlari va iqto taqsimoti fondining manbayi hisoblangan. Qoraxoniylar davrida iqtoni meros qilib o'tkazish tez-tez uchrab turgan. 2. Vaqf yerlari, qoraxoniylar hukmronligi davrida islom dinining o'rni va ahamiyati oshdi, u davlat dini darajasiga ko'tarildi. Hatto, olib boriladigan urushlar g'azovot shiori ostida uyushtirilgan. Ruhoniylar o'zlarining davlat oldidagi bu xizmatlari evaziga kattakatta yerlar va mulklar olar edilar. Bunday turli xildagi qo'zg'aluvchi va ko'zg'almas mulkni masjid va madrasalarga vasiyat qilib qoldirish tartibi keng tarqalgan. Bu vaqf yerlari deb atalardi.

Qoraxoniylar va saljuqiylar istilosi tufayli Movarounnahr va Eronga juda ko'plab ko'chmanchi turk qabilalari kelib joylashdilar. Ularning ko'pchiligi o'troqlasha boshladilar va o'troq mehnatga ko'chdilar. Ammo qoraxoniylarning qo'shin boshliqlari o'troq turmush sharoitiga o'tishni o'zlari uchun zarur deb topmadilar. Chunki, ularning juda ko'p poda mollari va yaylovlari bor edi. Ular iloq xonlarga zarur bo'lgan hollardagina shaharga tushar va hizmatni ado etardilar.

Qoraxoniy hukmdorlar aholidan olinadigan iqto to'lovini olish uchun doimiy suratda shaharda – qo'rg'onda bo'lishlari shart emas edi. Ko'chmanchi-iqtodori o'z ko'chmanchilik hayotini bimalol tinchgina davom ettirishi va o'ziga qarashli qishloq yoki qishloqlardan keladigan foydalarni yilning ma'lum bir muddatida o'z vaqtida olib turishi mumkin edi. Bunday to'lovlar bug'doy, paxta, uzum, quruq meva, mato, pul shaklida bo'lardi. Ammo XI asrda turklar hukmronligidan so'ng, yirik shaxsiy yer egaligi tugatildi,

deb o‘ylamaslik lozim. Iqto faqat yer egalaridan daromad olishning asosiy shakli edi, xolos. Iqtoni faqat turk harbiy boshliqlariga berilgan, deb o‘ylash ham xatodir. Iqtodor bo‘lish har bir yirik zodagon yoki hokim tomonidan amalga oshirilishi mumkin edi.

Iqto o‘zgarmas, qotib qolgan shakl bo‘lmagan. Feodal yer egaligining boshqa shakllari evolyutsion o‘zgarishni o‘z boshlaridan kechirganliklari singari, iqto ham xuddi shunday evolyutsion o‘zgarishni o‘z boshidan kechirdi. Jumladan, iqto keyinchalik, vaqtinchalik in‘omdan muddatsiz in‘omga, muddatsiz in‘omdan merosga aylana bordi.

Shunday qilib, somoniylar, undan so‘ng, esa Qoraxoniylar hukmronligi davrida feodal yer mulkchiligining eski shakli qoldiqlari bilan bir qatorda feodal yer egaligining yangi shakllari ham paydo bo‘ldi va tez rivojlandi. Bu yangi shakl XI asrda jamiyatda hukmron mavqega ega bo‘ldi.

5. G‘AZNAVIYLAR DAVLATI

X asr oxirlariga kelib, Movarounnahr hududida turkiy xalqlar sulolalarining hukmronlik mavqeyi borgan sayin kuchayib boradi. Ular o‘z tarixlari davomida birin-ketin bir qancha davlatlarni tashkil etdilar. Bu xalqlarning davlatchilik an‘analari islom dinini qabul qilganlaridan so‘ng ham davom etdi. Ana shunday musulmon – turk davlatlaridan biri – g‘aznaviylar davlati edi. Bu davlatning tamal toshini Alptegin qo‘ydi. Sobuqtegin davrida g‘aznaviylar quyoshi chiqqan bo‘lsa, Mahmud G‘aznaviy podsholigi yillarida eng porloq va qudratli kunlarni o‘z boshidan kechirdi.

X asrga kelib G‘azna shahrining mavqeyi har tomonlama ortdi va turkiy sarkardalarning diqqatini o‘ziga torta boshladi. G‘azna ma‘muriy-siyosiy jihatdan somoniylarga qaram edi. Biroq G‘azna hukmdorlari alohida mustaqil davlat bo‘lib ajralib chiqish ishtiyoyi bilan yashaganlar.

Bu ishga birinchi marta astoydil kirishgan shaxs somoniylar lashkarboshisi turk g‘ulomlaridan bo‘lgan Alptegindir. U 962-yilda mahalliy hokimni ag‘darib tashlab, G‘aznada o‘z hukmronligini o‘rnatdi. G‘aznada hokimiyatni qo‘lga olib, mustaqil davlat barpo etishga ikkinchi marta urinish 977-yilda g‘oyatda qobiliyatli va idrokli hukmdor Sobuqtegin tomonidan amalga oshirildi. Sobuqtegin

Alpteginning g'ulomi bo'lib, uni Alptegin Nishopur shahrida qul bozordan sotib olganligi ta'kidlanadi.

Mahmud G'aznaviy va uning o'g'li Mas'ud devonxonasida xizmat qilgan tarixchi olim Abul Fazl Bayhaqiy «Mas'ud tarixi» kitobida qiziq bir voqeani keltiradi. Uning yozishicha, bu hikoyani hijriy 450 (milodiy 1057) yilning yoz faslida unga alloma Abul Muzaffar Alani aytib bergan. Bu hikoyatga ko'ra, amir Voziy uning bobosiga xiroj solig'ini kamaytirib, imtiyoz bergan ekan. Bobosi amir Sobuqtegin boshchiligidagi qo'shinda xizmat qilar ekan. Bobosi amir Sobuqteginni iste'dodli sarkarda, somoniylarga Hindistonni zabt etib bergan foh, oqko'ngil va odil inson deb ta'riflaydi. Abul Muzaffar bobosining bunday hikoyasini keltiradi: «Hirotda janglarni tugallab, Nishopurga yo'l olganimizda odatga ko'ra, har kuni somoniylarning va xurosonliklarning amirlari namozdan so'ng, adolatli (amirsipohsolor) Sobuqtegin saropardasi (chodiri) yaqiniga kelib, uning tashqariga chiqishini otda o'tirgancha kutib turishardi. Amir Sobuqtegin chodiridan chiqishi bilan (uning hurmatiga) barchamiz otdan tushardik va u o'z otiga minganidan so'nggina biz ham yana otlar edik. So'ng, yana yo'limizda davom etar edik. Hokistar degan joyga yetganimizda amir Sobuqtegin to'xtam qilib, arzgo'ylarni qabul qildi va kambag'allarga sovg'alar ulashdi. Shom namozidan so'ng, amir va hamrohlari yana yo'lga otlandik. Qirli, adirli bir joyga yetganimizda amir Sobuqtegin ot choptirib, aylanib, nimanidir qidira boshladi, bir payt «Topdim!» deb hayqirdi. So'ng, yonidagi besh-olti nafar g'ulomga «Mana shu yerni kavlanglar, deb amr qildi. G'ulomlar birmuncha kovlashgach, zang bosib ketgan bir temir qoziqni topishdi. A'yonlari amir Sobuqtegindan: «Bu nima? Ne bo'lyapti o'zi?», deb so'radilar. Amir ularga qullik chog'larida boshidan o'tgan qiziq bir voqeani gapirib berdi. Aytishicha, ularning turkistonlik xo'jayini Sobuqteginni va yana u uchta qulni sotish uchun Jayhundan o'tib, Shopurgon va G'uzg'onon tarafga haydab boribdi. G'uzgonon amiri quvvat qullardan yettitasini sotib olibdi. Sobuqtegin va yana olti qulga xaridor chiqmaydi. Xoja qullarni boshqa shaharga haydab boribdi. Xo'jayin Marvarrud va Saraxs bozorlarida yana to'rtta qulini sotibdi. Sobuqtegin bilan ikkita qulga bu bozorda ham xaridor chiqmaydi. Xoistaraga yetgunlaricha, Sobuqtegin mingan otlardan uchtasi mayib bo'libdi. Xo'jayin achchiqlanib, otlarning egarlarini Sobuqteginning yelkasiga ortibdi. Nishopurgacha yayov yurgizaman, deb do'q uribdi.

Sobuqtegin o'zini hech kim sotib olmagan uchun qayg'urib, toleyi pastligidan o'kinibdi. Shu kuni kechasi Sobuqtegin tushida Xizr alayhissalomni ko'ribdi. Hazrati Xizr undan hol-ahvol so'rab: «Qayg'urma, yaqin orada qullikdan qutulasan, ulug' va mashhur odam bo'lib ketasan, vaqti kelib, yana shu yerlardan o'tayotganingda katta mansabdorlar ham senga xizmatda bo'lishadi, ammo yuksak martabalarga erishganingda, odamlarga faqat yaxshilik qilgin, ana shunda umring uzoq va kuch-qudrating ziyoda bo'ladi», deb duo qilibdi. Sobuqtegin yarim kechasi uyg'onib ketib, ko'rgan tushidan ta'sirlanib, tahorat oladi va xudoga shukronalar aytib, tonggacha ellik rakat namoz o'qib, yig'laydi. Shunda vujudi kuch-quvvatga to'ladi. So'ng, karomat – mo'jiza yuz bergan joyni eslab qolish uchun otning qozig'ini adirlar orasiga qoqib keladi.

Ertalab, hamma uyg'onganida, otning qozig'ini yo'qotgani uchun xo'jayini Sobuqteginni kaltaklaydi va bu noshud qulni endi duch kelgan odamga so'ragan bahosiga bervoraman, deb tantanavor qasam ichadi. Xo'jayin Nishopurgacha ikki qulini otliq Sobuqteginni piyoda haydaydi. Nishopurda bu uchchala qulni somoniylar hukmdori Nuxning sipohsolori amir Alptegin sotib oladi. Shundan so'ng, Sobuqtegin jang-u jadallarda va tinch paytlarda shijoati, halolligi, adolatli ish tutishi tufayli navkarlikdan bosh qo'mondonlik – sipohsolorlik darajasigacha yetadi.

Mahmud G'aznaviyning otasi amir Sobuqtegin yaxshi jangchilardan tashqari, oqko'ngil, mehr-muruvvatli inson ekanligini ko'rsatuvchi yana bir voqea ibratlidir. Bu g'aroyib voqea ham Abul Fazl Bayhaqning «Mas'ud tarixi» kitobida keltirilgan. Bu voqeani Abul Fazlga o'sha yili (1057) do'sti Abdul Malik Mustavfiy aytib bergan. Sobuqtegin Bust shahrini qo'lga kiritib, shaharning fozil, donishmand kishilarini o'ziga yaqin tutib, ularga lutf-marhamat ko'rsatgan. Ana shunday fozil kishilardan biri olim Abdul Malik Mustavfiyning otasi Ahmad Mustavfiyga tong otar suhbatlarning birida Sobuqtegin quyidagi hikoyani aytib bergan. Bir kuni Sobuqtegin shom namoziga yaqin Balx qirlarida ov qilayotganida ona-bola kiyiklarni ko'rib qoladi. Uchqur otida quvlab, kiyikning bolasini tutib oladi. Namoz vaqti yaqinlashganida o'ljani egariga bog'lab, uyiga qayta boshlaydi. Biroz yurgach, ortidan kiyikchanning onasi ma'rab kelayotganini eshitadi. Amir ko'nglida kiyikning onasini ham tutib

olishni o'ylab, ortiga qaytadi. Qorong'u tushgunicha, uni necha bor quvlab, tutolmay saroyga qaytganida, ona kiyik yana ma'rab ergashib kelaveradi. Oxirida, amir Sobuqtegin ona kiyik bo'zlayotganiga rahmi kelib, kiyikchani qo'yib yuboradi. Ona-bola kiyiklar quvonib, chopqillab, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Shu kuni kechasi ham amir karomatli tush ko'radi. Tushida donishmand bir mo'ysafid uni rahmdilligi uchun «Umring uzun, toj-u davlating mustahkam bo'lsin», deb duo qiladi. Abul Fazl Bayhaqiy kitobida Sobuqteginning bu ishini Tavrotida tasvirlangan Muso payg'ambarning qo'zichoqqa muruvvati bilan taqqoslaydi¹. Sobuqtegin ko'p o'tmay Kobul daryosi havzasidagi yerlarni, keyin esa Xurosonning katta qismini qo'lga kiritadi va 997-yilda vafot etadi.

Sobuqtegin vafotidan so'ng, hokimiyat tepasiga Sobuqteginning katta o'gli Mahmud kelishi kerak edi. Ammo ota taxt vorisligini kichik o'g'li Ismoilga bashorat qilgandi. Ismoil taxtni 7 oy boshqaradi, xolos. Tabiatan betadbir, kaltafahm, takabbur va landavur taxt vorisi viloyat hokimlarining isyon-u xurujlariga bardosh bera olmadi. Bundan foydalangan Mahmud katta qo'shin bilan G'aznaga bostirib kirdi va taxtni egalladi. U tarixda Mahmud G'aznaviy nomi bilan shuhrat topdi va g'aznaviylar sulolasiga asos soldi. Sovetlar davrida Mahmud G'aznaviy faoliyati tarixda faqat qora bo'yoqlarda yoritildi, uni bosqinchi, jallod va sahroyi sifatida baholadilar. Holbuki, «Siyosatnoma», «Chahor maqola» (XII asr), «Jome ul-hikoyot», «Lubob-ul-albob» (XIII asr), «Miftoxul-adl» (XVI asr) va boshqa asarlarda, to'plam va solnomalarda, tarixiy kitoblar tarkibiga kiritilgan hikoyatlarda, Sulton Mahmud G'aznaviy adolatli, fuqaroparvar, tadbirkor, sermulohaza va kelajakni oldindan ko'ra biladigan har qanday murakkab muammolarni aql bilan odilona hal etishga intiladigan shoh sifatida tasvirlanadi. Nizom ul-mulk qiziq bir, ibratli voqeani hikoya qiladi: «Kunlardan bir kun G'azna nonpazlari ishlaymay, novvoyxonalarning eshigini berkitib qo'yibdilar. Bundan beva-bechora, xususan, qalandarlar aziyat tortibdilar. Ular to'planishib Sulton Mahmud huzuriga arzga kelibdilar. Sultonning farmoni bilan nonpazlar sardorini filning oyog'i ostiga tashlab o'ldirishibdi, uning murdasini fil tishlariga bog'lab, shaharni aylantirishibdi». Yana bir hikoyat:

¹ *Mahkam Andijoniy*. Mahmud G'aznaviy. «Muloqot», 1992, 3–4-sonlar, 36–37-betlar.

Sulton Mahmud G'aznaviy badbashara, cho'tir yuzli, cho'chqa burun, bo'yni uzun, ko'sa bir kishi ekan. Bir kuni o'z hujrasida joynamoz ustida oynaga qarab o'tirsa, vaziri Shamsulmukofot Ahmad Hasan kirib keladi.

– Hozir, dilimdan nimani o'tganini bilasanmi? – so'raydi undan Sulton Mahmud.

– Uni xudoning o'zi biladi, – deydi Ahmad Hasan.

– Xalq meni basharamga qarab hurmat qilmay qo'yadi, debdi Sulton.

– Sen oltin, boyligni o'zingga dushman bilsang, undan qo'lingni yig'sang, xalq seni yaxshi ko'radi, – debdi vazir.

– Bu bir luqma so'zning ostida ming xil ma'no yotibdi, – debdi Sulton.

Shundan so'ng, Mahmud G'aznaviy to'plagan boylıkları hisobidan fuqarolarga mollar so'yib, har xil taomlar ulashish, xayriya qilishni odat qilibdi va bu narsa xalqning o'z Sultoniga nisbatan, hurmati va mehrini oshiribdi. Mahmud nihoyatda ustalik va mohirlik bilan davlat siyosati olib boradi. 999-yilda Nasr Qoraxoniylar Buxoroni egallagach, Mahmud Bag'dod xalifasi Qodir (991–1031)dan «Ile min ad daula va omin al milla», ya'ni «hokimiyatning o'ng qo'li va dindorlik jamoasining ishonchli vakili» u bilan birgalikda Xurosonni idora etishga vakolat ham oldi. Mahmud bu unvonga javoban xalifa Qodirning nomini xutbaga qo'shib jome masjidida o'qittira boshladi. Bu Mahmudning mustaqil siyosat yo'liga o'tganligigina bo'lib qolmasdan, balki uning obro'-e'tibori oshganligiga ham bir nishona edi.

1001-yilda Mahmud qoraxoniylar bilan o'z davlatining chegaralarini aniqlash maqsadida, Qoraxoniylar hukmdori Nasr bilan muzokaralar olib bordi va shartnoma tuzdi. Asosiy chegara chizig'i qilib Amudaryo belgilandi. 1005-yilda so'ngi somoniy Ismoil Muntasir qatl etilgach, ilgarigi somoniylar davlati o'rnida ikkita mustaqil davlat paydo bo'ldi: bittasi – Qashqardan Amudaryogacha cho'zilgan sharqiy Turkistonning bir qismini, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi Sug'd hududlarini ham o'z ichiga olgan Qoraxoniylar davlati, ikkinchisi – shimoliy Hindiston chegarasidan to Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha cho'zilgan hozirgi Afg'oniston va shimoli sharqiy Eron viloyatlarini ham o'z ichiga olgan g'aznaviylar davlati. Ammo qoraxoniylar bir necha bor o'rtadagi

sulh shartnomasini buzdilar. Mahmud Gʻaznaviy Hindistonda boʻlganligidan foydalanib, 1006 va 1008-yilda ular Xurosonga ikki marta yurish qildilar. Bu yurishlar davomida qoraxoniylar qoʻshini Balx Tus va Nishopur shaharlarini bosib oldi. 1008-yildagi Balx jangida Mahmud Gʻaznaviy qoraxoniylar ustidan uzil-kesil gʻalaba qozondi va Xurosonning hammasini, Chagʻoniyon va Xuttalon viloyatlarini batamom egalladi. Bu jangda Mahmud qoʻshini tarkibida 500 fil bor edi.

Sulton Mahmud Gʻaznaviy oʻz hukmronligi (998–1030) davrida yashin tezligida harakat qiladigan oʻz davrining qudratli qoʻshiniga tayandi. Islom dinini oʻziga gʻoyaviy bayroq qilib oldi, islom yoʻlida va himoyasida gʻazot urushlari olib bordi. Harbiy xizmatchilarning hammasi davlat hisobidan yetarli miqdorda maosh bilan taʼminlangandi. Taniqli olim Hamidjon Homidiyning yozishi-cha, «Sulton Mahmud davlat idora hayʼatida ham, viloyat hokimlari devonida-yu qoʻshinlar sarkardalari orasida ham qattiq intizom orqasidan jiddiy nazorat oʻrnatgan boʻlib, mahalliy hokimlarning ichki va tashqi ahvolidan maʼlumot yetkazib turuvchi maxsus mahkama tashkil etgandi. Uning qoʻshinida bir necha yuz jangovar fil-lar, qoʻrgʻonlarni qurshab olganda tosh, neft quyilgan idishlar, otadigan manjaniqlar, daryolarni kechib oʻtish uchun suzuvchi sollar boʻlgan ekan. Sulton lashkarining asosiy qismini harbiy hunarlar oʻrgatilgan qullar tashkil qilgani manbalarda qayd etilgan. Xullas, Sulton Mahmud eng zamonaviy qurollar bilan taʼminlangan, 32 harbiy hunar oʻrgatilgan, yuksak jangovor ruhdagi yuz minglab suvoriy va piyoda lashkarga ega edi»¹.

Metindek intizom, qattiqoʻllik va talabchanlik siyosatiga asoslangan Mahmud Gʻaznaviyning harbiy yurishlariga uncha-muncha kuch bas kela olmasdi. U Hindistonga 17 marta yurish qilib, Panjob, Kashmir va boshqa viloyatlarni egallab, behisob boyliklarni qoʻlga kiritdi. Mahmud Gʻaznaviyning lashkarlari bosib olingan shaharlardagi oltin haykallarni, ibodatxonalardagi qimmatbaho buyumlarni, minglab erkak-ayol asirlarni olib ketar edilar. Maʼlumotlarga koʻra, 1019-yilda Mahmud oʻz yurishlarining birida Kanauja shahridan 20 million dirham, 57 ming qul va 350 ta fil keltirgan. Keltirilgan asirlar sotilmagan ham, oʻldirilmagan ham, balki ularni dini islomga kiritib, yangi qoʻshinlar tuzganlar.

¹ «Oʻzbekiston ovozi», 1993, 26-oktabr.

Mahmud G'aznaviy 401 (milodiy 1010)-yili G'urlarga qarshi yurish boshlagan va faqat 405 (1015)-yilda G'ur viloyatini batamom egallashga muvaffaq bo'lgan.

Harbiy yurishlarda Mahmud G'aznaviy erishgan g'alabalar va qo'lga kiritilgan behisob boyliklar g'aznaviy davlatining obro'-e'tiborini tobora oshirib bordi. Hatto, qoraxoniylar xoni ham Mahmud bilan hisoblashardi. O'z navbatida, Mahmud ham harbiy yurishlarda xotirjam bo'lish uchun qoraxoniylar hukmdorlari bilan yaxshi muomala qilar va kelishardi. Mahmud G'aznaviy Samarqand va Buxoroda o'tirgan Iloqxon Alitakin bilan Qashqarda o'tirgan Tamg'achxon Qodir o'rtasidagi ziddiyatdan ustalik bilan foydalanishga harakat qildi va xonlar xoni Qodir yordamida qo'shnisi Alitakinni kuchsizlantirmoqchi bo'ldi. 1025-yilda Mahmud G'aznaviy bilan Tamg'achxon Qodir Samarqand yonida shaxsan uchrashdilar.

XI asrda yashagan fors tarixchisi Gardiziy «Zayn al axbor» kitobida ta'sirchan bir voqeani hikoya qiladi. Har ikki podshoh uchrashuv chog'ida bir-birlariga o'zaro mulozamatlardan so'ng, qimmatbaho javohir toshlarni sovg'a qiladilar. Mahmud G'aznaviy ana shu birinchi uchrashuvdayoq, Qodirxonning siyosiy diplomatiyada savodsizligi, sodda, qovushmagan va odam sifatida qo'polligini ko'rgach, ya'ni o'zining muomalasi, mehmondo'stligi, hashamati, boyligi va zeb-ziynatlari bilan lol qoldirmoqchi bo'ldi, u Qodirxon uchun oltinlar bilan bezatilgan katta kimxob chodir tayyorlattirib, uning ichki va tashqi tomonlarini hayratomuz bir tarzda yasattirdi, har xil taomlar va qimmatbaho sovg'alar tayyorlashga buyurdi.

Mehmon uchun tayyorlangan chodir haqiqatdan kutilganidan ham ortiqcha salobat va go'zallik bilan bezatildi. Qarorgohning birinchi xonasida ovqat yeyilar, ikkinchi xonada esa xursandchilik va ishrat qilinar edi. Mahmud tayyorlagan turli-tuman sovg'alar Qodirxonni lol qoldirdi: xilma-xil javohirlar, oltin, kumush qadahlar, tilla yuganli ajoyib otlar, urg'ochi fillar, guldor chodirlar, bebaho gilamlar... O'z qarorgohiga qaytib kelgach, Qodirxon bu bebaho sovg'alarni ko'rib, Mahmud G'aznaviydek saxiy va qudratli podshoh oldida uyalib qolmaslik uchun o'z qo'li ostidagi barcha boyliklarni to'plashga buyruq beradi. Qodirxon juda ko'p miqdorda pul, oltinlar bilan bezatilgan egar-jabduq va yuganli dul-dul otlar, oltin belboqli turk g'ulomlari, suvsar, oqsuvsar va qo'ra tulki mo'ynasi va boshqa boyliklarni yig'ib, Mahmud G'aznaviyga yuboradi. Bu Mahmud G'aznaviyning katta diplomatik g'alabasi edi.

Bu uchrashuvda juda katta siyosiy masalalar muhokama qilindi. Movarounnahrni Alitakindan qaytarib olish va uni Qodirxonning o'g'li Yigantakinga berishga o'zaro kelishadilar. Bu kelishuvdan xabar topgan Alitakin Movarounnahrni vaqtincha tashlab, Zarafshon daryosining eng qirg'og'idagi Nurota tumani hududlarida ko'chmanchi hayot kechirib yurgan Saljuqiy turkmanlar orasida jon saqlashga majbur bo'ldi. Bu hududlarda Saljuqning nabiralari Isroil, To'g'rul va Dovudlar egalik qilar edilar. Mahmud G'aznaviy qo'shinlari bilan Saljuqiylar o'rtasida jang bo'lib, Isroil asir olinadi. U garovga olinib, asir sifatida hind qal'alaridan biriga yuboriladi va shu yerda vafot etadi.

Mahmud G'aznaviy Alitakinni batamom tor-mor keltirishni aslida yurakdan istamas edi. Uning maqsadi Alitakinni biroz kuchsizlantirishdan iborat edi, xolos. Mahmud G'aznaviy uchun Alitakin o'rniga Qodirxon o'g'lining taxtga o'tirishi ma'qul emas edi. Chunki Movarounnahr taxtiga Yigantakinning kelishi Qodirxonning bevosita Mahmud G'aznaviy bilan yuzma-yuz bo'lishiga olib kelardi va oqibatda ular o'rtasida urush xavfi kuchayar edi. Biz ilgariroq Xorazm somoniylar hukmronligi davrida ham yarim mustamlaka sifatida o'z mustaqilligini saqlab qolganligini ta'kidlagan edik. Qoraxoniylar va Mahmud G'aznaviy davlatlari qaror topgandan keyin ham Xorazm bir chetda hech bir davlat tarkibiga kirmagan holda qolaverdi.

Xorazm geografik jihatdan juda qulay mintaqada joylashganligidan tashqari, nihoyatda boy o'lka edi. X asrning ikkinchi yarmida Xorazm ikkiga ajralgan edi. Shimoliy Xorazm – poytaxti Urganch bo'lib, bu yerda amir hukmronlik qilsa, janubiy Xorazm – poytaxti Qiyot bo'lib, unda shoh hukmronligi o'tnatilgan edi.

996-yili Shimoliy Xorazm hukmdori Ma'mun ibn Muhammad (995–997) bu mamlakatni bir butun davlatga birlashtirdi. Xorazm shoh unvonini qabul qilib, Urganchni poytaxt deb belgiladi. U o'zining butun diqqat-e'tiborini Xorazmning mustaqilligini ta'minlash va harbiy qudratini oshirishga qaratdi. Bu jarayon Ma'munning o'g'li Ali ibn Ma'mun (997–999) davrida ham davom etdi. Ali ibn Ma'mun vafot etgach, taxtga uning ukasi Ma'mun ibn Ma'mun (999–1017) o'tirdi va otasi hamda akasi yurgizgan siyosatni yanada rivojlantirdi. Albatta Mahmud G'aznaviy Xorazm mamlakatiga befarq qaramadi. U iloji boricha Xorazmni egallashga, hech bo'lmasa uni o'ziga qaram yoki vassal mamlakatga aylantirishga harakat qildi. Ammo Mahmud bu ishlarni nihoyatda ustalik va tinch

yo‘l bilan amalga oshira bordi. U o‘z singillarini Xorazmshoh Ali ibn Ma‘mun va uning ukasi Ma‘mun ibn Ma‘munlarga turmushga berdi va Xorazm bilan quda bo‘lib oldi.


Ammo voqealarning bu tarzda rivojlanib borishi Bag‘dod xalifasi Qodirni tashvishga solayotgan edi. U Xorazmning ham, Mahmud G‘aznaviyning ham kuchayishini istamas edi. Shu bois, Qodir ikki o‘rtada nifoq chiqarishga harakat qildi va ma‘lum darajada maqsadiga erishdi. Qodir Xorazmshoh Ma‘mun ibn Ma‘munga o‘z elchisi orqali faxriy kiyim va «Ayn Ad Daula va Zayn Al Milla», ya‘ni «davlat ko‘zi va dindorlar jamoasining ko‘rki» unvoni diplomini topshirdi. Albatta, bu voqea xalifa Qodirning rejasiga ko‘ra, Mahmud Gaznaviy g‘azablanishiga sabab bo‘lishi kerak edi. Xuddi shunday bo‘ldi ham. 1014-yilda Mahmud G‘aznaviy Xorazmdagi o‘z elchisi orqali Mahmud G‘aznaviy nomini juma namozida xutbaga qo‘shib o‘qitishni Xorazmshohdan talab qildi. Xorazmshoh og‘ir ahvolda tushadi. Shu bois, u ikki yoqlama siyosat olib boradi. Dastlab, Niso va Farovada Sulton Mahmud nomiga xutba o‘qildi. Qiyot va Urganchda bunday ishni amalga oshirishga Xorazmshoh jur‘at qila olmadi, qo‘rqdi. Bunday ikki yoqlama siyosat mamalakatni ham, xorazmshohning o‘zini ham saqlab qololmadi. Birinchi navbatda bu siyosatdan Xorazmdagi ayrim harbiy doiralar norozi bo‘ldilar. Beruniy bo‘lib o‘tgan voqealarga shaxsan guvohlik beradi. Uning bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, «Xorazmning eng kuchli qo‘shini Xazoraspda urushga tayyor turgandi. Bu qo‘shinga bosh hojib Alptegin Buxoriy boshliq edi. U «Biz Mahmudga bo‘ysunmaymiz!», deb Xazoraspdan Xorazm poytaxti Gurganchga qarab qo‘shin surdi. Yo‘l-yo‘lakay, yarash bitimiga imzo chekkan va Xorazmshohga shu masalada ijobiy maslahat bergan a‘yonlarni tutib o‘ldirishdi. Poytaxtni qamal qilib, oxiri shaharga bostirib kirishdi. Xorazmshoh o‘z ko‘shkida edi, isyonchilar uning ko‘shkini yoqib yuborib, o‘zini topib o‘ldirishdi. Bu paytda, Xorazmshoh o‘ttiz ikki yoshda edi, deb eslaydi Beruniy, Alptegin Xorazmshohni yo‘q qilgach, shohning jiyani bo‘lgan o‘n sakkiz yoshli Muhammad ibn Ali ibn Ma‘munni topib kelib, taxtga o‘tqazdi. Davlat ishlari Alptegin bilan vazir Ahmad To‘g‘on qo‘liga o‘tdi. «Hali dunyo ko‘rmagan yigitchani bir burchakka o‘tqazib, o‘zlari xohlagancha odamlarni o‘ldirib, mol-mulklari va boyliklarini tortib olib, saltanatni vayron qila boshladilar, – deb yozadi Beruniy.

– Kim kimga yoqmasa ularni Alptegin yordamida kuch bilan yo‘q qila boshladilar. To‘rt oy davomida ularning osmoni tiniq bo‘lib turdi. Ular o‘z qo‘llari bilan saltanat o‘yinini shu qadar vayron qildilarki, kofirlar mamlakatida ham musulmonlarga bunday yomonlik qilinmagan edi».

Beruniy bergan ma’lumotlarga qaraganda, Xorazmda bo‘layotgan bu voqealarga Mahmud G‘aznaviy befarq qarab turolmas edi. U 100 ming otliq piyoda askar va 500 fil bilan Xorazm ustiga yurish qildi. 1017-yilning 3-iyulida Xorazm poytaxti Qiyot egallandi. Xorazm Mahmud G‘aznaviy davlati ixtiyoriga o‘tdi. Xorazmshoh unvoni saqlab qolinib, Mahmudning harbiy sarkardasi, asli turk Oltintosh Xorazmga hokim qilib tayinlandi. Mahmud G‘aznaviy yosh Xorazmshohni va uning barcha oilaviy sulolasi a‘zolari hamda ulug‘ olim Beruniyni o‘zi bilan birga G‘azna shahriga olib ketdi. Ana shu tariqa, Xorazm mustaqilligiga barham berildi va Mahmud G‘aznaviy diplomatik va harbiy jihatdan katta muvaffaqiyatga erishdi. Ammo Xorazm g‘aznaviylarning qo‘li ostida uzoq qolmadi. Chunki 1030-yilda Mahmud G‘aznaviy vafot etgach, uning o‘rniga o‘tirgan o‘gli Mas‘ud qo‘shini 1040-yilda Marvdan sakson kilometr masofadagi Dandanakan degan joyda Saljuqiylar hukmdori To‘g‘rulbek tomonidan uzil-kesil tor-mor etildi.

Mag‘lubiyatga uchragan Mas‘ud zo‘rg‘a qochib, G‘aznaga keldi va ko‘p o‘tmay fitnachilar tomonidan o‘ldirildi. Taxtga Mas‘udning ukasi Muhammad o‘tirdi. Lekin Mas‘udning o‘g‘li Ma‘dud (1041–1048) Muhammadga qarshi urush boshlab, uning qo‘shinlarini yengdi va o‘zini o‘ldirib, G‘aznaviylar davlatining hukmdori bo‘lib, oldi. Ammo Sulton Mas‘udning vorislari G‘aznaviylar davlatining ilgarigi qudratini tiklashga muvaffaq bo‘la olmadilar. Asta-sekin o‘z qudratini yo‘qota boshlagan G‘aznaviylar davlati XII asrning oxirlarida Afg‘oniston hududlarida tashkil bo‘lgan yangi davlat – G‘uriylar tomonidan butunlay tugatildi. Aniqrug‘i, 1186-yilda G‘uriylar sulolasidan bo‘lgan G‘iyosiddin Muhammad qo‘shini Panjob viloyati bilan chekalanib qolgan G‘aznaviylar hokimiyatini uzil-kesil tor-mor qildi¹.

¹ Eshov B. O‘zbek davlatchilik tarixi. I qism. –T.: «Ma‘rifat», 2009, 250–251-betlar.

G'aznaviylar davlat boshqaruvida mansablar va xizmatlar¹¹ Eshov B. Ko'rsatilgan asar, 249- bet.

6. SALJUQIYLAR SALTANATI

X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning birinchi yarmi oraliq¹ida buyuk saljuqiylar davlati nomi bilan tarixga kirgan yana bir Turk davlati tarix xaritasida namoyon bo'ldi. Taniqli tilshunos olim Qozoqboy Mahmudovning fikricha, saljuqiylar ham Alptegin singari O'g'uz qabilasining Qiniq urug'iga mansub bo'lganlar¹. X asrda yashagan arab geografi ibn Haykalning bergan ma'lumotlariga qaraganda, islom dinini qabul qilgan mingga yaqin turk oilasi Sharqdan Forob, Kenjit va Shosh o'rtasidagi tumanga, ya'ni hozirgi Chimkentning janubi-g'arbiga ko'chib kelgan.

Bu turklar Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida yashagan sug'diylarning bir qismi bo'lishi mumkin. Shoshda O'g'uz elementlari shu qadar ko'p bo'lganki, jumladan, O'g'uzlar o'zbek og'zaki ijodida ham o'z aksini topgan. O'g'uzlar aslida qadimiy turk qabilasi bo'lganlar. Ular Mo'g'ulistonning shimoli sharqida shakllangan. O'g'uz mazkur qabilaning afsonaviy asoschisi hamda rahbari bo'lgan. Uning avlodlarini O'g'uzlar deb atashgan.

O'g'uzxonni afsonaviy qahramon sifatida tasvirlab yozilgan rivoyatlar va hikmatlar «O'g'uznoma» nomi bilan chop etilgan. XII asrda noma'lum bir shaxsda «O'g'uznoma»ning qadimiy ko'rinishlaridan bir nusxasi saqlanib qolgan. XIII–XIV asrlarda yashagan Rashid-id-Din uyg'ur alifbosida yozgan «O'g'uznoma»da O'g'uz xoni haqida ko'proq ma'lumotlar bergan.

O'g'uz – o'g' – qabila, urug' ma'nosini bergan, «uz» esa affiks qo'shimchadir. O'g'uz yakkaxudolikni – islomni yoshlik chog'idan qabul qiladi. Bu holat O'g'uzning otasi Qoraxonga yoqmaydi. Ikki o'rtada qattiq jang bo'lib, O'g'uzning otasi yengiladi. Turklarga mansub uyg'urlar O'g'uzxon tomoniga o'tadilar. O'g'uzxonning lashkarlari ko'payib, katta kuch to'plagan O'g'uz Talas va Sayram viloyatlarini ham bosib oladi. Volga daryosigacha boradi.

IX asrning oxiri va X asrning o'rtalarida Orol bo'yi va Kaspiy bo'yida O'g'uzlar ittifoqi shakllanadi. X asrda Sirdaryo etaklarida O'g'uzlar davlati tashkil topadi. Tashkil topgan davlatning poytaxti Yangikent deb ataladi.

XI asrning o'rtalarida bu davlat sharqdan kelgan qipchoqlar tomonidan tor-mor qilinadi. O'g'uz qabilalarining bir qismi g'arbga, rus dashtlariga joylashgan. Boshqa qismi esa saljuqiylar boshchiligi-

¹ *Maxmudov Q.* Turkiy qavmlar taqdiri. «Fan va turmush», 1990, 12-son, 20-bet.

da Old Osiyo mamlakatlarini istilo qiladilar va hozirgi Turkmaniston yerlariga o'tadilar. Yozma ma'lumotlarga qaraganda, O'g'uzlarning islom dinini qabul qilib, yerli xalq bilan aralashib ketgan qismi turkmanlar deb atalgan. Mahmud Qoshg'ariy (XI asr), Rashid-id-Din (XIII–XIV asr), Abulg'ozii (XVII asr)larning xabar berishicha, O'g'uzlar 22 yoki 24 qabiladan iborat bo'lgan. Bular: chovdir, chandir, yemreli igdir, yazir, salir, qoradoshli, bayet, koyi, tuturga va boshqalardir.

Sirdaryoning quyi oqimida barpo bo'lgan O'g'uz davlatining yobg'usi Saljuqbek (Mahmud Qoshg'ariyning asarida Seljuqbek) saljuqiylar xonadonining asoschisi edi. Saljuqbekning nabiralardan To'g'rulbek, Chag'irbek va Shakarbeklar saljuqiylar davlatini saltanat darajasiga ko'tarishda katta xizmat qildilar. O'g'uzlar, nafaqat, o'zbeklar va turkmanlarning, balki hozirgi Turkiya turklari, Iroq turkmanlari, Eron turkmanlari, Gagauzlar, Ozarbayjon xalqining ham tashkil topishiga yetakchi etnik guruh bo'lganlar.

Saljuqiylar dastlab, quyi Sirdaryo hududidagi Jand tumanlari atrofida chorvachilik qilib, ko'chib yurganlar. Ammo bu yerning hokimi Shohmalik bilan urushib qolib, Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'iga – Nur (Nurota) tumaniga ko'chib ketishga majbur bo'ladilar. Bu tuman hududlarida ko'chib yurishga somoniylar ruxsat bergan edilar. Somoniylar saljuqiylar bilan yaxshi, tinch-totuv yashashdan manfaatdor edilar. Chunki Saljuqiy turklar qoraxoniylarga qarshi kurashda somoniylarga yordam berardilar. Biroq bu yordamga juda ishonib ham bo'lmasdi.

Ammo XI asrning birinchi yarmida turkman – saljuqiylarning ahvoli juda og'irlashib qoldi. Chunki qoraxoniylar bilan birga Movarounnahr, shu jumladan, Zarafshon vodiysi hududlariga ham chigillar, qarluqlar, yag'molar va boshqa turk qabilalari ko'chib keldilar. Ularning ko'chib yurishlari va chorva mollari uchun joy, yaylovlar kerak edi. Movarounnahrda Iloqxon Alitakin hokimlik qilib yurgan (1034-yilda u vafot etgan) davrda saljuqiy turklarga unchalik teginmas edilar. Alitakin vafotidan so'ng, uning o'g'illari yosh bo'lganligidan butun ishni vazir Tunush olib borardi. Tunush davrida saljuqiylar Zarafshon vohasini tashlab ketishga majbur bo'ladilar. Ana shunday og'ir bir sharoitda Xorazmshoh Xorun 1034-yilda saljuqiylarga Raboti Masxon, Sho'raxona va Govixar tumanlaridan yer ajratib berdi. Biroq Jand hokimi ularga hujum qilib, 8 ming kishini o'ldirdi. To'g'rulbek boshliq saljuqiylar bu yerlarni

tashlab ketishga majbur bo'ldilar. Ular Mahmud G'aznaviyning o'g'li Mas'udbekka (1030–1041-yillarda podsholik qilgan) murojaat qilib, o'zlariga Saraxs, Marv, Abiverd, Niso va Farova hududlarida ko'chib yurishga rozilik so'radilar. Chunki bu tumanlar chorva mollari uchun juda qulay joylar edi.

G'aznaviyilar ilgarilari ham bu hududlarni saljuqiy turkmanlarga berib oqibatda achchiq azoblar chekkan edilar. Jumladan, 1025-yilda Mahmud G'aznaviyning ruxsati bilan Abiverd, Niso va Farova tumanlariga 4 ming o'tovdan iborat turkman xonadonlari ko'chib kelgandilar. Ular mahalliy amaldorlarning shaxsiy manfaatlari uchun pora tariqasida mol topshirishni talab qilganliklariga javoban, oddiy xalqni talay boshlaydilar. Bu hol turkmanlar bilan mahalliy qo'shni qishloqlar xalqlari o'rtasida g'oyatda kuchli dushmanlikning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Natijada, o'z qilgan xatosidan afsuslangan Mahmud G'aznaviy turkmanlarni tartibga chaqirish uchun harbiy kuchni ishga solishga majbur bo'ldi. Shundan so'ng turkmanlar bu yerlarni tashlab ketdilar. Ularning bir qismi Balxan tog' tumanlariga, ikkinchi qismi Dehiston tumanlariga, katta bir guruh esa G'arbgga – Fors Iroqi, u yerdan Kavkaz orti, Arman va Ozor yurtlariga ko'chib ketdi.

Shunga qaramasdan, g'aznaviyilar hukumati To'g'rulbek boshchiligidagi turkmanlarning iltimoslarini qondirib, 1035-yilda Nishopurda imzolangan shartnomaga ko'ra, Niso, Farova va Dexiston tumanlarini ajratib berdilar. Ammo bu safar ham saljuqiy turkmanlar dehqonchilik bilan shug'ullanadigan mahalliy o'troq xalq bilan umumiy til topa olmadilar. Ular og'izda o'troq aholi bilan tinch yashash tarafdori bo'lsalar-da, amalda G'aznaviyilar hukumatidan yangi-yangi yerlarni talab qilishda davom etdilar. Xususan, ular Marv va Saraxs yerlarini qat'iylik bilan talab qildilar. Otasi singari Mas'ud ham turkmanlarga qarshi harbiy kuch ishlatishga majbur bo'ldi. Lekin vaziyat g'aznaviyilar zarariga ishlayotgan edi. Xurosonda ularning obro'-e'tibori qolmagan, shu bois, ular hech kimga tayana olmas edilar. Jumladan, g'aznaviyilarning so'nggi noibi Abulfozil Suriyni Xuroson xalqi haddan tashqari yomon ko'rar edi. U o'zining poraxo'rliigi, qo'polligi, do'q-po'pisa qilib, har doim mansabini suiiste'mol qilganligi tufayli otning qashqasiday elga tanilib qolgandi. XI asrda yashagan fors tarixchisi Bayhaqiy Xuroson aholisi g'aznaviyilar qo'shinining aholi hisobiga yashayotganidan va ularning xalqqa qilayotgan zo'ravonligidan shu darajada qiynalib azob

chekkan ediki, Xurosonga saljuqiy turklar kelganda bu o'lka o'z boshidan to'liq beboshlikni kechirayotgan edi, deb yozgan edi.

Ana shunday sharoitda g'aznaviylar saljuqiylarga qarshi kurashda muvaffaqiyatga ko'z tika olmas edilar. Mas'ud armiyasining Saraxs yonidagi mag'lubiyatining bosh sababi ham xuddi ana shu edi. Endi turkmanlar uchun Xurosonning bosh shahri Nishopurga to'g'ridan to'g'ri yo'l ochilgan edi. Saljuqiylarning boshlig'i To'g'rulbek 1038-yilda 3 ming kishilik qo'shin bilan deyarli hech qanday qarshiliksiz Nishopurni egalladi. Nishopurlik ruhoniylar va savdogarlar shaharni mutlaqo jangsiz topshirish tarafdori bo'lganliklarini alohida ta'kidlamoq o'rindidir.

Ammo bu bilan Xurosonning taqdiri uzil-kesil saljuqiylar foydasiga hal bo'ldi, deb xulosa chiqarishga hali vaqt erta edi. Buning ustiga xuddi shu 1038-yilda Mas'ud Saraxs yonidagi navbatdagi jangda saljuqiylarga katta zarba ham berdi. Ammo u ushbu g'alabaga ortiqcha baho berib, urushni davom ettirmadi. Bu bilan Mas'ud saljuqiylarga o'z kuchlarini yangidan, qayta to'plab olishga imkoniyat yaratib berdi. 1040-yilda To'g'rulbek Saraxs va Marv oralig'idagi Dandanakan yonida Mas'ud qo'shiniga qaqshatqich zarba berdi. Mas'udning o'zi esa kichik bir qo'shin bilan zo'rg'a qochib qutuldi. Bu jang oqibatida g'aznaviylar davlati mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan bir viloyatga aylanib qoldi, harbiy va siyosiy ustunlik endi batamom saljuqiylarga o'tib ketdi, g'aznaviylardan tortib olingan yerlarni To'g'rulbek saljuqiylar xonadonining a'zolariga udel sifatida taqsimlab berdi. Chagribek Davudga Marv va Xurosonning katta qismi, Muso Yobg'uga (To'g'rulbekning amakisi) Tus, Hirot va Seyston viloyatlari berildi. To'g'rulbek o'ziga Eronning shimoliy va shimoli g'arbiy viloyatlarining katta qismini oldi. To'g'rulbek ayni zamonda, Saljuqiylar davlatining boshlig'i (1038–1063) ham bo'lib qoldi. Uni xususiy mulk uncha qiziqtirmasdi. To'g'rulbekning nigohi batamom g'arbga qaratilgan edi. U hujumni davom ettirib, Iroq Ajami (Fors Iroqi), Ozarbayjon, Kurdiston, Ko'histonni zabt etdi, To'g'rulbek 1055-yilda Bag'dodga kirib bordi va o'z nomini xutbaga qo'shib o'qitishga Bag'dod xalifasini majbur qildi. Saljuqiylar davlatining poytaxti qilib, Ray shahri belgilandi. To'g'rulbek iloji boricha, Qoraxoniylar bilan hamkorlikda va tinch yashashga harakat qildi. Ammo bu mustahkam bo'lmagan tinchlik va uzoqqa cho'zilmaydigan hamkorlik edi. Har ikkala turk sulolasini to'qnashuvga olib janjalli muammolar kelib chiqdi.

1063-yilda saljuqiylar davlatining asoschisi To'g'ulbek vafot etgach, taxtga uning jiyani Chag'ribek Dovudning o'gli Alp Arslon (1063–1072) o'tirdi. U davlat poytaxtini Marv (hozirgi Mari)ga ko'chirdi. Alp Arslon podsholigi davrida qoraxoniylar hukmdori Nasr bilan o'zaro qarama-qarshilik va ziddiyat kuchaydi. Alp Arslon Xuttalon, Chag'oniyon, Jand va Savranga Xorazm tomonidan lashkar tortib bordi. U 1072-yilda qoraxoniylarga qarshi yurish boshlab, qariyb 200 ming kishilik qo'shinni Amudaryodan o'tkazish uchun kemalardan maxsus ko'priq qurdirdi. Ammo yurish boshlanishi oldidan Alp Arslon o'z chodirida mahalliy qal'alarning boshliqlaridan biri Yusuf al-Xorazmiy tomonidan o'ldirildi. Qoraxoniylarga qarshi yurishni kechiktirishga to'g'ri keldi.

Alp Arslonning o'ldirilishi qoraxoniylar xoni Shams ul-mulk Nasrning ruhini ko'tarib yubordi va tez orada Termizni, so'ngra Balxni egallab oldi. Ammo bu xursandchilik ko'p uzoqqa cho'zilmadi. Alp Arslon o'rniga taxtga vorislik qilgan Malikshoh (1072–1092) ko'p vaqt o'tkazmay, Termiz va Balxni qoraxoniylardan qaytarib oldi. Ana shu davrdan boshlab, ichki va tashqi siyosatda ustunlik batamom saljuqiylar qo'liga o'tdi. Endi har daqiqada Shams ul-mulk Nasr Malikshoh hujumidan xavotirda qo'rqib yashaydigan bo'lib qoldi. 1080-yilda Shams ul-mulk vafot etgach, vaziyat yanada og'irlashdi. Shams ul-mulk vafotidan so'ng, podsholik qilgan uning o'g'li Ahmad davrida musulmon ruhoniylari va turk lashkarboshilari o'rtasida munosabat og'irlashdi, mamlakatning ichki ahvoriga bu hol o'z ta'sirini ko'rsatdi. Vaziyatdan xabar topgan Malikshoh 1089-yilda katta lashkar bilan Amudaryodan o'tdi va Buxoro hamda Samarqand shaharlarini egalladi. Qoraxoniylar xoni Ahmad asir olindi. Ahmad bilan Malikshoh o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralardan so'ng, Ahmad Samarqandga qaytdi va taxtga o'tirdi. Ammo bu hol Samarqandda ruhoniylar va lashkarboshilarning noroziligiga sabab bo'ldi. Turkiy sarkardalar 1095-yilda Koson, yo'lida Ahmadni qo'lga olib, yoy-ip bilan bo'g'ib o'ldirdilar. Uning o'rniga taxtga Mas'udxon chiqdi.

Malikshoh hukmronligi davrida vazirlik lavozimida ishlagan Nizom ul-mulk (1017–1092) davlat ishlarini boshqarishda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan. U davlat arbobi sifatida mamlakatda yirik feodallar va qabila boshliqlarining separatli (Markaziy davlatni ajratishga intilish) harakatlariga qarshi kurashgan. Markazlashgan davlat uchun astoydil jon kuydirgan. Nizom ul-mulk o'zining

«Siyosatnoma» asari bilan mashhur. Bu asarda Oʻrta Osiyoda arablar istilosidan soʻng, yuritilgan iqtoʻ tanqid qilinadi. Markazlashgan davlatni barpo qilish har tomonlama asoslanadi.

1092-yilda saljuqiylar xoni Malikshoh ham oʻldirildi. Saljuqiylar davlatida isyon va gʻalayonlar boshlanib ketdi. Bu isyon va gʻalayonlar hokimiyat tepasiga 1118-yilda – «ulugʻ saljuqiylar»ning eng soʻnggi vakili Sulton Sanjar (1118–1157) kelgach, tinchidi. Uning davrida saljuqiylar Movarounnahrda eng yuksak mavqega erishdilar. Bu davrda saljuqiylar qoraxoniylar davlatining ichki ishlariga juda koʻp aralashadigan boʻlib qoldilar. Qoraxoniylar xoni Arslonxon (1102–1130) oʻzi mustaqil davlat siyosati yurgizishga harakat qilgan boʻlsa-da, ana shu davrda inqiroz sari yoʻl tutdi. Ogʻir ahvolga tushib qolgan Arslonxon doʻst boʻlib yordamga turkman Sultoni Sulton Sanjarni chaqirgan edi. Sulton Sanjar katta qoʻshin bilan kelib, Movarounnahr va Samarqandni talon-taroj qilgan edi, Samarqandni Sulton Sanjar 1130-yilda egallagan va qoraxoniylar oʻzlarining amaldagi mustaqilliklarini yoʻqotib, Sulton Sanjarga qaram boʻlib qolgandilar. Sulton Sanjarning oʻzi ham 1141-yilda qoraxitoylar bilan Katvan choʻlida (Samarqand yaqinida) boʻlgan jangda qaqshatqich zarbaga uchradi va oʻzini oʻnglab ololmaydi. U 1157-yilda vafot etdi. Ana shu tariqa, dunyoni larzaga solgan saljuqiylar davlati ham barham topdi.

7. XORAZMSHOHLAR DAVLATI

Oʻrta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotida Qoraxoniylar davlati muhim oʻrin tutganligi va yangi bosqichni boshlab berganligini yuqorida taʼkidlagan edik. Koʻchmanchi turkiy qabilalarning oʻtroqlashuvi, ularning yerli xalqlar bilan qoʻshilib, qorishib ketganliklari yangi tarixiy rivojlanish jarayonlariga sabab boʻldi. Shaharlar oʻsdi, hunarmandchilik va savdo taraqqiy etdi, madaniyat kamol topdi. Feodal tarqoqlik va uning oqibati oʻlaroq Qoraxoniylar, Gʻaznaviylar va Saljuqiylar davlatlari qulaganidan soʻng, Buxoro va Xorazm yirik ijtimoiy-siyosiy va madaniy markaz sifatida oʻsa bordi.

Buxoro Oʻrta Osiyoda eng yirik diniy markaz sifatida shuhrat topdi. Buxorodagi madrasalarda faoliyat koʻrsatgan ruhoniylar oʻz taʼsirlarini nafaqat diniy yoʻl bilan oshirdilar, balki ular Ayni za-

monda, g'oyat katta moddiy boyliklarni ham qo'llarida to'plagan edilar. Masjidlar, madrasalar, xonaqolar va boshqa diniy muassasalarning vaqf mulklari shu darajada ko'payib ketdiki, yuqori mansabli Buxoro ruhoniylari juda katta yer egalariга aylandilar. Ular endi hatto, davlat hokimiyati – qoraxoniylarga ham qarshi kurasha boshladilar.

Buxoroda qoraxoniylar davlati qulagandan so'ng, ruhoniy feodallarning o'ziga xos sadrlar deb ataluvchi sulolasi ana shu tariqa, paydo bo'ldi. Ular Buxoro diniy jamoalarining rahbari va ayni zamanda, Buxoro shahrining raisi ham edilar. Sadrlar Buxoroda faqat ruhoniy hokimiyatinigina emas, balki dunyoviy hokimiyatni ham o'z qo'llariga olgan edilar. Ular eng katta yer egalari, Buxoro atrofida-gi eng yaxshi mulklarning xo'jayinlari edilar. Shahardagi eng qimmatli mulklar – do'konlar, karvonsaroylar, hammomlar, tegirmon-objuvozlar ham sadrlarniki hisoblanardi. Bundan tashqari, masjid, madrasa va xonaqolarning mulklariga ham sadrlar egalik qilganlar. Hatto, Buxoro shahrining hunarmandlari ham sadrlarga qaram bo'lgan. Bu hol Buxoroda sadrlar mavqeyini haddan tashqari oshirib yuborgandi. Sadr Burxoniddin avlodidan bo'lgan Abdulaziz davrida Buxoro Qoraxoniylar davlati tarkibida o'zini mustaqil xonlik sifatida hisoblagan.

Qoraxoniylar hokimiyati qulashining ikkinchi oqibati Xorazmning yuksalishi bo'ldi. Xorazm XII–XIII asrlarda shu darajada yuksaldiki, u dunyoning eng ulug' davlatlaridan biriga aylandi.

Xorazm XI asrda va XII asrning birinchi yarmida saljuqiylar davlati tarkibida edi va faqat saljuqiylarga qarshi kurashda yuksala olardi. Ammo agar o'sha davrda Qoraxoniylar davlati tushkin holatda bo'lmaganda, Xorazm rivojlana olmasdi. Chunki u ham saljuqiylarga ham qoraxoniylarga qarshi kurash olib borishi kerak bo'lardi.

Xorazmning boyliklari XI asrda ham ortib boraverdi. Xorazm hunarmandlari Movarounnahrda-gi barcha shaharlardan ustun mavqeda turar edilar. Savdo sohasida ham xorazmliklar oldinda bo'lganlar. Mustahkam qo'rg'onlarda yashagan Xorazm dehqonlari tobora rivojlanib bordilar. Saljuqiylar saroyi amaldorlaridan biri bo'lgan turkiy o'g'uzlarning Bekdili qabilasidan bo'lgan Anushtegin sulolasiga mansub xorazmshohlar Xorazmning ana shu ustunligidan foydalandilar. Anushtegin asli o'smirlik chog'ida qul bo'lgan. Ko'p o'tmay uning iqtidori, zakovatini ko'ra bilgan saljuqiylarning ko'zga ko'ringan amirlaridan sipohsolar Izzatiddin Onor

Bilgetegin (1098-yilda o'ldirilgan) uni sotib olib, saroy xizmatiga qo'ygan. Anushteginga omad yor bo'lib, ketma-ket amal pog'onalarida ko'tarila boshlagan. Shaxsan Sulton Malikshoh (1072 – 1092) toshdori, so'ng, xorazmshoh ijaradoriga aylangan. 1097-yilda Anushtegin vafotidan so'ng, Sulton Berkyoruq uning o'g'li Qutbiddin Muhammadni Xorazm taxtiga (1097–1127) qo'yadi. Biroz vaqt o'tgach, unga «Xorazmshoh» nisbati beriladi. U 30 yil mobaynida Sulton Sanjarga sodiqlik bilan xizmat qiladi, uning rahbarligida olib borilgan barcha janglarda faol qatnashadi. Ayni zamonda, Qutbiddin Muhammad Xorazm farzandi sifatida mamlakatning har jihatdan taraqqiy etishi, qudrati oshishi uchun ko'p kuch sarfladi. Xullas, Xorazmda Anushteginlar sulolasining qaror topishi bevosita ana shu Xorazmshoh Qutbiddin Muhammadning nomi bilan bog'landi.

Qutbiddin Muhammad vafot etgach, Sulton Sanjar sodiq vasalining ulkan xizmatlarini nazarga olib hech bir ikkilanmasdan va e'tirozsiz uning o'rniga 29 yoshli o'g'li Qutbiddin Muhammad ibn Aloviddin Jaloliddin Otsizni (1127–1156) Xorazm taxtiga qo'ygan.

Otsiz Xorazm tarixida alohida o'ringa ega bo'lgan shohlardan. U buyuk davlat arbobi, mohir va usta diplomat, botir va dovyurak sarkarda edi. Otasi kabi o'z davrining o'qimishli kishisi bo'lib, saljuqiylar davlatining poytaxti Mavrdagi madrasalarda tahsil ko'rgan, ilm-fan, san'atni g'oyat qadrllovchi din arboblari va fuqarolarga g'amxo'r shoh sifatida tanilgan. Otsiz badiiy ijod sohibi ham bo'lgan, fors tilida qasidalar va ruboiylar yozgan, juda ko'plab she'rlarni yoddan bilgan. U Xorazm aholisi o'rtasida adolatli va jonkuyar hukmdor sifatida tanilgan edi. Xorazmshoh Otsiz o'zining butun bilimi, iqtidori va qobiliyatini Xorazmning mustaqilligiga qaratdi, bu oliyjanob, ezgu niyat yo'lida Sulton Sanjarning har bir zaif qadami va kamchiliklaridan mohirona foydalandi. U mustaqil tashqi siyosat olib bordi. Otsiz davrida Xorazm xalqi hech qanday xavf-xatarsiz farovon hayot kechirdi. Buni biz Otsiz saroyida maxsus kotib (kotib alxoss) bo'lib ishlagan Rashiduddin Al-Votvot (to'liq ismi Muhammad ibn Abdujalil al-Umariy) xatlari orqali yaqqol ko'ramiz: «Xorazm shu darajaga borib yetdiki, u qo'rqqan va xavf-xatarga tushganlar uchun bexatar makon, elma-el kezib yuradiganlar uchun maskan, qochgan-quvilganlarga manzilgoh, darveshlar uchun panoh joy bo'lib qoldi. Odamlar Xorazmga har tarafdin o'z kulfat-u musibatlaridan iztirobga tushib, xasrat-u nadomatlaridan qalblari kuyib-yonib najot izlab kelardilar-u, bu joydan barcha illatlari shifo

topgan, dard-u alamlari bartaraf boʻlgan, jamiyki yumushlar tashvishlaridan qutulgan holda qaytardilar. Olloyi taologa – bu oʻlkaga keng koʻlamli bunday ulugʻlig-u bu darajadagi oliy himmatni muvassar koʻrganligi uchun behad hamd-u sanolar boʻlsin»¹.

Albatta, Otsiz ham ota-bobosiday oliy markaziy hokimiyatga sodiq xizmat qilishda davom etgan. Bu chorasiz tutilgan taktik yoʻl edi. Voqealarning keyinchalik, rivojlanib borishi jarayoni vassal bilan Sulton oʻrtasida keskin burilish yasashga olib keldi. Bu voqea 1136–1138-yillarda sodir boʻlgan edi. Gap shundaki, oliy markaziy hukmdor Sulton Sanjar butun Xurosondan tortib, Movarounnahr hamda to Qashqargacha boʻlgan yerlarda shohlik taxtini soʻrardi. Xuddi ana shu davrda oʻz vassali boʻlgan Otsizning shon-shuhrati, qudrat mavqeyi va taʼsir doirasining kun sayin oshib borayotganligi saljuqiylar Sultoni Sanjarni bezovta qiayotgan edi. Buni Bagʻdodda taxtda oʻtirgan xalifa Al-Mustajid (1118 –1135) va undan keyingi xalifa Al-Muktovfiy (1136 –1160)lar yaxshi bilar edilar. Shuning uchun, ular, ayniqsa, Al-Muktovfiy ulugʻ Sulton bilan vassal Xorazmshohni oʻzaro bir-birlariga gij-gijlab urushtirib bundan oʻz manfaatlari yoʻlida foydalanish uchun qulay vaqt va fursat poylar edilar. Buni xalifa al-Muqtovfiy tomonidan Xorazmshoh Otsizning janglardagi botirligi, jasoratini ulugʻlab yozgan xatlari, yuborgan qimmatbaho kiyim sarposi va sovgʻalari hamda Otsizni Xorazm hududlarining toʻla hukmdor ulugʻ Sultoni sifatida tan olib joʻnatgan yorligʻidan ham bilsa boʻladi. 1141-yildan eʼtiboran, Otsiz oʻz nomidan mustaqil suratda oltin tangalar zarb qildirib boshlaydi.

Otsiz birinchi marta vassallik shartlarini buzib, 1130-yilda Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan Jand va Mangʻishloq (Mangʻit qishloq)ni bosib oladi. Sulton Sanjar esa buni oʻziga nisbatan isyon deb biladi va boshqa vassallari ham Otsizdan ibrat olmasin, deb uni jazolashga qaror qiladi. U Xorazm ustiga qoʻshin tortib boradi. Shafqatsiz jangda Otsiz yengilib, jon saqlash uchun qochadi: Xazoras ostonasidagi muhorabada Xorazmshohning oʻgʻli Otliq (tarixchi Mirxond Otsizning oʻgʻlini El Kutlugʻ deb yozadi) qoʻlga tushadi va shaxsan Sulton Sanjarning buyrugʻiga binoan shamshir bilan belidan qoq ikkiga boʻlib tashlanadi. Xorazmshoh Otsiz oʻgʻli uchun uzoq vaqtlarga qadar iztirob chekadi.

Vassalni jazolagan Sanjar Xorazm taxtiga jiyani Sulaymonshohni qoʻyadi, ammo oʻzi esa bu yerda uzoq qola olmaydi. Bundan foyda-

¹ *Uvatov U.* Rashiduddin Al-Votvot maktublari. – «Guliston», 1991-yil, 11-son, 13-bet.

langan Otsiz qo'shin to'plab shahar xalqining qo'llab-quvvatlashi va himoyasi ostida Sulaymonshohni haydab yuboradi. Mohir diplomat Xorazmshoh shu zahotiy oq Sanjardan kechirim so'raydi va unga sodiqlik izhor qilib, noma yuboradi. Albatta Otsiz anoyilardan emas edi. U vaziyatni hisobga olib, 1139-yilda Jurjon viloyatidagi Kobudjon va Buxoroga hujum qilib, Sanjarning Buxorodagi noi-bi va yaqinlaridan bo'lgan amir Zangi ibn Alini qatl etadi. Sanjar bu voqeani o'g'li Otlig uchun o'ch olish deb baholaydi. Bu safar u Otsizga nisbatan keskin choralar ko'rmaydi. Bunga sabab ayni shu paytlarda Movarounnahrda Sharqdan yana bir dahshatli kuch – qoraxitoylarning bostirib kelayotganligi bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Qoraxitoylarning qaysi xalqqa mansubligi to'g'risida olimlar o'rtasida har xil fikrlar mavjud. Ba'zilar ularni to'ng'o'zlardan kelib chiqqan desalar, boshqalari esa mo'g'ullarning avlodlari deb isbotlamoqchi bo'ladilar. Qanday bo'lganda ham qoraxitoylar qariyb 40 ming chodirlik taxminan 150–200 ming kishilik ko'chmanchi xalq bo'lib, ular XII asrda dastlab, Chiguchak va uning atroflarida joylashdilar. Ular shu yerdan turib janubi g'arb tomosha hujum qilib bordilar va qoraxoniylar poytaxti Bolosog'unni egalladilar. Bolosog'un (Qirg'iziston respublikasi hududida) shahrini qoraxitoylar poytaxt qilib, belgiladilar. Ular bu yerdan turib, g'arbg'a – Shosh, Farg'ona, Zarafshon va Qashqadaryo hududlariga hujumlar uyushtirib, Xorazmshohlar hududlariga ham tahdid sola boshladilar. Ana shunday og'ir paytda, Otsiz qoraxitoylarga murojaat qilib, arab tarixchisi Ibn-al Asirining yozishicha, ularni boylikka to'la, gul-lab yashnagan Sul-ton Sanjar yerlariga yurishga undagan. U kuchli Qoraxitoylar qo'shini bilan kurashishga tayyor emasligini ongli su-ratda sezib, qoraxitoylarga yiliga 30 ming dinor to'lab turish maj-buriyatini olgan¹ va bu bilan o'z mamlakatini ko'chmanchilar huju-midan saqlab qolgan.

Qoraxitoylarning Sanjar yerlariga birinchi marta hujumi 1128-yil-da Sharqdan Qashqarga bostirib kirish bilan boshlangan. O'shanda Saljuqiylar Sul-tonining vassali bo'lgan qashqar xoni Ahmad ibn al-Hasan bu hujumni qaytargan edi. Ammo keyinchalik, qoraxitoylar qirg'iz va uyg'urlarni o'zlariga tobe qilib, ancha kuchga to'lgach, o'sha 1137-yilda Movarounnahrda bostirib kiradilar. Sanjarning eng yaqin qarindoshlaridan biri – Samarqand hokimi Mahmud Ibn Arslonshoh Xo'jandda mag'lubiyatga uchrab, Samarqandga qocha-

¹ *Бартолд В. Сочинения. Том 5. М.: «Наука», 1968, «Кара Кятай», стр. 544.*

di va Sulton Sanjardan yordam so‘rab murojaat qiladi. Saljuqiylar Sultoni qoraxitoylarga qarshi olti oy puxta tayyorlandi va o‘ziga qarashli bo‘lgan Seiston, G‘ur, G‘azna va Mozandaron kabi vassal viloyatlardan 100 ming qo‘shin to‘pladi. U eng avvalo, bu urushning asosiy aybdori qarluqlarni jazolamoqchi bo‘ldi. Chunki qarluqlar Samarqand xonligiga vassal bo‘lib, unga qarshi bosh ko‘targan va qoraxitoylardan Harbiy yordam so‘ragan edilar. Bu hol qoraxitoylarning Movarounnahr hududlariga bostirib kirishlari uchun yetarli bahona edi. Sulton Sanjar qarluqlarni jazolay olmadi. Chunki ular Qoraxitoylar go‘rxoni (hokimi) Elyuy Ta – Shi (1124–1143) himoyasiga o‘tib ketdilar.

Go‘rxon Elyuy Ta – Shi Sulton Sanjarga xat yozib, qarluqlarning gunohidan o‘tib kechirishni va ularga teginmaslikni so‘radi. Bunga javoban, Sanjar Go‘rxondan islomni qabul qilishni qat‘iy talab qilib qo‘ydi. Aks holda qoraxitoy hukmdoriga 100 ming kishilik Sulton qo‘shini bilan uchrashishiga to‘g‘ri keladi, deb dag‘dag‘a qildi. Sulton qo‘shinlarining har xil quollarini mohirona ishlatishga yaxshi o‘rgatilganliklarini alohida ta‘kidlash bilan birga Sanjar shu narsani ham yozgan ediki, «uning qo‘shinlari yoy o‘qi bilan soch tolasini ikki qismga bo‘lib, yuboradilar»¹, degan edi. Qoraxitoy go‘rxoni xatni o‘qigach, Sanjar elchisining soqolini qirdirib uning qo‘liga nina tutqizdi va soqolidan bir tolani olib elchiga ninani to‘laga kiritishga buyurdi. Elchi bu vazifani eplay olmagach, go‘rxon elchiga karab:

– Sen elchi bo‘la turib qo‘lingdagi ninani to‘laga kirita olmasang, boshqalar qanday qilib yoy o‘qi bilan soch tolasini ikkiga bo‘lib yubora oladi, – degan.

Qoraxitoylarda ham 100 ming kishilik qo‘shin bo‘lgan. Har ikki o‘rtadagi jang 1141-yil 9-sentabrda Samarqandga yaqin Katvon dashtligida bo‘ldi. Bu jangda Sulton Sanjar va Mahmud ibn Arslonshoh qo‘shinlari batamom tor-mor qilindi. Sanjar qo‘shinlaridan 30 ming jangchi halok bo‘ladi, uning o‘zi Mahmudxon bilan Termizga qochdi². Sulton Sanjarning barcha mulki, xon qarorgohi, uning xotini Turkon xotin qoraxitoylarga o‘lja bo‘lib tushadi. Qoraxitoylar Samarqanddan so‘ng, Buxoroni ham egallaydilar. Deyarli butun Movarounnahr qoraxitoylar qo‘liga o‘tadi.

¹ Буниятов З. М. Государство Хорезмшахов – Ануштегинидов, стр.14.

² Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Часть 2. Санкт-Петербург, 1900, стр 349.

Xorazmshoh Otsiz Sanjarning yengilganligini eshitib, bundan ustalik bilan foydalanadi. U fursatni g'animat bilib, 1141–1142-yillarda Xurosonga bostirib kiradi. Seraxsni ishg'ol etgach, Sanjarning yo'qligidan foydalanib, saljuqiylar poytaxti Marvni, Nishopurni egallaydi.

Qoraxitoylarga qarshi jangda muvaffaqiyatsizlikka uchragan Sulton Sanjar Marvga qaytgach, o'z vassali Xorazmshoh Otsizning beodoblaricha qilgan xatti-harakatlarini kechirmadi. U yana ikki marta – 1143–1144 va 1147-yil noyabrida Otsiz ustiga qo'shin tortib bordi. Otsiz o'z qilgan gunohlari uchun ulug' Sultondan kechirim so'rab, Sanjar hukmronligini tan oldi. Ikki o'rtada yarash bitimi imzolanadi.

1152-yil aprelda Xorazmshoh Otsiz uchinchi marta Jand ustiga qo'shin tortib boradi va uni egallab katta o'gli Abul Fath el Arslonni u yerda hokim qilib tayinlaydi. Bu safar Sulton Sanjar o'z vassalining xatti-harakatiga befarq qaradi. (Qoraxitoylar bilan bo'lgan jang davomida Jand Xorazmshoh davlatidan qaytarib olingan edi.) Buning asosiy sababi shundaki, Sulton Sanjar endi ancha kuchsizlanib qolgan edi. Endi u Otsizni o'ziga yana qarshi oyoqda turg'izishni istamas edi. Buning ustiga Sulton Sanjar uchun yana ham xavfliroq raqiblar qilich qayrab turar edilar. Bu eng avvalo, Qoraxitoylar va G'uzlar (turkmanlarning avlodlari) hisoblanardi. Sanjar 1153-yil aprelda g'uzlarga qarshi og'ir jangga kirdi va o'zi asirga tushdi. Ana shu davrdan e'tiboran davlat sifatida saljuqiylar hukmronligi inqiroz sari yuz tutdi. Saljuqiylar va Sulton Sanjar uchun eng og'ir bo'lgan ana shu vaziyatdan Xorazmshoh Otsiz yana foydalandi, o'z yerlarini kengaytirdi. Hatto, Sanjarga qarshi g'uzlarga homiylik qildi. Otsiz Balx g'uzlari yo'l boshchilaridan biriga yozgan xatida g'uzlar bilan Sanjar o'rtasida vositachi bo'lishni taklif qilganligi haqidagi ma'lumot bor. 1156-yilda Sulton Sanjar asirlikdan qochganda, Otsiz darhol o'z taktik yo'lini o'zgartirib uni ozodlikka chiqqanligi bilan tabriklaydi va o'zining ulug' Sultonga sodiqligini izhor etadi. Ammo Sulton Sanjar saljuqiylar davlatining shuhratini tiklay olmadi va 1153-yilda olamdan o'tdi. 1156-yili Xorazmshoh Otsiz ham vafot etdi.

Xorazm xalqining asl farzandi Otsiz Xorazmni mustaqil davlatga aylantirish uchun astoydil harakat qildi. Biroq u Xorazmni to'la mustaqillikka olib chiqa olmadi. Ammo Otsizning xizmatlari zoye ketmadi. U boshlagan ulug' ishlarni Otsizning farzandlari va avlodlari davom ettirdilar.

Otsizdan soʻng, Xorazm taxtiga uning oʻgʻli El Arslon (1156–1172) oʻtirdi. U otasiga qaraganda, ancha qulay vaziyatlarda ish olib bordi. Bu qulay vaziyatlar nimalardan iborat edi. Avvalo, saljuqiylar davlati Sulton Sanjar vafotidan soʻng, asosan, yashashdan toʻxtadi. Faqat koʻchmanchi gʻuzlar unda-bunda oʻz beboshliklarini davom ettirmoqda edilar. Qoraxoniylar esa afsonadagidek qoʻgʻirchoq davlatchalar – bekliklarga aylanib qolgan edilar. Demak, Xorazmning mustaqil taraqqiyotiga toʻsqinlik qila oladigan va xavf soladigan biror-bir aniq kuch qolmagan edi. Faqat maʼlum darajada bunday xavf qoraxitoylar tomonidan kelishi mumkin edi. Ammo El Arslon Xurosondagi bunday qulay vaziyatdan yetarli darajada foydalana olmadi. Albatta, u Xurosonni oʻziga qaratdi. Ozorlar yurtida mustahkamlanib oldi. Abxar, Zanjan, Kazvin shaharlarini egallab, u yerdan ikki ming zotdor tuyalarni oʻz yurtiga olib ketdi. El Arslon qoraxitoylarga qarshi urushlar olib bordi. Yozma manbalar El Arslonning bosiq va ogʻir diplomat, uzoqni koʻra oladigan va musulmon xalqlari birligi uchun kurashgan davlat arbobi boʻlganligini koʻrsatadi. Bu borada akademik V. Bartoldning «Qoraxitoylar va Xorazmshohlar» nomli asaridagi xulosalari gʻoyatda qimmatlidir. Uning taʼkidlashicha, Bagʻdod xalifasi Xorazmshoh El Arslonga chopar yoʻllab, uni Saljuqiy Sulton Muhammad ibn Mahmudga qarshi kurashga undab gijgijlaydi. Ammo Xurosondagi voqealarning rivojlanib borishini ziyraklik bilan kuzatib borayotgan va mohir diplomat Xorazmshoh El Arslon Xalifa al-Mukrafiyga yozgan javob xatida, gʻayridinlar Sulton Sanjar vafotidan foydalanib, Xuroson yerlariga oʻz hujumlarini kuchaytirayotgan va musulmonlarni qiy-ratayotgan bir paytda, Xuroson yerlarini gʻayri dinlardan himoya qila oladigan yagona shaxs Sulton Gʻiyosiddin Muhammad ibn Mahmuddir, deydi. U nomasida Xalifani insof, diyonatga chaqiradi, eski ginalarni unutib, Sulton Mahmud bilan yarashish va musulmon kuchlarni birlashtirishga daʼvat etadi.

El Arslon 1172-yilda vafot etadi. Bundan foydalangan qoraxitoylar Xorazmga bostirib kiradilar. Mamlakat taqdiri uchun gʻoyatda ogʻir va qiyin boʻlgan ana shu paytda Xorazm taxtiga El Arslonning oʻgʻli Takash (1172–1200) oʻtirdi. Xorazmshohlar davlati uning davrida oʻz tarixida eng yuksak choʻqqiga koʻtarildi va buyuk davlatlardan biriga aylandi. Biroq bu yoʻlda Takash oʻz hukmronligining boshlangʻich davrlarida juda katta qiyinchiliklarni yengib oʻtishiga toʻgʻri keldi. Bu keyinchalik eng avvalo, oilaviy, urugʻchilik qi-

ylinchiligi edi. Hali El Arslon hayotligi paytida, Takashning og‘asi **Sultonshoh** merosxo‘r deb e‘lon qilingan edi. U 1172–1193-yillar **davomida** roppa-rosa 20 yil o‘z birodariga qarshi taxt uchun kurashdi. Faqat 1193-yilda Takash og‘asining so‘nggi tayanchi Saraxsni **egallab**, o‘rtadagi ixtilofga chek qo‘ydi. Ikkinchidan, tashqi qiyinchilik edi. Bir tomondan qoraxitoylar va ikkinchi tomondan G‘ur podshosi G‘iyosiddin Muhammad xavf solib turardi. Ayniqsa, G‘iyosiddin Muhammad xavfli edi. Chunki u Old va O‘rta Sharqda **buyuk** davlat barpo qilish orzusida bo‘lib, bu borada Takashga qaraganda, qulayroq imkoniyatga ega edi. G‘iyosiddin Muhammad asli tojik bo‘lib, Hirot sharqidagi tog‘li G‘ur viloyatining Sultoni edi. Saljuqiylarning batamom zaiflashib qolganligidan foydalanib, u 1175-yilda Hirot shahrini bosib oladi. Xurosonning boshqa tumanlariga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. G‘urlar xorazmliklarga qaraganda, shu jihatdan ustun mavqega ega edilarki, ularning birorta podshoga qaramlik yoki bog‘liqlik tomonlari yo‘q edi. Ularning jangari tog‘liklar va turklardan tashkil topgan intizomli va jangovar qo‘shinlari bor edi. Aytmoqchimizki, g‘urlar mutlaqo mustaqil va erkin bo‘lganlar. Xorazmliklar esa qoraxitoylarga qaram bo‘lib, ulardan batamom mustaqil bo‘lish uchun qattiq kurash olib borayotgan edilar. Ammo bu qiyinchiliklarga qaramasdan, Xorazmshoh Takash otasi va xususan, bobosi tanlagan yo‘lni – buyuk va mustaqil Xorazmni barpo etish yo‘lini dadillik bilan davom ettirdi. Buxoro va Movarounnahrqa qarshi uyushtirilgan yurishlari muvaffaqiyatli yakunlanmagan bo‘lsa-da, uning ruhi tushmadi. Chunki bu ishga qoraxitoylar to‘sqinlik qildilar. Takash jangovar jangchi suvoriylar izlab qipchoqlar huzuriga boradi. Qipchoqlar xoni Jonkishi Turkon xotinning qiziga uylanadi. Qipchoqlarning Bayet qabilasidan bo‘lgan bu qiz o‘zi bilan birga Xorazmga uroniylar, qarluqlar, ug‘raklar va halajlar singari yirik turk qabilalarini boshlab, keladi. Takash XII asrning 80-yillarida Xurosonda ro‘y bergan ichki nizolardan ustalik bilan foydalandi. U 1187-yilda Nishopurni, 1192-yilda Rayni, 1193-yilda Marvni egalladi, 1194-yilda Saljuqiylar Sultoni To‘g‘rulbek II ga qaqshatgich zarba berdi. Bu jangda To‘g‘rulbek o‘ldirildi. Butun sharq va g‘arbiy Eron hududlari Takash qo‘liga o‘tdi va Xorazmshohlar davlatining yerlari deyarli ikki baravardan ortiq kengaydi. U bevosita g‘urlar va abbosiy xalifalar bilan chegaradosh bo‘lib qoldi. Bu hol albatta xalifa Nosirni bezovta qilmoqda edi. Buning ustiga xalifa saljuqiylarning batamom zaiflashib qolganligi-

dan foydalanib, o'z xalifaligi hududlarini kengaytirish niyatida edi. Nihoyatda sezgir va uzoqni ko'ra biladigan davlat arbobi Takash 1194-yilda xalifalik qo'shinlarini tor-mor keltirdi. Xorazmshoh lashkarlari Iroqqa xo'jayinlardek kirib bordilar va uni egalladilar.

Shu tariqa, Xorazmshoh Takash o'z davri uchun g'oyatda buyuk davlatga asos soldi, uning xalqaro maydonidagi obro'-e'tibori va mavqeyi oshdi, Takash davlati harbiy feodal davlati edi. Uning doimiy xizmatdagi qo'shinlari 150 ming kishidan iborat bo'lgan. Yana zahirada ham 200 ming atrofida qo'shin bo'lib, uni bir necha kun mobaynida to'plash mumkin edi. Yuz ming atrofida to'planishi mumkin bo'lgan xalq ko'ngillilari albatta bu hisobga kirmaydi. Bulardan tashqari, Xorazmshohning 10 ming kishidan iborat shaxsiy lashkari ham bo'lgan. Xorazmshohlar davlatining bunday ulkan qo'shini, asosan, turklarda tashkil topgan bo'lib, qabilaviy belgilar asosida shakllangan edi. Bunday katta lashkarni Muqaddam deb ataluvchi qo'mondon boshqargan. Asosan, qarluqlardan tayinlangan bu lavozim kishisi eng sadoqatli, jasur bo'lishi va hukmdorning singillari yoki jiyanlaridan biriga uylanishi kerak bo'lgan. Katta lashkar o'n ming kishilik qo'shinlar bo'linmasi orqali boshqarilgan. Uning lashkarboshisi Malik deb yuritilgan. Askarlar o'rtasida tashviqot-targ'ibot masalalariga katta e'tibor berilgan. Jangchilarni moddiy rag'batlantirish maqsadida, yangi bosib olingan hududlardan ularga bir qismi iqto tarzida bo'lib berilar va shu tariqa yuqoridan turib mulkdor dehqonlar jamoasi yaratilar edi.

Xorazmshohlar qo'shini o'z zamonasi uchun g'oyatda kuchli hisoblanar va o'z davrining eng yaxshi qurollari bilan jihozlangan edi. Bu qo'shinlarda odatdagi qurollardan tashqari, qamal mashinalari ham bo'lgan. Bular orasida harakatchan minoralar, taranlar, hujum narvonlari ajralib turgan. Z.M. Buniyotov bular Takash yorlig'iga ko'ra, «olovdan dahshatliroq, shamoldan ko'ra tezroq edi»¹, – deydi.

Xorazmshohlar davlatining siyosiy tizimi ancha samarali davlat qurilmasiga tayanardi va unda devon bosh idora hisoblanardi. Uning tepasida turgan vazir davlatning ichki va tashqi siyosatini o'z qo'l ostidagi xodimlar orqali amalga oshirar edi. Takashning xotini Turkon xotin tufayli Xorazmga kelgan turk zodagonlari va qipchoqlar davlatning barcha mas'uliyatli lavozimlarini va qo'shinda qo'mondonlik o'rinlarini egallaydilar.

¹ Буниятов З. М. Государство Хорезмшахов – Ануштегинидов, стр. 47.

Xorazmshohlar savdo ishlariga alohida e'tibor bilan qarab g'amxo'rlik qilganlar. Shu boisdan, bu yerda ichki va tashqi savdo rivoj topgan. Tashqi savdoda Xitoy, Andalo'ziya, Janubiy Rossiya, yaqin Sharq mamlakatlari yetakchi o'rinda bo'lganlar. Xorazm hunarmandchiligi qadimdan mashhur. Bu davrda ham hunarmandchilikning 50 dan ortiq turlari chet ellarda yuqori baholangan.

Xorazmshohlar dehqonchilik madaniyatini rivojlantirish, sug'orish inshootlari va kanallar qurilishiga alohida e'tibor bilan qaraganlar. Bu yerda dehqonchilikning hamma turlari va bog'dorchilik bilan bir qatorda chorva mahsulotlari yetishtirishga ham katta e'tibor berilardi.

1200-yil 3-iyulda Xorazmdan Nishopurga boradigan yo'lda Xorazmshoh Takash vafot etadi. Bu hol Takash shoh bo'lgan ulkan saltanatda tartibsizliklar, beboshliklar o'zboshimchalikdan iborat harakatlar uchun bahona bo'ldi. Iroq poytaxti Bag'dodda xorazmliklarga qarshi qo'zg'olon va qirg'in boshlandi. G'urlar Janubda Saraxs, Naus va Abiverdni bosib oldilar.

Xorazm taxti uchun kurash ham avjiga chiqdi. Takashning o'rniga 1200-yil 3-avgustda uning o'g'li Aloviddin Muhammad taxtga chiqdi. Bundan norozi bo'lgan Muhammadning o'gay og'asi, Nishopur hokimi Hinduxon taxt uchun kurashish maqsadida, qo'shin to'plash uchun Marvga jo'nab ketdi. Ammo bir muammo bor ediki, u ham bo'lsa Takashning xotini va Aloviddin Muhammadshohning onasi Turkonxotin edi. Davlat faoliyatining ham asosiy kaliti uning qo'lida bo'lib, Muhammad faqat rasmiy hukmdor edi, xolos. Asosan, turklardan tashkil topgan qo'shin Turkonxotiga bo'ysunardi. Harbiy boshliqlar moliya boshqarmasi uning o'z urug'i – bayotlardan edi. Uning qo'lidagi muhrda «Umidim faqat Alloxdan» degan yozuv bor edi. Bu muhr hatto, Xorazmshoh Muhammad muhridan qudratli edi. U nihoyatda qattiqqo'l edi. Chet ellik elchilarni o'zi qabul qilar, diplomatik munosabatlarni hal qilardi. Turkon xotinning yaqin qarindosh-urug'lari deyarli barcha faxrli davlat ishi lavozimlarini egallab oldilar. Samarqand shahrining boshlig'i Turkon xotinning og'asi To'g'ayxon, O'tror shahrining noibi uning qarindoshi Inolchiq (Inalchiq) bo'lgan.

Muhammad Xorazmshoh onasiga batamom tobe edi. Turkon xotinning aytgani-aytgan, degani-degan bo'lgan. Kimni qaysi lavozimga qo'yishni faqatgina u hal qilardi. Bundan turk zodagonlari foydalandilar. Xorazmshohning vaziri Turkonxotinning sobiq g'ulomi edi.

Muhammad Xorazmshohning kenja farzandi O'zloqshoh taxt vorisi deb e'lon qilindi. Ayni chog'da hali oq-qorani unchalik farqlay bormaydigan yosh go'dak voris O'zloqshoh Xorazm, Xuroson va Mozandaron noibi etib tayinlandi. (Bu yurtlar ham Turkonxotinning mulklari hisoblanardi.) Boisi O'zloqshohning onasi Turkonxotinning urug'idan bo'lgan. Ayni zamonda, Muhammad Xorazmshohning katta o'g'li Jaloliddin Manguberdi (Manqaburun) esa chekkadagi kichkina bir viloyat – G'urning (Hirotsiz) hokimligiga tayinlandi. Chunki uning onasi Oychuchuk boshqa urug'dan edi. Bu hol turk Harbiy sarkardalarining ikki guruhi – Jaloliddinning onasi Oychuchuk va Turkonxotin qarindoshlari o'rtasida avjlanib ketgan tarafkashlik kurashiga sabab bo'ldi va bu buyuk Xorazm halokatini tezlashtirgan omillardan edi.

Turkonxotinning butun qalbi, vujudini o'zga mamlakat va xalqlarga qarshi lashkarlar tortib borish, o'zga yurtlarni talash, boshqa xalqlarni qullik asoratiga solish, boylik va davlat to'plash, unga bo'ysunmaganlarni osish, chopish va Amudaryoga cho'ktirish g'oyasi qamrab olgan edi. Makkor va zolim ona izmidan chiqa olmagan Xorazmshoh Aloviddin Muhammad o'zining 20 yillik hukmronlik davrini faqat urushlar, jang-u jadallar bilan o'tkazdi. U 1202-yilda Marv, Nishopur va Saraxsni egalladi. 1204-yil yanvarda Hirotni qo'lga kiritgan Muhammad 1206-yilda o'zining asosiy raqibi bo'lgan qudratli g'urlar davlatiga qaqshatqich zarba berib, Balx va Termizni bosib oldi.

Endi Muhammad qoraxitoylar tazyiqidan qutulish va ular bilan orani ochiq qilib olish uchun bahona izlayotgan edi. Bunday bahona ham tezda topila qoldi. 1206-yilda Buxoroda Sadr Muhammad ibn Abdulazizga qarshi xalq qo'zg'olon ko'tardi. Buxoro xalqi Muhammad ibn Abdulazizning «Sadri jahon» unvonini masxaralab, «Sadri jahannam», deb atadi. Qo'zg'olonga qalqon yasovchi hunarmand Malik Sanjar boshchilik qildi. Sadr Muhammad oilasi bilan najot izlab homiysi qoraxitoy gurgoni o'rniga bordi. Biroq u qoraxitoylardan Buxoro hukmronligini sadrlarga qoldirish kerakligi to'g'risidagi yorliqdan bo'lak hech narsa olmadi. Qoraxitoy gurgonlariga qarshi hujumga bahona izlab yurgan Muhammad 1207-yilda qo'zg'olonni bostirish uchun Buxoroga lashkar tortib bordi va shaharni egalladi. Xorazmshoh Buxoroni egallab, uning ichki va tashqi devorlarini tikladi. Buxoro aslzodalari uni qo'llab-quvvatladilar va Xorazmshoh tomoniga o'tdilar. Buxoro Xorazmshoh tarkibiga

qo'shib olindi. Qo'zg'olon boshlig'i Malik Sanjar Xorazmga olib ketildi. U ancha vaqt Xorazmshoh saroyida yashadi va ko'pgina tantanalarda qatnashdi. Muhammad Buxoroni egallagach, qoraxitoy gurgonlariga qarshi urushga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Shu paytda, qiziq voqea ro'y beradi. 3. M. Buniyotovning ma'lumotiga ko'ra, 1209-yilda Urganchga navbatdagi o'lponni yigish uchun qolgan Gurgon vakili Tushi hech bir yuzxotir qilmay, hech bir qoidaga rioya etmay, andishasizlarcha to'g'ri kelib, Xorazmshoh yoniga taxtga o'tiradi. «Sabr kosasi to'lgan Xorazmshoh Tushini burda-burda qilib, tashlashga va u bilan kelgan hamrohlarini ham qatl etib, murdalarini Amudaryoga tashlashga amr etgan»¹.

Bu voqeadan so'ng, Xorazmshoh vaqtni qo'ldan boy bermasdan, qoraxitoylar asoratidan batamom ozod bo'lishga qaror qiladi va ular ustiga lashkar tortadi. Bu paytda, Chingizxon ta'qibidan qochib Mo'g'ulistondan Yettisuv viloyati tomon chekingan naymanlar sardori Kuchlik qarluqlar bilan birlashib, qoraxitoylarga qattiq zarba beradi. U 1210-yilda hatto, Gurgonning O'zgardagi xazinasi ni ham qo'lga kiritadi. Bunday qulay vaziyatni to'g'ri baholagan Muhammad o'z vassali, Samarqand hukmdori Usmon ibn Ibrohim bilan birlashib, Yettisuv tomon qo'shin tortadi. Bu paytga kelib gurgonlar o'zlarini ancha o'nqlab olgandilar va hatto, Kuchlik bilan bo'lgan yangi jangda g'alaba ham qozongan edilar. Muhammad bilan qoraxitoylar o'rtasidagi dahshatli jang Tolos daryosi vodiysida 1210-yil fevralda bo'ladi. Jangda Xorazm askarlari katta talafot ko'rgan bo'lsalar-da, qoraxitoylar mag'lubiyatga uchraydilar, ularning qo'mondoni Tayangu asir olinadi. Natijada, Xorazm davlatining hududlari XIII asr boshlarida yanada kengaydi va Yettisuvgacha bo'lgan yerlar uning tarkibiga qo'shib olindi. Xorazm to'la mustaqillikka erishdi. Biroq qo'lga kiritilgan bu muvaffaqiyatlar Xorazmshoh: Aloviddin Muhammadni esankiratib qo'yadi. O'zini dunyoda eng qudratli, yengilmas shoh deb hisoblay boshlaydi. Qoraxitoylar ustidan qozongan g'alabasiga Muhammad uzugining ko'ziga «Sulton Xudoning yerdagi soyasi» degan so'zlarni yozdirgan bo'lishiga qaramasdan, «Sulton Sanjar» unvoni bilan yurgan bo'lsa-da, yana o'zini qo'shimcha «Iskandari soniy» («Ikkinchi Iskandar») deb ham atay boshlaydi. U xorazmshoh va Islom bayrog'i ostida kofirlarga qarshi muqaddas urushlar e'lon qiladi. O'zga mam-

¹ Бунятов 3. М. Государство Хорезмшахов – Ануштегинидов, стр.75.

lakatlar xalqlariga yuborgan yorliqlarida, Aloviddin Muhammad o'zini islom xomiysi sifatida kutib olib, uni da'vat etadi. Holbuki, u o'z mamlakatida zulm-zo'ravon qilishni haddan tashqari kuchaytirdi, xalq qo'zg'olonlarini shafqatsizlarcha bostirdi. Bu jihatdan 1212-yildagi Samarqand qo'zg'oloni yorqin misol bo'la oladi. Gap shundaki, Xorazmshoh qoraxitoylar ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasiga minnatdorlik ramzi sifatida qizi Xonsultonni Samarqand hukmdori Usmon ibn Ibroximga 1210-yilda katta to'y qilib, beradi. Muhammad kuyovini ham o'zi bilan birga Urganchga olib ketadi. Usmonning yo'qligidan foydalangan samarqandliklar Xorazmshohga qarshi 1211-yilda qo'zg'olon ko'taradilar. Chunki, Xonsulton bilan Samarqandga kelgan xorazmliklar askarlari shaharda juda ko'p bezoriliklar qiladilar va xalqni talaydilar. Voqeadan xabar topgan Xorazmshohning kuyovi Usmon qo'zg'olonchilar tomoniga o'tdi. U hamma xorazmlik askarlarni qirib tashlashga buyruq berdi. Bu borada Usmonning o'zi namuna ko'rsatdi. U o'zi va xotini bilan birga kelgan xorazmliklarni bitta qo'ymay qilichdan o'tkazdi. U Xorazmshohning qizi Xonsultonni ikkinchi xotini qoraxitoy gurgon qiziga cho'ri qilib qo'ydi. Ammo Xonsulton xorazmshohga sodiq bo'lgan kuchlar yordamida Urganchdan shoh kuchlari yetib kelgunga qadar Samarqanddagi qal'a ichida boshpana topa oldi. Xorazmliklarni qirib bitirgan Usmon gurgonga elchilar yuborib, Samarqandni unga topshirishga tayyor ekanligini bildirdi.

Xorazmshoh Aloviddin Muhammad g'azabining cheki yo'q edi. U darhol Samarqandga lashkar tortdi va jang bilan 1212-yilda shaharni egalladi. Qo'zg'olonchilardan dahshatli o'ch olin-di. Samarqand shahri uch kun olov ichida yondi. O'n ming odam qilichdan o'tkazildi. Asirga olingan Samarqand hokimi Usmon ibn Ibrohim xotini – Xorazmshoh qizi Xonsultonning talabi bilan osib o'ldirildi. Barcha qoraxitoylar urug'lari va Usmonning avlodlari bit-ta qo'ymay qirib tashlandi.

Aloviddin Muhammad erishgan yengil g'alabalari qarshisida shu darajada mag'rurlanib, taltayib ketdiki, endi u o'zini qo'yarga joy topa olmay qoldi. Xorazmshoh buyuk saltanat tuzish istagi bilan yonardi. U ushbu maqsadni amalga oshirish ishtiyoqida o'z xalqini taladi, boshqa davlatlarga qarshi islom bayrog'i ostida muqaddas urushlar olib bordi. Islom himoyachisi va xalqlar xalokori Muhammad nomi shu qadar keng tarqalgan ediki, butun-butun davlatlar unga deyarli jangsiz taslim bo'lar edilar.

Xorazmshoh qo‘shinlari 1215–1217-yillar davomida Kermon, Belujiston, Makrom, Urmuz, Fors Iroqi, Mozandaron, Arron, Ozor yurti Shirvon va boshqa hududlarni egalladi. Xorazm ulug‘ saltanat hududlari Iroqdan Hindistongacha va Orol dengizidan to Hind okeanigacha cho‘zilib ketgan edi. Xorazmning XIII asr boshlaridagi mavqeyi haqida mashhur rus tarixchisi S. P. Tolstov bunday yozgan edi: «Xorazm yerlariday keng va aholi ko‘p yashaydigan joy dunyoning hech bir yerida bo‘lmasa kerak deb o‘ylayman, buning ustiga aholisi mashaqqatli hayotga va oz narsaga qanoat qilishga o‘rganib qolgan. Xorazmning aholi o‘rnashgan aksari joylari, bozorlari, g‘amlab qo‘yilgan narsalari va do‘konlari bo‘lgan shaharlardir. Aholi o‘rnashgan joylar ichida bozori yo‘qlari kamdan kam topiladi. Shu bilan birga, bu yerlarda xavfsizlik va tinchlik-xotirjamlik hukmrondir»¹. Bu jumlar aslida arab sayyohi va geografi Yoqut Hamaviynikidir. U mo‘g‘ullar istilosi arafasida Xorazmda bo‘lgan va o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlarini yozgan. Uning bergan ma‘lumotlariga qaraganda, Xorazm davlati XIII asr boshlarida juda katta hududlarni o‘z doirasiga qamrab olgan va bu hududda 400 shahar bo‘lgan ekan. Ana shu shaharlarning gultoji albatta Xorazmshohlar davlatining poytaxti Urganch bo‘lgan. Hamaviy yozadi: «Boylklarning mo‘lligi va poytaxtining kattaligi, aholisining ko‘pligi, yaxshilikka yaqinligi hamda din va mazhab buyurgan narsalarni bajarishi jihatidan dunyoda Xorazmning bosh shahriga o‘xshash shahar bo‘lmasa kerak» (yuqoridagi manba). Bu fikrni Urganchga sayohat qilgan fors tarixchisi Al-Kazaniy ham yanada bo‘rttiribroq tasdiqlaydi: «Gurganch jannatdagi shahar va kuyovning uyida kelinni tasvirlovchi farishtalar e‘tiborini qozongan go‘zal shahardir»².

Xorazm, ayniqsa, Takash va Aloviddin Muhammad davrida yuksak cho‘qqilarga ko‘tarildi. Bunday katta saltanat juda ko‘p sonli va qudratli qo‘shin kuchi bilan yaratildi. Xorazmshoh qo‘shini umumiy soni to‘g‘risida turlicha ma‘lumotlar bor. Jumladan, Sibt ibn Al-Javziy 1217-yilda xorazmshoh 400 va hatto, 600 ming qo‘shinga ega bo‘lgan, deb yozsa, An-Nasaviy faqat sarbozlarning o‘zi 400 ming kishidan iborat edi, shu jumladan, uning safida 70 ming qoraxitoylar ham bor bo‘lgan, deydi. Ba‘zi mualliflar esa Xorazmshoh Muhammad lashkarlari sonini 300 ming atrofida deb hisoblashadi. Ammo Irbil hokimligining elchisi bo‘lgan Muzaffariddin

¹ Tolstov S.P. «Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab». – T.: «Fan», 1964, 293-bet.

² Буниятов З. М. Государство Хорезмшахов – Ануштегинидов, стр.102.

Gekborining (1190–1233) bergan ma'lumotiga qaraganda, Aloviddin Muhammad 1211-yilda qoraxitoylarga qarshi urushganda faqat otliq askarlardan 400 ming kishini jangga tashlagan. Mo'g'ullar hujumi arafasida Xorazmshoh ixtiyorida 400 ming otliq qo'shin bo'lgan, O'trorda 20 ming, Benaket viloyatida 10 ming, Samarqandda 110 ming askar bor edi. Bundan tashqari, Seiyston, Balx, Jand, Xuttalon, Qunduz va Yorkentda ham kattagina miqdorda lashkar saqlanar edi¹.

Xorazm saltanatining katta kuch va qudratiga ishongan va o'zining yengilmas lashkarboshilik qobiliyatiga haddan ziyod baho bergan Muhammad endi Bag'dod ustiga yurish, xalifaning o'zini ham Xorazmshohga tobe qilish va o'z nomini xalifalik markazida xutbaga qo'shib o'qitirishga azm-u qaror qildi. U Bag'dodni egallashiga shak-shubha qilmasdi. Bag'dodni egallagach, Aloviddin Gurjistonni, so'ngra Vizantiya, Shom yurti va Misrni qo'lga kiritish ishtiyoqida edi.

Orzuga ayb yo'q, degan naql bor xalqda. Xorazmshoh ham katta orzu-umidlar og'ushida Bag'dodga qarshi yurish uchun zo'r tayyorgarlik ko'rdi.

1217-yilning kech kuzida Xorazm saltanatining ulkan lashkarlari Bag'dod sari yo'lga chiqdi. Bu qo'shin ba'zi mualliflar ma'lumotiga qaraganda, 600 ming, An-Nasaviyning xabariga ko'ra, faqat otliq askarlar sonigina 400 ming kishidan iborat bo'lgan. Ammo toleyi kulib boqmasa, yo'l yo'q ekan. Qo'lga kiritilgan muvaffaqqiyatdan noshukur Xorazmshohga iqbol kulib boqmasdi. Uning lashkarlari Xulvon yaqinidagi Asobod dovoniga yaqinlashgan ham ediki, kutilmaganda yoqqan qor uch kecha-yu uch kunduz tinmadi. Hammayoqni izg'irin sovuq qopladi. Xorazm askarlari sovuqdan tutdek to'kildilar. Oppoq qorlar usti o'liklar bilan qopladi. Tuyalar, otlar qirilib ketdi. Jangchilarning tirik qolganlarining quloq-burunlarini sovuq oldi. Nachora, xudoning irodasi. Ammo Aloviddin Muhammad har onda dahshatli bo'lishiga qaramasdan, Bag'dod sari yurishni davom ettirish niyatida edi. Biroq 1218-yil 10-fevralda Xorazmdan kelgan chopar navbatdagi shum xabarni keltirdi. Bu xabarga ko'ra, Sharqdan mo'g'ul-tatar lashkarlari Chingizxon rahnamoligida Movarounnahrda hujum boshlagandilar. Buni bilgan Xorazmshoh Muhammad Bag'dod yurishini to'xtatib, 1218-yil martda Movarounnahrda qaytdi. Lekin u Urganchga bormadi, balki

¹ Буниятов З. М. Государство Хорезмшахов – Ануштегинидов, стр. 86.

Samarqandga keldi. Urganch Turkon xotin ixtiyorida edi. «Otingni jangga sol, taqdiringni Allohdan ko‘r» deganlaridek Aloviddin Muhammadning ham taqdirini Mo‘g‘ullar bilan bo‘ladigan jang hal qilar edi. Albatta, bu jangning oqibati xudo bergan aql-zakovatni qanday qilib ishga solishga ko‘p jihatdan bog‘liq edi.

Nazorat savollari

1. Ko‘chmanchi turkiy qabilalar tarkibiga qanday xalqlar kirgan?
2. Turkiy xalqlarning kelib chiqishi haqida fikrlaringiz.
3. Markazlashgan davlatlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan omillar nimalardan iborat?
4. Tohiriylar davlatining paydo bo‘lishi qanday yuz bergan?
5. Somoniylar kimlar va ularning boshqaruv tizimi qanday bo‘lgan?
6. Somoniylar davrida ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayot darajasini ko‘rsata olasizmi?
7. Qoraxoniylar davlatining tarix sahnasiga kelish sababalari nimalarda namoyon bo‘ladi?
8. Qoraxoniylar davrida ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayot nimalarda ko‘rinadi?
9. G‘aznaviylar davlati va hukmronlik yillarini aniq bilasizmi?
10. Saljuqiylar davlatining parchalanish sabablari nimalardan iborat?
11. Xorazmshoh kim, uning davlatining qudrati nimada edi?

VII BOB

IX–XII ASRLARDA MOVAROUNNAHR VA XORAZMDA
MADANIY HAYOT1. MADANIYATNING IJTIMOIIY-SIYOSIY
HAYOTDA TUTGAN O‘RNI

Arablar Xuroson, Movarounnahr va Xorazmni bosib olgach, hamma yerda bo‘lgani kabi o‘lkamizda ham qattiqqo‘llik bilan yurtni arablashtirish siyosatini olib bordilar. Bu borada islom dini, Qur‘oni karimdan ustalik bilan foydalanildi. O‘lkada islom dini bilan bir qatorda arab tili, arab alifbosi ham joriy qilindi. Arab tili – davlat tili, islom dini tili va fan tili darajasiga ko‘tarildi. Mahalliy tilda yozilgan asarlar yo‘q qilindi, yerli bilimdonlar quvg‘in ostiga olindi.

Arab tilini, islom dini va Qur‘oni karimni yaxshi egallagan va bilgan shaxslarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzi oshdi. Bu arab tiliga nisbatan hayotiy ehtiyojni kuchaytirdi. Movarounnahr va Xorazmda ham hatto, o‘z ona tiliga nisbatan arab tilini yaxshi bilgan tolibi ilmlar borgan sayin ko‘payib bordilar. Arab tili va islom dini bo‘yicha mukammal bilim va malakaga ega bo‘lganlar arab xalifaligining markaziy shaharlariga borib o‘qishni odat tusiga, an‘anaga aylantirdilar. Damashq, Qohira, Bag‘dod, Kufa, Basra va boshqa shuning singari katta shaharlarda Movarounnahr va Xorazmdan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan ajdodlarimiz soni borgan sayin ko‘payib bordi. Xususan, bu borada Bag‘dod shahri Sharqning ilm-ma‘rifat markazi sifatida katta ahamiyat kasb etdi. IX asrda bu shaharda «Bayt-ul-Hikma» («Donishmandlar uyi») – Sharqning Fanlar akademiyasi tashkil etildi. Xuddi shunga monand X asr oxiri – XI asr boshlarida Xorazmda ham podsho *Ma‘mun ibn Ma‘mun* (995–997) va uning avlodlari davrida 1004-yilda «Donishmandlar uyi» tashkil etildi. Urganchda tashkil etilgan bu «Bayt-ul-Hikma» – «Ma‘mun akademiyasi» (Xorazm akademiyasi)

deb nomlanadi. Bag‘dod va Urganchdagi «Donishmandlar uyi»da o‘z vaqtida nomlari dunyoga mashhur ulug‘ alloma va mutafakkirlar tahsil ko‘rganlar. Ular orasida Ahmad Fargo‘niy, Al-Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino, ibn al-Hammor, Abu Saxl Masixiy, ibn Iroq kabi ulug‘ va buyuk zotlarning nomlari bor.

Movarounnahr va Xorazmda IX–XII asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda (yuz bergan ijobiy yutuqlar va muvaffaqiyatlar haqida gap ketganda, ana shu yutuq va muvaffaqiyatlarning asosiy omili va sababchisi bo‘lgan markazlashgan mustaqil davlatlarning vujudga kelganligini e‘tibordan qochirmasligimiz kerak, albatta.

O‘z mavqeyi va tutgan o‘rni jihatidan xalqaro maydonda katta e‘tibor va nufuzga ega bo‘lgan O‘rta Osiyodagi somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar va xorazmliklar davlatlari Ahmad Nasr, Ismoil Somoniylar, Alptegin, Mahmud G‘aznaviy, Tug‘rulbek, Sulton Sanjar, Anushtegin, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko‘ra oladigan davlat arboblari davrida har tomonlama rivojlanib, madaniy taraqqiyotda yuksak muvaffaqiyatlarga erishdilar. Chunki bu hukmdorlar davrida mamlakatda davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan, tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi. Natijada, moddiy ishlab chiqarish rivoj topdi, hunarmandchilik va savdo taraqqiy etdi, madaniyat gurkirab o‘ydi. Bu davrda «Buyuk ipak yo‘li»ning o‘rni va ahamiyati oshdi, hunarmandchilik va savdotsotiqalar rivoj topgan obod va ko‘rkam shaharlar vujudga keldi. Buni shundan ham bilish mumkinki, al-Muqaddasiyning yozishicha (985-yilda yozgan) 850–933-yillarda Xorazmda 13 shahar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, yarim yildan so‘ng, shaharlar soni 33 taga yetgan. Bular: Kos, Gardmon, Oyxon, Orzaxiva, No‘qfog‘, Qardor, Mizdakxon, Jashira, Sadvor, Zarduh Borategin, Madminiya (Jayhun daryosining o‘ng sohilida), Jurjoniya, Raxushmisan, Madamisan, Xiva, Kardaranxos, Xazorasp, Jigarband, Joz, Darg‘on, Jit, Kichik Jurjoniya, ikkinchi Jit, Safdor, Nuzvor, Zamahshar, Ruzun, Vazirmand, Vaskaxankas Andarosgondir.

Muqaddasiyning so‘zlariga qaraganda, Xorazm aholisi aql-zakovatli, fiqh ilmini egallagan ma‘rifatli kishilar bo‘lganlar. Xalifalik shaharlarida fiqh, adabiyot, Qur‘onni o‘rganish sohasida shogirdi bo‘lmagan xorazmlik imom (bu yerda yirik olim ma‘nosida) kamdan kam uchraydi. Xorazmning bu davrdagi taraqqiyoti xususida

yirik olim S. P. Tolstovning arxeologiyaga oid quyidagi xulosalari ham g'oyatda ibratlidir: «Bu davrlardagi Xorazmning iqtisodiy parvozini nazardan o'tkazar ekansiz, bir vaqtlar feodal monarxiya bo'lgan bu davlat qiyofasining qoldiqlari ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Bizning nigohimizda yuz minglab gektarlab yerlarga obihayot bergan ulkan sug'orish inshootlari, Xuroson, Movarounnahr va Qipchoq dashtlariga tutashib ketgan strategik va savdo yo'llari istehkomlari, shaharlarning qaynoq hayoti, hunarmandchilik ravnaq topgan savdo-sotiq hamda O'rta Osiyo, Eron va Volga bo'yining badiiy madaniyatining keyingi butun tarixiga kuchli ta'sir ko'rsatgan Xorazm uyg'onish davrining bor ulug'vorligi va boy ravnaqi gavdalanganday bo'ladi»¹. IX–XII asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy sohadagi taraqqiyot o'lkamizning Xorazm vohasidan tashqari, boshqa hududlariga ham xosdir. Buxoro, Samarqand, Kesh, Naxshab, G'azna, Panjikent, Binokent, Shosh, Termiz, Quva, Qobadiyon, Boykent va boshqa shaharlar savdo-tijorat, hunarmandchilik va madaniyat markazlari sifatida dong taratganlar. Somoniylar poytaxti Buxoro dunyoda ikkinchi Makka hisoblangan. Bu yerga savdo-sotiq, tijorat ishlari bilan, kasb-hunar o'rganish, islom nuri va madaniyatidan bahramand bo'lishdek ezgu niyatda odamlar dunyoning turli burchaklaridan oqib kela boshlaganlar. Tarixchi Abu Mansur as-Saolobiy ta'kidlaganiday, (961–1038) Buxoro somoniylar davridan boshlab, «...shon-shuhrat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan hamda o'z davrining fozillari yig'ilgan (joy) edi»². Xullas, demoqchimizki, arablar istilosidan so'ng, IX–XII asrlarda mahalliy hukmdorlar boshchiligida vujudga kelgan markazlashgan davlatlar davrida mamlakatda vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy qulay vaziyat shunday muhitni yaratdiki, natijada, bu mintaqadan o'z qobiliyatlari, yorqin va betakror ijrolari, ulkan madaniy-ma'rifiy durdonalari bilan jahon madaniyati sivilizatsiyasi xazinasiga bebaho hissa qo'shgan ajoyib allomalar, fan va madaniyat sohiblari, olim-u donishmandlar, mumtoz adabiyot daholari kamolotga yetdilar. Bu haqida Prezidentimiz 2014 yilning 15–16 may kunlari Samarqand shahrida «**O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivoji-**

¹ Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – T.: «Fan», 1964, 198-bet.

² Abdullayev I. Abu Mansur as-Saolobiy. – T.: «O'zbekiston» 1992, 50-bet.

dagi roli va ahamiyati» mavzsida xalqaro anjuman qatnashchilariga yoʻllagan tabrik xatida shunday deydi: «...Oʻnlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi boʻlib, ilm-fan sohasiga joriy etgan Muhammad Muso Xorazmiy, qomusiy olimlar Ahmad Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, tibbiyot ilmining asoschisi Abu Ali Ibn Sino, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan Mahmud Zamahshariy, fazoviy trigonometriya asoschisi «ikkinchi Ptolemey» deb tan olingan Abu Nasr Ibn Iroq, shuningek, oʻrta asrlarda sharqda yashab ijod qilgan, oʻsha davr voqealaridan guvohlik beradigan bebaho asarlar yaratgan buyuk tarixchilar avlodi, eng avvalo, Ahmad Ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Xofizi Abroʻ, Xondamir, Abdurazzaq Samarqandiy, oʻzida mingdan ziyod yulduzlar harakatini jamlagan astronomik jadval yaratgan Mirzo Ulugʻbek singari ulugʻ mutafakkirlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Bunday yuksak iftixor tuygʻusi bizni hech kimdan kam boʻlmagan xalq sifatida faxr bilan yashashga, ajdodlarga munosib avlod boʻlishga daʼvat etadi». Bu allomalar va ularning jahon fani taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi bizning milliy iftixorimiz, gʻururimiz va faxrimizdir.

2. SHARQ DUNYOSINING BUYUK ALLOMALARI AL-XORAZMIY (783–850)

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy mashhur oʻzbek olimi va dono mutafakkiri, asli Xiva shahridan. Gʻoyatda oʻtkir zehn egasi va noyob qobiliyat sohibi boʻlgan al-Xorazmiy yoshlik chogʻidan boshlab, aniq va tabiiy fanlarni oʻrganishga qiziqdi, arab, fors, hind va yunon tillarini egalladi, bu tillarda yozilgan kitoblarni qunt bilan oʻqib mutolaa qildi. U dastlabki taʼlimni xususiy muallimdan oldi va soʻngra oʻsha davrning yirik maʼrifat markazlaridan biri boʻlgan Marvda madrasada oʻqidi. Xalifa Xorun ar-Rashidning oʻgʻli Maʼmun xalifalik taxtiga oʻtirgach (813), Muhammad Muso al-Xorazmiyni oʻzi bilan birga Bagʻdodga olib ketdi va u yerda tashkil etilgan «Bayt-ul-Hikma» («Donishmandlar uyi»)ga boshliq etib tayinladi. Bu yerda al-Xorazmiy katta ijodiy-ilmiy ish bilan

shugʻullandi, koʻplab qimmatbaho asarlar yozdi.

Xorazmiy matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix ilmi va boshqa fanlar sohasida barakali ijod qildi. Uning «Al-Jabr val Mutsobala» («Tenglamalar va qarshilantirish»), «Hisob al-Hind» («Hind hisobi»), «Kitob surat al-Arz» («Yer surati haqida kitob»), «Kitob at-Tarix» («Tarix kitobi»), «Kitob al-Amal bil Usturlabat» («Usturlob»¹ bilan ishlash haqida kitob») kabi asarlari ilm-fanda olimga jahonshumul shuhrat keltirdi. Al-Xorazmiy oʻz ijodiy ilmiy ishlarida birinchi oʻringa xalq manfaatlarini qoʻydi va eʼtiborini uning amaliy-hayotiy ahamiyatiga qaratdi. U «Tenglamalar va qarshilantirish» kitobida bu haqida shunday degan edi: «Men arifmetikaning sodda va murakkab masalalarini oʻz ichiga oluvchi al-Jabr val-Muqobala hisobi haqida qisqacha kitob yozdim. Chunki, u odamlarga meros taqsimlash, vasiyatnoma yozish, boylik boʻlish va adliya ishlari, savdo-sotiq, kanal qazish, geometrik hisoblashlar, shuningdek boshqa turli munosabatlarda juda ham zarur»². Xorazmiy «Al-jabr», «Al-muqobala» asari bilan matematika tarixida birinchi boʻlib, algebra faniga asos soldi. «Algebra» atamasining oʻzi ham ushbu kitobning qisqacha «aljabr» deb ataluvchi qisqartirilgan nomining aynan ifodasi hisoblanadi. Xorazmiyning bu asari butun dunyoga, shu jumladan, Yevropada ham keng tarqalgan. Mazkur kitob lotin tiliga tarjima qilinganda Gʻarbiy Yevropada «aljabr» soʻzi «algebra» tarzida qabul qilingan. Ana shu tariqa, Al-Xorazmiy nomidan dastlab, lotincha yozuvda «Algorizmi» soʻzi, soʻngra «algoritm» atamasi paydo boʻlgan. «Hisob al-Hind» («Hind hisobi») kitobida Xorazmiy hozirgi paytda, ijtimoiy hayotda ishlatiladigan birdan toʻqqizgacha boʻlgan raqamlar va nol yordamida istalgan sonni yozish, ular yordamida arifmetik toʻrt amalni bajarish, oʻsha raqamlar bilan ifodalangan sonlardan kvadrat ildizlar chiqarish qoidalarini izohlab beradi. Olimning «Kitob at-tarix» («Tarix kitobi») asarida Xuroson, Kichik Osiyo va Movarounnahrning VIII–IX asrlardagi tarixiga oid qisqa va aniq maʼlumotlar oʻz ifodasini topgan. Xorazmiyning «Zij» («Astronomik jadval»), «Quyosh soati haqida risola» asarlari falakiyotshunoslik fanining rivojlanish taraqqiyotiga katta hissa qoʻshdi. Mamlakatimiz xalqlari 1983-yilda al-Xorazmiy tavalludining 1200 yilligini tantanali nishonladilar.

¹ «Usturlob» – yulduzlarning harakati va holatini kuzatadigan asbob.

² Hamidov H. Olis-yaqin yulduzlar. – T.: «Choʻlpon» nashriyoti, 1990, 14-bet.

AHMAD FARGʻONIY**(797–861)**

Saxovati keng ona tuprogʻimiz, Oʻzbekiston nomini faxr va gʻurur his-tuygʻusi bilan uzoq-uzoq avlodlarga koʻz-koʻz qilishga arzigulik ulugʻ siymo va allomalardan biri Ahmad Fargʻoniydir. Asli kindik qoni Fargʻonoda tomgan va IX asrda yashab ijod etgan vatandoshimiz haqida maʼlumot beruvchi tarjima hujjatlar deyarli yoʻq darajada. Ahmad Fargʻoniy filolog olim Aziz Qayumovning («Ahmad al-Fargʻoniy», T.: Fan, 1990) maʼlumotlariga qaraganda, yoshlikdan fanga, ilm olishga chanqoq boʻlib oʻsgan. U, asosan, tabiiy fanlar: falakiyotshunoslik, matematika, geografiya kabi fanlar boʻyicha ijod



qilgan. Ahmad Fargʻoniyning ijodiy faoliyati Bagʻdod olimlari bilan bogʻliq, ulugʻ mutafakkir olim Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy rahbarligida faoliyat koʻrsatgan «Baytul Hikma» bilan bogʻliqdir. U arab atamashunosligining paydo boʻlishi va ilmiy taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshdi. Bagʻdod va Damashqdagi rasadxonalar qurilishiga shaxsan qatnashdi. Bagʻdodning Raqoq, nomi bilan ataluvchi mavzesida qurilgan Rasadxona qoshida tashkil etilgan falakiyotshunoslik maktabiga rahbarlik qildi. Ahmad Fargʻoniy zamon-dosh, kasbdosh olimlar va shogirdlari bilan hamkorlikda Ptolemey «Yulduzlar jadvali»dagi maʼlumotlarni tekshirish ishlarini olib bordi. Uning falakiyotshunoslikka oid ilmiy-tadqiqot ishlari ijodiy samaralar berdi. Taniqli olim Omonulla Fayzullayev («Ahmad al-Fargʻoniy» – «Fan va turmush», 1992, 9–10-sonlar) maʼlumotlariga qaraganda, Ahmad Fargʻoniyning oltita kitobi dunyoga maʼlum va mashhurdir: «Kitob Fi Usul ilm an-Nujum» («Falakiyot ilmining usullari haqida kitob»). Bu risolaning asl qoʻlyozmalari matni bir xil boʻlsa-da, besh nom ostida saqlanadi. Yaʼni Al-Majistiyya bagʻishlangan «Falakiyot

risolasi», «Falak sferalari sababiyati», «Al-Majistiy» (Ptolemeyning «Almagest» asari), «Ilm al-haya» («Falakiyot ilmi») deb ataladi. Bu nodir qo'lyozmalar Angliya, Fransiya, AQSh, Marokash, Misr va Sankt-Peterburgda saqlanmoqda.

Olimning «Al-Farg'oniy jadvallari» (qo'lyozmasi) «Usturlob bilan amal qilish haqidagi kitob» Hindistonda, «Oy, Yerning ustida va ostida bo'lganida vaqtni aniqlash» risolasining qo'lyozmasi Qohirada, «Yetti iqlim hidi» asarining qo'lyozmasi Olmoniyada, «Usturlob yasash haqidagi kitob» qo'lyozmasining to'rtta nusxasi Berlin va Parijdadir.

Ahmad Farg'oniy bu asarlaridagi ilmiy kashfiyotlari bilan jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan va munosib hissa qo'shdi. Xususan, uning 812-yilda Quyosh tutilishini oldindan bashorat qilishi, Yerning dumaloq shar shaklida ekanligini ochganligi olimga shuhrat keltirdi. Keyinroq Misrda yashagan chog'ida Nil daryosi suvini o'lcaydigan asbob yasagan. Bu asbob tutash idishlar qoidasiga asoslangan bo'lib, hozirgacha saqlanadi. Ahmad Farg'oniyning falakiyotga oid yirik ilmiy asarlaridan biri – «Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob»dir. Bu asar «Astronomiya negizlari», deb ham yuritiladi. Unda buyuk mutafakkir o'zi yashagan davrdagi falakiyotga oid bilimlarni tartibga soldi. O'zi-ning yangi xulosa va natijalari bilan boyitdi. Falakiyot ilmiga oid asboblar, Quyosh soatlarining bayonini berdi. O'sha davr an'anasiga muvofiq mamlakatlarni yetti iqlimga bo'lib o'rgandi, joylarning geografiyaga oid koordinatlarini Sharqdan G'arbgacha yo'nalishda berdi. Falakiyotga oid bilimlar qomusi hisoblanmish mazkur asar Yevro'pada Kopernikkacha bo'lgan falakiyot ilmidan asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qildi. O'zidan keyingi olimlar uchun ijobiy samaralar berdi.

Olimning stereografik proyeksiyalar nazariyasini undan ming yil keyin buyuk matematik Eyler XVIII asrda geografiyaga oid xaritalar tuzish nazariyasiga tatbiq qildi va «Katta geografik xarita»ni tuzishda ishlatdi. Undan tashqari, kompleks o'zgaruvchan miqdorlar tekisligi, noevklid geometriyalar, Lobachevskiy tekisligining Beltrami-Kleyn proektsiyasi kosmografiyalarning zaminida ham Ahmad Farg'oniyning shu nazariyasi yotadi.

Ahmad Farg'oniy bajargan ilmiy tadqiqot natijalari qaysi fan sohasida bo'lishidan qat'i nazar g'oyatda pishiq, puxta va niho-

yatda mukammal bo'lgan. Shu boisdan, uning asarlari fan olamida shuhrat topgan. XII asrdayoq alloma asarlarining lotin tiliga tarjima qilinishi va butun Yevropaga tarqalishi bu fikrimizning isbotidir. Yevropa ilmiy muhiti farg'onalik allomaga katta hurmat bajo keltirgan. Yevropaliklar Ahmad Farg'oniyni o'zlaricha talaffuz etib, «Al Fraganus», deb ataganlar. Hatto, bu nomni buyuk Dante ham ehtirom ila tilga olgan. Ahmad Farg'oniyni asarlari lotin, olmon, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarga tarjima qilingan. Mustaqillik sharofati bilan allomaning 1998-yili 1200 yillik yubiley sanasi nishonlandi. Ahmad Farg'oniyni atab Quvada bog' barpo etilib, allomaning haykali o'rnatildi. Uning boy ijodiy merosini o'rganish va chop etish borasida ham ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmog'da. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov Samarqand shahrida bo'lib o'tgan **«O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati»** mavzuyida xalqaro anjumanda so'zlagan nutqida Ahmad Farg'oniyni to'g'risida to'xtalib shunday fikrlarni ilgari surdi: *«Ahmad Farg'oniyni tomonidan IX asrda yaratilgan «Astronomiya asoslari» fundamental asarida olamning tuzilishi, Yerning o'lchovi haqidagi dastlabki ma'lumotlar, sayyora-mizning sharsimon ko'rinishga ega ekani xususidagi dalillar mavjud bo'lib, mazkur kitob XVII asrga qadar Yevropa universitetlarida astronomiya bo'yicha asosiy darslik sifatida o'qitib kelingan hamda Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Kolumb, Magellan va boshqa sayohatchilarning kashfiyotlari uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan. Ahmad Farg'oniyni amaliy yutuqlaridan biri, uning o'rta asrlardagi asosiy astronomik asbob – usturlob nazariyasini ishlab chiqqani va shuningdek, Nil daryosida «nilomer» degan ko'p asrlar davomida suv sathini o'lchaydigan asosiy vosita sifatida xizmat qilib kelgan mashhur inshootni yaratgani bo'ldi.*

Men O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida Misr Arab Respublikasi poytaxti Qohira shahrida bo'lganimda, ana shu nilomerni ko'rib, bu ulug' ajdodimizning ilmiy dahosi oldida yana bir bor hayratga tushish baxtiga muyassar bo'ldim».

Prezidentimiz sa'y-harakati bilan Misrning poytaxti Qohirada Ahmad Farg'oniyni atab haykal o'rnatildi.

ABU NASR FOROBIY

(873–950)

Sharq allomalarining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Abu Nasr ibn O'zlug' ibn Tarxon al-Forobiy Aris daryosining Sirdaryoga quyiladigan joyida, Shosh – hozirgi Toshkent shahridan 200–260 km shimoli g'arbda joylashgan Forob (O'tror) shahrida tavallud topgan. U Forobda ta'lim olib, Buxoro va Samarqandda, ilm-u urfon markazlari Bag'dod va Damashq shaharlarida yashab o'z ilmiy darajasini oshirgan, deyarli fanning barcha sohalarini egallab, 160 dan ortiq asarlar ijod qilgan. Forobiy riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, falsafa, tilshunoslik va adabiyotga oid buyuk asarlar, risolalar yozib jahonga mashhur bo'ldi. U yozgan «Aristotel» (Arastu)ning «Metafizika» asari maqsadlari haqida», «Tirik mavjudot a'zolari haqida», «Musiqa kitobi», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Siyosat al-Madoniya» («Shaharlar ustida siyosat yurgizish», «Fozil odamlar shahri», «Masalalar mohiyati», «Qonunlar haqida kitob», «Tafakkur yuritish mazmuni haqida», «Mantiqqa kirish haqida kitob», «Falsafaning mohiyati haqida kitob» va boshqalar buyuk olimning ilm va dunyoqarash doirasining beqiyos darajada kengligi va chuqurligidan dalolat beradi.

Forobiy ellin madaniyati donishmandligining hadsiz bilimdoni edi. U Platon, Aristotelning barcha falsafiy, tabiiy, ilmiy asarlariga, Ptolemeyning osmon jismlari harakati, Aleksandr Afrodiziyning ruh haqidagi psixologiyaga oid, Galenning tibbiyot bo'yicha asarlari, shuningdek, Epikur, Zenon, Evklid, Porfiriy risolalariga taqriz va sharhlar yozdi. Agar ilm-fan rivojidadagi o'zining qo'shgan buyuk xizmatlari uchun Aristotel «birinchi muallim» unvoniga sazovor bo'lgan bo'lsa, Forobiy ellin donishmandligini, Aristotelni yaxshi bilganligi, qomusiy aqli va ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi uchun «Al-Muallim as-Soniy» – «Ikkinchi muallim «Sharq Aristoteli» degan mo'tabar unvon oldi.

Forobiyning «Inson tanasining a'zolari haqida»gi risolasi tibbiyot ilmining maqsad va vazifalarini aniqlashga bag'ishlangan. Shu ma'noda, bu asar muallifi buyuk hakim Abu Ali ibn Sinoning bevosita o'tmishdoshi bo'lganligini isbotlaydi.

Forobiy «Astrologiyaning to‘g‘ri va noto‘g‘ri qoidalari haqida» risolasida astrologlarning ruhiy va ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni osmoniy jismlar haqidagi ilmiy taxminlarga asoslangan faoliyatlarini yolg‘on tasavvurlar va uydirmalardan farqlash zarurligini ta‘kidlaydi.

Olimning ko‘p jildli «Musiqha haqida katta kitob» asari musiqa ilmining katta bilimdoni bo‘lganliginigina emas, ayni zamonda, Forobiyning taniqli musiqashunos sozanda va ajoyib bastakor ham bo‘lganligini dalillaydi. U yangi musiqa asbobining ixtirochisi ham bo‘lgan.

Forobiy yirik mantiqshunos olim sifatida ham nom chiqargan. Bu borada, u yunon olimlarining ijobiy an‘analarini davom ettirib, mantiq ilmining turli muammolariga oid bir qator risolalar ijod qilgan.

O‘rta asr fanining rivoji va taraqqiyotida Forobiyning ilmlar tasnifi bo‘yicha olib borgan ilmiy-ijodiy ishlari g‘oyatda qimmatlidir. U «Ilmlarning kelib chiqishi haqida», «Ilmlarning tasnifi haqida» va boshqa risolalarida o‘sha davrda ma‘lum bo‘lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tartibi, tasnifi va tafsilotini beradi. Umuman, Forobiy ilmlarning beshta asosiy turkumini ko‘rsatadi:

1. Til haqidagi ilm (grammatika, poetika, to‘g‘ri yozuv va boshqalar. Jami yettita bo‘limdan iborat.)
2. Mantiq. Sakkiz bo‘limdan iborat.
3. Matematika, yetti mustaqil ilm: arifmetika, geometriya, optika, sayyoralar, musiqa, og‘irlik, mexanika.
4. Ilm at-tabiiy va ilm al-ilohiy-tabiiy va ilohiy ilmlar yoki metafizika.
5. Siyosat ilmi (ilm al-madaniy – shahar haqidagi ilm, shaharni boshqarish ilmi), yurisprudensiya (fiqh) va musulmon teologiyasi (kalam). Xullas, Forobiyning ilmiy-falsafiy merosi xalqimizning buyuk ma‘naviy boyligi sifatida asrlar osha avlodlar uchun ilhom va ijod manbai bo‘lib xizmat qilaveradi.

ABU ALI IBN SINO**(980 – 1037)**

Sharq dunyosining buyuk da-
ho olimi Abu Ali al-Husayn ibn
Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn
Sino Buxoro yaqinidagi Afshona
qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi
Abdulloh asli Balxdan bo'lib, ibn
Sino besh yoshga to'lganda, oila-
si bilan Buxoroga ko'chib keladi.
Turk yozuvchisi Ibrohim Ogoh
Chubukchining ma'lumotiga qara-
ganda, asli turk oilasidan bo'lgan
ibn Sinoning otasi nihoyatda
o'qimishli kishi edi. U «Ihvon as-
Safo» risolalarini va Ismoiliya
mazhabining dunyoqarashlarini se-
vardi. Bir kuni Abdulloh An-Noti-
liy degan falsafani yaxshi biluvchi

bir zot bilan tanishganida o'g'li ibn Sinoni shogirdlikka olishini so'raydi. An-Notiliy bo'lajak allomani o'z tarbiyasiga oladi. Ibn Sino Arastuning «Mantiq»ini, Oklidesning «Anosir»ini, Batlimusning «Al-Majasti»sini shu buyuk zotdan o'rganadi. Bundan oldinroq esa, Ismoil ismli bir zotdan fiqh ilmidan tahsil ko'radi. O'n yoshdayoq «Qur'on»ni yod olgan ibn Sino ustozlarini shoshirib qo'yadigan zukko bola edi. Falsafa, mantiq, falakiyot, tabiiy va riyoziy ilmlar u juda yaxshi biladigan bilim sohalari edi. Bulardan tashqari, Islom tarixini mufassal o'rgandi. O'zi anglagan darajada Islomiyatni ham sharhlay olardi»¹.

Ibn Sino, ayniqsa, tibbiyot ilmiga alohida mehr qo'ygandi. Bu borada u xristian tibbiyotshunos olimi Iso bin Yahyo asarlaridan ko'p foydalangan. Chunki u tibda tajribalarga ko'p ahamiyat bergan tabib bo'lgan. Qisqa vaqt ichida ibn Sino tabobat sohasida katta shuhrat qozonadi. Ibn Sinoning o'zi bu haqida quyidagilarni yozgan edi:

¹ «O'zbekiston adabiyoti va san'ati». 1990-yil, 10-avgust.

«Tib aslida qiyin ilmlardan emas, shu sababdan, men qisqa mudat ichida bu sohada shunday yutuqqa erisha oldimki, hatto, fozil tabiblar ham menga kelib, mendan tib ilmimi o'qiydigan bo'ldilar. Bemorlarga ham qatnar edim. Erishgan tajribalarim natijasida menga davolash eshiklari shunday keng ochildiki, uni ta'riflab bo'lmaydi».

Ibn Sinoning obro'-e'tibori kun sayin oshib borganligini bir necha e'tiborli dalillar isbot qiladi. Buxoro amiri Nuh ibn Mansur (976–997) og'ir dardga chalinadi. Uni davolashda ibn Sino faol qatnashadi va buning evaziga u saroy kutubxonasida saqlanayotgan nodir kitoblardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

1002-yilda Xorazmga borgandan so'ng, o'sha davrning yirik madaniyat markazlaridan biri bo'lgan Urganchda Ma'mun akademiyasida faollik ko'rsatadi. Abu Rayhon Beruniy singari buyuk olimlar bilan hamkorlikda ishlaydi. 1017-yil Xorazmni Mahmud G'aznaviy bosib olgach, Ibn Sino Gurgon amirligiga, u yerdan Ray, Kazvin shaharlariga o'tib, so'ng, Hamadonga – bu-vayxiylar hukmdori Shams ad-Davla xizmatiga (997–1021) kiradi. Hamadon amiri Shams ad-Davlani davolagan Ibn Sino vazirlik darajasiga ko'tariladi. Askarlar orasida sodir bo'lgan isyon tufayli Ibn Sino zindonga tushadi. Ammo Shams ad-Davla yana kasallanganda, zindonband etilgan buyuk tabib ikkinchi bor uni davolaydi va tag'in vazirlikka tayinlanadi.

Shams ad-Davla vafotidan so'ng, uning o'g'li Samo ad-Davla taxtga o'tiradi. Ibn Sino vazirlikda qolishni istamaydi. U Isfahon amiri Aloud-Davlaga maktub yo'llab, vazifa so'raydi. Bu xatti-harakati uchun Hamadon hukmdori Ibn Sinoni zindonband qiladi. Oradan to'rt oy o'tgach, Isfahon amiri Aloud-Davla Hamadonni bosib oladi va Ibn Sinoni hibsdan ozod etadi.

Tinimsiz ilmiy mutolaa, shaharma-shahar darbadarlarcha yurish, olimga nisbatan bir necha bor uyushtirilgan ta'qib va zindonlar, albatta, uning salomatligiga ta'sir etgan edi. Ibn Sino 1037-yilda (hijriy 428) 57 yoshida vafot etadi. Buyuk qomusiy olimdan juda katta meros qolgan. Turli manbalarda, ulug' mutafakkirning falsafa, mantiq, ruhshunoslik, adabiyotshunoslik, she'riyat, musiqa, geologiya, mineralogiya, fizika, matematika, tibbiyot, falakiyot va fanning boshqa sohalariga oid 450 dan ortiq ilmiy asarlari qayd etiladi. Biroq bizgacha Ibn Sinoning faqat 242 ta asari yetib kelgan. xolos. Shundan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga, 43 tasi ta-

bobatga, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi ruhshunoslikka, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi falakiyotga, 1 tasi riyoziyotga, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi odob ilmiga, 4 tasi adabiyotga, 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan yozishmalarga tegishlidir¹.

Olimning falsafaga oid «Kitob ash-shifo» asarini o'z davrining qomusiy asarlaridan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Unda mantiq, tabiiy fanlar, riyoziyot va ilohiyot bo'yicha falsafiy g'oyalar o'z aksini topgan.

Yana bir falsafaga oid yirik asar «Al-ishorot va tanbihot» («Ishoralar va tanbihlar») hisoblanadi. Unda falsafaning asosiy masalalari qisqacha bir tarzda bayon etilgan.

Fors tilida yozilgan yirik falsafiy asarlardan biri «Donishnoma» («Bilim kitobi»)dir. Ibn Sino bu asarida o'zidan oldingi va o'z davridagi tabiiy fanlar va falsafaning yutuqlaridan foydalangan holda, shunday bir falsafiy asar yaratdiki, bu asar O'rta asr Sharqidagi nazariy bilimlarning eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi.

Ibn Sinoning tabobat ilmi bobida qoldirgan buyuk merosi, ayniqsa, katta tarixiy ahamiyatga egadir. Uning tabobatga oid asarlaridan 30 tasi bizgacha yetib kelgan, shulardan asosiylari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Ulug' hakimning tabobatga oid shoh asari albatta «Kitob al-Qonun fi-t-tib» («Tib qonunlari kitobi»)dir. Ibn Sino «Tib qonunlari»ni besh kitobga bo'lgan:

1-kitobda tabobatning umumiy nazariyasi bayon etiladi.

2-kitob dorishunoslikka bag'ishlangan. Unda o'simlik ma'dan va hayvonlardan olinadigan 811 sodda dorining nomini alifbo tartibida joylashtirilib chiqilgan va ularning ta'rifi keltirilib, har biri qaysi dardga da'vo ekanligi izohlangan. («Tib qonunlari», 7-bet.) Ibn Sinoning davolash uslubida ishlatilgan 396 dorivor o'simlikdan 165 tasi bugungi kunda tibbiyot fanida qo'llaniladi. 110 tasi sobiq SSSR farmakologiyasiga kiritilgan edi.

3-kitobda «Juz'iy» kasalliklar, ya'ni insonning boshidan tovonigacha har bir a'zosida bo'ladigan kasalliklar, ularni aniqlash va davolash usullari yoritiladi.

4-kitob insonning biron-bir muayyan a'zosiga xos bo'lmagan, balki butun gavdasida yuz berishi mumkin bo'lgan kasalliklarga bag'ishlangan.

5-kitobda murakkab dorilar, ya'ni tabiatda tayyor holda uchramaydigan darmondorilarni tayyorlash to'g'risida fikr yuritiladi.

¹ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1-jild. – T., 1992, 5-bet.

Abu Ali ibn Sino «Tib qonunlari» asarining jahonshumul tarixiy ahamiyatini shu narsadan ham bilish mumkinki, bu kitob to XVIII asrning oxirlariga qadar ham Gʻarbiy Yevropaning tibbiy oʻquv yurtlarida asosiy oʻquv qoʻllanmasi boʻlib xizmat qilgan.

Sharq olamining taniqli mutafakkirlaridan boʻlgan Nizomiy Aruziy Samarqandiy «Chor maqola» kitobining IV qismida Ibn Sining tabobatga oid oʻn besh kitobining roʻyxatini keltirib, soʻngida quyidagilarni yozgan edi: «Agar (tabib) shularning (kitoblarning – R.Sh., Sh.K.) hammasini oʻqishdan xalos boʻlmoqchi boʻlsa, «Qonun»ning oʻzi kifoya qiladi»¹.

«Tib qonunlari» XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan. Shu kunga qadar, bu asar dunyodagi deyarli barcha xalqlarning tillariga oʻgʻirilgan. Ayrim qismlarining nashri esa son-sanoqsizdir.

Ibn Sino nafaqat qomusiy olim va mutafakkir, ayni zamonda, u isteʼdodli shoir va adib ham boʻlgan. Uning badiiy ijod bobidagi mevalari – «Qush risolasi», «Salomon va Ibsol», «Yusuf qissasi», «Uygʻoq oʻgʻli Tirik» asarlarida oʻz aksini topgan. Ularda ulugʻ adib yuksak insoniy fazilatlarini, hayotiy muammolar va yechimlarini qalamga oladi.

Italiyalik mashhur olim, matematik va shifokor Djirolamo Kardino (1501–1576) ibn Sino haqida shunday degandi: «Mening hamma gʻoyalarim, oʻzimgamas, balki ibn Sinoga taalluqlidir, chunki uning nazariyalari falsafiy qarashlar orasida haqiqatga yaqin yagona gʻoyalardir. Men buni bajonidil tan olaman». Tibbiyotshunos olim N. Majidov ibratli bir voqea toʻgʻrisida hikoya qiladi. AQSHda Kanzas-Siti shahridagi «Salomatlik markazi»da maʼruza oʻqib boʻlgach, markaz raisi menga: «Sizni hozir ulkan tibbiyot kitoblari kutubxonasiga olib boraman», – dedi. Mamnun boʻlib, uning orqasidan yurdim. Markazdagi kutubxona ham eng soʻnggi jihozlar bilan bezalgan, oynavand edi. Hamrohim oyna ostidagi ulkan jildlik kitoblarni menga koʻrsatarkan:

– Sizning vatandoshingiz, tibbiyot fanining buyuk namoyandasi va ulugʻ mutafakkir Abu Ali ibn Sining besh jildligi! – dedi. – Bilasizmi, bu xonaga hech kim qoʻyilmaydi. Ibn Sino Vatanidan, tugʻilgan yurtidan va uning avlodi boʻlganingiz uchun siz bundan mustasnosiz.

...Faxr-iftixor tuygʻulariga toʻlib-toshib xonaga kirdim. Xonada avtomatik qurilmalar koʻp, barcha ishlar kompyuterlashtirilgan.

¹ *Sadriiddin Ayniy*. Tanlangan ilmiy asarlar. – T.: «Fan» nashriyoti, 1978, 35–36-betlar.

Oyna tagida «Tib qonunlari»ning XV asrda fransuz tilida bosilgan nusxasi bor edi. Uning uzoq davrlardan ko'z qorachig'idek asrab-avaylab kelinayotgani shundoqqina ko'rinib turardi. Xorijlik do'stlarimizning ulug' Ibn Sino va uning ilmiy ijodiga bo'lgan bunday munosabati, izzat-hurmati meni hamon to'qlinlantiradi.

Ha, sharqda «Shayxur-Rais» va G'arbda esa «Avitsenna» nomi bilan mashhur bo'lgan buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino abadulabad avlodlar qalbini faxr va g'urur his-tuyg'ulari bilan albatta yoritib turajak.

ABU RAYHON BERUNIY (973–1048)



O'rta asrlarda Xorazmda tashkil etilgan Ma'mun akademiya-sining porloq yulduzlaridan biri, buyuk olim va mutafakkir Abu Rayhon ibn Ahmad Beruniydir. U 973-yil 4-sentabrda Urganch shahridan 120 km naridagi qadimgi janubiy Xorazmning poytaxti Kat (hozirgi Beruniy) shahri yaqinida tug'ilgan. Dastlabki ta'limni Urganchda olgan. Taqdir taqozosi bilan Sharqning ko'pgina shaharlarida bo'lgan. Ancha vaqt Gurgonda turgan, so'ngra Ma'mun akademiyasida katta ilmiy ish

olib borgan. Mahmud G'aznaviy Xorazmni egallagach (1017-yil), Beruniy o'z ilmiy faoliyatini G'azna shahrida davom ettirgan. U Mahmud G'aznaviy bilan birgalikda Hindistonda bir necha bor safarda bo'lgan. Ulug' mutafakkir 1048-yilda G'azna shahrida vafot etgan.

Abu Rayhon Beruniy fanning deyarli barcha yo'nalishlari bo'yicha buyuk kashfiyotlar qilgan qomusiy olimdir. Alloma zamon-doshlari iborasi bilan aytganda, «uning qo'li hech qachon yozish-dan to'xtamagan, nigohi muttasil kuzatish bilan band bo'lgan, qalbi esa fikrlashga mudom qanot bog'lab turgan. Arab sayyohi Yoqut

Hamaviy Marv masjidi vaqfnomasida Beruniyning kitoblari nomi yozilgan varaqlik ro'yxatni ko'rganligini eslatadi. Hozircha olimning ma'lum bo'lgan 154 nomdagi asarlari geografiya, astronomiya, tarix, geologiya, gidrogeologiya, geodeziya, mineralogiya, fizika, kimyo, botanika, farmakologiya kabi sohalarga aloqadordir. Ana shu asarlardan bizgacha faqat 30 tasigina yetib kelgan, xolos. «O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Geodeziya» kabi yirik asarlar olimga tom ma'noda jahonshumul shuhrat va obro' keltirdi. U kishilik jamiyati tarixida ilk bor yerning dumaloq shaklda ekanligini aniqlab, globusni yaratdi. Bu paytda, ulug' alloma endigina 21 bahorni qarshilagan edi¹. Beruniy chizgan dunyoning geografik xaritasi ko'p yillar sayyohlarga yo'llanma bo'lib kelgan. U yerning radiusini aniqlagan, hatto, proeksiyaning (buyumning tekislikdagi aksi, tasviri) uch xilini topganligi ma'lum. Buyuk mutafakkir o'z asarlarida Xristofor Kolumbdan 460 yil avval Amerika qit'asi borligini bashorat qilgan. Geografiya fanining bilimdoni Hamidulla Hasanovning quyidagi fikrlari g'oyatda qimmatlidir: «Ba'zi tarixchi, geografimiz, XV–XVI asrdagi buyuk kashfiyotlar tarixini yoritishda masalani yo mutlaqo tilga olmaydilar yoki faqat g'arbchasiga izohlaydilar», – deydi. Jumladan, Amerika qit'asining ochilishi masalasida fikr yuritgan rus olimi V. Gulyaev vatandoshimiz Beruniyning «...u tomonda yo'llar notinch, xavf-xatar ko'pligi sababli kema qatnovi bo'lmaydi», degan gaplarini keltirish bilan chegaralanadi. Holbuki, Beruniy: «Bizning tekshirishimizcha, yerning shimoliy (ikki) choragidan biri quro'g'lik bo'lganligidan, uning hamqurt (diametral qarama-qarshisidagi) chorak qismi ham quro'g'lik bo'lishini taxmin qilamiz»².

Beruniy o'zining 45 dan ortiq falakiyotga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr ilgari olamning markazi Yer emas, Quyoshdir degan xulosa chiqardi, Yerning Quyosh atrofida aylanishini birinchi bor o'rta qo'ydi. Bu borada olimning «Astronomiya kaliti», «Qonuni mas'udiy», «Attafhim» kabi asarlari bebahodir. Beruniyning yirik asarlaridan biri «Al osorul boqiya anil qurunil xoliya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»)dir. 27 yoshlik chog'ida yozgan bu asarda alloma o'zining hayotiy kuzatuvlari asosida yunonlar, rumoliklar, forslar, sug'diylar, xorazmiylar, ya-

¹ Qayumov A. *Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino*. – T.: «Yosh gvardiya» nashriyoti, 1987, 3-bet.

² Saotov A. Qalbidabor alamim manim. «Fan va turmush», 1992, 9–10-son, 17-bet.

hudiylar, arablar va boshqa xalqlarning yilnoma (kalendar) tizimlarini bir-biriga taqqoslab, ularning kelib chiqish tarixini tahlil qilib beradi. Bu asarda yana Turonzamin xalqlarining tarixi, urf-odati va madaniyatiga oid masalalar ham o'z ifodasini topgan.

Beruniyning eng yirik shoh asari «Hindistondir». 13 yil davomida olib borgan ilmiy qidiruv ishlari natijasida yozilgan va sakson bobdan iborat asarni olim 1030-yilning 30-aprelidan to 1031-yilning 19-dekabrigacha bo'lgan vaqt mobaynida, ya'ni bir yil-u sakkiz oyda yozib tamomlagan. Bu asar hindlarning tarixi, fani, urf-odati, o'sha davrdagi ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoriga bag'ishlangan bebaho asardir. Unda hindlarning qadimgi zamonlardan tortib to Beruniy yashagan davrgacha bo'lgan e'tiqodlari, modda, tangri, olam, inson, jon kabilarga bo'lgan qarashlar, ularning dinlari, dinlarning kelib chiqish tarixi, payg'ambarlari, aniq fanlar sohasidagi ilmlari, o'lka va shaharlarning chegaralari va ularga oid bo'lgan afsona va tarixlar, yozuv va tillari, she'r va vaznlari kabi masalalar mohirona bir tarzda bayon etilgan. Bu asarni yozish uchun Beruniy juda ko'plab tillarni, adabiyotlarni o'rgandi. Jumladan, «Hindiston» asarida keltirilishicha, vatandoshimiz) bir qancha asarlarni hind tilidan arab tiliga, boshqalarini arab tilidan qadimiy hind tili – sanskritga tarjima qiladi. Xullas, Abdusodiq Irisov bergan ma'lumotlarga qaraganda, Abu Rayhon Beruniy 20 dan ortiq asarni hind tilidan arabchaga tarjima qilgan. U 40 dan ortiq sanskrit tilidagi manbalardan foydalangan.

Beruniyning «Hindiston» asarini 20 yil davomida o'rganib, juda katta ilmiy ishlarni amalga oshirgan nemis olimi Edvard Zaxauning quyidagi so'zlari g'oyatda ibratlidir: «Hindshunoslikda Beruniyga teng keladigan biror olimning undan oldin ham, keyin ham bo'lganini bilmaymiz». Vatandoshimizning hind fani va tarixiga oid o'lmas asariga hind olimlari ham yuksak baho berganlar. Jumladan, Hamid Rizo o'zining 1944-yilda yozgan «Hindistonning madaniy xizmati» asarida: «O'rta asr va yangi zamon mualliflaridan hech biri ham hind madaniyatining chigal masalalarini chuqur ilmiy tushinishda o'lmas Abu Rayhon Beruniy erishgan yutuqlarga erisha olmadi. Uning «Hindiston» asari klassik namuna bo'lib qolishi bilan birga, o'z muallifining qadimgi hind madaniyati va faniga qilgan tortig'idan iboratdir», – deydi.

Beruniyning yana bir qimmatbaho asari «Kitobul jamohir fi ma'rifatil javohir» («Qimmatbaho toshlarni bilish kitobi»)dir. Unda

olim O'rtta Osiyodagi minerallar, ularning joylari haqida juda zarur ma'lumotlarni beradi. Ulug' alloma O'rtta Osiyoda birinchilar qatorida dorichilik haqida «Kitobus saydalat fit tib» asarini yozdi. Unda olim mingdan ortiq dorivor moddalarni ta'riflagan, ularning nomini 30 tilda bergan.

Beruniy o'z ona vatani – Xorazm tarixi bo'yicha ham («Xorazmning ajoyib kishilari») qimmatli asar yozib qoldirgan.

Xullas, buyuk qomusiy olim Beruniyning qalam tebratmagan sohasining o'zi yo'q edi, desak mubolag'a bo'lmaydi. U juda o'tkir adib ham bo'lgan. Olimning qaysi bir asarini ko'zdan kechirmang, ularda albatta she'riy misralar etimologik ma'nolar, badiiy o'xshatishlarni uchratasiz. Xolisona fikr yuritganda, Beruniyning ijodiy parvozida Sulton Mahmud G'aznaviyning hissasi ham oz emas. Olimning o'zi bu to'g'rida shunday degan: «Jalolim Mahmud, u mendan hech bir lutfni darig' tutmadi. Meni shuhrat va baxtga qovushtirdi. Kamchiliklarimdan ko'z yumdi...» Beruniyning ijodi turli-tuman va rang-barangdir. Uning ijodi bamisoli tengsiz xazina. Bu xazina bizning, xalqimizning ma'naviy boyligi, milliy iftixorimiz, g'ururimizdir. Uni o'rganish va bilish barchamizning burchimizdir.

ABU ABDULLOH AL-XORAZMIY (997-yilda vafot etgan)

O'z qomusiy ijodi bilan Sharq o'rtta asr madaniyatini yuksak cho'qqilar sari ko'tarishda munosib hissa qo'shgan ulug' allomalardan yana biri Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiydir. Allomaning hayotiy faoliyatiga oid ma'lumotlar deyarli saqlanmagan. Abu Abdulloh Xorazmiyning qachon, qayerda tug'ilganligi to'g'risida hech qanday ma'lumot yo'q. Faqat 997-yilda vafot qilganligi ma'lum, xolos. Ulug' mutafakkir yoshlik yillarini Xiva, Zamaxshar, Kat kabi shaharlarda o'tkazgan. Xurosonda ham yashagan. Olim faoliyatining mashhurligi vazir Abul Hasan Ulutbiy huzurida kotiblik lavozimida ishlagan paytiga to'g'ri keladi. Bu davrda alloma «Al-kotib al-Xorazmiy» nomi bilan shuhrat topdi. U vazifa nuqtayi nazaridan Buxoroga tez-tez borib turgan va u yerda mashhur ilm namoyandalari bilan uchrashib turgan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas.

Abu Abdulloh Xorazmiyning ilmiy dunyoqarashi o'sha davrda keng tarqalgan yunon falsafasi va madaniyati, Sharq madaniyatining buyuk namoyandalari Yoqub ibn Is'hoq al-Kindiy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Bakr ar-Roziy va boshqalarning ilg'or g'oyalari ta'siri ostida shakllandi va kamol topdi. Ulug' allomadan bizgacha arab tilida yozilgan yagona «Mafotih al-Ulum» («Ilmlar kaliti») asari yetib kelgan, xolos. Bu asarning qo'lyozma nusxalari ko'p emas. Yaqin-yaqinlargacha uning faqat to'rttagina nusxasi borligi yozma axborotlarda ma'lum qilingan. Ana shu to'rt nusxaning uchasi Buyuk Britaniyadagi muzeyda 7528,23429 va 2524 raqamlari hamda 1051 raqami ostida Berlin kutubxonasida saqlanadi. 60-yillarga kelib amriqolik olim K. Bosvort Turkiya kutubxonalarida mazkur asarning yana olti nusxasi borligini aniqladi. Bu asarning barcha olti nusxasi ham Istambul shahrining kutubxonalaridan joy olgan. Bir nusxasi Fotih Milliy kutubxonasida 2047 raqami, Nuri Usmoniya kutubxonasida 3667 raqami va to'rt nusxasi Sulaymoniya xalq kutubxonasida 2911, 329, 3758 va 791 raqamlari ostida saqlanadi.

Abu Abdulloh Xorazmiyning ushbu asarini 1160-yildagi qo'lyozma nusxasi asosida birinchi o'rgangan va uning aniqlangan matnini matbuotda 1895-yilda nashr qilgan olim – golland sharqshunosi Van Flotendir. Rus akademigi I. Yu. Krachkovskiy bu asarni 976-va 991-yillar oralig'ida yaratilgan deb hisoblaydi. Dunyodagi juda ko'p olimlar «Mafotih al-ulum» asarini qomusiy asar sifatida baholab, unga juda katta e'tibor berganlar. Bu asar shu paytga qadar, H. Hadyujam tomonidan faqat fors tiliga to'liq tarjima qilingan, boshqa tillarga esa uning faqat ayrim bo'lim yoki boblari ag'darilgan xolos (ingliz, fransuz, nemis, rus va boshqa tillarda). Ammo vatandoshimizning butun jahon tan olib qiziqib o'rganayotgan bu qimmatbaho asari uning o'z yurtida shu kunga qadar ham o'zbek tiliga tarjima qilinmaganligi achinarli holdir.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning «Ilmlar kaliti» asarida o'sha davrdagi deyarli hamma asosiy fanlar bo'yicha, fikr yuritiladi. I. Y. Krachkovskiyning fikricha, bu asar o'sha davr «bilimlarining barcha sohalarini o'z ichiga oluvchi izohli terminologik lug'atdir». Mutafakkir o'z davri an'alariga ko'ra, ilmlarni ikki qismga bo'lib tekshiradi. Birinchi qism, shariat va u bilan bog'liq bo'lgan arab ilmlari va ikkinchi qism – arab bo'lmagan, ya'ni yunonlar va boshqa xalqlar ilmlari. Arab ilmlari qismiga mutafakkir: o'n bir bobdan iborat fiqh, yetti bobdan iborat kalom, o'n ikki bobdan iborat grammatika (sarf va nahv), sakkiz bobdan iborat ish yurgizish,

besh bobdan iborat she'riyat va aruz, to'qqiz bobdan iborat tarixni **kiritadi**. Ikkinchi qismga, ya'ni «arab bo'lmagan» xalqlar ilmlariga **olim**: uch bobdan iborat falsafa, to'qqiz bobdan iborat mantiq, **sakkiz** bobdan iborat tib, besh bobdan iborat arifmetika, to'rt bobdan iborat xandasa, to'rt bobdan iborat ilm-u nujum, uch bobdan iborat musiqa, ikki bobdan iborat mexanika va uch bobdan iborat kimyoni kiritadi. Xulosa shuki, buyuk olim va dono mutafakkir Abu Abdulloh al-Xorazmiy xalqimizning iftixoridir. Uning shu paytga qadar o'rganilmagan va ilmiy tahlil etilmagan boy ijodiy merosini chuqur va atroflicha o'rganib, uni umumxalq e'tiboriga havola etish O'zbekiston ilmiy jamoatchiligining birinchi darajali vazifasidir.

ABU BAKR NARSHAXIY

(899–959)

IX–XII asrlarda O'rta Osiyoda fanning deyarli barcha sohalari, jumladan, tarix ilmi sohasida ham ijod qilgan olimlar juda ko'p bo'lgan. Bu borada Abu Bakr Muhammad Narshaxiy o'ziga xos alohida o'rinda turadi. Uning hayoti va faoliyati to'g'risida deyarli hech narsa saqlanmagan. Faqat Sam'oniyning «Kitob ul-Asab» asarida olimning to'la nomi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Hattob ibn Sharik ekanligi va u Buxoro ahlidan bo'lib, 286 (899)-yili tug'ilgan va 348 (959–960)-yilda vafot etganligi (Narshaxiy, Buxoro tarixi, 84-bet) eslatiladi. Narshaxiydan meros tariqasida yagona asar «Buxoro tarixi» bizgacha yetib kelgan. Ammo asarning bu nomi ham nisbiy xarakterga ega. Chunki olimning o'z asarini qaysi nom bilan ataganligi shu paytga qadar noma'lum. Shu sababli asar qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy-tarixiy adabiyotlarida ham turli nomlarda «Tarixi Narshaxiy» («Narshaxiy tarixi»), «Tarixi Buxoro» («Buxoro tarixi»), «Tahqiq ul-viloyat» («Viloyat haqiqatini aniqlash»), «Axbori Buxoro» («Buxoro haqida xabarlar) kabi nomlar bilan atab kelinadi. Ammo ilmiy adabiyotda va o'quv darsliklarida asarning «Buxoro tarixi» atamasi mustahkam o'rin oldi. Asarning turli nomlar bilan atalishi bejiz emas, albatta. Buning sababi shundaki, asarning Narshaxiy tomonidan yozilgan dastlabki asl nusxasi saqlanib qolmagan. Uning hozir bizgacha yetib kelgan qismi 1128-yilda Quva shahridan bo'lgan Abu Nasr Ahmad Ibn Muhammad Ibn Nasr al-Quboviy arab tilidan forsiyga qisqartirib tarjima qilgan nusxa-

ndir. Undan keyingi yillarda ham Narshaxiyning asari bir necha **tahrirga** uchragan, ba'zi matnlar qisqartirilgan va hatto, so'nggi **voqealar** asosida to'ldirilgan. Bu, xususan, Abu Nasr Ahmad Quboviyga taalluqlidir. U Narshaxiy asari matnini qisqartirish bilangina cheklanib qolmagan, balki Tabariy va boshqa mualliflarning, shu jumladan, Abu Hasan Nishopuriyning «Xazoin ul-ulum», Ibrohimning «Ahbar-i Muqanna» kabi asarlaridan foydalanib, uni yanada to'ldiradi. Ana shu tariqa, «Buxoro tarixi»ga Narshaxiy yashab o'tgan davrdan keyingi, jumladan, 1178–1179-yillardan to 1220-yillarga qadar bo'lib o'tgan tarixiy voqealar ham kirib qolgan.

Bundan qariyb ming yil ilgari yozilgan Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari so'zsiz xalqimiz tarixchiligining nodir manbayi sifatida g'oyatda qimmatlidir. Unda Movarounnahr va Xorazm yerlarining arablar tomonidan bosib olinishi, arablar bosqiniga qarshi mahalliy xalqlarning qo'zg'olonlari, yerli xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid masalalar xususida so'z boradi. «Buxoro tarixi» 1991-yilda «Kamalak» nashriyotida A. Rasulov tomonidan tayyorlanib, chop etildi. Narshaxiy merosi xalqimizning ma'naviy boyligi sifatida avlodlarga xizmat qilaveradi.

ABUL HASAN BAYHAQIY

(995–1077)

O'z zamonasining yirik tarixchi olimlaridan biri Abulfayz Muhammad ibn Husayn al-Kotib Abul Hasan Bayhaqiy bo'lib, uning asarlari g'aznaviylar davri tarixini yoritishda beqiyos darajada katta ahamiyatga ega bo'lgan qodir manbalardir. Olim sifatida Nishopur madrasalarida o'qib kamolotga yetishgan Bayhaqiy Mahmud G'aznaviy hukmronligi davri (998–1030)da saroy kotibi (1021) darajasigacha ko'tarilgan. Undan so'ng, devon boshlig'i etib ham tayinlangan. Bayhaqiyning qalamiga mansub: «Ziynatul Kuttob» («Kotiblar ziynati»), «Tarixi Oli Mahmud» («Mahmud xonadoni tarixi») «Jome' ut-tavorix» («Tarix to'plami») kabi asarlari ma'lum. Bu asarlarda buyuk tarixshunos olim g'aznaviylar sulolasi tarixini g'oyatda mohirona bir tarzda yoritib beradi. Ayniqsa, bu borada 30 jilddan iborat bo'lgan «Jome' ut-tavorix» diqqatga loyiqdir. Unda Bayhaqiy g'aznaviylar hukmdori Sabuktegin (977–997) davridan keyingi qariyb 80 yillik tarixni bayon etadi. Asar 1962-yilda rus tilida matbuot yuzini ko'rgan. Ammo markazlash-

gan feodal turkiy davlatlardan biri hisoblangan g'aznaviylar sulolasi tarixiga bag'ishlangan Bayhaqiyning «Jome' ut-tavorix» asari shu paytgacha qadar o'zbek tiliga tarjima qilinmagan.

ABU NASR AL-UTBIY (961–1036/1040)

G'aznaviylar sulolasi davri tarixining eng mashhur bilimdonlaridan biri Abu Nasr ibn Abdullajabbor al-Utbiydir. Eronda o'troqlashib qolgan badavlat arab oilasiga mansub bo'lgan al-Utbiy sharqshunos olim Ubaydulla Uvatovning ta'kidlashicha, G'azna hukmdori Abu Mansur Sabukteginning saroyida kotiblik¹ qiladi. U g'oyatda tadbirkor shaxs bo'lgan. Sobuqtegin vafot etgach, uning o'g'illari Ismoil va Mahmud taxt vorisligi uchun kurashadilar. Al-Utbiy Mahmud tarafida bo'lib, ular g'olib chiqadilar. Mahmud hukmronligi davrida al-Utbiy uning qo'l ostida ishlaydi va Sultonning elchisi sifatida diplomatiya xizmatiga jalb qilinadi. U Mahmudning o'g'li Mas'ud hukmronligi davrida ham saroyda kotiblik lavozimini o'tagan.

Tarixiy yozma manbalarda al-Utbiyning har tomonlama kamolotga yetgan ulug' bir shaxs, tarixchi, shoir va adib bo'lganligi ta'kidlanadi. Uning «Latoif al-kuttob» asarida («Kotiblarning latif so'zlari») birodarlik do'stlik mavzulariga bag'ishlangan asarlari borligi qayd etiladi. Ammo Abu Nasr al-Utbiyning eng shoh asari so'zsiz «Tarix al-yaminii» («Yaman ud-Davlatining tarixi»)dir. Ubaydulla Uvatov bergan ma'lumotlarga qaraganda, asarga «Tarixiy al-Yaminii», deb nom berilishiga sabab «...G'azna Sulton Mahmud G'aznaviy (u 998–1030-yillarda hokimlik qilgan) mustaqil ravishda G'aznaviylar taxtida qaror topgach, 999-yilda abbosiy xalifa Qodir Billoh (xalifalik yillari 991–1031-yillar) unga Xurosonni idora qilish huquqi bilan birga Yamin ud-davlat Amin Ul-millat» («Davlat tayanchi va din homiysi») degan faxriy laqab in'om qilgan edi. Shu xususdan ham, al-Utbiy o'z asarini Mahmud G'aznaviy tirikligida yozib, unga bag'ishlaydi va uning laqabi «Yamin»ga nisbat berib, qisqacha «Tarix al-Yaminii» deb atagan.²

¹ Uvatov U. Donolardan saboqlar. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi «Xalq» nashriyoti, 1994, 66-bet.

² O'sha asar, 67-bet.
9–Vatan tarixi 1-kitob

Mazkur asar g'oyatda qimmatli manba ekanligi va o'z vaqtida, undan keyingi davrlarda ham bu asarga qiziqish juda katta bo'lganligini isbotlaydigan dalillar anchagina. «Tarix al-Yaminiy» shu paytga qadar fors tili (1205–1206), ingliz tili (1858), hind tili (1847), arab tili (1870), rus tili va boshqa tillarda chop etilgan. Ushbu asar xususida V. V. Bartold, A. Yakubovskiy, V. I. Belyayev, P. Y. Bulgakov va boshqalar ilk fikrlar aytganlar va o'z ilmiy tadqiqotlarida undan foydalanganlar. Qariyb yarim asrlik davr (975–1021)ni o'z ichiga olgan «Tarix al-Yaminiy» asarida al-Utbiy Movarounnahr va Xurosonda bo'lib, o'tgan tarixiy voqealarni keng qamrovli bir tarzda bayon etgan. Bu asar o'z davriga oid muhim va ko'pdan ko'p dalil va ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirganligi uchun ham undan fors va arab tillarida yozilgan qator tarixiy asarlarda foydalanganlar. Al-Utbiy asariga tarix ilmi olamida mashhur bo'lgan Abul-Hasan Bayhaqiy, Ibn al-Asir, Ibn Kasir, Rashiduddin, Mirxond, Xondamir, Gardiziy va boshqalarning murojaat qilishlarining o'zi uning fan olamida tutgan o'rniga berilgan yuksak bahodir.

«Tarix al-Yaminiy» muqaddima va qirq besh bob (zikr)dan iborat. Unda X va XI asrlarda faoliyat ko'rsatgan g'aznaviylar davlati tarixi atroflicha bayon etiladi. Albatta, o'sha davr an'anasiga ko'ra, hukmdorlarga nisbatan xayrixohlik ma'lum darajada asarda aksini topgan bo'lsa-da, biroq obyektiv tarixiy jarayon unda yetakchi o'rindadir. Sultonlar, amirlar, mulkdor va boylar o'rtasidagi toj-u taxt va davlat talashib olib borilgan mantiqsiz urushlar, jang-u jadal-lar, nizolar, ixtilof-u mojarolarga muallif o'z asarida katta o'rin ajratgan. Ayni zamonda, asarda oddiy mehnatkash xalqning og'ir iqtisodiy turmush sharoiti, ularning zulm va istibdodga qarshi olib borgan kurashlari to'g'risida ham ko'pgina ma'lumotlar berilgan. Bu jihatdan, Nishopur va Xurosondagi qahatchilik (1011), Jurjonda (987) gi vabo kasalligi voqealari xarakterlidir.

Abu Nasr al-Utbiyning «Tarix al-Yaminiy» asarining 177 varaqdan iborat Toshkent qo'lyozma nusxasi O'zbekistan Respublikasi Fanlar akademiyasining sharqshunoslik institutida (3252 raqamli hujjat ostida) saqlanadi. Afsuski, xalqimiz va tariximiz uchun g'oyatda qimmatli va zarur bo'lgan mazkur asar shu kunga qadar o'zbek tiliga tarjima qilinmagan. Uni o'rganish, tahlil va tarjima qilib, millatning ma'naviy boyligini boyitish ziyolilarimizning burchidir.

ABULQOSIM FIRDAVSIY**(940–941–1030)**

IX–XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda adabiyot va badiiy ijod rivoj topdi. Bu davrda yetishib chiqqan soʻz sanʼatining badiiy ustalari mamlakatimiz shon-shuhratini uzoq-uzoq yurtlarga ham taratdilar. Oʻlkamizda somoniylar va gʻaznaviylar sulolalari hukmronlik qilgan davrlarda yashab ijod etgan badiiy ijod ustalari Abdullo Rudakiy, Daqiqiy, Abulqosim Firdavsiy va boshqalarning nomlari tariximizdan munosib oʻrin olgan. Nomi jahonga mashhur boʻlgan Abulqosim Firdavsiy asli Xurosonning Tus shahri yaqinidagi Taboron qishlogʻidan boʻlib, oʻzining «Shohnoma» asari tufayli shuhrat topdi. 60 ming bayt, 120 ming misradan iborat epik dostonni yozish uchun shoir oʻzining 35 yillik umrini sarf qilgan. Rivoyat qilishlaricha, «Shohnoma»ga dastlab qoʻl urgan shoir Daqiqiy boʻlgan. U ming baytdan iborat «Gushtasb» dostonini yozib tugatganda, oʻz quli tomonidan oʻldiriladi va boshlagan ishi chala qoladi. Dostonni yozib tugallash vazifasini Abulqosim Firdavsiy oʻz zimmasiga oladi. Shoir dostonni yozib tugatgach, oʻsha davrda Gʻazna davlatining hukmdori boʻlgan Sulton Mahmudga uni hadya sifatida taqdim etadi. Mahmud Gʻaznaviy bilan Firdavsiy oʻrtasidagi munosabatlarga oid har xil rivoyatlar va yozma manbalar mavjud. Ularning maʼlum bir qismi Mahmud Gʻaznaviyning kamsitish, uni johil va qonxoʻr, kallakesar Sulton sifatida talqin qilishga qaratilgan. Aslida esa Mahmud Gʻaznaviy ilm-maʼrifatga homiy, adolatparvar va diyonatli Sulton boʻlgan. Jumladan, tarixchi Davlatshoh Samarqandiy bergan maʼlumotlarga qaraganda, Sulton Mahmud poytaxti Gʻaznada oʻsha davrda 408 ijodkor olimlar, shoir va yozuvchilar boʻlgan. Ular orasida Unsuriy, Farruhiy, Monuchehriy, Asjadiy, Manshuriy, Utoridiy, Masʼudiy, Roziy, Labibiy, Ziyatiy, Mansur va boshqalar bor edi. Gʻaznada Beruniy va Ibn Sinolar ijodiy hamkorlik qilganlar. Hatto, Firdavsiyning oʻzi ham Mahmud Gʻaznaviy marhamatidan bahramand boʻlganligi yozma manbalarda qayd etiladi. Navoiyning shogirdi tarixchi Zayniddin Vosifiy «Badoe ul vaqoe» asarida yozishicha, oddiy dehqon Ali Daylamning oʻgʻillari Abulqosim va ukasi Abul Mansurga Tus shahri hokimi zulm oʻtkazadi. Shunda Muhammad Asqariy degan doʻsti Abulqosimga Gʻaznaga, Mahmud Gʻaznaviy huzuriga borishni maslahat beradi. Abulqosim Gʻaznaga borib shaharda 70 kun yuradi-yu, ammo Sulton Mahmud huzuriga kira olmaydi. Bir kun koʻz bogʻlogʻich Moxan Abulqosimning bir

dostonini Mahmudga beradi. Doston Sultonga ma'qul bo'ladi va Abulqosimni saroyda uyushtirib turiladigan an'anaviy she'rxonlik kechasiga taklif qiladi. Sulton Mahmud Abulqosimning saroy xizmatkori Ayoz haqida yozgan ruboiysini eshitib «Majlisimni Firdavs bog'idek obod qilding», deydi va bu bilan Abulqosimga Firdavs taxallusi beriladi. Sulton Mahmud Firdavsiyga «Shohnoma» asarini yozib tamomlashni topshiradi. Asarni yozib bo'lgach, Abulqosim uni Mahmud G'aznaviyga taqdim etadi. «Shohnoma» Sultonga ma'qul tushadi. Unda shoir asarning muqaddimasida «Sitoyishi Sulton Mahmud» deb, Sultonni ulug'lab qasida yozgan. Ammo «Shohnoma»da shoirning Eron va Turon o'rtasidagi urushlarda turonliklarni kamsitib, vahshiylardek tasvirlagani Mahmud G'aznaviyga yoqmagan edi. Bu tabiiy bir hol edi, albatta. Chunki Mahmud turk Sulton bo'lgan, biroq shunday bo'lsa-da, Mahmud G'aznaviy Firdavsiyga va'da qilingan 60 ming bayt doston uchun yuz ming dirham oltin berishni vaziri Xoja Maymandiyga topshiradi. Lekin xasis vazir qizg'anib, Firdavsiyga yuz ming oltin o'rniga 60 ming kumush dirham beradi. Shoir unga taqdim qilingan tangalarni qabul qilib oladi-yu, uni uchga bo'lib, hammomchi, bo'zachi va tangalarni olib kelgan xizmatkorga beradi. Voqeadan xabar topgan Mahmud shoirni o'limga mahkum etadi: Firdavsiy Sulton oyog'iga yiqilib, uzr so'raydi. Mahmud shoirning gunohidan o'tgach, Firdavsiy saroyni tark etish oldidan Ayozga bir xat beradi va bu xatni 20 kundan so'ng, Mahmud G'aznaviyga topshirishni iltimos qiladi. Bu xatda u Sulton Mahmudni hajv qilib, she'r bitgan edi. Biroz vaqt o'tgach, Mahmud G'aznaviy masalaning mohiyatini to'g'ri tushungach, va'da qilingan oltinlarni karvon orqali Firdavsiyga Tus shahriga jo'natadi. Ammo shoirga atalgan karvon Tus shahri darvozalaridan kirib kelgan bir paytda, shaharning boshqa bir darvozasidan Firdavsiyning tobutini olib chiqishayotgan edilar. Rivoyatlarga qaraganda, karvonni Firdavsiyning qizi qabul qilib olishdan bosh tortadi, otamga vafo qilmagan boylik menga vafo qilarmidi, deydi. Sulton Mahmud buyrug'i bilan oltinlar Abulqosim Firdavsiy maqbara yodgorligi uchun sarflangan. Shoir umrining oxirini xor-zorlikda o'tkazib, 1030-yilda vafot etgan. 80 yoshlardan oshib qolgan shoir Firdavsiy so'nggi yillarda Bag'dodda yashagan va Qur'ondan olingan rivoyatlar asosida «Yusuf va Zulayho» dostonini yozgan. Dostonning boshlang'ich

qlami «Tavbanoma» deb ataladi. Unda shoir endi qadimiy pahlavonlar haqida og‘iz ochmaslikka qasamyod qiladi va butun umrini sarf etib vujudga keltirgan «farzandi» – «Shohnoma»dan yuz o‘giradi:

*Shohlardan yozmayman endi men aslo,
Dargohi ko‘nglinga urdi mutlaqo,
Bu dostonlar bari qip-qizil yolg‘on,
Bir siqim tuproqqa arzimaz chunon.*

Firdavsiyning «Shohnoma» asarini iqtidorli sharqshunos olim, Firdavsiy nomidagi xalqaro mukofot sovrindori Shoislom Shomuhamedov 1984-yilda o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

MAHMUD QOSHG‘ARIY

(XI asr)

XI asrda yashab ijod qilgan Mahmud Qoshg‘ariyning hayoti va ijodiy faoliyati to‘g‘risida yetarli ma‘lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Shu bois, olimning tug‘ilgan yili va vafoti sanasi ham ma‘lum emas. Uning to‘liq ismi Mahmud ibn Muhammad Qoshg‘ariydir. Bobosi Muhammad va otasi Husayn, Koshg‘ardagi Beregon shahridan bo‘lgan. Qoshg‘ariylar oilasi Bolasog‘unga (Qirg‘izistonning hozirgi To‘qmoq shahri) ko‘chib kelishganda, Mahmud hali yosh bola edi. Bo‘ljak olim o‘z davrining madaniy va ilmiy markazlaridan biri bo‘lgan bu shaharda qunt bilan o‘qidi, arab, fors tillarini o‘rgandi. U yoshlik chog‘ida, xalq jonli tilidagi so‘z va iboralarni, hikmatli so‘z, maqollarni astoydil o‘rgandi, ularni qunt bilan yozib bordi, har bir so‘z, iborani sharhlash va ma‘nosini aniqlashga intildi. Ana shu qiziqish tufayli Mahmud Qoshg‘ariy turkiy xalqlar tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlarini puxta o‘rganish maqsadida butun O‘rta Osiyoni kezib chiqdi. O‘zi to‘plagan boy dalillar asosida xalqimizning buyuk olimi «Javohirun nahv fi lug‘ati turk» («Turkiy tillarning sintaksisi durdonalari») va «Devonu lug‘atit turk» («Turk tilining lug‘ati») asarini yozgan. Mahmud Qoshg‘ariyning birinchi yozgan asari bizgacha yetib kelmagan yoki hali topilganicha yo‘q. Olimning ikkinchi asari «Devonu lug‘atit turk» 1074–1075-yillarda yozilgan. Bu haqida asarning o‘zida quyidagi fikrlar beyon etiladi: «Bu kitobni yozgan yilimiz to‘rt yuz oltmish oltinchi yilning

muharram oyida ilon yili kirgan edi»¹. Bu nodir qo'lyozma asar hozir Istambulda saqlanmoqda.

Asar muqaddima va lug'at qismidan iborat bo'lib, madaniy merosimizda alohida o'rinni egallaydi. Chunki unda olim dunyo xaritasini ham ilova qiladi va Rus (kichik Osiyo)dan to Xitri hududlarigacha cho'zilib ketgan yerlarda yashovchi turkiy xalqlar tarixi, geografiyasi, etnogenezi, urf-odatları, turmush tarzi, madaniyati to'g'risida g'oyatda qimmatli ma'lumotlarni beradi. Asarda turkiy qavm-urug'lar: qipchoq, o'g'uz, yamak, boshqirt, basmil, qay, yaboku, tatar, qirg'iz, chigil, yag'mo, tuxsi, igroq, jaru, jamil, uyg'ur, tangut, tabg'ochlardan tashqari, yana fors, arab, xitoy, rus xalqlari haqida ham ma'lumotlar bor.

«Devoni lug'otit turk»da turkiy xalqlar og'zaki ijodi va yozma adabiyotiga doir 300 dan ortiq she'riy parchalar, maqollar, hikmatli so'zlar va lavhalar berilgan. Olim o'z asarida turkiy tillarga oid juda ko'plab so'z birikmalari, iboralar, talaffuz qoidalarini asoslab beradi. Bu jihatdan mazkur asarni oddiy lug'at deb emas, balki mukammal ishlangan grammatik qo'llanma sifatida qaramoq lozim bo'ladi, Mahmud Qoshg'ariyning asarida Turkistondagi ba'zi shaharlarning nomlari, sharh-izohlar ham berib o'tilgan. Jumladan, unda Toshkent «Tarken» tarzida ko'rsatiladi va «Tarken» Shoshning ismi, asli Toshkent, Tosh shahri demakdir, deb izohlanadi. Samarqandning asli nomi «Samiz kand» – katta shahar deb ta'riflanadi.

«Devonu lug'atit turk»da olim turkiy yozuv to'g'risida g'oyatda qimmatli fikrlarni bayon qiladi va 18 harfdan iborat turk (uygur) alifbosini keltiradi. Asarda imlo masalasida ham muhim ma'lumotlar bor.

Xullas, she'riy usulda qalamga olingan buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg'ariyning asarida yuksak ezgulik g'oyalari, mehnatsevarlik, shaxsiy qahramonlik, g'animlarga nafrat kabi qarashlar o'z ifodasini topgan. «Devoni lug'otit turk» jahondagi juda ko'plab xalqlarning tillariga (shu jumladan, nemis, turk va ozarbayjon tiliga) tarjima qilingan. Asarning ahamiyatiga baho berib, V. V. Bartold quyidagilarni yozgan edi: «Mahmud hayot voqealarini, fakt va dalillarini o'z ko'zi bilan ko'rib, bilib, yozgani uchun bu asar hamon o'zining ilmiy, tarixiy, ma'rifiy qimmatini saqlab kelmoqda».

¹ Sodiqov K. Turkiy javohirlar devoni. «Vatan», 1994, 22-son.

YUSUF XOS HOJIB

(XI asr)

Qoraxoniylar saltanati davrining buyuk siymolaridan biri bolasog'unlik ulug' olim Yusuf Xos Hojib bo'lib, u o'zining hozircha bizga ma'lum bo'lgan yagona didaktik badiiy-falsafiy «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari bilan jahonga mashhur va ma'lum bo'ldi. Adabiyotshunos olim Qayumjon Karimov Yusuf Xos Hojibning dunyoga kelishi va ulug' bir siymo sifatida tanilishi obyektiv hayotiy va qonuniy zarurat bo'lganligini quyidagicha ifoda etadi: «O'sha vaqtda yagona qo'l ostida birlashgan ulkan davlatni boshqarish, hayotni to'g'ri izga solish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib beruvchi donishmand kerak edi. Shunday kishi topildi. Bu Yusuf edi. O'z davri o'rtaga tashlagan dolzarb masalalarga u ziyarak ko'z bilan qaradi. Shu bois, uning 13,5 ming misradan iborat keng hajmli «Qutadg'u bilig» nomli chuqur g'oyaviy, falsafiy-didaktik asari maydonga keldi».

Yusuf Xos Hojibning hayotiy yo'li va faoliyatidan darak beruvchi birorta manba yo'q, tug'ilgan yili va vafoti ma'lum emas. Faqat ulug' adibning «Qutadg'u bilig» asaridagi ma'lumotlar asosidagina, uning to'g'risida ba'zi bir xulosalar chiqarish mumkin. Yusuf Bolasog'unda, ziyoli oilada tug'ilgan. Asarni Koshg'arda bitirib, qoraxoniylar xoni Tamg'och Bug'roxonga tortiq qilgan. Xon adibni taqdirlab o'z saroyida Xos Hojiblik (Saroyning xos noziri) lavozimini bergan. Shundan so'ng, Yusuf Xos Hojib nomi va laqabi bilan shuhrat topgan. U o'z asarini hijriy 462 (milodiy 1069–70) -yilda ellik yoshlik chog'ida o'n sakkiz oyda yozgan:

*Tegurdi menga elgi ellik yashim,
Qug'u qildi quzg'un tusitet bashim.*

Demak, adibning so'zlariga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, asar (1069–70) yozilgan paytda, u 50 yoshlarda bo'lsa, bundan ayon bo'ladiki, Yusuf hijriy 412 (milodiy 1019–20)-yilda tug'ilgan. O'z davrining yirik ma'rifat va madaniyat o'chog'i bo'lgan Bolasog'unda bo'lg'usi adib maktab va madrasalarda o'qib mukammal bilim olgan, arab, fors, tojik tillarini o'rgangan, falsafa, mantiq, matematika va boshqa fanlarni egallagan. U davlat va idora ishlari bilan qiziqqan. Sharq alloma va donishmandlarining bu sohadagi fikr-mulohazalarini kuzatgan.

Turkiy tilda yozilgan didaktik pandnoma-falsafiy «Qutadgʻu bilig» asari muqaddima va xotimadan tashqari 73 bobdan iborat. Unda axloq-odob, ilm-maʼrifat, bola tarbiyasi, jamoat joylarida oʻzini qanday tutish, soʻzning ahamiyati va qadri, mehmondorchilik qoidasi, turmush tarzi va inson maʼnaviy olamining yana koʻpgina masalalari qalamga olingan. Maʼrifat jarchisi boʻlgan Yusuf Xos Hojib markazlashgan kuchli davlat barpo etish uchun kurashuvchi donishmand, adolatli hukmdor qiyofasini ham chizadi. U xalq va davlat, davlat boshligʻi va fuqaro, olim va hokim, qoʻshni davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar, hukmron tabaqalarning hokimiyat, xalq oldidagi burchi haqida gʻoyatda zarur muammolarni ilgari suradi. Ulugʻ olim oʻta ziyaraklik va donishmandlik bilan ziyolilar, dehqonlar, chorvadorlar, kosib-hunarmandlar, savdogarlar, kambagʻal-qashshoqlar va boshqa barcha ijtimoiy guruh toifa va tabaqalarning hayot tarzlari, dunyoqarashlari, odatlari, axloqlari haqida falsafiy mulohazalar silsilasini yaratdi. Falakiyot, geografiya, tarix, mardumshunoslik, etnografiya, tibbiyot, jabru muqobala, riyoziyot, xandasa, ilmi nujum, huquqshunoslik, ijtimoiyot kabi fanlardan maʼlumotli boʻlishni tashviq-targʻib etadi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asari toʻrt tayanch unsur asosiga qurilgan:

Biri toʻgʻrilikka tayanch – Adolat,

Biri Davlat erur, u qutli gʻoyat.

Uchinchi – ulugʻlik aql va zako,

Toʻrtinchi – Qanoat erur bebaho.¹

Bularning har qaysi biri yana alohida-alohida nomlarga ega. Adolatning nomi Kuntugʻdi. U asarda elig, yaʼni podsho vazifasida keladi. Davlatning nomi Oytoʻldidir. U vazir mansabida beriladi. Aql, zakovat esa Oʻgdulmish boʻlib, Oytoʻldining oʻgʻli sifatida namoyon boʻladi. Qanoat Oʻzgurmish nomi bilan berilgan va u vazirning qarindoshi sifatida asarda ifodalanadi. Asarda koʻtarilgan barcha masalalar va muammolar yechimi ana shular orasida boʻlib, oʻtadigan bahs, munozara, savol-javob asosida beriladi. Asarning ayrim boblaridagi mulohaza va qaydlarga eʼtiborni qaratadigan boʻlsak, Yusuf Xos Hojib umrining soʻnggi yillarini xor-zorlikda oʻtkazganligini koʻrmaslik mumkin emas. Jumladan, «Kitob egasi Yusuf Xos Hojib oʻziga pand beradi». «Zamona buzuqligini, doʻstlar

¹ Karimov K. Yusuf Xos Hojib. «Qishloq haqiqati», 1990, 13-iyul.

jafosini aytadi» boblarida mazkur fikrni tasdiqlovchi lavhalarni uchratish mumkin. «Qutadg‘u bilig»ning Qayumjon Karimov tomonidan hozirgi adabiy tilda nashr etilgan nusxasidan ba’zi bir satrlarning mazmunini o‘quvchi diqqatiga havola etsak, masalaning asl mohiyati yanada to‘laroq ochiladi:

*Turayin, borayin, olamni kezayin,
Vafoli kim ekan olamda, qidirayin...
Vafu qahati bo‘ldi, dunyo jafu bilan to‘ldi,
Vafu kimda ekan men ozroq so‘rayin.
Agar men birorta vafoli, saxiy odamni topsam,
Yelkamga ko‘tarayin, yuzimga surayin,
Agar men vafoli odamni topa olmasam,
Yovvoyi kiyik bilan tiriklik qilayin...
Kimni o‘zimga ko‘zdek yaqin tutgan bo‘lsam,
Shaytondek dushman bo‘lib chiqdi. Shaytonni nima qilayin?
Kimni sevgan bo‘lsam, shirin jon kabi tutdim.
Undan jafu keldi, bas kimni sevayin.*

Yusuf Xos Hojib dunyo tashvishlari, adolatsizlik va haqsizliklardan dod-faryod qiladi va ularning barchasidan yuz o‘giradi:

*Otimni bilmasinlar, o‘zimni ko‘rmasinlar,
Izlab topmasinlar, so‘zimni tugatayin.
Chayondek chaqadilar, chivindek so‘radilar,
Ko‘ppakdek qopadilar, qaysi birini urayin.
Jabr-u jafu barchasi menga tegmasin.
Tuban bevafo (lar)dan chetroqda yurayin.*

«Qutadg‘u bilig»dagi bu shikoyatnoma bilan tanishgan har bir aqli raso o‘quvchi qonuniy fikr-o‘yga tushishi tabiiy bir hol: o‘z vaqtida Bug‘roxonga taqdim qilingan va shu asar tufayli Xos Hojiblik mansabiga ko‘tarilgan adib qanday qilib, bu asarga shikoyatnomani joylay olgan. Bizningcha, mazkur asarning bir nusxasi shoirning tasarrufida saqlangan bo‘lishi mumkin. Hayotining so‘nggi g‘am-hasrat bilan to‘la kunlarida kitobi unga hamdard va hamroh bo‘lgan. Ana o‘sha paytlarda yuqorida zikr qilingan hasbi hol shikoyatnomani adib o‘z asariga ilova tarzida kiritgan.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari xalqaro maydon-da tan olingan asardir. Bu kitobni chinlilar (xitoyliklar) «Adabul muluk», mochinlilar (turkistonliklar) «Zaynatul umaro», eronliklar

«Shohnomayi turkiy», turonlar «Qutadg‘u bilig», ba‘zilar «Pandnomayi muluk»¹ deb bejiz atamaganlar. Dunyodagi juda ko‘p xalqlarning tillariga tarjima qilingan «Qutadg‘u bilig» dostoni V. Radlov, S. Z. Maloe, A. Fitrat, A. A. Valitova, N. M. Malayev, Q. Karimov, Boqijon To‘xlievlar diqqatini tortgan va puxta o‘rganilgan. Xullas, Yusuf Xos Hojibning mazkur dostoni xalqimiz ma‘naviy boyligining eng muhim durdonalaridan hisoblanadi.

AHMAD YUGNAKIY

(XII asrning ikkinchi yarmi – XIII asrning boshi)

Turkiy adabiyotning yirik va zabardast vakillaridan biri Ahmad Yugnakiydir. Uning hayotiy va ijodiy yo‘li to‘g‘risida deyarli hech narsa saqlanib qolmagan. Adibning bizgacha yetib kelgan yagona merosi «Hibat ul-Haqoyiq» («Haqiqatlar armug‘oni»)dir. Ana shu asarning faqat bir baytida shoir o‘z nomini tilga oladi. Taniqli adabiyotshunos olim Natal Mallayevning bergan ma‘lumotlariga qaraganda: «Adib Ahmad, otasining ismi Mahmud, vatani Yugnak (Yugnak yoki yug‘noq nomli joy Farg‘ona vodiysida ham, Turkiston va Samarqand atrofida ham bo‘lgan. Lekin Ahmad Yugnakiyning bulardan qaysi birida tavallud topgani aniq emas, kitobning nomi «Hibat ul haqoyiq» («Haqiqatlar armug‘oni») ekani ma‘lum». «Hibat ul-haqoyiq» ning 1480-yilda ko‘chirilgan nusxasidagi noma‘lum shaxs tomonidan yozilgan qaydda dostonning 254 bayt 14 bobdan iborat ekanligi aytiladi. Ammo «Hibat ul-haqoyiq»ning o‘sha 1480-yilda ko‘chirilgan nusxasi esa 235 bayt va II bobdan iboratdir. Ehtimol, dostonni ko‘chirgan kotib Abdurazzoq Baxshiy uni qisqartirilgan nusxasidan ko‘chirgan bo‘lishi mumkin.

«Hibat ul-haqoyiq»ning birinchi bobi (1–10-baytlar) Xudoga, ikkinchi bobi (11–19-baytlar) payg‘ambar va to‘rt xalifaga bag‘ishlab yozilgan. Uchinchi bob (20–33-baytlar) Dodsipohsolarga bag‘ishlanib, muallif uni fuqaroparvar, saxovatli va adolatli bir ulug‘ kishi hisoblab, uni bamisoli dengizga, o‘zini esa, bu dengizga tomchilar hadya qiluvchi bulutga o‘xshatadi. To‘rtinchi bob (34–39-baytlar) asarning yozilishi sabablariga bag‘ishlangan.

¹ Qarang. O‘zbek adabiyoti tarixi. I-Jild. – T.: «Fan». 1977, 107–108-betlar.

Asosiy qism beshinchi bob (40–62-baytlar)dan boshlanadi. U bilim maqtovi va johillikning zarariga bag‘ishlangan. Oltinchi bob (87–110-baytlar) dunyoning foniyligi, sakkizinchi bob saxiylik va baxillik to‘qqizinchi va o‘ninchi boblar (176–226-baytlar) turli xil masalalarga bag‘ishlangan. Va, nixoyat, o‘n birinchi – o‘n to‘rtinchi boblar (227–235-baytlar) kitobning xotimasidir.

Ahmad Yugnakiyning she‘riy uslubda yozilgan «Xiba-asari o‘zbek adabiy merosining buyuk namunasi sifatida uning keyingi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Bu asar hatto, she‘riyat mulkinging Sultoni Alisher Navoiy ijodidan ham munosib o‘rin oldi. U o‘zining «Nasoim ul-muhabbat» («Muhabbat shabadasi») asarida «Hibbat ul-haqoyiq»dan parcha keltirib, shoirning ko‘zi ojiz bo‘lganligini qayd etadi. Shuningdek, Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning o‘g‘li Badiuzzamonga yozgan nomalaridan birida ham «Hibat ul-haqoyiq»dan parchalar keltiradi. Doston dunyo xalqlarining bir necha tillariga tarjima qilingan. Rus olimlari E. E. Bertels, S. E. Malov va boshqalar Ahmad Yugnakiy dostonini chuqur o‘rganib, unga yuk-sak baho berganlar. Xullas, «Hibat ul-haqoyiq» dostoni xalqimizning badiiy-ma‘naviy merosi xazinasidan mustahkam o‘rin olgan ma‘rifiy qimmatbaho asardir.

SOBIR TERMIZIY

(1089–1147)

O‘rta asr adabiy-badiiy muhitining yetuk namoyandasi va davlat arbobi darajasiga ko‘tarilgan, oddiy kosib farzandi, adib Sobir Termiziy 1089-yilda ko‘hna Termizning Duoba guzarida hunarmand ziyoli Ismoil xonadonida tavallud topgan. Uning otasi Ismoil va onasi Sadoqat otin ham bolasining tarbiyasiga alohida e‘tibor beradilar. Termizdagi maktablarda dastlabki ta‘limni olgan Sobir keyinchalik, Hirot madrasasida o‘z bilimlarini yanada takomillashtiradi, she‘rlar mashq qilish bilan birga falsafa, mantiq, falakiyot, matematika kabi fanlarni chuqur o‘zlashtiradi.

Bu orada adib Ismoilning yaqin do‘sti, ma‘rifatli donishmand, ilm-adab ahlining homiysi Abulqosim Ali «Xuroson raisi» darajasiga ko‘tariladi. U Hirot dan Termizga qaytgan Sobirni o‘z dar-gohiga chorlaydi. Ana shu tariqa, 1100-yilda 22 yoshli Sobir Nishopurga qarab yo‘lga otlanadi va mirzolik lavozimiga tayinla-

nadi. Ilm va ma'rifat himoyachisi, davlat arbobi bo'lsa-da, astronomiya va matematika bilan muttasil shug'ullangan. Abulqosim Ali ibn Ja'far markaziy hokimiyatdan yordam olib rasadxona qurdirgan edi. Rasadxona qurilishida Umar Xayyom va Imom Muzaffar Izfuzoriylarning xizmatlari anchagina bo'lgan. Ana shu rasadxonada adib Sobir ham ishladi va o'zining tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarini yanada takomillashtirdi. Abulqosim Ali siyomosida ma'rifat homiysi, ajoyib jasoratli olimni ko'rgan Sobir uni madh etib qasidalar yozdi.

Abulqosim Ali soyasida adib Sobirning obro'-e'tibori va martabasi kundan kun oshib bordi. Sayqaliy, Nasimiy kabi shoirlar bilan yaqindan do'stlashdi, buxorolik yosh shoir Zargar Javhariyga ustozlik qildi. Muizziy Nishopuriy, Sa'di Salmon singari o'z zamonasining mashhur san'atkorlari bilan ijodiy hamkorlik qildi. Adib Sobir Termiziyning bu muvaffaqiyatlari albatta ba'zi bir laganbardor, xushomadgo'y, shuhratparast amaldorlarning g'ashini keltirdi. Ular shoir Sobir imzosi bilan Abulqosim Alini badnom qiluvchi «Xuroson raisi» nomli hajviy she'r yozib tarqatdilar, nufuzli amaldorlardan Amin al-mulk bilan Sobir o'rtasida g'avg'o chiqardilar. Natijada, adib mirzolikdan haydaladi, mol-mulki musodara qilinadi va hayoti xavf ostida qoladi. U 1125-yilda do'stlari yordamida ona shahri Termizga qaytib ketishga muvaffaq bo'lsa-da, biroq Amin al-mulkning qattiq talabi bilan Sobir mahbus sifatida Rovon shahriga badarg'a qilindi. Faqat 1127-yilda shoir hajga borish bahonasida tutqunlikdan ozod etiladi va to'rt yil davomida Arabiston shaharlarini kezib chiqadi. Isfahonda shoir Imodiy bilan uchrashadi, qaytishda Nishopurga tushadi. Abul Qosim Ali uni afv etadi va vataniga qaytishga ruxsat beradi. Ana shu yillar mobaynida adib Sobir Sanoiy G'aznaviy, balxlik Rashiduddin Votvot, Avvari, Abdulvose Jabaliy, Nizomiy Aruziy Samarqandiy singari zamon shoirlari bilan tanishib, ular bilan aloqa o'rnatgan va ustoz sifatida tan olingan edi.

XII asrning 40-yillarida, xususan, Katvon jangidan so'ng, Sulton Sanjar boshchiligidagi saljuqiylar davlati inqiroz sari yuz tuban keta boshladi. Bundan foydalangan mahalliy hokimlar Sulton Sanjardan yuz o'girib, mustaqillik yo'lini izlay boshladilar. Xorazm hokimi Otsiz ham shundaylardan biri edi. Sulton Sanjar Otsizning qasamyodlaridan to'yib bo'lgandi va uning har bir hiylasidan xavf kutardi. Otsizning har bir harakatidan xabardor bo'lib turish maqsadida

Sulton Sanjar Abulqosim Alining maslahati bilan Sobirni Xorazmgaga elchi qilib yubordi. Otsiz Sobirni yaxshi kutib oladi. Bu orada Xorazmshoh tarixchi olim Z. M. Bunyotov ma'lumotlariga qaraganda, ismoiliylar vakillaridan bo'lgan ikki josusni puxta tayyorgarlikdan o'tkazib, Sanjarni o'ldirish uchun Marvga jo'natadi. Josuslarni yaxshi tanigan adib Sobir ularning rasmlarini chizib, bir kampirning mahsisi qo'njiga joylab, Sanjarga jo'natadi. Sulton Sanjar ana shu rasmlarga qarab shahar chetidagi saroylardan birida Otsiz yuborgan josuslarni qo'lga oladi va ularni qatl etadi.

Nihoyatda puxta o'ylanib amalga oshirilgan bu tadbirning fosh bo'lishi sababini Xorazmshoh Otsiz chuqur tahlil etib, adib Sobirni qo'lga oladi. Chunki uning saroyida yagona suratkash Sanjar elchi qilib jo'natgan Sobir Termiziy edi. Oradan ko'p o'tmay, 1147-yil kuz oylaridan birida, yarim tunda Xorazmshoh Otsiz buyrug'i bilan shoir, adib va davlat arbobi Sobir Termiziy ko'kragiga tosh bog'lab, Amudaryoga cho'ktiriladi. Shunday qilib, ulug' adib davr va jaholat qurboni bo'ladi.

Sobir Termiziy g'oyatda iqtidorli ijodkor, donishmand, aqlli va serg'ayrat davlat arbobi edi. U arab va fors tillarida yetuk she'rlar yozgan. Shoirning shu kungacha aniqlangan ijod durdonalari 6650 baytdan iborat she'riy asarlardir. Adib Sobir lirik janrning qasida, g'azal, tarkiband, qit'a, ruboiy yo'llarida ijod qilgan. Ularni jamlab, yagona forsiy devon tuzgan. Hozirgacha bu devonning beshta nusxasi ma'lum. (Adib Termiziy, Saylanma. T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1982, 6-bet.) Adib Sobir ijodiy yo'nalishi rangorandir. Ular ishq-muhabbat, ajoyib insoniy fazilatlar, bahor va tabiat vasfi, pandu nasihatlardan iborat. Shoir ijodiy laboratoriyasida davr va zamon ilatlarini, zolim, fitnachi, shuhratparast, mayxo'r feodallarni, munofiq va johil ruhoniylarni qalamga olish va fosh etish yetakchi o'rinda turadi. Bu borada shoirning quyidagi o'tli satrlari g'oyatda ibratlidir:

Umidim yo'q zamonda yaxshilikdan

Umid birla va lekin utdi umrim

Razillardan bo'shalsa, yaxshi olam

Saxiylardan bo'shabdur endi bilsam.

Xullas, adib va davlat arbobi Sobir Termiziy o'z ijodi bilan bugungi kunda xalqimizning ma'naviy kamolotini boyitish yo'lida xizmat qilmoqda.

ABULQOSIM MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY**(1075–1144)**

Xorazm ilm-fani va madaniyatini dunyoga tanitgan buyuk siy-molardan yana biri arabshunos olim, shoir, yozuvchi va imom Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Jarulloh Zamahshariydir. U 18-martda Xorazmning Zamahshar (hozirgi vaqtda Turkmanistonning Toshhovuz viloyatiga qarashli Paxta tumanidagi Izmixshar qishlogʻi) qishlogʻida tavallud topgan. Boshlangʻich maʼlumotni u oʻz zamonasining oʻqimishli imomi boʻlgan otasi Umar ibn Ahmad qoʻlida oladi. Yoshligida baxtsiz hodisa tufayli tomdan yiqilib, mayib boʻlib qolgan va yogʻoch oyoqda yurishga majbur boʻlgan Zamahshariy ruhiy tushkunlikka tushmaydi. U otasidan Urganch madrasalaridan biriga oʻqishga olib borib qoʻyishni iltimos qiladi. Ota oʻgʻlining iltimosini qondirsa-da, biroq kambagʻallik tufayli uni moddiy tomondan qoʻllay olmaydi.

Zamahshariy mohir husnixat sohibi boʻlganligidan madrasada oʻqish bilan birga qoʻlyozma asarlarni koʻchirish bilan ham shugʻullanadi va buning evaziga maosh olib yashash imkoiyatiga ega boʻladi. Boʻlgʻusi olimdagi nodir qobiliyatni payqagan Abu Muzar Mahmud az-Zabbiy Isfahoniy Zamahshariyga ustozlik qilishni oʻz zimmasiga oladi, unga har tomonlama ham ilmiy, ham moddiy yordam koʻrsatadi. Abu Muzar Xorazmda mutazimiylar taʼlimotini yo-yish bilan shugʻullanardi. Bu taʼlimotga koʻra, insonning qilmishi azal va taqdirda belgilanganiday majburiy boʻlmasdan, erkin holat-da, uning oʻz ixtiyori bilan sodir boʻlishi lozim. Zamahshariy umri-ning oxirigi qadar ana shu tariqatga sodiq qoldi.

Urganchda tahsil koʻrgan Zamahshariy oʻz bilimini takomillash-tirish maqsadida, Buxoro, Xuroson va Isfahonga boradi, oʻz zamo-nasining yirik olimlari va mutafakkirlaridan saboqlar va maslahatlar oladi. Undan keyingi hayotini buyuk olim Bagʻdod, Damashq, Xijoz va Makkayi Mukarrama kabi qadamjo tuproqlar bilan bogʻlaydi. Zamahshariy umrining soʻnggi yillarini Urganchda turganlikda ilmiy ishlar yozish bilan oʻtkazadi va 1144 (538)-yil Qurbon hayiti ara-fasida 71 yoshda vafot etadi.

Az-Zamahshariydan juda koʻp ilmiy meros qolgan, uning til-shunoslik, adabiyotshunoslik, lugʻatshunoslik, fiqh, tavsifshunoslik, islom tarixi, falsafa, uslub va notiqlik sanʼati, tafsir, hadis va boshqa fanlar boʻyicha yozgan ellikdan ortiq asarlari bor. Mashhur turk

olimi Hoji Halif («Kashf az-Zunun» asarida) Zamahshariyning 29 asari, arab olimi **Ibn Hallikon** («Vafayot al-A'yon» asarida) 30 asari va **Yoqut Hamaviy** esa 50 asarning tavsifini bergan.¹ Iroq olimi **Fozil Solih az-Samariy** esa ulug' vatandoshimizning 56 asari borligini aytib, ularning nomlarini birma-bir keltirib o'tadi.

So'zsiz, az-Zamahshariyning eng yirik va mashhur asari «Al-Kashshof an haqayiq ut tanziyl va uyin il-aqoviyl fi vujuh it-ta'viyl» («Qur'ondagi yashirin haqiqatlarni ochib beruvchi»)dir. U qisqacha «Al-kashshof» deb ataladi. Bu kitobni olim 1132–1135-yillarda Makkayi Mukarramada bo'lgan chog'ida yozgan. Zamahshariy Makkada uzoq vaqt yashaganligi uchun Jarulloh (Allohning qo'shnisi) degan faxrli laqabni olgan. Asarda buyuk alloma, Qur'oni karimni til jihatidan izohlab, har bir so'z ma'nosini arab grammatikasi asosida tushuntiradi. Vatandoshimizning mazkur kitobi Qur'onga yozilgan eng mashhur va mo'tabar tafsirlardan bo'lib hozirga qadar musulmon dunyosi va ilmiy jamoatchilik undan keng foydalanib kelmoqda. Qohiradagi butun dunyoga mashhur Al-Azhar diniy universitetining talabarlari Zamahshariyning «Al-Kashshof» asari asosida Qur'onni va uning tafsirini o'rganib, undan muhim bir qo'llanma sifatida foydalanib keladilar. Az-Zamahshariy asarining g'oyatda qimmatli asar ekanligiga yana yorqin bir dalil sifatida uning qo'lyozma nusxalarining ko'pligi, asarga yozilgan bir qancha sharhlar va uning arab mamlakatlarida qayta-qayta nashr qilinishini ko'rsatish mumkin. Nemis sharhshunos olimi **Karl Brok Kelman** dunyoning turli qo'lyozma jamlanmalarida «Al-Kashshof»ning yuzga yaqin qo'lyozmalari va yigirmadan ortiq asarning o'ziga yozilgan sharh va tafsirlari borligini ma'lum qiladi. Toshkentda ham «Al-Kashshof»ning o'ndan ortiq nusxalari saqlanadi.

Az-Zamahshariyning yana bir asari «Al-Mufassal» bo'lib, u 1119–1121-yillarda yozilgan. Bu asar arab grammatikasiga oid eng qimmatli asardir. Asar Misrda nashr etilgan, nemis tiliga tarjima qilingan. «Al-Mufassal»ning bir qo'lyozma nusxasi Toshkentda Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot institutining hujjatxonasida saqlanmoqda.

Buyuk arabshunos olimning «Asos al-balog'a» («Notiqlik asoslari») kitobi arab tilining izohli lug'ati bo'lib, arab lug'atshunosligini yuqori pog'onaga ko'tardi. Bu asar Qohirada ikki jildda nashr qilingan.

¹ Q a r a n g. *Abdullayev I.* «Az-Zamahshariy». «Qishloq haqiqati», 1991-y. 10-iyul.

Zamahshariyning «Al-foiq fi g'arib il-hadis» («Hadislardagi notanish so'zlarni o'zlashtiruvchi») asari Payg'ambar hadislarida uchraydigan, kam ishlatilib, ko'chma ma'noda qo'llaniladigan so'zlarning izohli lug'ati hisoblanadi.

Al-jibol va-l-amkina va-l-miyoh» («Tog'lar, manzillar va suvlar») geografiya va toponimikaga oid asardir. «Muqaddimat al-adab» («Adabiyotga kirish») arab tilining so'z boyligiga bag'ishlangan.

Vatandoshimizning «Devon az-Zamahshariy» («Zamahshariy devoni») nomli devonida olimning qasida, qit'a va nazmiy xatlari o'rin olgan. Uning lirik she'rlari, asosan, falsafa va axloq mavzulariga bag'ishlangan. Biz ulug' allomaning boy ijodiy merosidan ba'zilar to'g'risida qisman fikr yuritdik, xolos. Zamahshariy dunyo tan olgan alloma. U hali hayotligidayoq olim yozgan asarlar musulmon olamida unga shon-shuhrat keltirgan. Dunyo olimlari Zamahshariyini yuksak hurmat va mehr bilan ulug'lab, «Ustoz ul-arab va l-ajam» («Arablar va g'ayri-arablar ustози»), «Jorulloh» («Alloxning qo'shnisi»), «Faxru Xorazm» («Xorazm faxri»), deya e'zozlaganlar. Uning asarlari jahon xalqlarining, jumladan, arab, lotin, nemis, fransuz, turk tillariga qayta-qayta nashr qilinmoqda. Abu saidi Sam'oniy-Marvaziy (1113–1167), Yoqut Hamaviy (1179–1227) kabi jahonda tanilgan olimlar «Nasabnoma», «Adiblar haqida to'lam» asarlarida Zamahshariyini «Adablar peshvosi», deb baholaganlar. Hatto, ulug' bobomiz Alisher Navoiy «Sab'ayi sayyor» («Yetti sayyoh») dostonining ustози Abdurahmon Jomiy ta'rifiga bag'ishlangan bobida Zamahshariyini eslab, unga murojaat qiladi.

RASHIDUDDIN AL-VOTVOT (1114-16-1191)

Asli Balx shahridan bo'lib, Xorazmga kelib, ijod shohsupasining yuqori to'ridan joy olgan shoir va adib, mashhur kotib darajasiga ko'tarilgan davlat arbobi Rashiduddin al-Votvot hisoblanadi. Uning to'liq ismi Rashiduddin Muhammad ibn Abdujalil al-Umariydir. Al-Votvot esa uning laqabi bo'lib, («votvot» arabcha «ko'rshapalak» demakdir, u kalta bo'yli, tepakal va hunuk basharali bo'lganligidan shu laqabni olgan bo'lishi mumkin), uning tug'ilgan yili to'g'risida aniq ma'lumot y'q. Ba'zi manbalarda, uning tug'ilgan yili 1114–1116-yillar orasida, deb ko'rsatilsa, boshqa joyda 1087 yoki 1094

raqamlari tilga olinadi. Bo'lg'usi adibning yoshligi Balxda kechgan. U o'sha paytda, Sharqning yirik madaniy va ma'muriy markazlaridan biri sanalgan Balxdagi eng e'tiborli madrasalardan biri – Nizomiya madrasasida taniqli olim va imom Abu Sa'd al-Haraviy qo'lida tahsil ko'rgan.

Tez orada Balxda o'z davrining taniqli shoiri va adibi sifatida el ko'ziga tashlangan Rashiduddin al-Votvot, Xorazmga keladi va umrining oxirigacha shu yerda qoladi. U qariyb o'ttiz yil mobaynida Xorazmshohlar saroyida dastlab, Otsiz, so'ngra El Arslon va Aloviddin Takashlar huzurida obro'-e'tibor bilan maxsus (kotib al-xoss) vazifani bajaradi. Bu yuqori martabada Rashiduddin al-Votvotning katta hurmat va e'tiborli bir shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishiga asosiy sabab, eng avvalo, undagi shaxsiy aql va qobiliyat bo'lsa, ikkinchidan, uning yuqori saviyali ish tajribaga ega ekanligi, arab va fors tillarini mukammal bilganligi va kotiblik sir-asrorlarini puxta egallaganligidir. Arabshunos Ubaydulla Uvatov bergan ma'lumotlarda qayd qilinishicha, Yoqut al-Hamaniy Rashiduddin al-Votvot xususida bunday degan: «U o'z zamonasining eng nodir va ajib kishilaridan, o'z davrining g'aroyib shaxslaridan bo'lib, nasr va nazm bobida o'z asrining eng fozili edi. Arab tilining eng nozik tomonlari, nahv-u adabning g'oyatda bilimdoni edi. Uning shuhrati chor atrofga yoyilgan bo'lib, nomi esa barcha iqlimlarda ma'lum edi»¹.

Rashiduddin al-Votvot Xorazmshohlar saroyida bo'lgan chog'ida juda ko'plab olimlar, adiblar, shoirlar va boshqa ijod ahllari bilan yaqindan aloqada bo'lgan, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlagan. U az-Zamahshariyni juda katta hurmat bilan e'zozlagan, uni o'z ustoz deb bilgan va ustoz vafotidan so'ng, uning yozgan asarlarini ko'plab noo'rin va g'arazli tuzatishlardan saqlagan. Buni biz adibning o'sha paytda, mashhur allomalardan biriga yozgan quyidagi mazmundagi xatidan ochiq-oydin ko'rishimiz mumkin: «Yaqinda qo'limga ustoz az-Zamahshariyning «Asos al-baloga» asarining bir nusxasi tushib qoldi. Qarasam, asarga shunday o'zgartirishlar kiritilganki, bularni e'tiborsiz shu zaylda qoldirishni vijdonim maqbul ko'rmayotir... Basharti Alloh umrlarini uzoq qilgur hazratlari (ya'ni

¹ Uvatov U. Donolardan saboqlar, 41-bet.

«**12**) ma'qul ko'rsangiz, men ushbu nusxani Alloh ruhini munavvar qilgur Jorulloh az-Zamahshariyning shaxsan o'zlari ko'rib chiqqan nusxa bilan muqobila qilib, o'zgartirilgan g'alati iboralarni tuzataman. Xatosini savobiga aylantirib, bu xayrli ishni kamoliga yetkazaman. Janoblariga men tomonimdan benihoya ko'p shukurlar va bitmas-tuganmas hamd-u sanolar bo'lsin»¹.

Rashiduddin al-Votvot badiiy ijod bobida ham shoir va adib sifatida barakali meros qoldirgan. U arab va fors tillarini mukammal bilganligidan har ikkala tilda nasriy va nazmiyda bab-barobar ijod qilgan. Ijodkorning forsiyda yozgan asarlari E.Braunning Davlatshoh as-Samarqandiyga tayanib bergan ma'lumotiga qaraganda, o'n besh ming she'riy devondan iborat bo'lgan.

Al-Votvotning arab tilida yozgan she'rlari ham alohida devondan iborat edi. Ularning kattagina qismi shoirning asosiy asari hisoblangan «Hadoiq, as-sihr fi daqoiq ash-shi'r» («She'riyat nozikliklarida sehr bo'stonlari»)ga kiritilgan. Fors tilida tuzilgan mazkur kitob rus sharqshunosi N. Chalisova tomonidan tarjima qilinib, 1985-yilda Moskvada chop etilgan.

Rashiduddin al-Votvot ijodida uning «Ar-rasoil» («Maktublar») nomi bilan atalgan yozishmalar to'plami alohida ahamiyatlidir. To'plam 1156–1173-yillar orasida yozilgan. Unda Xorazmshoh Otsizning nabirasi Sulton Mahmud (1172–1193-yillarda hukmronlik qilgan)ga bag'ishlangan maktublar o'z aksini topgan. Bu maktublar, asosan, ikki qismdan iboratdir. Birinchi qism: xalifalar, Sultonlar, xoqonlar, vazir-u amirlar, valiylar, qozi va muftiylar nomiga jo'natilgan turli-tuman maktublardan iborat. «Maktublar»ning ikkinchi qismi esa olimlar, yuqori mansabli amaldorlar, mashhur shaxslar, shoir-u adiblar va muallifning o'z yaqin yor-u do'stlariga yo'llagan maktublaridan tashkil topgan. Rashiduddin al-Votvotning «Maktublar»ida o'sha davrning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayotiga oid masalalar va ma'lumotlar o'rin olgan.

Xullas, ona Vatan tarixini har tomonlama va chuqur o'rganishda Rashiduddin al-Votvot qoldirgan ilmiy va badiiy meros benihoya qimmatga ega bo'lgan ma'naviy boylikdir.

¹ Uvatov U. Rasxuddin al-Vot Vot maktublari. «Guliston», 1991, 11-son, 13-bet.

BURXONIDDIN AL-MARG'ILONIY (1123–1197)

IX–XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda islom huquqi - shariat ancha rivoj topgan edi. Shariat yangi izchil huquqiy tizim sifatida, taxminan, XI asrda ash-Shariyada (arabcha «to'g'ri yo'l») barqaror shaklga kirgan. Shariat – bu islom axloqiy qadriyatlari va musulmon huquqi falsafasidan iborat bo'lib, uning tub mohiyati fiqh deb yuritiladi. Fiqh ilmi – musulmon qonunshunosligi – Sharq xalqlari va islom madaniyati erishgan buyuk yutuq bo'lib bu borada Movarounnahr va Xorazm allomalari juda boy meros qoldirganlar. Vatandosh fiqhshunos olimlarimiz: Abu Havs al-Buxoriy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abul-l-lays as-Samarqandiy, Abu Bakr al-Buxoriy, Faxr ud-din Qozixon, Shams ul-a imma as-Saraxsiy va boshqalar o'z davrida islom dunyosida ma'lum va mashhur bo'lganlar. Nomi yuqorida tilga olingan olimlar orasida Ali ibn Abu Bakr ibn Abdul Jalil Al-Farg'oniy Ar-Rishtoniy al-Marg'oniy alohida o'rin tutadi. Huquqshunos olim Akmal Saidovning ma'lumotlariga qaraganda, buyuk olim 1123-yil 23-sentabrda Marg'ilonda tavallud topgan va 1197-yil 29-oktabrda 74 yoshida vafot etgan. Olim o'rta asrlarda Marg'ilon shahrini arablar «Marg'ilon» atamasi bilan ataganliklariga o'quvchi diqqatini qaratadi. Fiqhshunos olimning qabri Samarqand shahridagi Chokardiza qabristonida deb ko'rsatadi.

Burxoniddin Marg'iloniy ilmiy barkamollikka Rishton, Marg'ilon, Buxoro, Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlardagi ilm dargohlarida musulmon huquqi xanafiya mazhabining buyuk nazariyotchisi va amaliyotchisi bo'lib yetishgan. Bu to'g'rida Abdulhay al-Lankavi: «...u imom, qonunshunos bo'lgan. Hadislar bilan shug'ullangan. Qur'onni yod bilgan va unga sharhlar bergan. Ilmlarni yig'gan va muayyan fan tizimiga keltirgan. Nihoyatda zukko va sinchkov tadqiqotchi va xudojo'y pok inson bo'lgan. Fan va adabiyotda tengi yo'q buyuk huquqshunos, adabiyotshunos va shoir bo'lgan, deb yozadi.

Burxoniddin Marg'iloniy musulmon olami fani erishgan barcha bilimlarni egallagan, ulug' allomalardan saboqlar olgan, Sunniy shariatining to'rt asosiy mazhablari asoschilari va ularning shogirdlari asarlarini qunt bilan mutolaa qilgan. Bu narsa ulug' allomaga fiqh ilmi bo'yicha tengsiz asarlar yozib qoldirishiga imkoniyat yarat-

di. Fiqhshunos olimning «Bidoyat al-mubtadiy» («Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim»), «Kifoyat al-muntahiy» («Yakunlovchilar uchun tugal ta'lim»), «Nashr ul-mazhab» («Mazhabning yoyilishi»), «Kitob ul-mazid» («Ilmni ziyoda qiluvchi kitob»), «Kitob ul-faroiz» («Farzlar kitobi»), «Majma ul-navozil» («Nozil bo'lgan narsalar to'plami») «Manosik ul-haj» («Haj marosimlari»), «Kitob ul-mashoyih» («Shayxlar haqidagi kitob») kabi buyuk asarlar shular jumlasidandir. Albatta, ulug' alloma ijodida «Hidoya fi furu' al fiqh» («Fiqh sohalari bo'yicha qo'llanma») tengi yo'q shoh asardir. Bu asarni olim 1178-yilda Samarqandda yozgan. Burxoniddin Marg'iloniyning «Hidoya» kitobi to'rt jilddan iborat va 56 bobni tashkil etadi. Bu asar o'ziga xos shariat kodeksi bo'lib, hozirgi kunda ham islom dunyosi qonunshunoslari uchun asosiy qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Unda shariat masalalarida muallifning fikr-xulosalari bilan bir qatorda Xanafiylar mazhabining barcha imomlari, shuningdek, boshqa mazhab vakillarining mulohazalari ham o'rin olgan. Asarda islomning asosiy marosim talablari, huquqiy va axloqiy qoidalari, xususan, tahorat, namoz, zakot, ro'za, haj, qurbonlik; oila-nikoh bilan bog'liq bo'lgan masalalar, huquqiy qoidalarni bajar-maganlik uchun jazo choralari belgilangan. «Hidoya»da mulkiy va moliyaviy munosabatlarga, jinoyat va jazo, fuqarolik huquqlari, sud va protsessual masalalar keng o'rin olgan. Yana unda urushlar, o'lja olish va uni taqsimlash, turmush va faoliyatdagi taqiqlashlar, ijozatlarning haqida ham huquqiy yo'l-yo'riqlar beriladi.

«Hidoya» kitobi jamiyatshunos, huquqshunos, tarixshunos, sharqshunos, dinshunos hamda ona Vatan tarixi va shariat bilan shug'ullanuvchi barcha kitobxonlar uchun bebaho qo'llanmadir. Shu boisdan ham Burxoniddin Marg'iloniyning bu asari bir qancha tillarga tarjima qilingan. Xususan, «Hidoya» xanafiylar mazhabi tarqalgan bir qator arab davlatlarida, Afrikaning ayrim mamlakatlarida, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Afg'oniston, Xitoy musulmonlari orasida keng tarqalgan. Bu asar O'rta Osiyo, Kavkaz, Rossiya musulmonlari orasida ham keng tarqalgan va islom madrasalarida fiqh ilmi bo'yicha asosiy o'quv qo'llanmasi bo'lib kelgan. Ammo buyuk yurtdoshimiz Burxoniddin Marg'iloniyning o'zi ham, uning butun dunyo tan olgan «Hidoya» asari ham o'z ona yurtida munosib qadr-qimmatga ega bo'lgan o'rnini shu paytga qa-

dar topganicha yo‘q. Xullas, biz IX–XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ulug‘ vatandoshlarimizning bir necha vakillari to‘g‘risidagina qisqacha bir tarzda ma‘lumot berdik, ular shu darajada ko‘pki, barchasini qalamga olishning imkoniyati yo‘q. Ammo o‘lkamiz tuprog‘ida yetishib chiqqan ulug‘ allomalar, mutafakkir buyuk siymolar, shoir va yozuvchilarning qisqacha tafsilotining o‘zi ham qalblarimizni faxr va g‘urur bilan to‘ldiradi, chunki biz oddiy insonlarning avlodlari emasmiz, balki bag‘ri, qalbi, butun ildiz tomirlari va tayanchlari benihoya mustahkam, jahon fani va madaniyati beshiklarini tebratgan, uning taraqqiyotiga salmoqli va buyuk hissa qo‘shgan ulug‘ siymolar – daholarning avlodlarimiz.

3. ISLOM MADANIYATI. HADISLAR

IX–XII asrlarda O‘rta Osiyo hududida dunyoviy fan va madaniyat bilan bir qatorda islom madaniyati ham rivojlandi va taraqqiy etdi. Jamiyatdan mahalliy dinlar, zardushtiylik, buddizm va boshqalar surib chiqarildi. Arab tili va arab yozuvi davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan til va yozuv darajasiga ko‘tarildi. Kishi nomlari, joy nomlari, sanalar, o‘lchov birliklari arabchaga o‘zgartirildi. Hatto, ona yerimiz Movarounnahr (ikki daryo oralig‘idagi joy) nomini oldi. Islom mafkurasi somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar hukmdorlarining ichki va tashqi siyosatda yurgizgan siyosatida bosh yo‘naltiruvchi g‘oyaviy kuch bo‘lib xizmat qildi. Ular o‘zlarining barcha faoliyatlarini islom himoyasi, Muhammad alayhissalom va Alloh taolo yo‘liga sodiqlik bayrog‘i ostida amalga oshirar edilar. Jamiyat a‘zolari o‘rtasida islom diniga, Qur‘oni karimga ehtiyoj kuchaydi, ammo hamma ham Qur‘oni karimni o‘qiy olmas, uning mazmunini chaqa olmas edi. Bu Qur‘onning mazmunini sharhlash va tafsiriga talabni oshirdi. Natijada, o‘lkamizda Qur‘oni karimni sharhlovchi va uning tafsirini bayon qiluvchi asarlar yozgan ulug‘ islomshunos allomalar yetishib chiqdi. Imom Abu Mansur Moturidiy, Imom Abu Lays ibn Muhammad Samarqandiy, Imom Zamahshariy, Imom Nasafiylar

ana shular jumlasidandir. Islom madaniyatining Qur'oni karimdan keyin ikkinchi o'rinda turadigan nodir manbalaridan biri hadislar, ya'ni Muhammad alayhissalomning diniy va axloqiy ko'rsatmalari, hikmatli so'zlaridir. Chunki payg'ambar Muhammad alayhissalomning o'zlari ham bu haqida shunday deganlar: «Ey ummatlarim! Men sizlar uchun Qur'oni karim bilan o'zimning sunnatim – yo'l-yo'riqlarimni qoldirdim. Siz bu ikkalasini qattiq ushlab, ularga amal qilsangiz, to'g'ri yo'ldan aslo adashmaysiz»¹. Hadislar rasululloh hayotlik chog'larida, asosan, yodda saqlangan, uni kitob holda jamlab tuzishga ijozat bermaganlar. Buning asosiy sababi Hadislarning Qur'oni karim oyatlari bilan qo'shilib, aralashib ketishini oldini olishdan iborat edi. Muhammad alayhissalom hadislarini insonlar hayotida, ularning turmush tarzida katta ahamiyatga ega ekanligiga ham diqqatni qaratganlar. Uch xil yo'nalishdagi Hadislar to'g'risida fikr yuritishadi: bu «Musnad», «Sahih» va «Sunan»dir. 1. «Musnad» yo'nalishida tasnif etilgan to'plamlarda turli mavzulardagi hadislar bir joyda keltirilib, ular hadis rivoyat qiluvchi sahobalarning islom dinini qabul qilgan vaqtiga ko'ra yoki alifbo tartibida joylashtiriladi. 2. «Sahih» yo'nalishidagi hadislar to'plamiga buyuk muhaddis, vatandoshimiz imom Byxoriy asos solganlar. Bu yo'nalishda ta'rif etilgan to'plamlarga faqat to'g'ri, ishonarli hadislar kiritilgan. 3. «Sunan» yo'nalishidagi to'plamlarda to'g'ri, ishonarli hadislar bilan bir qatorda «zaif» hadislar ham keltirilgan. Hadischilikning rivojlanishida IX asr oltin davr hisoblanadi. Buning sababi, butun Islom dunyosida eng nufuzli deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining mualliflari ham xuddi shu asrda yashab ijod qilganlar. Yana shu narsa diqqatga loyiqki, mazkur olti muhaddisning ham deyarli hammasi O'rta Osiyo tuprog'ida yetishib chiqqanlar. Ular Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy, Imom Ahmad An-Naso'iy, Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazit ibn Mojja kabi zotlardir. Ularning har biri hadis ilmi rivojiga munosib hissa qo'shgan olimlardan hisoblanadilar. Hozirgi kunda ham butun islom olami ularning ilmiga katta hurmat va ehtirom bilan qarab o'rganib kelmoqda.

¹ Uvatov U. Donolardan saboqlar, 6-bet.

Ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti – AYSESKO tomonidan 2007-yilda poytaxtimiz Toshkent shahri «Islom madaniyati poytaxti», deb e'lon qilindi. Bu voqea yurtimizda quvonchli va olamshumul voqea bo'ldi. Chunki islom olamining nufuzli tashkiloti tomonidan aynan Toshkentni bunday nomga sharaflı ko'rishi bejiz emas va uning o'ziga xos sabab va omillari mavjud.

«Turkiston-press» nodavlat axborot agentligi muxbiriga bergan intervyusida Prezidentimiz Islom Karimov bu haqida shunday dedi: «Agarki tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, hoki poklari O'zbekiston tuprog'ida yotgan ulug' ajdodlarimiz, ne-ne mutafakkir zotlar asrlar mobaynida dunyoviy va diniy ilmlar sohasida qanday buyuk kashfiyotlar yaratgani, buning uchun qancha zahmat va mashaqqatlar chekkanini ko'ramiz. Bugun biz guvoh bo'lib, turgan yuksak e'tirof, avvalo, ana shunday ajdodlarimizning tabarruk nomlari va qoldirgan merosiga, o'zbek xalqining islom madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasiga berilgan munosib baho, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz».¹

Vatanimiz zaminida ming yilliklar tarixini, ma'naviyatini, madaniyatini, san'atini, dinini, e'tiqodini, milliyligini, o'zligini, mafkurasini, salobat-u qudratini ko'z-ko'z qilib turgan tarixiy obidalar, binolar, majmualar, manba va adabiyotlar shu qadar ko'pki, hali hanuz sanab adog'iga etib bo'lmaydi.

Bugungi kunda, shaxsan Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizning barcha hudud va mintaqalarida tarixiy merosimizni tiklash, ta'mirlash kabi ezgu ishlar amalga oshirilmoqda. Bu haqida so'z yuritganda, Samarqanddagi Imom Buxoriy va Imom Moturudiy ziyoratgohlari, Buxorodagi Abulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband, Minorai Kalon va Masjidi Kalon majmualari, Farg'onadagi Ahmad Farg'oniy va Burxoniddin Marg'iloniy yodgorliklari, Surxondaryodagi Hakim Termiziy va Imom Termiziy, Xivadagi Ichan qal'a, Shahrisabzdagi Dorut-tilovat, Qarshi shahridagi Odina va Ko'kgumbaz obidalar, Karmana shahridagi Qosim shayx maqbarasi singari o'nlab qadamjolar obod etildi. Qur'oni karimning eng qadimiy va mo'tabar nushalaridan biri bo'lgan mashhur Usmon Qur'oni ham aynan Toshkent shahrida (Hazrati Imom majmuasida)dir.

¹ «Fuqarolik jamiyati». 2008, 2-son, 3-bet.

MUHAMMAD IBN ISMOIL AL-BUXORIY (810–870)

«Hadis ilmidagi Amir-ul mu'miniyn» degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan muhaddis olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Mugira al-Buxoriy al-Jubfiy hijriy 194-yil shavvol oyining 13-kuni, hozirgi hisobda 810-yil 20-iyulda Buxoroda taval-lud topgan. O'n yoshga yetmasdan ilmi hadisni o'rganmoqqa kirish-gan imom Buxoriy 11 yoshida ba'zi ustozlarining xatolarini topa boshlagan. O'n olti yoshga yetganida, 825–826-yillarda onalari va akalari bilan haj safariga ravona bo'ladilar. Makka va Madinani zi-yorat qilib, olti yil Hijozda yashab hadis ilmini astoydil o'rganadi. Shundan so'ng, imom Buxoriy Muhammad alayhissalomning hadisi shariflarini yanada chuqurroq o'rganish va ularni to'plab tartibga solmoq niyatida o'sha davrda islom fani olamining yirik markazlari bo'lmish Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarni kezib chiqadi. Bu yerlarda u hadis ilmi bilan bir qatorda fiqhdan ham ta'lim va saboqlar oladi, yirik olimlar davrasida bahs-muno-zaralarda qatnashadi va ilmi toliblariga dars ham beradi. Nishopurlik al-Hakim(1025-yilda vafot etgan)ning ma'lumotlariga qaraganda, imom Buxoriy ustozlarining soni to'qson kishi atrofida bo'lgan, Ayni zamonda, o'zlari ham «Minglab shogirdlar yetishtirganlar – Muslim ibn Hajjoj, Iso at-Termiziy, An-Nasoriy, Abu Zur'a, Yusuf al-Forobiy, Abu Bakr ibn Xuzayma kabi mashhur muhaddislar shular jumlasidandir»¹.

Imom Buxoriy jami 600 ming hadislarni to'plaganlar. Shulardan 100 ming «sahih» hadislarni va 200 ming «g'ayri sahih» hadislarni yoddan bilganlar. Hadis ilmi bobida imom Buxoriyga teng keladigan biror kimsa musulmon olamida bo'lmagan. Imom Buxoriy xorij-dan qaytgach, hadis ilmini targ'ib qilishga kirishadi. Ko'pchilik uni hurmatlagan va e'zozlagan. Ammo ba'zi g'arazgo'y va qora niyatli kishilar al-Buxoriyga hasad qilar edilar. Ularning hasadgo'yligi va qutqusi oqibatida imom Buxoriy bilan Buxoro hukmdori Holid ibn Ahmad az-Zuhaliy o'rtasida adovat paydo bo'ladi. Buning sababi shundaki, hukmdor allomadan huzuriga kelib «Al-Jome' as-sahih», «At-Ta'rix» kitoblarini farzandlariga o'qib, dars berishni talab qila-di. Imom Buxoriy bu talabni rad etadi: «Men ilmni xor qilib, uni ho-

¹ *Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis, 1-Jild. Al-Jome as-sahih. – T.: 1991, 5-bet.*

kimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo'lsa, o'zi **kelsin**. Lekin Alloh oxirat kuni ilmni yashirmay, uni toliblarga sarf **qilganim** uchun meni kechiradi», – deb javob beradi. Buxoro **hokimi** ig'vogarlarining maslahatlariga quloq solib, imom Buxoriydan **shaharni** tark etishni talab qiladi. Olim Samarqand ulamolari taklifi **bilan** yo'lga chiqadi. Yo'lda Samarqandga yaqin Hartang (hozirgi Poyariq tumani) qishlog'ida qarindoshlaridan bo'lmish Abu Mansur **G'ib** ibn Jabril degan kishining uyida to'xtaydi va bir necha kun bu yerda betob bo'lib yotib qoladi. Imom Buxoriy ko'p vaqt o'tmay shu yerda, hijriy 256 (milodiy 870-yil 1-sentabrda)-yili 62 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilindi. Endilikda uning qabri Movarounnahr diniy boshqarmasi ixtiyorida bo'lib, tabarruk va ziyoratgoh joylardan biri sifatida davlat muhofazasidir.

Imom Buxoriydan ulkan va boy meros qolgan. U yozgan asarlarining soni yigirmadan ortiqdir. Olimning «Al-adab al-Mufrad», «At-Ta'rix as-Sagir», «At-Ta'rix al-Kabiyr», «Kitob al-Ilal», «Asomi us-Sahoba», «Kitob al-Kuna» va boshqa asarlari orasida shoh asar hisoblanmish «Al-Jome' as-sahih» («Ishonarli to'plam») asari to'rt jilddan iborat bo'lib, islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadislar to'plamlari orasida eng ishonarlisi va mukammalidir. Unda Muhammad alayhissalom hadislaridan tashqari fiqh, islom marosimchiligi, axloq-odob, ta'lim-tarbiya hamda o'sha davr tarixi va etnografiyasiga oid qimmatli fikr va xulosalar ham bor. Bu to'plamga olimning butun umri davomida to'plagan 600 ming hadisdan faqat 7275 ta eng «sahih» hadislar kirgan. Bu nodir asarning yozilganiga taxminan 1200 yil bo'ldi. O'sha davrdan to shu kunga qadar u islom ta'limotida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi o'rinda turuvchi muqaddas kitob, qimmatli manba asari hisoblanadi.

Xullas, buyuk vatandoshimiz imom Buxoriy qoldirib ketgan, boy ma'naviy meros avlodlarimizni bundan keyin ham ulug' insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashdek oliyanob maqsad yo'lida xizmat qilaveradi.

Istiqlol sharofati bilan Buxoriyning o'lmas merosi el-yurt bag'riga qaytdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida» gi qarori (1997-yil 29-aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998-yil 23-oktabrda Samarqandda yubiley to'y-tantanalari bo'lib o'tdi. Alloma

abadiy qo‘nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog‘ida ulkan yodgorlik majmuyi ochildi.

Buxoriyning boy ma‘naviy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi tuzildi.(1998-yil 4-noyabr)

ABU ISO MUHAMMAD AT-TERMIZIY (824 –894)

Islom dunyosida nom qozongan buyuk muhaddis olimlardan biri Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn az-Zahhoq Abu Iso as-Sullamiy az-Zariyr al-Bug‘iy at-Termiziydir. U Termiz shahri yaqinidagi Bug‘ (hozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani) qishlog‘ida tavallud topgan. Yoshligidan ilm-fanga g‘oyatda chanqoq bo‘lgan at-Termiziy Termiz, Samarqand, Marv va O‘rta Osiyoning boshqa shaharlarida yashab, ijod qilgan, muhaddis olimlarning asarlarini zo‘r qiziqish va havas bilan o‘rganadi, buyuk hadisshunos allomalar bilan uchrashadi, ular bilan ijodiy bahs-munozaralarda qatnashadi. Xususan, bu borada olimning Hijoz, Makka va Madina, Iroq, Xuroson safarlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. At-Termiziy kamolotida Ismoil Buxoriyning o‘rni bebahodir. Ayni paytda, al-Buxoriy at-Termiziyning bilimi va qobiliyatini yuqori baholagan. «Men sendan ko‘rgan foyda sen mendan ko‘rgan foydadan ortiqroqdir», deb ta‘kidlaydi Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ham o‘z ustozini va safdoshi imom Buxoriyga doimo sadoqat namunasini ko‘rsatgan. Bu haqida arab tarixchisi Shamsuddin az-Zaxabiy (1274–1347) o‘zining «Tazkirat ul-huffoz» («Hofizlar haqida tazkira») asarida quyidagi guvohlikni beradi: «At-Termiziy o‘z ustozining vafoti tufayli qattiq qayg‘u alamga botib, ko‘p yig‘laganidan hatto, ko‘zlari ko‘r bo‘lib qoldi, uzoq yillar ko‘zi ojiz holda yashadi»¹.

At-Termiziy juda ko‘plab shogirdlarga mehr-muruvvat ko‘rsatib ustozlik ham qilganlar. U kishi misli yo‘q darajada kuchli zehn egasi, xotira va yodlash qobiliyati kuchli bir kishi bo‘lganlar. Arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiy qiziq bir rivoyatnamo voqeani hikoya qiladi: Muhammad at-Termiziy Makkaga hajga ketayotib, yo‘l-

¹ Uvatov U. Donolardan saboqlar. 9-bet.

yo‘lakay mashhur muhaddislar bilan uchrashib, muloqot va munozaralar uyushtirgan. Kunlarning birida shunday nomdor olimlarning biridan hadislardan saboq berishni iltimos qilibdi. Olim unga qog‘oz-qalam olishni aytibdi. Aksiga olib shu payt at-Termiziy qalam topa olmabdi va u nomdor olim qarshisiga o‘tirib olib, xuddi eshitgan hadislarni yozayotgan kishidek qo‘lini oq qog‘oz ustida u yoqdan bu yoqda olib borib kelaveribdi. Oltmishlar chamasi turli hadislar-ni hikoya qilgan olim qog‘ozda hech narsa yozilmaganini ko‘ribdi va ranjib: Nima, sen mening vaqtimni bekorga yo‘qotmoqchimisan, debdi. Shunda at-Termiziy xotirjamgina: «Siz aytgan hadislarni yoddan aytib beraymi», debdi-da, olim og‘zidan hozirgina eshitgan barcha hadislarni birma-bir yoddan aytib beribdi.

Ulug‘ muhaddis olim at-Termiziydan katta ilmiy-ma‘naviy meros qolgan. Olimning o‘ndan ortiq asari bor: «Al Jome’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam»), «Ash-Shamoyil an-nabaviya» («Payg‘ambarning alohida fazilatlari») va boshqalar shular jumlasidandir. Imom at-Termiziy 894-yilda 70 yoshida Termizda vafot etgan.

At-Termiziy ijodida «Al-Jome’ as-sahih» alohida o‘rinni egallaydi. Unda tahorat va namoz, zakot, ro‘za, haj, janoza, nikoh, emizish (*razo*), *savdo-sotiq*, *hukmlar*, *xun*, *me‘yor*, qurbonlik, nazr-niyoz, iymon, siyratlar, jihod, kiyim-kechak taomlar, ichimliklar, xayr-ehson va sahovat, tabobat, farzlar, bashoratlar, shahodat, jan-nat sifatleri, iymon, ilm, izn so‘rash va odob masalalari, Qur‘on fazilatlari, qiroat, tafsir, duolar, manoziblari (fazilatlar), illatlar kabi boblar bo‘lib, olim bir yoki bir necha hadislarni har bir masala bo‘yicha keltirib, masalaning mohiyatini ochadi va o‘z fikrini bayon qiladi. At-Termiziyning yana bir g‘oyatda e‘tiborli asari bu «Ash-Shamoyil an-nabaviya»dir. Bu asar nihoyatda muhim bir mavzu – payg‘ambar Muhammad alayhissalomning shaxsiy hayotlari, u zotning suvrat va siyratlari, ajoyib fazilat va odatlariga oid to‘rt yuz-u sakkiz hadisi sharifni o‘ziga jamlagan qimmatli manbadir. At-Termiziyga qadar ham Muhammad alayhissalomning hayotlari, fazilatlari, odatlari haqidagi hadislarni to‘plagan muhaddis olimlar bo‘lganlar. Ilgarigi bu turdagi asarlardan at-Termiziy kitobi shu bilan farq qiladiki, u imkon qadar payg‘ambar alayhissalom fazilatlariga doir barcha hadislarni muntazam ravishda to‘plab, mantiqan izchil bir holatda tartibga keltirgan va o‘ziga mustaqil yaxlit bir kitob shaklida tasnif qilgan. Buyuk olim, muhaddis ilmining bilimdonlaridan biri bo‘lgan imom at-Termiziy o‘z ilmiy merosi bilan bun-

dan keyin ham xalqimizning ma'naviyatini boyitish yo'lida hizmat qilaveradi. O'zbekiston jamoatchiligi 1990-yil sentabr (14–17) oyida Muhammad ibn Muso at-Termiziy tavalludining 1200 yilligini tantanali nishonladi. Bu olimning nomi va ruhini abadiylashtirish bobidagi mustaqil O'zbekistonning dastlabki va hal qiluvchi qadamidir.

4. TASAVVUF – SO'FIYLIK TA'LIMOTI

IX–XIII asrlarda O'rta Osiyo davlatlarida tasavvuf – so'fiylik ta'limoti rivoj topdi. So'fiylik (tasavvuf) islomdagi falsafiy diniy oqimdir. Voiz Koshifiy «Futuvvatnomayi Sultoniya» asarida: «...tasavvuf tariqat maqolalaridan biridir», – deydi. U «so'fiy» qadimiy bo'lib, Odam alayhissalom o'gillari Shish alayhissalom davrida paydo bo'lganligini aytadi.

Rus olimi I. M. Petrushevskiyning qayd qilishicha, ingliz sharqshunosi R. Nikolson XI asrgacha bo'lgan yozma manbalarda «sufizm» tushunchasining yetmish sakkiz ma'nodagi talqinini aniqlagan ekan. Nasafiyning Xoja Ahmad Yassaviy risolasida ham islom dinida «So'fiylik oqimi, darveshlar, payg'ambar zamonasidayoq vujudga kelgan»¹, deyiladi. Abulhakim Shar'iy Juzjoniy «Tasavvuf ta'limotining ildizlari» («Muloqot», 1995, № 1–2) maqolasida tasavvuf so'zi «so'f», ya'ni kiyimni kiymoq, so'fiy bo'lmoq va shuningdek, haq yo'lidan yuruvchi bo'lmoq va darvishlar tariqasi ma'nolarida qo'llanadi. Tasavvuf so'zi bir istiloh (atama) sifatida uning payrovlari aqidasi binoan, nafs (ichki dunyo)ni pokizalash natijasida inson qalbida haqiqat yog'dusi porlay boshlaydi» (31–32-bet), deydi. Uning fikricha, tasavvuf va irfon tushunchalari bir-biriga yaqindir, shu tufayli har ikkala so'z bir ma'noda ham ishlatiladi.

Ba'zilarining fikricha, tasavvuf Irfonning bir bo'limi va uning ko'rinishlaridan biridir, ya'ni tasavvuf yo'l-yo'riq va tariqat sifatida irfondan ajralib chiqqan. Irfon esa umumiyroq tushuncha bo'lib, tasavvufdan boshqa yo'l-yo'riq va mazhablarni ham o'z ichiga oladi.

Doktor Javod Nurbaxsh «So'fiylar behishtida» asarida buyuk mashoyihlarning so'zlariga ko'ra, tasavvufni so'z bilan ifodalab

¹ Nasafiy. Xoja Ahmad Yassaviy. – T.: G'. G'ulom nashriyoti, 1993, 5-bet.

bo'lmasligini, so'z bilan ifodalanuvchi narsa tasavvuf emasligini **yo-**
zadi. Uning fikricha, «tasavvuf – ishq oзуqasi va tahdid yo'li bilan
haqiqatga olib boradigan tariqatdan iborat».

So'fiy aqidasiining asosi, yagona haqiqat – Haq taolo bo'lishi **kerak**. Shu sababdan, so'fiylar shariat qoidalarini o'rganib, ma'rifat **va** haqiqatga, haqqa yetishga intilar edilar. So'fiylik taraqqiyotida **taqvoga** katta e'tibor berilgan. Zuhd va taqvo – ko'ngilni foniy dunyo gunohlaridan, g'araz, ta'malardan tozalash va Xudo buyurganiga **amal** qilib, Alloh man etgan ishlardan saqlanish demakdir. So'fiylar fikricha, ilohiy ishq har qanday g'arazli manfaatlardan holi bo'lishi **zarur**. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, borliqdagi hamma xilqatlarda, xususan, odamzodda ham ilohiy zarralar bor. So'fiyning maqsadi ko'nglidagi ilohiy zarralarni uzoq va mashaqqatli poklanish yo'lidan borib, yana Allohga qaytarishdan iboratdir. Ba'zi tasavvuf namoyandalari Haq taologa yetishish yo'llarida 19 maqom va 360 manzillar borligini aytganlar. Sultonmurod Olimning quyidagi xulosalari diqqatga loyiqdir: «Din Qur'oni karimning zohiriy ma'nolari, ya'ni ko'pchilikka tushunarli ma'nolari doirasida amal qiladi. Tasavvuf Qur'oni karimning botiniy ma'nolari, ya'ni faqat xos, alohida kishilargagina tushunish nasib etadigan ichki nozik ma'nolari bilan ish ko'radi. Ammo tasavvuf yo'lini tutish uchun avval komil musulmon bo'lish, shariatning barcha shartlarini bekam-u ko'st bajarish shart. Yana shuni aytish kerakki, avvalo, dinning o'zi ham dahriylik targ'iboti bizning tor tasavvurlarimizda badnom qilib, shakllantirgan din tushunchasidan tamoman o'zga narsa»¹

Tasavvuf ilmida komil insonni ruhan shakllantirish, kamolotga yetkazish nazariyasi bosh masala hisoblanadi. Bu nazariyaga ko'ra: «Insonni Xudo o'ziga o'xshatib yaratganmi, Allohning bu olamni paydo qilishdan ko'zlagan bosh maqsadi ham, aslida, inson ekanmi, demak, inson Allohning bu muruvvatiga shukronalar aytib, o'zini batamom Allohga bag'ishlashi, buning uchun esa o'ziga loyiq darajada poklashi – kamolga yetkazishi kerak. Ana shunday o'zini oliy maqsadga chog'lagan, jismini unutib, ruhini Allohga qay darajada o'stirgan, yetar darajada poklagan, ham ehtiyojlari tufayli paydo bo'ladigan jamiki insoniy illatlardan forig' qilgan kishilar insoni

¹ *Sultonmurod Olim*. Buyuk Naqshbandiya. Kecha, Bugun, ertaga. «Fan va turmush», 1993, 5–6-son, 14 bet.

komil bo'lganlar. Tasavvufiy aqidaga ko'ra, komil insonlar pirovardida, shubhasiz, Alloh vasliga musharraf bo'ladilar, ruhan Tangri bilan birlashib ketadilar»¹.

Komil insonlar barcha xalqni sevishi, insonlar, ayniqsa, g'ariblar, bechoralar, muhtojlar xizmatida bo'lishi, doimo xudoning borligi va birligini unutmasligi kabi so'fiylik aqidalariga ega bo'lishlari lozim. Shayx Fariduddin Attor rivoyatlariga ko'ra, shayx Abul Xasan Xoragoniy bunday degan ekanlar: «Koshki barcha xalqning o'rnida men o'lsaydim, o'shanda xalq uchun o'lim bo'lmasdi. Koshki, barcha xalqning hisob-kitobi mendan so'ralsaydi, o'shanda qiyomat kuni ular uchun so'roq bo'lmasdi, koshki, barcha xalq o'rnida meni jazolashsaydi. O'shanda ularni do'zaxga olib borishmagan bo'lardi». Sa'diy Sheroziy aytadiki: «Toat-ibodat tasbeh tutib, jundan eski libos kiyib, namoz o'qib yashash bilan bo'lmaydi, u Xoliq va xalqning xizmatidan boshqa narsa emas».

So'fizm (tasavvuf)dagi ana shu bosh g'oyani tushunmas ekanmiz, o'tmish tariximizda o'tgan, haqiqatan ham mavjud bo'lgan ulug' zotlar, avliyo va anbiyolarning mohiyati va bugungi kunda uning ahamiyatini tushunib yeta olmaymiz. XIII va XIV asr boshlarida yashab ijod etgan mutasavvuf olim Shayx Aziziddin Nasafiy «Insoni komil» risolasida quyidagilarni ta'kidlagan: «...Jumla mavjudot odamzodga shuning uchun sajda qiladiki, odamlar orasida komil inson bor. Bas, jumla odamzod komil inson tufayli (sharaffi) dir. Mavjudot ichra komil insondan ko'ra ulug'roq va donoroq narsa yo'q, chunki komil insonlik pastdan eng yuqorigacha martabalarida mavjudotning xulosasi va qaymog'idir va farishtalar, ruhoniy mavjudotlar va arshu qursi, samovot kavokib hammasi komil inson xizmatidadirlar va hamisha komil inson tegrasini tavof qilurlar va komil inson ishlarini bajo keltirurlar. Komil inson ilm mazharidir, komil inson ilohiy yurt sifatlarining ham mazharidir». Ingliz tasavvufshunos olimi J. S. Trimingem Markaziy Osiyoda tasavvuf ilmining rivojida ikki buyuk so'fiyning nomini alohida hurmat bilan tilga oladi. Bularning birinchisi – Abul Hasan Ali al-Xoroqoniy (milodiy 1034-yili 80 yoshida vafot etgan) bo'lsa, ikkinchisi – Abu Ali al-Farmadiy (1084-yili vafot etgan)dir. Farmadiyning ikki shogirdi tasavvuf ilmida shuhrat topgan. Bu avvalo, Ahmad al-Razzoliy (1122-yilda vafot etgan) bo'lsa, ikkinchisi Yusuf al-Hamadoniydir. So'fiylik tariqatining ko'p silsilasi ana shu ikki shogirdan boshlanadi.

¹ Olim. Buyuk Naqshbandiya. Kecha, Bugun, ertaga. «Fan va turmush», 1993, 5–6-son, 15-bet.

YUSUF HAMADONIY**(1049–1140)**

Tasavvufga oid aksariyat qo‘lyozma kitoblarda yozilishicha, Yusuf Hamadoniy islomni yangi qabul qilgan bir majusiy fors kishi oilasida Hamadon (Eron) shahrida tug‘ilgan. Dastlabki ma‘lumotni u Bag‘dodda oladi, yoshlik chog‘idan boshlab, tasavvufga oid falsafiy bilimlarni kuzatadi. Hindiston va Erondagi bu sohaga oid bilimlarni egallaydi. Yusuf Hamadoniyning birinchi ustoz shayx Abu Ali Farmadiy bo‘lgan. U kishi Imom Razzoliyni ham tarbiyalab, voyaga yetkazgan ulug‘ ustozdir.

Yusuf Hamadoniy Movarounnahrda kelib, Samarqand, Buxoro va Marv shaharlarida o‘z ta‘limotini davom ettiradi. Hirot, Balx va boshqa shaharlarda ham tez-tez bo‘lib turgan. U, asosan, Buxoro shahrida xonaqo qurib, Xuroson va Movarounnahrdan bu yerga ilm izlab kelgan ko‘plab yoshlarga tasavvufdan saboqlar beradi, behisob shogirdlar orttiradi.

«Rashohot ayn ul-hayot» asarida yozilishicha, hijriy 535-yil (1140)da Yusuf Hamadoniy Hirotidan Marvga kelayotib yo‘lda Bomiyon (Afg‘oniston) shahrida vafot etadi. Uning jasadini shogirdlaridan biri Ibn Anjar Marvga olib kelib dafn etadi. Xuroson va Movarounnahr aholisi o‘rtasida tasavvuf-falsafiy ilmi taraqqiyotida Yusuf Hamadoniy shu darajada katta obro‘-e‘tibor va hurmatga sazovor bo‘lganki, uning Marvdagi qabristoni o‘z zamonasida «Xuroson ka‘basi», deb atalgan.

Yusuf Hamadoniy So‘fiylik ilmi bo‘yicha juda ko‘plab shogirdlar tarbiyalagan. Nasafiy bergan ma‘lumotlarda qayd qilinishicha, Yusuf Hamadoniy 95 yil umr ko‘rib, 38-martda Movarounnahr hududida piyoda ka‘ba ziyoratiga borgan. Yusuf Hamadoniyning 213 tasi mashhur shayxlar bo‘lib yashaganlar (Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Abdulloh Barraqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulholiq G‘ijdivoniylar uning to‘rt zabardast xalifasi). Bu shogirdlarining yozib qoldirilgan ma‘lumotlariga qaraganda, Yusuf Hamadoniy uzun bo‘yli, xushro‘y va kelishgan, ozg‘in kishi bo‘lgan. U g‘oyatda xush axloq, donishmand va saxiy odam bo‘lib, mol-dunyoga befarq qaragan, o‘zining bisotidagi barcha budshudini kambag‘al, beva-bechoralarga taqsim qilib bergan. Ustoz o‘z

shogirdlari Ahmad Yassaviy va Abdulxoliq G'ijduvoniylarning hujralariga tashrif buyurganda har doim Qur'oni karimning «Baqara» surasini mayin ovozda tilovat qilar ekan. Uning o'z shogirdlariga juda mehribon bo'lganligini ta'kidlanadi. Yusuf Hamdoniy ishini davom ettirib, keyinchalik Ahmad Yassaviy – yassaviya tariqatiga asos soldi. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni esa dastlab, «xojagan», so'ng, «naqshbandiya» deb nomlagan tariqatni boshlab berdi. Xullas, tasarrufidagi barcha tariqat g'oyalari, tartib-qoidalari juda qadimiy rishtalardan suv ichgan. Shu ma'noda so'fiylik tariqatining butun mohiyatini belgilab turadigan mavjud o'n bir qoidaning ham boshlanishi Hamadoniya borib taqaladi. U kishi tayin etgan dastlabki qoidalar, asosan, to'rtta:

- «Xush-dar dam», ya'ni tirikchilik nafasda;
- «Nazar bar qabam», ya'ni nazar qadamda;
- «Safar dar vatan», ya'ni soliq har dam o'z diliga nazar solishi, agar unda g'ubor izi paydo bo'ladigan bo'lsa, darhol undan o'tish va yana haq visoliga o'z hushini bog'lash;

- «Xilvat dar anjuman», ya'ni xalq ichida o'zini bildirmay, ko'z-ko'z qilmay yashash, qo'l ishda bo'lsa ham dil yorda (xudoda) bo'ladi.

Bu to'rt qoidaga Abduxoliq G'ijduvoniya yana to'rtta qoida qo'shdi:

- «Yodkard», ya'ni yodlash, faqat Allohni va uning rasulini tilda va dilda tutish;

- «Bozgasht», ya'ni qaytish, hamma vaqt munojotda bo'lish;
- «Nigohdosht», bu qoida shundan iboratki, toyyiba kalimasining zokir tilida aytganda, xotira boshqa tomonga chalg'ib ketmasligi, ya'ni zokir bir damda o'sha muborak kalimani bir necha bor takrorlab, xotirani jam qilib olmog'i kerak;

- «Yoddosht», ya'ni eslash –xudoning yagonaligini esdan chiqar-maslik.

Keyinchalik Bahovuddin Naqshband bu sakkiz qoidaga o'zining uchta yangi qoidasini kiritdi: 1. Vuqufi zamoniya. 2. Vuqufi Adadiy. 3. Vuqufi qalbiydir. Yusuf Hamadoniya boshlab bergan tasavvuf tariqatining bu qoidalari so'fiylar faoliyatining asosiy yo'nalishni tashkil etadi.

AHMAD YASSAVIY VA YASSAVIY TARIQATI (vafoti 1166/67)

Tasavvuf ilmining buyuk namoyandasi, sharq tasavvufida munosib o'ringa ega bo'lgan «Yassaviy» tariqatining asoschisi va turkiy poeziyaning yirik vakillaridan biri bo'lmish Ahmad Yassaviy tug'ilgan yili noma'lum. Vafoti esa turli yozma manbalarda hijriy 562 (milodiy 1166-67)-yil deb aniq ko'rsatiladi. Ammo Nasafiyning Ahmad Yassaviy 1103-yilda tug'ilib, 1166-yil vafot etgan degan fikri ham bor. Ba'zi rivoyatlarda $1103 + 130$ yil umr ko'rganligi ta'kidlanadi. Orif Usmon esa: «Rivoyatlarga ko'ra Yassaviy 63 yoshga payg'ambar yoshiga kelgach, yer ostida hujra yasatib «chillaga» kirgan, qolgan umrini toat-ibodat qilib, riyozat chekib yer ostida o'tkazgan», deb ta'kidlaydi. Bu rivoyatga ko'ra, 125 yil, boshqa rivoyatga qaraganda, 133 yil umr ko'rib, hijriy 562-yilda vafot etgan. Umuman, Yassaviyning tarjimai holiga oid ma'lumotlar juda kam va u har tomonlama chuqur o'rganilmagan, e'tibordan chetda qolib ketgan.

Ahmad Yassaviy o'zi tug'ilgan yurtini «Ul muborak Turkiston», deb tilga oladi. U ota-onadan juda erta yetim qoladi. Otasi shayx Ibrohim vafot etgach, bobosi Arslonbobo (Arslonbob) ham ota ham ustoz o'rnida uni tarbiyalab voyaga yetkazadi. Ahmad Yassaviyning ota-bobolari sulolasi Muhammad Xanafiya borib taqaladi. Bobosining maslahati bilan u Buxoroga borib, Xo'ja Yusuf Hamadoniy ilm-u saboqlaridan bahramand bo'ladi. Bu paytda, Ahmad 23 yoshda bo'lgan. U o'z ustozining eng ishonchli va e'tiborli xalifalaridan biri edi. Sharqshunos olim Orif Usmonning ma'lumotlariga qaraganda, Abdulxoliq G'ijduvoniy kunlardan bir kuni Yusuf Hamadoniydan shogirdlarining taqdiri haqida so'zlab berishni iltimos qilgan. Shunda ustoz: «Mening asl xalifalarim avval Xo'ja Abdullo Barkiy, so'ngra Xo'ja Hasan Andoqiy, undan so'ng, Xo'ja Ahmad Yassaviydir. Xo'ja Ahmad Yassaviy o'z navbati bilan xalifalik qilganidan keyin, biroz vaqt o'tgach o'z vatani Turkistonga ketadi. So'ngra uning o'rniga sen xalifalik qilasan»¹, degan ekan. Keyingi voqealarning rivoji ustoz Yusuf Hamadoniy aytganidek, kechroq Buxorodan o'z yurti Yassiga qaytgan Ahmad shag'arda madrasa va xonaqo qurdirib, o'z atrofiga juda ko'plab yangi shogirdlar

¹ Orif Usmon. Vahdad shorobin ichdim. «Muloqot» 1991, 6- son, 52- bet
10-Vatan tarixi 1-kitob

to'plagan. U ana shu shogirdlari orqali o'zi asos solgan «Yassaviya» tariqatini Turkiston va Shosh atrofidagi viloyatlarga tarqata boshlagan.

Ahmad Yassaviy tarbiyalab yetishtirgan shogirdlar Mansur bobo (Arslonboboning o'g'li), Abul Malik Oto Tosh Xo'ja (Zangi boboning otasi), Hakim Oto (Sulaymon Boqirg'oniy), Zangi Ota va boshqalardir.

Movarounnahrda XII asrdan so'ng, «Yassaviya» tariqatidan ikki yirik tariqat paydo bo'lgan. Birinchisi – «Naqshbandiya», ikkinchisi – «Bektoshiya», «Iqoniya» deb atalgan uchinchi tariqat ham bo'lgan, ammo u Toshkent viloyati atrofidan nariga o'tmagan.

Tasavvufdagi boshqa tariqatlarda bo'lgani singari «Yassaviya» tariqatining ham o'ziga xos qat'iy qoidalari (odoblari) bor. Bu qoidalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1. Murid hech kimsani o'z shayxidan afzal ko'rmasligi, o'sha mutlaqo taslimiyat izhor etmog'i lozim. 2. Murid shunchalik zukko va idrokli bo'lishi kerakki, to o'z shayining barcha Rimuz va ishoralarini mukammal anglay bilsin. 3. Shayxning barcha aqvoli (so'zlari) va af'oli (ishlari)ga murid sodiq bo'lib, unga mutlaqo mute va mutaqlil bo'lmog'i lozim. 4. Murid o'z murshidi (piri)ning barcha topshiriqlarini chustu choloklik (chaqqonlik) ila va sidqidildan bajarib, uni hamisha rozi qilib yurmog'i zarur. 5. Murid o'z so'ziga sodiq, va'dasiga rosih bo'lib, o'z murshidi ko'nglida hech qanday shak-shubha tug'dirmasligi zarur. 6. Murid, o'z va'dasiga vafodor va so'zida ustuvor turishi kerak. 7. Murid o'z ixtiyoridagi barcha mol-u mulkini, butun bor-u yo'g'ini o'z shayxiga izhor etmoq uchun doimo tayyor turmog'i lozim. 8. Murid o'z shayxining barcha sir-asroridan ogoh bo'lib uning ishorasini hech payt xayoliga keltirmasligi kerak. 9. Murid o'z shayxining barcha takliflarini nazarda tutmog'i, uning mushkulotini oson qilmog'i, pand-u nasihatlarini bajo keltirmog'i shart. 10. Murid olloh visoli uchun o'z shayxi yo'lida, bugun moli va jonini nisor etmoqqa tayyor turishi, uning do'stiga do'st, dushmaniga dushman bo'lib, yashamog'i shart.

Ahmad («Rasoil»da) inson ko'kragida besh gumbaz borligini aytadi: 1. Qalb yoki ko'ngil (chap emchakdan ikki enlik pastda); 2. Ruh (o'ng emchakdan ikki enlik pastda); 3. Sir qalbning yuqorisida; 4. Dafni, ya'ni maxfiylik gumbazi; 5. Ixfo, ya'ni ezigulik gumbazi.

Demak, Ahmad Yassaviy ruhiy olamning barcha gumbazlarini diliga jo etgan. Endi uning haq-taolo bilan muloqot qilishiga kunda-

lik ikir-chikir tashvishlar halal berolmaydi»,¹- deydi Nasafiy.

Ahmad Yassaviyning juda chuqur va boy mazmunga ega bo'lgan «Devoni hikmat»ida mutafakkirning so'fiylik- falsafiy dunyoqarashi o'zining butun borlig'i bilan o'quvchi diqqatini rom etadi.

Donishmand fikricha, «Haqning so'zini emas, o'zini bilish» asosiy masaladir. Shuning uchun u bu dunyo rohatini qidiradigan so'fiy – so'fiy emas, toat-ibodat qilib, halollik va poklikni targ'ib etib, dunyoning g'am-g'ussasini chekib, xalq tashvishi bilan yashagan insongina haqiqiy so'fiylar, deydi.

Asarning boshidan oxiriga qadar, ulug'vor insoniy fazilatlar: oddiylik, kamtarinlik, mehr-muhabbat, ishq, sadoqat, haqiqat, adolat, hurfikrlilik insonni insondan ayirmaslik kabi masalalar falsafiy nuqtayi nazardan tashviqot qilindi. Va aksincha, yomonlik, nodonlik, johillik, adolatsizlik, haqsizlik, sadoqatsizlik, molparastlik kabi illatlar tanqid qilinadi. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar insof, diyonatga chaqiriladi.

Alloma fikricha, inson bu dunyoda mol-u davlatga ishonib, yashamasligi kerak, bu dunyo hammadan ham qoladi. Shu bois, insonlar bir-birlariga yaxshilik qilishlari, haqni ko'z oldilariga keltirib o'zgalar moli-davlatiga hasadgo'ylik qilmasdan yashashlari lozim:

*Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdan o'taro,
Inonmagil molingga, bir kun qo'ldan ketaro.*

Ota-ona, qarindosh keyin ketdi, fikr qil,

To'rt oyoqli chubin ot, bir kun senga yetaro.

Dunyo uchun g'am yema, haqdin o'zgani dema,

Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.

Yaqin-yaqinlarga qadar, Ahmad Yassaviyning yagona asari «Hikmatlar»dan boshqa kitobi yo'q, deb hisoblanardi. «Xalq so'zi» gazetasining 1993-yil 30-oktabr sonida olim Javkon Lapasovning «Nasabnoma» sarlavhasi ostida bergan maqolasida allomaning yangi bir asari topilganligi xabar qilindi. «Nasabnoma»da Ahmad Yassaviyning hayoti, faoliyati va nasl-nasabiga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Xullas, Payg'ambarimizning faqirlik faxrimdir, degan muborak hadislariga asoslangan va o'z tariqat yo'liga sodiq bo'lgan Xoja Ahmad Yassaviy hazrat Mir Alisher Navoiy yozganlaridek, «Shoh-u gado aning irodlat va ihlosi istoni»da bosh qo'yadigan maqomga

¹ Nasafiy. Xo'ja Ahmad Yassaviy. 12–13-betlar.

erishdi. Ulug' shoir Ahmad Yassaviyni ulug'lab «Nasoyim ul-muhabbat» asarida «Makomati oliy va mashhur, karomati yuksak va cheksiz ermish... Imom Yusuf Hamadoniyning ashobidindur», deganlar. Istaymizki, Ahmad Yassaviy kabi ulug' allomalar ruhi mil-latimiz va xalqimizning istiqboldagi yo'lida madadkor bo'lgay.

XOJA ABDULXOLIQ G'IJDUVONIY (1103–1179)

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy Yusuf Hamadoniyning xalifasi va Xojagan-Naqshbandiya tariqatining poydevoriga asos solgan mashoyix hisoblanadi.

Xoja Abdulxoliq 1103-yili G'ijduvonda tavallud topgan va 1179-yilda o'z vatanida vafot etgan. Otasi asli Rum diyoridan bo'lib, oti Abdul jalil edi. U kishi Imom Malik avlodidan bo'lgan. Bu zot G'ijduvonning mashhur imomlaridan edi. Onasining avlodi ham Rim yurtidan bo'lgan. Rivoyat qilinishicha, Xoja Abdulxoliqning otanalari Xojayi Xizr alayhissalom ishorati ila o'gil farzand ko'rganlar va uning maslahatiga, asosan, o'g'liga «Abdulxoliq» («Xudoning bandasi») deb ism qo'ygan ekanlar. Xoja Abdulxoliq, boshlang'ich ta'limni G'ijduvonda Imom Sadriddindan olgan. O'qishni Buxoroda davom ettirib, Yusuf Hamadoniylga shogird tushgan. Bu davrda u 22 yoshda bo'lgan. Ustoz va shogird birgalikda Bag'dod, Balx, Isfahon, Marv, Samarqand shaharlariga borganlar va tasavvuf ilmining sir-asrorini egallaganlar.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyl Sharq falsafiy tafakkuri tarixida o'z o'rniga ega. Uning dunyoqarashi tasavvuf silsilalaridan biri Xojagon (Xojalar) halqasida shakllangan. Ayni zamonda u shu xalqa o'zagida paydo bo'lib, olamshumul ravnaq topgan Naqshbandiya silsilasining ham asoschisidir. Yozma manbalarda Xoja Abdulxoliqning «Shayxushshuyux» (Shayxlar shayxi) darajasigacha ko'tarilganligi qayd etiladi. Bu ulug' unvon Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar tomonidan Xoja Yusuf Hamadoniyl, Xoja Ahmad Yassaviyl singari ulug' pirlarga nisbatangina qo'llanilgan. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyl dan «Risolayi Sohbiyya», «Risolayi Shayxushshuyux Hazrati Abu Yusuf Hamadoniyl», «Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniyl» kabi asarlar meros bo'lib qolgan. Ammo bu

asarlari hali shu kungacha o'rganilmagan va xalqimizning ma'naviy mulkiga aylantirilmagan.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar «Zikri Xufiya», «Zikri dil» amaliyotining targ'ibotchilaridan bo'lgan. Buning sababi shundaki, rivoyat qilishlaricha, kunlarning birida Xizr alayhissalom Xoja Abdulxoliqqa ro'para keladi va aytadi: «Hovuzga tushib, suvga sho'ng'igan, musaffo suvdan qult qilgin-u, dilingda quyidagi kalimayi toy-yibani takrorla: «La iloha illolloh Muhammadun rasululloh». Xoja Hazrati Xizrning aytganini bajarib, beqiyos saodatga sohib bo'lgan va o'shandan boshlab, «Zikri hufiya», «Zikri dil» amalini targ'ibot qila boshlagan ekan. Xoja Abdulxoliqning ustozlari Xoja Yusuf Hamadoniylar o'z as'hobi bilan «Aloniya» zikriga amal qilgan. Bu zikr maqomi zikr aytishda tovush chiqarish uslubidan iborat bo'lgan. Ustoz o'z shogirdiga «Xufiya» usuli bilan zikr aytishga ijozat bergan. Keyinchalik, hatto, o'zi ham «Zikri dil» usuliga o'tgan ekan.

Xoja Yusuf Hamadoniylar Xurosonga, Xoja Ahmad Yassaviylar Turkistonga ketganlaridan so'ng, barcha suluk ahli Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar rahnamoligida qolgan. Bu ulug' zotning murid va shogirdlari shu qadar ko'p ediki, ular faqat Movarounnahr hududlaridagina emas, hatto, Shom (Suriya), Iroq viloyatlarida ham bo'lgan. Ana shu shogirdlar orasida, Bahovuddin Naqshband Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylarning uvaysiy shogirdi edi. U ustoz ko'rsatmalarini to'lato'kis bajarib, Naqshbandiylar ta'limotiga asos soldi va uni yangi bosqichga ko'tardi.

Shunday qilib, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar Xojagan (Naqshbandiylar) tariqatining asosiy qoidalarini ishlab chiqqanlardan biridir. U O'rta Osiyo o'lkasida, tasavvuf ilmining turk-islom olamidagi ma'naviyat va irfon an'analariining keyingi rushdi, inkishof va takomilida juda katta rol o'ynagan. Turkiston diyori va butun musulmon Sharqiy xalqlarining falsafiy, tasavvufiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayotida o'chmas iz qoldirgan.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar umrining so'nggi damlarida vafoti yaqinlashayotganligini sezib, eng yaqin xalifalaridan to'rt nafarini yoniga chorlaydi va ularni o'z masnadiga tayinlaydi. Uning shogirdlari, ustoz vasiyatlariga amal qiladilar, xaloyiqni haq yo'lida, poklik-halollik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, rostgo'ylik, oliyhimmatlilik kabi oliyjanob qadriyatlar ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shadilar.

SULAYMON BOQIRG'ONiy (1186-yilda vafot etgan)

Ahmad Yassaviyning ishonchli va sadoqatli shogirdi, Yassaviya tariqatining she'riyat va tariqatdagi munosib davomchisi Sulaymon Boqirg'oniydir. U Xorazmning Boqirg'on degan joyida tavallud topgan. Boqirg'oniy turkiy xalqlar orasida Hakim ota laqabi bilan ham mashhurdir. Boqirg'oniyning din va tasavvuf, ishq va axloqdan saboq beruvchi asarlari xalq orasida sevib o'qilgan va ommalashib ketgan.

Sulaymon Boqirg'oniydan qolgan meros – «Boqirg'on kitobi»ni varaqlar ekanmiz, shoir va mutafakkir dunyoqarashining teranligiga, saviyasining chuqurligi va kengligiga, u qalamga olgan muammo va mavzularning rang-barangligiga qoyil qolmasdan ilojimiz yo'q.

Diniy mifologiya va tasavvuf falsafasi Boqirg'oniy ijodiga o'zgacha nigoh bilan qarash, ularning majoziy mazmunini chuqur va teran yo'nalishda tahlil qilishni taqozo etadi. Boqirg'oniy yozgan asarlarida bu dunyoni do'zaxga aylantirmaslik, kibr-u havoga berilmaslik tafakkur qilishdan xalos bo'lib, ilm va ma'rifatni ulug'lash kabi ma'naviy-axloqiy ehtiyojlarni ilgari suradi.

Turk olimi Muhsammad Fuod Ko'prilizoda uning «Oxirzamon kitobi» va «Bibi Maryam kitobi»ni O'rta Osiyoda va shuningdek Idil atroflarida diqqat va qiroat bilan o'qilgan asarlardandir¹, degan edi.

Boqirg'oniy ijodida ilohiy ishq yetakchi mavzu hisoblanadi. Buni biz quyidagi satrlarda yaqqol ko'ramiz:

*Mening jonim sening ishqing bilodur,
Tanim ojiz, vale jonim o'lodur.
Bu ishq gar bo'lmasa men ketkay erdim.
Qamug' ohim menim ishqim qilodur...*

Boqirg'oniyning dunyoqarashi Yassaviy «Hikmatlar»i bilan ham ma'no, ham mohiyat jihatdan shu qadar yaqinligi, ular, ko'p hollarda bir-birini mantiqan to'ldiradi. Ilmiy jihatdan, M.F. Ko'prilizoda «Hakim Sulaymon ota bu an'anani ilk daf'a ta'sis etmog'i nuqtayi nazaridan Yassaviy izdoshlari orasida eng muhim mavqega erishishga haqli edi. Uning asarlari ham sakkiz yuz yildan beri Shayxning asarlari ila barobar xalq orasida barhayot yashab kelganligi bundan dalolatdir², deganda haq edi.

¹ *Sulaymon Boqirg'oniy. Boqirg'on kitobi.* –T.: «Yozuvchi», 1991, 5-bet.

² O'sha asar, 6-bet.

UMAR CHAG‘MINIY (vafoti 1221-yil)

Jahon fani va madaniyatini yuksaltirishga salmoqli hissa qo‘shgan olimlardan biri buyuk o‘zbek mutafakkiri Umar Chag‘miniydir. Manbalarda qayd etilishicha Umar Chag‘miniy XII asrning ikkinchi yarmida Xorazmning Chag‘min degan qishlog‘ida tavallud topib, 1221-yilda vafot etgan.

Chag‘miniy yoshlik chog‘laridanoq o‘tkir zehqli bo‘lib, o‘zining butun hayotini ilmga bag‘ishladi. Chag‘miniy qalamiga mansub «Muqaddas fi hayat al-basita» («Koinot hayoti tavsifi») nomli astronomiyaga oid kitobda olimning Xorazmda tug‘ilib, shu yerda ilm olgani, keyin Samarqand madrasalarida o‘qib, bilimni yanada kengaytirganligi hikoya qilindi. Umar Chag‘miniy bu asarida Quyoshning harakati va Yerning Quyosh atrofidagi harakati fasllar almashinuvining dastlabki sababi ekanligi haqida fikr aytib, bu kashfiyoti bilan XII asrdayoq fan taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shadi. Bundan tashqari, Umar Chag‘miniyning tabobatga oid «Qonuncha» asari ham bizgacha etib kelgan. Bu asar ham Chag‘miniyning tabobat ilmida Ibn Sino kabi ulug‘ olimlar darajasidagi siymo ekanligini ko‘rsatadi.

NAJMIDDIN KUBRO VA KUBROVIYA TARIQATI (1145–1221)

O‘rta Osiyoda tasavvuf falsafasining rivojlanishida xorazmlik buyuk alloma, sarkarda, dinshunos olim, falsafa ilmining zukkosi, shoir Ahmad ibn Umar Abdul Janob Najmiddin Kubro al-Xivaqiy al-Xorazmiy o‘ziga xos munosib o‘rinni egallaydi. Yozma manbalarining guvohlik berishicha, alloma Xorazm, Bag‘dod, Iskandariya va Tabrizda o‘z davrining mashhur allomalaridan saboqlar olgan va tasavvuf falsafasi ilmining yetuk ustozlaridan bo‘lib, kamol topgan. Taniqli faylasuf olim Erkin Yusupov: «Buyuk vatandoshimizning nomidagi «Najmiddin», «Kubro» so‘zlari uning yetuk iste’dodini hisobga olib berilgan ilmiy darajalardir. «Najmiddin» so‘zi – dinning yulduzi, «Kubro» esa ulug‘ degan ma’noni anglatib, o‘nta turli mamlakatlarda berilgan ilmiy darajalarni ifodalaydi»¹, – deydi.

¹ *Orif Usmon. Bahovuddin Naqshband va uning ta’limoti haqida.* – T., 1993, 52-bet.

Najmiddin Kubro ta'limoti asosida shakllangan kubroviya tariqati Sharq va G'arbdagi juda ko'plab mamlakatlarga tarqalgan. Erkin Yusupovning xulosasiga qaraganda, buning natijasida, Firdavsiya tariqati, Nuriya tariqati, Rukniya tariqati, Hamadoniya tariqati, Nurbaxshiya tariqati, Nematulloiya tariqati singari yo'nalishlar yuzaga kelgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Najmiddin Kubro qalamiga mansub asarlar soni o'ntaga yaqin. U asos solgan kubroviya tariqati «oltin tariqat», deb ham atalgan. Najmiddin Kubroning o'zi «Risolatut – turuk» asarida uni «Tariqush shutto» (ishq ahli beboshliklarining yili), deb ham ataganligi ma'lum. Bu risolada «kubroviya» tariqatining o'nta usuli qisqacha zikr etilgan:

1. *Tavba* – sodir bo'lgan xatolar, gunohlardan pushaymon bo'lib, xudoga yuz tutmoq.

2. *Zuxd – taqvo* – parhezgarlik, Allohdan qo'rqib, man etilgan ishlardan o'zini saqlash.

3. *Xudoga tavakkal qilish* – o'z ishlarini butunlay xudoga topshirish.

4. *Qanoat* – ozga rozi bo'lib, ko'pdan voz kechish, tamagirlikning zidi.

5. *Uzlat* – boshqalardan ajralib yakka o'tirmoq.

6. *Doimiy zikr* – ham til, ham yurak bilan xudoni yod etmoq.

7. Butun vujud bilan *tangriga tavajjuh* qilib sig'inmoq.

8. *Sabr* – boshga tushgan og'ir ahvoldan nolimay chidash, chidam ko'rsatmoq.

9. *Muroqaba* – tangri borlig'ining dengiziga botib, ilohiy olamga boqmoq.

10. *Rizo* – tangri irodasiga qarshilik ko'rsatmasdan, qazo va qadar – taqdir hukmiga bo'ysunish.

Kubroviya tariqatida diniylik bilan dunyoviylik chambarchas bog'lanib ketgan. Unda kishilarning diniy e'tiqodi, xudoga bo'lgan ishonchi, halollik, odamiylik, mol-dunyoga hirs qo'yimaslik, o'z nojo'ya ishlaridan tavba qilish, shahvoniy hirs-u havolardan saqlanish lozimligi singari axloqiy g'oyaning talablari bir-biri bilan bog'lanib ketgan. Kubroviya tariqatining qator axloqiy qoidalari bizning ko'plarimizda ham g'oyatda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega-dir.

Najmiddin Kubro katta badiiy ijod egasi ham bo'lgan. Uning faoliyati va ijodi bo'yicha ma'lumotlar bizgacha deyarli yetib kelmagan. Ammo uning she'riyatidan saqlanib qolgan ba'zi bir namunalari shoirning chuqur ichki dunyosi go'zalligidan xabar beradi, uning hayot nashidasini surmoqqa intilishi, katta dunyoviy muhabbat egasi bo'lganligi va oliyjanob insoniy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirganligini ko'rsatadi. Biz uni quyidagi satrlarda yaqqol ko'ramiz:



Raboti Malik. Karmana.

*Ishq yetsa ko'ngilga, dilga dard aylar,
Dardi dili mard mardni hoz mard aylar.
O'z otashi ishqida yonar ul, vale,
Do'zaxni chu o'zgaralar uchun sard aylar.*

Najmiddin Kubro Xorazmda xonaqo qurib, tasavvuf ilmi bobida juda ko'p sadoqatli va nomdor shogirdlar tayyorlaydi. Ana shulardan biri mutasavvuf olim «Mantiq ut-tayr» asarining muallifi Farididdin Attordir. Najmiddin Kubro ona yurt boshiga kulfat tushganda sadoqatli bir farzand sifatida uni ko'krak kerib himoya qilishga qodir lashkarboshilik qobiliyatini ham ko'rsatadi. 1221-yilda mo'g'ullar bosqini davrida 76 yoshli Najmiddin Kubro fojiali halok bo'ladi.

5. ME'MORCHILIK, SAN'AT VA MUSIQA

IX–XII asrlarda O'rta Osiyo hududlarida somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar va xorazmiylardan iborat feodal davlatlarning vujudga kelishi o'lkada urug'-qabila, ulus-elatlar o'rtasida nisbatan tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, yaqinlik va hamjihatlik aloqalarining rivojlanishiga olib keladi. Bu hol esa, o'z navbatida, o'lkada moddiy madaniyatning qurilish-me'morchilik san'atining ravnaq topishiga sabab bo'ladi. Arablar bosqini natijasida vujudga kelgan tushkunlikdan so'ng, IX asrdan e'tiboran

me'morchilik va qurilish sohasida yuksak darajada rivojlanish boshlanadi, shaharlarda hashamatli va go'zal binolar qad ko'taradi. O'lkaning yirik, ma'muriy va madaniy markazlari Samarqand, Buxoro, Urganch, Marv, Termiz, O'zgan va boshqa shaharlarda juda ko'plab ko'rkam va hashamatli saroylar, machitlar, madrasalar, minoralar, xonaqolar, maqbaralar, tim va karvonsaroylar quriladi. Jumladan, hali IX asr o'rtalaridayoq Buxoro shahri qalin devorlar bilan o'ralgan bo'lib, uning 11 ta salobatli naqshindor darvozalari bo'lgan. Bu davrda Movarounnahr va Xorazmning o'ziga xos moddiy madaniyat uslub va shakllari to'xtovsiz rivoj topib borganligini ko'ramiz. Me'morchilikda paxsa va xom g'ishtdan imoratlar bilan bir qatorda pishiq g'ishtli va sinchkor imoratlar ham ko'plab quriladi. Xalq ichidan chiqqan mahalliy ustalar, me'morlar, naqqoshlar, kulollar, zargarlar, misgarlar tomonidan bu yurt dovrug'ini olamga tanitgan ajoyib me'morchilik obidalari, san'at namunalari bunyod etiladi. Bular jumlasiga Buxoroda qad ko'targan mashhur Ismoil Somoniy maqbarasi (X asr), Samarqand yaqinidagi Tim qishlog'ida qurilgan Arab ota maqbarasi (977-78 yy.), XI asrda barpo etilgan Marvdagi Sulton Sanjar, O'zgandagi Qoraxoniylar maqbarasi, G'azna yaqinida marmar koshinlardan barpo etilgan 32 ta kirish eshiklari, 4 ta ayvoni bo'lgan, baland qubbalari lojuvard osmonni eslatuvchi G'aznaviylarning mahobatli yozgi saroyi (1112-yilda qurilgan) yoxud pishiq g'isht taxlamiga jimjimador, g'ajakdor qilib ishlov berilgan Buxorodagi Minomorayi kalon maqbarasi (1127-yil) singari noyob me'morchilik inshootlarini kiritish mumkin.

Bu davrda O'rta Osiyoda sopol, ganch o'ymakorligi san'ati ham keng taraqqiy topadi. Bunga misol qilib, Zarafshonning yuqori oqimidagi Oburdom degan manzilda X asrda ganch o'ymakorligi asosida barpo etilgan naqshinkor kolonnani ko'rsatish mumkin. Unda umumarab madaniyati uslubiga xos bo'lgan me'morchilik qoidalari-dan tashqari, mazkur inshootda o'ziga xos yangilik, go'zallik, ya'ni mahalliy an'ana, badiiy shakl mutanosibligi ko'zga tashlanib turadi. Shuningdek, XI-XII asrlarga tegishli Samarqand bilan Buxoro o'rtasida bunyod etilgan Raboti Malik karvonsaroyi peshtoqiga ishlangan ganch o'ymakorligi xususida ham shunday fikr aytish mumkin.

Bu davrda Turonzamin hududida moddiy madaniyatning boshqa turlari ham rivojlanib boradi. IX asrdan boshlab O'rta Osiyo kulolchiligida muhim siljish yuz beradi. IX-XII asrlar badiiy keramika-

ning butunlay yangi shakllari paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Endilikda badiiy kulolchilik buyumlari bozor uchun ishlab chiqarila boshlanadi hamda shahar va qishloq aholisining kundalik hayotiga kirib boradi. Kulolchilik mahsulotlari tayyorlash bilan hunarmand kulolsozlarning uyushmalari shug'ullana boshlaydi. Ularning ustaxonalari butun boshli ishlab chiqarish mavzellarini qamrab olgan.



Ko'za, sirlangan sopol, choch.

O'rta Osiyolik kulollar yasagan har xil bezakli tasvirli ko'za-ko'zachalar, chinni idishlar, uy-ro'zgor buyumlarini ko'plab xorijiy ellarda ham uchratish mumkin edi. XI–XII asrlarda kumush, mis, bronzadan qabariq naqshinkor badiiy san'at buyumlari, chiroyli va bejirim xontaxtalar, obdastalar, idish-tovoqlar, qadahlar yasash rasm bo'lgan. Bu sohada Xorazm, Samarqand, Farg'ona, Nahshab, Kesh, Toshkent singari muzofotlarning o'ziga xos maktablari bo'lgan. Hunarmandchilik san'atining naqqoshlik, kulolchilik, misgarlik va zargarlik kabi turlari o'zaro uzviy bog'liqlikda rivojlangan va bir-birini boyitgan. Hunarmandchilik buyumlari turli rang ko'rinishdagi bo'yoqlarda ustamonlik bilan bezatilgan va ularning sirtqi tomonlari har xil tarbiyaviy ahamiyatga molik maqolalar, hikmatli so'zlar va tilaklar bilan arab imlosida yozilgan. Bu buyumlarda ko'p hollarda mazkur san'at asarlarini ishlagan ustaning ismi, sharifi, shahar-joylarning nomlari va ishlab chiqarilgan yili ko'rsatilgan. Albatta, bu hol xattotlik va husnixat san'atining ham rivojlanishini talab qilgan. Usta xattotlar va husnixat egalari kulolchilik, misgarlik zargarlik buyumlaridan tashqari, o'z san'atlarini kitoblar yozish, masjid, madrasa, xonaqolarning peshtoqlari, gumbazlari, eshiklari va devor ustunlariga har xil oyatlar yozish, saroylarda xonlar, amirlar, Sultonlar va hokimlar sha'niga madhiyalar bitish kabilarda ham namoyish etganlar. Xattotlar va husnixat egalarining mehnatlari juda qadrlangan. Ularning yaratgan buyumlari san'at asarining noyob durdonalari sifatida hurmat bilan e'zozlanib, avloddan-avlodga o'tib kelgan.

IX–XII asrlarda o'lkamizda musiqa san'ati ham keng rivoj topadi. Qadim-qadimdan o'yin-kulgi, musiqa va qo'shiq shaydosi bo'lgan ota-bobolarimiz bayramlar, to'ylar xalq sayillari va boshqa

bazm-marosimlarni musiqasiz, o'yin-kulgisiz va ashulasiz o'tkazmas edilar. Tarixchi Narshaxiy Buxoro aholisining afsonaviy Siyovush qabri atrofida to'planib o'yinga tushib, qoshiqlar kuylashganini eslatadi. Xususan, «Kini siyovush» («Siyovush o'chi») qo'shig'i keng tarqalgan.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobida keltirilgan ma'lumotlar bizga bu davrda xususan, qo'shiqchilik san'ati rivojlangan, deb xulosa chiqarishga asos beradi. Musiqa asboblari rud, tanbur, barbat, daf, ko's, tabl, qo'biz, rubob, taburoq zir, nay, chagona, shaypur, surnay, karnay, arg'unun, qonun kabi turlari keng tarqalgan, yangi so'zlar yaratilgan. Jumladan, Rudakiyning zamondoshlaridan Abuxifa Sug'diy nayga o'xshash shohrud deb ataluvchi musiqa asbobini ixtiro qilgan. Xalq kuylari asosida yangi-yangi kuylar ijod qilindi. Bular: «Rost», «Xusravoniy», «Boda», «Ushshoq», «Zerafkanda», «Bo'slik», «Sipoxon», «Navo», «Basta», «Taron» va boshqalardir. Bu kuylar «Duvozdaxmakom» va uning negizida vujudga kelgan «Shoshmaqom» uchun zamin bo'lgan edi. Bu musiqa asboblari va yaratilgan kuylar shu kunga qadar ham xalqimizning ma'naviy dunyosini boyitishiga va ularni estetik jihatdan oziqlantirishga xizmat qilib kelmoqda. Manbalarning guvohlik berishicha, bu davrda Abu Bakr Rubobiy, Bunasr, Buamir, changchi Lo'kariy va boshqalar musiqa va hofizlikda nom chiqarganlar.

Musiqa va qo'shiqchilik san'ati odatda poeziya bilan chambarchas bir tarzda rivojlangan. Ko'p hollarda o'z she'riy ijodlari bilan nom qozongan va xalq o'rtasida hurmatga ega bo'lgan shoirlar iste'dodli musiqachilar va xushovoz qo'shiqchilar ham bo'lganlar. Adabiyotshunos olim Natan Mallayevning ma'lumotlariga qaraganda, ulug' shoir Rudakiy ayni zamonda, juda mohir cholg'uvchi va hofiz bo'lgan. U xususan, rud va chang asboblari mohirlik bilan chalgan. Uning sehrlovchi mashhur «Bo'yi jo'yi Mo'liyon...» («Mo'liyon arig'ining isi...») she'ri «Ushshoq» kuyida aytilgan va nihoyatda shuhrat qozongan.

Xuddi shuningdek, Xusravoniy (Abutayib Tohir ibn Muhammad al-Xurosoniy), Munjikiy Termiziy, Farruhiy va boshqa shular kabi shoirlar ham musiqa san'atida mashhur bo'lganlar. Tasavvuf ilmiining ulug' vakillaridan bo'lmish Ahmad Yassaviy va uning shogirdi Sulaymon Boqirg'oniylar ham yozma manbaalarning guvohlik berishicha, xalq kuylariga monand she'r va g'azallar yozib kuyga solganlar va ularni qo'shiqlarda kuylaganlar.

IX–XII asrlarda musiqa san'ati bilan bir qatorda musiqashunoslik ilmi ham rivoj topgan. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar o'z ijodlarida bu sohaga ham katta e'tibor berganlar. Jumladan, Forobiyning musiqa o'ld «Kitob al-musiqiy-ul-kabir» asari o'z davrida katta e'tibor qozongan. Ibn Sino esa musiqa doir xulosalarini «Kitob ush-shifo» asariga kiritgan va ayrim jismoniy va ruhiy kasalliklarni u musiqa vositasi bilan davolash mumkin, deb hisoblagan.

Xulosa shuki. IX–XII asrlarda o'lkamizda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida ijobiy tub o'zgarishlar va taraqqiyotning omilini belgilovchi asosiy vosita bo'ladi.

6. O'ZBEK XALQINING ETNOGENEZI

O'rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy hayotida turkiy etnik guruhlar juda katta ahamiyatiga ega bo'lganligi va bu qatlamning ildizlari juda qadimiy ekanligi arxeologik ma'lumotlar asosida isbotlanmoqda. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bronza davriga kelib, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida baland bo'yli, yuzi tor irqning vakillari tarqalgan. Shimoliy dasht va cho'l hududlarida esa janub aholisidan farq qiluvchi boshi dumaloq, yuzi juda keng va cho'ziq bo'lmagan qabilalar yashaganlar. Fanda janubiy qiyofali odamlar O'rta Yer dengizi irqining vakillari deb ataladi. Ular Old Osiyo, Mesopatamiya, Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Hindiston kabi katta geografik hududga yoyilganlar. Shimoliy qiyofali odamlar Janubiy Sibir hududidan to Qozog'iston, O'rta Osiyoning shimoli sharqiy qismidan Ural, Volga bo'yi yerlarigacha tarqalgan.

A.Sagdullaev tadqiqotlariga ko'ra, bronza davriga kelib, O'rta Osiyo hududida qadimgi janubiy va shimoliy qiyofadagi odamlar vakillarining qo'shilishi jarayoni boshlanadi hamda aynan mana shu davrda o'lkamizda yashab o'tgan bronza davri qabilalari, O'rta Osiyoning qadimgi xalqlariga asos solganlar. Bu davr o'lkamiz hududlarida murakkab etnik-madaniy jarayonlar bo'lib o'tgani bilan izohlanadi. Xususan, janubiy hududlardagi hosildor vohalar o'troq dehqonchilik aholisi tomonidan o'zlashtirila boshlagan bo'lsa, shimoliy viloyatlarda ko'chmanchi chorvadorlar qabilalar tarqala bosh-

laydi. Ko'chmanchi chorvadorlar va o'troq aholining uzviy munosabatlari asosida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-etnik jarayonlar avj oladi.

Mil. avv. II ming yillikning o'rtalaridan boshlab, O'rta Osiyo hududlariga shimoli sharqdan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi yangi etnik guruhlar kirib kela boshlaydi. Mahalliy madaniyati tadqiqotchilar tomonidan «Tozabog'yob madaniyati» nomi bilan fanga kiritilgan.

Tozabog'yob ko'rinishidagi yodgorliklar keyinchalik Zarafshon daryosining quyi havzasi hududlaridan topib o'rganildi. Xuddi shunga o'xshash etnoslarning izlari Toshkent vohasidan, Farg'ona vodiysidan va shimoliy Baqtriyaning tog'li va tog'oldi hududlaridan topib o'rganilgan. Juda katta hududlardan, xususan, Qozog'iston cho'llari, Oltoy, Janubiy Sibir, Uraloldi hududlaridan tekshirilgan o'ziga xos madaniyat «Andronov madaniyati» nomi bilan fanga kiritilgan. Ayrim tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, bu madaniyat sohiblari bronza davridayoq turkiy tilda so'zlashganlar. Ammo bu fikr hali to'la ilmiy asoslanmagan.

O'zbekiston O'rta Osiyoning qadimdan o'troq dehqonchilik madaniyati o'choqlari tarkib topgan hududida joylashganligi, boy arxeologik va me'morchilik madaniyatlari bilan izohlanadi. Farg'ona vodiysining Selung'ur g'oridan topilgan qadimgi tosh davriga oid topilmalar va Teshiktoshdan topilgan o'rta paleolit davriga oid odamzod qoldiqlari, bizning yurtimiz Afrika va Old Osiyo hududlari bilan bir qatorda insoniyat paydo bo'lgan hududlar tarkibiga kirganligini hozirgi kunda uzil-kesil isbotlaydi. Shuningdek, mezolit davriga oid Machay g'oridan topilgan yodgorliklar, neolit davriga oid ovchilik va baliqchilik madaniyatini o'zida aks ettiruvchi Kaltaminor janubidagi ilk dehqonchilik madaniyatiga oid bo'lgan Joytun, Hisor tog' madaniyati, bronza davriga oid bo'lgan xilma-xil Zamonbobo, Sopolli, Jarqo'ton, Sarazm, Suvyorgan, Chust madaniyatlari o'lkamizda qadimgi ajdodlarimiz xo'jaligining jadallik bilan rivojlanganligini isbotlaydi.

O'lkamizdagi qadimgi aholi tosh va bronza davrida qanday nom bilan atalganliklari bizga noma'lum. O'rta Osiyo aholisi haqidagi ma'lumotlar dastlab Sharq va yunon-rim manbalarida tilga olinadi. Yunon tarixchilari ma'lumotlariga qaraganda, Yevrosiyoning katta hududlarida yashovchi qabilalar umumiy «skiflar» nomi bilan ataladi. Gerodot «bu xalq qadimiylikda misrliklardan qolishmaydi»,

deb yuqori baho bergan edi. Pliniy esa O'rta Osiyo hududlarida 20 ga yaqin qabilalar borligi xususida eslatib o'tadi. Yozma manbalarda, skiflarning ikkita yirik qabilasi: saklar va massagetlar xususida ko'proq eslatiladi. Ahamoniylar mixxat yozuvlarida saklar uch qismga (xaumavarka, tiay-tara-darayya) bo'lib ko'rsatiladi. Massagetlar xususida ham turli fikrlar mavjud bo'lib, ular mahalliy chorvador-harbiy qabilalar bo'lganligi ta'kidlanadi. Ammo yozma manbalar bu xalqlar va qabilalarning qaysi irqqa mansubligi haqida ma'lumot bermaydi.

Ayrim olimlar tomonidan bildirilgan O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston qadimgi davrlaridagi mongoloid irqi shakllangan xududga kiradi, degan ilmiy yondashuv noto'g'ri va asossiz ekanligi so'nggi yillardagi antropologik ma'lumotlar natijasida aniqlandi. T. Xo'jayevning fikricha, o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixini o'rganishning qancha erta davrlardan boshlasak, uning tarkibiga hozirgi kunlargaacha saqlanib kelinayotgan irqiy va etnik unsurlarning mahalliy xalq tarkibiga kirgan davri va uning nisbiy miqdori to'g'risida shunchalik keng fikr yurita olamiz.

O'zbek xalqiga xos O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i irqining shakllanish davri, makoni va tarixi masalalarida fanda yaqingacha yagona fikr yo'q edi. Bir guruh olimlar bu irq bundan 6-8 ming yil ilgari, ikkinchi bir guruh tadqiqotchilar bundan 3 ming yil ilgari shakllangan desa, uchinchi guruh olimlari esa VI asrda shakllandi, deb hisoblar edilar. Keyingi yillarda boy arxeologik topilmalar natijasida tadqiqotchilar O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i irqining shakllanishi bundan 2200-2300 yil ilgari boshlanganligini asoslab beradi.

Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda o'zbek xalqining shakllanishida sakkizta muhim davr sanab o'tiladi. Bular qatorida Ahamoniylar, Aleksandr Makedonskiy, Arab xalifaligi, Mo'g'ullar istilosi tilga olinadi. Haqiqatan, bu zabt etishlar O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston xalqlari madaniyatiga, tiliga, turmush tarziga, albatta, o'z ta'sirini o'tkazgan. Ammo bu yurishlarning mahalliy xalqlarni irqiy va etnik tarixiga bo'lgan ta'siri kam ekanligini ta'kidlash joiz. Antropologik nuqtayi nazardan ular mahalliy xalq «qonuni» yoki genetikasini tubdan o'zgartira olmadilar. Ular son jihatidan ko'pchilikni tashkil etgan mahalliy aholi tarkibiga singib ketganlar. Bu o'rinda mahalliy (substrat) va kelgindi (superstrat) aholii orasidagi o'zaro munosabatlarining fanda ma'lum holatlarini eslatib o'tish joiz. Yani ko'p

sonli mahalliy aholi tarkibiga kelgindi guruhlarining singib ketishi: kelgindi aholi teng sonli bo'lishi va nihoyat, mahalliy va kelgindi xalqlar aralashuvi natijasida ikkalasiga ham o'xshash yangi xalq, guruh, elat paydo bo'lishini kuzatish mumkin. T. Xo'jayevning maxsus antropologik tadqiqotlariga qaraganda, barcha tarixiy davrlarda mahalliy xalq kelgindi aholiidan hamisha ustun bo'lgan.

Ilk Temir davridan boshlab, (mil.avv. IX-VII asrlar), o'lkamizning qadimgi dehqonchilik vohalarida yashovchi o'troq aholi o'zlari yashab turgan hudud nomlari bilan atala boshlaganlar. Bular Sug'diyonadagi sug'diylar, qadimgi Xorazmdagi xorazmiylar, qadimgi Baqtriyadagi baxtarlar, qadimgi Chochdagi chochliklar, Farg'onadagi parkanaliklardir. Bu tarixiy nomlarning ayrimlarini ilk yozma manbalarda, xususan, zardushtiylk dinining muqaddas kitobi «Avesto»da, Ahamoniylar mixxatlarda, yunon-rim mualliflari asarlarida uchratish mumkin.

Antropologik izlanishlar natijalariga tayanib, o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixida muhim ahamiyat kasb etgan uch tarixiy davrga alohida to'xtalib o'tish zarur. **Birinchi dan, mil. avv. III–II asrlarda** O'rta Osiyo dasht mintaqalarida hozirgi o'zbek xalqiga xos antropologik qiyofa shakllana boshlagan. Bu esa fanda yaqingacha keng tarqalgan fikrlar, ya'ni o'zbeklarga xos O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i irqi, avvalo, Volga daryosi bo'ylarida va Uralda sarmat qabilalari tarkibida shakllanib tarqaldi, degan hamda bu irq Baykal ko'li atrofida va Mo'g'uliston cho'llarida shakllanib, tayyor holda mahalliy aholiga o'z irqini tarqatdi, degan fikrlaridan voz kechishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida, o'zbeklarga xos antropologik qiyofa dastavval Sirdaryoning o'rta havzasi tumanlarida, ya'ni Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, qisman Xorazm va Janubiy Qozog'istonning Chimkent viloyatlarida, Yettisuv mintaqasida mil.avv. I ming yillik oxirida shakllana boshlaganligi aniqlanadi.

Mil.avv. III–II asrlarda bu aholi bir necha yo'nalishda O'rta Osiyoning markaziy va janubiy viloyatlariga kirib borgan. Ushbu antropologik tadqiqotlar natijalari yozma manbalarda ma'lum bo'lgan xalqlarning janubga yurishi va Yunon-Baqtriya davlatining istilo etilishi hamda Buyuk Kushon saltanatining barpo bo'lish davriga mos keladi. Antropologiya bu yurish haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi cho'l aholisi Sirdaryo quyi

oqimidan Markaziy Qizilqum orqali (Uchquduq, Tomdi, Yuzquduq, Ko'kpatosh), Samarqand atroflariga (Kattaqo'rg'on, Orlat), so'ngra Qashqadaryoning Qarshi shahri atroflari (Yerqo'rg'on) orqali Surxondaryo viloyatida (Ko'hna Termiz, Dalvarzin, Shohtepa, Ayritom) qadimgi shahar va qishloqlariga kirib joylashganlar. Keyinchalik, ular janubiy Tojikistonga o'tib ketganlar. Ularning guruhi qadimiy Buxoro vohasi orqali Turkmanistonning janubiy viloyatlariga, bir qismi esa hozirgi shimoliy Afg'onistonning Shibirg'on shahri atroflarigacha yetib borgan (Tillatepa). Natijada, o'zbeklar va tekistliklarda yashovchi tojiklarga xos Pomir-Farg'ona antropologik unsur O'rta Osiyoda keng tarqalgan.

O'zbek xalqi shakllanishidagi ikkinchi muhim davr – bu IX–XII asrlar hisoblanadi. Bu davrda O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda hozirgi o'zbeklarga xos qiyofa mahalliy aholining asosiy qismini tashkil etadi. Antropolog T. Xo'jaev tadqiqotlariga qaraganda, IX asrga kelib aholining antropologik qiyofasida keskin o'zgarishlar yuz berganligi kuzatiladi. Bu o'zgarishlarni arxeologik tadqiqotlar natijalari ham tasdiqlaydi. Jumladan, marhumlarni ostodonlarga ko'mish marosimlari, aholi orasida keng tarqalgan bosh shaklini sun'iy o'zgartirish odatlari yo'qoladi. Antropologik tadqiqotlar natijalaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, o'zbeklarning elat sifatida shakllanish davri IX–X asrlarga oid deyishga jiddiy asos bor.

Fanda mo'g'ul istilosi O'rta Osiyo aholisini keskin mo'g'ullashtirib, o'zgartirib yuboradi, degan fikr keng tarqalgan. Lekin tadqiqotchilarimiz bu masalaga ham oydinlik kiritdilar. Mo'g'ul istilosi O'zbekiston tashqi qiyofasiga sezilarli izlarni qoldirmaganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Sababi, Chingizxon XIII asr boshida tashkil etgan yirik mo'g'ul davlatida mo'g'ullar soni taxminan 0,7 million kishidan iborat bo'lgan. Agar har 6 kishidan bittasi askarlikka olingan bo'lsa, unda uning qo'shinlari soni 100–110 ming kishidan iborat bo'lgan. Lekin o'sha davrda mo'g'ul qo'shinlarining ko'p qismini yo'qotganlar. Ular O'rta Osiyoga bostirib kelganida, qo'shinlarning ko'pchiligi turkiy xalqlardan tashkil topganligi ma'lum. Bu davrda Muhammad Xorazmshoh davlatida 20 million aholi yashagan. Mo'g'ul qo'shinlari ko'p sonli mahalliy aholi tarkibiga o'z asoratini o'tkaza olmagan. Shuning uchun, ham mahalliy aholida mo'g'ul irqi alomatlari deyarli namoyon bo'lmaganligini ko'rish mumkin.

O'zbek xalqining shakllanishida uchinchi muhim davr XV asr oxiri va XVI asr hisoblanadi. Bu davrda Dashti Qipchoq o'zbeklari

Oʻrta Osiyoga kirib keladi va ular mahalliy aholiga oʻz nomini beradi.

Shunday qilib, oʻzbek xalqining etnik shakllanishi uzoq davom etgan murakkab jarayondir. Oʻzbek xalqining asosini hozirgi Oʻzbekiston hududida bir necha ming yillar davomida yashab kelgan mahalliy sugʻdiylar, baxtarlar, xorazmiylar, saklar, massagetlar, qangʻlilar va dovonliklar tashkil qilgan. Turli davrlarda, turli maqsadlarda kirib kelgan qabilalar, elatlar va xalqlar davr oʻtishi bilan mahalliy aholiga oʻz taʼsirini qisman oʻtkazgan. Bu oʻrinda shuni alohida qayd etish lozimki, oʻzbek xalqi tashqaridan kelgan aholiga nisbatan, doimo ustunlik qilgan. Kelgindi aholi mahalliy aholiga oʻz tilini berganligini ham inkor etib boʻlmaydi. Lekin antropologik nuqtayi nazardan mahalliy aholining etnik qiyofasini va tashqi koʻrinishini tubdan oʻzgartira olmadi. Misol uchun, keyingi ikki ming yil davomida Oʻrta Osiyoda, jumladan, Oʻzbekistonda mahalliy aholining tili uch marta oʻzgardi. Sharqiy eron tillari oʻrniga gʻarbiy eron tillari (fors tili) va milodning boshlaridan turkiy tillar keng tarqala boshlagan. Ammo mahalliy xalqning «qoni», yaʼni genetikasi aytarli oʻzgarmadi va qadimiy xalqlarimizga xos antropologik xususiyatlar shu kunlarga qadar saqlanib kelmoqda. Ikki yarim ming yil davomida mahalliy aholiga kelib qoʻshilgan turkiy tilli elat va xalqlar oʻzbek xalqi shakllanishida asosiy tarkibiy qism sifatida qatnashgan.

Oʻrta Osiyo xalqlarining etnik shakllanishida bu hududga koʻchib kelgan turli elat va qabilalar ham maʼlum maʼnoda ishtirok etganlar. Yuechjilar, xioniylar, kidariylar, eftaliylar shular jumlasidandir. Oʻrta Osiyo ikki daryo oraligʻi tipi Sirdaryoning oʻrta havzasida aniq antropologik tip boʻlib shakllangan davrda hududlarda «Qovunchi madaniyati» shakllandi. Soʻnggi arxeologik tadqiqotlar natijalariga koʻra milodiy II–III asrlardan boshlab, Fargʻona vodiysi, Samarqand hududlari, IV–V asrda esa Buxoro vohasi, Qashqadaryo va Surxon vohalarida Qovunchi madaniyatining taʼsiri seziladi.

IV asrning oxirlaridan boshlab, Oʻrta Osiyoda yirik etnoslar xioniylar va eftaliylarning oʻtroqlashuv jarayonlari kuchayadi. V–VI asrlarga kelib eftaliylar va xioniylarning asosiy qismi turgʻun hayotga oʻtadilar. Bu qabilalar oʻtroq hayot kechirib, anʼanaviy chorvachilik bilan bir vaqtda dehqonchilik bilan shugʻullanganliklari haqida yozma va arxeologik manbalar maʼlumotlar beradi.

VI asrning o'rtalaridan boshlab, O'rta Osiyoda eftaliylar va Turkiy xoqonlik o'rtasida kurash boshlanadi. Tarixiy manbalardan bizga ma'lumki, VI asrning o'rtalarida Oltoyda, Janubiy Sibir, Yettisuv, Sharqiy Turkistondagi bir necha qabilalar birlashuvi natijasida yirik Turkiy xoqonlik tashkil topadi. Qisqa vaqt ichida xoqonlik kuchayib, O'rta Osiyoning katta qismini bosib oladi. Turkiy xoqonlik davrida (VI-VIII asrlar) Toshkent vohasi, Zarafshon, Qashqadaryo vohalari, Surxondaryo va Farg'ona vodiylari Xorazm hududlariga turkiyzabon guruxlarning kirib kelishi yanada kuchaydi va ularning ko'pchiligi bu hududlarda turg'unlashib qoldi.

VIII asr boshlarida arablar Movarunnahr va Xorazm hududlariga bostirib kirgan vaqtlarda bu hududlarda o'troq va yarim o'troq turkiyzabon aholi, sug'diylar, toxarlar, chochliklar va Xorazmning tub yerli aholisi bosqinchilarga qarshi tinimsiz kurash olib borgan bo'lishlariga qaramay, siyosiy parokandalik tufayli ular zulmi ostiga tushib qoladilar.

Ma'lumki, VIII asrning 2-yarmidan turkiy qarluq qabilalari kuchaya boshlaydilar. IX asrning o'rtalariga kelib, Yettisuv, Chimkent viloyati Toshkent vohasi, Farg'onaning shimoliy qismlarini o'z ichiga olgan Qarluq davlati tashkil topadi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, o'zbek elatining shakillanishida Qarluq davlatining ahamiyati katta bo'ladi. X asr o'rtalaridan boshlab, bu davlat tarixiy manbalarda Qoraxoniylar davlati nomi bilan tilga olinadi.

Yozma manbalarning ma'lumot berishicha («Hudud al-olam»), IX-X asrlar qarluqlar egallab turgan hududlarda 20 dan ortiq shahar, ko'plab qishloqlar bo'lgan. Qarluqlar ko'p sonli, nufuzli «xalq» bo'lib, bir qismi chorvachilik bilan shug'ullangan. Qarluqlar yashagan hududlarda yirik etnoslar-chigillar, yag'molar, halachlar ham yashagan bo'lib, tadqiqotchilarning fikricha, ular bir-biriga qonqarindosh bo'lib, turkiy tilda so'zlashganlar.

XI asrning birinchi o'n yilligidayoq Janubiy hududlarning to Balx viloyatigacha bo'lgan yerlari dastlab, qoraxoniylar turkiylar, so'ng esa g'aznaviylar qo'lga o'tdi. Buning natijasida, navbatdagi katta turkiy qatlam Sug'diyona, Xorazm va Turkiston yerlariga kirib boradi. Qoraxoniylar davrida Movarounnahrning barcha hududlarida turkiy qatlamlar mavjud edi.

Qoraxoniylar davlatida qarluq-chigil turkiy til lahjasi keng tarqaldi. Keyinchalik, shu til asosida adabiy turkiy til yuzaga kelib, uni

Mahmud Qoshg'ariy «eng ochiq va ravon til», deb atagan. Turkiy tilda IX–XII asrlar mobaynida bir qator asarlar yozilgan bo'lib. Ahmad Yugnakiyning (775–869) «Hibat ul-haqoyiq» (Haqiqatlar tuhfası) dostoni, Yusuf Xos Hojibning (XI asr) «Qutadg'u bilig» (Saodatga yo'llovchi bilim) asari, Ahmad Yassaviyning (1041–1167) «Hikmatlar»i hamda «O'g'uznoma», «Alpomish», «Go'ro'g'li» kabi dostonlari shular jumlasidandir.

Movarounnahr va Xurosonning forsiy-dariy tilda so'zlashuvchi aholisi X asrdan boshlab, o'zini «tozik», ya'ni «tojik» deb yurita boshlaydilar. Somoniylar va Qoraxoniylar (IX asr o'rtalaridan 1213-yilgacha)dan keyin kukmronlik qilgan keyingi sulolalar, G'aznaviylar (997–1187), Saljuqiylar (1040–1147), Xorazmshoh Anushtegeniylar (1097–1231)ning barchasi turkiy qavmga tegishli bo'lib, o'z vaqtida, nafaqat O'rta Osiyo, balki O'rta Sharqda ham hukmronlik mavqeyiga ega bo'lganlar. Mo'g'ullar istilosi garchi aholi boshiga nihoyatda og'ir kulfatlar va yo'qotishlar olib kelgan bo'lsa-da, tadqiqotchilar fikricha, o'zbek halqi etnogenezi va irqiga deyarli ta'siri bo'lmadi.

«O'zbek» etnonimining kelib chiqishi haqida qisqacha fikr yuritadigan bo'lsak, bu etnonimning kelib chiqishining ayrim guruh tadqiqotchilari Oltin O'rda xoni O'zbekxonning (1312–1341) nomi bilan bog'laydilar. Boshqa guruh tadqiqotchilar esa bu fikrni inkor etadilar va «O'zbek» nomi O'zbekxongacha Oq O'rda mintaqasida, uning G'arbiy Sibir va Qozog'iston qismida yashagan turkiy qabilalarga mansub (xon nomi qabilalar nomidan olingan bo'lishi mumkin), degan fikrni ilgari suradilar. Ayrim tadqiqotchilar esa «O'zbek» atamasini «o'zi bek», «erkin», «mustaqil» so'zidan kelib chiqib, XII–XIV asrlarda xalqimizga nisbatan ishlatila boshlagan, deb hisoblaydilar.

So'nggi yillarda filolog mutaxassis A. Shukurov «O'zbek» atamasining kelib chiqishini O'g'uzxon nomi bilan bog'laydi. U o'zining «O'zbek» atamasining kelib chiqishi haqida» («Nasaf» nashriyoti, 2010) risolosida (34-bet) «...Turkiy mentalitetdan (an'analarga sodiqlik) kelib chiqib, turk otaning dovuqli nabirasi O'g'uzxon ismi hozirgi paytda Ozarbayjon, Turkmaniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston davlatlari, Qoraqolpog'iston Respublikasi, Afg'onistondagi turkiy qavmlarning asosiy qismi nomlarida mavjud va ular bu yerlarda dunyo yaralgandan buyon yashab kelmoqdalar», degan fikrini bildiradi. Afsuski, yozuvchi-

ning bu fikri o'ta mavhum bo'lib, hissiyotlarga berilib, talqin etilgan hamda nihoyatda jiddiy ilmiy asoslanishi talab etadigan muammodir. Yozuvchining yuqoridagi risolasi tahlil etish esa alohida mavzu hisoblanadi.

O'zbek etnonimi kelib chiqishi davriga qarab o'zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq xalqlarining aniq bir vaqtda paydo bo'lganini aytib bo'lmaydi. Bu xalqlar ming yillar davomida yashayotgan mintaqalarida yashaganlar, lekin u paytda hali hozirgi nomi bilan atalgan emas va bu nomlari bilan aytilmagan. Ular umumiy nomi bilan «turkiy» yoki bo'lmasa o'z qabilalari nomi bilan atalganlar.

Tarixning qadimgi davrlaridan aholi ko'p hollarda o'zlari yashagan joy nomi bilan atalgan bo'lib, o'rta asrlarga kelib bu nomlar o'zgaradi. Xususan, Dashti Qipchoq hududlarida yashagan turkiy aholi Movarounnahr yerlariga kelib, bu yerda yashayotgan o'troq aholi bilan uyg'unlashib ketgan va aholining nomi «o'zbek» deb atalgan. O'rta asrlar tarixiy adabiyotlarida ham bu nom «o'zbek», «o'zbeklar» sifatida tilga olinadi. Ammo shu narsa aniqki, Dashti Qipchoq hududlaridan kelgan turkiy qabilalar mahalliy aholi etnogeneziga, urf-odat va an'alariga sezilarli darajada ta'sir etmadilar. Aksincha, ular orasiga singib ketib, yuqori darajadagi madaniyat ta'sirida bo'ldilar.

Tadqiqotlarga ko'ra o'zbek xalqi asosan ikki etnik qatlamdan tashkil topgan. Birinchi qatlam Turon-Turkiston hududlarida shakllangan. Ikkinchi qatlam esa Volga (Itil) daryo bo'ylaridan tortib, to Xorazmning shimoli, Sirdaryoning o'rta quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarda shakllangan. Bu makon o'tmishda turli nomlar, chunonchi, Dashti Qipchoq, Oltin O'rda, o'zbek viloyati, o'zbek mamlakati, o'zbek ulusi deb atalgan. Xalqimizning bu qatlamini shartli ravishda shimoliy qatlam deb atash mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududlarida bir necha ming yillar davomida yashab kelgan mahalliy saklar, massagetlar, sug'diylar, baxtarlar, xorazmiylar, qang'lilar, dovonliklar, chochliklar tashkil etgan. Kelgindi aholi mahalliy aholiga qisman ta'sir etsa-da, uning genetikasini tubdan o'zgartira olmagan.

Taniqli tarixshunos olimlar Ahmadali Asqarov va Bo'riboy Ahmedovlarning «O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi» («Dastlabki mulohazalar») maqolasida ta'kidlanishicha, «O'zbeklar yaxlit xalq sifatida X asrga kelib shakllandi. Hududiy, iqtisodiy, madaniy, til va tip birligiga ega bo'ldi. Uning etnik jihatdan takomillasha bori-

shi va etnik tarixi shundan keyin ham, to ularni millat darajasiga ko'tarilgunga qadar davom etdi».

Akademik A. Y. Yakubovskiy dastlab, o'zbek etnogenizning ilk nuqtasi turk xoqonligidan boshlandi, degan fikrni ilgari surgan edi. Keyinroq esa Akademik S. N. Tolstov esa turkiy etnik guruhlar bu zaminga ancha avvalroq, antik davrda kirib kelgan, Shuning uchun, o'zbek etnogenezini antik davrdan boshlash kerak, degan tezis bilan chiqdi.

Akademik Ahmadali Asqarov qadimgi yozma moddiy madaniyat manbalarini qiyosiy o'rganish natijasida o'zbek etnogenezining boshlang'ich nuqtasi so'nggi bronza davriga borib taqalishini asosladi. «Bugungi kunda olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra,» deb yozadi A. Asqarov, o'zbek xalqi etnogenezining boshlang'ich nuqtasi so'nggi bronza davri deb e'tirof etilgan uning uzil-kesil shakllanishi milodiy XI–XII asrlarda yuz berdi. Hozirgi O'zbekiston hududlarida qadimdan yashab kelayotgan o'zbek xalqining ajdodlari ikki til – turkiy va eroniy tillar turkumidagi qabila va elatlar bo'lib, ularning uzoq-yillar davomida aralashuvi, qorishuvi jarayonida XI–XII asrlarga kelib o'zbek elati xalq bo'lib shakllanib, shundan so'ng etnik tarix boshlandi¹.

O'zbek etnogenezining paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari Ahmadali Asqarov, Asror Kalomovlar tomonidan ham olib borilgan²

Turon nomi bilan atalgan mamlakatimiz hududlarida o'troq va chorvador hayot kechirgan qadimiy avlodlar Sug'd, Xorazm, Baqtriya, Parkana va Tohariston nomlari ostidagi vohalarda yashaganlar. Ular sharqiy eroniy tillarga mansub sug'diy, xorazmiy, shak va tohar tillarida muloqotda bo'lganlar. Bu xalqlar janubda forsiyzabon Ajam xalqi, shimolda esa turkiy tilda so'zlashuvchi o'troq va chorvador xalqlar va etnik guruhlarining doimiy ta'sirida bo'lganlar.

O'zbek etnogenezi miloddan avvalgi I ming yillikning ikkinchi yarmi – milodiy eraning boshlarida yangidan yangi turkiy qabilalarning bu zaminga kirib kelishi va miloddan avvalgi III asrda kanguylar Yuechji, Kushon (miloddan avvalgi I milodiy IV asr) davlatlarning tarkib topishi asosida rivojlanadi. Mahalliy aholining

¹ Ahmadali Asqarov. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi (o'quv qo'llanma). – T.: «Universitet», 2007, 239–240-betlar.

² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 10-jild. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2005, 487–492-betlar.

turkiylashish jarayoni Turk xoqonligi (VI–VIII asrlar) davrida sezilarli darajada jadallashadi, etnomadaniy rivojlanishning aktivlashishi oqibatida turk – sug‘d simbiozi yuz beradi. O‘zbek etnogenezi Movarounnahrda yirik turk davlati – Qoroxoniylar davlati hukmronligi o‘rnatilishi bilan (XI asrning boshlari) bu jarayon jadallashib, g‘arbiy qoraxoniylar davrida uzil-kesil shakllanadi (XI–XII asrlar)¹. Ayni shu bosqichda barcha etnik omillar: hududiy birlik, madaniy, til, tarixiy taqdir birligi, siyosiy uyushma, din birligi va o‘zlikni anglash birligi yuz beradi, deydi Ahmadali Asqarov yuqoridagi asarida.

Darhaqiqat, X asrning oxiri va XI asrning boshlarida O‘rta Osiyoning katta hududlarida Qoraxoniylar davlati vujudga keladi. Qoraxoniylar bilan birga o‘lkaga ko‘chib kelgan bir talay qabilalar: turgashlar, to‘xsilar, qarluqlar, chigillar, yag‘molar, o‘g‘uzlar, arg‘inlar va boshqa turkiyzabon qabilalar o‘lkaning sharqiy eron va turk tillarida so‘zlashuvchi aholisi tarkibini etnik jihatdan yanada boyitadi, turkiy etnik qatlamning ustunligini bir qadar ta‘minlaydi. Ana shu tariqa, qoraxoniylar hukmronligi davrida turkiy o‘zbek xalqi to‘la shakllanadi, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanadi. Tarixchi olim Bo‘riboy Ahmedov qayd qilganidek: «Eski o‘zbek tiliga asos bo‘lmish qarluq-chigil lahjasi rivoj topdi va yozma adabiyot darajasiga ko‘tarildi. Qarluq-chigil lahjasi, aytish mumkin, shu o‘zbek xalqining umumiy tili bo‘lib qoldi»². Bu holni Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Mahmud Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘otit turk», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Ahmad Yassaviyning «Hikmatnoma» asarlari timsolida ochiq-oydin ko‘ramiz.

Akademik Karim Shoniyozovning ta‘kidlashicha, IX–X asrlarda siyosiy hokimiyat forsiyzamon Somoniylar qo‘lida bo‘lsa ham, Movarounnahrning shimoliy, shimoliy-sharqiy va shimoliy-g‘arbiy mintaqalarida o‘zbek elatining turkiy asosi ko‘rinib turgan edi. Bu turkiy etnik asosining qarluq-chigil lahjasi g‘arbiy Qoraxoniylar davlati doirasida jonli o‘zbek tili sifatida boshqa turkiy lahjalardan ajralib chiqadi³.

¹ Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqishi. – T.: «O‘zbekiston», 2015, 576-bet.

² Ahmedov B. Tarixdan saboqlar – T.: «O‘qituvchi» 1994, 199-bet.

³ Karim Shoniyozov. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T.: «Sharq», 2001.

XIII asrda Movarounnahr va Xorazmga bostirib kelgan mo'g'ullar o'lka taraqqiyotiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadilar. Biroq Chingizxon qo'shini tarkibida mo'g'ullar bilan bir qatorda juda ko'plab turklar va turklashgan mo'g'ullar ham bor edi. Jazoirlar, qurlovutlar, burkutlar, mang'itlar, qo'ng'irotlar, barloslar, sulduklar, boyovutlar, bahrinlar ana shular jumlasidandir. Bu qabilalar, shak-shubhasiz, o'zbek xalqining etnik tarkibini tag'in ham boyitadilar, albatta. Ammo to XV asrga qadar ular o'zbek nomi atamasi bilan yuritilmagan, balki Turk deb yoki qabilalar nomi bilan atalganlar. XV asrdan e'tiboran Dashti Qipchoqda yashab kelayotgan o'zbek nomi Movarounnahr va Xorazm etnik dunyosiga kirib keldi va bu nom, keyinchalik, butun bir millatning nomi bo'lib qoldi. Aytmoqchimizki, Dashti Qipchoqda yashab kelgan ko'chmanchi chorvador turkiy o'zbek qabilalarining nomi Movarounnahr va Xorazmda qadim zamonlardan beri yashab istiqomat qilib kelayotgan sartlar va barcha turkiy xalqlarga nisbatan qo'llaniladigan bo'ladi. «O'zbek» atamasi, keyinchalik, mahalliy xalqlar o'rtasida iste'molda keng tarqalgan «sart» atamasini ham muomaladan surib chiqaradi.

«Sart» so'zining ma'nosi turli davrda mazmunan boyib borgan. Masalan, «sart» deganda dastlab, savdo ahli tushunilgan, so'ng hunarmand va dehqonlar ham sart deb atalgan. Sart, umuman, yerli, o'troq aholi bo'lib, turkiylashgan sug'diylar, xorazmiylar edi. Arab manbalarida «sart» deyilganda, Movarounnahrdagi hamma musulmonlar ko'zda tutilgan. Mo'g'ullar Xorazmshohning barcha fuqarolarini «sartlar» deb ataganlar. Navoiy zamonida barcha tojiklarni «sart» deb atash odat bo'lgan. Xulosa shuki, «sart» so'zi dastlab, aholining etnik nomi bo'lmagan. Bu nom aholining kasb-koriga qarab farqlovchi ibora bo'lganligi uchun elat nomini anglatmagan.

Shunday qilib, o'zbeklar xalq sifatida X–XII asrlardan boshlab shakllana boshlagan bo'lib, bu jarayon XV asrlarda o'z nihoyasiga yetdi, deb aytish uchun barcha asoslarga egamiz. Buni akademik Ahmadali Asqarov o'zining yangi nashr ettirgan «O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi» asarida quyidagicha bayon etadi: XV asrning oxiri – XVI asr boshlarida shakllangan turk etnik birlik tarkibiga dasht o'zbeklarining nomini olgan yangi etnik massa Dashti Qipchoq cho'llaridan kelib qo'shiladi. Ular shakllangan turk etnik birlik tarkibiga hech bir yangilik kiritmadi, faqat ular hozirgi

O'zbekistonning janubiy viloyatlariga (Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo) oz miqdorda etnomadaniy ta'sirni o'tkazadi. Ammo ular kelgunicha shakllangan turk xalqi, ulardan «o'zbek» etnonimini oladi.

Nazorat savollari

1. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davrini ko'rsata olasizmi?
2. Madaniy taraqqiyotning muhim omillari nimada?
3. Yuksak madaniyatning O'rta Osiyo va dunyo xalqlari taraqqiyotiga qo'shgan hissasi nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Sharq olamining aniq fanlar bo'yicha daholari kimlar edi?
5. Ijtimoiy-gumanitar va dunyoviy fanlarga o'z hissalarini qo'shgan allomalari-mizni sanay olasizmi?
6. «Nur – Sharqdan» naqlini ta'riflab bering.
7. Islom madaniyati va ma'naviyatining O'rta Osiyo xalqlari hayotidagi hissasi qanday bo'lgan?
8. Hadis, fiqh ilmi Sultonlaridan kimlarni bilasiz?
9. Tasavvuf – so'fiylik ta'limotlari va tariqatlar haqida tushuncha bering.
10. Me'morchilik, qurilish, san'at, adabiyot, musiqa ilmlarining shakllanish darajasini belgilay olasizmi?

VIII BOB

MOVAROUNNAHR VA XORAZM MO'G'ULLAR BOSQINI
DAVRIDA

(XIII asrning boshi – XIV asrning birinchi yarmi)

1. CHINGIZXON BOSHLIQ MO'G'UL DAVLATINING
TASHKIL TOPISHI

XII asrning oxiri – XIII asrning boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda quyi bosqichlarda turgan mo'g'ul qavm va qabilalari katta, buyuk va qudratli mo'g'ul davlatini barpo qilish uchun kurash olib borar edilar.

Hokimiyat uchun qavm va qabilalar o'rtasida olib borilgan kurashda Chingizxon (1155–1227-yillar) g'alaba qozonadi va 1204 – 1205-yillarda kuchli mo'g'ul davlatiga asos soladi. U 1155-yilda tug'ilgan¹. Chingizxon otasining ismi Yesugay bahodir, onasini esa O'lun, der edilar. Tug'ilgan bolaga Temuchin, deb ism berdilar. Temuchinning asosiy ulusini tashkil etgan mo'g'ullar Toli, Kerulen va Onon daryolarining boshi va quyilish yerlarida ko'chmanchi chorvadorlik bilan shug'ullanganlar. Temuchin otadan 13 yoshdalgida yetim qolgan². Bobosi va otasiga tobe bo'lgan barcha qabilalar unga itoat qilmasdan tashlab ketganlar. Faqat katta bobosidan qolgan oilalargina Temuchinga sodiqlik bilan xizmat qilganlar. U bir necha bor o'zaro qabilaviy urushlarda o'limdan qolgan. Ma'lumotlarda berilishicha, dastlabki jang yurishlarida Temuchin atigi 13 000 kishilik lashkar to'play olgan, xolos. Sekin-astalik bilan uning lashkarlari soni ortib borgan. Birin-ketin naymanlar, keroitlar, tatarlar, unggutlar, uyg'urlar va boshqalarni o'ziga tobe etgan Temuchin 1205-yilga kelganda, butun Mo'g'uliston hududlarining yagona hukmdoriga aylandi. 1206-yilda u o'zining davlat hukmronligini qonunlashtirish maqsadida, Onon daryosining yuqori qismida qurultoy chaqiradi. Bu qurultoyda Temuchinga Chingizxon laqabi beriladi. Chingizxon

¹ Ivanin M. Ikki Buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur. – T.: «Xazina», 1994, 19-bet.

² Abulg'oziy. Shajarayi turk. – T.: «Cho'lpon», 1992, 46–48-betlar.

laqabi turli yozma manbalarda turlicha talqin etiladi. Chingizxon so'zi ba'zi manbalarda Toza, Quvvatli, boshqa birlarida Kuchlilar xoqoni ma'nolarini anglatadi deyilsa, «Mening jonajon tarixim» asarida esa qurultoyda «Temuchinga Dengizxon, ya'ni Okean hukmdori unvoni» berilganligi ta'kidlanadi.

Ana shu tariqa, Temuchin kichik bir xondan Manchjuriyadan Irtishgacha, Boyqul (Baykal)dan Tongg'utgacha bo'lgan hududlarga cho'zilib ketgan yerlarda ko'chib yuruvchi ko'p sonli jangari qabilalar saltanatining kuchli hukmdoriga aylanadi. Bu saltanat endi o'zining kuch va qudrati bilan qo'shni davlatlarga ham qo'rquv va dahshat sola boshlaydi. Mo'g'ullar saltanati kuchining o'zagini esa Chingizxon yurgizgan qattiqqo'l va huquqiy jihatdan asoslangan markazlashgan siyosat tashkil etadi. Diniy va ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarini o'z ichiga olgan bu huquqiy siyosat 1206-yildagi qurultoyda qabul qilingan «Yaso» qonunida har taraflama asoslab berilgan edi. Bu qonun shaxsan Chingizxonning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Chingizxonning aytishicha, unga qadar o'g'rilik, vahshiylik, talonchiliklar, tartibsizliklar, xiyonat va jirkanch illatlar oddiy bir hol bo'lgan, farzandlar ota-onalarga itoat etmas, yoshlar kattalarga quloq solmas, erlar o'z xotinlariga ishonmas, xotinlar erlariga bo'ysunmas, boylar kambag'allarga yordam bermas edi. Chingizxon qalbida bu ishlardan nafratlanadi, o'zi bosh bo'lgan mamlakatda qattiq tartib-intizom o'rnatishni maqsad qiladi. Shu boisdan ham «Yaso» qonunida bunday tartib-intizomning huquqiy qoidalari ishlab chiqilgan. Bu qoidalar nimalardan iborat:

Birinchidan, har bir yangi saylangan xon birinchi navbatda o'zi «Yaso»ga qat'iy rioya qilish to'g'risida qasam ichishi lozim bo'lgan. Xalqda «Yaso»ga xiyonat qilgan xonni taxtdan ag'darish va uni umrbod qamoq jazosiga solish huquqi beriladi.

Ikkinchidan, Osmon va Yerni yaratuvchi, hayot va o'lim, boylik va kambag'allik beruvchi ibodatlarimizni qabul qiladigan yoki qilmaydigan yagona Xudoni tan olish.

Uchinchidan, Islom dini boshliqlari qalandarlar, qorilar, darveshlar, so'filar, yuvg'ichilar, zohidlar, gadolar, qozilar, tabiblar soliq to'lash, og'ir ishlardan va jamoat ishlaridan ozod qilinadilar.

To'rtinchidan, urushlar davrida ayollarning gunohlarini afv etish lozimligi belgilandi.

Beshinchidan, o'g'rilarga nisbatan qattiq jazo tartiblari joriy ilindi. Agar o'g'ri chorvani o'g'irlasa, u chorvaning haqini to'qqiz

barobar qilib to'lashi lozim. To'lash imkoniyati bo'lmasa, o'g'ringing farzandlari asoratga solinishi, farzandlari va mablag'lari bo'lmagan taqdirda esa u o'lim jazosiga mahkum etilardi.

Oltinchidan, «Yaso»da mo'g'ullar ongiga urush olib borishning yalpi qirg'in uslubini singdirish faxrli ish ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Umuman olganda, o'lim jazosi mo'g'ul harbiy-feodal davlati tuzumini mustahkamlashning birdan-bir samarali vositasi hisoblangan. Jumladan, fohishalar, poraxo'rlar, yolg'onchilar, suv va olovni haqoratlaganlar hamda sutni yerga to'kkanlik kabi gunohlar uchun o'lim jazosi berilgan.

Ayniqsa, qo'shinni mustahkamlash va unda tartib-intizomni yo'lga qo'yish maqsadida o'lim jazosi keng qo'llanilgan. Xonning buyrug'ini bajarmaslik eng oliy gunoh hisoblangan. Xon buyruqlari uning ixtiyoridagi amaldorlar tomonidan bevosita tumanbegilarga va qabila boshliqlariga yetkazilgan. Boshliqlarga boshqa boshliqqa tobe jangchilarni qabul qilish qat'iy qat'iyan taqiqlangan. Belgilangan joyga qo'yilgan har bir boshliq, boshqalar yordamga muhtoj bo'lgan taqdirda ham ruxsatsiz o'z joyidan keta olmas, o'z navbatida boshqalar ham undan yordam kutishga haqlari yo'q edi. Bu qonunni buzish o'lim bilan jazolangan. Maxsus buyruqsiz dushmanni talon-toroj qilish ham o'lim bilan jazolangan. U yoki bu mamlakatga urush ochish va qo'shin tortib borish masalasini faqat qurultoy hal qilar edi.

Chingizxon qo'shinlari bo'linmalarga bo'lingan. O'n jangchiga bir boshliq – o'nboshi, yuzboshi, mingboshi va tuman boshilar qo'yilgan. Qo'shin tarkibida maxsus lavozimlar bo'lgan: Yurtchi (bosh shtabga tegishli ofitser misoli), Tevachi (tuyakash), Bo'lang'ozilar yoki Bularg'uvchi (qo'shin joyidan qo'zg'algach, joyni nazoratdan o'tkazib, qolib ketgan narsalarni yig'ishtirib boruvchi), Bakovul (qo'shinga maosh beruvchi), Torg'uvchi yoki Jorg'uvchi (qo'shin muhrini saqlovchi hamda qozi), Yasovullar (qo'shin urdugohdan chiqish paytida, egallashi lozim bo'lgan joylarni ko'rsatuvchi) shular jumlasidandir.

Davlat unvonlari va mansablar: ulug', o'rta va kichik hokimlar, o'lka hokimlari, sarkardalar, to'ralar, shahar va viloyat hokimlari, dorug'alar, oliy yoki quyi harbiy hokimlardan iborat bo'lgan. Chingizxon davlatining poytaxti Qoraqurum edi. Yozuv va o'qishdan bexabar bo'lgan xon bu boradagi davlat ishlarida uyg'urlar va

musulmon savdogarlar xizmatidan keng foydalanadi. Shu boisdan Chingizxonning davlat idora ishlarida uyg'urlarning mas'uliyatli ishlarni bajarganliklariga ajablanmasa ham bo'ladi.

Chingizxon o'zining eng ishonchli va fidoyi odamlarini davlatning asosiy va hal qiluvchi lavozimlariga qo'yadi. 95 kishi mingboshilikka tayinlanadi. Bir necha ming kishi tarxonlarga aylantiriladi. O'nta saroy lavozimi ta'sis etadi. 150 kishidan iborat gvardiya tuzadi hamda mingta dovyurak va ishonchli kuchlardan shaxsiy drujina tashkil etadi. Tez orada ularning soni 10 ming kishiga yetkaziladi. Bu drujina qo'shinlar sarasini tashkil etardi va eng og'ir, hal qiluvchi paytlardagina jangga kiritilar edi.

Chingizxon yer yuzi hukmronligini da'vo qiladi. Bu maqsadga yetishish yo'lida, u o'z raqiblarini ma'naviy qo'rquvga tushirish va dahshatga solish uslubini qurol qilib oladi. Odatda, Chingizxon qaysi mamlakatga bosib bormoqchi bo'lsa, o'sha mamlakatning hukmdoriga quyidagicha noma yo'llardi: «Tangrim menga va mening farzandlarimga butun yer yuzini hukmronlik qilish uchun berdi. Kimki, menga bo'ysunsa hayotini, boyliklarini, hokimiyati va oilasini saqlab qoladi. Ammo kimki quloq solmay qarshilik qilsa, u nima kunlarga tushishini yolg'iz Xudo biladi. Agar sen bo'ysunib, mening qo'shinlarimni o'z yerlaringdan o'tkazib yuborsang, men senga do'st bo'laman, aks holda mening ko'p sonli lashkarlarim yetib kelganidan so'ng, davlating va boyliklaring nima bo'lishini men ayta olmayman»¹.

Chingizxon o'z zamonasi uchun kuchli va qudratli lashkar tuza oladi. Xitoy va Erondan keltirilgan mohir muhandislar yordamida harbiy mashinalar qurdirilgan edi. Suv va olovdan shaharlarni vayron qilishda bab-baravar foydalanilardi. Mo'g'ul qo'shinlari neftdan gregorian (yunon) olovidan olovli o'qlardan foydalanishni bilishar edi. Ular yordamida inshootlarga o't qo'yishar, suv toshqinlari uyushtirishar, xandaqlar qazib yer osti yo'llari qurishar edi. Devorlarni buzishda manjaniq (katapult) mashinalari ishlatilardi. Rivoyat qilishlaricha, Chingizxonning buyrug'iga asosan, har yilning boshida qabila boshliqlari yoki tumanbegilar xonga sodiqlik belgisi sifatida har bir qabiladagi mingta o'tovdan eng go'zal va e'tiborli bit-ta qizni sovg'a qilishlari kerak bo'lgan. Bu qizlar xonning o'ziga yoki o'g'illariga xotinlikka yoki haramga olingan. Shu sababdan, bo'lsa kerak, Ulug'bek va Abulg'oziyning bergan ma'lumotlariga

¹ Ivanin M. Ikki Buyuk sarkarda. 33-bet.

qaraganda, Chingizxonning «besh yuzdan ortiq xotini va zurriyodi bor edi»¹². Ammo bular orasida beshtasi go‘zallik va aql-farosatda tengsiz bo‘lib, Chingizxon qalbining eng to‘ridan joy olgan. Bular Bo‘rta Ko‘chin (Qo‘ng‘irot podshosining qizi), Ganjur (Oltonxon xitoyning qizi), Go‘tari So‘zun (Nayman podoshosi – Naymanxonning qizi), Besulun (Chovuktun qizi), Qulon (Toyir Usunning qizi)dir. «Tojli va saroyli bu besh xotindan, – deydi Mirzo Ulug‘bek – mansabda Bo‘rta Ko‘chin ortiq edi. Shohdan ko‘p farzand ko‘rdi, besh qizdan tashqari, yana to‘rt o‘g‘il».

Chingizxonning to‘rt o‘g‘li bo‘lgan. Xon ularning har qaysisi-ning qobiliyati va saviyasini hisobga olib, martabali davlat lavozimlariga qo‘ygan. Jumladan, katta o‘g‘li Jo‘jixon – bazm-u shikorni tartib etishga, ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxon – lashkar ishlariga, uchinchi o‘g‘li O‘qtoyxon – mamlakat tadbirlariga, Tuluxon – saroy ahli va amaldorlarning muhofazasiga qo‘yilgan.

Chingizxon erishgan muvaffaqiyatlarini munosib yordamchilar tanlay bilganligi uchun qo‘lga kiritilganligini alohida ta‘kidlar ekan, agar uning avlodlari ham shu yo‘ldan borsalar, u tuzgan saltanatning ming yillar hukm surishiga ishongan edi.

Chingizxon davlat ichki ishlarini mustahkam izga solib va qudratli qo‘shin tuzib, o‘zining jahongirlik rejalarini amalga oshirishga kirishadi. 1206-yilda naymanlar bo‘ysundiriladi. 1207-yilda Chingizxon tongg‘utlar boj to‘lamaganligi uchun ular ustiga yurish qilib, yer-mulklarini vayron etadi. 1207–1208-yillar davomida Enasoy (Enisey) havzasi va Yettisuv viloyatining shimoliy qismi, uyg‘urlar yurti egallanadi. 1211–1215-yillarda Xitoyga qarshi bir necha bor hujumlar uyushtiriladi. Va nihoyat, 1215-yilda mo‘g‘ul lashkarlari Shimoliy Xitoyning markazi Chjundu (Pekin)ni bosib oladi, Tsin sulolasini taxtdan ag‘daradi. Biroq mo‘g‘ullar Xitoyni to‘liq bosib olish uchun 70 yildan ziyod vaqt sarflaydi. Nihoyat, 1279-yili Hubilay Xitoyni to‘liq zabt etib «Yuan» sulolasiga asos soladi.

Xitoyning qo‘lga kiritilishi Chingizxon boshliq mo‘g‘ullar davlatining istilochilik istiqboli uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki mo‘g‘ullar Xitoydek katta va boy mamlakatni bosib olgach, behisob har turli boyliklarning egasi bo‘ladilar. Bu davrda Xitoyda qadimiy an’anaviy boyliklardan tashqari, zamonaviy harbiy

¹ *Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – T.: Cho‘lpon, 1994, 110-bet.*

texnika ham yuksak darajada rivoj topgan edi. Shu bois, Chingizxon bu mamlakatdan juda ko'plab miqdorda oltin, kumush buyumlar, shoyi, atlas matolar, cho'ri-kanizaklardan tashqari, har xil qurol-yarog' aslahalari, harbiy texnika moslamalari: manjaniq, palaxmon, naftandozlarni va ularni ishlata oladigan mohir ustalarni ham olib keladi. Bu hol Chingizxon lashkarlarining eng yaxshi qurol-aslahalar bilan ta'minlangan qudratli kuchga ega bo'lishini ta'minlaydi.

2. CHINGIZXONNING XORAZMSHOH MUHAMMAD BILAN MUNOSABATLARI

Chingizxon Xitoyni zabt etgach, uning saltanati Yapon va Sariq dengizlaridan Irtish daryosigacha, Sibir yerlaridan Xitoygacha bo'lgan katta hududlarga cho'ziladi. Endi uning nigohi g'arbiy hududlar tomon qaratiladi. Mo'g'ullarning g'arbiy chegaralardagi qo'shnisi Xorazmshohlar davlati bo'lib, Alovuddin Muhammad boshchiligida yangi-yangi hududlarni bosib olib, o'z chegaralar maydonini tobora kengaytirib bormoqda edi. Z. Buniyotovning ishonarli va asl manbalarga asoslanib, bergan ma'lumotlariga qaraganda, Chingizxon davlati Xitoyini bosib olishidan avval Xorazmshoh Muhammadning ham xuddi shunday niyati bo'lgan. Xorazmshohning kotibi (dobiri) Imod al-mulk Tojiddin Jomiyning tarixchi Jurjoniya aytishicha, 1214 yoki 1215-yilda Alovuddin Muhammad savdogarlardan Xitoyning g'aroyib boyliklari to'g'risida eshitib, uni bosib olishni niyat qilgan ekan. Chingizxonning Xitoyini bosib olganligi to'g'risidagi xabarni eshitgan Xorazmshoh bu voqeaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilib kelish uchun Chingizxon huzuriga o'zining mashhur elchisi Sayid Bahovuddin Roziyni yuboradi. Ana shu davrdan e'tiboran, Chingizxon bilan Xorazmshoh Muhammad o'rtasida faol muloqot boshlanadi. Har ikkala hukmdor davlatlari o'rtasida elchilik munosabatlari o'rnatiladi. Elchilardan aksariyat hollarda ayg'oqchilik maqsadlarida foydalanilgan.

1216-yilda Chingizxon Xorazmshoh Muhammadning elchisi Bahovuddin Roziyni izzat-ikrom, hurmat va tavoze bilan kutib olgan. Elchilar Xorazmga qaytayotganda, Chingizxon Xorazmshoh uchun juda ko'p noyob sovg'a-salomlar berib, elchiga: «Xorazmshohga aytgin, men – Mashriq hukmdori – sen Mag'rib hukmdori. Kel, o'ramizda do'stlik va tinchlik haqida qat'iy ahdnoma bo'lsin! Ikkala

tarafning savdogarlari bordi-keldi qilishsin. Mening yerlarimdagi noyob va oddiy mol-buyumlar sen tomonga, sening mollaring men tomonga kelib tursin»¹, – degan.

O‘z navbatida, Chingizxon ham javob tashrifi bilan o‘z savdo karvonlarini elchilar bilan xorazmshohlar yurtiga yuborgan. Bu elchilarga Mahmud Yalavoch al-Xorazmiy, Aliakbar Xoja al-Buxoriy va Yusuf Kenka al-O‘troriylar boshchilik qilgan edilar (Mahmud Yalavoch asli xorazmlik bo‘lib, Chingizxon hukumatidagi Xorazm elchisi vazifasidan voz kechib, mo‘g‘ullarga sotilib, o‘z ona vatanga xiyonat yo‘liga kirgan bir shaxs edi). Tarixchi Shahobiddin an-Nasaviy bergan ma‘lumotlarga qaraganda, Xorazmga yuborilgan savdo karvonida Chingizxon Xorazmshoh Muhammad uchun amaliy turkiy odatga ko‘ra, tuya o‘rkachi barobar Chinmochin tog‘laridan keltirilgan quyma oltin, qimmatbaho ma‘danlar, nusub al-xutuvv (morj tishlari), qop-qop mushk (xushbo‘y moddalar – R.Sh., Sh.K.), yoqut va tarqu deb ataladigan oq tuya yungidan to‘qilgan kiyimlar bo‘lgan. Elchilar Xorazmshohga Chingizxonning nomasini ham keltirgan edilar. Xorazmshoh Muhammad elchilarini 1218-yilning bahorida Buxoroda kutib oladi. Elchilar Xorazmshohga Chingizxonning xatini topshiradilar. Xorazmshohning elchilarni qabul qilish marosimida vaziri a‘zam Nizom ul-mulk o‘qib eshittirgan Chingizxon nomasida, jumladan, bunday deyilgan edi: «Senga o‘z salomimni yo‘llayman. Men sening podshohligingning kengligi va qudratini yaxshi bilaman. Sen ko‘plab xalqlar ustidan hukmronlik qilasan, shuning uchun, sen bilan tinchlikda yashashni istardim. Men seni o‘zimning eng suyuqli o‘g‘lim, deb hisoblaguvchiman. Mening Xitoyni zabt etganim va undan shimolda yashovchi hamma xalqlarni bo‘ysundirganim senga ma‘lum, shuni bilginki, mening saltanatim chumoli uyasidek jangchilar uyasi hamda kumush konidir va menda birovning mulkiga egalik qilishni istash ehtiyoji yo‘q. O‘ylaymanki, fuqarolarimizning savdo munosabatlarini rivojlantirishdan ikkimiz ham manfaatdor bo‘lamiz»².

Chingizxon Muhammad bilan ilk munosabatlarni o‘rnatishdanoq diplomatik mahoratini ishga solib, uni «o‘g‘lim», deb ustunlikka erishmoqchi bo‘ladi. Xorazmshoh Muhammadga ham Chingizxon xatining ana shu «eng yaxshi o‘g‘lim», degan qismi yoqmaydi. Albatta, o‘zini «Iskandari Soniy» (Ikkinchi Iskandar), «Sulton

¹ Ahmedov B., Maxmudov M. Nur ba zulmat kurashi. «Yosh leninchi», 1990. 3-mart

² Ivanin M. Ikki Buyuk sarkarda. 48–49-bet.

Sanjar, Monand...», «Yaratganning yerdagi soyasi», deb yer-**u ko'kka** qo'yarga joy topmay yurgan Xorazmshoh Alovuddin Muhammad yana kimsan bir sahroyi, g'ayridin Chingizxonga o'g'il **bo'lsa**-ya! U diplomatik mohirlik yo'lini topa olmaydi, g'o'rlik va **noshudlik** qiladi. Muhammad qulay payt poylab, yurt xoini Mahmud Yalavochni o'z huzuriga chaqiradi: «Sening xoning Xitoy yurtini olgani rostmu deb, bir qimmatbaho durni bozusindin chiqarib Mahmud Yalavochga beradi»¹. Xorazmshoh Mahmud Yalavochni xorazmlik bo'lganligi uchun Chingizxon huzuridagi o'zining **ayg'oqchisiga** aylantirmoqchi bo'ladi. U Mahmud Yalavochdan Chingizxon to'g'risidagi bor haqiqatni bo'yamasdan aytishni talab qiladi. Yozuvchi Mirmuhsinning «Xo'jand qal'asi» tarixiy romani-dagi badiiy ifodalarga qaraganda, Xorazmshohning fe'l-atvorini yaxshi bilgan va shu bois, undan hayiqqan Mahmud Yalavoch ayyorlik ishlatadi va tilyog'lamalik qiladi: «Tavba qildim, ulug' Sul-ton! Meni **afv** et! Olampanoh sening oftob yanglig' qudratli lashkaring oldida Chingizxonning lashkari bir xira shamdir, oftob-olamtob chiqqach, yuz ming sham nuri ham bir pul bo'ladi. Sham tunda lozim, oftob hamma vaqt... Ulug' Sul-ton! Men beiymon emasman! Aslim ulug' va muqaddas xorazmlik. Sening qudrating oldida bosh egur-man. Unda yer-suvim, mol-mulkim Chingizxon tasarrufidagi tup-roqda bo'lg'oni sababli uning xizmatidaman. Dilimda ona tuproq manfaati hukmron. Yana bir karra ona tuproq manfaati haqqi, qasam ichib aytadurmenki, meni g'azabingga duchor etma, men faqat Yalavochmen... Elchiga o'lim yo'q.»². Muhammad Xorazmshoh o'zicha muammoni go'yo xamirdan qilni sug'urgandek hal qilgan o'ylab, Chingizxon bilan shartnoma tuzishga rozilik berib, elchilarni qimmatbaho zarbop to'nlar bilan siylab jo'natib yuboradi. Aslida Xorazmshoh Muhammad diplomatiya bobida katta mag'lubiyatga uchragan edi. Chunki Mahmud Yalavoch Chingizxon huzuriga qaytib borgach Xorazmshoh bilan ikki o'rtada sodir bo'lgan muloqotni oqizmay-tomizmay o'z xo'jasiga yetkazgan edi. Chingizxon Mahmud Yalavochning sadoqatli xizmatidan va Xorazmshoh Muhammad ustidan o'zi kutganiga qaraganda ham diplomatik g'alabaga erishganligidan mamnun bo'ladi va Mahmud Yalavochni Xorazmshoh Muhammad siylagan sovg'aga qaraganda ham qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlab, unga minnatdorchilik bildiradi.

¹ *Abulg'oziy*. Shajarayi turk. 61-bet.

² *Mirmuhsin*. Xo'jand qal'asi. 124-bet.

Istiqbolda rejalashtirilgan diplomatik tadbirlarning maqsadga muvofiq rivojlanayotganligidan batamom qoniqish hosil qilgan ay-yor Chingizxon fursatni boy bermasdan hech narsa ko'rmagandek o'z minnatdorchiligini izhor etish va ikki buyuk davlat o'rtasida tuziladigan shartnomani tezlashtirish maqsadida, zudlik bilan Xorazmga juda katta savdo va elchilar karvonini jo'natadi. Mirzo Ulug'bekning bergan ma'lumotlariga qaraganda, bu karvon «besh yuz nafar musulmon savdogar»dan iborat bo'lgan. Karvon sarbonlari va o'rda elchilari qilib, Muhammad Xorazmiy, Umar va Yusufklar tayinlangan. Elchilar orqali Xorazmshohga yo'llangan maktubda quyidagilar yozilgan edi: «Ul tarafdand bozorgonlar bu diyorga kelishdi. Ularga qay tarzda e'zozu ikrom ko'rsatilganini o'zlari ayti-shi mumkin. Ular nimani mushohada qilgan bo'lsalar, bayon qilsalar kerak. Bu tomondan ham bir musulmon jamoasi turli mol-u gazlama, mushk-u chiniy tansiq buyumlar, zar-u nuqra, ko'plab jun kiyimlar, javohir-u tansuqot bilan ul diyor sari yo'naldilar. Bu ahd-u paymonda osmon-u zamin egasi ro'yi zamin mamlakatlarini bizga va senga tortiq qildi. Xudo bandalari borib kelishib, obodonchilik bilan mashg'ul bo'lmoqlari lozim. Biz-u sening, ular davri Sul-tonlarining saxovatidan xursand va bahravor bo'lurlarki, zamon mardumi biz-u sening duoyi jonimizni qilib, yashaydilar»¹.

Savdo karvoni Urganchga yetib bora olmaydi. Uni O'tror shahar hokimi Inolchiq buyrug'i bilan ushlab qoladilar. Yozma mambalarning guvohlik berishicha, Inolchiq oltmish yoshlarga borgan, cho'qqi soqol, baland bo'yli, ori-q va chayir odam bo'lgan. U Xorazmshoh Muhammadning bo'lasu, ya'ni Turkon xotunga qarindosh bo'lganidan G'oyirxon laqabini olgan. Savdo karvonidagi jamoa a'zolaridan biri Hindi bo'lib, ilgari juda mashhur bo'lgan ekan. Inolchiqni u ilgari tanir edi. Shu bois, ilgarigi odati bo'yicha, Hindi Inolchiq, deb murojaat qilibdi. Bu so'z shahar hokimi lavozimida bo'lgan Inolchiqqa qattiq botibdi. Shu bahona tufayli, elchilar va barcha savdo karvoni a'zolari qirg'in qilinadi, qimmatbaho mollar talanadi. Mirzo Ulug'bek «... bu ishni dev ko'rsa ham lol qolardi», deb bo'lgan voqeaga baho beradi.

Faqat bir tuyakash tasodifan o'limdan saqlanib qoladi va Chingizxon huzuriga borib bo'lgan voqeani so'zlab beradi. Bu qotillikni

¹ *Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. 127-bet.*

eshitgan Chingizxon, yozma manbalarning guvohlik berishicha, qat-tiq g'azabdan yig'lab yuboradi. Keyin u bir baland tog' cho'qqisiga ko'tarilib, bo'yniga kamari osilgan holda boshyalang osmonga iltijo qilib, yerga yiqiladi.

Iqtidorli olim Mahmud Sattorov «Jaloliddin Manguberdi» maqo-lasida hikoya qilishicha, Chingizxon ikki davlat chegarasida ro'y bergan bunday mudhish va dushmanlikdan iborat bo'lgan voqeani juda og'irliq andisha va sabot bilan qarshi oladi. Nasafiyning ma'lumotlariga qaraganda: «Mo'g'ul xoqoni bu voqealardan ta'sirlanib, uch kun o'z xonasida qamalib, toat-ibodat qiladi: Ey xudo, o'zing guvohsan, men Alouddinga tinch qo'shnichilik, osoyishta-likni taklif etayotirman. U har gal takliflarimga katta jinoyat – odam o'ldirish bilan javob qilmoqda. Xorazmshohning ulkan dav-lati, 400 minglik lashkari, o'z askarlarim va nihoyat, tarix oldida mening gunohim yo'q. Urushni u boshladi. Men o'zimni, qon va jon berib yaratgan davlatimni, xalqlarimni himoya qilishga majbur-man» (Chingizxon odamlarga ma'naviy ta'sir qilishning mohir usta-si bo'lganligidan uning bu xatti-harakati qo'shinidagi askarlarning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatish maqsadini ko'zlaganligi ehtimoldan uzoq emas).

Shundan so'ng, Chingizxon urushning boshlanishi bobidagi barcha gunohlardan o'zini soqit qiladigan va aybni Xorazmshoh Muhammad gardaniga yuklaydigan so'nggi imkoniyatni ham qo'ldan chiqarmaydi. U Xorazmshoh huzuriga Ibn Kafraj Bug'ro (uning otasi Sulton Takash amirlaridan bo'lgan) va totorni elchi qilib jo'natgan. Elchilar Shahobiddin an-Nasafiy bergan ma'lumotlarga qaraganda, Xorazmshoh Muhammad Chingizxonning quyidagi mazmunda nomasini olib borganlar: «Sen savdogarlarning bexavf-xatar bo'lmog'ini, ularga hech kim hujum qilmasligini yozib, o'z qo'ling bilan imzolangan va'dani bergan eding. Lekin xiyonatko-rona yo'l tutding va so'zingni buzding. Bu ishning islom Sultoni tomonidan qilingani yana ham yomondir. Inolchiq qilgan ish sening amring bilan bo'lmaganini tasdiqlasang, u holda Inolchiqni menga tutib ber, toki biz uni jazolaylik, aks holda, eng aziz qalblar-ni arzon qiladigan va nayzalarning sopi sinadigan urush bo'ladi»¹.

¹ *Mirmuhsin*. Xo'jand qal'asi. 136-bet.

Bundan g'azablangan Xorazmshoh Muhammad Chingizxonga bosiqlik va o'ylovlik bilan javob berish u yoqda tursin, elchi Ibn Kafraj Bug'roni qatl etishga buyruq beradi. Uning ikki hamrohini esa soqolini qirdirib, orqaga jo'nattirib yuboradi. Bu voqeadan so'ng, Chingizxon bilan Xorazmshoh Muhammad o'rtasidagi munosabatlarni urush-qirg'in orqali hal qilishdan boshqa yo'l qolmaydi. Xullas, Xorazmshoh Muhammad o'zining uzoqni ko'ra bilmas kaltabin siyosati tufayli ikki o'rtada boshlangan urushning aybdori sifatida tarixga kiradi.

Chingizxon Xorazmshoh Muhammadga qarshi urushga tayyorgarlik ko'rib, Xorazmga so'nggi elchini yuborish bilan bir vaqtning o'zida o'zining eski dushmani Kuchlukxon hokimlik qilayotgan Qoraxitoyni bosib olishga qaror qiladi. Bu Chingizxonning fikricha, uning so'l qanoti xavfsizligini ta'minlar va Xorazmshohga qarshi olib boriladigan urushda uning ahamiyati katta edi. Chingizxon lashkarboshisi Jebe boshchiligida 20 ming kishilik qo'shin jo'natadi. Masalaning mohiyati shundaki, tarixchi Z. Buniyotovning yozishi-cha, Kuchlukxon bilan Xorazm ham urush holatida bo'lgan. Chunki xristianlik va buddaviylikni qabul qilgan Kuchlukxon musulmonlarni zo'rlab, islom dinidan qaytarishga uringan. Qur'on va shariatga amal qiluvchilarni ayovsiz jazolagan, azon aytib namozga chaqirishlarni taqiqlagan. Musulmon dini peshvolarini zindonlarga tashlab, madrasa darvozalariga osgan. Z. Buniyotov: «Mana shu voqealarga Xorazmshohning munosabati hayron qolarlidir. U eng katta musulmon davlatining yetakchisi bo'la turib, shundoq ko'zi oldida jabr ko'rayotgan musulmonlarni himoya qilishni xayoliga keltirmay, xalifa Nosirga qarshi urushish bilan band edi. Sharqdan kelgan Chingizxon boshchiligidagi buddaviy mo'g'ullar buddaviy Kuchlukxon tomonidan jabrlangan Qoshg'ar va Xuton musulmonlarini himoya qilishlari yanada hayratlanarlidir»¹, – deydi. Bundan xursand bo'lgan va mo'g'ullar tomonidan gijgijlangan musulmonlar Kuchlukxon jangchilari joylashgan uylarga hujum qilib, ularni o'ldiradilar. Hatto, Pomirdagi mahalliy ovchilar mo'g'ullardan qochayotgan Kuchlukxonni tutib, olib ularga taqdim qilishgan. Mo'g'ullar uning boshini kesib olib ketishgan. Ana shu tariqa,

¹ Бунятов З.М. Государство Хорезмшахов – Ануштегинидов. Стр. 130–131.

o'sha davrda savdo, dehqonchilik va mexanika san'ati rivojlangan Qoraxitoy yerlari Chingizxon davlati hududlariga qo'shib olinadi.

Chingizxon qo'shinlarining Qoraxitoy hududlarini egallaganliklaridan xabar topgan va Samarqandda kattagina kuch to'plashga muvaffaq bo'lgan Xorazmshoh Muhammad mo'g'ullar lashkariga qarshi jang harakatlarini boshlab yuboradi. Mirzo Ulug'bekning yozishicha, mo'g'ullar Xorazmshoh Muhammad qo'shinlariga qarshi jang qilmasdan chekinib borishardi. Shu paytda mo'g'ullar qo'shiniga, Abulg'oziy ma'lumotiga qaraganda, Jo'ji boshchilik qilgan. U Muhammad qo'shinlariga do'stona munosabatda bo'lib, Xorazmshohga: «Ey shahriyor, yoshlik etib, mulloga ishonib, komronlik (hovliqish, baxtiyor deb bilish – R.Sh., Sh.K., S.X.) qilmagin. Ey shahriyor, dilimizni g'amga solma, o'z joningga qasdimizni qo'zg'ama, Chingizxon bu diyorga bizni boshqa ish bilan jo'natgan. Lashkarpanoh u shohdan, Xorazmshoh bilan urushmoq ijozatini olmaganmiz»,¹ degan. Bu gapdan Xorazmshoh Muhammad g'azabga kelib: «Agar Chingizxon senga men bilan jang qilmaslikni buyurgan bo'lsa, xudo menga senga hujum qilishni buyuryapti va men budparastlarni qirib tashlab, uning mehrini qozonmoqchiman»,² deb javob qiladi. Jang qilishga majbur etilgan mo'g'ullar oz sonli bo'lsalar-da, shunday mardonavor jang qiladilarki, bu jangda Xorazmshoh Muhammad o'zining 20 ming askaridan judo bo'ladi, Sultonning o'zi yaralanib, mo'g'ul askarlari qurshovida qoladi. Faqat Sulton Jaloliddinning o'z vaqtida yetib kelishi Xorazmshoh Muhammadni halokatdan saqlab qoladi. Mo'g'ullar bilan bo'lgan jang Xorazmshohda juda katta taassurot qoldiradi. U o'z yaqinlariga: «Men hech qachon bunday ajoyib qo'shinlarni ko'rgan emasman», degan ekan. Chingizxonning o'g'li Jo'ji ham jang maydonida Jaloliddin Manguberding arslondek ot surishiga qoyil qolib, bo'lgan voqealarni birma-bir Chingizxonga so'zlab berganligi haqida ma'lumotlar bor.

Qoraxitoyini o'z davlati tarkibiga kiritib olgan Chingizxon 1218-yilda qurultoy chaqiradi. Qurultoyda muhokama qilingan asosiy masala Xorazmshoh Muhammad bilan bo'ladigan urush va unga tayyorgarlik ko'rishdan iborat edi.

¹ *Mirzo Ulug'bek To'rt ulus tarixi*. 134-bet.

² *Ivanin. M.* Ikki buyuk sarkarda.

3. MO'G'ULLAR BOSQINI ARAFASIDA XORAZM DAVLATIDA SIYOSIY VAZIYAT

Mo'g'ullar bosqini arafasida, Xorazmshoh Muhammad davlati o'z boshidan g'oyatda og'ir, musibatli va tang siyosiy vaziyatni kechirayotgan edi. Bu vaziyat «O'tror voqeasi»dan so'ng, yana ham keskin tus oladi. Xorazmshoh Muhammad o'zi boshlagan qaltis o'yindan talvasaga tushib, boshiga urgan ilondek gangib qoladi va qimmatga tushadigan juda katta xatolarga yo'l qo'ya boshlaydi. Bu xatolarning hammasiga asosiy hamirturush uning o'z onasi Turkon xotun bo'ladi. Xorazm saltanatining turli urug'lardan tashkil topganligi va hokimiyatning Muhammad hamda uning onasi Turkon xotun orasida bo'linganligi, ya'ni qo'shhokimiyatchilik tashqaridan qaraganda, juda qudratli bo'lib, ko'ringan bu hokimiyatni amalda juda bo'shashtirib yuborgan edi. Xorazmiylar davlati amalda bami-soli bo'sh asosga o'rnatilgan koshonaga o'xshardi. Chunki bu davlat turli qabilalarning zo'rlik asosida tashkil etilgan qurama ittifoqidan shakllangan edi. Ular tillari, urf-odatları va tushunchalariga ko'ra, bir-birlaridan yiroq bo'lib, diniy jihatdan ham farqlanar edilar. Ularni ko'proq shaxsiy manfaat, boylik, aysh-ishrat qiziqtirardi. Aytmoqchimizki, ularda vatanparvarlik, diniy mutanosiblik kabi ulug'vor axloqiy fazilatlar yetakchi g'oya bo'lmagan.

Xorazmshoh Muhammadning qo'shinlari asosan, qang'lilar, qipchoqlar va turkmanlardan tashkil topgan edi. Turkon xotun tufayli Dashti Qipchoq va Kaspiy dengizining shimoliy hududlarida yashab yurgan va madaniy jihatdan orqada bo'lgan qabilalar Xorazmshoh Muhammad qo'shinida lashkarboshilik va viloyatlar hokimligi lavozimlarini egallab olgan bo'lib, ular faqat Turkon xotun buyrug'iga quloq solar edilar. U asosiy masalalarda o'zini Muhammaddan ustun qo'yar va uning ko'plab buyruqlarini bekor qilar edi. Turkon xotun o'ziga-o'zi «dunyo malikasi» unvonini berib, buyruqlariga «Tinchlik va din homiysi, koinot ayollari malikasi Turkon», deb imzo chekar ekan. Uning davlatga keltirgan zararlari to'g'risida o'z vaqtida juda ko'plab latifalar to'qilgan. Ana shunday latifalardan birida hikoya qilinishicha, Turkon xotun himoyasida uning avvalgi qaroli Nosiriddin vazir darajasiga ko'tarilgan. Muhammad onasining bu erkatoyini yoqtirmas ekan, chunki u bu vazifaga noloyiq, poraxo'r bo'lib, mansab sotish bilan shug'ullanarkan. Bir kuni Muhammad Nishopurga kelib, shahar qoziligiga Jand shahridan

bo'lgan Sadriddin degan kishini tayinlaydi va vazirga sovg'a-salom berib yurmang, deb uqtiradi. Chunki bu lavozimni sizga vazir emas, men berdim, deydi. Lekin vazirning malaylari qoziga, agar bosh vazirga iltifot ko'rsatilmasa, uni ko'ngilsiz voqealar kutayotganligini aytadilar. Vahimaga tushgan qozi mingta oltin solingan hamyonni bosh vazirga topshirishga oshiqadi. Bu voqeani kuzatib yurgan Muhammad, qozini mansabidan chetlashtiradi, vazirni esa o'z homiysi huzuriga jo'natadi.

Nosiriddin Xorazmga jo'nab ketadi. Turkon xotun uni Xorazmni ulush sifatida olgan nabiralarning birini vazir sifatida tayinlaydi. Poraxo'rlikka o'rganib qolgan Nosiriddin bu yerda ham xazinachilardan birini o'z qarmog'iga ilintiradi va uni pora berishga majbur qiladi. Bundan g'azablangan Muhammad o'zining bir zobitiga Nosiriddinning boshini olib kelishini buyuradi. Bu buyruqdan xabar topgan Turkon xotun o'sha zobitga Nosiriddin boshchilik qilayotgan devon majlisiga yetib kelishni va uni quyidagi so'zlar bilan qutlashni buyuradi. «Mening sendan boshqa vazirim yo'q, o'z vazifangni ado etishni davom ettiraver, saltanatda hech kim senga quloq solmaslikka va sening hokimiyatingni tan olmaslikka botina olmaydi». Shu tariqa, Nosiriddin ilgarigidek o'z faoliyatini davom ettiravergan. Qanchadan qancha mamlakatlarni bosib olgan, shohlar va Sultonlarning boshini tanasidan judo qilgan sho'rlik Xorazmshoh Muhammad o'z qo'li ostidagi qulini jazolashga ojiz edi. Biz bu bilan qayd etmoqchimizki, Xorazmshoh Muhammad o'ziga-o'zi xo'jayin, shoh emasdi, u onasi Turkon xotunga qaram bo'lib, undan qo'rqardi. Shu boisdan ham «O'tror voqeasi»da Muhammadning hech qanday qo'li bo'lmasa-da, Inolchiq bu qotillikni sodir etgach, elchilarni qatl etish va karvonni talash to'g'risidagi buyruqni men berganman, chunki elchilar ayg'oqchilik bilan shug'ullanganlar, degan javobdan nariga o'ta olmaydi. Uning bundan boshqa iloji ham yo'q, edi. Aks holda, Xorazmshoh Muhammadning Turkon xotun boshchiligida unga raqib bo'lgan kuchlar zarbasiga muhtalo bo'lishi turgan gap edi.

Xorazmshoh Muhammad islom olamida ham o'z obro'-e'tibori va puturini ketkazib bo'lgan edi. U jahongashtalik da'vo qilib, abbosiy xalifa Nosirga qarshi urushlar olib bordi, xalifalikka qarashli ko'plab mamlakatlarni bosib oldi va hatto, abbosiylik xalifaligini tugatib, termizlik Sayyid Alo ul-mulk Termiziyni xalifalikka nomzod etib tayinladi. Bu bilan u nafaqat xalifa Nosirni, balki barcha islom

dunyosi mamlakatlarini o'ziga qarshi oyoqqa turg'izdi. Yozma mambalarning guvohlik berishicha, bezib qolgan xalifa Nosir turli vosita va imkoniyatlardan foydalanib, Chingizxonga noma yozib, uni Xorazmshoh Muhammadga qarshi urushga da'vat etgan.


Xorazmshoh Muhammad mamlakat ichkarisida ham islom dini g'oyasi tarafdorlari bilan o'zi o'rtasida o'tib bo'lmas «Xitoy devori» hosil qilgan edi. U onasi Turkon xotunning so'zlariga kirib, mast holda islom dunyosida katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan shayx valitarosh shayx Najmiddin Kubroning muridi Majiddiddin Bag'dodiyini qatl ettirish to'g'risidagi farmonga imzo chekadi. Mirzo Ulug'bekning yozishicha, hushiga kelgan Xorazmshoh Muhammad qilgan ishidan pushaymon bo'lib, tong saharlab: «Javohir to'la bir taboq va oltin to'la toshni Hazrati Shayx Najmiddin Kubro, qaddasa sirruhu xonaqohi darveshlari jamoasi huzuriga jo'natib «buni darveshlar sufra qilsunlar. Beixtiyor yuz bergan bu gunoh uchun afv etsunlar», deydi. Shayx dedilar: «Uning hunbahosi zar-u javohir emas, balki uning kallasidir, ya'ni Sulton va bir necha ming haloyiq»¹, degan. Chingizxon bo'lajak urushga puxta va atroflicha tayyorgarlik ko'radi, ayg'oqchilar yuborib o'z raqibining kuchli va kuchsiz tomonlarini o'rganadi, lashkari harakatini belgilovchi geografik va harbiy ma'lumotlar to'playdi. Xorazmshoh Muhammad saroyidan o'ziga juda ko'plab homiylar orttiradi. Xorazmshoh esa mamlakat mudofaasini mustahkamlash o'rniga tantana-yu dabdababozlik, manmanlik, aysh-u ishratga mukkasidan ketadi, har qanday zafarlarni o'z shaxsiyatiga bog'laydi, raqibining kuch va qudratiga yetarli baho bera olmaydi, elchilar makrini fahmlamaydi, laqmalik qiladi. U o'zini qo'yarga joy topolmay, ismini «Iskandari soniy», «Sulton Sanjar monand...», «Yaratganning yerdagi soyasi...», deb xutbaga solib o'qittiradi. Xorazmshoh borgan sayin taltayib ketadi, maddohlar va ig'vogarlar so'ziga kirib o'z mustaqilligini yo'qotadi, irodasiz bo'lib, qoladi va aqliy ojizligi tufayli davlat ishlarini izdan chiqaradi. Xorazmshohlar mamlakatiga Chingizxon boshchiligidan qo'shin hujum boshlashi aniq bo'lib, kun tartibiga qo'yilgan va mamlakat siyosiy jihatdan boshi berk ko'chaga kirib qolgan. Xorazmshoh Muhammad va uning saroyi atrofini xavfli va shubhali odamlar o'rab olgan bir paytda, 1218-yilda Xorazmshoh saroyida ulkan anjuman – harbiy mashvarat chaqiriladi. Unda Chingizxonning

¹ Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. 128-bet.

hujumiga nisbatan, ko'rilajak chora masalalari muhokama qilindi. Xorazmshohlar saroyining eng obro'li va e'tiborli oqsoqollari bu asnoda o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar. Jumladan, saroyning nufuzli arboblardan biri Shahobiddin al-Xivaqiy mamlakatning barcha 400 ming kishilik lashkarlarini Sayhun yaqinida to'plab, holdan toygan mo'gul lashkarlariga favqulodda hujum uyushtirishni taklif qiladi. Jaloliddin, umuman, boshlanajak urushning oldini olishni taklif qiladi. Buning uchun urushning kelib chiqishiga asosiy sababchi bo'lgan Inolchiqni Chingizxonga topshirish birdan-bir to'g'ri choradir, deydi u. Xorazmshoh bu taklifga rozi bo'lmaydi. Shunda Jaloliddin boshqa yangi bir taklifni kiritadi: Movarounnahr, Xuroson, Eron sa Arab yurtlarining barcha lashkar kuchlarini Buxoro yaqinida bir yerga jam qilib, dushmani sahro jangida tashlash kerak, ammo Xorazmshoh Muhammadning qulog'iga bu gaplar kirmas edi. U yosh o'g'lining keksalardek mulohazali takliflarini dabdurust eshitgani ham yo'q. Mo'gullarning kichkina bir guruh lashkari bilan bo'lgan dastlabki to'qnashuvlardan so'ng, Muhammadni dahshat va qo'rquv kemiradi. Shu boisdan, u hamma vazir-u vuzarolar, amir-u umarolarning fikr-mulohazalarini tinglab bo'lgach, o'zboshimchalik bilan o'z bilganini qilib, har bir shahar, qal'a, har bir qishloq o'zini o'zi himoya qilsin, dushman mamlakat ichkarisiga kiritilmasin, degan mantiqsiz qaror qabul qiladi. Bu amalda mamlakatni katta va dahshatli kuch bo'lgan dushman kuchi oldida o'z holiga tashlab qo'yishdan boshqa narsa emas edi.

4. CHINGIZXON BOSQINCHILIK YURISHLARINING BOSHLANISHI

1219-yilning oxirlarida Chingizxon Xorazmshoh Muhammadga qarshi urush harakatlarini boshlaydi. Bu paytda, Chingizxon lashkarlarining umumiy soni to'g'risida adabiyotlarda turlicha raqamlar keltiriladi. Jumladan, A. R. Muhammadjonov: «Chingizxonning jami askari 200 mingdan oshmas edi» («O'zbekiston tarixi» – T.: O'qituvchi, 1994, 151-bet) desa, M. Ivanin: «...Muhammadga hujum boshlashdan avval uning qo'shini 250 000 jangchidan oshishi mumkin emas edi» («Ikki buyuk sarkarda», 71-bet) deydi. Ba'zan esa hatto, 600 ming raqami ham uchraydi, ammo bu raqam haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Chunki M. Ivanin bergan ma'lumotlarga qaragan-



da, mo'gullarning harbiy kuchlari «...jami 600 000 jangchidan oshmas edi» (o'sha manba, 70-bet).

Chingizxonga uyg'ur xoni Ediku va Olmaliq hukmdori Sig'noqtakin kuchlari ham qo'shiladi. Chingizxon Irtish qirg'oqlaridan to Sayhun sohillarigacha bo'lgan harakati davomida hech qanday qarshilikka duch kelmaydi. Hujumning dastlabki zarbasi O'trorga qarshi qaratiladi. Shu yerda Chingizxon o'z lashkarlarini to'rt qismga bo'ladi va Movarounnahr va Xorazmni tezroq zabt etish maqsadida, ularni to'rt yo'nalish bo'yicha yalpi hujumga tashlaydi. U o'g'illari Chig'atoy va O'qtoylarni O'tror shahrini qamal qilishga qoldiradi va buning uchun 100 ming kishilik lashkar ajratadi. Yana bir o'g'li Jo'jini ikkinchi qism lashkarga bosh qilib, Sirdaryo etaklari tomon yuboradi va unga Sig'noq, O'zgan, Barchinlikent, Jand, Yangikent va boshqa shaharlarni bosib olishni topshiradi. Uncha katta bo'lmagan 5 minglik qo'shinga Oloqno'yon va Suketu Cherbi ismli sarkardalar qo'mondon etib tayinlanadi. Ularning vazifasi, Sirdaryoning o'rta sohili bo'ylab, uning yuqori oqi-

mida joylashgan Binkat va Xo'jand shaharlarini egallashdan iborat edi. Chingizxonning o'zi kichik o'g'li Tulixon bilan birgalikda Movarounnahrning katta qismini Muhammadning boshqa yerlaridan kesib qo'yish va qamal qilingan shaharlarga yordam yuborilishiga to'sqinlik qilish maqsadida, Buxoroga yurish boshlaydi.

Xorazmshoh Muhammadning kuchlari Chingizxonnikidan bir necha barobar ortiq va qudratliroq edi. Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi»da yozilishicha, Muhammad Sulton lashkarlarining soni 400 mingdan kam bo'lmagan. Biroq bu kuchlar tarqoq va bo'lib yuborilgan edi. O'tror qal'asi himoyasi uchun katta kuch ajratilgan. Inolchiq boshchiligida shaharda bor bo'lgan 20 ming suvoriyga yana qo'shimcha 10 ming qo'shin yuboriladi, qamal arafasida O'troga yuborilgan bu qo'shinga Qoracha Hojib qo'mondonlik qiladi. Juvayniyning ma'lumotlariga qaraganda, bundan tashqari, yana Sulton Muhammad «Lashkari Birun» deb atalgan 50 ming kishilik askar jo'natgan. Demak, faqat O'tror shahrining o'zida salkam 100 ming kishilik qo'shin Mo'g'ullarga qarshi mudofaa janglari olib borgan. O'tror shahri himoyachilari mo'g'ullarga qarshi qahramonlarcha jang qiladilar. Ammo yuqori mansab va lavozimlarni egallab turgan hokimto'ralarning sotqinligi, xiyonati va dushman tomonga o'tishlari oqibatida olti oylik mudofaadan so'ng, shahar dushmanga taslim bo'ladi. Mo'g'ullar tomoniga sotqinlarcha o'tib ketganlar orasida Badriddin Amid, Safiy Aqra' Hojib singari shahar hokimiyatining vakillari bo'lgan. Ular bir vaqtlar Xorazmshoh Muhammad tomonidan qatl etilgan. O'tror shahar qozisining avlodlari bo'lganlar. Shahar qamali paytida, O'troga yordam berish uchun yuborilgan Qoracha Hojib ham o'z askarlari bilan dushman tomonga o'tib ketadi. Ammo ota an'analari ruhida tarbiyalangan chingiziyzodalar ko'rnamaklik qilib, o'z podshohi va valine'matiga sotqinlik va xiyonat qilganlarning barchasini boshini tanasidan judo qiladilar. Mirmuhsin «Xo'jand qal'asi» asarida, qiziq bir voqeaning badiiy talqinini beradi: «Bular nima yeydi?» deb so'rabdi Chingizxon O'trojni o'rab olgan kunlari bir asirdan. «Bular yerdan o'sib chiqadigan giyoh-u mevalarni...», debdi u. Chingizxon o'ylab turib: «Mol yerdan o'sib chiqqan o'tni yeydi, o't yeydigan molni biz yeymiz. Bular o't yesa, mol ekan! Bularni moldek so'yib tashlay beringlar, debdi u odamlariga»¹.

¹ *Mirmuhsin*. Xo'jand qal'asi. 147-bet.

O'tror shahri mudofaasida, ayniqsa, Inolchiq alohida jaso-rat ko'rsatgan. U shu yo'l bilan mash'um urushning boshlanishiga asosiy sababchi sifatida o'z aybini ma'lum bir ma'noda oqlashga harakat qilgan edi. Chingizxonning topshirig'i bilan O'tror shahar hokimi Inolchiqni tiriklayin qo'lga olishga mo'g'ullar bor kuchlarini sarf etadilar va uni asirga oladilar. Chunki Chingizxonning Inolchiq bilan alohida hisob-kitobi bor edi. Tarixchi an-Nasafiyning yozishi-cha: «...Chingizxon asir olingan O'tror hokimi Inolchiqni o'z huzuri-ga keltirishga amr etadi. U kumushni eritib, uning qulog'i va ko'ziga quyishni buyuradi. U shunday jazo bilan qiynalib, o'ldi»¹. Haqiqatan ham, Inolchiq Samarqandga olib borilib qiynab o'ldiriladi. O'tronni egallagan mo'gullar shaharni talab, vayron qiladilar.

Xorazmshoh Muhammad davlatining markazlaridan biri bo'lgan Buxoro shahri tomon yo'l olgan Chingizxon va Tulixonlar suv-siz cho'lni qisqa muddatda bosib o'tadi va Zarnuq Hyp (Nurota) qal'alarini jangsiz egallaydi.

1220-yilning fevral oyida mo'g'ullar Buxoroni qamal qilishni boshlaydilar. XIII asr boshlarida yashab o'tgan bir fors muarrix Shahar himoyachilarining sonini 12 ming kishidan oshmas edi, deb yozgan. Juvayniy esa 20 ming degan ma'lumotni beradi. Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi»da biz: «...30 ming kishini Buxoro mudofaasi uchun tayinladi», degan jummalarni o'qiymiz. Shahardagi bu kuchlarga Inalxon O'g'li Hojib, Ixtiyoriddin Qushlu, Hamid Pura Qoraxitoylar boshchilik qiladi. Ularning safini mo'gullardan qochib kelgan uyg'ur Gurxon (Ko'kxon) ham to'ldiradi. Buxoro ahli mo'g'ullarning O'tror va boshqa shaharlardagi amalga oshirgan qonli qirg'inbarotlaridan xabardor bo'lsalar-da, ular o'z ona shahar-larini himoya qilish imkoniyatiga ega emas edilar. Shahar o'z ho-liga tashlab qo'yilgan edi. Mudofaachilar orasida birlik, ahillik yo'q edi. Shaharda qo'rquv va beboshlik dahshati hukm surardi, har kim faqat o'z taqdirini o'ylardi, odamlarda bir-birlariga ishonch yo'q edi. Buxorolik boobro' va e'tiborli sarkardalardan biri Inalchixon O'gil Hojib oliy darajadagi Buxoro ruhoniylari o'rtasida sotqinlik kayfi-yati borligidan xabar topib, vaqtni qo'ldan boy bermasdan qamal-niing uchinchi kuni Buxoroni tark etib, Urganch tomon yo'l olish-ga oshiqadi. Shahar himoyachilaridan biri Hamid Pura jangda ha-lok bo'ladi. Chorasiz qolgan Buxoro shahri aholisi Chingizxonga

¹ *Mirmuhsin*. Xo'jand qal'asi. 147-bet.

taslim bo'lishdan boshqa chorani topa olmaydi. Shahar darvozasi Buxoro qozisi Badriddin Qozixon va boshqa amaldorlarning sotqinligi tufayli dushmanga ochib beriladi. Juvayniyning tavsifi bo'yicha, Rashididdin Buxoro shahriga Chingizxonning kirib kelishini quyidagicha ta'riflaydi: «Chingizxon ot ustida jome' masjidiga kirib keladi va shaharning nufuzli kishilarini huzuriga olib kelishni talab qiladi. Mo'gullar shahar omborlarini ochib, g'allani olishdi. Qur'on ro'yxatlari bor sandiqlarni otlari uchun yemxona qilishdi, sharob to'la meshlarini masjid ichiga terib chiqishdi, xonandalar-u sozandalarni yig'ib, o'yin-kulgu buyurishdi»¹. Xuddi shu manbada yozilishicha, mo'gullar o'z qo'shiqlarini kuylashar, shayxlar-u ulamolar esa otxonada otboqar o'rnida turib, bosqinchilarning buyruqlarini bajarishar edi.

1220-yil 16-fevralda mo'g'ullar Buxoro shahrini egallagan bo'lsalar-da, shahar hali ularga batamom taslim bo'lgan emas edi. Uyg'ur Gurxon boshchiligida 400 nafar buxorolik vatanparvarlar shahar arkiga chiqib olib, yana 12 kun mobaynida tengsiz dushman kuchlariga qarshi jang qiladilar. Faqat barcha vatanparvar jangchilar kurashib jon berganlaridan so'nggina, mo'gullar Buxoro arkini qo'lga kiritadilar. Vatanparvarlarning bu qilgan qarshiliklari evaziga mo'gullar buxoroliklardan 30 ming fuqaroning yostig'ini quritadilar. Aholining qolgan qismi qullarga aylantiriladi. Xorazmshohlar davlatining markazlaridan, qadimiy sharq dunyosining diniy va ma'rifat o'choqlaridan biri, ikkinchi ka'ba nomi bilan jahonga tanilgan Buxoro yer bilan yakson qilinadi, uning boyliklari talanadi. Ilm-ma'rifat koshonalari, ma'naviyat boyliklari, topilgan qadimiy kitoblar, qo'lyozma asarlarning kuli ko'kka sovuriladi, otlar va eshaklar oyoqlari ostiga tashlanadi. Din peshvolari, ulug' va mo'tabar zotlar, qozi-yu ulamolar mashara qilindi. Mo'gullar shahardagi barcha boyliklar, oltin-u zar, zeb-u ziynatlarni to'plab bo'lgach, bir necha kun mobaynida o'z askarlariga shaharni talashni topshiradilar. Ular barcha bilgan noma'qulchiliklarini qiladilar. So'ng, shaharga o't qo'yiladi va Buxoro kultepaga aylantiriladi.

Mo'g'ullar Buxorodan juda ko'p asirlarni olib, qul qilib, o'z yurtlariga olib ketadilar va ularni xo'rlab har xil qora ishlarda mehnat qildiradilar. Jismoniy jihatdan sog'lom va baquvvat asirlar hamda hunarmandlardan, keyinchalik, Samarqand, Dobusiya va boshqa

¹ O'zbekiston xalqlari tarixi. 1-Jild. – T.: Fan, 1992. 139-bet.

shaharlarni qamal qilish chogida og'ir va mashaqqattalab ishlarda foydalaniladi.

Chingizxon Buxorodan so'ng, Dobusiya shahri aholisi qarshiligini yengib, Samarqandni qamal qiladi. Xorazmshoh Muhammad shahar mudofaa devori qurish va atroflarini xandaqlar qazib, suvlar bilan to'ldirish maqsadida, aholiga og'ir va musibatli soliqlar soladi. Ammo bu mablag'larni sarf-xarajatlar uchun ishlatishga ham ulgurmaydi. Mirzo Ulugbekning ma'lumotlariga qaraganda, Samarqand mudofaasi uchun 110 ming kishidan iborat kattagina qo'shin qoldirilgan. Ularning 60 mingi turk, 50 mingi tojiklar edi. Bulardan tashqari, qo'shin tarkibida 20 ta fil ham bo'lgan. Samarqand shahrining noibi Turkon xotunning ukasi Sulton Muhammadning tog'asi To'g'ayxon edi. Turk qo'shinlariga Alp Erxon, Shayxxon va Bolo (Bir boloz) xonlar boshchilik qilardi. Shahar mudofaachilari saflarida birlik, ahillik yo'q edi. Ular ertangi kundagi g'alabaga shubha bilan qarar edilar. Biroq dushmanga munosib suratda qarshilik ko'rsatish va hatto, uning ustidan g'alaba qozonish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar bor edi. Bu, avvalo, yetarli darajada qurollangan katta sonli qo'shinning borligi, shaharning uzoq muddatga yetadigan oziq-ovqat zahiralari bilan ta'minlanganligi, shahardagi savdogarlar, hunarmandlar, kosiblarning mavjudligi va ularning imkoniyatlaridir. Albatta, o'z kuchiga ishonmaydigan, yurtga, vatanga, elga xiyonat va sotqinlik qilishga tayyor bo'lgan amaldorlar, ayrim ruhoniylar ham yo'q emas edi.

Chingizxon Samarqandga 1220-yilning mart oyida yetib keladi. U Samarqand uchun jang shiddatli va og'ir bo'lishini bilardi. Shu boisdan, Chingizxon o'zidagi bor qobiliyat va ayyorlikni ishga soladi. Dastlab, u otlilar bilan yetib keladi. So'ng, piyodalar paydo bo'ladi. Har o'nlikda bittadan bayroq bor edi. Qo'shinlar shahardan ancha olisroqda joylashadilar. Bu o'ziga xos hiyla edi. Maqsad Samarqand himoyachilariga Chingizxon qo'shini sonini ko'p qilib ko'rsatishdan iborat edi. Chingizxon shu yo'l bilan Samarqand shahri aholisini umidsizlikka tushirish va ma'naviy ustunlikka erishishni rejalagan edi. U bu rejani amalga oshirdi ham. Chingizxon Samarqandni markaziy shaharlardan tashqari, O'tror, Buxoro va boshqa shaharlardagi asir olingan tutqinlarni ham safarbar etadi. U shaharni qamal qilishga shaxsan o'zi rahbarlik qiladi. Dastlabki, ikki kun mobaynida mo'gullar Samarqand atrofidagi qishloqlarni egallab, shaharning tashqi muhit bilan aloqasini ba-

tamom uzib tashlaydilar. shahar atrofini ko'zdan kechirib mudofaa istehkomlarini o'rganadilar. Uchinchi kundan boshlab, Chingizxon asirlar va mo'g'ul askarlariga Samarqandga yaqinlashishga buyruq berdi. Shahar mudofaachilaridan ba'zi bir qiziqqon kishilar askarlardan ko'mak bo'lmasa-da, bundan asab o'yimsha chiday olmasdan shahardan tashqariga chiqib jang qiladilar. Mo'g'ullar esa go'yo chekingandek orqaga qochib, Samarqand himoyachilarining ko'plarini pistirmaga tushiradilar va o'n minglab vatanparvarlarni qirib tashlaydilar. Bu hol Samarqand garnizoni va mudofaachilar saflarida qo'rquv va sarosimalikni keltirib chiqaradi. Xususan, To'g'ayxon boshliq turk sarkardalari katta xatoga yo'l qo'yadilar. Ular mo'g'ullar bizni o'z vatandosh, millatdoshlaridek qabul qiladilar, degan xomxayolga borib, 30 minglik qo'shini bilan Chingizxon tomoniga o'tishni ixtiyor etadilar. Chingizxon bu takliflarni ayyorlik bilan jon-jon, deb qabul etadi. Qamalning beshinchi kuni shahar qozisi va shayxulislom boshchiligida Mo'g'ullarga vakillar yuboriladi. 1220-yil 16-martda Samarqand darvozalari mu'ullarga ochib beriladi. Shaharda ommaviy qirg'in boshlanadi. Qozi bilan muftiyga o'z odamlari bilan chetga chiqib turishga ruxsat beriladi. Ularni qo'riqlash uchun qorovullar qo'yiladi. So'ng, shahar talon-toroj qilindi. Oradan bir kun o'tgach, To'g'ayxon va uning yigirmata sarkardasi boshchiligida 30 ming turk lashkarlari tunda qirib tashlanadi, ularning ot va boyliklari tortib olinadi.

Mo'g'ullar Samarqandning bosh suv inshooti «Juyi arzis» – «Qo'rg'oshin nova»ni buzib tashlab, shahar aholisini suvsiz qoldiradilar. Namozgoh darvozasidan bostirib kirib, barcha istehkomlarni xonavayron qiladilar. Chingizxon Samarqand shahridan 30 mingga yaqin hunarmand va rassomlarni asirlikka oladi va ularni o'z farzandlari, xotinlari, qo'shin boshliqlari, qarindosh-urug'lari va yaqin kishilariga xizmatkorlikka bo'lib, hadya qilib beradi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, shahar qozisi va muftiyi Samarqandliklardan 50 ming kishini 200 ming oltin tanga tovon to'lash evaziga Samarqandga qaytarib olib kelgan. Ana shu tariqa, Xorazmshohlar davlatining yana bir poytaxti, Sharq olamining eng go'zal dunyoning sayqal shaharlaridan biri bo'lgan Samarqand mo'g'ullar bosqini tufayli xonavayron bo'ladi, uning kuli ko'kka sovuriladi. O'sha paytda, Chingizxon xizmatida bo'lgan Xitoy ruhoniysi Chan Chunning so'zlariga qaraganda, mo'g'ullar bosqinidan so'ng, shaharda ilgorigi aholining chorak qismigina qolgan, xolos.

Chingizxon Samarqandda turib, Xorazmshoh Muhammad kichik bir qo'shin bilan Jayhun daryosining narigi qirg'og'iga o'tib ketganligini eshitadi. U vaqtni qo'ldan boy bermasdan Jebe va Subutoy boshchiligida 30 ming kishilik otliq askarni uning orqasidan jo'natadi.

Chingizxon Samarqandni qo'lga kiritish uchun butun vujudi bilan uni qamal qilib, jang qilayotganda Xorazmshoh Muhammad batamom umidsizlikka tushib, davlat va xalq manfaatlaridan umuman uzoqlashib, faqat o'z jonini qanday qilib bo'lsa-da, saqlab qolishni o'ylar edi. Mirzo Ulug'bekning yozishicha, u Samarqand yo'lidan Naxshob sari borayotib uchragan yerda aholi orasiga qo'rquv va vahima urug'ini separd: «Chorangizni ko'ring, najot yerlarini qo'lga kiriting». U hatto, shu darajaga borib yetadiki: «Bir kishini Xorazmga jo'natib, onasi Turkon xotunga boshqa xotinlar va bolalar bilan jamiyki xazina va zahira-yu qimmatbaho matolarni, nafis buyumlar hamda javohirlarni olib Mozandaronga ketishi lozimligini aytdi»¹.

Xorazmshoh Muhammad o'z vazirlari va lashkarboshilari bilan davlatni halokatdan qutqarish choralari to'g'risida maslahatlashadi. Tajribali va tadbirkor jangchilar hozir Movarounnahrni himoya qilish payti emasligini aytib, Xuroson va Iroqni himoya qilishga asosiy diqqatni qaratish lozimligini maslahat beradilar. Boshqa birlari esa qo'shinni G'aznada to'plab, shu yerda dushmanga qarshi jang qilish va agar zaruriyat bo'lib qolsa, Hindistonda yashirinishni taklif qiladilar. Iroqlik bir vazir esa Iroqi Ajam yurtiga chekinishni maqsadga muvofiq, deb ma'qullatadi. Xorazmshoh Muhammadga so'nggi taklif ma'qul tushadi va u Iroqqa yurishga qaror qiladi. Xorazmshohning katta o'g'li Jaloliddin Manguberdi otasi bilan birga edi. U kuchlarni to'plab, Jayhunni himoya qilishni maslahat beradi. Biroq Muhammad Iroq tomon chekinishga qat'iy qaror qilgach, Jaloliddin otasining qarorini inkor etib bunday dedi: «Agar Sulton Iroqqa ketadigan bo'lsa, lashkarlarini menga qoldirsin. Men esa Jayhun daryosi bo'yida turgum. Daryoning u tomonini (mo'gullar) egallaydigan bo'lsa, bu tomonga o'tkazmagayman, mone'lik qilurmen. Eng to'g'ri yo'l shul. ...ketib Jayhun tomonga chodir tikaman, dushmanlar joniga qasd qilurmen. Bu sipoh bilan u yerga borib yetsam, daryoning u tomoniga g'anim bormagay. Ammo

¹ *Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. 135–136-betlar.*

bizdan senga ziyon-zahmat yetgudek bo'lsa, xalq bizga ta'na gap aytmaydi»¹. Ammo bu iltimoslar Xorazmshoh qulog'iga kirgan ham emas. U o'z bilganidan qolmaydi. Xorazmshoh Muhammad Buxoro va Samarqandning qo'ldan ketganligini Balxda eshitadi. Uni battar vahima bosadi. Xorazmshohning qo'shinlari, asosan, turk va turkmanlardan tashkil topgan, boshliqlari Turkon xotuning odamlaridan iborat edi. Ular o'z Sultonlariga qarshi suiqasd uyushtiradilar. Buni sezib qolgan Muhammad kechasi joyini o'zgartirib, boshqa chodirga kirib yotadi. Ertalab turib qarasa, u yotishi kerak bo'lgan chodir o'qlar bilan ilma-teshik qilib tashlangan. Dahshatga tushgan Xorazmshoh shoshilinch sur'atda Nishopur sari o'tlanadi. U yerda ko'p vaqt o'tmasdan ov qilishni bahona qilib, Iroqqa jo'naydi. Xorazmshoh Muhammadni ta'qib qilib kelayotgan Jebe va Subutoy Termiz yonida ko'priksiz va kemasiz Jayhun daryosini kechib o'tadilar va tezda Balx orqali 24-mayda Nishopurga yetib keladilar. Xorazmshoh Nishopurdan Qazvin shahriga o'tadi. Bu yerda 30 ming lashkar to'plangan bo'lishiga qaramay, mo'g'ullarga qarshi turishga jur'at qila olmaydi. Bu yerdan u Bag'dod, G'ilon va Kaspiy dengizi qirg'oqlari bo'ylab, Mozandaronga yuradi. Xorazmshoh bu shaharda turib, Mozandaron viloyatining savdo-sotiq shahri Astrobod va asosiy shaharlardan bo'lgan Amoyni mo'g'ullar bosib olgani va talon-toroj qilganligidan xabar topadi. Chorasiz qolgan va baxtiqaro Xorazmshoh Muhammad viloyat amirlari maslahatiga ko'ra, Kaspiy dengizining Ashura oroliga borib yashirinadi va u shu yerda 1221-yil fevralda vafot etadi. Mirzo Ulug'bekning yozishicha, Xorazmshoh Muhammad xor-u zorlikda o'lgan: «Qancha urinishmasin kafan topa olmadilar. Sulton Muhammad Xorazmshohni o'zining kiyib yurgan kiyimida dafn qildilar»².

Yozma manbalarning guvohlik berishicha, Xorazmshoh o'limi oldidan Xorazm saltanatini faqat Sulton Jaloliddin saqlab qola olishiga nihoyat ko'zi yetadi, uning beliga qilich taqib, Jaloliddinni taxt vorisi va valiahd deb e'lon qiladi. Qolgan farzandlariga Jaloliddin izmidan chiqmaslikni vasiyat qiladi. Muhammad Xorazmshohdan Jaloliddindan tashqari, yana Qutbiddin O'zloqshoh G'iyosiddin Pirshoh, Oqshoh, Rukiddin, Gursanjti, Kyumohishoh, Xurshoh va birgina qiz Xon Sulton qolgan edi. Ularning har birini taqdir o'yini turli ko'chalarda o'z yo'liga solib o'ynatadi. Bu davrda

¹ *Mirzo Ulug'bek*. To'rt ulus tarixi. 155-bet.

² O'sha manba. 136-137-betlar.

Mo'g'ullarning Jo'ji boshchiligidagi qismlari o'zlarining g'olibona yurishlarini davom ettirib, Sirdaryo etaklaridagi shaharlarni birin-ketin egallay boshlaydilar. Dastlab, Sig'noq yetti kunlik jangdan keyin, so'ngra O'zgan dushmanga taslim bo'ladi. Samarqand 1220-yil martda taslim bo'lgandan so'ng, bir oy o'tgach, Jand shahriga hujum boshlaydi. Jand hokimi qo'rqib vahimaga tushib shaharni egasiz qoldiradi va Xorazm tomon qochib ketadi. O'z holiga qolgan shahar mo'g'ullar tomonidan egallanib, uning aholisi qirg'in qilingan va talangan shahar vayronaga aylantirilgan. Bu harakatlar natijasida mo'gullar Movarounnahrning g'arbiy qismini, Jayhun va Sayhun daryolari adoqlarida istiqomat qiluvchi aholidan Xorazm va uning harbiy kuchlarini ajratib qo'yadilar.

Mo'g'ullarning besh ming kishilik qo'shından iborat yana bir guruhi Oloqnuyon, Suketu Cherbi va Tug'ay kabi sarkadalari boshchiligida Sayhun bo'yida joylashgan Binokat va Xo'jand shaharlari ustiga yurish boshlaydi. Qang'li qabilalaridan tashkil topgan qo'shin bilan Binokat amiri Elatxumalik mo'g'ullarga qarshi to'rt kun jang qilgach, dushman shaharni egallab yondiradi, aholisini qirgin qiladi va boyliklarini talaydi. Navbat Xo'jandga kelgandi. Asli nasabi turkiy bo'lgan Xo'jand shahri hokimi, jasur sarkarda Temur Malik boshchiligida xo'jandliklarning mo'g'ullar bilan arslonlardek jang qilib, o'z ona shaharlarini himoya qilishlari tillarda doston va dushman uchun kutilmagan hodisa bo'ldi. Tarixchi A'loiddin Muhammad Juvayniy Temur Malikning ko'rsatgan qahramonligiga quyidagicha baho bergan edi: «Temur Malik shunday jasoratli sarkarda ediki, agar pahlavon Rustam tirik bo'lganida uning otiga jilovdorlikka yarrardi, xolos»¹. Juvayniyning ma'lumotlariga qaraganda, Xo'jandni qamal qilishda 20 ming mo'g'ul askarlaridan tashqari, 50 ming nafar asir ham qatnashgan. Kuchlar nisbatining teng bo'lmaganligini hisobga olib va tinch aholini qirg'in bo'lishdan saqlab qolish maqsadlarini ko'zlab, Temur Malik o'zining 1000 ta saralangan jangchi suvoriylari bilan jang qilib, mo'gullar safini yorib o'tadi va Sayhun daryosi o'rtasidagi orollardan biriga joylashib oladi. Mo'g'ullarning kamon o'qlari va palaxmon toshlari uzoqqa yetib bora olmas edi. Mo'g'ullar daryoga toshlarni tashlab, vatanparvarlar tomon o'tishga qaror qiladilar va askarlarni 3 farsax (bir farsax 6–8 km) uzoqlikdan toshlarni olib kelib daryoga tashlatib, to'g'on (damba)lar ho-

¹ Джувайний Алоудин Мухаммед. Татаро-монголы в Азии и в Европе. М.: «Наука», 1977, стр. 12

sil qilmoqchi bo'ladilar. Temur Malik esa o'zining jasur yigitlari bilan tunda qayiqlarda suzib kelib, kuni bilan hosil qilingan turon (damba)larni buzib ketardi. Temur Malikning buyrug'iga asosan, 12 ta maxsus qayiq qurilgan. Dushman otgan o'qlar qayiq'larni teshib o'tmasligi, olovli o'qlar ularni yondirib yubormasligi chorasi sifatida qayiq'larning ustlari namatlar bilan qoplanadi, ustidan esa sirkali loy chaplanadi. Bunday kemalarda Temur Malik bemalol, qo'rqmasdan daryo sohillari tomon suzib borib, mo'g'ullarga qiron keltirar edi. Ammo kuchli dushman bilan bunday usulda uzoq vaqt jang qilishning iloji yo'q edi. Shuning uchun, Temur Malik 70 ta kema-qayiq qurdirib, daryoning quyi qismi orqali mash'allar yoqib suzib borib Xorazm (Orol) dengizi va Jayhun orqali Urganchga yetib olishga qaror qiladi. Daryoning har ikki qirg'ogidan esa mo'g'ullarning o'tli suvoriylari Temur Malik kuchlari ustiga tinimsiz kamon o'qlari yog'dirar edilar. Qattiq jang, olovli mash'allar bilan Temur Malik sarbozlari Jand tomon dadil suzib ketadilar. Barchinlig'kent va Jand yaqinida daryoning har ikkala sohili bo'ylab sarhang Ulus Idi boshliq dushman kuchlari daryo ustiga zanjir tortib, mustahkam to'siq quradilar. Ammo Temur Malik bu to'siqni buzib o'tib, Jand shahrida qirg'oqqa chiqadi. Qirg'oqda Temur Malik bahodirlari bilan mo'g'ullar o'rtasida mislsiz va shiddatli jang bo'ladi. Bu jangda Temur Malik o'z qo'shini va safdoshlaridan deyarli batamom ayiriladi. Faqat kichik bir guruh yigitlar bilan qolgan Xo'jand arsloni mo'g'ullarning butun bir boshli qo'shiniga qarshi jang maydonida ot suradi. Juvayniyning yozishicha: «Orqadan ta'qib etib kelayotgan dushmanni yo'l-yo'lakay chopib, kamondan o'qqa tutib parokanda etdi, mo'g'ul sardorlaridan birining ko'zini ko'r qildi. «Yana ikki o'q-yoyim bor, ikkovingga ham yetadi. Yaxshisi orqaga qaytinglar!», deb xitob qildi Temur Malik. Vahimaga tushgan mo'g'ullar otlari jilovini orqaga tortib qaytib ketdilar»¹ Ana shu tariqa, Temur Malik qattiq mashaqqatlar va qahramonliklar evaziga Xorazmshohlar davlatining poytaxti Urganchga yetib boradi va Jaloliddin Manguberdi kuchlariga qo'shiladi. U Xorazm bahodiri bilan mo'g'ullarga qarshi olib borilgan juda ko'p janglarda qatnashadi. Jo'jiga qarshi muvaffaqiyatli va zafarli yurishlarni amalga oshiradi va hatto, undan Sirdaryoning quyi oqimidagi Yangikent shahrini qaytarib ham oladi.

¹ Джувайний Аюудин Мухаммед. Татаро-монголы в Азии и в Европе наука 1977, стр. 127.

Yuqorida Xorazmshoh Muhammadning onasiga yozgan xatini eslatgan edik. Nihoyatda aqlli, tadbirkor va ayyor Chingizxon Turkon xotuning o'z o'gli bilan bo'lgan kelishmovchiliklarini, Xorazmshoh Muhammad qo'shinidagi lashkarboshilarning Turkon avlodlaridan ekanligini yaxshi bilardi. Shuning uchun u bu imkoniyatdan foydalaniib qolish maqsadida, Turkon xotun oldiga o'z elchisini yuboradi. Elchi orqali Chingizxon Turkon xotunga o'g'lining yaxshilikni bilmasligini aytadi. Shuningdek, Chingizxon Turkon xotunga nisbatan, yaxshi niyatda ekanligini, shuning uchun, unga Xorazmni tark etmaslikni, urush tamom bo'lgandan so'ng, unga Xurosonni ham taqdim qilishga tayyorligini, agar uning so'zlariga ishonmasa, oldiga ijobiy tasdiq olish uchun o'z odamini yuborishi mumkinligini ta'kidlagan.

Turkon xotun Chingizxon taklifini javobsiz qoldiradi. U Chingizxon Xorazmshoh Muhammadga qarashli yerlarni talon-toroj qilib, o'z vataniga qaytib ketadi, degan xom xayolga boradi. Turkon xotun Bog'iston yo'li orqali Mozandaron tomon ravona bo'ladi va u yerda zabt etish g'oyatda mushkul bo'lgan tog' qoyasida joylashgan Ilol qal'asida joylashib oladi. Mo'g'ullar bu qal'aga ham yetib kelib, uni o'rab oladilar. Qal'adagi vaziyat g'oyatda mushkul ahvolga tushgach, Turkon xotunga tezda qochishni va nabirasi Jaloliddindan panoj topishni maslahat beradilar. Turkon xotun esa bu maslahatiga rozi bo'lishdan ko'ra, mo'g'ullar qo'lida asirlik dahshatlariga duchor bo'lishni afzalroq deb biladi. Bu aql va farosatdan judo bo'lgan bandaning o'z jigargo'sha nabirasiga nisbatan nafratining naqadar dahshatli ekanligidan dalolat edi.

To'rt oylik qamaldan so'ng, Chingizxon askarlari Ilol qal'asini egallab, yer bilan yakson qiladilar. Barcha boyliklar talanadi. Jumladan, javohirlardan o'n ming misqol, qizil oltindan ming harvar, qimmatbaho ipak mato va boshqalar qo'lga olinadi. Sulton Muhammadning farzandlari qatl etiladi. Turkon xotun ezgu niyatiga yetadi. Uni Chingizxon huzuriga yuboradilar. Chingizxon uni Mog'uliston-ga jo'natadi. Turkon xotun 1233-yilda o'sha yerda xor-u zorlik azobida olamdan o'tadi. Xorazmshoh Muhammadning qizi va kanizaklari Chingizxonning o'g'illari va yaqinlariga bo'lib beriladi.

Chingizxon 1220-yilda o'z askarlariga biroz dam beradi, so'ngra Xorazmshoh Muhammad orqasidan yuborilgan Jebe va Subutoyga madad berish maqsadida, o'z lashkari jilovini Movarounnahning janubiy hududlari tomon buradi. Uning maqsadi, hali Mo'g'ullarning oyoqlari yetmagan Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarini egallab,

so'ng, Balx orqali asosiy hujumni Xorazmshohlar davlatining poytaxti Urganchga qaratish edi. 1220-yilning yozida Naxshob egallanadi. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, yozni Naxshobda o'tkazgan Chingizxon Qashqa vohasiga alohida e'tibor bilan qargan. Taniqli adabiyotshunos olim Poyon Ravshanning fikricha: «Chamasi, uni bu vodiyning keng o'tloqlari, tog'oldi yaylovlari, sug'oriladigan dehqonchilik yerlari qiziqtirib qolgan bo'lsa kerak.. Tabiiyki, o'z yurtida yaylovlar uchun uzoq kurash olib borgan Chingiz Qashqa vohasidagi bepoyon o'tlovlarni, yashnab turgan ekinzorlarni (u ayni pishiqchilik paytida balo-qazodek bosib kelgan) o'z tasarrufiga olishga jon-jahdi bilan kirishgan, Chingizdan so'ng, bu vohada nufuzli mo'g'ul harbiy boshliqlari turadi. Qashqa vohasi Chig'atoy avlodining qarorgoh manziliga aylanadi»¹.

Mo'g'ullar Naxshobning kulini ko'kka sovuradilar, boyliklarini talaydilar, aholini qirgin qiladilar. Bu hol madaniyatning inqiroziga sabab bo'ladi, ko'plab fozil kishilar, shoirlar, adiblar bu kurashda halok bo'ladilar. Ba'zi bir ulug' allomalar ta'qib va quvg'indan o'zga yurtlarga vatandan bezib bosh olib ketishdan boshqa chora topa olmaydilar. Qashqa vohasining buyuk farzandi, Hindistonda o'ziga boshpana topgan Ziyouddin Nashabiy ana shundaylardan biridir.

Chingizxon 1220-yilning kuzida Termiz sari lashkar tortadi. Shahar noibi Faxruddin Habash boshchiligida termizliklar Chingizxon qo'shinlariga qattiq qarshilik ko'rsatadilar. Shahar o'n bir kun deganda, bosqinchilar tomonidan egallanadi va xarobazorga aylantiriladi. Shunday qilib, Chingizxon boshliq mo'g'ullar Sirdaryo havzasi, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, Amudaryo o'rta oqimining o'ng sohil hududlarini egallab, endi o'zlarining bosh nigohlarini Xorazmshohlar davlatining asosiy markazi bo'lgan Urganch shahrini egallashga qaratadilar.

5. URGANCH FOJIASI

Xorazmshoh Muhammaddan taxt vorisligi va valiahdlikni olgan Sulton Jaloliddin ukalari va yigitlari bilan Kaspiy dengizi va Bolxon ko'rfazi orqali Xorazmga yetib keladi. Ular tez orada dushmanga qarshi kurashmoq maqsadida va Urganch himoyasi uchun 70

¹ Ravshanov P. Adabiy sahifalar. – T.: «O'qituvchi», 1985, 20-bet.

ming askar to'playdilar. Lekin shu orada Turkon xotun urug'laridan bo'lgan lashkar boshliqlarining Jaloliddinga qarshi fitna tayyorlayotganliklari oshkor bo'ladi. Fitnaga sobiq Jand noibi, qochqin qipchoq lashkarboshisi Qutlug'xon boshchilik qiladi. Jaloliddin 1221-yil 10-fevralda Xo'jand hokimi Temur Malik maslahati bo'yicha 300 nafar sinalgan suvoriylar bilan Urganchni tark etadi va Niso shahrigacha bo'lgan masofani 16 kunda bosib o'tadi.

Shu orada, Chingizxon Muhammadning o'g'illari Xorazmga kelib, u yerda kattagina kuch to'plaganliklaridan xabar topadi. U darhol Jo'ji, Chig'atoy va O'qtoy boshchiligida katta qo'shinni Xorazmga jo'natadi. O'z raqiblarining Xurosonga chekinishiga yo'l bermaslik uchun Xorazm cho'llarining janubiy hududlariga mo'g'ul kuchlarini joylashtiradi. Urganchdan Nisoga yetgan Jaloliddin va Temur Malik dushmanning 700 kishilik qismiga to'g'ri keladi. Kuchlar teng bo'lmasa-da, Jaloliddin mo'g'ullarni yakson qiladi. Nisodan Nishopurga va u yerdan G'aznaga yetib boradi. G'aznada Jaloliddin dushmanga qarshi kurashmoq maqsadida, kuch to'plashga kirishadi. Urganchga mo'g'ullarning katta lashkari bos-tirib kelayotganligi xabarini eshitgan Xorazmshoh Muhammadning o'g'illari O'zloqshoh va Oqshohlar shaharni tashlab qochadilar. Ammo ular Niso yaqinida mo'g'ullar bilan bo'lgan jangda halok bo'ladilar. Bu baxtsiz shahzodalarning kallalarini mo'g'ullar o'z nayzalariga ilib ko'tarib yuradilar.

Xorazmshohlar davlatining markazi, o'zining go'zalligi bilan go'shadagi kelinchak kabi ta'rifli, jannatmakon shahar hamla qilib, turgan dushman qarshisida o'z holiga tashlab qo'yiladi, chorasiz va himoyasiz qoladi. Shaharni himoya qilish o'lguday qo'rqqoq va amalparast, o'zini Sul-ton deb e'lon qilgan Xumortakindek bir kim-saga tegadi. Shaharni himoya qilishni u o'z zimmasiga oladi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, mo'g'ullarning 50 ming kishilik lashkari Urganch shahrini qamal qiladi. 1221-yilning qishida boshlangan bu hujum har qancha dahshatli bo'lmasin, vatanparvar xorazmliklarning mo'g'ul qaddini buka olmaydi, ular o'z ona shaharlarini mardonavor himoya qilib, dushmanga arslonlardek tashlanar edilar. Biroq kutilmaganda o'zini Sul-ton deb e'lon qilgan va shahar mudofaasini o'z qo'liga olgan Xumortakin Urganch darvozasini ochib berib, askarlari bilan dushmanga taslim bo'ladi. Mo'g'ullar shaharga yopirilib kiradilar, har bir xona, har bir qarich yer uchun mislsiz jang qizib ketadi. Urganchliklarning ruhi tushmaydi, ular qahramonlik mo'jizalarini

namoyish qiladilar. Ayniqsa, bu borada Urganch shahri himoyasiga mana shunday og'ir bir asnoda boshchilik qilgan, zamonasining buyuk allomasi shayx Najmiddin Kubro nomi bilan tarixga kirgan 76 yoshli Ahmad ibn Umar Xivaqiyning jasorati tillarda doston bo'ladi.

Chingizxon shayx Najmiddin Kubroni yaxshi bilar edi. U Urganchga hujum qilganda, shayxga xabar yuborib: «Maslahatim shuki, siz u yerdan tashqari chiqsangiz, darveshlaringizga ziyon-zahmat yetkazilmagay», – deydi. Najmiddin Kubro shunday javob qiladilar: «Mana, yetmish yildirki, Xorazm xalqi bilan yashab kelmoqdaman. Bugungi kunda qazoyi ilohiy balo jazosini yubordi. Ularning kallasida muruvvat degan narsa bo'lmaydiki, orasidan qochib o'zimni bir chekkaga olsam. Balki ular bilan birga beg'amona yag'moga duchor bo'lganim tuzukroq bo'lar. Balolarga ham ular bilan yor bo'lsam».

Mirzo Ulug'bek shayx Najmiddin Kubroning javoblarini sharhlab, bunday deb yozadi: «Bir kekxa umri oxirlashib qolgandi. Shu sababdan, unga so'z kor qilmadi. Quyidagicha javob berdi: Yetmish yildirki, Xorazmda xushhol yashayman. Taqdir muruvvati shuni taqozo qiladiki, kelgan baloga tan bergum goho. Qonimni shu yerda to'kadigan bo'lishsa, tangri farmonidan qochmagum. Kiyna olovi yongan ekan, Urganchda ho'l-u qurug' yondi. Shoh lashkari o'q-u tig' bilan band, dono-yu nodon holi bilan ishi yo'q. Uning boshini kesmasang, yaxshi bo'lardi, degan pandni mo'g'ulning eshitgisi yo'q. Qazo tig'i taqdir tufayli o'tkirlashgan ekan, kekxa-yu yoshning boshi kesilgusi»¹. Najmiddin Kubro shahar himoyachilariga qarata iltijo bilan «Yo Vatan, yo sharafli o'lim!» deb xitob qiladi. Mo'g'ullar hali biron yerda bunchalik qattiq qarshilikka duch kelmagan edi, hali biron joyda mo'g'ul askarlari bunchalik ko'p qirg'in qilinmagan edi. Dahshatli qirg'inbarot Urganch fojiasi yetti oy davom etadi. Son jihatdan ustun bo'lgan dushman mashaqqatlar va hisobsiz qurbonlar evaziga g'alabaga erishadi. Qo'lida qurol ushlashga majoli qolmagan urganchliklar ilojisizlikdan taslim bo'ladi. Jarohatlangan shayx Najmiddin Kubro o'limi oldidan tug' tutgan mo'g'ul sarboziga tashlanib, bir qo'li bilan qatl etayotgan mo'g'ul yalovining uchini ushlab turgan. Oxiri tug'ni qirqib olganlar. Bu haqida Mirzo Ulug'bek bunday deb yozadi: «Murshidi a'zam shayx Najmiddin Kubro xudo amri bilan Xorazm uchun boshini tikdi.

¹ *Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. 164–165-bet.*

Boshini topshirishda qotil yaloviga yopishdi. Dini haq iqlimining shohi Ul piyr sarpanjasidan o'n zabardast yigit yalovni chiqarib ola olmadilar. Sayidlar shayxi sarpanjasida kofir yalovini ko'rib, hayratda qolgan oqillar bu holni sharhladilar: Yalov uchini Shayx tutib, tarix aytdiki, vafotim sanasi «shohi shuhado» («Shahidlar shohi»)dir.

...Biz shunday ulug'lardanmizki, gavhar tutamiz: oriq echki tutgan pastkash emasmiz. Iymon qadahida bir qo'limiz bilan may ichsak, ikkinchi qo'limiz bilan kofir yalovidan tutamiz»¹.

Urganch taslim bo'lgach, yondiriladi, hamma tirik jon qilichdan o'tkaziladi, boyliklar talanadi. Juvayniyning ma'lumotlariga qaraganda, 100 ming nafar hunarmand, kosib, rassomlar asirga olinib, Mo'g'ulistonga jo'natilgan. Mo'g'ullar vahshiylikning bor usullarini ishga solganlar, yo'qlarini esa o'ylab topganlar. Yozma manbalarda ta'kidlanishicha, ayollar yalang'ochlanib, ikki guruhga bo'lib, urushtirilganlar. So'ngra mo'g'ul askarlariga ular orasida yoqqanini tanlab olib, maishat qilishga ruxsat berilgan. Rivoyat qilinishicha, Xorazmshoh Muhammad vazirlarini Chingizxon huzuriga keltirganlarida u Muhammad xazinasiga arab va Hind mamlakatlariidan keltirilgan qimmatbaho toshlar topildimi, deb o'z xizmatkorlaridan so'raydi. Bu toshlar, asosan, uchta bo'lib, biri «Badaxshon», ikkinchisi «Shu'layi jahon» va uchinchisi «Gang» deb atalardi. Sobiq xazinabon bu qimmatbaho gavhartoshlarni vazirlardan biri yutib yuborganligini xabar beradi. Chingizxonning buyrug'i bilan, «...asirlikda ushlab turilgan o'n uch chog'li vazirlarni hovliga olib chiqib, yerga bosib, yotqizib, qorinlarini baliqdek yorisha boshlaydi. Barcha vazirlarning qorni yorilib, ichak-chavoqlari titkilanayotgan bir paytda, navkarlardan biri qichqirib o'rnidan turadi. «Topdim! Mana, bebaho gavhartosh!» Darhaqiqat, Amin al-mulk degan tijorat vazirining qornidan o'rik danagi kattaligida «Shu'layi jahon» bilan «Gang» gavharlari topiladi². Rivoyatlarga qaraganda, har bir mo'g'ul jangchisiga 24 tadan asir bo'lib berilgan. Urganch qamali vaqtida esa kamida 50 ming mo'g'ul askari bo'lgan emish. Albatta, bu raqamlar ma'lum ma'noda mubolag'a bo'lib, bo'rttirib ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Mo'g'ullar shaharning kulini ko'kka sovurish bilan bir qatorida, Urganchdan nom-nishon qoldirmaslik uchun Amudaryodagi

¹ *Mirzo Ulug'bek*. To'rt ulus tarixi, 165–166-bet.

² *Mirmuhsin*. Xo'jand qal'asi, 228-bet.

to'g'anni buzib, suvni shaharga burib yuboradilar. Barcha ulkan tarixiy obidalar, ilm-ma'rifat manbalari suvga bostiriladi. Natijada, uzoq muddat davomida barpo etilgan bu ulkan qadimiy madaniyat va ma'muriy markazda hayot to'xtaydi. Juvayniyning iborasi bilan aytganda, «Urganch qashqir makoni bo'lib qoldi va bu yerda boyo'g'li va burgut in qurdi».

Tarixiy Urganch fojiasi Xorazmshohlar davlatining inqirozini bildirar edi. Movarounnahr va Xorazmning bepoyon hududlari Chingizxon davlati tasarrufiga o'tadi. Ammo Chingizxon va uning galalari bilan kurash hali o'z nihoyasiga yetmagan edi. Bu kurashning asosiy sardori va bayroqdori Sulton Jaloliddin Manguberdi edi.

6. JALOLIDDIN MANGUBERDI JASORATI

Bor-yog'i o'ttiz ikki yilgina umr ko'rgan bu bahodir zotning mo'tabar nomi o'z zamonasida dunyo bo'ylab qanchalar dovruc taratgan bo'lsa, oradan ko'p-ko'p asrlar o'tgach ham mardlik va ozodlik uchun kurash, el-yurtga fidoyilik timsoli sifatida yashab kelmoqda. Uning qahramonligi kelajak avlodlarga, birinchi galda siz bilan bizga tarixiy xotira oldida boshimizni mag'rur tutib yashamog'imiz uchun to'la huquq beradi.

Islom Karimov

Movarounnahr va Xorazmni qo'lga kiritgan Chingizxonda Sulton Jaloliddin hayot ekan, tinchlik yo'q edi. Go'yo uning borliq toj-u taxtining shavkati va borlig'i, istiqboldagi muvaffaqiyati-yu o'zining ham taqdiri Sulton Jaloliddin qo'lida-yu uning ixtiyorida. Ayniqsa, 1221-yilda Jaloliddinning mo'g'ullar ustidan Niso, Nishopur, G'azna atroflarida qozongan g'alabalari Chingizxon oromini buzmoqda edi.

Sulton Jaloliddin G'aznaga yetib kelganda, Xorazmshohning tarqalib ketgan qo'shinlari uning atrofida to'planadilar. Tuluxondan mag'lubiyatga uchrab G'azna tomon chekingan Hirot kuchlari ham Jaloliddinning kuchlariga qo'shiladilar. Qabaqliyon qavmidan



bo'lgan 40 ming qo'shin Xorazmdan yetib keladi. Xullas, dushmaniga qarshi tura oladigan katta kuch to'planadi. Jaloliddin bu kuchlar bilan G'aznaga yaqin bo'lgan Valiyon qal'asi atrofida Chingizxonning Bekchak va Timqur boshliq qo'shinini yakson qiladi. Dushman to'qqiz ming jangchisidan judo bo'lib, juda ko'p o'lja, boyliklarni tashlab qochadi. Chingizxon bu shum xabarni Tolqonda turganda eshitadi va Jaloliddinni tezda daf qilish uchun eng ishonarli va dongdor lashkarboshisi Qayqur no'yon boshchiligida 30 ming kishilik qo'shinni yuboradi. Ikki o'rtada jang 1221-yilning yozida Parvona dashtida bo'ladi. Jaloliddin janglar tarzida birinchi marta Mo'g'ullarga qarshi kurashda yangi taktik usulni qo'llaydi: jangchilarga otdan tushib, jilovlarini bellariga bog'lashni va kamon bilan jang qilishni buyuradi. Tun qorong'usiga qadar davom etgan jangda ikki tomonning birortasiga ham zafar kulib boqmaydi. Ertasi kuni Qayqur no'yon harbiy hiyla ishlatmoqchi bo'ladi. U dushmani yangi kuchlar kelib qo'shildi, deb ishontirish maqsadida, kigiznamat va choponlar orasiga poxol hashaklar solib, sun'iy boshlar yasab ularni otlar ustiga o'tqazib qo'yadi. «Soxta jangchilar»ni tuyalar karvoni va aravalar orasiga joylaydilar. Bu hiyla Jaloliddin askarlarni dastlab, ancha dovdiratib qo'yadi. Ularning ba'zilari hatto, chekinishga maslahat ham beradilar. Ammo Sulton og'ir va bosiqlik bilan avvalgi kundagi taktika asosida otdan tushib kurashni davom ettirishni tavsiya qiladi. Dushmanning bir necha hujumi qaytarilgach, Sulton buyrug'i asosida chalingan karnay sadolari ostida Jaloliddin askarlari otlarga minib, shovqin-suronlar bilan mo'g'ullar ustiga tashlanadilar. Dushman tilka-pora qilinadi. Qayg'ur no'yon ozgina odam bilan Chingizxon huzuriga kirib boradi. Bu xabarni eshitgan Chingizxon dahshatga tushadi. U shu zahotiyuq, o'zining barcha kuchlarini jamlab, Sulton Jaloliddinni daf qilish maqsadida, shaxsan o'zi otlandi.

Parvona dashtidagi g'alaba Sulton Jaloliddinga qimmatga tushadi. Mo'g'ullar ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng, qo'lga kiritilgan o'ljani taqsimlash paytda nizo kelib chiqadi. O'ljaga tushgan bir arabi ot uchun Xorazmshohning mo'tabar amirlaridan Sayfiddin O'g'roq bilan Hazora maligi Amin Malik janjallashib qoladilar. Qizishib ketgan Amin Malik tortishuv paytida, O'g'roqning boshiga qamchi bilan tushiradi. Sulton Jaloliddin bu nizoni bartaraf qilmaydi. Xafa bo'lgan Sayfiddin O'g'roq 30 ming askari bilan ketib qoladi. Qabaqli turkman va halaj sipohlari ham Sultondan yuz o'giradilar. Natijada, Jaloliddinning qo'shinlari yarmiga kamayib, kuchsizlanib qoldi.

Chingizxon ikki o'rtada masofani juda tez fursatda bosib o'tib, G'aznaga yetib keladi va Jaloliddinni 1221-yilning kuzida ta'qib qila boshlaydi. Jaloliddin Chingizxonning ko'p sonli qo'shinlariga qarshi tura olmasligini payqab, avval G'aznaga, so'ngra Sind (Hind) daryosiga chekinadi. Chingizxon Sind daryosiga yaqinlashganda, Jaloliddinning keyingi kuni daryoni kechib o'tmoqchi ekanligini eshitib, shu kechanning o'zidayoq daryoning kechuv yo'lini to'sadi. U Sulton qo'shinining orqadagi qismiga yetib olib, uni tor-mor qiladi. 1221-yil 9-dekabrda Jaloliddinning yarim oy shaklida joylashtirilgan hamda qanotlari bilan Sind daryosiga tiralgan oz sonli qo'shinni o'rab oladi. «Sulton Jaloliddin bin Sulton Muhammad Xorazmshoh, – deb yozadi Mirzo Ulug'bek, – o'zini suv-u olov o'rtasida ko'rdi, chunonchi, bir tarafida keskir qilichlar olov sochardi, boshqa tarafida esa qonxo'r daryo turardi. Hech bir tomondan chiqib ketishning iloji yo'q edi. Noiloj jangga kirishdi. Bahodirlik otini kurash maydoniga solib, totor kofirlardan ko'pini halokat tuprog'iga qordi va hech bir kulfatsiz jang qildiki, agar Rustami doston tirik bo'lganda, unga bo'lgan muhabbat yopig'ini o'z yelkasiga solgan bo'lardi. Agar kumushtan Isfandiyor bu jangni mushohada qilganda, uning xizmatida qullik lavozimini jon-u dili bilan qabul qilgan bo'lardi¹».

Chingizxon Jaloliddinni tiriklayin qo'lga olishga farmon berdi. Xorazm bahodiri yetti yuzta mard yigitlari bilan jang maydoni o'rtasida arslonlardek jon berib jon olardi. «Qaysi tomonga ot choptirmasin, tuproqni qong bo'yardi. Agar bu jangni Zolning o'g'li ko'sa edi, u Sulton Jalol (uddin)ning qo'lini o'pgan bo'lardi²». Ammo Chingizxon lashkari hisobsiz edi. Uning jang maydonidagi lashkari hisobsiz edi. Uning jang maydonidagi asosiy kuchlari parokanda bo'lish arafasida turgandi. Biroq pistirmadagi 10 ming nafar saralangan lashkar jang oqibatini Chingizxon foydasiga hal qiladi. Sulton Jaloliddin vaziyatning g'oyat og'ir va mushkulligini hisobga olib, rafiqasi, onasi va farzandlarining dushman qo'lga tushishini istamay, ularni Sind daryosiga cho'ktiradi. Chunki o'sha kuni mo'g'ullar Jaloliddinning qo'lga tushirilgan 7 yoshli o'g'lining yuragini tiriklayin sug'urib olgan edilar. O'zi esa qora to'riq otiga minib, so'nggi bora mo'g'ullarga hamla qilib, so'ng, oti jilovini orqaga tortadi; Sovutini yelkadan tashlab, otiga qamchi bosadi va balandlikdagi qoyadan o'zini Sind daryosiga otadi.

¹ *Mirzo Ulug'bek*. To'rt ulus tarixi. 182-bet.

² O'sha asar. 182-bet.

(Daryo qirg'og'idan to o'zan (suv)gacha o'n gazdan ortiqroq edi.) Jaloliddin daryoning narigi sohiliga o'tib oladi va ko'zdan g'oyib bo'ladi. Mirzo Ulug'bekning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Jaloliddinning orqasidan daryoning narigi qirg'og'iga uning yana yetti jangchisi birga suzib o'tadi. Daryo qirg'og'iga kelib, bu voqeani kuzatib turgan Chingizxon taajjub va hayratdan yoqasini barmoqlari bilan tutib: «Otadan dunyoda hali bunday o'g'il tug'ilmagan. U sahroda sher kabi g'olib jangchi, daryoda esa nahang (akula) kabi botir. Qanday qilsinki, hali hech kim taqdir bilan hech bir mojaroda teng kelolmagan. Lekin u mardlikning dodini berdi. Qazoyi qadar qarshisida qudrat qo'lini (mardona) ochdi. Mardlik bilan undan (qazo) qutulib bo'lmaydi. Nima qilsin-qilmasin bu ulug' xudo ishidir»¹, – degan edi.

Dushmandan omon-eson qutulgan Jaloliddin o'zining oz sonli askari bilan Shimoliy Hindistoning bir chekkasiga o'tib, omonatgina jon saqlashga majbur bo'lgan edi. Bundan xabar topgan Shatra viloyatining podshosi chaqirilmagan mehmonlarning og'ir ahvolidan foydalanib, ularni daf qilmoqchi bo'ladi va hujum uyushtiradi. Ahvolining tangligini hisobga olgan Jaloliddin tavakkal qilib, Shatra podshosini yakkama-yakka jangga chorlaydi. Bu jangda g'alabaga erishgan Sultonga Shatra podshosining mingta otliq va besh mingta yaxshi qurollangan jangchilari taslim bo'ladilar va uning tomoniga o'tadilar. Bu muvaffaqiyatdan so'ng, tevarak-atrofdagi yangi-yangi kuchlar Jaloliddinga kelib qo'shiladilar. Bu mamlakatning eng katta lashkarboshisi Shamsiddin Eltutmish ham umumiy dushman – mo'g'ullarga qarshi kurashmoq maqsadida, 30 ming otliq va 100 ming piyoda asl qurol tutgan askarlarini olib, Jaloliddin huzuriga keladi. Lashkarboshi ixtiyorida 300 ta fil ham bor edi. Shu tariqa Jaloliddin Hindiston shimolida katta davlat barpo etadi, o'z nomidan kumush va mis tangalar zarb ettiradi, o'zi egallab turgan hududda soliq siyosatini joriy qiladi. U o'z davlati chegaralarini kengaytirib, kuch to'plab, so'ng, mo'g'ullar bilan hisob-kitobni bir yoqlik qilishni qalbining to'riga tugib qo'yadi. Jaloliddin Manguberdi ana shu maqsadda, o'zining dastlabki harbiy yurishlarini Iroqda lashkar tortishdan boshlaydi. Tez orada Iroq va Eronning obro'li xon va beklari Jaloliddin tomoniga o'tadilar. Misr va Suriya davlatlari ham Sultonga elchi yuborib, u bilan birga qo'shilish istagini bildiradi.

¹ *Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. 183–184-bet.*

1226-yilgacha Jaloliddin Ozarbayjon va Gurjistonni jang bilan egalaydi.

Mo'g'ullar Sulton Jaloliddinni ta'qib qilishda hamon davom etar edilar. Shu maqsadda, ular Ray shahriga hujum uyushtirdilar, 1227-yil 5-sentabrda Sulton Jaloliddin Isfahon yaqinida Eronni mo'g'ullardan himoya qilib, jangga kiradi va ular ustidan tarixiy g'alabaga erishadi. Bu jangda mag'lubiyatga uchragan mo'g'ullarning mashhur lashkarboshilaridan biri sanalgan Taynal no'yon Chingizxon o'rdasiga qaytar ekan, Jaloliddinni o'z davri-ning chinakam pahlavoni, podsho va lashkarboshilarning dohiysi deb baho bergan edi.

1227-yilda Chingizxon vafot etgandan so'ng, biroz muddat chingiziylar o'z ichki ishlari bilan ovora bo'lib qoladilar va hatto, ular Jaloliddin bilan yaqinlashishga qaror qiladilar.

1230-yilda Sulton Jaloliddin Hirot shahrini qamal qilib turgan kezzar (taxminan aprel oyi)da singlisi Xonsultondan (Jo'jiga xotin bo'lgan, undan farzandi ham bor edi) xat oladi. Xatda quyidagilar yozilgan edi: «Sizning kuchingiz, sizning qudratingiz va mulk-aringizning kengligi to'g'risidagi xabar xon qulog'iga yetdi. Shuning uchun, u siz bilan qarindosh tutinishga hamda sizlarning mulklaringiz Jayhun daryosi bilan chegaralanishi to'g'risida kelishib olishga ahd qildi: daryogacha bo'lgan barcha mulklar sizniki, daryo ortidagi mulklar uniki bo'ladi. Shuning uchun, agar siz ularga (mo'g'ullarga) qarshi turish uchun kuch topsangiz, o'ch oling, ularga qarshi jang qiling, yengsangiz, istaganingizni qilasiz. Yo'qsa, agar ular shuni istab turgan ekan, shundan foydalanib, ular bilan yarashing»¹. Jaloliddin bu xatni javobsiz qoldiradi. Ammo nachora, taqdir o'yini Jaloliddinga kutilmaganda oyoq ostidan yana bir dushmani dunyoga keltiradi. Kichik Osiyodagi Ani Sultoni Alovuddin Qayqubod o'z ixtiyori bilan Jaloliddinga kelib qo'shilgan bo'lsa-da, u bilan o'zaro kelisha olmaydi va Jaloliddinga qarshi fitna tayyorlaydi. Bu fitnaga Kichik Osiyodan tashqari, Shom (Suriya), Shimoliy Mesopotamiya kabi davlatlar va boshqa bir qator shaharlarning hukmdor va beklari ham qatnashadilar. Jaloliddin bu fitnani nazar-pisand qilmaydi va e'tibor bermaydi. Jaloliddin bilan fitnachilar qo'shinlari o'rtasidagi jang 1230-yil 10-avgustda bo'lib o'tadi. Unda Jaloliddin qo'shinlari katta mag'lubiyatga uchraydi va u kichik bir guruh qo'shin bilan

¹ Буниятов З.М. Государство Хоразмшахов – Ануштегинидов. Стр.169.

Ozarbayjon hududlariga chekinadi. Kuchsizlanib qolgan Jaloliddinni uning eski raqibi mo'g'ullar qo'li bilan yo'q qilishga qaror qilgan Ozarbayjondagi ismoiliylar hukmdori Alovuddin Muhammad III mo'g'ullarga yashirin maktub yo'llaydi. Unda Jaloliddin tormor qilinganligi va uning qo'shinlari juda oz sonli ekanligi xabar qilindi. Mo'g'ullar Xorazm bahodirini qo'lga olish uchun maxsus katta qo'shin jo'natadilar. Jaloliddinning o'z a'yonlari va yaqinlari o'rtasida ham e'tibori keta boshlaydi. Hatto, uning bosh vaziri Sharof al-Mulk ham unga qarshi fitna uyushtiradi. Uning xatlaridan biri Jaloliddin qo'lga tasodifan tushib qoladi va u Sharof Al-Mulkni qatl etadi. Xorazmshoh Jaloliddin asta-sekin o'zining barcha bor-u bisoti va mulkidan ajraladi. Ular o'zlariga mustaqillik olib, Jaloliddinni tark etadilar. Taqdir undan yuz o'girganligiga chiday olmagan Sulton maishatparastlik va ichkilikka beriladi.

1231-yilning avgustida tunda mo'g'ullar Jaloliddin Manguberdi qo'rasiga hujum qiladilar va shirakayf holatda yotgan Sultonni qo'lga olib, otga bog'lab olib qochadilar. Yo'lda o'ziga kelgan Jaloliddin qo'lini bo'shatib, yonidagi mo'g'ul askarining qilichini tortib olib ular bilan jang qiladi va ulardan o'zini ozod qiladi. Yolg'iz qolgan Jaloliddin Manguberдини endi kurd qaroqchilari qo'lga oladilar. U o'zini qaroqchilarning boshlig'iga tanishtirishga majbur bo'ladi: «Meni shu yaqindagi bek qo'lga topshirsang, ayniqsa, Shahobiddin G'ozni mulkiga eltsang, katta mukofot olasan, mening o'zim seni mingboshi qilib qo'yaman» deydi. Bu taklifga qaroqchilar boshlig'i rozi bo'lib, Jaloliddinning qo'lini bog'lab, xotinini unga qorovul sifatida qoldirib, ikkita ot olib kelish uchun qo'shni qishloqqa ketadi.

Shu payt qo'lida nayza ushlagan bir kurd paydo bo'ladi. U qo'li bog'liq asirning kimligini qorovul ayoldan so'raydi. Ayol uning Sultonligini, eri qo'lga tushirganligini aytadi. Kurd esa bunga ishonmaydi. Uning akasini xorazmiylar Hirot qamali chog'ida o'ldirgan edilar. Shu bois, akasining o'chini olish maqsadida, qo'li bog'liq qurolsiz mahbusning ko'kragiga nayza sanchadi va o'ldiradi.

Bu g'oyatda alamli dramatik fojia 1231-yil 17–20-avgustlar orasida sodir bo'lgan. Ulug' vatandoshimiz Jaloliddin Manguberding ayanchli taqdiri ana shu tariqa, o'z poyoniga yetadi. Uning jasadi Mayafariqinga keltiriladi. Bu yerda uni Al-Malik va Al-Muzaffar hukmdorning vaziri bo'lgan amakisi O'tirxon taniydi.

Xorazmshoh Jaloliddin Manguberding jasadi tunda Mayafariqinga yaqin joyda dafn etiladi. Uning qabrini hech kim haqorat qilmasin degan maqsadda u yer tekislab yuboriladi.

Tarixiy manbalarda Jaloliddin Manguberdi to'g'risida ham ijobiy, ham salbiy ma'lumot va xabarlarini uchratish mumkin. Ammo o'z davrining ulug' davlat arbobi, buyuk lashkarboshisi haqida kim, qanday va nima deb yozishdan qat'i nazar, Jaloliddin Manguberдини hech kim An-Nasafiychalik yaxshi bilmagan va uning haqida bundan ortiqroq narsa yoza olmas edi, yoza olgan ham emas. An-Nasafiyning o'zi kim? Nasafiy Muhammad Ibn Ahmad Ibn Ali (tug'ilgan-yili noma'lum – 1249-yilda vafot etgan) tarixchi olim, Xuroson qal'asi (Ashxobod yaqinida) hokimi (1219–1221) bo'lgan. U mo'g'ullarga qarshi faol kurash olib borgan. Nasafiy 1224-yildan boshlab, Jaloliddinning shaxsiy kotibi bo'lgan, uning mo'g'ullarga qarshi va boshqa harbiy yurishlarida bevosita ishtirok etgan. Nasfiy 1241-yilda arab tilida «Siyrat Us-Sulton Jaloliddin Manqburni» («Sulton Jaloliddin Manguberding hayot yo'li») asarini yozgan. Bu asar XIII asrda fors tiliga tarjima qilingan, uning arabcha nusxasi Parij, Qohirada va forscha nusxasi Tehronda, ruscha tarjimasini Bokuda nashr etilgan. Ushbu asar asosida Z.M. «Anushtegin – Xorazmshohlar davlati» (1097–1231) asari dunyoga kelgan.

An-Nasafiy o'zining yuqorida nomi tilga olingan asarida Jaloliddin Manguberding haqqoniy qiyofasini, ichki kechinmalarini atroflicha, to'laqonli tasvirlab beradi: «...Yomg'ir maydalab urib yog'moqda. Sovuq yoqimsiz shamol esmoqda. Sulton o'z qo'shini bilan Hirot jangidan (1230) qaytmoqda. Oyning mo'ralashida ko'zim Sultonga tushib qoldi. Sultonning ko'zlaridan tinmay yoshlar oqar, u bir nimalarni pichirlar edi. Diqqat bilan quloq soldim. Shunday so'zlarni eshitdim... «E, yaratgan Alloh! Nega meni oddiy cho'pon yoki dehqon qilib, yaratmasdan Sulton qilib yaratding. Ne gunohim uchun menga tinchlik bermaysan. Ne qilmishlarim uchun meni buncha quvg'inlikka duchor qilgansan. Na turmushimda, na yurishimda halovat bor»¹.

Shahobiddin an-Nasafiy (an-Nasaviy) o'z asarida Jaloliddin Manguberding shaxsiy fazilatlarini va xususiyatlarini oddiy va sodda ifodalay olgan: «U turk bo'lib, qora mag'iz yuzli, burni oldida qora xoli bor, o'rta bo'yli yigit edi. Fors tilida ham bemalol so'zlasha olar edi. U dovyuraklikda tengi yo'q, sherlar ichida sher edi. U kamtarin, jiddiy odam bo'lib, hech qachon baqirmas, so'kinmas, o'z atrofidagilar oldida o'zini juda yaxshi, sipo tutar edi. U ko'p gapir-

¹ Шахобиддин ан-Насафий. Жизнеописание султана Джалал ад-Дина манбурни Б., «ФЭИ», 1975, 193-стр.

mas, xoxolab kulmas, ahyon-ahyonda jilmayar edi. U adolatni hurmat qilar, o'z fuqarolariga nisbatan, adolatli bo'lishga intilar edi. U o'z xalqining mushkul ahvolini yengillashtirishni yaxshi ko'rar edi. Biroq u yashagan to's-to'polon davr unga bunday xayrli savob ishni amalga oshirishga imkon bermadi. U hukmronlik qilgan davrdagi suronli voqealar uni zo'ravonlik ishlatishga majbur etib, uning tabiatini ma'lum darajada o'zgartirdi. Sulton Jaloliddin eng og'ir, murakkab sharoitlarda ham qat'iy tura oluvchi, eng qiyin sinovlardan ham sira qo'rqmaydigan, ularga befarq qarovchi odam edi»¹.

Albatta, Muhammad an-Nasafiydan o'tkazib, ortiqroq bir gap aytib, Jaloliddin to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. Biz shu narsani ayta olamizki, xalqimiz ona Vatanni Jaloliddindek sevuvchi farzandlari bo'lganligi bilan faxrlanadi. Ammo biz qizil saltanat davrida millatimizning g'ururi, erk, ozodlik va mustaqillik uchun kurashda jonini tikkan Jaloliddin Manguberdi singari o'g'lonlarining nomlarini tilga ololmas edik. Mashhur shoir va adib Maqsud Shayxzoda «Jaloliddin Manguberdi» pyesasini yozganligi uchun ta'qib ostiga olingan edi. Chunki zukko shoir Jaloliddin Manguberdi tilidan o'z ona xalqiga quyidagicha murojaat qilgan edi-da!

*Ulug' davlat tiz cho'kmas, botir yo'lbormas,
Chinor sinar, egilmas, bedov ot hormas.
Bu dunyoda onasiz tug'ilgan kim bor
Jon berganga jon bermoq, mardlarga darkor.
Onamizning onasi bo'lsa shu Vatan –
Ko'rlik afzal bu yurtli asir ko'rmoqdan.*

Mustaqillik yillarida O'zbekiston hukumati Jaloliddin Manguberdining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko'rsatgan mislsiz jasorati, vatanga va o'z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida, «Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800-yillicini nishonlash haqida» qaror qabul qildi (1998-y.). Qarorga ko'ra, uning yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o'rnatildi, yirik ko'cha, maydon, jamoa korxonalari va b.ga uning nomi qo'yildi. Jaloliddin Manguberdi haqida videofilm, doston, pyesa va b. yaratildi. Jaloliddin Manguberdi ordeni ta'sis etilgan (2000-yil 30-avgust.).

Prezidentimiz Islom Karimov Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi munosabati bilan 1998-yili bu siymoning «o'lmas

¹ Шахобуддин ан-Насафий. Жизнеописание султана Желал ад-дина манбурны Б. «ФЭН», 1975. 296–297-бет.

ibrati bugungi kunda ham yurtimizning tinchligi, xalqimizning omonligi, sarhadlarimizning daxlsizligini ko'z qorachig'iday asrab kelayotgan dovyurak askarlarimiz el-yurt posbonlari, jasur o'g'lonimiz shijoatida namoyon bo'layotgani»ni katta faxr bilan qayd qilgandi.

7. MO'G'ULLAR ISTILOSIDAN KEYINGI DAVRDAGI SIYOSIY, IJTIMOY VA IQTISODIY VAZIYAT

Mo'g'ullar istilosidan keyingi Movarounnahr va Xorazmdagi hayotni so'z bilan ifodalash g'oyatda og'ir. O'lkaning gullab turgan shahar va qishloqlari bamisoli kultepaga aylanadi, hayot izdan chiqadi, bir vaqtlar aholi gavjum bo'lgan vohalar bo'm-bo'sh bo'lib qoladi. Hali Chingizxon hayotligi chog'idayoq o'zi bosib olgan hududlarni farzandlari o'rtasida taqsimlab beradi. To'ngich o'g'li Jujiga Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil (Volga) bo'yi, Shimoliy Xorazm va Darbandgacha bo'lgan yerlar tegadi. Jo'ji vafotidan so'ng, bu yerlar uning o'g'li Botuxonga o'tadi. Ikkinchi o'g'il Chig'atoyxonga Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Movarounnahr, Xorazmning janubiy (markazi Qiyot shahri) hududlari, shuningdek, Balx, Badaxson, Qobul, G'azna va Sind daryosigacha bo'lgan yerlar beriladi. Uchinchi o'g'il O'qtoygga Chingizxon o'zining kindik qoni tomgan vatani Mog'ulistonni va Xitoyni hadya qiladi. Kenja o'g'li Tuluga esa Xuroson bilan Eron tegadi. Chingizxon lashkarlarni ham farzandlari o'rtasida taqsimlab beradi. Ana shu tariqa, mo'g'ullar zabt etgan bepoyon hududlarni uluslarga bo'lib, *udel* asosida boshqara boshlaydilar. Uluslar markaziy davlatga – xonlar xoni «xon» yoki «xoqon»ga bo'ysunar edi. Uluslar hokimi esa «xon» deb atalgan. Chingizxon vafotidan so'ng, xonlar xoni – xon O'qtoy bo'lgan. Ulug' xonning poytaxti Qoraqurum shahri edi.

Movarounnahr va Xorazmning janubiy hududlari Chig'atoy ulusiga qarashli bo'lib, XIV asrning 40-yillariga qadar mavjud edi. Ulus poytaxti Beshbaliq shahri bo'lgan. Mo'g'ullar madaniy taraqqiyotda o'lkamizning yerli xalqlariga nisbatan juda qoloq edilar. Ularning bunday bepoyon va katta hududdagi mamlakatni boshqarish tajribalari yo'q edi. Shu bois, mo'g'ullar mahalliy xalqlarning zodagon vakillari xizmatidan foydalanishga majbur edilar. Ana shunday zodagonlardan biri bo'lgan xorazmlik savdogar Mahmud

Yalavochni Movarounnahrni bevosita idora qilish topshirilgan. U o'ziga poytaxt qilib, Xo'jand shahrini tanlagan.

Mo'g'ullar Mahmud Yalavochni boshchiligida o'lkadagi xalqlardan turli xildagi soliqlarni undirar edilar. «Kalon» deb ataluvchi soliq dehqonlardan olinadigan asosiy soliq edi va u hosilning 1/10 qismini tashkil etgan. Chorvadorlardan «Qopchur» solig'i olingan. Bu soliq turining miqdori har yuz bosh qoramoldan birga teng edi. Bundan tashqari, «Yaso» qonuni bo'yicha, aholidan davlat foydasiga «Shulsi» deb atalgan soliq undirilgan. «Shulsi»ning miqdori har bir podadan ikki yashar qo'y va qimiz uchun har ming otdan bir biyani tashkil etgan. Bular ham yetmaganday, mamlakatdagi savdo yo'llarida joylashgan bekat – «Yom» (jom)larning xarajatlari ham aholi gardaniga qo'yilgan. Ularning miqdori shu darajada ko'payib ketar ediki, ba'zi hollarda har bir «yom» uchun 20 ot-ulov, so'yish uchun qo'ylar, sog'ish uchun sog'uvchisi bilan biyalar, aravalar va boshqa sarf-harajatlar ajratilgan. Yuqorida sanab o'tilgan soliqlardan tashqari, xalq ommasini yana mahalliy to'ralarning zulm va sitamlaridan ham azob va zahmat chekadilar. Ana shu tariqa, aholi mo'g'ullar bosqinidan so'ng, ikkiyoqlama zulm iskanjasida qiynaladi. Bosqinchi mo'g'ullarning va mahalliy zodagonlarning zulm va sitamlariga qarshi xalq bir necha bor kurashga ko'tariladi. 1238-yilda Buxoroga yaqin Torob qishlog'ida ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni ana shunday qo'zg'olonlardan biridir. Bu qo'zg'olon tez orada Buxoro va uning atroflaridagi qishloqlarga yoyiladi. Unda mehnatkash dehqonlardan tashqari, hunarmand va kosiblar ham qatnashadilar. Qo'zg'olonga Torob qishloqlik g'alvir ustasi, hunarmand Mahmud boshchilik qiladi. U mo'g'ullarga qarshi ozodlik, erk uchun, mahalliy zodagonlar va boylarga qarshi adolat va haqiqat uchun kurash bayroqchisi sifatida ona tariximizga kiradi. Mahmud Torobiy qo'zg'olonini mo'g'ullardan norozi bo'lgan Buxoro ruhoniylarining boshlig'i Shamsiddin Mahbubiy ham qo'llab-quvvatlaydi va qo'zg'olonchilarga qo'shiladi. Qo'zg'olonchilar mo'g'ul lashkarlarini Buxoro ostonalarida tor-mor keltiradilar. Mag'lubiyatga uchragan mo'g'ullar Karmanaga chekinadilar va Xo'janddan Mahmud Yalavochni yordamini kutadilar. Qo'zg'olonchilar safi kengayib boradi. Karmana ostonalarida qo'zg'olonchilar bilan mo'g'ullar o'rtasida qattiq va shiddatli jang bo'ladi. Bu jangda mo'g'ullardan 10 ming kishi o'ldiriladi. Ammo qo'zg'olonchilarning rahbari Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiylar ham jangda halok bo'ladilar. Bu

qo'zg'olon istiqboli uchun katta yo'qotish edi. Mahmud Torobiyning ukalari Muhammad va Ali qo'zg'olonga rahbarlikni o'z qo'llariga olgan bo'lsalar-da, ular yoshlik va tajribasizlik qiladilar. Xo'janddan yetib kelgan Mahmud Yalavoch qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi va uning qatnashchilaridan ayovsiz o'ch oladi. Qo'zg'olon ishtirokchilaridan 20 ming kishi qirib tashlanadi. Buxoro va uning atroflarida yana mo'g'ullarning Chig'atoy ulusi hukmronligi tiklanadi. Ammo qo'zg'olon xalq ommasining kelgindi bosqinchilar zulmidan sabr kosasi to'lib-toshganligini ko'rsatadi. Bu qo'zg'olon xalq ommasining bir yoqadan bosh chiqarib hamjihatlik bilan kurashga otlansa, mo'g'ullarni Vatan tuprog'idan haydab chiqarib, o'z ozodligi va mustaqilligini qo'lga kiritishi mumkin ekanligini aniq-ravshan namoyon etadi.

Mahmud Torobiy qo'zg'oloni bahonasi bilan markaziy hokimiyatdan Chig'atoy – Movarounnahr hukmdori Mahmud Yalavoch chetlashtiriladi. Unga qo'zg'olonni bostirishda sustkashlik qilganligi aybi qo'yiladi. Yalavoching o'rniga uning o'g'li Mas'udbek 1289-yilgacha Movarounnahrda hukmronlik qiladi. Mahmud Yalavoch ulug' qoon O'qtoy huzuriga yetib borgach, u Dasin (Pekin) shahriga hokim qilib, tayinlanadi va 1250-yilgacha, ya'ni vafotiga qadar shu lavozimda turadi.

Shu narsa alohida e'tiborga loyiqki, mo'g'ullar Movarounnahrda qariyb bir yarim asr mobaynida hukmronlik qilgan bo'lsalar, shu davr mobaynida biror muddat bo'lsa-da, tinchlik-osoyishtalik va barqarorlik bo'lgan emas. Chingizxon nasli namoyandalari, shuningdek, boshqa mo'g'ul qabila va urug' zodagonlari markaziy va udel hokimiyatlari uchun talashib, boylik, yer, davlat hirs-u havasi bilan bir-birlariga qarshi ayovsiz va shafqatsiz kurash olib bordilar. Bu kurash va taraskashliklarning azobini esa oddiy mehnatkash xalq tortdi.

Saltanat birligini buzishga qaratilgan harakatlarning dastlabki ko'rinishlari hali Chingizxon hayotligi chog'ida ko'zga tashlangan edi. O'shanda Chingizxon o'z o'g'li Jo'jidan shu darajada qattiq g'azablangan ediki, ota-bola o'rtasida qonli to'qnashuv bo'lishiga oz fursat qolgan edi. Faqat Jo'jining bevaqt o'limi tufayli bu dahshatli hodisa ro'y bermaydi. Jo'ji vafot etgach, uning o'g'li Botuxon bilan O'qtoyning o'g'li Quyuqxon o'rtasida kurash keskinlashadi. To'satdan Quyuqxon dunyoni tark etadi (1249) va yana ikki o'rtada urush bo'lmaydi.

Xullas, 1251-yilda Qoraqurumda chaqirilgan qurultoy chingiziylar o'rtasidagi ziddiyatlarni bir yoqlik qilishi kerak edi. Unda Chig'atoy va O'qtoy avlodlari fitna uyushtirishda ayblanib qo'lga olinadilar. Qurultoydan so'ng, ularning qarindosh-urug'laridan 77 amir qatl etiladi. Qurultoyda Botuxon va uning ukasi Berkaxonning qo'llab-quvvatlashi natijasida Tuluxonning bosh farzandi Munqa ulug' xoqon (1251–1259) etib saylanadi. Munqa davrida Chig'atoy ulusi tugatiladi. Ulus yerlari Munqa va Botuxon o'rtasida o'zaro taqsimlanadi. Faqat Chig'atoyning nabirasi Olg'uxon Oltin O'rdaga qarshi keskin choralar ko'rib, 60-yillarda Chig'atoy ulusini qaytadan tiklashga muvaffaq bo'ladi.

Yuqoridagi voqealar shuni ko'rsatadiki, buyuk mo'g'ul davlati faqat nomigagina bor edi, xolos. Amalda esa har bir ulus o'zicha mustaqil bir xonlik davlat edi va ular bir-birlariga nisbatan, zimdandan ish tutardi. Qulay bir fursat keldi deguncha ular bir-birlariga urushlar e'lon qilar, bir-birlarining mol-mulklarini talar edilar. Jumladan, 1272-yilda Eron taxtini boshqargan Tuluxonning ukasi Haloquxonning lashkarlari Oqbek boshchiligida Chig'atoy ulusi bo'lmish Movarounnahrda bostirib kirib, Naxshob va Kesh shaharlarini talab, vayron qiladilar. 1273-yilda bunday ko'rgulik Buxoroning boshiga ham tushadi. Shahar talanadi va vayron qilinadi. «Mas'udiya madrasasi» va nufuzli kutubxona yondiriladi. Olg'uxon tomonidan yuborilgan uning Cho'loy va Qopon ismli o'g'illari Buxoroga yordam berish o'rniga shaharni talash va qirg'in qilish bilan shug'ullanadilar. Natijada, Buxoro shahri bir necha yillar mobaynida bamisoli jonsiz qo'rg'onga aylanib qoladi.

XIII asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran, Chig'atoy muridlarining ma'lum bir qismi: ilg'or zodagonlar, savdogarlar va boshqalar madaniy jihatdan o'zlariga qaraganda, ancha rivoj topgan mahalliy xalq ta'sirida o'troq hayot kechirishning afzalligini tushuna boshlaydilar. Bunda albatta, mahalliy hukmdorlar ba'zi bir vakillarining olib borgan tadbirkorlik siyosati ham ma'lum darajada ijobiy o'rin tutgan. Bu borada Chig'atoy ulusining vakillaridan Qayduxon va mahalliy hukmdorlardan Mas'udbeklarning nomlarini tilga olish joizdir. Talos vodiysida Chig'atoy ulusining xoni bo'lgan Qaydu 1269-yilda mo'g'ul shahzodalari va no'yonlarining qurultoyini chaqiradi. Unda qurultoy qatnashchilari «bundan keyin tog' va cho'llarda yashashga, shahar atroflarida manzil qurmaslikka, chorva mollarini ekinzorlarda o'tlatmaslikka va bekordan-bekorga jarima va soliqlar olmaslikka», qaror qiladilar.

Movarounnahr hukmdori Mas'udbek esa shaharlarning ichki hayotini yaxshilashga katta e'tibor beradi, tovar-pul munosabatlari-ni tiklash maqsadida, pul islohoti o'tkazadi. U o'lkaning 16 shahar va viloyatlarida, jumladan, Samarqand, Buxoro, Naxshob, Taroz, O'tror, Xo'jand va boshqa shaharlarda bir xil vazn va o'lchovlarda yuqori qiymatga ega bo'lgan sof kumush tangalar zarb ettirib, muomalaga kiritgan. Bu ko'rilgan tadbirlar natijasida sekin-astalik bilan hayot jonlana boradi, hunarmandchilik, savdo va dehqonchilik yana izga tusha boshlaydi. Yozma manbalarga qaraganda, Chig'atoy xonlaridan bo'lgan Duxoxon davri (1291–1306)da Andijon shahriga asos solingan. Chig'atoy avlodlari o'troq madaniy hayotga intilib, o'zlari ham har tomonlama taraqqiy etadilar va asta-sekin mahalliy xalqlar bilan chatishib, qo'shilib, qorishib ketadilar. Ular o'z hokimiyatlarini mustahkamlash maqsadida, islom dinidan foydalanadilar va uning keng tarqalishiga yordam beradilar. Chig'atoyning nabirasi Muborakshoh (1264) mo'g'ul hukmdorlaridan birinchi bo'lib islomni qabul qilgan.

O'troq hayot tarzini afzal ko'rgan va islom diniga xayrixoh bo'lgan Chig'atoy ulusi xonlaridan biri Kepakxon (dastlab, 1309; ikkinchi bor 1318-1326) edi. U Tuvaxonning o'g'li bo'lib, qadimgi Nasaf shahridan janubroqda o'ziga saroy qurdiradi, bu joy Qarshi nomi bilan tarixga kiradi va Kepakxon davlatining poytaxti bo'ladi. Poyon Ravshanovning fikricha, Qarshi sarhadi kengayib, shu yillarda Naxshob va Nasaf ham uning tarkibiga kirib, qo'shilib ketadi. «Qarshi» so'zining ma'nosi to'g'risida adabiyotlarda har xil talqinlar bor. «Saroy» mo'g'ul tilida «qarshi» (A. R. Muhammadjonov, «O'zbekiston tarixi», 174-bet) deb ataladi. «Qutadg'u bilig» dostonida «qarshi», so'zi ikki xil ma'noda talqin etiladi. Biri - «saroy», ikkinchisi – «qarama-qarshi turish» ma'nosi (636-bet)da. Zahiriddin Muhammad Bobur esa «Boburnoma»da: «Yana Qarshi viloyatidirkim, Nasaf va Naxshob ham derlar. Qarshi mo'g'ulcha ottur, go'rxonani mo'g'ul tili bila qarshi derlar. G'olibo bu ot Chingizxon taxallusidan so'ng, bo'lg'ondur» (T.: 1960, 108-bet), deb yozadi.

Qashqadaryo vohasi toponimikasini atroflicha o'rgangan tilshunos olim To'ra Nafasov ham «Qarshi» so'zining ma'nosini chuqur o'rgangandan so'ng, uning qadimgi turk so'zi bo'lib, shahar nomi sifatida «qasr», «saroy» ma'nosida¹ ekanligini qayd etadi.

¹ *Нарасов Т.* Топонимы Каникадарьинской области. АКД. Т.: 1963, 8 стр.

Kepakxon Qarshida o'zining hukmronligi davrida davlatni idora qilish, iqtisodiy hayotni tartibga solish maqsadida, ma'muriy va pul islohotlarini o'tkazadi. U davlatni viloyatlarga, ya'ni mo'g'ulcha «tumanlar»ga bo'ladi, mahalliy hokim va beklarga moslashtirib idora uslubida olib boradi.

Kepakxon mamlakatda ichki savdo-sotiqni tartibga solish, xoriy davlatlar bilan tashqi savdo aloqalarini yaxshilash maqsadida, ikki xil pul birligini yo'lga qo'yadi. Yirik kumush tangalar – dinor, mayda kumush tangalar – dirham, deb yuritilgan va ularning har ikkalasiga ham bir xil nom – «kepaki» berilgan edi. Bu pul birligi hatto, temuriylar davrida ham aholi o'rtasida muomalada bo'lgan.

Chig'atoy ulusi hukmdorlari davrida yerga egalik qilishning to'rt xili mavjud edi: birinchisi mulki devon deb atalib, bu davlatga qarashli yerlar edi; ikkinchisi mulki inju – xon noiblari va ularning avlod-ajdodlariga qarashli yerlar. Uchinchisi mulki vaqf – masjid, madrasa, xonaqo, mozor va maqbaralarga qarashli yerlar. To'rtinchisi – xususiy mulk yerlari. Yerlar va mulklarning kattagina qismi harbiy zodagonlarga, xon oldida alohida xizmatlari bo'lgan shaxslarga «iqto'» va «suyurg'ol» yer-mulklari tarzida bo'lib berilgan. Ular «iqto'dorlar» va «suyurg'ol egalari» deb atalib, har qanday soliq, oliq va to'lovlardan ozod qilinganlar. Yirik yer egalari mulklarida qaram bo'lib qolgan mayda dehqonlar «kadi-varlar» deb yuritilgan va ular o'z xo'jayinlariga qarashli bo'lgan yerlarga hosilning 1/3 evaziga koranda bo'lib, ishlab berar edilar.

XIV asrning 40-yillaridan e'tiboran, Qarshi shahri mo'g'ul xonlaridan bo'lgan Qozonxonning poytaxtiga aylanadi. U Kesh-Samarqand hududlari oralig'ida «Zanjir saroy» nomi bilan ma'lum bo'lgan saroy barpo qiladi. 1347-yilda Qozonxon mahalliy turk zodagonlari tomonidan qattiq mag'buliyatga uchraydi va Qozog'on tomonidan o'ldiriladi. Ana shu tariqa, Chig'atoy sulolasi hukmronligi barham topadi.

1269-yilda Chig'atoy ulusi ikki qismga: Yettisuv, Fargonaning sharqiy qismi, Sharqiy Turkistondan iborat Mo'g'ulistonga va G'arbiy ulus, ya'ni Movarounnahrda bo'linib ketgan edi. «Xorazmning sharqiy qismi ham G'arbiy ulusga qaragan»¹. 1348-yildan boshlab,

¹ Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: «O'qituvchi», 1994.

Movarounnahr, ya'ni Chig'atoy ulusi yerlariga hukmronlik qilish mo'g'ullardan bo'lgan Tug'lug' Temurga, 1363-yilda uning vafotidan so'ng esa o'g'li Ilyos Xo'ja ixtiyoriga o'tadi.

1340–1370-yillar mobaynida Movarounnahrda fitna, feodal tarqoqlik va o'zboshimchalik shu darajada kuchayadiki, mo'g'ullar mahalliy hukmdorlar ustidan umuman nazoratni eplay olmaydilar, har bir viloyat, tuman va shahar amalda o'ziga-o'zi bek, o'ziga o'zi xon edi. Jumladan, Chig'atoy ulusining g'arbiy qismida, asosan, turk-mo'g'ul qabila boshliqlari hukmron bo'lib, ular markaziy qoonga bo'ysunmas edilar. Bu hol ulug' xonlarning viloyatlar ustiga lashkar tortishiga sabab bo'lardi. Kesh va uning viloyatida Hoji Barlos, Xo'jand viloyatida Boyazid Jaloir, Balx viloyatida 1358-yilda ovda o'ldirilgan turk amiri Qozog'onning nabirasi amir Husayn, Xuttalonda Kayxusrav hukmron edi. Xullas, XIV asrning 50-yillari oxirlarida Movarounnahrda hukm surgan feodal tarqoqlik va beboshliklardan xalq ommasi to'yib ado bo'lgan edi.

8. XIII ASR – XIV ASRNING BIRINCHI YARMIDA MADANIY HAYOT

Mo'g'ullar bosqini o'lkamizning moddiy va ma'naviy madaniyati taraqqiyotini bir necha yuz yillar orqaga surib yubordi. Asrlar davomida xalqimizning aql-zakovati bilan bunyod etilgan go'zal shahar va qishloqlar, osmono'par tarixiy qurilish obidalari, binokorlik va me'morchilik san'atining nodir va betakror nusxalari yer bilan yakson qilindi, ularning kuli ko'kka sovurildi. Ayniqsa, ma'naviy merosimiz ko'rgan zararni til bilan ifoda etish qiyin. Yozma manbalar, nodir kitoblar yondirildi, oyoq ostlarida toptaldi. Mo'g'ullar fan va madaniyat arboblari, olim-u fuzalolar, shoir va yozuvchilar – xalqimizning ming-minglab ulug' farzandlarini yoppasiga qirib tashladilar yoki qul qilib, asir sifatida Mo'g'ulistonga olib ketdilar. Madaniy hayotga shu qadar katta zarba berildiki, uni XIV asrning yarmilariga qadar ham tiklab bo'lmadi.

XIII asrning ikkinchi yarmida va XIV asrning boshlaridan e'tiboran, shahar va qishloqlarda xo'jalik hayotining jonlanishi bilan madaniy sohada ham ba'zi bir tarmoqlarning oyoqqa tura boshlashi

ko'zga tashlanadi. Bu shaharsozlik binokorlik va me'morchilikka aloqador bo'lgan sohalaridir. Shu davrda Movarounnahr va Xorazmda qad ko'targan va bizning kunlargacha yetib kelgan tarixiy san'at obidalarini misol tariqasida ko'rsatib o'tish mumkin. Buxoro shahridagi Sayfiddin Boharziy, Bayonqulixon maqbaralari, Samarqanddagi Shohizinda ansamblining Qusam Ibn Abbos maqbarasining ziyoratxonasi, ko'hna Urganchdagi Najmiddin Kubro va To'rabek xonim maqbarasi, Xo'janddagi (keyinchalik, u xarob bo'lgan) Duvoxon maqbarasi va boshqalar ana shular jumlasidandir. XIII asr o'rtalarida Buxoroda qurilgan «Mas'udiya» va «Xoniya», deb nomlangan ajoyib ikkita madrasa binosi va Ko'hna Urganchdagi balandligi 62 metrga teng bo'lgan ulkan qo'sh masjid dastasi ulug' xalqimiz moddiy madaniyatining buyuk namunasidir.

XIII asr va XIV asrning birinchi yarmida moddiy madaniyat bilan bir qatorda ma'naviy madaniyatda ham xalq o'z intilish va qiziqishlarini ifoda etganligini ko'ramiz. Bunda eng asosiy mavzu mo'g'ul bosqinchilarini la'natlash, unga nisbatan, cheksiz nafrat va oliyanob insoniy fazilatlar bo'lgan. Bu xalq og'zaki ijodida, yozma adabiyot na tarixiy asarlarda o'z ifodasini topdi.

Xalqimiz Chingizxon istilosiga nisbatan, o'z nafratini «Bo'ji keldi, bo'ji keldi, Chingiz bilan Jo'ji keldi», deb ifoda etgan. Xalq og'zaki ijodida bosqinchilarga qarshi kurashishni tasvirlovchi afsonalar, ertaklardan namunalar bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ana shunday xalq og'zaki ijodi durdonalaridan biri «Guldursun afsonasi»dir (Qoraqalpog'iston hududidagi Guldursun xarobasiga bag'ishlangan afsona). Bu afsonada Mo'g'ullarga qarshi qahramonlarcha jang qilgan xalq ommasiga, o'zining hirs-havasi yo'lida xalqiga, millatiga xoinlik, sotqinlik qilgan podshoning qizi Guldursun obrazi qarama-qarshi qo'yiladi. Uning sotqinligi tufayli shahar xarobaga, kultepaga aylanadi, xalq qirg'in qilinadi.

XIII asr va XIV asrning birinchi yarmida Movarounnahr va Xorazmda yozma adabiyot namoyandalarining o'z yurtlarida badiiy ijod bilan shug'ullanishlari uchun, umuman, hech qanday imkoniyat yo'q edi. Mo'g'ullar qirg'inidan tasodifan qutulib qolgan adiblar, yozuvchilar, shoir va olimlar o'z ona Vatanlarini tark etib, o'zga mamlakatlarga boshpana izlab bosh olib ketishga majbur bo'ladilar. Ularning ko'plari Hindiston, Eron, Turkiya, Misr va boshqa Yaqin

Sharq mamlakatlariga bosh olib ketadilar. Jumladan, buxorolik shoir, adib va adabiyotshunos Muhammad Avfiy, toshkentlik shoir Badriddin Chochiy, naxshoblik Ziyo Naxshabiy (Hindistonda), shoir Kamol Xo'jandiy, Nosir Buxoriy (Eronda) va boshqalar chet mamlakatlarda ijod qilganlar. O'rta Osiyodan borgan ijodkorlar boshqa mamlakatlarda bo'lsa ham o'z xalqlarining madaniyati va adabiyoti taraqqiyotiga xizmat qilganlar. Ayni vaqtda, ular og'ir paytlarda o'zlari uchun ikkinchi vatan bo'lib, qolgan mamlakat xalqlari madaniyati taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shadilar. Ularning ko'pchiligi bir necha tillarni bilar va shu tillarda ijod qilar edilar. Jumladan, asli balxlik Jaloliddin Rumi Kichik Osiyoga borib, fors-tojik va turk tillarida, Xusomiddin Osimiy fors-tojik turk va arab tillarida, Muhammad as-Samarqandiy turk, fors-tojik, arab va mo'g'ul tillarida asarlar yozadilar va hokazo. Bu davrda turkiy tilda ijod qilishga e'tibor, ayniqsa, kuchayadi. Natijada, turkiy tillarni tadqiq qiluvchi bir qator qimmatli asarlar paydo bo'ladi. Masalan, taniqli olim Abu Xayyon turkiy tillarni o'rganishga bag'ishlangan to'rtta asar yaratgan. Jumladan, 1313-yilda Qohirada «Kitob ul-idrok li-sonul atrok» («Idrok va turkiy tillar kitobi») asarini yaratgan.

Bu davrda badiiy ijod bobida qalam tebratgan so'z ustalarining kattagina guruhi so'fiylik – tasavvuf tariqati yo'lidan borganlar. Bu yo'nalishning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri, o'z davrining mashhur adibi Muslixuddin Sa'diy Sheroziy (1219–1293) dir. Sheroziyning «Guliston» va «Bo'ston» asari va mehr-u didaktik mazmundagi g'azallari unga nafaqat fors-tojik adabiyotida, balki dunyoviy obro' va e'tibor keltirdi. U o'z asarlarida, ona di-yorga mehr-u muhabbatni, oliyjanob vatanparvarlikni, insonparvarlikni ulug'laydi, zo'rlikni, noaxloqiy va yomon xulq-harakatlarni, kuchlilar o'zboshimchaligini qoralaydi va la'natlaydi.

PAHLAVON MAHMUD (1248–1326)

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning boshlarida Xorazmda shoir, mutafakkir va faylasuf Pahlavon Mahmud yashab ijod etgan. Uning tarjimayi holiga oid ma'lumotlar kam saqlangan. U Xiva yaqinida hunarmand oilasida dunyoga kelgan. O'zi ham po'stindo'zlik, telpakdo'zlik kasbi bilan shug'ullangan. U xalq orasida Pahlavon

Mahmud nomi bilan tanilgan, chunki jismoniy jihatdan baquvvat bo'lgan. Rivoyatlarga qaraganda, u dunyoning juda ko'p mamlakatlarini kezman, manaman degan polvonlar bilan kurash tushgan. Lekin biror marta bo'lsa-da, uning kuragi yerga tegmagan. Hikoya qilishlaricha, Pahlavon Mahmud bir jangda Hindiston shohi Roy Ropoy Cho'nani o'limdan qutqarib qoladi. Buning evaziga hind shohi qachonlardir Hindistonga asir tushgan xorazmliklarni ozod qiladi. Otashin vatanparvar Xiva yaqinida mo'g'ullarga qarshi jangda kurashib halok bo'lgan Xorazm askarlarining qabri ustiga maqbara qurdiradi.

Ayni zamonda, Pahlavon Mahmud ilm-ma'rifat bilan qiziqadi, badiiy ijod bilan shug'ullanadi. U g'azal, ruboiy, masnaviy janrida samarali ijod qilgan shoir sifatida ham tilga olinadi. Pahlavon Mahmudni elga mashhur qilgan, avlodlar ehtiromini qozonishga sabab bo'lgan narsa, bu eng avvalo, uning otashnafas ruboiylaridir. Shoirning ijtimoiy, falsafiy qarashlari ham uning ruboiylari mazmunida aks etgan.

Pahlavon Mahmud o'sha davrda Xurosonda keng tarqalgan ilg'or mafkuraviy oqim-juvonmardlik yo'nalishida ko'plab ruboiylar ijod etgan. Shamsiddin Somibekning «Qomus a'lam» («Atoqli kishilar qomusi») va Lutf Alibek Ozarning «Otashkadan ozariy» asarlaridagi ma'lumotlarga qaraganda, u «Kanz ul Haqoyiq» («Haqiqatlar xazinasi») nomli bir masnaviy ham yaratgan. Unda faylasuf shoir Umar Xayyom yo'lidan borib, mardlik, jasurlik, oddiy kishilarga nisbatan, shafqat va e'tibor, inson g'ururini baland ko'tarish, ezgu maqsad yo'lida halol va fidokorona kurash olib borish g'oyalari ifodalaydi. Jumladan, u bir ruboiysida o'zi mansub bo'lgan oqim kishilari tabiatini umumlashtirib, quyidagi satrlarni bitadi:

*Biz shundaylardamizki, charxning fili ham
bizni turtib o'tolmaydi,
Bizning shavkatimiz nog'orasi uchun osmonni
do'mbira qilib, chaladilar.
Agar chumoli bizning safimizda joy olsa,
Bizning davlatimizdan u sherga aylanadi.*

Xullas, Pahlavon Mahmud she'riyatida keng ma'nodagi hayotiy voqealar, insoniy kechinmalar, chuqur axloqiy, falsafiy qarashlar badiiy mahorat bilan ifoda etiladi.

RABG'UZIY (XIII asr oxiri – XIV asr boshi)

XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida yashab ijod etgan Burxonuddin o'g'li Nosiriddun Rabg'uziy vatanimiz tarixida o'z munosib o'rniga ega. U Xorazmning Raboti O'g'iz degan joyida tavallud topgan. Rabg'uziy to'g'risida ma'lumot beruvchi uning «Qissayi Rabg'uziy» asaridan boshqa hech qanday ma'lumot bizgacha yetib kelmagan.

Bu kitobning muqaddimasida quyidagilarni o'qiyimiz: «Bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqlug', ko'p yozuqlug' Rabot o'g'uzining qozisi Burxon o'g'li Nosiriddun»¹. Demak, asar muallifi Xorazmning Raboti O'g'uz degan mavzesida qozilik qilgan, Rabg'uziy uning taxallusidir. Nosiriddun Burxonuddin o'z asarini bir yil zahmat chekib, 710-yilning hut oyida (1311-yilning mart oyida) yozib tugallagan.

«Qissayi Rabg'uziy»ning XV asrda ko'chirilgan bir nusxasi Londonda, Britaniya muzeyida saqlanadi. XVI asrga mansub nusxasi esa Sankt-Peterburgda va keyingi asrlarga oid bir necha qo'lyozma nusxalari Toshkentdagi Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutining fondida saqlanmoqda. Asar «Qissasul-anbiyoyi Rabg'uziy» nomi bilan 1859–1881-yillarda Qozon shahrida besh marta chop etilgan. Toshkent toshbosmaxonasida bosilgan nusxasi ham bor.

«Qissayi Rabg'uziy» asari jami 72 qissadan iborat. Asarga asos qilib, Qur'ondan bir qator lavhalar olingan. Shuningdek, Abu Is'hoq Nishopurning «Qissasul-anbiyo»sidan va islomga oid boshqa manbalardan foydalanilgan.

Asarda hikoya qilingan Odam, Shis, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Ismoil, Is'hoq va boshqa payg'ambarlar, Xorut va Morut kabi farishtalar to'g'risidagi rivoyatlar shoir iqtidori va iste'dodining yuksakligidagina dalolat berib qolmasdan, ayni paytda, u ilk o'zbek badiiy prozasining dastlabki namunasi sifatida ham qimmatlidir. Ularning aksariyati xalq og'zaki ijodi asosida vujudga kelgan. Bunga Luqmon haqidagi qissa – latifa yorqin misol bo'la oladi: «Bir kun Luqmon ekin ekmakka borur erdi. Xojasi aytdi: «Bug'doy ekkil». Luqmon bordi, arpa ekdi. Xojasi aydi: «Bug'doy nechun ekmading». Luqmon aydi: «Arpa eksam, ul bug'doy bo'lmasmuq». Xojasi aytdi:

¹ Nosiriddin Burhoniddin Rabg'uziy. Qissayi Rabg'uziy. — E.: «Yozuvchi», 1990, 10-bet.

«Hargiz arpa ekib, bug`doy bo`lmadi». Luqmon Hakim aytdi: «Bas, gunoh qilursen, ul xayr yerin tutarmu?».

Ushbu latifaning so`ngida qissadan hissa chiqariladi: yomon ish aslo yaxshi ishning o`rnini bosolmaydi. Adolatsiz va insofsiz xoja qoralanadi.

Rabg`uziy qobiliyatli shoir ham bo`lgan. U «Qissayi Rabg`uziy»ning hikoya, latifa va qissalariga o`zbek va ba`zan arab tilida yozilgan parchalar, hatto, g`azallar kiritadi. Xulosa shuki, Rabg`uziyning «Qissayi Rabg`uziy» asari o`zbek adabiyoti tarixining eng nodir asarlaridan biri sifatida ma`naviy merosimizdan mustahkam o`rin olgan.

JALOLIDDIN RUMIY

(1207–1273)

Xalqimizning ajoyib farzandlaridan biri, buyuk shoir va tasavvuf ilmining yetuk vakillaridan bo`lmish faylasuf olim Jaloliddin Rumiydur. Asli Balxda tug`ilgan ulug` alloma va mutafakkirning otasi Bahoviddin o`z davrida tanilgan olim bo`lgan, Najmiddin Kubroning shogirdi edi. Mo`g`ullar istilosi tufayli Jaloliddin Rumiyl otasi bilan vatandan chiqib ketishga majbur bo`ladi va Kichik Osiyo (Quniya)ga borib o`qiydi hamda mudarrislik qiladi. U fors-tojik, arab va turkiy tillarda ijod qilib o`zining mashhur asarlarini yaratadi. Jaloliddin Rumiya E. Bertels yuksak baho bergan: «Jaloliddin lirikasi bu sohada bashariyat erishgan eng buyuk yutuqlardan biridir. Agar u G`arbda kengroq ma`lum bo`lganida uning nomi jahon adabiyotining Shekspir, Gyote, Pushkin kabi gigantlar qatoriga o`tishi shubhasiz edi»¹

Jaloliddin Rumiyning ijodi Fariduddin Attor (1151–1221)ning ta`sirida shakllangan. Fariduddin Attor Nishopurda bo`lgan chog`ida Rumiyl bilan uchrashadi va o`zining «Asrornoma» asarini tuhfa tariqasida beradi. Uning Shams Tabriziyga bag`ishlab yozgan she`riy devoni o`sha davrda «Devoni Shams Tabriziy» nomi bilan mashhur bo`lgan. Bu devon 30 ming baytdan iborat edi. Jaloliddin Rumiyl o`zining 27 ming baytdan iborat «Masnaviy Rumiyl»ini qariyb o`n yil davomida yozib tugallagan. Bu asar, Alisher Navoiyl so`zlari bi-

¹ *Бертельс Э.* Очерки истории персидской литературы. М.: 1928. 33 стр.

lan aytganda, «qoyili masnaviy ma'naviy g'avvosi bahri yaqin»ligi bilan ajralib turar edi. Shoir o'zining masnaviysida xalq hikoyalari asosida mazmunli, yumorga, badiiyatga boy jonli novellalar yaratgan. Ularda usta adib o'z asarining qahramonlarini hayvonlar nomi bilan atab, mistik tushunchalarni emas, real g'oyalarni ilgari suradi, hayotiy voqea va hodisalarga ishora qiladi.

Jaloliddin Rumiyl ayni zamonda, buyuk faylasuf ham bo'lgan. U «Mavlaviy» nomi bilan ataluvchi tasavvuf maktabining asoschisidir. Faylasufning «Masnaviyi ma'naviy» va «Fihi mo' fihi» («Unda qanday bo'lsa, bunda ham shunday») asarlarida hurfikrlilik va nazariy tafakkur, taraqqiyot muammolari ilgari suriladi. Uning falsafiy dunyoqarashidagi asosiy g'oya zo'rlik va zulmni qoralash, haqiqat va adolatni tarannum etishdan iboratdir. Allomaning fikricha, inson o'z xulqini idora qilishda ozoddir, ya'ni yomon xulqdan qutulib, yaxshi xulqqa intiladi. Xullas, Jaloliddin Rumiylning badiiy va falsafiy-ilmiiy merosi xalqimizning ma'naviy boyligidir, u asrlar osha avlodlarga xizmat qilaveradi.

BADRIDDIN CHOCHIY (1285–1344/45)

Mo'g'ullar bosqini tufayli o'zga yurtlarga bosh olib tarki vatan etgan shoir, adib, olim va mutafakkirlardan biri Badriddin Chochiydir. U Choch (Toshkent)da tavallud topgan, Samarqand va Buxoroda yigitlik yillarini o'tkazadi, ilm-ma'rifat bilan oshno bo'ladi. Chochiy 1332–1333-yillarda Makkayi mukarramadan qaytishda, Dehlida to'xtaydi va mo'g'ullar zulmi hukm surayotgan o'z ona Vataniga qaytib kelishga jur'at qila olmasdan o'sha yerda qolib ketadi. U Tug'luq Muhammad saroyida xizmat qilgan. Yozma manbalarga qaraganda, Chochiy Movarounnahrda yashagan kezlarida, turkiy tilda she'rlar bitgan va omma orasida shuhrat qozongan edi. U Hindistondagi faoliyati davomida o'sha davrning asosiy adabiy tillaridan bo'lgan fors-tojik tilida ijod qilgan. «Tazkirayi Husayniy»da yozilishicha, u 6 ming baytli lirik devon tuzgan. Baxtovorxonning «Me'rotul olam» («Olamning ko'zgusi») asarida qayd etilishicha, Badriddin Chochiy 35 ming baytli «Shohnoma» asarini yaratgan. Undan bizgacha o'limidan bir yil muqaddam tuzilgan «Sharhi qasoidi Badri Chochiy» yetib kelgan. Unda 70 dan ziyod qasida, ko'pgina ruboiylar, qit'a va g'azallar jamlangan.

Sadriddin Ayniyning fikricha, Badriddin Chochiyning sheʼrlari juda murakkab usulda bitilgan, atoqli hind olimi, «Riyosul-lugʻat» kitobining muallifi Riyosiddin binni Jaloliddin Mustafò 1256 (1840/41)-yilda Badriddin Chochiy asarlarini kitobxon-larga yetkazish maqsadida, ularga sharh sifatida «Kashful asror» («Sirlarning ochilishi») asarini yozgan.

Badriddin Chochiy buyuk soʻz sanʼatkorlaridan biridir. Uning ijodiy durdonalari boʻlgan asarlari chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmuni, yuksak badiiyligi bilan ajralib turadi. Ammo Badriddin Chochiyning ijodi yetarli darajada oʻrganilgan emas.

Shunday qilib, XIII asr va XIV asrning birinchi yarmi tarixi-mizning eng ogʻir kechgan davrlaridan biridir. Bu davrda hukm sur-gan moʻgʻullar istilosi va zulmi oʻlkamiz xalqlari hayotida ogʻir iz qoldirdi, madaniy taraqqiyotni bir necha oʻn va yuz yillar orqaga surib yubordi, ammo uni abadulabad taraqqiyotdan toʻxtatib qola olmadi. Ozodlik, hurlik va erkka tashna ulugʻ avlod-ajdodlarimiz moʻgʻullar zulmiga qarshi kurashdilar, maʼrifatga, ziyoga va nurga intildilar va nihoyat bosqinchi galalarni vatanimiz hududidan uloq-tirib tashladilar. Jonajon ona tariximizning bu oltin davri ulugʻ bo-bokalonimiz sohibqiron Amir Temur faoliyati bilan bogʻliqdir.

Nazorat savollari

1. Moʻgʻul ulusi haqida maʼlumot bering.
2. Moʻgʻullar va Chingizxon saltanati haqida nimalarni bilasiz?
3. Chingizxon va Xorazmshoh oʻrtasidagi oʻzaro diplomatik munosabatlar qan-day boʻlgan?
4. Xorazm davlatidagi siyosiy, ijtimoiy vaziyat qanday edi?
5. Chingizxonning xorazmshohlar saltanatiga qoʻygan ilk qadami qayerdan boshlandi?
6. Chingiziylar hujumiga qarshi Xorazmshohlarning munosabati va qarshiligi qanday boʻlgan?
7. Urganch fojiasiga sabab boʻlgan asosiy omil nima?
8. Jaloliddin Manguberdi jasoratini izohlab bering.
9. Manguberdi jasoratining siz uchun ahamiyatli jihatlarni sanay olasizmi?
10. Moʻgʻullar istilosi davrida Oʻrta Osiyoda ijtimoiy, iqtisodiy hayot darajasi qanday boʻlgan?

IX BOB

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI
(XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr)

1. AMIR TEMURNING TARIX SAHNASIGA CHIQISHI

Biz kim, mulki Turon, amiri Turkistonmiz.

Biz kim – millatlarning eng qadimi va eng ulug'i, Turkning bosh bo'g'inimiz.

AMIR TEMUR

Bu siymo mard, tanti, halol va g'ayratli xalqimizni birlashtirishda, jipslashtirishda, iymon-oqibatli bo'lishda, qudratli kelajagimizni qurishda bizga yangi-yangi kuch-quvvat va shijoat bag'ishlaydi.

ISLOM KARIMOV



Amir Temur, Sharafuddin Ali Yazdiyning bergan ma'lumotiga ko'ra, hijriy 736-yil (milodiy 1336-yil 9-aprel)da Qashqadaryo vohasining Shahrisabz (Kesh) bekligiga qarashli Xo'ja Ilg'or qishlog'ida, hozirgi Yakkabog' tumanida barlos Tarag'ay xonadonida tavallud topgan.

Rivoyat qilishlaricha, Tarag'ay Bahodir kunlarning birida g'alati tush ko'radi. Tushida bir nuroniy odam uning qo'lga qilich tutqazadi. Islomga e'tiqodi kuchli bo'lgan Tarag'ay ertasiga bomdod namozidan keyin piri shayx Shamsuddindan ko'rgan tushining ta'birini so'raydi. Shayx unga «sen o'g'il ko'rasan, bu o'g'lon dunyoni zabt etadi», – deydi. Chindan ham oilada o'g'il tug'iladi.

Temur yoshligidan yaxshi ta'lim va tarbiya oladi. Shu boisdan, «Temur savodsiz bo'lgan», degan uydirmalar haqiqatga to'g'ri kelmaydi.

Temur o'smirlik yoshidayoq Qur'onni yod bilgan. Uni ulamolar imtihon qilishib, quvvayi xotirasiga tasannolar aytishgan. O'n ikki

yoshga to'lganida u: «bolalarcha o'yinlardan orlanadigan bo'ldim va vaqtimni o'zimga tengqur o'spirinlar bilan o'tkazishga harakat qildim»¹, deydi.

Temur 16–18 yoshida qilichbozlik, nayzabozlik va shikor (ov) qilish san'atini mohirona egallaydi va 20 yoshida esa abjir chavandoz bo'lib yetishadi. Endi u o'z tengqurlarini guruhlariga bo'lib, jang mashqlarini o'tkaza boshlaydi.

Bo'lajak Sohibqiron o'n olti yoshgacha faqat diniy emas, balki dunyoviy fanlar – tarix, falsafa, geografiya, hisob va boshqa ilmlardan ham xabardor bo'lgan.

17 yoshga to'lganida otasining butun mol-mulki, davlatini o'zi mustaqil boshqara boshlagan: «...Men, – deydi Temur, – otamning barcha yilqi va mollarini to'pladim; qo'ylarni yuz-yuztalab ajratdim. Qo'chqorlarini sovliqlaridan ajratdim. Otamning har o'n quliga birini boshliq qilib qo'ydim»².

Rivoyatlarga ko'ra, Tarag'ay o'zining e'tiqod qo'ygan piri Shamsuddin Kulolga o'g'lini olib borib unga ham pir bo'lishga qo'l oldiradi. Temur Shamsuddin Kulol huzuriga borganida, u bo'lgusi Sohibqironga yettita non va bir qism holvani berib: «Mana shu yettita nonni yegin, shunda sen yerning yetti iqlimiga, butun dunyoga hokim bo'lasan», – deydi. «Men nonlarni ehtiyot qildim; bu menga Alloh ato etgan barakatning boshlanishi edi», – deydi Temur. Bo'lg'usi Sohibqiron o'zining keyinchalik, qo'lga kiritgan barcha zafarlarini pir-u ustozlari Shayx Shamsuddin kulol va Sayyid Baraka nomlari bilan bog'lagan edi.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar va dalillardan ko'rinib turibdiki, Temur yoshligidan juda tadbirkor, ishning ko'zini biladigan kishi bo'lgan, u ayniqsa, boshqaruvning nozik, ko'pchilik uchun tushunish qiyin bo'lgan sirlarini yaxshi o'zlashtiradi. Temur dunyoqarashida davlatga, harbiy ishlarga bo'lgan qiziqish juda erta uyg'onadi. U jismonan favqulodda juda baquvvat bo'lgan. Chavandozlik va suvoriylik uning eng yaxshi ko'rgan mashqi bo'lgan. U shu darajada mohir ediki, amir Qozog'on e'tiboriga tushib, unga 1355-yilda nabirasi O'ljoy Turkonni xotinlikka beradi. Temurning shaxsiy qiyofasi, kuch-qudrati to'g'risida Ibn Arabshohning quyidagi iboralari g'oyatda asoslidir: «Amir Temur jism-u jasadi kelishgan, qaddi-qomati tik uzun bo'yli, go'yoki qadimgi pahlavon-

¹ *Amir Temur Ko'ragon*. Zafar yo'li. T.: «Nur», 1992. 31-bet.

² O'sha asar, 33-bet.

lar avlodlari misoli boʻlib, boshi katta, gʻoyatda kuchli va salobatli, ajoyib boʻlalik, oqish yuzini och qizil rang jonlantirgani bilan hech bir dogʻsiz, bugʻdoyrang emas. Qoʻl-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yoʻgʻon, poychalari goʻshtli, boʻyi-basti kamoliga yetgan, sersoqol, ikki koʻzi bamisoli ikki shamdek boʻlsa-da, shodligi bilinmas, yoʻgʻon ovozli edi, u oʻlimdan qoʻrqmas, yoshi saksonga yetgan boʻlsa-da (Ibn Arabshoh albatta bu joyda asossiz fikr yuritadi – mualliflar) iztirobsiz, vazmin, badani toʻla va pishiq boʻlib, goʻyo zich (qalin) tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolgʻonni yoqtirmas, oʻyin-kulgi-yu koʻngil xushlikka maylsiz, garchi unda oʻziga ozor yetadigan biron soʻz boʻlsa ham haqiqat (toʻgʻrisoʻzlik) unga yoqar edi. U boʻlib oʻtgan ishga aziyat chekmas va qoʻlga kiritiladigan yutuqlardan shodlanmas edi»¹.

Sohibqiron Amir Temur tarixan oʻta murakkab vaziyatda, XIV asrning 60-yillarida siyosat maydoniga chiqadi. Bu davrda moʻgʻul hukmdorlari oʻrtasida toj-u taxt, davlat va mol-dunyo uchun boʻlgan kurashlar shu darajada kuchayib ketadiki, bu Chigʻatoy ulusiga qarashli hududlarda feodal tarqoqlikning avj olib ketishiga sabab boʻladi. Mahalliy viloyat hokimlarining oʻzboshimchalik bilan qilgan harakatlari natijasida Chigʻatoy ulusiga qarashli Movarounnahr hududida oʻnlab mustaqil bekliklar vujudga keladi. Shahrisabzda – Hoji Barlos, Xoʻjandda – Boyazid Jaloyir, Balxda – Amir Husayn, Shibirgʻonda – Muhammad Aperdi Nayman, Koʻhistonda – Amir Sotilmish, Arhang saroyda – Oʻljoy Aperdi va boshqalar oʻzlarini hokimi mutlaq deb hisoblashardi va bir-birlari bilan yovlashib saltanatni talon-toroj qilar edilar. Bir tomondan, moʻgʻul xonlari tomonidan oʻtkazilayotgan zugʻumlar, ikkinchi tomondan esa mahalliy hokimlar oʻrtasida toʻxtovsiz davom etayotgan nizo va urushlar oʻlkani mushkul ahvolga solib, oddiy xalq ommasining turmushini ogʻirlashtiribgina qoʻygani yoʻq, ayni zamonda, boy va zodagonlarning ham manfaatlariga putur yetkazadi. Shu boisdan ham, oʻlkada feodal tarqoqlikka barham berish, markazlashgan kuchli davlat hokimiyati barpo etish va soʻngra moʻgʻullarning istibdodidan ozod boʻlishga intilish gʻoyasi tobora kuchayib boradi. Xalqning ana shu istak va orzusini birinchilar qatorida tushungan mahalliy amirlardan biri Temurbek edi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, 1358-yilda, amir Qozogʻonning oʻgʻli Abdullohga qarshi kurash boshlagan moʻgʻul amiri Bayon Sulduz yonida Hoji Barlos ham boʻlgan.

¹ Amir Temur tarixi. 2-kitob. I.: «Mehnat», 1992, 65-bet.

Ular amir Abdullohga qarshi ittifoq bo'lib, qo'lga kiritilgan viloyatlarni o'zaro taqsimlab olish sharti bilan kurashganlar. Ular o'z niyatlarini qisman amalga oshirdilar. Bayon Sulduz bilan Hoji Barlosdan yengilgan Abdulloh Andarab tomonga qochib ketadi. Bayon Sulduz bilan Hoji Barlos Movarounnahr yerlarining bir qismini egallab oldilar va uni o'zaro taqsimlab idora eta boshlaydilar. Kesh viloyati Hoji Barlos ixtiyoriga o'tadi. Ana shu tariqa, 1358-yilda qariyb bir yarim asrdan so'ng, Movarounnahrning bir qismida hokimiyatni boshqarish mahalliy aholi vakili qo'lga o'tadi.

Shu paytga qadar yozilgan darslik va qo'llanmalarda bu masala yetarli darajada yoritilmay kelgan. Tarix darsliklarini o'qigan o'quvchida shunday bir mavhum fikr paydo bo'lar ediki. Movarounnahrda Mahmud Torobiy qo'zg'olonidan so'ng, mo'g'ullarga qarshi hech qanday harakat bo'lmagan. To'g'ri, XIV asrning 30-yillarida Xurosonda mahalliy aholining vatanparvar va ilg'or qismi bo'lgan sarbadorlarning (mo'g'ullarga qarshi kurashda o'z boshlarini dorga tikishga rozi bo'lganlar) mo'g'ullardan kichik bir hududni ozod qilganliklari, o'z davlatlarini barpo etib, hatto, Sabzovor shahrini bu davlatning poytaxtiga aylantirganliklari ta'kidlanadi. Ammo Shahrisabz bekligining Movarounnahrda birinchi bo'lib, (1361–1362-yil oralig'ida Samarqandda ham sarbadorlar mo'g'ullarni tor-mor qilib, hokimiyatni qo'lga kiritadilar), 140 yillik mo'g'ullar hukmronligidan so'ng, ozodlikka erishganligi kabi muhim masala chetlab o'tilgan. Holbuki, sarbadorlar harakati ta'siri ostida Movarounnahrning Samarqanddan boshqa shaharlarida, xususan, Kesh bekligida ham aholining katta bir qismi erk va ozodlik uchun g'ayrat kamarini mahkam bog'lagan edi. Hatto, bu harakatga nisbatan xayrixohlik bilan qaraganlar safida Temurning ham bo'lganligi uning keyingi faoliyatada ko'zga yaqqol tashlanadi.

Albatta, Movarounnahrda bo'layotgan bunday harakatlarga Mo'g'ulistonning ulug' xoqonlari tomoshabin sifatida befarq qarab tura olmas edilar. 1348-yilda Tug'luq Temurning Mo'g'uliston taxtini egallaganligini ta'kidlagan edik. U Chig'atoyning nabirasi Duvoxonning o'g'li Eminxo'janing arzandasi edi. Tug'luq Temur 18 yoshida amir Po'lodchi taxtiga ko'tarilgan, 24 yoshida islomni qabul qilgan bo'lib, Movarounnahrni bosib olishni shar'an o'ziga haqli deb bilar edi. Ana shu o'y va rejalar bilan Tug'luq Temur 1358-yilda katta qo'shin bilan Kesh tomon yuradi. Uning katta kuch bilan kelayotganligi va yo'l-yo'lakay erishgan g'alabalarini eshitgan Kesh

hokimi Hoji Barlos vahimaga tushadi, chunki u oz sonli qo'shinlari bilan Tug'luq Temurdek katta kuchga qarshi tura olmasdi va hech kimning yordamiga ko'z tika olmas edi. Negaki, atrofdagi amirlarning hammasi mo'g'ullardan bo'lgan. Hoji Barlos Tug'luq Temurning asosiy zarba kuchi o'ziga qarshi qaratilganligini aql va farosat bilan to'g'ri tushunib, Xurosonga qochib ketishdan boshqa chorani topa olmaydi. Uni qo'riqlab borayotganlar safida amakivachchasi Temur ham bor edi. Hoji Barlos mana shunday og'ir bir vaziyatda nima qilish kerakligini undan so'raganda, Temur Hoji Barlosga Tug'luq Temur bilan urush qilib o'tirmasdan uning huzuriga borishni maslahat beradi. Albatta, Hoji Barlos Tug'luq Temur huzuriga bora olmas edi, chunki u hokimiyatni kuch bilan olgan edi. Hoji Barlos Chingizxon avlodiga qarshi qo'l ko'targan kishi hech qachon kechirilmaganligini yaxshi bilar edi. Shu bois, u Temurning maslahatiga quloq solmaydi, o'z odamlari va mol-mulki bilan Jayhundan o'tib Xurosonga boradi. Yurt boshiga mana shunday og'ir kun tushganda Temur xalq bilan birga bo'lishga va Tug'luq Temur xizmatiga kirishga qaror qiladi. «Lekin, — deydi Temur, — mening askarlarim va qaramog'imdagi odamlarim Tug'luq Temurga bo'ysunishimni istamasliklarini aytdilar, chunki mening hukmim ostida mamlakat osoyishtalikka erishgan bo'lib, o'zining mustaqilligini qurol bilan himoya qilishga tayyor edi. Xalqning barcha iltimoslariga men hozir Tug'luq Temurga qarshi chiqib jang qilishning keragi yo'qligini va uning askarlari juda ko'pligini hamda hozir unga bo'ysunishdan boshqa iloj yo'qligini aytdim»¹.

Temurbekning mo'r-malaxdek Shahrisabz tomon bostirib kelayotgan dushmanga peshvoz chiqishga ahdi o'lim va hayot garovi edi. Tug'luq Temur va uning atrofidagi ochko'z amirlar katta sovg'a-salomlar bilan hurmat va tavoze ila ularga peshvoz chiqqan Temurbekni issiq qabul qiladilar. Temurbek esa o'z navbatida uning ishonchiga kirib, o'z maqsadiga erishishi yo'lida ish tutadi. Tug'luq Temur o'ziga nisbatan, Temurbekning sadoqatini his eta boshlagach, Mo'g'ulistondagi amirlar isyonini tinchitish maqsadida, Movarounnahrni boshqarib turish yorlig'ini Temurga berib, o'zi Jeta tomonga ketadi. «Men, — deydi Amir Temur, — butun Movarounnahr viloyatiga, to Jayhun daryosining sohillarigacha yerlarga hukmron bo'ldim... Men tajribamdan shuni bildimki, yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mum-

¹ Amir Temur Ko'ragon. Zafar yo'li. — T.: «Nur», 1992, 49-bet.

kin ekan»¹. Ammo Temur mo'g'ullarga uzoq vaqt xizmat qilmaydi. 1360–61-yili Tug'luq Temur o'z ahdini buzib Movarounnahrda ikkinchi marta qo'shin tortib kelib, hokimiyatni Temurdan olib, tajribasiz yosh o'g'li Ilyosxo'jaga topshiradi. Temurni esa unga bosh qo'mondon (sipohsolor) va maslahatchi qilib tayinlaydi. Temur ana shu davrdan boshlab, Ilyosxo'jaga xizmat qilishdan bosh tortadi va markazlashgan mustaqil davlat barpo qilish uchun mo'g'ullar istibdodiga qarshi kurashadi.

2. AMIR TEMURNING SAMARQAND TAXTI UCHUN KURASHI

Amir Temurning Samarqand taxti uchun kurashi davri 1361–1370-yillarni o'z ichiga oladi. Bu maqsadga erishish yo'lidagi dastlabki qadamni u o'z xotiniining akasi Balx viloyatining hokimi amir Husayn bilan yaqinlashib, Ilyosxo'jaga qarshi kurashdan boshlaydi. Temurning haq va adolat yo'lida boshlagan qutlug' ishining shiori «Rosti-rusti» bo'lib, uning ma'nosi «Haqgo'y bo'lsang, najot topasan», demakdir. U o'zining barcha faoliyatida shunga amal qilib yashadi. Temur Movarounnahrni mo'g'ullar zulmidan ozod qilishni va markazlashgan kuchli davlat tuzishni o'z oldiga bosh maqsad qilib qo'ygandi. Shuning uchun, u Ilyosxo'ja qo'l ostida bo'lishni istamas edi. Temurning bu yo'ldagi xatti-harakatlari Ilyosxo'jaga yoqmas edi. «Temur tuzuklari»da yozilishicha, Ilyosxo'ja otasi Tug'luq Temurga xat yozib: «Temur bizga qarshi isyon tug'ini ko'tardi»² degan. Xon o'z navbatida Temurni o'ldirish to'g'risida yorliq jo'natadi, lekin bu yorliq Temur qo'lga tushib qoladi. Bu hujjatdan xabar topgan Temur qarshi qat'iy choralar ko'rish uchun jasur va qat'iyatli jangchilarni to'plashga qaror qiladi. Temur o'z yigitlari bilan birgalikda Badaxshon tomon chekinib, maslakdoshlar qidiradi, so'ng, Badaxshondan Xorazm tomon yuradi. Xorazm sari yo'l olgan Temur yo'l-yo'lakay Balxda to'xtab uncha katta bo'lmagan kuchi bilan Amir Husaynni o'z yo'lga tortadi.

Amir Temurning Xorazmda paydo bo'lganligidan xabar topgan va uni o'ldirish to'g'risida Ilyosxo'jadan maxsus topshiriq olgan Xiva hokimi Tukul Bahodir mingta otliq jangchilari bilan

¹ Amir Temur Ko'ragon. Zafar yo'li. – T.: «Nur», 1992. 49-bet.

² O'sha asar, 20-bet.

Temurga hujum qiladi. Bu jangda Temur oz sonli yigitlari bilan Tukul Bahodirning ming kishilik lashkarini tor-mor keltiradi. Jang oqibatida Xorazm askarlaridan 50 kishi, Amir Temur kuchlaridan esa 10 kishi – 7 ta otliq va 3 ta piyoda xurosonlik qolgan. Bu uchta xurosonlik ham kunlarning birida, tunda payt poylab, uchta otni o'g'irlab qochadilar. Temur g'oyat og'ir ahvolga tushadi. Bu vaziyatdan xabar topgan Maxon (hozirgi Mari yonida) hokimi turkman Alibek Joniqurbon Ilyosxo'jaga yoqish maqsadida, Temurni qo'lga oladi va zindonga tashlaydi. Temur zindonda 62 kun yotib, katta jasoratlar evaziga ozodlikka chiqadi. Sohibqiron o'zining 12 jangchisi bilan yana cho'l kezishda davom etadi. Shu payt ularga turkmanlar hujum qiladilar. Jang davomida Amir Temurni tanib qolgan turkmanlardan biri o'z yigitlari bilan Temurga qo'shiladilar. Endi Temur yigitlari 60 kishiga yetadi va ular bilan Temur Xuroson tomon yo'l oladi. Yo'l-yo'lakay Temurga bir necha jangchilar kelib qo'shiladi. Temur askarlarining soni 200 taga yetadi, ular Buxoroga yetib borganlarida Temur tarafdorlari 2000 kishidan oshgan edi. Temur Buxorodan Qandahorga kelganida unga yana ming kishi kelib qo'shiladi. Ammo hali bu kuchlar bilan Ilyosxo'ja kuchlariga qarshi jang qilib bo'lmasligini Temur yaxshi bilar edi. Chunki uning raqiblari 100 ming kishini to'play olish imkoniyatiga ega edilar. Shuning uchun, Temur o'z qo'l ostidagi quchlar yordamida janubdagi ba'zi bir hududlarni egallab kuch va qudratini oshirishga qaror qiladi. Ana shu maqsadda, u Garmsir viloyatini egallaydi. Bu yerda ham mingta otliq turk va tojik sipohlari Temur lashkarlari sonini to'ldiradilar.

Endi o'zini ancha qudratli his qilgan Amir Temur Seyiston yerlariga hamla qiladi va uni egallaydi. Bu yerdagi shiddatli jangda Temur o'ng qo'li va o'ng oyog'idan qattiq yaralanadi. Shundan keyin, u ikki oy mobaynida Garmsirda davolanadi. So'ng, Balxga yo'l oladi. Qaxlakka yetib kelgan Amir Temur odamlari Muiniddin Natanzamiy ma'lumotlariga qaraganda, mo'g'ullarning Movarounnahr janubida talon-toroj ishlari bilan shug'ullanganliklarini aniqlaydilar. Sohibqiron hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'radi. Jangchilari orasidan eng sodiq jasur va qobiliyatli 313 kishini tanlab oladi va ularni o'ziga yordamchilar sifatida tayinlaydi. Keyinchalik, ana shu yordamchilar uning ko'p ming kishilik qo'shinini uyushtirish va boshqarishda asosiy o'zak bo'lib, xizmat qiladi.

Amir Temur hal qiluvchi jang oldidan qo'shinining moddiy ta'minoti masalasiga ham katta e'tibor beradi. Shu maqsadda, u Aloju qal'asini qo'lga kiritadi va bu yerda oziq-ovqat va boshqa narsalarni jamlab qo'yadigan ombor tashkil etadi. Bu qal'adagi odam kuchlari ham Temur tomoniga o'tadilar. Temur Balxda turib, Termiz atrofiga joylashgan Ilyosxo'ja kuchlarining joylanishi tog'risida xabar keltirish uchun u yerga o'z ayg'oqchilarini yuboradi. Ayg'oqchilar Ilyosxo'ja askarlari Termiz atroflarida xalqni talon-toroj qilish bilan shug'ullanayotganligini aniqlaydilar. Bu hol Temur lashkarlari safiga yangi-yangi kuchlar kelib qo'shilishini ta'minlaydi. Shu sababdan, Amir Temur vaziyatni har tomonlama hisobga olib, kuchlari Ilyosxo'ja yuborgan kuchlarga nisbatan, o'n barobar kam bo'lsa-da, urush boshlashga qaror qiladi. Jang 1363-yilda Jayhunning chap sohilida Qunduz shahri yonida bo'ladi. Amir Temur o'z qo'shinlariga nisbatan, o'n barobar ko'p bo'lgan dushman qo'shinlarini batamom mag'lubiyatga uchratadi va o'zining buyuk sarkardalik mahoratini ko'rsatadi. M. Ivanin bunday deb yozgan edi: «Lekin 2000 kishilik lashkar bilan, o'zbeklarning (gap ko'chmanchi o'zbek qabilalari ustida bormoqda – R.Sh., Sh. K) Amu va Sirdaryolar orasidagi ko'plab qal'alarga joylashgan 80 000 kishilik qo'shinidan tashqari, o'ziga qarshi qo'yilgan 20000 kishilik lashkarini mag'lubiyatga uchratgan va ularni Sirdaryo ortiga quvib yuborgan Amir Temurning harbiy san'ati va mardligi haqida xulosa chiqarish mumkin»¹. Ilyosxo'ja bu paytda, vafot etgan otasining taxtini olish uchun Sirdaryoning narigi tomoniga ketgan edi. Temur bu qulay vaziyatdan foydalanishga qaror qiladi va Samarqandga kiradi. Shahar aholisi uni yaxshi kutib oladi. Temur Shu paytdayoq Samarqandni egallab, o'zini xon deb e'lon qilishi mumkin edi. Ammo bu bilan barcha mo'g'ullarning o'ziga qarshi oyoqqa turishini bilar edi. Shuningdek, Ilyosxo'ja hali o'zining oxirgi so'zini aytmagan edi. Shuning uchun, Temur qurultoy chaqirib, unda mo'g'ullardan bo'lgan Qobulshohni hukmdor qilib, ko'tarishga qaror qiladi. Bu uning kelajakdagi rejalarini amalga oshirishda o'ziga xos bir tadbir edi.

Movarounnahrda sodir bo'layotgan voqealardan xabar topgan Ilyosxo'ja puxta tayyorgarlik ko'rib, 1365-yilda Samarqand sari yo'lga chiqadi. Temur bu to'g'rida xabar olishi bilan Husaynni voqeadan ogoh qiladi. Husayn o'z askarlari bilan yetib keladi. Temur qarorgohini Chinoz bilan Toshkent o'rtasida quradi. Tarixga «Jangi

¹ Ivanin M. Ikki Buyuk sarkarda, 120-bet.

loy» nomi bilan kirgan ikki o'rtadagi bu to'qnashuv g'oyatda shiddatli bo'ladi. Jang paytida qattiq jala quygan, hamma yoq loy bo'lib, otlar va jangchilar balchiq-loylarda yiqilganlar. Har ikkala tomondan juda ko'plab odamlar qirilgan.

Temur qo'mondonligidagi o'ng qanot mardonavor jang qilib, dushmani yengib, muvaffaqiyat qozonayotgan bir paytda, Husayn boshchiligidagi chap qanot kutilmaganda jang maydonini tashlab chiqadi. Albatta, bunda mo'g'ullar qo'mondonligining ishlatgan harbiy hiylasi katta pand bergan edi. Faqat Temurning harbiy ehtiyotkorligi va saboti ularni uzil-kesil mag'lubiyatdan saqlab qoladi. Bu jangda Temur va Husayn o'zlarining 3000 ta askarini jang maydonida qoldirib, chekinishga majbur bo'ladilar, «Jangi loy» voqeasidan so'ng, Temur bilan Husayn o'rtasidagi nizo kuchayib, bora-bora raqiblikka aylanadi. Husayn Sirdaryoning ikkinchi qirg'og'iga o'tib, o'zining poytaxti Solisaroyga qaytadi, Temur esa Kesh tomon ketadi.

Temur va Husaynning ketib qolishi oqibatida mo'g'ullarning Samarqandga bemalol kirib borishi uchun qulay sharoit vujudga keladi. Samarqandga Ilyosxo'ja boshchiligida mo'g'ullarning bostirib kelayotganligini eshitgan shahar aholisi ommaviy suratda dushmanga qarshi kurashga qo'zg'aladi. Bu kurashga Samarqandda o'z faoliyatini olib borayotgan sarbadorlar guruhi boshchilik qiladi. Sarbadorlar harakati dastlab, yuqorida qayd etilganidek, Xurosonda vujudga kelib, Samarqand, Kesh va boshqa hududlarga ham yoyilgan edi.

Xurosonda sarbadorlar davlati 45 yil (1337–1381) hukm suradi, uni tashkil etishda sarbador Xo'ja Yahyoning xizmati katta bo'lgan. Sarbadorlarning ichki davlat yuritish siyosati haqida biror-bir ma'lumot bo'lmasa-da, bu davlatning o'z tanga pullarini zarb qilganligi, o'z qo'shinlari bo'lganligi aniq. Ular davlatda mustahkam tartib o'rnatganlar. Aholidan olinadigan soliqlar miqdori odatdagi miqdordan ancha kam bo'lgan, jiz'ya solig'i bekor qilingan. Bu davlatning yana bir ijobiy tomoni shundaki, unda hokimlik sulolasi bo'lmagan, hokim vafot etgach, ular o'zlariga yoqqan hukmdorni hokimlikka ko'targanlar. Sarbadorlar qullarni ozod qilmagan bo'lsalar-da, ularga yumshoq munosabatda bo'lganlar, qullarni o'z qo'shinlariga qabul qilganlar va hatto, ularni harbiy boshliq lavozimlariga ham ko'targanlar. Albatta, bu ishlar o'z davrida sarbadorlar harakati ijobiy tushadigan harakat bo'lgan, deb xulosa chiqarishga asos bo'la oladi. Bu harakat ham nuqsonlardan holi emas edi. Sarbadorlar

harakati Movarounnahrda XIV asrning 60-yillaridan kuchaya boshlagan va dehqonlar, hunarmandlar va g'oziyar deb atalgan madrasa ziyolilari kabi aholi qatlamlari orasidan o'z tarafdorlarini topgan. Mo'g'ullarga qarshi ko'tarilgan sarbadorlar qo'zg'oloniga Samarqand madrasasining talabasi Mavlonozoda, Abu Bakr Kalaviy Naddof (Shomiy bergan ma'lumotga qaraganda, u paxta tituvchilar mahallasining boshligi bo'lgan), mergan Xurdakiy Buxoriylar boshchilik qilganlar. Mo'g'ullarga qarshi kurashga o'tlanib, Samarqandda Chorsu maydonidagi Jome' masjidida to'plangan vatanparvar kuchlar o'n ming kishidan oshib ketadi. Samarqand ahli mo'g'ul galalarini jangovar shaylik bilan kutib oladi. «Jangi loy»dagi g'alabadan mahliyo bo'lgan Ilyosxo'ja Samarqandni osongina qo'lga kiritishni mo'ljallagan edi. Ammo bu borada ular adashgandi. Mo'g'ullar Samarqandga yaqinlashgach, Mavlonozodaning buyrug'i bilan ularning ustiga o'q yog'diriladi va ular ko'plab qurbonlar beradi. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida yozilishicha, Mo'g'ullarning otlari orasida vabo tarqalib, shuncha ot o'lganki, har to'rt otdan bittasi qolgan. Dushman ustidan qozonilgan g'alaba sharafiga Samarqand shahrida shod-u hurramlilik va tantanalar boshlanib ketadi. Sarbadorlar boshchiligida qattol dushman ustidan qozonilgan bu tarixiy g'alaba agar xalq ommasiga adolatli, haqo'y, sodiq va mard yo'lboshchilar rahbarlik qilib, uni boshqarsa, uning juda katta qudratga ega ekanligini ko'rsatadi. Sarbadorlar shahardan dushmanni quvganlaridan so'ng, ichki dushmanlar – katta yer va mulk egalari qarshi kurashni boshlab yuboradilar. Ularning mol-mulklari tortib olinadi, uy-joylari vayron qilindi. Ana shu tariqa, Samarqandda sarbadorlar hokimiyatni qo'lga oladilar va butun qish davomida uni o'zlari mustaqil boshqaradilar.

Sarbadorlar g'alabasidan xabar topgan Amir Temur va amir Husayn bahor faslida Samarqandga yaqin Konigil degan joyda to'xtaydilar. Ular sarbadorlar g'alabasidan va amalga oshirgan ishlaridan mamnun ekanliklarini aytib sarbadorlarni uchrashuvga taklif qiladilar. Haqiqatdan ham, uchrashuvning birinchi kuni katta xurandchilik va ziyofatlar bilan o'tgan. Biroq ertasi kuni kutilmaganda amir Husaynning buyrug'i bilan barcha sarbadorlar qo'lga olinib, qilichdan o'tkaziladi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Temur faqat Mavlonozodani «amir Husaynning qahr-u g'azabidan asrab qoldi»¹. Temurning Mavlonozodani o'limdan saqlab qolganligiga

¹ Sharafiddin Ali Yazdiy: «Zafarnoma». – T.: «Kamalak», 1994, 116–117-betlar.

sabab qilib, yozma manbalarda, uning sarbadorlar bilan yaqindan aloqada bo'lganligi va shu asnoda Temur bilan Husayn o'rtasida ixtilof chiqqanligi ta'kidlanadi. Sarbadorlar harakati bostirilgach Samarqandda amir Husayn hukmronligi tiklanadi, Temur uning o'ng qo'li bo'lib qoladi. Temur bilan Husayn birgalikda harakat qilsalar-da, ular o'rtasidagi munosabatlar borgan sayin keskinlashib boradi. Amir Husayndagi Temurga nisbatan, g'arazgo'ylik, Temurdagi o'ziga xos xislatlarni ko'ra olmaslik o'rtadagi keskinlikning kuchayishiga bosh sabab edi. Temur amir Husaynga nisbatan, aql-farosatda, tadbirkorlig-u uzoqni ko'ra bilishda va davlat arbobiga xos fazilat-lari bilan ajralib turardi. Markazlashgan kuchli davlatning zarur-ligini ham Temur amir Husaynga qaraganda, yaxshiroq tushunar edi. Shu bois, Movarounnahrda boshqa hokimlar, savdogarlar, hunar-mandlar, ruhoniylar va dehqonlar ommasi uni ko'proq himoya qilar edilar. Amir Husaynning esa bundan g'ashi kelib, jazavasi tutar edi. U Temurga pand berishga, payt poylab iloji bo'lsa, uni o'ldirishga harakat qilardi. Temur esa buni bilar va doimo chapdastlik bilan buni fosh qilib borardi. Sharafiddin Ali Yazdiy bergan ma'lumotlarga qaraganda: «Amir Husaynda omadsizlik va baxtsizlikning belgilari tobora quloch yozib borardi, chunonchi, mag'rur podsholar sha'niga loyiq bo'lmagan hirs va baxillik, vahshiylik va ochko'zlik uning vujudini qamrab oldi hamda mol-dunyo yig'ish va zahira to'plashga mukkasi bilan sho'ng'ib ketdi. Ahvol shu darajagacha yetdiki, hazrat Sohobqiron amirlari va mulozimlari (moliga ham) ta'ma ko'zini tikdi. Ya'ni, amir Joko', amir Sayfiddin, Oqbo'g'o, Elchy bahodir va Davlatshoh baxshi nomiga anchagina (to'lov) mablag' belgilab, uni undirib olish uchun soliq yig'uvchi tayinladi. Biroq ular yaqinda «Loy jangi» voqeasini boshdan kechirganliklari va mol-zahira-ning ko'p qismi talon-toroj bo'lib ketganligi uchun, u tama qopini to'ldirish uchun mo'ljallangan mablag'ni butkul yig'ib berishga imkoniyatsiz edilar. Hazrat Sohobqironning Xusravona himmati yordam qo'lini cho'zmoqni taqozo etdi va oltin-u kumushdan iborat katta (miqdordagi) mablag'ni, jumladan, mahdi a'lo O'ljoy Turkon – og'oning bilakuzuk va isirg'asini ham, ularning to'lov mablag'i hisobiga berib yubordi. Amir Husayn uni ko'rib, o'zining singlisiniki ekanligini tanidi. Ammo ochko'zlik hirs shu darajada yomon bo'lib ketgan ediki, hatto, aka-singillik qadr-qiymatini ham ko'zga ilmadi va ularni olishdan hayiqmadi...

Shuncha mablag'ni bergan bilan ham u belgilangan (to'lov) mablag'iga yana uch ming dinor yetmay qoldi. Himmati daryodek

(bo'lmish) Sohibqiron qo'shimcha yana o'zining shaxsiy otlaridan ham peshkash etdi. Amir Husayn otlar bevosita ul Hazratga tegishli ekanligini bilgach, ularni qabul qilmadi...»¹.

Ana shu sabablar taqozosi ila amir Husayn va Temur o'zaro tez-tez arazlashib yurar, boshqa viloyat hokimlari ularni yarashtirib qo'yar edilar. 60-yillarning oxirlaridan boshlab, amir Husayn ochiqdan ochiq Temurga qarshi kurashga tayyorlanadi. U o'zining barcha boyliklarini Samarqanddan Balxga ko'chirib, shaharning mudofaa istehkomlarini mustahkamlashga kirishadi. Temur Husaynni yomon va yovuz niyatdan qaytarish maqsadida, maslahatlar beradi. Ammo amir Husayn o'z niyatidan qaytmaydi. Ikki o'rtada jang bo'lishi muqarrar bo'lib qoladi. Bu jang 1370-yilda Balxda bo'ladi. Jang oldidan Sohibqiron Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'ida shayx Sayyid Barakadan² zafar fotihasi oladi. Sayyid Baraka Temurga g'alaba tilab do'mbira va bayroq topshiradi hamda kelajakda Temurni buyuk zafarlar kutayotganligini bashorat qiladi. Jangda amir Husayn batamom yengiladi. Sharafiddin Ali Yazdiyning ma'lumotiga ko'ra, Temurning o'g'li Umarshayx boryo'g'i o'n olti yoshda bo'lsa-da, jang maydonida shijoat va jasorat ko'rsatadi. Amir Husayn taslim bo'lib, uzr-ma'zur ila ulug' Ka'ba ziyoratiga otlanajagini iltimos qiladi. Temur uning iltimosini qabul qiladi va hech kim Husaynga halaqit bermasin, deb buyruq beradi. Ammo har galgidek Husaynning o'zi yana o'z va'dasini bajarmaydi. U Sohibqironning qat'iy so'ziga ishonmaydi va shubhalanadi. Shu bois, u shahardagi Jome' masjidining minorasi ichiga kirib yashiradi. Kutilmaganda otini yo'qotgan bir tasodifiy odam minoraga chiqib, shahar atrofini kuzatmoqchi bo'ladi va u yerda yashirib yotgan amir Husaynni ko'radi. U jon talvasasida u kishiga bir hovuch marvarid uzatadi va ko'rganini sir saqlab, hech kimga aytmasligini yalinib so'raydi. Minoradan chiqib u kishi to'ppa-to'g'ri hazrat Sohibqiron huzuriga boradi va bo'lgan voqeani oqizmaytomizmay unga yetkazadi. Temurning odamlari Husaynning qo'lini bog'lab Sohibqiron oldiga keltirganlarida u: «Men uning qonidan kechganman va undan intiqom olish niyatidaman»³, deydi.

¹ Sharafiddin Ali Yazdiy. «Zafarnoma». – T.: «Kamalak», 1994. 117–118-betlar.


² Sayyid Baraka-asli andhulik mashur sayyid, Amir Temurning pirlaridan biri: 1404-yilda qorabog'da vafot etgan. Daslab yurti Andhudda dafn etilgan so'ng, Amir Temur vasiyati bo'yicha 1409-yilda Shohrux Mirzoning amri bilan Sayyid Baraka hoki Samarqandga keltirilib Go'ri Amir xilxonasida Sohibqironning bosh tarafiga dafn etilgan.

³ Sharafiddin Ali Yazdiy. «Zafarnoma». – T.: «Kamalak», 1994. 117–118-betlar.

Amir Kayxusrav Xatloniy haqiqat so'rab, bir vaqtlar uning ukasi Qayqubodni o'ldirgan Husaynning taqdirini menga topshiring, deb iltimos qilsa-da, Sohibqiron o'z so'zida qat'iy turadi. Ammo Kayxusrav Husaynni o'ldirganida unga e'tiroz bildirmaydi. Temur amir Husayn ustidan g'alaba qozongach, butun Movarounnahr uning qo'li ostida birlashadi. Balxda chaqirilgan qurultoyda Temur Chig'atoy saltanatining vorisi deb e'lon qilindi. Lekin o'sha davrdagi vaziyat hisobga olinib va Mo'g'ullarning qarshiligini ko'chaytirmaslik maqsadida, xonlik taxtiga Suyurg'atmish o'tkaziladi. Temur o'zida amir unvonini saqlab qolib hokimi mutlaq sifatida davlatni boshqara boshlaydi. Samarqand shahrini davlatning poytaxtiga aylantiradi. O'sha davrning udumiga ko'ra, Temur amir Husayn taxtiga o'tirgach, uning xotinlaridan to'rttasini o'ziga xotinlikka tanlaydi. Ular aql va farosatda yagona, go'zallikda tengsiz Qozonxonning qizi Saroymulxonim (Bibixonim), Bayon Sulduzning qizi Ulus og'o, Xizr Yasavuriyning qizi Islom og'o va Togoy turkonlar edilar. Husaynning qolgan boshqa xotinlarini Temur o'ziga yaqin kishilarga xotinlikka beradi. Saroymulxonim mo'g'ul xonlaridan Qozonxonning qizi bo'lganligidan Amir Temur «Ko'ragon» laqabini (Ko'ragon mo'g'ulcha kuyov demakdir) oladi. Sohibqiron hayot va og'ir jang so'qmoqlarida sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan o'z odamlaridan 313 kishini davlatning turli mas'uliyatli lavozimlariga tayinlaydi: 100 tasini o'nboshi, 100 tasini yuzboshi, 100 tasini mingboshilikka va 13 tasini yana ham yuqoriroq lavozimlarga qo'yadi. Shak-shubha yo'qki, ana shu saralangan va sinalgan yuqori lavozimdagi shaxslar Amir Temur qo'shinida intizom, harbiy tartib o'rnatib, oqibatda Sohibqiron qo'lga kiritgan tarixiy g'alabalarni ta'minladilar.

3. BUYUK AMIR TEMUR SALTANATI

Sohibqiron Amir Temur Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib olgach, buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. O'zining porloq istiqboliga katta umid va ishonch bilan qaragan Temur ruhiyatini nafaqat o'zining tug'ma bahodirligi va jasorati bilan, balki ayni zamonda, Allohga va Qur'onga bo'lgan ishonch-u e'tiqodi bilan ham mustahkamlagan edi. Bu hol uning har qanday og'ir va qiyin sharoitlarda ham to'g'ri tadbir belgilash va un-



dan chiqib ketishini ta'minlar edi. Taqdirni bilishda Qur'oni karim, ilmi nujumga, tush ta'birlariga, turli xil bashoratlarga ishongan va qattiq e'tiqod quygan Amir Temur ularga murojaat qilar edi, ko'proq esa biror-bir muhim va mushkul masalani hal qilmoqchi bo'lsa, avval Qur'onni dasturilamal deb bilardi.

Amir Temurning buyuk saltanat barpo qilish bobidagi sa'y-harakatini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr 1370–1388-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda, Amir Temur, asosan, turkiy xalqlardan tashkil topgan Chig'atoy mulkini markazlashgan qudratli davlatga birlashtirish uchun kurashadi.

Ikkinchi davr 1388 –1405-yillardir. Bu davrda Amir Temur o'z davlati hududini kengaytirish va buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib quyadi. Shu narsa alohida e'tiborga loyiqli. Sohibqiron qaysi bir mamlakatga lashkar tortib borganligidan qat'i nazar, u adolatni himoya qilgan, insof va diyonat uchun jangga kirgan. Aksariyat hollarda kelib chiqqan urushlar Amir Temur raqiblarning adolatsizligi, insof-u diyonatsizligi, iymonsizligi aybi bilan kelib chiqqan. Ana shu ma'noda Temurning Xorazm bilan bo'lgan munosabatlari yorqin misol bo'la oladi. Hazrat Sohibqiron

markazlashgan davlat tuzib mo'g'ullarni Movarounnahr hududidan haydab chiqargach, Xorazm masalasini adolatli hal qilishga kirishadi. Gap shundaki, mo'g'ullar davrida Xorazm ikkiga bo'lingandi. Shimoliy Xorazm poytaxti Urganch bilan Oltin O'rda mulkiga qarar edi. Markazi Kat (hozirgi Beruniy) bo'lgan Janubiy Xorazm esa Chig'atoy ulusi yerlari hisoblanardi. 1359-yilda Oltin O'rdada Berdibekxon o'lgach, boshlanib ketgan g'alayonlardan foydalangan qo'ng'iroq urug'iga mansub bo'lgan so'filar sulolasi Oltin O'rdadan alohida mustaqil davlat tuzish uchun ajralib chiqadi. Bu sulola vakillaridan bo'lgan Husayn So'fi katta, birlashgan Xorazm davlati tuzish havasi bilan Chig'atoy ulusiga qarashli bo'lgan Janubiy Xorazmni. Kat va Xiva shaharlarini bosib oladi. Amir Temur Husayn So'fining bu harakatini noqonuniy harakat deb baholagan. Chunki Chig'atoy ulusiga qarashli barcha yerlar, shu jumladan, Janubiy Xorazm hududlari ham uning ixtiyorida bo'lishi kerak edi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning ma'lumotlariga qaraganda, Amir Temur 1372-yilda Xorazmga elchi yuborib, bosib olingan yerlarni qaytarishni so'ragan va «...har ikkala tomon o'rtasida samimiyat va do'stlik yo'li ochiqliciga qolsa, totuvlik va qo'llab-quvvatlamoq shart-sharoitlari yaratilsa»¹ deydi. Husayn So'fi bo'lsa bunga javoban: «Bu viloyatni men qilich vositasida qo'lga kiritganman va uni qilich (kuchi) bilan olishga to'g'ri keladi», deb katta ketadi. Albatta, uning bunday katta ketishiga sabab Xatlon hokimi Kayxusrav bo'ladi. U Temur martabasining bunchalik tez o'sib borayotganligini ko'ra olmasdan Husaynni Sohibqironga gijgijlaydi va yordam berishga va'da qiladi. Amir Temur bilan bo'lgan jangda Husayn So'fi yengiladi. Qotni tashlab chiqadi va Urganchda bekinadi. U tez orada shu yerda vafot etadi. Husaynning o'rniga ukasi Yusuf So'fi o'tiradi. Temur Xorazm bilan yaxshi munosabatlarni o'rnatishga intiladi, sulh bitimi tuzishni taklif etadi va Husayn So'fining qizi, O'zbekning nevarasi Xonzodani o'z o'g'li Jahongirga xotinlikka olib beradi. Yusuf So'fi Sohibqironning barcha takliflarini qabul qiladi. Isyonchi va ig'vogar Kayxusrav Temurning buyrug'i bilan qatl etiladi. Ammo bu bilan Xorazmda barqaror tinchlik Amir Temur bilan yaxshi quda-andachilik yo'lga qo'yiladimi? Albatta, yo'q. Bunga sabab, Yusuf So'fi. U ikki o'rtada tuzilgan yarash shartlarini buzib, Qot shahrini qaytadan bosib oladi. Bu hol

¹ Sharafiddin ali Yazdiy. Zafarnoma. 242-bet.

Sohibqironning 1373-yilda ikkinchi marta Xorazmga lashkar tortishiga sabab bo'ladi. Ammo bu safar ikki o'rtada urush bo'lmaydi. Chunki Yusuf So'fi Temurga tavba qiladi va shartnomani so'zsiz bajarishga va'da beradi. Ana shu tariqa, Janubiy Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga qo'shib olinadi. Ammo shundan so'ng ham Sohibqiron Xorazm ustiga yana uch marta qo'shin tortib boradi. Xorazmga so'nggi yurish 1388-yilda bo'ladi. Bu safargi qirg'inbarot urushning asosiy sababchisi Oltin O'rda xoni To'xtamishxonning ig'vosi va fatvosiga uhib Temurga qarshi isyon ko'targan Xorazm hukmdori Sulaymon So'fi bo'ladi.

To'xtamishxonning o'zi kim? U Manqishloq (Mangit qishloq) hokimi To'yxo'ja Sultonning farzandi, asli Jo'ji naslidan. To'yxo'ja Oq O'rda xoni (1361–1376) O'rusxonning (u ham Jo'ji avlodidan) Oq O'rda va Oltin O'rdani birlashtirish to'g'risidagi g'oyasiga qarshi chiqadi va shu sababdan, u qatl etiladi. To'xtamishxon O'rusxon ta'qibidan qochib Amir Temur huzuriga panoh izlab keladi. Buyuk Sohibqiron unga juda katta izzat-ikromlar ko'rsatadi, qimmatbaho sovg'a-salomlar beradi, O'tror va Savron viloyatlarini taqdim etadi. U To'xtamishxonga qatl etilgan otasi uchun qasos olishi va Oq O'rda taxti uchun kurashda qurol-aslaha va qo'shin qismlari bilan yordam beradi. Mahkam Abduraimovning yozishicha, Temur: «...To'xtamishga to'rtinchi marta ham qo'shin berib, tajribali qo'mondonlaridan birini unga bosh etib tayinlaydi»¹. Tajribasiz To'xtamish har safar O'rusxondan yengilib kelaveradi. 1376-yilning bahorida O'rusxon jangda o'ldirilgan o'g'li Qutlug' Bo'g'a xunini talab qilib, Amir Temurga To'xtamishxonni topshirishni talab etadi. Shundan so'ng, Temurning o'zi 1379-yilda O'rusxon ustiga qo'shin tortib boradi va uni yengadi. Bu haqida Temur shunday yozadi: «(Dashti Qipchoq) xoni To'xtamish xonlik talashib O'rusxondan yengilib, mening panohimga qochib kelgan edi. Uning bilan qo'shin yuborsammikin, yo o'zim borsammikin, deb turganimda O'rusxonning elchisi kelib qoldi. Kengashib, elchining ko'nglini ovlab, (so'ng) ketishiga ruxsat berishni, o'zim esa Dasht tomon yuzlanib, elchining ketidan lashkar jo'natishni mo'ljalladim, toki elchi xotirjamlik bilan bo'lgan voqealardan O'rusxonning majlisida bayon qilsin, ertasi kuni mening qo'shinlarim qo'qqisdan ularning ustiga bostirib borsin.

¹ Abduraimov M. *Temur va To'xtamish*. T.: «Sharq yulduzi», 1991, 11-son, 139-bet.

O'ylaganimdek ish kutgandim, tadbirim taqdirga to'g'ri keldi. O'rusxon elchisi bo'lgan voqealarni so'zlab berayotgan paytda, mening qo'rqmas lashkarim favjlari nogahon kelgan balodek O'rusxon ustiga yopirildilar. O'rusxon qarshilik ko'rsata olmay, qochishni ixtiyor qildi. Dashti Qipchoq mamlakati menga bo'ysundi»¹

To'xtamish bir necha jang-u jadallardan so'ng, 1379-yilda Amir Temur yordamida Oq O'rda taxtini egallashga muvaffaq bo'ladi. Voqealarning bunday rivojlanib borishidan Sohibqiron mamnun edi. Chunki Temur o'zicha To'xtamishni o'z odami hisoblar va u orqali Jo'ji ulusida siyosatini o'tkazishni rejalashtirayotgan edi. Biroq amalda hayotiy voqealar Amir Temur o'ylaganicha rivojlanmadi. «Ishtaha ovqat ustida ochiladi» deganlaridek To'xtamish Oq O'rda taxtiga o'tirgach, endi uning o'zi ham O'rusxon siyosatini yurgiza boshlaydi, ya'ni Oq O'rda va Oltin O'rdani birlashtirib kuchli Oltin O'rda xonligini tuzmoqchi bo'ladi. Ana shu niyat bilan u 1380-yilda Kulikovo maydonida bo'lgan jangda Dmitriy Donskoy tomonidan qattiq zarba yegan va kuchsizlanib qolgan Mamay ustiga lashkar tortib boradi va Kalka daryosi bo'yida unga qaqshatqich zarba beradi. Bu g'alaba To'xtamishning ezgu niyatlariga yo'l ochadi, u Oltin O'rdadagi oliy hokimiyatni egallaydi va Jo'ji ulusining har ikkala qismini birlashtiradi. To'xtamish 1382-yilda unga boj to'lashdan bosh tortgan Moskva knyazligi ustiga qo'shin tortadi. Bundan xabar topgan buyuk knyaz Dmitriy Donskoy qo'rqib, qo'shin to'plash bahonasida Kostroma shahri tomon yo'l oladi va o'sha yerda ayollar kimimini kiyib Monastrda yashirinadi. Moskvani qo'lga olgan To'xtamish uni yondiradi, boyligini talab kultepaga aylantiradi.

To'xtamish bu erishilgan muvaffaqiyatlardan hovliqib, esankirab qoladi. U Oltin O'rda xonligining O'zbekxon zamonasida (1312 – 1340)gi shuhratini tiklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va uning hududlarini kengaytirishga harakat qiladi. «It qutursa, egasini qopadi» deganlaridek endi To'xtamish o'zining ilgarigi homiysi, og'ir kunlarida joniga oro kirgan va har tomonlama unga yordam bergan Amir Temur yerlariga ko'z olaytira boshlaydi, unga qarshi siyosat olib boradi. Jumladan, u Temur kuch nigohini tashlagan Kavkazorti, Ozor yerlariga yurishlar qiladi, 1385-yilda Tabrizni bosib olish uchun u yerga katta qo'shin yuboradi. Uning nomi 17 shahardagi tangalar zarb etilgan bo'lsa-da, u Temurdek zabardast jahon-

¹ Temur tuzuklari. 42 bet.

gir bo'lishni orzu qilardi va Sohibqironga doimo hasad ko'zi bilan qarardi. To'xtamish o'zining g'arazli niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun Sohibqiron bilan shaxsan jangda bellashish niyatida bahona izlar edi.

1386–87-yilda Temur Eron Ozarbayjonini (Ilanja qal'asidan tashqari) zabt etib qishni Qorabog'da o'tkazadi. To'xtamish xuddi shu yili Temurga qarshi adovati kuchayib, 120 ming kishilik lashkarlarini Darband tarafdin yuboradi. Shomiy va Ali Yazdiylarning ma'lumotlariga qaraganda, Temur To'xtamishxonga nisbatan, xolisona va yaxshi munosabatda bo'lgan, uning qo'shini bilan jang qilmaslik yo'llarini izlagan. Ammo u To'xtamishning urushga zo'r berib harakat qilishga qaratilgan niyatlarini anglagach, o'zining Shayx Ali Bahodir, Iki Temur, Usmon Abbas kabi lashkarboshilari va o'g'li Mirzo Mironshoh boshchiligida bir necha tuman qo'shinlarini jo'natadi va ularga: «Bizning To'xtamish bilan ahdnomamiz bor va biz unga amal qilamiz, agar uning qo'shini o'zlarini jang olib borishdan tiysa, orqaga qaytinglar»¹, deb tayinlaydi. Temur qo'shinlari To'xtamish askarlarining yurish qilganligidan xabardor bo'ladilar, biroq Sohibqiron farmoniga binoan, jang qilmasdan orqaga qaytadilar. To'xtamish navkarlari esa bu holni o'jizlik alomati sifatida fahmlab, hujum uyushtiradilar. Ammo Oltin O'rdaliklar ta'zirlarini deb mag'lubiyatga uchraydilar va Darbandga chekinadilar. Bu ikki qo'shin o'rtasidagi dastlabki to'qnashuv edi. Temur yana ham og'irlik va vazminlik ruhida To'xtamish bilan munosabatni keskinlashtirmaslikka harakat qiladi. U Oltin O'rda askarlarining asirga olishi vakillari bilan iliq va yaxshi munosabatda bo'ladi. Ularni ozod qilish oldidan: «Oramizdagi munosabat otabolani kabi dir, u nega bunday noloyiq ishga qo'l urdi, hech sababsiz bu yoqqa qo'shin yuborib, minglab begunoh musulmonlar umrini zomin qildik (Temur 1385-yilda To'xtamishning Tabrizga qo'shin yuborganligini nazarda tutmovda – R.Sh. Sh. K.). Bunday xunuk ishlarga qo'l urmasin. Ahdnomaga, bergan so'ziga amal qilib, alg'ov-dalg'ov keltirib chiqarmasin», – deydi. Ammo To'xtamish Sohibqironning bu oqilona va dono maslahatlariga quloq solmaydi. Quloq solmaydigina emas, 1387–1388-yillarda u Temurning Movarounnahrda yo'qligi (chunki u Erondagi janglar bilan band edi) dan foydalanib, Movarounnahrda bostirib keladi va Xorazm hokimi Sulaymon So'fini Temurga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga ko'ndiradi.

¹ *Abduraimov B. Temur va To'xtamish. «Sharq yulduzi». 1991. 11-son, 146-bet.*

O'sha yili To'xtamish fatvosi bilan mo'g'ul amirlaridan Kamariddin Temur davlati hududlariga bostirib kiradi. To'xtamishning o'zi esa Jo'ji ulusining shahzodalari: Bek Yorliq o'glon, Ilyigmish o'g'lon, Isabeq Sotqin Bahodirlar bilan birgalikda Sig'noqdan o'tib, Savronni qamal qiladi. Albatta, Temur uzoq safarga o'tlanishdan oldin, mamlakat himoyasi tadbirlarini o'ylab, bu ishga bosh-qosh bo'lib, turish uchun otasidan qolishmaydigan o'z o'g'li Umarshayxni (Andijonda), Sulaymon shoh va Abbos Bahodirni (Samarqandda), Temurxo'ja va Okubo'ga Bahodirni (Savronda) qoldirgan edi. Oltin O'rda jangchilari son jihatdan bir necha barobar ko'p bo'lsalar-da, Savronni egalay olmaydilar.

Umarshayx Mirzo, Sulaymonshoh va Abbos Bahodirlar To'ytepada shoshilinch suratda uchrashib, Sirdaryodan kechib o'tadilar va O'trordan besh farsah narida yastangan Chuqluq tekisligida dushman bilan yuzma-yuz uchrashadilar. Biroq Umarshayxning kuchlari jangda yengiladi va Andijonga chekinadi. Mo'g'ullar dastlab, Sayram va Toshkentga, so'ngra Andijonga hujum uyushtiradilar. Mamlakat talon-toroj qilinadi. Movarounnahr taqdiri xavf ostida qoladi. To'xtamishning o'zi esa Xorazm kuchlari bilan birga Buxoroga bostirib keladi, shaharni qamal qilib, uning atrofdagi yerlarini talaydi. Buxoroliklar katta qiyinchiliklar bilan dushman hujumini qaytaradilar. Buxorodan chekingach, To'xtamish askarlari, Movarounnahrning boshqa viloyatlarini talon-toroj qiladilar. Ayniqsa, Naxshob atroflari dushmandan katta zarar ko'radi. Qozonxonning qarorgohi bo'lgan Zanjirsaroy (Qarshi shahrining kunbotar tomonida joylashgan) batamom vayron etilib, yer bilan tekislab yuboriladi. G'uzor katta zarar ko'radi. Kesh va Samarqand xavf ostida qoladi. Amir Temur To'xtamishning daf etish uchun shoshilinch choralar ko'radi va unga qarshi otlandi. Shu paytda Isfahon va Sheroz aholisi qo'zg'olon ko'tarib Sohibqironga bo'ysunmay qo'yadi. Holbuki, Isfahon Amir Temurga jangsiz taslim bo'lgan edi. Temur isfaxonliklarning o'zlaridan shaharga hokim tayinlab, o'z askarlaridan kichik bir qismini qoldirib ketgan edi. U ketgach, isfaxonliklar o'zaro bitimni buzib, Ibn Arabshoh ma'lumotlariga qaraganda, Isfahonning o'zida «Olti ming chog'lik» kishini qirib tashlaganlar. Shu boisdan, Sohibqiron 1392–1393-yillarda Sheroz va Iroqqa ikkinchi marta lashkar tortib boradi va u yerda tartib o'rnatadi.

1387-yilda Temur Janubiy Eron yerlarini egallab, Fors poytaxti Sherozda turgan paytida, Oltin O'rda xonligiga o'zi o'tkazgan

To'xtamishning Movarounnahrğa bostirib kirganligi to'g'risida chopardan xabar oladi. Manbalarda yozilishicha, chopar Samarqanddan Sherozgacha bo'lgan 2200 chaqirim (bir chaqirim – 1,06 kmga teng) masofani 17 kunda bosib o'tgan. To'xtamishning Movarounnahrğa hujumi Temurning shu darajada dahshat va g'azabini qo'zg'atgan ediki, u Erondagi harakatlarni darhol to'xtatadi va dushmani dal qilish uchun shoshilinch choralar ko'radi. Dushman zarbasiga uchragan fuqarolarga tezroq yordam ko'rsatish maqsadida, Temur yengil qo'shinlarni eng yaqin yo'llar bilan Yazd shahriga jo'natadi, o'zi esa Kermon cho'llari orqali Isfahon va Taxtapulga yo'l oladi. Amir Temurning kelayotganligidan xabar topgan To'xtamish o'z lashkarlarining bir qismini Xorazm orqali, boshqa qismini esa Sirdaryo orqali olib chiqib ketishga ulguradi.

Samarqandga yetib kelgan Sohibqiron mamlakatda yo'qligidan foydalanib, To'xtamishga yordam bergan, Movarounnahr shahar va qishloqlarining xarobazor bo'lishiga, kulining ko'kka sovurilishiga, aholining talanishi va qirg'in bo'lishiga sababchi bo'lgan Xorazm hokimlari Sulaymon So'fi va Ilyig'mish o'g'lon hamda shimoldagi ko'chmanchi o'zbek qabilalari bo'lganliklarini aniqlaydi.

Temur Movarounnahrđan qochishga tushgan To'xtamish askarlarini orqasidan quvishni o'z amirlaridan Xudoydod Husayn, Shayx Ali Bahodir va boshqalarga topshiradi. Ular dushmani quvib yetadilar va unga katta talafot yetkazadilar. Sohibqironning o'zi To'xtamishga qarshi hujum uyushtirishga shoshilmaydi. Chunki mamlakat ichida va uning yaqin atrofida Sohibqironğa muttasil dushmanlik qilib kelayotgan va tashqi dushmanlarga yordam berayotgan kuchlar bor edi. To'xtamishga qarshi uzoq safarga o'tlanish uchun, eng avvalo, ular bilan hisob-kitob qilib, orani ochiq qilib olmoq kerak edi. Bu kuchlar eng avvalo, Xorazm hokimlari Sulaymon So'fi va Ilyig'mish hamda ko'chmanchi o'zbek qabilalari edi. Shuning uchun, Temur o'z lashkarini kechiktirmasdan Xorazm sari otlantiradi. Bu paytda, Sulaymon So'fi va Ilyig'mish o'zlarining barcha qimmatbaho davlatlari va mol-mulklarini to'plab, o'z qo'shinlari bilan To'xtamish huzuriga o'tlangan edilar. Sohibqironning o'g'li Mirzo Mironshoh beshta amir bilan dushmani ta'qib qilib, Qumkent va Qoz yo'llari orqali ularga tezda yetib boradi, ularni tor-mor qilib, mol-mulklarini olib Xorazmga qaytadi. Amir Temur ular qaytib kelgach, Xorazmga yurish qilib, unga qarshi qurol ko'tarib chiqqanlarni uzil-kesil tor-mor keltiradi. Urganch shahrini egallagan

Sohibqiron uning aholisini mol-mulki bilan Samarqandga ko'chiradi. Bir necha yildan so'ng, To'xtamish ustidan g'alaba qozonib qaytgach, Amir Temur Urganch aholisiga o'z shahriga qaytishga ruxsat beradi, ammo ularni kuzatib turish maqsadida, Kent va Xiva shaharlarini mustahkamlashni buyuradi.

Amir Temur Xorazm masalasini hal qilgach, o'z qurolini qipchoqlar O'rdasining qo'shinlariga qarshi qaratadi. Bu qo'shin To'xtamishga qarashli edi. Uning asosiy avongardi (Temur qo'shinining ilg'orini «avong'or», deb atagan) Xorazm jangchilari bo'lgan ruslar, chyerkaslar, bulg'orlar, qipchoqlar, qrimliklar, yunonlar, boshqirdlar, moskvaliklar va boshqa xalqlardan tashkil topgan edi. Temur lashkarlari ularni tor-mor qilib, O'rol tog'lari tomon qochishga majbur qiladi. Bu g'alabadan so'ng, Sohibqiron 1389-yilda To'xtamishga qo'shilib, Movarounnahrda hujum qilgan To'g'luq Temurning o'g'li Xizr Xuja o'g'lon Anqoto'ra va ko'chmanchi o'zbek qabilalaridan intiqom oladi. Sohibqiron bu yurishi davomida mo'g'ul xoni Qamariddin kuchlariga ham zarba beradi. U Temur ta'qibidan qochib, Irtish daryosining narigi sohiliga o'tib, Sibir o'rmonlarida g'oyib bo'ladi. Shundan so'ng, Temur Samarqandga qaytib keladi.

Endi asosiy masala – To'xtamish bilan hisob-kitob qilish edi. Amir Temur Oltin O'rdaga yurishning g'oyatda og'ir va qiyin bo'lishini juda yaxshi bilardi. Shu boisdan, ham unga puxta va atroflicha tayyorgarlik ko'radi, chunki To'xtamish qo'shinlari turgan yerga yetib borish uchun 2500 chaqirimdan ziyod masofani bosib o'tish kerak edi. Masofa uzoqligidan tashqari, dushman ham anoyi emas, juda ayyor bo'lib, mohirona harakat qilardi. Bundan tashqari, vaziyatlar urushning cho'zilib ketishiga olib kelar, ko'p ming kishilik lashkarni zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni qiyinlashtirar va bu Temur qo'shinlari uchun halokatli oqibatlar keltirishi mumkin edi. Shu sababdan, Temur ma'lum ma'noda g'alabani tezlashtirish uchun Oltin O'rda xonligida mavqega ega bo'lgan, ammo To'xtamishdan norozi kuchlar bilan maxfiy aloqa bog'lashga erishadi va ular yordamida ko'pgina harbiy sirlarni bilib oladi. To'xtamishga qarshi yurishga barcha chora-tadbirlarni ko'rgan Temur, qurultoy chaqirib, unda dushman hujumini kutib o'tirmasdan endi uning o'zi g'animining ustiga qo'shin tortib borishga qaror qiladi. Shomiy va Ali Yazdiylarning ma'lumotlariga qaraganda, Sohibqiron 1389–1390-yilning kech kuzida Samarqanddan

chiqib, Sirdaryoga qurilgan ko'prikdan o'tib, Toshkent va Chinoz oralig'ida qishni o'tkazadi, bahorda Dashti Qipchoq sari yo'lga tushadi. Temur Xo'jandda shayx Maslahat qabrini ziyorat qiladi va shahar aholisiga o'n ming kepaki dinor sadaqa qilib, Toshkent sari yo'l oladi. Bu yerda u betob bo'lib qoladi va shu yerda davolanadi. Mirzo Mironshoh qo'shinlari Xurosondan kelib Temur lashkarlari bilan qo'shilgach, Sohibqiron qo'shinni yana bir marta ko'rikdan o'tkazadi, lashkarboshilarni taqdirlab, jangchilarga moddiy yordam (ulufa) berib, ularning ruhini ko'taradi. Kerak bo'lganlarga ot, qurol, kiyim-kechaklar ulashiladi. Har bir jangchiga yoy, 30 ta o'qli sadaq va boshqa qurollar olishni buyuradi. Har ikki jangchiga bitta qo'shimcha ot, har 10 kishi bitta o'tov, 2 ta belkurak, 2 ta so'ka, o'roq, arra, bolta, bigiz, 100 ta uchlik (o'q uchun), arqon, tarozi, mesh, qozon beriladi. Yurish paytida, har bir jangchiga bir oyda 25 - 26 funt (1 funt - 400 gramm) un beriladi. Qo'shin tartibi bilan tanishib bo'lgach, unga yo'l boshchilar etib Jo'ji ulusning shahzodalari - Temur Qutlug' o'g'lon, Kunchi o'g'lon, Oq O'rda amiri Ediqut o'zbek (mang'itlar urug'idan)larni tayinlaydi.

Amir Temur o'zi bilan faqat birgina xotini - Cho'lpon Malik Oqani oladi, qolganlarning hammasini va amirzodalarni Samarqandga qaytarib yuboradi. Shomiy bergan ma'lumotga qaraganda, Temur 1391-yil 22-yanvarda (Ali Yazdiyda esa 19 yanvar) yo'lga chiqadi. U O'troga yaqin Qorasaman degan joyda o'z chodirini qurib to'xtaganida, huzuriga To'xtamishning elchilari kirib keladi. To'xtamish ham Temur bilan bo'ladigan hal qiluvchi jangga puxta tayyorgarlik ko'radi, 500 ming kishilik lashkar tuzadi, Litvaning ulug' knyazi Vitovt bilan bitim imzolaydi, rus knyazlaridan katta yordamlar oladi. Oltin O'rda xoni Sohibqiron hujumiga bardosh bera olmasligiga ko'zi yetib siyosiy muzokaralar yo'li bilan og'ir vaziyatdan qutilish niyatida o'z elchilarini jo'natgan edi. Elchilar mo'g'ullar odati bo'yicha, Temurga sovg'a sifatida burgut va to'qqizta ot taqdim etadilar. Ular To'xtamish nomidan kechirim so'rab, uning nomasini Temurga topshiradilar. Unda Oltin O'rda xoni o'zining noma'qul xatti-harakatlari va qilgan gunohlariga tavba qilib, kechirim so'ragan va bundan keyin valine'mati amriga so'zsiz bo'ysunishni, ahdnomaga amal qilishni qayta-qayta takrorlagan edi. Biroq endi g'isht qolipdan ko'chgandi. Ulug' amir elchilarni yuqori saviyada siylab, mehmon qiladi, sovg'a-salomlar beradi. Oltin O'rda xonining qilgan gunohlarini esa kechirmaydi,

bu gal shafqatsizlik ko'rsatib, siyosiy muzokaralar olib borishni istamaydi. To'xtamishxonning mustaqillikka intilayotgani va bu yo'lda dushmanlik qilishdan ham tap tortmasligini anglab yetib, aytganlariga mutlaqo ishonmaydi. Ustiga-ustak harbiy va xalqaro vaziyat ham Temurga katta imtiyoz yaratib bergan edi. «Dastlab, – deydi Temur, – To'xtamishning dushmanlardan qochib, yaralangan holda bizga kelib qo'shilgani hammaga ayon, u o'g'il sifatida tan olinib, yuqori mulozamat ko'rsatildi. Men uning haqqi-hurmati O'rusxon ustiga bostirib bordim, o'sha qishda shunchalik lashkar-u otlarim qirilib, mulk-u aslahalarim zoye ketdi. Bularga qaramay, uning elini O'rusxon elidan ajratib berib, Jo'ji ulusiga xon ko'tarilguniga qadar jon-jahdim bilan g'amxo'rlik qildim, yordam berdim... Hokimiyat tepasiga chiqqach, u o'z kuch-u qudratiga ishonib, noshukurlik qildi. Biz Eron zaminida Fors-u Iroqni zabt etayotganimizda saltanatimiz sarhadlarini yakson etmoqqa kirishdi. Biz, u bu nojo'ya harakatiga tavba qilar, o'zini qo'lga olar, yaramasligiga, beodobligiga chek qo'yar, degan umidda e'tibor bermadik. U mag'rurlik sharobiga to'yib, aqlini yo'qotib qo'yibdiki, yaxshi bilan yomonni farqlay olmay qolibdi. U qo'shinini ikkinchi marta tasarrufimizga kiritganida biz shu zahoti unga qarshi hujum boshladik. Lashkarlarining ko'zi qo'shinimizga tushishi bilan qochishga tushdi. Endi esa u bizning maqsadimizni, o'z o'zligini bilib kechirim so'ramoqda. U o'rtamizdagi ahdnoma shartlarini bir necha bor buzdi, uning so'ziga batamom qoshilish aqldan emas... Biz o'z rejalarimizni amalga oshiramiz, qo'shinni ham shuning uchun to'plaganmiz, qolgan gaplarni keyinchalik, o'ylab ko'ramiz»¹.

1391-yil 21-fevral kungi qurultoyda Temur o'z amirlari va amirzodalari bilan kengashib bo'lgach, To'xtamishning elchilarini olib, Oltin O'rda sari yurishni davom ettiradi va otining jilovini Qozog'iston cho'llari tomon buradi. Uning lashkarlari cho'l-u biyobonlarni, osmono'par qor bosgan tog'larni bosib o'tadi. Temur juda ko'p qurbonlar berib, aprel oyining oxirlarida dastlab, kichik tog', so'ngra ulug' tog'dan oshadi.

Shomiy bergan ma'lumotlarga qaraganda, Temur o'z lashkarlariga ulug' tog' etaklarida to'xtab nafasni rostdashga buyruq beradi. Uning amri bilan har bir suvoriy va sipoh bittadan tosh olib belgilangan joyga qo'ya boshlaydi. Buyuk Sohibqiron baland tog'

¹ Abduraimov M. Temur va To'xtamish. «Sharq yulduzi». 1991, 11-son, 148-149-betlar.

choʻqqisiga koʻtarilib, magʻrurlik bilan oʻz askarlarining harakatlari kuzatar edi. Toshlardan hosil qilingan baland tepalik Samarqand sul-toniga zavq-u shavq bagʻishlardi. U lashkarga dam olishga farmon berar ekan, oddiy navkardan tortib tuman boshliqlarigacha xazinadan mukofot berishni buyuradi. Amir Temur bu tarixiy yurish toʻgʻrisida xotira qoldirmoq istagida mohir toshkesar va naqqosh sanʼatkorni oʻz yoniga chorlab, yassi toshga esdalik yozuv bitishga buyruq beradi. Hozir Sankt-Peterburgdagi davlat Ermitaj muzeyida saqlanayotgan bu sangtaroshda: «Turon Sultoni Temur ikki yuz ming kishilik qoʻshin bilan Toʻxtamishga qarshi urushga ketdi», deb yozilgan edi. Temur lashkarlari 1391-yil 4-iyunda Yoyiq (Ural) daryosini kechib oʻtadi. Askarlarga sovut va qalqonlar bilan birga yana inʼomlar ulashiladi. Bu oʻrtada, Toʻxtamish askarlaridan bir nechtasi qoʻlga olinib, ulardan harbiy ahamiyatga ega boʻlgan qimmatli maʼlumotlar olinadi. Xullas, jahon harbiy sanʼati tarixiga kirgan Temur va Toʻxtamish oʻrtasidagi jang hozirgi Samara shahri bilan Chistopol oʻrtasidagi Qunduzcha degan joyda boʻladi, jang Toʻxtamishning ustunligi bilan boshlanadi. Ammo Temur haddan tashqari sovuqqon va beparvo edi. U jang oldidan otdan tushib, ikki rakaat namozini oʻqib, soʻng, otga minib jangga otlanadi. Temurning piri – naqshbandiyalar tariqatining rahnamosi, darveshlar-u qalandarlar yoʻlboshchisi Mir Sayyid Baraka lashkarga qarata otashin va jangovar nutq soʻzlaydi, Temurga Alloh nomi bilan maʼnaviy ozuqa beradi va sening gʻalabang taʼminlangan, deb bashorat qiladi.

Darhaqiqat, Sohibqiron oʻzining ayyor va qabih raqibi boʻlmish Toʻxtamish ustidan gʻalaba qozonadi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Temur bu jangda urushlar tarixida yangi usul qoʻllagan. U oʻz askarlarini 7 favjga boʻlib joylashtiradi. Qoʻshin ikki safda joylashib, ehtiyot qism ham boʻladi. Birinchi safda chap qanot (shigʻovul), asosiy qism (korpus) – avongʻor va oʻng qanot (chopovul) avongʻorlari; ikkinchi safda – chap qanot (javongʻor), asosiy qism (korpus – avongʻor) va oʻng qanot (barongʻor); uchinchi safda – arʼyergard (asosiy kuchlardan orqadagi qism) yoki ehtiyot (zahira) dagi qismlar joylashtirilgan. Amir Temurning oʻzi boshchilik qilgan ehtiyotdagi qismlar zarur boʻlib qolgan paytlarda yuqoridagi ikki safga yordam berish maqsadida tuzilgan.

Amir Temur oʻz raqibiga ruhiy taʼsir qilish yoʻllarini ham bilgan. U jang qizib turgan bir paytda, xizmatkorlarga 8000 kishilik qismga chodirlar tayyorlab, taom tayyorlashni buyuradi.

Uch kunlik shiddatli jangdan so'ng, Temur lashkarlari to'la ustunlikka ega bo'ladilar va zafar quchadilar. Yazdiy bu jangni shunday ta'riflaydi: «Temurning muzaffar bayrog'ini ko'rgan To'xtamish-xonda qat'iyat yo'qoldi. U xon va taxt alami suviga qo'lini yuvib, qo'ltig'iga artdi va taxtga yana qaytib chiqish umidi chippakka chiqayotganini bilib, o'z jonini bermaslik g'amida uchqur otning jilovini burdi va ming bir hiyla bilan qutulib qoldi... U qochishni afzal bilgan edi»¹. Bu jangda har ikkala tomondan hisobsiz odam qiriladi. Ayniqsa, To'xtamish askarlari katta talafot beradilar. M. Ivanin bergan ma'lumotlarga qaraganda, jangchilarning ko'pi qurol zarbidan halok bo'lgan, ma'lum qismi Itil (Volga) daryosiga cho'ktirilgan, 200 chaqirimga yaqin masofadagi maydon ularning murdalari bilan qoplangan edi. Amir Temur bu urushda juda katta o'lja oladi. Mag'lublarning bekalari va xotinlari ham asir tushadi. Saroy shahridan to Azov dengizigacha bo'lgan shaharlar musodara qilindi. Ali Yazdiyning yozishicha: «O'rdadagi ayrim kishilar nene mashaqqat bilan zarur oziq-ovqat topishardi, ularning qo'y va yilqilarini ortlariga chekinayotganlarida haydab ketishga ham hollari kelmay qoldi... Temur qarorgohida huri monand qizlar va juvonlar shunchalik ko'payib ketdiki, ularning soni besh mingdan oshardi».

Sohibqiron Volga bo'yidagi sayhonlikda g'alaba sharafiga hali hech ko'rilmagan bazm beradi. U odatiga xilof ravishda bu safar askarlariga sharob ham ichishga ruxsat beradi va sovg'a-salomlar va mukofotlar ulashadi.

Ibn Arabshoh Qunduzdagi g'alabada Sayyid Barakaning o'rniga alohida e'tibor beradi va shunday yozadi: «Qo'shinlar bir-biriga o'zaro zarba berayotgan, Temur qo'shini bo'lak-bo'lak bo'lib, markazdan uzilib qolgan paytda, Sayyid Baraka maydonga tushdi. Tang ahvolda qolgan Temur: «...Pirim Sayyid Baraka, qo'shinim qochishga tushmoqda», deb unga murojaat qildi. Sayyid: «Cho'chima!», – dedi. U otdan tushib, bir siqim tuproqni oldi-da, o'zning bo'z otiga qayta minib, jon-jahdi bilan savashayotgan dushman tomonga qarata: «Yov qochdi!», deya sepib yubordi. Shunda qanotlar birlashib, jasorat namunalari ko'rsatib, inoqlik bilan yog'iyga hujum boshladilar. Dushman sarosimada qolib, orqa o'girib qochishga tushdi».

Boshqa tarixchilar ham Qunduzchadagi jangda Sayyid Barakaning o'rniga katta baho berganlar. Jumladan, Shomiy asarida o'qiy-

¹ *Abdurimov M.* Temur va To'xtamish. «Sharq yulduzi». 1991, 11-son, 151-bet.

miz: «Temur o'ziga yo'ldoshlik qilgan Sayyid Baraka kabi saidlar etagida panoh topdi». Yazdiy esa bunday deb yozadi: «Temurning kundan-kunga oshib borayotgan qudratini targ'ib etuvchilardan biri bo'lgan Sayyid Baraka mudom unga xudodan zafar tilardi. «Yog'iyning yuzi qora bo'lsin», deb g'animlar tomon bir siqim tuproqni sochib yuboradi-da, Temurga: «Istagan yeringga tap tortmay oyoq bosaver, g'alaba sen tomonda!» – deydi. Ana shu tariqa, Temur To'xtamishga qarshi ikkinchi yurishda ham zafar quchadi va 2 oylik safardan so'ng, o'z poytaxti Samarqandga qaytadi. Temur qaytib ketgach, To'xtamish yangi ittifoqchilar: Polsha va Litva hukmdorlari madadiga tayanib, yana Oltin O'rda taxtini egallaydi. U tez orada kuchli qo'shin tuzadi va yana Amir Temur yerlariga tahdid sola boshlaydi. To'xtamishxon ustidan g'alaba qozongach, Amir Temur keyingi yili yana Eron tomon qo'shin tortadi. 1392–1393-yillari Eron hukmdori Ahmad Jaloyir bilan Temur o'rtasida janglar boshlanib ketadi. Bu galgi urushning g'alaba bilan yakunlanishiga yana To'xtamishning Darband dovonidan o'tib, Sohibqironga qaram bo'lgan ozor yurt Shirvonga bostirib kirganligi xalaqit beradi. Bu yurtning hukmdori Shayx Ibrohim Darbandiy (1382–1417) bo'lib, u 1386–1387-yillardagi voqealardan so'ng, Temur hukmronligini tan oladi.

Amir Temur uchinchi marta To'xtamishga qarshi jang boshlashga majbur bo'ladi. Bu jang 1395-yil 15-aprelda Terek daryosi bo'yida boshlanadi va Sohibqironning yorqin g'alabasi bilan yakunlanadi. Bo'lib o'tgan jangda jasorat va mardlik namunalarini ko'rsatgan amir va amirzodalar, no'yonlar va jangchilarga sovg'a va mukofotlar ulashiladi. Xususan, alohida mardligi va jasurligi hamda shaxsan og'ir jang qurshovida Amir Temurning jonini saqlab qolishdagi xizmatlari uchun amir Shayx Nuriddin Bahodirni Sohibqironning o'zi zarchopon (tillo suvi yuritib tikilgan), qimmatbahho toshlar bilan ziynatlangan belbog', 100 ming kepaki tanga va yaxshi ot bilan siylaydi. Amir Temur jangda qo'lga kiritgan o'lja va boyliklarni Mirzo Mironshoh, amir Yodgor barlos, amir Hoji Sayfiddinlar ixtiyorida qoldirib, o'zi To'xtamish orqasidan ot suradi. U Itil daryosi bo'yidagi Turatur kechuviga yetib keladi va bu yerda hozir bo'lgan O'rusxonning o'g'li Qayrichak o'g'longa zarhal chopon va zarhal belbog' hadya qiladi. Amir Temur unga Itil daryosining narigi tarafidagi Jo'ji ulusi xonligini tortiq qiladi.

Sohibqiron To'xtamishxonni ta'qib qilishda davom etadi. Uning lashkarlariga bir necha zarbalar berib, Oltin O'rdaning markazi Saroy Berkani egallaydi, uning boyliklarini o'zlashtiradi. Bu Temurning Zanjirsaroy uchun To'xtamishdan olgan o'ziga xos intiqomi edi. Ana shu tariqa, To'xtamish uchinchi marta mag'lubiyatga uchraydi. Ammo To'xtamish bu safar shu darajada yanchib tashlanadiki, qanchalik harakat qilmasin, endi o'zini o'nglab ola olmaydi. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, To'xtamishni 1406-yilda amir Ediqut O'zbek qo'lga tushirib qatl etadi.

Shunday qilib, Amir Temurning To'xtamish ustidan qozongan tarixiy g'alabasi tufayli, Oltin O'rda xonligiga qarashli to Moskvaga qadar barcha yerlar Temur saltanatiga bo'ysundiriladi. Rus tarixchi olimlari B. L. Grekov, A. Y. Yakubovskiy, M. Ivanin va boshqalar Temurning bu g'alabasiga yuksak baho berganlar va uning faqat Temur saltanati uchungina emas, eng avvalo, Sharqiy Yevropa va birinchi navbatda Rossiya uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlaganlar. M. Ivanin «...bu islom himoyachisi, xristianlarning bu dahshatli dushmani, Muhammad payg'ambarni chin yurakdan e'zozlovchi bo'lgan zot Oltin O'rdaning butkul kuchsizlanishi va yiqilishining asosiy sababchisi bo'lgan va bu bilan Rossiyani uning zulmidan xalos bo'lishini hamda bu qudratli xristian davlatining yuksalishini tezlashtirdi»¹, degan edi.

4. ERON, HINDISTON VA KICHIK OSIYOGA YURISHLAR

Amir Temur Xuroson va Eronga harbiy yurishlar uyushtirganda, bu hududlarda bir necha mustaqil davlatlar bo'lib, ular o'rtasida muttasil urushlar bo'lib turardi. Xulagu davlati (1256-1336) yiqilgandan so'ng, uning o'rnida Ozarbayjonda Jaloyirlar davlati (1336-1411), Sabzavorda Sarbadorlar davlati (1337-1381), Hirotda Qurtlar davlati (1337-1381) tashkil topgan. Amir Temur 1380-yilda o'g'li Mironshoh Mirzoni bir necha lashkarboshilar bilan Xurosonni zabt etish uchun yuboradi. Qurtlar hokimi G'iyosiddin Pirali boshchiligida Hirot shahri aholisi Temur askarlariga qattiq qarshilik ko'rsatadilar. Shahar 1381-yilda taslim bo'ladi.

¹ *Ivanin M.* Ikki buyuk sarkarda. 178-bet.

Amir Temur Eronga qarshi 1386-yildan boshlab, 1388-yilgacha «uch yillik», 1392-yildan boshlab, 1396-yilga qadar «besh yillik» va 1399-yildan boshlab, to 1404 yilga qadar «yetti yillik» urushlar olib boradi. Eronning Qobusxon, Tuyo, Nishopur, Sabzavor kabi shaharlari Temurga jangsiz taslim bo'ladi, chunki shahar hokimlari o'z shaharlarining xarobazorga aylanishini istamaydilar.

1383-yilda Sohibqiron lashkarlari Seistonni va Balujistonni egallab, Eronning janubiy va shimoli g'arbiy hududlari tomon siljib boradi. 1387-yilda fors viloyatining hukmdori Shohshujo ixtiyoriy suratda Temurga taslim bo'ladi. Hatto, u qizining Jahongir Mirzoning o'g'li Pirmuhammadga xotinlikka berib, ikki o'rtadagi sulhni nikoh bazmi bilan mustahkamlaydi.

Ammo Isfahonda vaziyat og'ir kechadi. Dastlab, Temurga taslim bo'lgan shahar aholisi boj to'lashdan bosh tortib, bir kechada Sohibqiron askarlaridan 3 ming kishini qirib tashlaydi, bu voqeadan xabar topgan Temur Isfahonda qurol ko'targan barcha kishilarni qirg'in qilishga buyruq beradi.

1382–1397-yillardagi bir necha yurishlardan so'ng, Temur Ozarbayjon, Armaniston, Astrobod va Mozandarinni qo'lga kiritadi. 1402-yilga qadar Gurjistonga besh marta yurish qilib, uni egallaydi. Xullas, Amir Temur G'arbda Kichik Osiyogacha, Janubda Arabiston yarimoroligacha bo'lgan hududlarni egallaydi. Fransuz olimi Jan Pol Run «Tamyatlan» kitobida, Eronning Temur tufayli keyinchalik, hech ko'rmagan tinchlikka erishganligini, farovonlik hukm surganligini, savdo rivojlanganligini, mustahkam davlat boshqaruvi yuzaga kelganligini ta'kidlaydi. Biroz muddat Samarqandda dam olgach, Amir Temur endi zo'r berib Hindiston sari yurish uchun tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

1398-yilning may oyida, Amir Temur 92 ming kishilik (ba'zi manbalarda 90 ming) qo'shin bilan Hindistonga yurish boshlaydi. Bu urushni u Muhammad payg'ambar e'tiqodini yoyish, payg'ambar nomini ko'klarga ko'tarish, butparast va kofirlarni islom diniga kiritish, bu yerdagi feodal tarqoqlik va o'zaro urushlarga barham byerish bayrog'i ostida olib boradi. Sohibqironning o'zi bu haqida «Tuzuklar»da shunday deb yozgan edi: «Qur'oni majiddan fol ochsam, ushbu ulug' oyat chiqdi: «Ey payg'ambar, kofirlarga va munofiq'larga qarshi jahd qilgil... So'ngra... iqbolimiz xonasi – Hindistonga qarata qo'l ko'tarib, zafar-u fath fotihasini o'qidim»¹.

¹ Temur tuzuklari, 47-bet.

Amir Temur Qashqadaryo vohasidan chiqib, Termiz orqali yurib, avgustda Qobulni egallaydi. U yerdan Hindiston chegaralari tomon kirib borib Tulumbi, Mo'ltan, Dibalpur, Sarasti, Fathobod, Somona, Asandiy, To'qloqnur, Panipat va boshqa shahar va qal'alarni birin-ketin egallab, dekabr oyida Hind daryosidan o'tib Dehliga yetib boradi. Dehli Sultoni Feruzshoh vafotidan so'ng, bu yerda o'zaro kurashlar avjiga chiqqan edi. Xususan, butparast, otashparast kofirlarning musulmon mazhabidagi aholini chiqishtirmay qo'rganliklari Sohibqironning g'azabini qo'zg'aydi. Dehli hokimi Sulton Mahmud (1393–1413) Amir Temur lashkarlariga qarshi o'z sarkardasi Malluxon boshchiligida 10 020 yaxshi qurollangan otliq askar, 40 ming piyoda jangchi va 120 zanjirband fillarni qo'yadi. Kamon otuvchilar joylashtirilgan bu fillarning ustiga o'q nayza va qilich zarbidan himoya qiluvchi yopqich yopib, qoziq tishlarning uchiga zahar surtilgan katta pichoqlar bog'lab qo'yilgan edi. Fillar yonida cho'g' to'ldirilgan xumcha, yonayotgan mum yoki neft otuvchi naftandozlar, yerga tushib ko'plab marotaba zarb bera oladigan temir poynakli bamisoli raketa quroli singari dahshatli vositalar bor edi. Bu dahshatli qurol (raketa)dan Sohibqiron zarracha bo'lsa-da, cho'chigan emas, chunki bunday qurolni uning o'zi Urganch qamali chog'ida qo'llagan edi. Amir Temur kutilmagan jangovar, bahaybat fillar muammosini hal qilish uchun unga qarshi oqilona tadbirlar qo'llaydi. Arabshoh bergan ma'lumotlarga qaraganda, fillarga qarshi ishlatish uchun chetlari qayrilgan va uchi o'tkir uchburchakli «temir tikonlar»dan minglab tayyorlanib, fillar kirib keladigan jang maydonlarini «minalashtirib» chiqqanlar. Bu fillar va ularning egalariga kulfat-u ofatlar keltiradi. Bundan tashqari, Amir Temur topshirig'i bilan Sulton Mahmud Dehlaviyning fil va askarlariga qarshi tualardan foydalanilgan. Tualarning boshiga va ikki yon tomoniga hashak hamda tikan bog'lab, ularni yoqib dushman tomon haydaganlar. Bu fillarnigina emas, hatto, askarlarni ham qo'rquv va dahshatga solgan. Temur yana o'z askarlariga o'q va nayzalarni fillarning badanlariga qarab otmay, ularning xartumlarini qilich bilan kesib tashlashni buyuradi. Natijada, olov dahshatining yopirilib kelayotganligi va Temur askarlarining bergan zarbalari oqibatida o'z xartumidan judo bo'lgan jangovar fillar tartibsiz suratda orqaga tumtaraqay qochib, Sulton Mahmud askarlarini pala-partish yanchib, to'zitib yuboradi, bundan foydalangan Amir Temur Sulton Mahmud qo'shinini zarb bilan yanchib tashlaydi. Dehli hokimi shaharning

qarama-qarshi darvozasi orqali qochib qolishdan boshqa chorani topa olmaydi. Boy va badavlat Dehli shahri Sohibqironga jangsiz taslim bo'ladi. Amir Temur Dehlidan keyin deyarli katta qarshilikka uchramaydi. U Hindistonda juda ko'p qullar va boyliklarni qo'lga kiritadi va ularni 1399-yil mart oyida o'z poytaxti Samarqandga olib keladi. Bular orasida ko'zni qamashtiruvchi juda katta, olovdek yonib turgan qip-qizil javohir – «Chirog'i olam» alohida qimmatga ega edi. Yoqutning yuziga buyuk Amirning nomi o'yib yoziladi va Samarqanddagi yigirma besh ming noyob javohirlar qatoridan joy oladi.

Temur Samarqandga qaytib kelgach, g'arbga tomon bo'ladigan yurishlarga puxta tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Yozma manbalarda uzoq safarga o'tlanish oldidan Amir Temurning o'z askarlariga yetti-yillik maoshni tarqatganligi qayd etiladi. Bu urush asosan, Turk Sultoni Boyazid Yildirimga qarshi qaratilgan edi. Ikki buyuk turk hokimi o'rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshilik borgan sayin kuchayib boradi. Amir Temur Boyazid (1389–1403) bilan hal qiluvchi jangga shoshilmaydi, iloji boricha bu urushning oldini olishga, uni tinch, siyosiy vositalar bilan hal qilishga urinadi. Chunki o'zini Islom himoyachisi hisoblagan buyuk Sohibqiron Boyazidning xristianlar bilan jang qilayotganligini yaxshi bilar edi. Ammo Temurning bu intilishlarini o'ziga haddan tashqari bino qo'ygan va o'z qudratini yuqori baholagan Sulton Boyazid nazar-pisand qilmaydi, Sohibqironni kamситиб haqoratlaydi va ikki o'rtada boshlangan urushga asosiy sabab bo'ladi. Buni tarixiy voqealar ochiq-oydin isbotlaydi. Qora quyunli turkman qabilasining hokimi Qora Yusuf 1388–1399-yillarda Armaniston, Iroq va Ozarbayjon sarhadlarida bir necha marta Temur lashkarlariga qarshi janglar olib borgan. Unga Ahmad Jaloyir ittifoqdosh bo'lgan. Qora Yusuf bilan Ahmad Jaloyirni Sulton Boyazid o'z himoyasiga oladi va ularga boshpana beradi. Amir Temur Boyazidga o'z elchisi orqali xat yozib, Qora Yusufni unga topshirishini talab qiladi: «Yer-u ko'kni yaratgan Tangri taologa cheksiz shukrlar bo'lsinki, yetti iqlim mamlakatlarining ko'pini mening farmonimga kirgizdi va olam Sultonlari va hokimlari menga egilib, itoat qilish halqasini jon quloqlariga taqdirar. O'z qadrini bilib, haddidan oshmay, jasorat ayoqlarini tiygan bandasini Tangri yorlaqasin. Sening nasli nasabing kim ekanligi jahon xalqi oldida ma'lumdir. Shunday

ekan, xolingga munosib ish tutib, jur'at ayog'ini oldinga qo'ymaki, ranj-u mehnat balchig'iga botib, balo chuquriga yiqilgaysan. Iqbol eshigidan haydalgan bir to'da ig'vogar kishilar g'arazli ishlarini bajarish uchun sening panohingdan joy olib, uxlab yotgan fitnani uyg'otmishlar. Yana o'shalarining ig'vosi bilan ofat va balo eshigini davlatning yuziga ochmagil. (Mazkur maktub yetishi bilan) Qora Yusufni mening oldinga yuborgil. Yo'q esa, taqdir pardasi ikki lashkar saflari to'qnashganda yuzingga ochilg'usidir»¹.

Ibn Arabshohning ma'lumotlariga qaraganda, Amir Temur nomasini olgach va uning mazmunini fahmlagach, Boyazid o'rnidan sapchib turib ketgan va Sohibqironni har xil bo'lmag'ur so'zlar (haromi, qon to'kuvchi, zinogir buzuqi, qing'ir) bilan haqoratlab, unga yozgan xatining so'ngida quyidagilarni yozgan: «...Men bilimanki, bu so'zlar seni hech to'xtatmasdan bizning mamlakatimizga tomon otlantiradi. Agar sen (biz tomonga) kelmasang, sening xotinalaring uch taloq bo'lsin. Agar sen mening yurtimga kelsang-u men senga qarshi qat'iy urush qilmay qochsam, u vaqtda mening xotinlarim uzil-kesil uch taloq bo'lsin»².

Amir Temur Sulton Boyaziddan bunday haqoratli xatni olgandan so'ng, ikki o'rtada qonli muhorabaning bo'lishi aniq bo'lib, qoladi. Ibn Arabshoh yana davom etadi: «Qachonki Temur uning (Boyazidning – R.Sh. Sh. K) iztirobli javobidan voqif bo'lgach, «Ibn Usmon majnun va ahmoq», dedi. Chunki u aziyatli holda haqorat qilgan edi. Temur uning javobidan xotinlarni zikr qilgan joyini o'qib, xotima qildi. Chunki xotinlarga til tegizish ularda katta ayb bo'lib g'oyat gunoh hisoblanadi. Hatto, ular xotin va qizlarning ismini talaffuz qilmay, ularning har birini boshqa bir ibora bilan ataydilar hamda bu narsadan saqlaninglar, deb (odamlarga) doimo uqtirardilar. Agar ulardan birontasining xotini qiz tug'sa, unda uni «pardalik bola» yoki «ziynat sohibi», yoki «mastura» yoki shunga o'xshash (ibora)lar bilan ataydilar»³.

Amir Temurning G'arbgga tomon yurishi 1399-yilda boshlanib, 1404-yilgacha davom etgan. Bu tarixga «Yetti yillik urush» nomi bilan kirgan. U yo'l-yo'lakay gurjilar isyonini bostirib, qish mavsumini Qorabog'da o'tkazadi. 1400-yil avgustda Temur Boyazidni qo'rqitib qo'yish yoki uni urush e'lon qilishga majbur etish maqsa-

¹ Temur tuzuklari. 51-bet.

² *Ibn Arabshoh*. Amir Temur tarixi. I-kitob, – T.: «Mehnat», 1992, 258–259-bet.

³ O'sha joyda.

dida, turk Sulтони o'ziniki hisoblagan Kichik Osiyoning hosildor yerlarida joylashgan ikkita muhim qal'a – Sivos va Milatiyani bosib oladi. Bu qal'alar keyinchalik, Amir Temurning Kichik Osiyodagi bo'lajak harakatlari uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Sohibqiron endi o'z nigohini Shom (Suriya) yurtiga qaratadi. Chunki bu mamlakat Boyazid bilan yaqin aloqada bo'lgan Misr Sulтони Farajga qarar edi. Mabodo Sohibqiron Boyazidga qarshi urush boshlagan taqdirda Faraj unga yordamga kelishi mumkin edi-da. Amir Temur Misr Sul-tonini tor-mor keltirib, uni qochishga majbur qiladi va Damashqni egallab oladi, so'ng, Mo'sulga o'tadi. Bag'dod urushsiz Sohibqiron hokimiyatini tan olgan bo'lsa-da, shahar aholisi g'alayonlarini bahona qilib, Temur 1401-yilida u yerga bostirib boradi va ikki oylik qamaldan so'ng, shahar istehkomlari va qo'rg'onini egallaydi. Chunki Temur Boyazid bilan urush bo'lgan taqdirda turk Sul-tonining qo'li baland kelsa, Bag'dod uning ittifoqchisiga aylanishi mumkinligini yaxshi bilardi. Amir Temur 1402-yilda u yerdan o'tib gurjilarning isyonini yana bir marta bostiradi. Sohibqironning bu harakatlari Sul-ton Boyazidning asablarini batamom ishdan chiqaradi.

Amir Temur Boyazid bilan yozishmalar qilib, uning atrofidagi yerlarni o'ziga qaratish uchun urushlar olib borib, u bilan bo'ladigan bevosita jangni paysalga solishi va cho'zishdan aniq maqsad va muddaolarni ko'zlagan edi. Birinchidan, u Boyazidni yakka lab qo'yadi va ittifoqchilaridan mahrum etadi. Ikkinchidan, u shu davr mobaynida dushmannning xususiyatlarini, ko'pli va kuchsiz tomonlarini, urush sodir etiladigan joyning sharoitlarini o'rganadi. O'zining orqa tayanchini mustahkamlaydi, lashkarni kerakli oziq-ovqat zahiralari bilan ta'minlash va zarur bo'lib qolgan taqdirda chekinish uchun qulay yo'l-yo'riqlar hozirlaydi. Rivoyat qilishlaricha, o'sha davr Sharqining eng bilimdon munajjimlaridan bo'lgan Abdulloh Lisson yulduzlarga qarab, g'alaba Amir Temur tomonida bo'lishligini bashorat qilgan edi. Bu hol Sohibqiron askarlarining ruhini ko'targan.

Usmonli turklar saltanatining Sul-toni Boyazid Yildirim esa o'zining g'arbda erishgan muvaffaqiyatlariga haddan tashqari, baho berib, maishat va kayf-u safoga mukkasidan ketgan edi. Bu barcha musulmonlarning undan nafratlanishi va yuz o'girishiga sabab bo'ladi. Buning ustiga, Boyazid ikki muqaddas shahar – Makka va Madinaga ziyorat uchun borayotgan karvonlarni talash bilangina cheklanib qolmasdan, hatto, Amir Temurga qarshi isyonlarga ham

boshchilik qilgan oqquyunlu va qoraquyunlu qabilalarining boshliqlarini o'z himoyasiga olgan edi. Ularni topshirish to'g'risidagi Temur nomalarini Boyazid hatto, eshitishni ham istamaydi. Chunki u o'zini yengilmas ulug' Sulton deb biladi. Albatta, Boyazid o'z davri uchun jangovar va kuchli lashkar tuzgan edi. Bu qo'shin bilan u Bosfor bo'g'ozini orqali o'tib, butun Bolqon yarimorolini egalashga o'tlanadi. U dastlab, Bulg'oriya yerlarini bosib oladi. Sulton Boyazidning tahdididan vahimaga tushgan Yevropa qirollari Burgundiya gersogi marshal Busiko qo'mondonligida birlashgan qo'shin tuzadilar va turk Sultoniga qarshi salb yurishiga hozirlanadilar. Ikki o'rtadagi jang 1396-yilda Nikopol (Bulg'oriya) da bo'ladi. Bu jangda 100 ming kishilik qo'shinga qo'mondonlik qilgan Sigismund yengiladi, o'zi va lashkarboshilari asirga tushadi. Tutqunlikdan qutulgan Busiko o'z vatani Fransiyaga bormasdan, Vizantiya imperatori Manuil III Paleolog xizmatiga kiradi va Genuya shahri gubernatori mansabini egallaydi. U Manuil III rahnamoligida 1200 ta saralangan ritsarlardan iborat qo'shin to'plab, 1399-yilda yana Sulton Boyazid bilan jang qiladi. Ammo marshal bu safar ham Konstantinopol shahri yaqinidagi jangda yengiladi. Shundan so'ng, chorasiz qolgan Manuil III va marshal Busiko o'z homiylari bo'lmish G'arb mamlakatlariga yordam so'rab murojaat qiladilar. Lekin Fransiya qiroli Karl VI ham, Angliya qiroli Genrix IV ham, Kastiliya qiroli Genrix III ham, hatto, Rim papasi ham ularga yordamni paysalga solib kechiktiradi. Buning sababi shunda ediki, ular ikki turk hukmdori – Boyazid bilan Temur o'rtasidagi voqealarning qay yo'sinda rivojlanishini ustalik bilan kuzatar edilar. Albatta, Yevropa hukmdorlari ikki jahongirning o'zaro to'qnashuvini istar edilar. Chunki har ikki qudratli hukmdor o'zaro urushib bir-birlarini holdan toydirlasalar, Yevropa uchun foyda keltirishini ular yaxshi bilganlar. Ammo Sulton Boyazid ham, Amir Temur ham G'arbgga qarshi birlashib harakat qilish uchun umumiy til topa olmaydilar, ular o'zaro urushda bir-birlarini holdan toydirib, umumturkiy xalqlarning qudratini zaiflashtirajaklarini anglab yetmaydilar. Yevropa hukmdorlari esa mohirlik bilan ikki turk jahongirni bir-biriga qayrar edilar. Vizantiya imperatori Manuil III va Fransiya qiroli Karl VI o'z elchilarini, Rim papasi esa o'z monaxlarini shoshilinch suratda Amir Temur huzuriga yuborib, unga o'zlarining xayrixohliklarini izhor qiladilar. Genuya va Venetsiyadan kelgan elchilar esa o'z hukmdorlarining Bosfor bo'g'oziga kemalar chiqarib, Sulton

Boyazidning dengizdagi yo'lini to'sishga shay turganligini bildirishadi. Kastiliya qiroli Genrix III bo'lsa o'z elchilari Payo de Soto Mayor va Ernan Sanches de Palasuelosga shoshilmaslikni, ikki turk Sultoni qo'shinlari haqida ma'lumot to'plash va urushning borishini obdan kuzatishni topshirgan edi.

Amir Temur 1402-yilning aprel oyida Quriya daryosini kechib o'tib, birin-ketin Tartum, Kemox va Qaysmriya kabi qal'a-shaharlarni egallab, Turkiya bilan Suriya va Bag'dod aloqalari yo'lini kesib qo'yadi. U bu yerdan Anqara qal'asi tomon harakat qiladi va to'rt kunda 120 chaqirim yo'lni bosib o'tib, Kir shahriga kirib keladi. Bu yerda Sohibqiron g'azabga to'lgan Boyazid o'z qo'shinlari bilan yetib kelayotganligidan xabar topadi. Boyazid to'g'risida batafsilroq va to'laroq ma'lumotlar to'plash maqsadida, Temur o'zining 1000 chavandozini uning yo'nalishi tomon jo'natadi. Sohibqironning o'zi asosiy lashkarlari bilan uch kun mobaynida 150 chaqirim yo'lni bosib o'tib, Anqaraga keladi. Temurning asosiy maqsadi Boyazidni Turkiya poytaxti Bursadan o'zib qo'yish va jangni o'zi uchun qulay bo'lgan vaziyatga yo'naltirishdan iborat edi.

Amir Temur bilan Sulton Boyazid o'rtasida tarixda «Anqara jangi» nomi bilan mashhur jang 1402-yil 20 iyulda boshlanadi. Tarixiy yozma manbalarda, ikki o'rtadagi kuchlar nisbati to'g'risida turlicha va har xil ma'lumotlar uchraydi. Ba'zi mualliflar Boyazid ustidan Amir Temur g'alabasining ahamiyatini kamsitish maqsadida, Sohibqiron lashkarlari sonini 800 ming (jami), urushda qatnashganlari esa 300 –350 ming bo'lgan. Sulton Boyazidniki esa 200 –250 va hatto, 120 ming (M. Ivanin) deb ko'rsatadilar. Ibn Arabshoh esa Temur qo'shinlarini bir million bo'lgan, deb bo'rttiradi. Ko'pchilik manbalarda, jangda har ikkala tomondan 400 ming kishidan iborat lashkar qatnashganligi haqida haqiqatga yaqin ma'lumot ustunroqdir. Bugungi kunda ko'plab adabiyotlarda Anqara jangida har ikki tomondan jami 360 ming qo'shin qatnashgani holda Amir Temur tomonidan 200 minglik qo'shin, Boyazid tarafidan esa 160 minglik qo'shin qatnashgani haqida ma'lumot berilmoqda.

Anqara jangida Temurning buyuk sarkardalik mahorati, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. 200 ming kishilik Temur qo'shinining o'ng qanotiga o'g'li Mironshoh, chap qanotiga nabiralari Sulton Husayn va Halil Sultonlar, kenja o'g'li Shohrux qo'mondonlik qiladi. Qo'shin markazini Temurning sevimli nabirasi Muhammad Sulton boshqaradi. Markaz va qanotlar ortida Temurning o'zi va ikki na-

birasi Pirmuhammad va Iskandarlar – zaxiradagi kuchlar hal qiluvchi zarbaga tayyor edilar. Boyazid qoʻshinlariga Sultonning qaynisi Serb knyazi Lazarevich va oʻgʻillari boshchilik qiladi. Anqara jangi Sohibqironning yorqin gʻalabasi bilan yakunlanadi. Bu yerda Amir Temurning nafaqat buyuk harbiy sarkarda va lashkarboshiligi, ayni zamonda, mohir va usta davlat arboblari xos diplomatligi ham oʻz kuchini koʻrsatadi. U tarixiy Anqara jangi oldidan ustamonlik bilan Sulton Boyazid lashkari safida qahramonlaricha jang qilayotgan asosiy avangʻor kuch boʻlgan totorlarning Fozil boshchiligidagi rahbarlari, amirlari, boshliq va ulugʻlariga ular qalbini toʻlqinlantiruvchi xat yozib, turk Sultonidan oʻz tomoniga agʻdarib oladi.

Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi»da keltirilgan oʻsha xatda jumladan, quyidagilarni oʻqiymiz: «(Darhaqiqat), sizning martabangiz (mening) martabam – nasabingiz – nasabim bilan muttasil, (bizning) mamlakatimiz (sizning) mamlakingiz, ajdodimiz – sizning ajdodingiz, biz hammamiz bir daryoning irmoqlari-yu bir daraxtning butoqlarimiz. Qadim zamonlardan beri bizning ota-bobolarimiz bir uyadan oʻsib-undilar va ozgina inda koʻpayib, daraja topdilar. Shu sababdan, ham, shubhasiz, sizlar mening shoxobchalarim va butoqlarimdan biri; mening aʼzoyi badanimging bir aʼzosi, menga xolisona (kishilar) va doʻstlarimsiz. Sizlar men uchun ichki kiyim boʻlsangiz, boshqalar esa faqatgina sirtqi kiyimdirilar. Agar oʻzgalar podshohlik (martabasi)ni (kurashib) qoʻlga kiritisa, siz esa bu martabaga nasl-u nasab yuzasidan erishgansiz, chunki sizning ota-bobolaringiz qadim zamonlarda Turon yerlarining podshohlari boʻlganlar. Ulardan bir toifasi oʻz ixtiyorlarisiz bu diyorlarga kelib, shunda Vatan tutib qolganlar. Ular, xuddi hamisha boʻlganlaridek, karomatda turib, saltanat belgilari-yu riyosat jilovlarini tutib yurganlar hamda shu surur-u shodlikda davom etib, nihoyat tangri taoloning rahmatiga muassar boʻlgunlaricha mana shunday izzat-u ikromda boʻldilar. Marhum Ertana sizning oxirgi podshohingiz boʻlib, Rim yerlaridagi eng ulugʻ hokim sizning eng kichik mamlakingiz misoli edi. Xudoga shukurki, sizning shavkatingizda zaiflik, farogʻatingizda nosiqlik yoʻq. Qanday qilib, siz oʻzingiz shunday xoʻrlanishga rozi boʻldingiz, goʻyoki siz sehrlangan (kishi)ki, oʻzgalarga malay boʻlishlikka sabr-u toqat qilasiz? Ulugʻlarning ham ulugʻi boʻlgandan keyin qanday qilib, siz kichiklarning ham kichigi boʻlib, qoldingiz? Sizlar xor-u zorligi, ayanchli ahvolda emassiz-ku, vaholanki tangri taoloning yeri bepoyon. Nega endi siz (oʻzi) Ali Saljuqiy tomonidan (qullikdan)

ozod qilingan qullarning avlodlaridan bo'lgan kishining quli bo'lib qoldingiz. Buning sababi-yu boisiga (aslo) mening aqlim bovar qilmayotir. Ixtilof va kelishmovchlikdan bo'lak (narsa) bo'lmagan bunaqa birodarlig-u yaqinlik qayerdan paydo bo'ldi? Lekin har holda men siz avvalo (kishi) men va sizning foydangiz uchun haq gapni so'zlayman hamda kelgusi ishlaringiz uchun zamin hozirlayman. Agar sizga bu yerlarda yashamoq lozim bo'lib, o'sha keng o'lkalarni Rim – tor yerlariga sotish zarur bo'lsa, u vaqtda sizlar eng kamida o'z ajdodlaringiz kabi bu (mamlakat)larning hokimlari bo'lib, qal'alar idorasining yugani sizlarning qo'lingizda bo'lsin; sizlar u yerlar o'rkachida o'tiring va unda (mamlakatda) qo'lingizni cho'zib, bemalol (uning) jilovini boshqaring. Bu muhim ish qachonki, biz ushbu urushga kifoya qilib, bu kurashdan o'z murodimizga erishsak va maydon bizniki bo'lib, o'rtadan Ibn Usmon ko'tarilsa (shundagina) hosil bo'ladi. Qachonki borliq g'animdan tozalanib, bu mamlakat joylari xolis meniki bo'lsa, men uning yo'l va yo'lkalarida yursam, shunda men yoyni yasagan (odam)ga borib, uyni esa bino qilgan odamiga ato qilaman, suvlarni o'z oqimiga qaytarib, sizlarni ular qishloqlari, qal'alari, shaharlari va atroflarining hokimi etib tayinlayman. Sizlardan har biringizni o'zi sazovor bo'lganiga yarasha martabasiga qaror toptiraman. Faqat sizlar (urushda) bizlarga qarshi yordam bermay, biz tomon o'tishga imkon topasiz. Fursatingizni g'animat biling va undan o'z hissangizni olishda foydalanib qoling. Chunki siz ham surat, ham mazmun jihatidan bizga yaqinsiz. Ammo hozircha zohiran Ibn Usmon bilan bo'lib, botinan biz bilan bo'ling. Qachonki bizlar uchrashganimizda (ulardan) ajralib chiqib, bizning askarimizga qo'shiling»¹.

Bu xat Boyazid Yildirim lashkarlari safidagi totor jangchilari aqliga u shu darajada moyil bo'ladiki, ikki o'rtada hal qiluvchi to'qnashuv bo'lganda ular batamom Amir Temur lashkarlari tomon yopirilib o'tadilar. Shundan so'ng, jangning boy berilayotganligini ko'rgan Boyazidning to'ng'ich o'g'li Sulaymon Chalabiy Bursaga, ikkinchi o'g'li Muhammad shimoli sharq tomondagi tog'larga, uchinchi o'g'li Iso janubga tomon otani tashlab qochadilar. Amir Temur g'alabani poyoniga yetkazish va bir zarb bilan urushni tugatish maqsadida, Boyazidni har tarafdin, Sharafiddin Ali Yazdiy iboralari bilan aytganda, «ovchilar xalqa bo'lib, hayvonni qurshab

¹ *Ibn Arabshoh*. Amir Temur tarixi. 2- kitob. – T.: «Mehnat», 1992. 265–266-bet.

olganlaridek» oʻrab oladi. Uni Amir Temur huzuriga keltiradilar. Bu jangda Boyazidning xotini Syerb malikasi Olivyera, oʻgʻillaridan Muso va Iso Chalabiylar asirga tushadi. Sulaymon Chalabiy esa Bursaga borib, kemaga tushib qochishga zoʻrgʻa ulguradi.

Amir Temur shiddatli hujumni davom ettirib, butun Kichik Osiyoni egallaydi va Oʻrta Yer dengizining sharqiy sohilida joylashgan Izmir shahriga yetib boradi. Oʻrta Yer dengizida joylashgan Xios va Lesbos orollaridagi Genuya mulklarining hukmdorlari ham Amir Temur hukmronligini tan oladi, ayni chogʻda, Misr podsholari ham taslim boʻladilar.

Temur lashkarlari Kichik Osiyoni, uning markaziy shaharlari Anqara, Nikeya, Bursa, Izmir va boshqalarni egallaydilar, juda koʻp boyliklar qoʻlga kiritiladi. Bunday yorqin gʻalabadan soʻng, Amir Temur oʻzining azaliy odatiga koʻra, oʻz jangchilariga Kiyuytoyda katta ziyofat beradi, sovgʻa-salomlar va inʼomlar ulashadi. Sohibqiron bu tarixiy gʻalabani ertasi kuniyoq Kastiliya qiroli Genrix III elchilari Payo de Soto Mayor va Ernan Sanches de Palasuelosni qabul qiladi. Elchilar ulugʻ Amirni erishilgan gʻalaba bilan tabriklaydilar va unga oʻz qirollarining minnatdorchiligini izxor etadilar. Sohibqiron ham oʻz saltanatining sarhadiga yaqin boʻlgan Yevropaning qudratli qiroli Genrix III elchilariga katta mulozamat koʻrsatib, Boyazid haramida asiralikda saqlanayotgan Gretsiya hukmdorining qizlari Anjelina, Katalina va Mariyani hamda oʻljaga olingan avliyo Mixailning oltin haykalini inʼom qiladi.

Amir Temur ayni zamonda, oʻz aʼyonlaridan Muhammad al-Keshiyi yorliq bilan qiroli Genrix III huzuriga elchi qilib, yuboradi. Jahongirning Sulton Boyazid ustidan erishgan shonli gʻalabasini Fransiya va Angliya qirollariga yetkazish niyati bilan Temur maktablarini olib, Sultoniya arxiepiskopi Ioann ham shoshilinch ravishda gʻarb tomon yoʻl oladi. Oradan bir yil oʻtgach, Kastiliya qiroli Genrix III oʻz elchilarini sovgʻa-salom va birodarlik yorligʻi bilan Samarqandga Temur huzuriga joʻnatadi. Jumladan, 1403-yil 21-mayda Ispaniyadan joʻnab ketgan elchilar Konstantinopol, Trapezun, Eron, Balx, Termiz, Kesh orqali Samarqandga yetib keladilar. Ularning ichida Rui Gonsales de Klavixo ham bor edi. Ular Temur saroyida katta hurmat va tavoze bilan kutib olinadilar. Klavixo 1404-yilning sentabr – noyabr oylarida Samarqandda boʻlgan davridagi oʻz xotirotlarini «Buyuk Temur tarixi» va «Temur qarorgohi Samarqandga safarot kundaligi» asarlarida batafsil yoz-

gan. Fransiya qiroli Karl VI va Angliya qiroli Genrix IV larning javob nomalarini olgan arxiepiskop Ioann ham Yevropa qirollari bilan Sohibqiron Temur oʻrtasidagi birodarlikni mustahkamlash niyatida orqaga qaytadi.

Ammo Amir Temur Usmonli turklar davlatini batamom tagtomiri bilan tugatish tarafdori emas edi. Unga buning hech qanday manfaatli tomoni ham boʻlmagan, kerak ham emas edi. Temurning Kichik Osiyoga lashkar tortishiga, asosan, Boyazidning kaltabin va uzoqni koʻra bilmas siyosati sabab boʻlgan edi. Shu boisdan, akademik Boʻriboy Ahmedovning «Amir Temur» tarixiy romanida hikoya qilinishicha, buyuk sarkarda bagʻrikenglik qilib, Boyazid Yildirimni bir necha kun oʻgʻli bilan Humoyun Oʻrduda mehmon qilib, soʻng, «...Rim mamlakatini Boyazidxonning inon-ixtiyoriga topshirib, joʻnatib yubordi» (552-bet). Ammo turk Sultoni oʻz qilmishiga pushaymon boʻlmaydi va xatosini tushunmaydi. Sulton Boyazid poytaxt Bursaga bormaydi, balki Oq shaharda qoladi va Shayx Mahmud xonaqosida yashaydi. U shu yerda 1403-yil 8-martda vafot etadi. Sulton Boyazid qabrini oʻz vasiyatiga binoan Shayx Mahmud Xayron mozoriga qoʻyadilar. Turk Sultonining vafoti haqidagi xabarni eshitgan Amir Temur ich-ichidan achinadi va u hatto, Oq shaharga kelib, Boyazid Yildirimning bolalari, qarindosh va yaqinlariga chuqur taʼziya izhor etadi. Boʻriboy Ahmedovning taʼkidlashicha, ulugʻ amir «ularga podshohona siylash va navozishlar koʻrgazadi, ularning har biriga zardoʻzi chopon kiygizadi, oʻgʻli Musoga esa xos halʼat, murassa kamar, shamshir va yuz bosh nasldor ot inʼom etib, Bursa va Rim mamlakatini unga topshiradi». Bu haqida unga ol tamgʻa bosilgan maxsus yorliq ham beriladi. Soʻng, Musoga: «Otangizning muqaddas xokini Sultonlarga xos izzat-ikrom bilan Bursaga olib borib, tirikligida oʻzi qurdirib qoʻygan oliy imoratga dafn ettiring». – deb aytadi (553-bet). Boyazidning qochib yurgan toʻngʻich oʻgʻli Sulaymon Chalabiyni u turklarning Yevropadagi viloyatlariga hokim qilib tayinlaydi, hukmdorlik toji va yorliqlar inʼom etib, mansabdorlik sarposini kiygizadi. Andropol shahri uning poytaxtiga aylantiriladi.

Amir Temur 1404-yilning may oyida Samarqand tomon yoʻlga oʻtlanib, iyulda poytaxtga yetib keladi. 70 yoshni qarshilagan Sohibqiron Xitoy safariga tayyorgarlik koʻra boshlaydi. Albatta, u bu yurishni ancha ilgari rejalashtirgan edi. Shu bois, Xitoyga yurish boʻyicha tayyorgarlik ishlari ham ancha oldin boshlangan edi. 1397-

yildagi ko'chmanchi o'zbek qabilalari bilan bo'lgan urush davri-dayoq Xitoy bilan chegaradosh bo'lgan Ashir shahrida aholi sonini oshirish hamda u yerga 40 ming otga ega bo'lgan aholini ko'chirib, ularga o'sha yerlarda dehqonchilik qilish va savdoni rivojlantirish, qal'alar qurish va iloji boricha oziq-ovqat zahiralari to'plash haqida buyruq bergan edi. Undan tashqari, Temur Xitoyga o'z odamlarini yuborib, uni obdan o'rganish masalalariga e'tibor beradi.

Amir Temur 1404-yilning kuzida nabirasi Ulug'bekning (Muhammad Tarag'ay) to'yini o'tkazish (to'y haddan tashqari zo'r tantanalar bilan ikki oy davom etgan) bahonasida o'z davlati qo'l ostidagi oqillar, viloyatlar hukmdorlarini, qo'shin boshliqlarini, to'ra va amaldorlarni Samarqandga taklif qiladi va qurultoy chaqiradi. Unda Xitoyga bo'ladigan yurish masalasi muhokama qilinadi. Qurultoyda Xitoyga qarshi qilindigan urush islom dinini tarqatish bayrog'i ostida olib borilishi hisobga olinib, bu urush muqaddas deb e'lon qilindi. Buyuk Sohibqiron Ulug' tug'ni ko'tarib, 1405-yil 8-yanvarda 200 ming kishilik lashkar bilan Xitoy sari yuzlanadi. Qish o'sha yili juda qattiq kelgandi. Shunga qaramay, u lashkarga to'xtovsiz harakat qilishni topashiradi. Muzlagan Sayhundan Zarnuq shahri yaqinida o'tib oladi. Qishning sovuqligi shu darajada kuchli bo'lganki, Ali Yazdiyning yozishicha, daryo ustidagi muzning qalinligi 2-3 tirsakka teng bo'lgan. Sovuq zarbidan juda ko'p askarlar-ning yuz-quloq va burunlarini sovuq urib ketadi, ko'plari sovuqdan to'ngib halok ham bo'ladi. Ammo Temur yo'lda yurishni davom ettiradi. 1405-yil 14-yanvarda Sohibqiron O'tror shahriga yetib keladi. U shu yerda shamollab kasalga chalinadi va uzoq muddat yotib qoladi. Uni O'tror hokimi Berdibekning saroyida yotqizadilar. O'limi yaqinlashganligini tushida ko'rgan Sohibqiron hamsafar avlod-aj-dodlarini, quoldosh amir-u aqrabo va Sultonlarni, saroy a'yonlarini chorlab, ularga nasihatlar qiladi, ularni birdamlik, do'stlik, ahillikka chaqiradi va o'z o'rniga qoldirayotgan vorisxo'r Pirmuhammadga itoat etishlariga da'vat etib, bunday deydi: «...Anglab turibmanki, ruh qushi qalb qafasidan parvoz qilmoqchi. Tangri taoloning dargohiga jonimni bahsh etayotibman. Sizlarni uning lutf-u marhamatiga topshirdim. Obi diyda qilib o'ltirmanglar, oh-u nola chekmanglar, chunki bundan foyda yo'q. Ruhimni fотиha va takbir bilan shod etinglar.

Alhamdulillah, tangri taoloning yordamila ma'murayi olamni shunday zabt etdimki, bugun tamom Eron-u Turonda biron kishi-

ning boshqalarning ishiga aralashish yoki jabr-u bepok qo'lini bechoralarga ozor berish uchun ko'tarishga majoli yo'qdir. Gunohim qancha ko'p bo'lsa ham kechiringlar deb, tangri taoloning mulkini beqiyos saxiylik bilan qo'riqladim, zolimlarning taruzli qo'lini mazlumlarning hayot etagidan yulib tashladim. Saltanat qurib o'ltirganimda, eshitmagan yoki menga xabar qilmagan yoxud dunyo sobit bo'lmagan paytlardan boshqa vaqtda zo'ravonning zaif ustidan zo'ravonlik qilishiga yo'l qo'ymadim.

Shunday bo'lsa-da, dunyo menga vafo qilmadi, sizlarga ham vafo qilmaydi.

Lekin (zo'ravonlikka) mone'lik qilish ishini kechiktirish mam-lakatni xavf-u g'avg'o ostida qoldiradi, jumlai haloyiqning huzur-halovatini buzadi, maslag-u tariqatning buzilishiga olib keladi. Qiyomat kuni buni bizdan so'raydilar, surishtiradilar.

Shu kundan e'tiboran, farzandimiz Pirmuhammad Jahongirni o'zimizga valiahd va toj-u taxt vorisi etib tayinladikkim, Samarqand taxti uning amr-farmonida bo'lg'ay, tamkinlik va istiqlol bilan mulk-u millat, lashkar va raiyatning muhim yumushlari bilan mashg'ul bo'lsin. Sizlar (esa) unga tobe'lik va bo'ysunish marosimini o'rniga qo'yinglar, uni birgalikda qo'llab-qo'ltiqlanglar, toki olam buzilmasin.

O'g'illarim! Millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tatbiq eting.

Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaifalarni ko'ring, yo'qsullarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dastingiz, rahbaringiz o'lsin. Men kabi uzun saltanat surmak istasangiz, qilichingizni yaxshi o'ylab chekingiz. Bir daf'a chekkandan so'ngra-da, uni ustalikla qo'llangiz. Orangizga nifoq tuxumlari ekilmasligi uchun ko'p diqqat bo'ling. Ba'zi nodimlaringiz va dushmanlaringiz nifoq tuxumlari sochmakka, bundan foydalanmakka chalishajakdurlar. Faqat vasiyatimda sizga idora shaklini, uning ilkularini ko'rsatdim. Bularga sodiq qolsangiz, tosh boshingizga tushmas...

Mendan so'ng, xoqon Pirmuhammad Jahongir bo'lajakdur. Onga, menga itoat etar kibi itoat etajaksiz, Qo'mondonlarim, hozir itoat omini etingiz...»¹.

¹ *Amur Temur o'g'itlari*. - T.: «Navro'z» 1992. 60-61-betlar.

Saroyda hozir bo'lganlar nomidan amir Shohmalik va Shayx Nuriddin ulug' Amirni so'nggi oxirat yo'liga jo'natish oldidan uning vasiyatlarini so'zsiz bajarish va unga amal qilishga va'da berganlar. 1405-yil 18-fevral kechqurun buyuk saltanat sohibi Amir Temurning yuragi urishdan to'xtaydi, buyuk Sohibqiron yorug' dunyo bilan xayrlashadi. Uning jasadini Samarqandga olib kelib, o'z vasiyat-nomasiga ko'ra, pir-u ustozni Shayx Sayyid Baraka xokining oyoq tomoniga dafn etadilar.

Shunday qilib, 1370–1405-yillar mobaynida, ya'ni 35 yil Samarqand taxtini boshqargan Sohibqiron Amir Temur Ko'ragoniy buyuk saltanatga asos solib, u shu davr mobaynida 30 martadan ortiq harbiy yurishlar uyushtiradi va biror marta bo'lsa-da, yengilmaydi, dunyodagi 27 mamlakatni egallaydi. Amir Temur tuzgan saltanat sarhadlari janubda Arabiston yarimorolidan shimolga to Moskva knyazligiga qadar, sharqda Xitoy hududlaridan g'arbga tomon O'rta Yer dengizi va Misr davlatlari yerlarini ham o'z ichiga olgan hududlarga qadar cho'zilib ketgan edi. Yevropaning harbiy tarixchilari Amir Temurni Napoleonning ustozini deb bilishadi. Taniqli harbiy tarixchi olim Gammyer Sohibqironni Aleksandr bilan taqqoslash mumkin, deb yozadi. «Bu taqqoslash ularning jasurligi, fotihlik, insonparvarliklari va nihoyat kamsuqumliklaridagi o'xshashlikka asoslanadi. Yunon va fors taraqqiyoti gullagan davrda sahnaga chiqqan Aleksandr Zulqarnaynning Temurga qaraganda, ta'limi yuqori edi, ammo Temur sarkarda va zabt etilgan el-yurtlar hukmdori iste'dodi jihatidan undan o'zib ketdi. Aleksandr dabdabadan noziklashgan xalqlarni zabt qilgan bo'lsa, Temur jangovar podsholiklarni istilo qildi. Birinchisi taxtda tug'ilgan bo'lsa, ikkinchisi qo'rg'onchada tug'ildi. Ana shunday farqdan qat'i nazar, jahon sahnasiga chiqishda temir barqarorlik, favqulodda o'zini tuta bilish, o'rni kelganda ehtiyotkorlik Temurni yuksak qudrat cho'qqisiga ko'tardi va bu fazilatlar uni umrining so'nggi daqiqalarigacha tark etmadi»¹.

Amir Temur shaxsining murakkabligi, uning buyuk fotihligi, davlat arbobi va ayni zamonda, oddiy inson bo'lganligi Fransuz olimi Jan Pol Running «Tamerlan» kitobida ayniqsa, yorqin ifoda etiladi. Bu asarda muallifning Amir Temur shaxsiga xolisona va adolatlilik baho berganligiga guvoh bo'lamiz. Asar muallifining xulosasiga

¹ «Muloqot», 1991-yil, 8-son, 65-bet.

ko'ra: «Sohibqironning ayrim fazilatlari, chunonchi, o'z ishlaridan mag'rurlanishiga qaramay muomalada o'ta oddiyligi, dunyoning yarmini titratgan amir bo'la turib, bir dindor zotning oyoq tomoniga qo'yishlarini vasiyat qilishi, sharob ichishni man qilgan holda ajo'yib majlislarni tashkil qilishi aqalli qoshini ham chimirib qo'ymay, qirg'inbarot urushlar qila turib, odamlarni adolatga undashi suhbatlarda esa urush dahshatlarini eslashni yoqtirmasligi, ko'p binolarni vayron qilgani holda ma'muriy qurilishlarga bosh-qosh bo'lishi, o'zgina fursatni ham qo'ldan boy bermay ilmiy munozaralar uyushtirishi bu munozara majlislarda mantiqiy savollar bilan ancha-muncha ilm ahlini lol qoldirishi va olim-u ulamolarni o'ta hurmatlashi, g'azabdan chehrasida kulgi bo'lmagan holda eng dahshatli jazo ko'rilayotganda ham gunohkorni, agar nohaqlik bo'lsa, afv etishdek oliyjanob fazilatni namoyish qilishi, o'ziga bo'ysundirgan hukmdor raqib bo'lsa ham hurmat-ehтиrom bilan dafn qilishni buyurishi, ashaddiy raqibi Sulton Boyazidni qamal qila turib, bahorda uni ertagi meva-sabzavotlar bilan siylashi... Bunga o'xshash fazilatlari va kutilmaganda har qanday mantiqiy xulosani ham chippakka chiqaruvchi xatti-harakatlari Temur shaxsining o'ta murakkab va buyukligini ko'rsatadi. Temur o'ziga teng keladiganlardan Doro, Iskandar, Sezar, Chingizxon, Bonopartlar kabi o'tgan zamonning eng ulug' zotlari qatorida turadi»¹.

5. AMIR TEMUR DAVLATIDA ICHKI HAYOT

Amir Temur o'zi yashagan feodal zamonning farzandi edi va u bu zamon jamiyati qobig'idan chetga chiqib keta olmaydi, keta olmas ham edi. Sohibqiron nomi bilan Temur buyuk saltanatga asos soladi va uni ulug' amir sifatida boshqaradi. Hech qachon u o'zini barpo etgan davlatning «qonuniy» xoni deb e'lon qilmaydi, holbuki bunga hech kim to'sqinlik qila olmas ham edi. Chunki u kelib chiqishi, nasl-nasabi bilan chingiziylar sulolasiga mansub emas edi. A.Yu. Yakubovskiy «o'zbek xalqining yuzaga kelishi masalasi haqida» asarida: «Temur o'zini mo'g'ul deb iqror qilmaganidek, Movarounnahrdaagi zamondoshlari ham uni mo'g'ul deb o'ylamaydilar», deb yozadi.

¹ «Xalq so'zi», 1992-yil, 9-aprel.

Amir Temurning buyuk saltanat barpo etganligi yuqorida ta'kidlandi. Ayni zamonda, ulug' amirning o'zi ana shu buyuk saltanatning parchalanish jarayonini ham hali tiriklik chog'idayoq boshlab bergan edi. Chunki Temurning o'zi Farg'onani hisobga olmaganda Movarounnahrni hech kimga bermasdan qolgan hududlarni to'rt qism – mulkka bo'lgan. Tarixchi olim Bo'riboy Ahmedovning yozishicha, Xuroson, Jurjon, Mozandoran, Seiston (markazi Hirot) Shohruxga, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshohga, Fors, ya'ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) Umarshayxga, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G'azna, keyinchalik, Balx) Pirmuhammadga suyurg'ol (in'om) qilib berilgan edi. Bu ulus-mulklar nomigagina markaziy hokimiyatga bo'ysunar edi, aslida esa o'ziga xos mustaqil davlat bo'lib olgan. Suyurg'ol qilingan yer-mulklar Oliy hukumatning farmoni bilan avlodan-avlodga o'tavergan. Bu hol buyuk saltanatning bo'laklarga bo'linib ketganligining asosiy sababidir. Ana shu ma'noda Temur saltanati shaklan buyuk va qudratli bo'lib ko'rinsa-da, aslida uning iqtisodiy asoslari mustahkam negizga qurilmagan edi.

Amir Temur davlatining asosini o'n ikki ijtimoiy toifa tashkil etgan. «Temur tuzuklari»da sanab o'tilgan bu toifalar quyidagilardir: 1. Sayyidlar, ulamo, mashoyix fozil kishilar; 2. Ishbilarmon, donishmand odamlar; 3. Xudojo'y, tarkidunyo qilgan kishilar; 4. No'yonlar (no'yon – tuman boshlig'i – 10 ming kishilik qo'shin boshlig'i – R.Sh., Sh. K.), amirlar, mingboshilar, ya'ni harbiy kishilar; 5. Sipoh va raiyat (raiyat – soliq to'lovchi xalq); 6. Maxsus ishonchli kishilar; 7. Vazirlar, sarkotiblar; 8. Hakimlar (faylasuflar, donishmand, al-lomalar – R.Sh., Sh. K.); 9. Tafsir va hadis olimlari; 10. Ahli hunar va san'atchilar; 11. So'fiylar; 12. Savdogar va sayyohlardir.

Temur davlatining tuzilishi yetarli darajada o'rganilmagan. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, viloyat va tumanlarda hokimiyat markaziy hukumat yoki ulus hukmdorlari tomonidan tayinlangan mansabdor (dorug'a)lar qo'lida bo'lgan. Markaziy hukumatni, asosan, uch bosh davlat muassasasi: Devoni oliy (oliy ijroiya organi), Devoni mol (moliya ishlari boshqarmasi) va Devoni tovochi (harbiy ishlar boshqarmasi) idora qilgan. Din va shariat bilan bog'liq bo'lgan masalalar, shuningdek, sud ishlari qozi va shayxulislom qo'lida bo'lgan.

«Tuzuklar»da davlatni yetti nafar vazir idora qilganligi ko'rsatiladi. Bular: 1. Mamlakat va raiyat ishlari bo'yicha vazir (bosh

vazir); 2. Vaziri sipoh, ya'ni harbiy ishlar bo'yicha vazir; 3. Egasiz qolgan mol-mulklarni tasarruf etish vaziri; 4. Saltanatning kirim-chiqim ishlarini boshqaruvchi vazir, ya'ni moliya ishlari vaziri; 5, 6, 7. Sarhad (chegara) viloyatlarining ishlarini nazorat qilib turuvchi vazirlardir. «Vazirlar, – deyiladi «Tuzuklar»da, – saltanat ustunlaridir... (ular) mamlakat obodonchiligini, raiyatning tinchligini, sipohlarning birligini, xazina boyligini doimo ko'zda tutadilar. Davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo'l qo'ymaydilar. Saltanatga zararli narsalarni qaytarishda mol-u jonini ayamaydilar. Amir Temur vazir to'rtta sifatga ega bo'lishi lozim deb hisoblagan: «Birinchisi – asllik, toza nasllilik; ikkinchisi – aql-farosatlilik; uchinchisi – sipoh-u raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo'lishlik; to'rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik...

Qaysi vazir soflik to'g'rilik bilan vazirlik ishiga kirishib, davlatning moliya ishlarini diyonat, savob bilan, nafsi buzuqlik qilmay, omonatga xiyonat etmay bajarar ekan, unday vazirni eng oliy martabalarga yetkazsinlar. Qaysi vazir buzuqlik qilib, yomonlik yo'li bilan mamlakat ishlarini yurgizar ekan, ko'p o'tmay unday saltanatdan xayr-u barakat ko'tariladi».

Sohibqiron davrida yerga egalik qilishning beshta asosiy ko'rinishi bo'lgan: 1. Suyurg'ol yerlar. Bu yerlarning egalari har qanday soliqlardan ozod edilar. Ular yer egasi sifatida dehqonlarni ishlatib, yer solig'i – xiroj olganlar. 2. Harxon yerlar. Xususiy mulk bo'lgan bu yerlar odamlarga biron-bir alohida xizmatlari uchun berilgan. 3. Ushr yerlar. Sayyid va xulsalarga mansub bu yerlarning egalari olgan daromadlarining o'ndan bir qismini davlatga to'laganlar. 4. Vaqf yerlar – machit va madrasalar, xonaqoh va mozorlarga qarashli yerlardir. 5. Askarlarga va ularning boshliqlariga ajratib beriladigan yerlar. Amir devonida yer ishlari, soliqlar, boj yirish, mirshablik yumushlari bilan shug'ullanuvchi vazir bo'lgan. Oliy-himmat sohibqiron o'z xalqiga muruvvatli bo'lib, bemavrid, bo'lar-bo'lmasga mol-xiroj kabi soliqlar solishga qarshi bo'lgan va xalqni bir necha marta yillab soliqlar to'lashdan ozod qilib yuborgan. Amir Temur davrida asosiy soliq daromad solig'i – xiroj bo'lib, u olinadigan daromadning uchdan bir qismga teng bo'lgan. «Tuzuklar» da yozilishicha, kimki biron sahroni obod qilsa yoki qoriz (yer osti suvlarini tortib chiqaradigan inshoot) qursa yo biron bog' ko'kartirsa yoxud biron tashlandiq yerni obod qilsa, undan birinchi

yili hech narsa olinmagan, ikkinchi yili o'z roziligi bilan nimani bersa, uni olingan va faqat uchinchi yili qonun doirasida xiroj solig'i undirilgan.

Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga juda katta e'tibor beradi. Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan, Zarafshon vodiysida o'nlab sug'orish tarmoqlari chiqariladi, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaytiriladi, yangi obod shahar va qishloqlar barpo etiladi. «Tuzuklar»da Amir Temur: «har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqolar qurishni, yo'lovchi musofirlar uchun yo'l ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni buyurdim»¹, deydi. Eski va qadimiy shaharlar, ayniqsa, Temurning ona shahri Kesh, davlatining poytaxti Samarqand gullab-yashnaydi. Shu bilan birga bu davrda Movarounnahr shaharlarida, ayniqsa, uning poytaxtida hunarmandchilik va savdo rivojlanadi. Amir Temur Osiyo va Yevropa mamlakatlari hukmdorlariga murojaat qilib, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishga alohida e'tibor beradi. O'rta Osiyo orqali o'tadigan «Buyuk ipak yo'li»da karvonlarning xavfsizligini ta'minlaydi. Mashriqdan Mag'ribgacha bo'lgan savdo-sotiq ishlarini kuchaytirib, turli rabotlar, karvonsaroylar, savdo rastalari qurdiradi. Temur o'z mamlakatiga kelib-ketuvchi musofirlar, savdogarlarga katta e'tibor beradi va g'amxo'rlik qiladi: «..Har mamlakat va diyor sayohatchilari-yu musofirlarining boshini siladimki, turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdilar. Har bir mamlakatga va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular qayerga borishmasin: Xitoy, Xuton, Chinu Mochin, Hindiston, arab mamlakatlari, Misr, Shom, Rim, Jazoir, Farangiston (Ovro'po) u yerlarning nafis matolari va munosib tuhfalaridan keltirishsin...»².

Bu hol mamlakatda barcha mahsulotlarning mo'l-ko'l bo'lishiga qulay sharoit yaratadi. Buni biz Ispaniyaning Samarqandda Temur saroyidagi elchisi Gonzales de Klanmxonning kundalik daftarida yozib qoldirgan quyidagi so'zlaridan yaqqol ko'ramiz: «Bu yerning boyligi faqat yemaklarning mo'l-ko'lligidagina emas, balki o'zida ko'plab ishlab chiqariladigan ipak matolar: atlas, kimxob, har xil ip va jun to'qima mollar, mo'ynali va ipakli po'stinliklar, attorlik mollari, ziravor va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar hamda boshqa mollarning serobligidadir». Temurning amri bilan Damashqning eng

¹ Temur tuzuklari, 56-bet.

² Temur tuzuklari, 67-bet.

mohir to'quvchilari, kalabaniy mashhur paxta yigiruvchi korxonalari, Turkiya hamda Gurjistonning zargarlik va yana bir qancha sanoat korxonalari va ishchilari, juda ko'p attorlik buyumlari va bo'yoq-tijorat mollari Samarqandga jo'natilgan. Xitoydan ipak gazlamalar, chinni kosalar, qadahlar, qimmatbaho aqiq toshlar yuborilgan. Chet mamlakatlardan Samarqandga keltirilgan mollar marjonning naqadar ko'p bo'lganligini Klavixoning bu shaharda bo'lgan chog'ida Xitoy poytaxti Xonbaliqning o'zidan 800 tualik savdo karvoni kelganini ta'kidlashidan ham bilsa bo'ladi. Rusdan mo'yna, savsar, noyob po'stinlar kelib turgan. Ushbu turli iqlimlarning mollari o'z navbatida toy-toy bog'lanib, «Buyuk ipak yo'li» orqali Osiyo va Yevropa mamlakatlariga jo'natilgan. Bozorlarda tartib-intizom bo'lgan, narxnavolar ustidan qattiq nazorat o'rnatilgan, raislar, nazoratchilar xaridor haqqiga xiyonat qilgan sotuvchilarni, chayqovchi iymonsizlarni jazolaganlar.

Samarqand shahrida oldi-sotdi ishlari uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Temur shaharning Oxanin darvozasidan Chorraha darvozasi-gacha Registon maydoni orqali o'tadigan ko'cha ochishni buyuradi. Ushbu ko'chadagi savdo uchun qulay do'kon va rastalar haqida Ispaniya elchisi Klavixo bunday deb yozgan edi: «Samarqand shahriga har yili ko'plab turli-tuman mollar olib kelinadi... Unda ana shu mollarni tartib bilan sotish uchun katta bir joy bo'lmaganligi sababli podshoh shahar bo'ylab ikki tarafidan mol sotiladigan do'konlar hamda hujralar o'rnatilgan ko'cha o'tkazishni buyuradi. Kattakon ko'cha ochib, ikki tomoniga hujralar qurdilar, har bir hujra oldida oq tosh qoplangan baland supachalari bor edi... Barcha do'konlar juft-juft qilib, bir-biriga tutashtirildi. Ko'chaning tepasi esa boshdan oyoq tim qilib, ravoqsimon shaklida yopildi. Yorug'lik tushish uchun unga qator darchalar o'rnatildi. Do'konlar qurilib bitirilishi bilanoq ularga savdogarlar o'rnatilgan va turli-tuman mollarni sotishga kirishardilar, ko'chaning har yer, har yerida hovuzlar kovlangan bo'lib, ular suvga to'ldirib qo'yilgandi. Bu yerda ishlayotganlar maoshni shahar hisobidan olar edi. Ana shu ishga bog'liq bo'lgan kishi qancha odam talab qilinsa, o'shancha kishini ishlatishi mumkin edi. Kunduz kuni ishlagan kishilar kech kirishi bilan uy-uyalariga ketishar va ularning o'rniga kechasi ishlash uchun boshqalari kechasi ishlash uchun boshqalari kelishar edi, ayrimlari uylarni buzar, boshqalari esa yer tekislar va uchinchilari qurilish bilan band edi. Ular kecha-yu kun-

duz shunchalik shovqin-suron qilishar ediki, bu yerda bamisoli jinlar uya qurgandek edi. Bundan katta qurilishning yigirma kundan ozroq muddatda amalga oshirilgani, shubhasiz, kishini hayratga soladi».

Mamlakat obodonchiligini yuksaltirish, aholining iqtisodiy turmush tarzini yaxshilash va mo'l-ko'lhilikni ta'minlashga muttasil urushlardan boshi chiqmagan Sohibqiron qanday qilib erishdi degan qonuniy savol tug'ilishi tabiiydir. albatta. Bunga ular Amir pirlari Zayniddin Abubakr Toyobodiy uqtirgan saltanat ishlaridagi to'rt narsaga: 1. Kengash; 2. Mashvarat-u maslahat; 3. Mustahkam qaror, tadbirkorlik va hushyorlik; 4. Ehtiyotkorlikka amal qilganligi tufayli erishgan. Buni biz Amir Temurning «Barcha ishlarimning to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirdim», deb aytgan ibratomuz so'zlaridan ham bilsak bo'ladi. Rus olimi D. Logofet Temur davridagi tuzumga quyidagicha baho beradi: «Yevropada Konstitutsiya haqida tushunchaga ham ega bo'lishmagan bir davrda ana shu Temur davlatida Konstitutsion qonunlar majmuasi – tuzuk mavjud bo'lgan va amal qilgan»¹. Davlatni boshqarish va idora qilish, barcha sohada adolat, insof, diyonat va iymon amriga quloq solib maslahat, mashvarat va kengash asosida ish yuritishda ulug' bobokalonimizdan o'rgansak va ibrat olsak, nur ustiga a'lo nur bo'lur edi.

6. AMIR TEMURNING HARBIY SAN'ATI

Dunyoning 27 mamlakatini zabt etishda, Amir Temurning qo'shini va uning Harbiy san'ati bosh omil bo'ladi. Temur buyuk sarkarda sifatida dunyoga mashhur. Uning g'olibona yurishlarda qo'llagan taktik va strategik jang qilish uslublari bugungi kunda ham jahondagi yetakchi mamlakatlarning harbiy bilim yurtlari va akademiyalarida o'rganiladi va o'qitiladi.

Juda qattiq temirdek mustahkam tartib va intizomga ega bo'lgan Temur qo'shinlari, asosan, piyoda va otliq askarlardan iborat edi. Ular «O'nliklar» («ayl»), «Yuzliklar» («xo'shun»), «Mingliklar» («hazora») va «O'n mingliklar» («tuman»)ga bo'lingan va ularga «O'nboshi», «Yuzboshi», «Mingboshi» hamda «Amir»lar boshchi-

¹ Somon yo'li. Amir Temur hayotiga bag'ishlanadi. – I.: «Kamalak», 1992, 72-bet.

lik qilganlar. «Tumanlarda askarlar soni 10 ming, qoʻshinda esa 100 ming boʻlgan. 10 minglik lashkarlarni boshqarish uchun «Tuman ogʻasi», minglik boʻlimni «Mirihazora», yuzlikni «Xoʻshunboshi» va oʻnlikni boshqarish uchun «Aylboshi» kabi harbiy mansablar tashkil qilingan.

Boʻlinma boshliqlari – amirlar Temurga tobe boʻlgan qirq ay-moq (qabila)dan oʻn ikkitasi: barlos, argʻin, jaloir, tulkichi, duldoiy, moʻgʻul, suldoʻz, toʻgʻoy, qipchoq, arlot, totor va tarxonlar orasidan taxlab olingan. Eng ulugʻ martaba amirlik boʻlib, Temur faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab, uni tark etmasdan odildil bilan xizmat koʻrsatgan 313 kishiga berilgan: bittasi amir ul-umaro, toʻrttasi beklar begi, yuztadan mingboshi, yuzboshi va oʻnboshi boʻlgan. Bulardan tashqari, yana oʻn ikki nafar kishiga birinchidan to oʻn ikkinchi darajali amirlik unvoni berilgan. Oʻn ikkinchi darajali amir odatda amir ul-umaroning noibi hisoblangan. Oʻn ikki amirning har biriga bittadan bayroq va bittadan nogʻora, amirul-umaroga bir bayroq, nogʻora, oʻn minglik qoʻshin, tugʻ va chortugʻ, toʻrt nafar beklar begining har biriga bittadan bayroq, nogʻora; chortur va burgʻu (karnay) berilgan.

Bu oʻziga xos ramzlar qoʻshin boʻlinmalarini bir-biridan farqlab, ajratib turgan. Jumladan, katta qizil bayroq qoʻshin boshligʻi amir ul-umaro yoki beklar begining ramzi boʻlgan. Ot eli bogʻlangan nayzali uzun tugʻ tuman ogʻasining, ikki tomonga kokillari osilgan ikki nogʻora yuzboshining belgisi hisoblangan. Otlq qismlarni boshqarish uchun maxsus ajratilgan otliq egalarining ikki tomoniga ikki tabl dovul osilib qoʻyilgan. Jang boshlanishi oldidan suvoriylarni mahorabaga solish maqsadida, unga bong urib qoqilgan.

Amir Temur adolat yuzasidan askarlarining unvon darajalarini hisobga olgan holda ularga maosh belgilash tartibini joriy qilgan. Jumladan, oddiy sipohiy mingan otining bahosi barobarida, bahodirlar 2–4 ot qiymati barobarida, aylboshi qaramogʻidagi navkarga nisbatan, oʻn baravar koʻp maosh olgan. Yuzboshilarniki esa oʻn boshilarnikidan ikki baravar yuqori, mingboshilar maoshi esa yuzboshilarnikidan uch barobar ziyoda qilib belgilangan. Temur sipohiylarga maosh belgilaganda moddiy ragʻbatlantirish qoidasiga qatʻiy amal qilgan, ularning qilgan xizmatlariga qarab maosh tayinlagan. Alohida xizmatlari uchun ulufa, tanho kabi ragʻbatlantiruvchi omillar boʻlgan. «Temur tuzuklari»da quyidagilarni oʻqiymiz: «Amr qildimki, amir ul-umaroning maoshi uch qul ostidagilardan oʻn baro-

bar ortiq bo'lsin. Shunga o'xshash devonbegi va vazirlarning maoshlari esa amirlar maoshidan o'n barobar ko'p bo'lsin. Yasovullar, chopovullar, Qalaqchilarning maoshlari o'z xizmatlariga yarasha, mingdan o'n ming (tamg'a)gacha bo'lsin»¹. O'rni kelganda shuni alohida ta'kidlash kerakki, Amir Temur davlatida sayyidlar, olimlar, fozil kishilar, hakimlar, tabiblar, munajjimlar, qissaxonlar, xabarchilar, tarixdonlar, xullas, eng oddiy xizmatchiga qadar o'z hol-u qudratlari va bajaradigan yumushlariga qarab maosh belgilangan. Demak, Temur faqat davlat mulozimlari hayotidan ogoh bo'lib, ularninggina manfaatlarini o'ylab qolmasdan, balki keng omma-ning orzu-istaklari va qiziqishlarini ham o'ylab ish yuritgan adolatli hukmdor bo'lgan.

Amir Temur sipohni tuzishda, asosan, o'z zamonida mashhur bo'lgan o'nliklar, yuzliklar, mingliklar tartibiga amal qiladi. Uning lashkarlarining eng quyi bo'g'inini o'nliklar tashkil etgan bo'lsa, eng yuqorigi bo'g'inini esa amir ul-umaro rahbarlik qilgan sipoh edi. Ularning ustidan yakka o'zi cheksiz huquqqa ega bo'lgan holda qo'mondonlik qiladi. Temur o'nboshi, yuzboshi, mingboshi va amirlar tanlashda shunchaki tanish-bilishlar asosida tayinlamasdan, balki bu masalada bevosita jang maydonida o'zining mahoratini ko'rsatgan shaxslarni tanlaydi. Bu haqida Temur shunday deydi: «Amr qildimki, qachonki asl sipohlardan ish ko'rgan, jang-jadalda suyagi qotgan o'n kishi yig'lsa, bulardan qaysi birining shijoati, botirligi ortiqroq bo'lsa, qolgan to'qqiztasining roziligi va ma'qullashi bilan uni o'zlariga saylab, otini o'nboshi deb atasinlar»².

Ko'rinib turibdiki, Temur o'z sipohini tuzishda tabiiy qonunchilikka amal qilgan. U har bir jangchini tanlashda uning suyagi jangu jadallarda qotganiga e'tibor bergan. Yana ularning boshlig'i qilib, o'zlarining orasida hammalaridan ham botir, shijoati ortiqroq jangchini tanlab, qolgan to'qqiztasining roziligi asosida o'nboshi qilib tayinlaydi. Bu yerda biz Temur sipohni boshqarishda asosiy e'tiborni tabiiy tanlashga va uning tadbirkorligiga qaratganini ko'ramiz. Undan tashqari, rahbar qo'mondonlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda asosiy mezon qilib, jang maydonini, ya'ni amaliy hayotni hamda o'ziga xos harbiy qoidaga, ya'ni boshqalarning roziligi, ma'qullashlariga asoslanadi. «O'n nafar o'nboshi jam bo'lsa,

¹ Temur tuzuklari. 70-bet.

² O'sha manba. 69-bet.

o'z ichlaridan eng ish ko'rgan, jang maydonlarida toblanib tajriba orttirgan, bahodirlikda nomi chiqqan bировini amir qilib, uni yuzboshi deb nomlasinlar»¹. Ana shu tartibda mingboshi (amiri hazora) va boshqa qo'mondonlarni tayinlashni joriy qiladi.

Amir Temur o'z sipohiga amirlarni tanlashda, birinchidan, ularning jang maydonlarida ko'rsatgan hizmatlariga ko'ra, kelib chiqishi, qaysi qabila va urug'iga qaramasdan tayinlagan bo'lsa, ikkinchidan, u o'z og'illari va nabiralarini ham sipohiylarning asosiy qo'mondonlari qilib tayinlar edi. Masalan, to'ng'ich o'g'li Muhammad Jahongir uning valiahdi, ya'ni merosxo'ri bo'lgan. U viloyat hokimi bo'lib, 12 ming otliq askarga ulufa olgan. Ikkinchi o'g'li Umarshayxga esa viloyat va o'n ming otliq askarga ulufa olishni buyurgan. Uchinchi o'g'li – Mironshohga esa viloyat va to'qqiz ming otliq askarga ulufa olish huquqi berilgan. To'rtinchi o'g'li Shohrux esa bir viloyat va yetti ming otliq askarga ulufa olish huquqiga ega bo'lgan.

Nabiralariga esa, ularning qobiliyatlariga qarab, bittadan viloyat, uch mingdan yetti mingtagacha otliq askarlarga ulufa olish huquqini beradi. Qarindoshchiligi bor kishilarga esa ularning har birining qobiliyatiga yarasha birinchi darajali amirlikdan yettinchi darajali amirlik martabalarini beradi. Ularning qaysi biri o'rnatilgan qonun-qoidani buzsa, haddidan oshsa, javobgarlikka tortilgan.

Amir Temur o'z sipohiylarining yaroq-jabduqlari va anjom-jihozlari haqida doimo g'amxo'rlik qilgan. U shunday qonun joriy qiladiki, yurish vaqtida oddiy askarlardan har o'n sakkiz kishi o'zi bilan birga bir chodir (yhama) olgan. Har bir sipohiy bir qilich, arra, bigiz, bir qop (juvol), juvoldiz, bolta, o'nta igna va orqaga osiladigan charm xalta olishi kerak bo'lgan. Bahodirlardan har besh kishi bir chodir, har biri temir sovut (javshan), dubulg'a, bir qilich, sadoq (o'qdon), kamon va beshta ot olgan. Yuzboshilardan har biri bir chodir, o'nta ot, qurol-aslahadan qilich, sadoq kamon, gurzi, chuqmor, koskan (kaska, temir qalpoq), zirh (sovut), bagtar (temirdan yasalgan usti baxmal yoki boshqa mato bilan o'ralgan urush kiyimi) olgan. Mingboshilar esa bir chodir, bir soyabon, qurol-aslahadan – javshan, dubulg'a, nayza, qilich, sadoq va o'q-yoydan ko'targanicha olgan. Birinchi amir bir chodir, bir o'tov, bir juft soyabon, qurol-aslahadan esa qo'l ostidagilarga ham yetadigan darajada

¹ Temur tuzuklari. 69-bet.

olgan. Shunga o'xshash ikkinchi, uchinchi... to amir ul-umarogacha, har qaysisi o'z martabalariga yarasha qurol-aslahadan va boshqa anjomlardan keragicha olishlari buyuriladi. Otdan foydalanish tartibi quyidagicha belgilangan. Birinchi amir bir yuz o'n ot, ikkinchisi bir yuz yigirma, uchinchisi bir yuz o'ttiz, to'rtinchisi bir yuz qirq ot. Amir ul-umaroga yetguncha shu tartibda ot olish belgilanadi va amir ul-umaro esa o'zi bilan uch yuzdan kam ot olmasligi ta'kidlanadi. Piyoda askarlarning har biri o'zi bilan birga bir qilich, bir kamon, ko'targanlaricha o'q-yoy olgan.

Amir Temur urush va tinchlik paytlarida sipohni qo'riqlash masalalarini ham hech qachon esdan chiqarmagan. Birinchidan, sipohiyalar, amirlar, mingboshilar, yuzshilar va o'nboshilar devonxonaga, etiksiz, sarmo'zasiz (kovushsiz), burk yoqalik chaqmonsiz, bo'kda – (xanjar), qilichsiz hozir bo'lmaganlar. Ikkinchidan, o'n ikki ming askar urush-u tinchlik vaqtida qurollangan holda devonxonaning to'rt tarafidan qurshab turgan. Har kecha ulardan ming kishi navbatma-navbat soqchilikka ajratilgan. Amir Temur O'rdani va sipohni dushmandan nihoyatda ehtiyot qilgan. U ayniqsa, urush paytida, lashkarlarining atrofini qo'riqlashga alohida e'tibor berib, butun bir jangovar tartibni ishlab chiqadi va uni joriy qiladi. Urush paytida, o'n ikki amirdan har biri, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar o'n ikki ming qurollangan otliq sipohiy bilan bir kecha-kunduz davomida har qaysilari o'z xonalarini qo'riqlash uchun hozir bo'lgan.

Amir Temur sipohning tuzilishi, uning qurol-yarog'i, qo'riqlanishi, maoshlari bilan bir vaqtda navkarlarning o'z beklariga va aksincha beklarning o'z navkarlariga bo'lgan munosabati masalasida ham huquqiy va axloqiy jihatlarni tartibga soladi. Temur navkarlarning to'g'ri va adolatli bo'lishlarini talab qiladi. «...Qaysi navkar o'z xizmati, haq-burchini unutib, ish vaqtida (mehnatdan) yuz o'girar ekan, unday navkardan yuz o'girmoq kerak. Qaysi navkar ish vaqtida bahona izlab jang-u jadal paytida ijizat so'rab, qochishni mo'ljallasa, bugungi ishni ertaga qoldirsa bunga o'xshash navkarlar nomlarini ham tilga olishga munosib emasdir. Bunday kishilarni parvardigori olamga topshirish zarur»¹ Amir-u podsholarga qaratilgan Temur ular o'z navkarlarini ulug'lab ko'targan bo'lsalar, ularni xo'rlamasinlar, bilgan, taniganlarini unutmasinlar, agarda ah-yon-ahyonda navkarning izzat-nafsiga tegib, uni xo'rlagan bo'lsa,

¹ Temur tuzuklari, 88-bet.

keyinchalik, uni ikki hissa izzatini oshirsinlarki, toki u ginasini ko'nglida saqlamasdan chiqarib yuborsin, deb uqtiradi.

Amir Temurning fikricha, eng xavfli hamda uning uzrini kechirib bo'lmaydigan navkar bu jang maydonida o'z begiga xiyonat qilgan navkardir. «...Bunday kimsani, – deb yozadi u, – xizmatga yo'latmasinlar. Hayotning o'zi bundaylarning qilmishiga yarasha jazosini beradi»¹. Amir Temur sipohiy favjlardan yoki amirlardan qaysi birlari dushman bilan kelishib, u bilan do'st-u oshno bo'lib yashashni ixtiyor qilar ekan, undaylarni yurtdan chiqarib, hech yerdan o'rin bermaslikka chaqiradi. Yoki boshqa joyda navkar biror-bir mamlakatga hokim qilib qoldirilsa-yu, u mamlakatni dushmanga topshirsa, bunday navkarni faqat o'lim jazosiga hukm qilishni va aksincha, davlatni dushmandan himoya qilgan sodiq navkarning har tomonlama martabasini ulug'lash kerakligini aytadi. U xoinlar, sotqinlar, ig'vogarlarni yoqtirmagan, ularga ishonmagan. Rostgo'y, sodiq xizmatchilar, jangchilarni esa juda qadrlagan va ularga izzat va ehtiromlar ko'rsatgan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Amir Temur o'z zamonasi uchun kuchli va qudratli qo'shin tuza oldi. Bu qo'shinni o'sha davrdagi yaxshi qurol-yarog'lar, o't va tosh-otar – ra'dandoz, manjaniq va o'zi otar kabi qurollar bilan qurollantirdi. Amir Temur qo'shinini Jahongir, Sayfuddin va Pirhusayn barloslar, Oqbo'g'a, Usmon Abbos, Muhammad Sulton Qamariy, Tibon Bahodur, Urisbo'g'a, Hamza Suduz, Amir Murizoda, Muhammad Qozgon, Sarik Atka va Muzaffar Uchqora singari shaxsan Sohibqironning ishonchi va hurmatiga loyiq bo'lgan va shuhrat topgan sarhanglar boshqargan. Amir Temur 12 mingdan ortiq bo'lmagan, 40 mingga qadar bo'lgan otliq birikma va dushman soni 40 mingdan ko'proq bo'lgan qo'shin uchun alohida-alohida jang qilish usullarini qo'llagan. Odatda dushman kuchlari 40 ming kishidan ortiq bo'lsa, unga qarshi Temurning o'zi borgan. Bunday paytda, uning qo'shinlari jangga quyidagi tartibda bo'lingan: 40 ta bo'linma bevosita Sohibqironning o'z ixtiyorida bo'lgan. Ulardan eng saralangan 12 ta bo'linma birinchi qatorni, qolgan 28 tasi ikkinchi va uchinchi qatorni tashkil etgan. Temurning o'g'illari va nabiralari boshchilik qilayotgan qo'shinlar yuqorida tilga olingan 40 ta bo'linma o'ng tomonining old qismida,

¹ Temur tuzuklari. 88-bet.

qarindosh na ittifoqchilari boshchilik qilayotgan qo'shinlar esa uning chap tomonining old qismida joylashgan. Bu barcha qismlar zahira hisoblanib, Sohibqiron buyrug'iga asosan, zarur bo'lgan nuqtalarga tashlangan.

Oltita bo'linma o'ng qanot (barong'or)ning asosini yoki uning ikkinchi safini va bitta bo'linma avongorini tashkil etgan. Yana shuncha bo'linma shu asosda chap qanotda joylashgan. Ikkinchi safning ikki qanoti oldida xuddi shu tartibda birinchi qator (chopovul va shikovul) o'rin olgan. Birinchi qator oldidagi ilg'orda shuncha bo'linmaga ega bo'lgan malakali boshliqlar va jasur jangchilardan tuzilgan katta avongor joylashgan. Bu avongorning oldida ham avongori bo'lgan. Uning ikki old tomonida yengil qurollangan ikki bo'linma (o'ng va so'l qanotlar qorovullari) jangchilari ayg'oqchilik uchun (razvedka) yuborilgan. Ular qo'shinni qo'qqisdan bo'ladigan hujumdan saqlar va dushman harakatini kuzatib borar edi. Odatda jangni ham ana shu bo'linma boshlab bergan. Ularga katta avongor o'z amiri bilan yordamga kelgan. Ana shu tariqa, zaruratga qarab birinchi, ikkinchi va uchinchi qatorlar jangga kiritilgan. Agar bu yordamlar ham kamlik qilsa, so'ngra zahira ishga solingan. Ularning asosiy vazifasi bir hamla bilan dushmanning bayrog'ini qo'lga kiritishdan iborat edi. Mabodo bu kuchlar bilan ham dushman ustidan g'alaba qozonib bo'lmasa, unda amirning o'zi so'nggi zahiradagi eng saralangan kuchlar bilan sherdek dushman ustiga tashlangan.

Yuqorida bayon etilgan, Amir Temur ega bo'lgan uch turdagi otliq askarlar tizimidan ko'rinadiki, jangovar qatorlarning markazi kuchsiz bo'lgan. Bu maxsus o'ylab ishlatilgan taktik uslub bo'lib, dushman kuchlarining markazdan yorib kirishiga ataylab sharoit yaratish va so'ngra qanotlardagi zarbdor kuchlar yordamida uni o'rab olib, tor-mor qilishni ko'zda tutar edi.

O'sha davrda barcha xalqlar tartibsiz, to'da-to'da bo'lib, saf-larga tizilmasdan va taktik mulohazalarsiz jang qilgan bir paytda, Amir Temurning bu tartibda jang olib borish uslubi, albatta, uning buyuk lashkarboshilik mahoratidan darak beradi. U jang oldidan qaysi mamlakatga yurish qilmoqchi bo'lsa, uni obdan va pishiq o'rganar edi. Agar siyosat bilan va tinch vositalar orqali masalani hal qilish imkoniyati bo'lsa, Sohibqiron bu yerda qurol ishlatishni noto'g'ri deb hisoblardi. Amir Temur qaysi bir mamlakatda zolimlik,

zo'ravonlik, jabr-zulm, adolatsizlik kuchli bo'lsa, xalq ommasining o'z podshosidan noroziligi oshib, qashshoq bir holga kelib qolgan bo'lsa, unday mamlakatga qarshi urush e'lon qilar edi. Yana u qaysi bir mamlakat hukmdori dini islomdan qaytgan bo'lsa, odamlarning diniy e'tiqodi susayib, dindorlar tahqirlangan va kamsitilgan bo'lsa, axloqiy fahsh va buzuc ishlariga yo'l ochib qo'yilgan bo'lsa, bunday mamlakatga qo'shin tortib kirish va Muhammad alayhissalom e'tiqodini tiklash lozim deb hisoblar edi. Islom Ruhoniylari Amir Temurni asr qahramoni, e'tiqod tayanchi va kurashchisi, payg'ambar xush ko'rgan hukmdor deb e'lon qiladilar. U o'zga mamlakatlar haqidagi ma'lumotlarni savdogarlar, elchilar, qalandar darveshlar va o'zi yuborgan ayg'oqchilar yordamida to'plar edi.

Xullas, Amir Temur buyuk lashkarboshi, davlat arbobi va ulug' inson edi. U yaratgan harbiy san'at merosi jahon xalqlarining harbiy san'ati merosidan munosib o'rin oldi va u bugungi kunda yangi mazmun bilan boyib bormoqda.

7. AMIR TEMUR SALTANATINING PARCHALANISHI. SHOHRUH VA ULUG'BEK HUKMRONLIGI

Amir Temurdan vorislariga ulkan va yirik saltanat meros bo'lib qoladi. «Zafarnoma»da yozilishicha, ulug' Amirdan 2 o'g'il va bir qiz, 29 nevara, 5 chevvara, jami 36 shahzoda (qizdan tashqari) qolgan edi. Bundan tashqari, yana bir nabirasi bo'lib, bu qizi Og'a begimning o'g'li – Sulton Husayn Mirzo edi. Aslida Temurning ikki qizi va to'rt o'g'li bo'lgan. Katta o'g'li Jahongir Mirzo (1356–1376) 1376-yilda 20 yoshida kasallanib vafot etadi. Ikkinchi o'g'li Umarshayx Mirzo (1356–1394) 1394-yilda Kurdistonda Harmatu qal'asi yonida o'q tegib, 38 yoshida halok bo'ladi.

Sohibqironning vasiyatiga sodiq qolishga qasamyod qilgan shahzodalar hali ulug' Amirning jasadi sovimasdanoq, vasiyatdan yuz o'girib, toj-u taxt uchun kurash boshlab, yuboradilar, harbiy va ma'muriy boshliqlar esa guruhbozlikni avjiga chiqaradilar. Natijada, ne-ne zahmatlar ila Amir Temur tomonidan barpo etilgan buyuk saltanat chok-chokidan yemirilish tomon yo'l tutadi. Toj-u taxt talashish kurashini Mironshoh Mirzoning 22 yoshli o'g'li Halil Sulton Mirzo (1384–1411) boshlab beradi. Sohobqiron Amir Temur

tomonidan taxt vorisi deb eʼlon qilingan Pirmuhammad Mirzo bobosi vafot etgan paytda, Qandahor viloyati (Afgʻoniston)da boʻlib, u hali Samarqandga yetib kelishga ulgurmasdan Halil Sulton Mirzo 1405-yil 18-martda Samarqand taxtini egallaydi. Toj-u taxt uchun temuriy shahzodalar oʻrtasidagi kurash 1409-yilga qadar Shohrux Mirzo Samarqand taxtini egallagunga qadar davom etadi. Halil Sulton bilan Shohrux Mirzo oʻrtasida Shayx Nuriddin vositachiligida bitim imzolanadi. Bitimga koʻra, Halil Sulton Movarounnahr taxtiga daʼvogarlikdan voz kechadi, evaziga Ray viloyatiga hokim qilib, tayinlanadi. Oradan ikki-yil oʻtgach, u 1411-yil 4 noyabrda kasal boʻlib vafot etadi, boshqa maʼlumotlarga qaraganda, uni zaharlab oʻldiradilar.

Shohrux Mirzo mamlakatni boshqarishda temurzoda va nufuzli amirlardan iborat hokimlarning aksariyatini oʻzi uchun ishonchsiz, deb hisoblaydi. Ularning oʻrniga deyarli barcha viloyatlarda oʻz oʻgʻillari, nabiralari va oʻziga yaqin tutgan qon-qarindoshlarini qoʻyadi. Movarounnahr hukmronligini katta oʻgʻli Ulugʻbek Mirzoga (1394–1449) beradi. Balx bilan Badaxshon viloyatlarini ikkinchi oʻgʻli Ibrohim Mirzoga (1394–1435), Hisor hukmronligini Muhammad Sulton Mirzoning oʻgʻli Muhammad Jahongir Mirzoga (1396–1433), Fargʻonani esa Umarshayx Mirzoning 22 yoshli oʻgʻli Ahmad Mirzoga (1383–1425) suyurgʻol tariqasida inʼom qiladi. Oʻzi Hirotda turib otasidan qolgan buyuk saltanatni tiklashga kirishadi. U shu maqsad yoʻlida asta-sekin oʻz akalari Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo va Mironshoh Mirzo (1408-yil 21-aprelda Ozarbayjonning Sardrud mavzesida turkman Qora Yusuf bilan boʻlgan jangda halok boʻlgan) avlodlariga gʻamxoʻrlik koʻrsatadi, ularni oʻz qoʻl ostida birlashtirib, Ozarbayjon, Movarounnahr, Xuroson va Shimoliy Afgʻonistondan iborat katta bir davlat jilovini qoʻlga oladi. Kobul, Qandahor, Gʻaznadan tortib Shimoliy Afgʻonistondagi barcha viloyatlar Pirmuhammad Mirzoga suyurgʻol tarzida berilgan edi. Pirmuhammad Mirzo vafoti (1407-yil 22-fevralda oʻz amiri Pir Ali Toz tomonidan boʻgʻib oʻldirilgan)dan soʻng, mazkur viloyatlar uning katta oʻgʻli Qaydu Mirzoga beriladi. Qaydu Mirzo keyinchalik, Shohrux Mirzoning farmoniga boʻysunmay, mustaqil hukmronlik kayfiyatiga beriladi. 1417-yilda Qaydu Mirzo qoʻlga olinadi va Hirotda keltiriladi. Shohrux uning aybini kechiradi va Qaydu Mirzoni Hirotda saqlashga farmon beradi. Ammo Qaydu Mirzo 1418-yil 22-avgustda baʼzi bir beklarning qutqusi va yordamida Hirotdan

qochadi. Biroq u tezda qo'lga olinib, Ixtiyoriddin qal'asidagi zindonga tashlanadi va shu yerda vafot etadi. Qaydu Mirzoga qarashli viloyatlarga Shohrux o'z o'g'li Jaloliddin Suyurg'atmish Mirzoni (1398–1427) hokim etib tayinlaydi.

Shohrux Mirzo (1377 –1447) tabiatan oliyjanob hukmdor, ilm-fanga moyil ma'rifatparvar davlat arbobi edi. U hokimiyat tepasiga kelgach, Eronda ham, Turonda ham bir necha o'n yilliklar davomida nisbatan, tinchlik va osoyishtalik hukm suradi. Uning davrida Hirot Sharqning eng ko'rkam, obod va madaniyati rivoj topgan shaharlaridan biriga aylanadi. Shohrux Mirzo inson sifatida yumshoq tabiatli bo'lganligidan saltanat ishlarini boshqarishda o'ktam harakterli va tadbirkor xotini Gavharshod begimning aralashuvi ijobiy natijalar bilan bir qatorda salbiy oqibatlariga ham olib keladi. Shu sababdan, bo'lsa kerak Shohrux Mirzo umrining oxiriga qadar ham o'z o'rniga valiahd tayinlash masalasida muayyan bir qarorga kela olmaydi.

Amir Temur davlatining asosiy qismi uzoq vaqt davomida Shohrux Mirzo tomonidan idora qilingan bo'lsa-da, amalda bu ulkan mamlakat mustaqil ikkita davlatdan iborat edi. Biri poytaxti Hirot shahri bo'lgan Shohrux Mirzo davlati bo'lsa, ikkinchisi markazi Samarqand shahri bo'lgan Mirzo Ulug'bek davlati edi.



Ulug'bek Mirzo 1394-yil 22 mart kuni Iroqi Ajamning Sultoniya shahrida dunyoga kelgan. Bu voqea sohibqiron Amir Temurning Eron va Yaqin Sharqqa qilgan «besh yillik» yurishi paytiga to'g'ri keladi. Chopar yangi mehmonning dunyoga kelganligi haqidagi xabarni buyuk Amirga yetkazganida Temur askarlari Iroqning shimolidagi Mordin shahrini egallash uchun jang olib borar edi. Amir Temur bu xushxabarni eshitib, Sharafiddin Ali Yazdiy bergan ma'lumotlarga qaraganda, Mordin shahri aholisiga omonlik beradi, fuqarolar to'lashi lozim bo'lgan xirojdan

voz kechib, shaharning hokimlik hokimlik mansabini sobiq hokim amir Sulton Isoning ukasi amir Sulton Solihga in'om etadi va o'zi orqaga qaytadi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqqa bobosi Amir Temurning taklifi bilan Muhammad Tarag'ay deb ism qo'yadilar. Bu nom Temurning otasi hurmatiga nisbat qilib berilgan edi. Ammo tarixda u ko'proq Muhammad Tarag'ay nomi bilan emas, balki Ulug'bek nomi bilan mashhurdir. Manbalarda bu haqida hech qanday izoh berilmagan bo'lsa-da, sababi tushunarlidir. Chunki, Sharq xalqlari an'analariga ko'ra, bobosi yoki buvisining nomi berilgan farzandni boboning yoki buvining hurmati evaziga ularga berilgan nom bilan chaqirmasdan, «Otabek», «Ulug'bek», «Onajon», «Onam» deb erkalab chaqiradilar. Shu ma'noda Muhammad Tarag'ayni beklarning ulug'iga qiyoslab Ulug'bek ataganlariga ajablanishga asos yo'q. Ulug'bekning tarbiyasi bilan Temurning xotini Saroymulxonim (Bibixonim) shug'ullanadi. Davlatshoh Samarqandiy Ulug'bekning yoshlik chog'idanoq nihoyatda o'tkir zehni bo'lganligini ta'kidlaydi va bir ibratli hikoya keltiradi. Ulug'bek endi besh yoshga kirganida bobosi Amir Temur 1398-yilda saroy qissaxonaning jiyani Shayx Orif Ozariyni unga murabbiylikka tayinlaydi. U Ulug'bekka 4 yil saboq beradi. Ulug'bek ustozini g'oyatda qadrlar va hurmatlar edi. Ustoz va shogird 46-yildan so'ng uchrashganlar. 1447-yilda Shayx Orif Ozariy darvesh kiyimida Isfaroyin shahrida Ulug'bekka ro'baro keladi. U bir qarashidayoq o'z ustozini taniydi va uning bilan samimiy suhbatlashadi.

Yosh Ulug'bek Temurni Armaniston va Kavkazortiga qilgan yurishlarida, 1398–1399-yillardagi Hindiston yurishida Saroymulxonim bilan birga Qobulgacha kuzatib boradi. Temurning 1399–1404-yillardagi G'arbga yurishida ham saroy ahli bilan birga bo'ladi. Ulug'bekning onasi, Shohrux Mirzoning yosh xotini Gavharshodbegim ham qaynotasi Amir Temurning O'rdugohida bo'lgan.

Gavharshodbegim Chig'atoy amirlaridan G'iyosiddin Tarxonning qizi bo'lgan. G'iyosiddin Tarxonning undan tashqari, yana ikki qizi bo'lib, ular 1392-yilda Umarshayx Mirzo Bahodirning o'g'illariga turmushga chiqqan edilar. Shohrux Mirzo Gavharshodbegimga 1388-yilda 11 yoshdaligida uylanadi. 1404-yil avgustda Amir Temur o'zining G'arbga qilgan mashhur «Yetti yillik» yurishida g'alaba bilan qaytgach, Samarqand chetidagi «Bog'i Dilkusho» bog'ida

bu g'alaba sharfiga bag'ishlab, katta anjuman o'tkazadi. Anjuman to'yga ulanib ketadi va qirq kecha-yu kunduz (ba'zi manbalarda ikki oy) davom etadi. To'y yakunida Umarshayx Mirzoning ikki o'g'li – Ulug'bek Mirzo va Ibrohim Sulton Mirzoni uylantiradilar. Ulug'bek Mirzoga marhum Muhammad Sulton Mirzoning qizi O'gabegimni olib beradilar. 1409-yilda Ulug'bek Movarounnahr taxtiga o'tirganda 15 yoshda edi. Shu sababli davlat ishlarini boshqarish uning vasiysi Shoh Malikka yuklatiladi. Ammo Shoh Malikning raqibi Shayx Nuriddin Ulug'bek bilan Shoh Malik hukmronligini tan olmaydi. U mo'g'ullardan kuch olib, bir necha marta Samarqand sari yurishlar qiladi va Shoh Malikka zarbalar beradi. 1411-yilda ikki o'rtada hal qiluvchi janglar bo'ladi. Shohrux Mirzo bu janglarda Ulug'bek Mirzo va Shoh Malikning mag'lubiyatidan xavotirlanib, katta lashkar bilan Hirot dan shaxsan o'zi yo'lga chiqadi. 1411-yil yozidagi jangda Shoh Malik hiyla ishlatib, Shayx Nuriddinni o'ldirishga muvaffaq bo'ladi. Ulug'bek otasini Qashqadaryo bo'yida kutib oladi. Ular birgalikda Samarqand sari o'tlanadilar. Shohrux Mirzo o'z lashkargohini Cho'ponota tepaligi yonidagi Konigilda quradi. Ota-bola bir necha kun Samarqandning so'lim bog'larida dam olishgach, Shohrux Mirzo Hirot sari yo'l oladi. U Shoh Malikni ham o'zi bilan birga Hirotga olib ketadi. Ulug'bek endi o'zi mustaqil holda Samarqand taxtini boshqarishga kirishadi. Binobarin, u birinchi marta hukmdor sifatida otasining ketishi oldidan uning sharfiga katta ziyofat beradi va padari buzrukvoriga qimmatbaho sovg'alar in'om qiladi.

Abdurazzoq Samarqandiyning ma'lumotlariga qaraganda, Ulug'bekning amakivachchasi Aleksandr Mirzo (Umarshayxning o'g'li) 1413-yilda Ulug'bekka qarshi isyon ko'taradi. Bu qo'zg'olonni bostirish uchun Shohrux Mirzoning shaxsan o'zi qo'shin bilan boradi. Chunki Movarounnahrning o'zida ham vaziyat tinch emas edi. Farg'ona hokimi Umarshayx Mirzoning yana bir o'g'li Ahmad Mirzo Ulug'bekka itoatsizlik bildirgan edi. Ulug'bek kengash bahonasida Ahmad Mirzoni Samarqandga chaqiradi. Biroq u Samarqandga kelmaydi. Shundan so'ng, Ulug'bek Mirzo Ahmad Mirzo bilan muzokara yuritish maqsadida, Boyazid parvonachini Andijonga yuboradi. Muzokaradan natija chiqmaydi. Ulug'bek Farg'ona vodiysiga qo'shin tortib boradi. Ahmad Mirzo tog'larga qochib ketadi, u yerdan Qashg'arga o'tadi, Ulug'bek Andijon va Axsini jang bilan egallaydi. 1416-yilda esa Qashg'ar ham Ulug'bekka taslim bo'ladi.

Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, bu voqealardan xabardor bo'lgan Shohrux Mirzo 1415-yil 25-mayda Ahmad Mirzoga quyidagi mazmunda maktub yo'llaydi: «Eshitishimizga qaraganda, Ahmad Mirzo bilan farzandimiz Ulug'bek orasida fisq-u fasodchilarning nomo'tabar so'zlariga e'tiboran shaharlar va fuqarolarning tashvishlarini orttiruvchi kechmish yuz beribdi. Bu xabarni biz Iroq mamlakatida ekanligimizda eshitdik, ammo masofa yiroqligi tufayli uning tadorigini qurishga kirisha olmadik. Dorussaltanat Hirotga qaytib kelgandan keyin esa eshitdikki, u farzand Mo'g'uliston tomon ketayotgan emish. Bu hol biz uchun bag'oyat maslahatdan yiroq va ajib tuyuldi. Chunki birodarlar va farzandlarga nisbatan, bizning «beshikdan tobutgacha» g'amxo'r ekanligimiz unga ma'lumdir. Ota-bolalik binosi qo'zg'almay turuvchi tog'lardek sobit bo'lmog'i uchun u farzand bizning huzurimizga homiylik panohini so'rab kelishiga ishonchimiz komil va e'tiqodimiz kuchlidir. Bu so'zlar tug'ishganlik vazifalarini ado etish, musulmonlik ham musulmonlarga g'amxo'rlik qilish yuzasidan aytiladi. Takalluf-u maqtanchoqlik, makr-hiylaga yo'yib kek saqlash bizlar uchun uyatdir. Ehtimolki, mulozimlikda yurgan bir guruh kishilar mazkur noo'rin harakatlar xoh ixtiyoriy, xoh majburiy tarzda ular tomonidan sodir bo'lganligi tufayli vahimaga tushib, u farzandning bizning huzurimizga kelishiga mone'lik qilalarlar. Ahmad Mirzo ularning barchasini ishontirsinki, biz hammalarining jarimalarini avf qildik. Haq ustiga haqdirki, ularning hammasiga rahm-shafqat panohidan boshpana bergumizdir»¹. Ahmad Mirzo 1416-yilda Hirotga keladi. Uni nazoratda saqlaydilar. Ma'lum vaqt o'tgach, u Ka'batulloh ziyoratiga jo'natiladi. 1425-yilda u ziyoratdan qaytib kelmasdan vafot etadi.

Ulug'bek Mirzo lashkarboshi sifatida tarixda nom qoldirishga intilmagan. Uning harbiy yurishlari asosan, mudofaa xarakterida bo'lib, yaqinlashib kelayotgan xavf-xatarni bartaraf qilish va uning oldini olishga qaratilgan edi.

Oltin O'rdada ko'chmanchi o'zbek qabilalarining bir necha shahzodalari o'zaro hokimiyat talashib, urushlar olib borar edilar. Ulug'bek Mirzo o'zining shimoliy chegaralari xavfsizligi manfaatlarini o'ylab, o'zbek shahzodalalarining bu harakatlaridan foydalanishga qaror qiladi va 1419-yilda Toshkent sari yuradi. U bir vaqtlar bobosi Amir Temur bilan urushgan Oltin O'rda xoni O'rusxonning nabirasi bo'lmish Baroqxonni qo'llaydi. 1422-yilda Baroqxon Ulug'bekning

¹ Fayziyev T. Mirzo Ulug'bek avlodlari. – T.: «Yozuvchi», 1994, 17-bet.

qo'llashi natijasida o'zbek hukmdori Muhammadxon ustidan g'alaba qozonib, Oltin O'rda taxtini egallaydi. Ulug'bek o'zining gumashtasi bo'lmish Baroqning bu muvaffaqiyatidan mamnun edi. Bu, uning fikricha, mamlakatning shimoliy chegaralari xavfsizligini ta'minlardi. Ulug'bek endi asosiy e'tiborini Jeta (yoki Mo'g'uliston) ga qaratadi. Bu o'lka Temur vasiyatiga ko'ra, Ulug'bek Mirzo mulki hisoblanar edi. Ammo Jeta hukmdorlari tez-tez Ulug'bekka qarshi bo'lgan kuchlar bilan yaqinlashib, sharqiy hududlarda davlat xavfsizligiga qarshi faoliyat bilan mashg'ul bo'lar edilar. Buning ustiga 1416–1420-yillarda bu yerda ham hokimiyat talashib tartibsizliklar yuz beradi. Bundan foydalangan Ulug'bek Jeta o'lkasiga o'z odami Shermuhammadni hukmdorlikka ko'taradi. Biroq u ko'rnamaklik qilib, Ulug'bekka itoat qilishdan bosh tortadi. Mirzo Ulug'bek 1425-yilda ko'rnamak isyonkor gumashtasi ustiga qo'shin tortishga majbur bo'ladi. Shohrux Mirzo bu yurishni to'xtatish maqsadida, ikki marta Ulug'bek Mirzoga elchilar yuboradi. Ulug'bek elchilarga javobida: «Yurish haqidagi farmon allaqachon ovoza bo'lgani, agar endilikda yurish to'xtatilsa dushman bizni kuchsiz ekan deb gumon qilishi mumkin», degan, mulohazada safarni davom ettiradi. Ulug'bek bu yurishda Issiqko'l istehkomini egallab, Jahonshoh qo'shinini ta'qib qiladi. Ikki o'rtada Ketmontepa butazorida bo'lgan jangda sarkarda amir Arslonxo'ja katta jasorat ko'rsatadi va unda Ulug'bek g'alaba qozonadi. Katta o'lja va boyliklar bilan Ulug'bek Mirzo Qashqadaryo orqali Samarqandga qaytadi. Ulug'bek o'zining 2000 chapdast botir askarlari bilan Qarshi istehkomidagi nefrit (yashm) toshini Samarqandga olib keladi. Bu tosh bir vaqtlar Xitoydan Qarshiga keltirilgan bo'lib, uning bir bo'lagi Amir Temur davrida Qarshidan Samarqandga keltirilgan edi. Uch bo'lakka bo'linib keltirilgan ushbu nefrit toshi sohibqironning maqbarasiga qo'yiladi. Ulug'bek Mirzoning raqiblari ustidan qozongan g'alabasi 1425-yil yozda Samarqandda va kuzda Hirotda tantanali suratda nishonlanadi. Noyabr oyining o'rtalarida Ulug'bek Hirotdan Samarqandga qaytadi. Ammo g'alaba nashidasi uzoqqa cho'zilmaydi. 1426-yilda Baroqxon Ulug'bekning gumashtasi bo'laturib, Sirdaryoning quyi va o'rta oqimidagi yerlarga hujum qiladi va Sig'noq shahrini egalaydi. Sig'noq Jo'ji ulusiga qarashli yerlar edi. 1377-yilda bu yerda Baroqxonning bobosi O'rusxonning harbiy o'rdugohi joylashgan edi. O'rusxon davrida shaharda bir necha madrasa, xonaqoh, masjid va boshqa madaniy-maishiy qurilishlar barpo etilgan. Keyinchalik, Sig'noq Amir Temur yerlariga qo'shilib ketgan edi. Baroqxon bu

yerni Ulug‘bek Mirzodan so‘roqsiz egallab olib, men «shariatga muvofiq» o‘z bobom merosiga egalik qildim», – deb Ulug‘bekka elchi yuboradi. Ulug‘bek Mirzo tomonidan Sig‘noqqa hokim etib qo‘yilgan amir Arslonxo‘ja Baroqxondan shikoyat qilib keladi. Bu voqeadan g‘azablangan Ulug‘bek Mirzo Baroqxon ustiga lashkar tortadi. Ushbu xabarni eshitgan Shohrux Mirzo Ulug‘bekka bu yurishni man etadi. Biroq Ulug‘bek harbiy yurishni boshlab yuborgan edi. Natijada, Shohrux Mirzo kichik o‘g‘li Muhammad Jo‘ki Mirzo boshchiligida 1427-yil fevral oyida Ulug‘bekka yordam uchun bir bo‘lak lashkar yuboradi. U 25 fevralda Sig‘noq yo‘lida Ulug‘bek kuchlari bilan qo‘shiladi. Ana shundan so‘ng, har ikkala shahzoda o‘z harbiy kuchlariga ortiqcha baho berib, taltayib ketadilar va siyosiy hushyorlikni qo‘ldan beradilar. Binobarin, ular Baroq o‘g‘lonni nazar-pisand qilmay unga qarshi tashlanadilar. Baroqxon esa dushman askarining son jihatdan ko‘p bo‘lganligini hisobga olib, ehtiyotlik choralarini ko‘radi va ayyorlik bilan Sig‘noq yaqinidagi baland-pastlikda qo‘qqisdan hujumga o‘tadi. Natijada, u aka-ukalarning birlashgan kuchlarini to‘zitib yuboradi. Ulug‘bek va Jo‘ki Mirzolar zo‘rg‘a o‘z jonlarini saqlab qoladilar. Samarqand beklari mag‘lubiyatga uchragan Ulug‘bekka shahar darvozasini ko‘ngilsizlik bilan ochadilar. Baroqxon o‘zbeklari bu g‘alabadan ruhlanib, Movarounnahr va Turkiston shahar hamda qishloqlarini talab, Samarqandga yaqinlashadilar. Bemor Jo‘ki Samarqandda qoladi. Unga tegishli bo‘lgan Qandahor va Hirot qo‘shinlarini Ulug‘bek Mirzo o‘z qo‘shinlariga qo‘shib Sirdaryoni kechib o‘tadi. U Shohruxiya orqali Toshkentga yetib kelganda Baroqxonning orqaga qaytganligi haqida xabar eshitadi.

Ulug‘bek Mirzoning bu mag‘lubiyati Movarounnahr aholisini og‘ir tashvishga solib qo‘yadi va uning obro‘sigam ham butunlay putur yetkazadi. Bu haqida Bartold: «1427-yildagi tahqirlanish Ulug‘bekning butun keyingi podsholigiga putur yetkazdi»¹, degan edi. Chunki bu mag‘lubiyat oqibatida Ulug‘bekning bobosi Amir Temurning 1389, 1391 va 1395-yillarda Oltin O‘rda va To‘xtamish o‘zbeklari ustidan erishgan buyuk g‘alabalariga barham berilgan edi.

Aslida ana shu mag‘lubiyatdan so‘ng, Oltin O‘rda o‘zbeklarining, xususan, o‘zbek ulusining kuchayishi boshlanadi.

Sodir bo‘lgan voqealardan batamom voqif bo‘lgan Shohrux Mirzo 1427-yil 28-mayda Hirotidan chiqib Samarqandga keladi.

¹ *Бартольд В.В.* Улугбек и его время. Сочинения, т. ИИ, ч.2.М., «Наука». 1964, стр.113

Otasining yo'lga chiqqanligini eshitgan Ulug'bek askarlarini Toshkentda qoldirib, o'zi padari buzrukvorini kutib olish uchun Termizga keladi. Samarqandga kelgandan so'ng, Shohrux Mirzo bo'lib, o'tgan urushdagi mag'lubiyat sabablarini puxta o'rganadi va bir necha amirlarni darra jazosiga hukm qiladi. U Ulug'bekni ham qattik so'roq qilib jazolaydi va bir necha kun e'tiborsiz qoldiradi. Nihoyat ko'p ta'nalardan so'ng, Movarounnahr taxtini yana Ulug'bekka qoldirib, o'zi Hirotga qaytadi.

Ana shu davrdan boshlab, Ulug'bek Mirzo o'z umrini ilm-fanga bag'ishlaydi, harbiy yurishlarda ishtirok etmaydi. Ammo u XV asrning 30–40-yillarida otasi Shohrux Mirzo bilan Dashti Qipchoqning sharqiy qismida istiqomat qiluvchi ko'chmanchi o'zbek qabilalari xoni Abulxayrxon (1412–1468)ga qarshi muttasil janglar olib borishga majbur bo'ladi. Ko'chmanchilar ayniqsa, qish fasllarida Movarounnahr hududlariga tez-tez bostirib kirar, shahar va qishloqlarni talab, aholini talar edilar. Jumladan, Abulxayrxon 1431 va 1435-yillarda Xorazmgacha bostirib keladi, uning g'arbiy qismini Urganch bilan birga egallab oladi. Abulxayrxonga qarshi kurash Shohrux Mirzo bilan Ulug'bek Mirzoga oson bo'lgani yo'q. Shunday qilib, Ulug'bek Mirzo ichki va tashqi siyosatda ayrim hollardagina mustaqil harakat qilgan bo'lsa-da, asosan, otasi Shohrux Mirzoga vassal edi va uning roziligisiz o'zi mustaqil bir ish qila olmasdi.

Shohrux 1447-yil 12-martda nevarasi Sulton Muhammad isyonini bostirish vaqtida Ray shahrida vafot etadi. Shu daqiqadan e'tiboran temuriy shaxzodalar o'rtasida toj-u taxt uchun kurash yangi kuch bilan avj olib ketadi. Ayniqsa, Shohrux Mirzoning xotini Gavharshoh begimning davlat ishlariga hadeb aralashaverishi tugunlar chigalini yana ham chalkashtirib yuboradi. Shohrux Mirzo vafotidan so'ng, odatga ko'ra, uning katta o'g'li Ulug'bek Mirzo valiahd sifatida ota taxtini egallashi kerak edi. Ammo Gavharshod begim Shohruxning uchinchi o'g'li Boysung'ur Mirzoning o'g'li va sevikli nabirasi Alouddavlarning valiahd bo'lishiga tarafdorlik qiladi. Natijada, Boysung'ur Mirzoning o'g'illari Alouddavla va Abulqosim Bobur Mirzoga qarshi harakat boshlaydilar. Xuroson bilan Hirotni Alouddavla, Mozandaron va Jurjonni Abulqosim Bobur egallaydi. G'arbiy Eron bilan Forsni Boysung'urning yana bir

o'g'li Sulton Muhammad qo'lga kiritadi. Shohruxning o'zi hayotlik chog'ida hech kimga aytmagan bo'lsa-da, biroq o'g'li Muhammad Jo'kini o'z o'rniga valiahd hisoblardi. Ammo u 1444-yilda to'satdan vafot etadi. Jo'kning o'g'li Abu Bakr Mirzo o'z og'asi Muhammad Qosimga qarshi bosh ko'taradi va undan Balx, Shibirgo'n, Qunduz va Bag'lon viloyatlarini tortib oladi. Ana shunday boshboshdoqlik va o'zboshimchaliklar avj olib ketgan bir sharoitda Ulug'bek qo'shin tortib chiqishga va temuriy shahzodalar bilan muzokaralar boshlashga majbur bo'ladi.

Ulug'bekning qo'shin bilan Samarqanddan chiqishiga yana boshqa eng muhim sabab ham bor edi. Shohrux Mirzo o'z nabirasi Sulton Muhammad isyonini bostirishga kelib, Ray shahrida vafot etgan paytda, Gavharshod begim Ulug'bekning o'g'li Abdullatif bilan birga bo'ladi. Alouddavla esa Hirotda qoldirilgan edi. Gavharshodbegimning maslahati bilan Abdullatif Shohrux qo'shiniga boshchilik qiladi. Ayni paytda, Gavharshod begim bo'lgan voqea xususida Alouddavlagaga maxfiy xabar yuboradi. Abdullatif Shohrux lashkarining amiri bo'lgandan so'ng, unga boysunmagan va isyon ko'targan o'zining lashkarboshilari va qarindoshlari bo'lmish Boysung'urning o'g'li Abulqosim Bobur va Muhammad Jahongirning o'g'li Xalil Sultonga qarshi keskin choralar ko'radi. Abdullatif bu isyonda Gavharshod begimning qo'li borligidan shubhalanadi va uni hibsga oladi. O'zi esa lashkar bilan sharqqa tomon yurib Nishopurga keladi. Gavharshod begim tomonidan ogoh etilgan Alouddavla Shohruxning xazinasini askarlarga bo'lib beradi va Nishopurga yetib keladi. Bu yerda u kutilmaganda, qo'qqisdan 1447-yil aprelda Abdullatif qo'shinlariga hujum qiladi va uni tor-mor qilib, Abdullatifni qo'lga oladi. Alouddavla Abdullatifni Hirotdagi Ixtiyoriddin qal'asiga zindonga tashlab, o'zi Ulug'bek Mirzoga qarshi Balx sari lashkar tortadi.

Bu paytda, Ulug'bek Mirzo Amudaryodan o'tib, Balxni ishg'ol qilgan edi. U Balx va uning atrofidagi yerlar hokimi Jo'kning o'g'li Abu Bakrni hibsga oladi va Samarqandga jo'natadi. U shu yerda Ulug'bekning buyrug'i bilan qatl etiladi. Ulug'bek o'g'li Abdullatifning qurbon bo'lishini istamay, Alouddavla bilan sulh bitimi tuzishga majbur bo'ladi. Bu bitimga ko'ra, Abdullatif zindondan ozod qilindi va Ulug'bek uni Balx va Amudaryo ikki sohilidagi

yerlarning hokimi etib tayinlaydi. Buning evaziga Ulug'bek Hirot va Xurosonga bo'lgan da'vosidan voz kechadi. Ikki o'rtadagi chegara Murg'ob daryosi vodiysi bo'ylab o'tadigan bo'ladi. Alouddavla Abulqosim Bobur bilan ham bitim tuzadi. Bitimga ko'ra, ularning mulklari o'rtasidagi chegara Xurosonning shimolidagi Kuchan shahri deb belgilanadi. Ana shu tariqa, Amir Temur tomonidan ne-ne mashaqqatlar bilan barpo etilgan buyuk saltanat bir necha bo'laklarga bo'linib ketadi.

Oradan ko'p vaqt o'tmasdan, Alouddavla bilan Abdullatif o'rtasidagi munosabatlar yangi kuch bilan yanada ziddiyatli tus oladi. Alouddavla ikki o'rtadagi bitim shartlarini to'la bajarmaydi, ya'ni Abdullatifning o'zini zindondan ozod qilgan bo'lsa-da, uning asir olingan askarlarini ozod qilmaydi. Buning ustiga chegaradagi Chechaktu degan joyga Abdullatifning dushmani Mirzo Solihni amir etib tayinlaydi. Shu boisdan, 1447-yilning oxirlaridayoq Abdullatif Mirzo Solihga qarshi yurib, uni mag'lub etadi, Mirzo Solih Hirotga qochadi. Alouddavla Balxga yurishga majbur bo'ladi. Ammo 1448-yilning boshida Chechaktuga yetganda qattiq sovuq bo'lganligi tufayli yurishni to'xtatishdan boshqa chora topa olmaydi. O'sha yilning bahorida Ulug'bek va Abdullatifning 90 ming kishilik lashkari Alouddavlaga qarshi Hirotga yurish boshlaydi. Movarounnahr va Xuroson lashkarlari o'rtasidagi jang Hirotidan bir necha chaqirim naridagi Tarnob yaqinida bo'ladi. Bu jangda Alouddavla batamom mag'lubiyatga uchraydi va u Kuchanga, birodari Abulqosim Bobur huzuridaga qochib boradi. Hirot Ulug'bek va Abdullatiflar tomonidan batamom egallanadi. Alouddavla mag'lubiyatini eshitgan saroy a'yonlari Gavharshod begim bilan poytaxtni tashlab qochadilar. Ulug'bek va Abdullatif g'arbga tomon hujumni davom ettiradilar va Mashhadni ham egallaydilar. Radkonda Ulug'bekning huzuriga Abulqosim Boburning elchilari kelib, Ulug'bekni o'z podshohi deb tan olishini va uning ismini xutbaga kiritib, uning nomi bilan tanga zarb qilishga hozir ekanligini bildiradilar. Ammo Ulug'bek yurishni davom ettiradi va Isfaroingacha yetib, u yerda uch kun turadi. Bu o'rtada Abdullatifni Biston bilan Astrobodga jo'natadi. Shundan so'ng, Ulug'bek o'z yurishini davom ettirib, Ibrisham daryosidagi ko'priikka yetadi. Bobur esa, undan ham nariroqqa, Domg'onga ko'chadi. Ulug'bek daryo ko'prigidan nariga o'tishga botinolmaydi

va orqaga, Mashhadga qaytadi. Bu albatta Ulugʻbekning harbiy va taktik xatosi edi. U holdan toygan oʻz raqibini nafas olishga imkon bermasdan quvib borishi va batamom yanchib tashlashi mumkin edi. Ulugʻbekning raqiblari uning orqaga qaytishini chekinish deb baholaydilar va bu ularga quvvat baxshida etadi.

Alouddavla ustidan qozonilgan gʻalaba Ulugʻbekka shuhratdan koʻra, koʻproq tashvish va alam keltiradi. Uning hayotda yoʻl qoʻygan xatosi tufayli oʻz oʻgʻli Abdullatif bilan orasi buzilib, borgan sayin dushmanlik alomatlari kuchayib boradi. Chunki Hirot dan 14 farsax narida boʻlgan Tarnob jangida qoʻshinning chap qanoti Abdullatيفا, oʻng qanoti esa nomigagina Abdulaziz Mirzoga topshirilgan edi. Binobarin, erishilgan gʻalabada Abdullatifning hissasi va jasorati alohida tahsinga loyiq edi. Ammo negadir Ulugʻbek Mirzo jangdan soʻng, barcha viloyat amirlariga yoʻllagan yorligʻida Abdullatif chetda qolib gʻalaba shaʼnini suyuqli oʻgʻli Abdulaziz Mirzo nomiga yozdiradi. Bu ham yetmaganday Hirot qoʻlga olingach, Ulugʻbek, Abdullatif Mirzoni shahardagi Ixtiyoriddin qalʼasiga kiritmaydi. Holbuki, bu qalʼani Shohrux Mirzo hayotlik chogʻida nabirasi Abdullatيفا inʼom qilgan edi. Abdullatif hali 1446-yilda bobosi Shohrux Mirzo bilan Isfahon yurishiga tayyorlanar ekan, oʻziga tegishli boʻlgan barcha boyliklarni, chunonchi, bir necha ming misqol oltin, kumush buyumlar va 200 tuman pulni mana shu Ixtiyoriddin qalʼasida bekitib qoʻygan edi. Ulugʻbek Mirzoning Abdullatيفا nisbatan adolatsizligi boylik, davlat va shuhratga uch boʻlgan oʻgʻil qalbida oʻchmas iz qoldiradi. Bu davrda koʻchmanchi oʻzbeklar xoni Abulxayrxon Ulugʻbek Mirzoning Xurosonda ekanligidan foydalanib, Movarounnahrغا bostirib kiradi, undagi shahar va qishloqlarni vayron qiladi, aholini talaydi va Samarqandgacha yetib keladi. Bu xabarni eshitgan Ulugʻbek shoshilinch suratda Hirotni Abdullatيفا topshirib, oʻzi Samarqand sari otlanadi. U oʻzi bilan birga Shohrux Mirzoning xoki solingan tobutni va Shohruxning Gavharshod begim madrasasida bekitib qoʻyilgan bir boʻlak xazinasini ham olib, Amudaryo – Kalif kechuvi sari yuzlanadi. Abulqosim Bobur bu paytda Saraxsda edi. U Ulugʻbekning yoʻlga chiqqanligidan xabar topib, amir Hindukani katta qoʻshin bilan oʻz amakisi orqasidan joʻnatadi. Amir Hinduka yarim kechada kutilmaganda Ulugʻbek qarorgohiga hujum qiladi. Ulugʻbek bu

jangda juda ko'p askarlari va boyligidan mahrum bo'ladi. Bu ham yetmaganday, ertasi kuni Ulug'bek Kalif kechuvidan o'tish chog'ida ko'chmanchi o'zbeklar hujumiga uchraydi. Ulug'bek qishni kichkina qo'shin bilan Buxoroda o'tkazishga majbur bo'ladi. U Shohrux Mirzoning xoki solingan tobutni singlisi Poyanda Sulton begim bilan birga Samarqandga jo'natadi. Jasad Go'ri Amir maqbarasida dafn etiladi.

Abulqosim Bobur Hirotda Abdullatifning yolg'iz qolganligidan foydalanib, unga qarshi Saraxsdan katta qo'shin jo'natadi. Abdullatif shaharni tashlab qochadi va Balx tomon ketadi. Balx bir necha mayda viloyatlarga bo'lingan bo'lib, Abdullatif Mirzoning mulki edi. U bu yerda turib ochiqdan ochiq otasi Ulug'bekka qarshi urushga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. U Ulug'bekka qarshi bo'lgan savdogarlarni o'z tomoniga og'dirib olish maqsadida, «tamg'a», ya'ni savdo solig'ini bekor qiladi. Ulug'bek bu soliqqa katta e'tibor berar edi. Chunki «Buyuk Ipak yo'li» Hindistonga Balx orqali o'tar edi va u davlat xazinasiga katta daromad keltirardi. Nobakor o'g'lining xatti-harakatidan g'azablangan Mirzo Ulug'bek Abdullatifning tanobini tortib qo'yish uchun tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

Xondamirning yozishicha, Abdullatif 1449-yilning bahorida o'z mulkida unga qarshi qo'zg'olon ko'targan Mironshoh ismli bir temuriy isyonini bostiradi, shahzoda qatl etiladi. Qatl etilgan shahzodaning cho'ntagidan bir maktub topiladi. Maktub Ulug'bek Mirzo qo'li bilan yozilgan bo'lib, unda go'yo shahzodani Abdullatيفا qarshi isyon qilishga da'vat etilgan edi. Bu voqeadan so'ng, Abdullatif o'z otasiga nisbatan, ishonchini batamom yo'qotadi va battol dushmanga aylanadi. U hatto, Abulqosim Bobur Mirzo bilan ham otasiga qarshi harbiy ittifoq tuzadi va 1449-yilning bahorida Abdullatif Ulug'bekka qarshi ochiq jang harakatlarini boshlab, yuboradi. Ulug'bek Mirzo isyonkor o'g'li Abdullatيفا qarshi lashkar tortishga majbur bo'ladi. U Samarqandni kichik o'g'li Abdulaziz Mirzoga topshirib, jiyani va kuyovi Abdullo Mirzo (marhum Ibrohim Mirzoning o'g'li)ni o'zi bilan birga olib Amudaryo sohillarida turgan Abdullatif qo'shinlariga ro'baro' keladi. Davlatshoh Samarqandiy ma'lumotlariga qaraganda, ota-bola qo'shinlari uch oy mobaynida bir-birlariga qarama-qarshi turganlar. Har ikkala tomondan kichik-kichik guruhlar daryodan o'tib, to'qnashib jang harakatlar olib bor-

ganlar. Bu janglarda Abdullatif lashkarlarining qo‘li sezilarli darajada ustun mavqega ega bo‘lgan. Hatto, ular Abdulla Mirzoni asirga ham olganlar. Ayni zamonda, Mirzo Ulug‘bek lashkarlari orasida isyon xavfi paydo bo‘ladi. Buning asosiy sababchisi Samarqandda hokim qilib qoldirilgan Ulug‘bekning kenja erkatoyi Abdulaziz edi. U Samarqand taxtini egallagach, beibolarcha axloqiy buzuvchi ishlarni amalga oshirishga kirishadi. Abdulaziz otasi Ulug‘bek bilan birga jangga ketgan Samarqand shahrining kazo-kazo bek va amirlarining go‘zal qizlari, kanizak-juvonlarini majburan saroyga oldirib, ayshishrat bilan mashg‘ul bo‘ladi. Albatta, bu hol bek va amirlarning Ulug‘bek Mirzodan noroziligining kuchayishiga sabab bo‘ladi. Bu narsa Ulug‘bekning keyingi faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi, albatta. Ulug‘bek Mirzo darhol bek va amirlar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lib, tang vaziyatni tinchitishga harakat qiladi va o‘g‘li Abdulazizni pand-nasihatchi bilan to‘g‘ri yo‘lga soladi.

Shunday og‘ir bir vaziyatda turkmanlarning arg‘un qabilasi 25 yoshli Abu Sayyid Mirzoni o‘zlariga bosh qilib ko‘taradilar va Samarqandni qamal qiladilar. Abdurazzoq Samarqandiy bergan ma‘lumotlarga qaraganda, bu qabila vakillari Mirzo Ulug‘bek bilan birga harbiy yurishda bo‘lgan. Ular Amudaryo sohiliga kelgach, Ulug‘bek lashkarlaridan ajralib chiqib, Samarqand sari yuradi. Bu voqeadan xabar topgan Ulug‘bek Samarqandga qaytishdan boshqa yo‘l topa olmaydi. U Samarqand tomon yurib Abu Sayyid Mirzoni bartaraf etadi va shaharda osoyishtalik o‘rnatadi. Ulug‘bek Samarqand hokimligiga qovchin urug‘idan bo‘lgan Mironshohni ko‘tarib, o‘zi Abdulazizni yoniga olib yana Abdullatifga qarshi qo‘shin tortib ketadi. Ammo bu paytda, Abdullatif Amudaryodan o‘tib Termiz, Huzor (G‘uzor) va Keshni egallab, Samarqand sari kelayotgan edi. Nihoyat 1449-yil oktabr oyida Samarqandga yaqin Damashq qishlog‘i yonida ota-bola o‘rtasida qattiq jang bo‘ladi. Bu jangda Ulug‘bek Mirzo qo‘shinlari yengiladi. Chorasiz qolgan Ulug‘bek Samarqandga chekinadi. Biroq Samarqand hokimi Mironshoh qovchin uni Samarqandga kiritmaydi. Ulug‘bek noiloj Shohruxiyaga keladi. Lekin Shohruxiya hokimi Ibrohim ibn Po‘lod Ulug‘bek Mirzodan yuz o‘giradi. U hatto, Ulug‘bekni Abdullatifga tutib berish choralari ham ko‘radi. Mana shunday og‘ir bir vaziyatda Ulug‘bek Mirzo «egilgan boshni qilich kesmas» qabilida ish

tutadi. U o'z xohishicha hokimiyatni Abdullatif Mirzoga topshirib, umrining qolgan qismini ilm-ma'rifatga bag'ishlamoqchi bo'ladi. Ulug'bek ana shu ezgu niyatlar bilan o'g'li Abdullatifning huzuriga bosh egib boradi. Biroq Abdullatif Mirzo otasi Ulug'bekni Ka'batulloh ziyoratiga jo'natish xususida farmon beradi.

Ulug'bek Mirzoning fojiali o'limi tafsiloti haqida tarixchi Mirxond batafsil ma'lumot bergan: «Ka'batulloni bir necha marta ziyorat qilgan Hoji Muhammad Xusravning rahnamoligida Ulug'bek Mirzo kechqurun Samarqanddan otlig yo'lga chiqqan. Uning vaqti choq turli mavzularda so'zlashib borardi. Ko'p o'tmay, orqadan bir chopar yetib kelib (sulduz urug'idan), sobiq hukmdorni Ka'batulloha kuzatish marosimini shohona tarzda o'tkazish lozimligi va bunga tayyorgarlik tugallangunga qadar qo'shni qishloqda dam olishlari haqida farmoni oliyni eshittiradi. Mazkur farmondan dovdirab qolgan Ulug'bek Mirzo qo'shni qishloqdagi uylardan biriga kirib tushishga majbur bo'ladi. Havo ancha sovuq edi. Ulug'bek Mirzo olov yoqib, go'sht pishirishga amr qiladi. Olov yoqiladi, gulxan yonida chordana qurib, isinib o'tirgan Ulug'bek Mirzoning tizzasiga uchqun sachrab, chakmonini kuydiradi. Shunda u olovga qarab: «Sen ham bilding», – deydi-yu, uning kayfiyati buziladi, hoji esa Ulug'bekka tasalli berishga behuda urinadi. Shu asnoda uy eshigi ochilib, xonaga Abbas ismli shaxs o'z navkari bilan kirib keladi. Ulug'bek Mirzo Abbasni ko'rgan hamono o'rnidan turib, unga tashlanadi va ko'ksiga musht tushiradi. Navkar Ulug'bekni ushlab, uning yelkasidan «oltay po'stin»ni yechib oladi. Abbas arg'amchi keltirish uchun tashqariga chiqadi. Ulug'bek Mirzo o'limi oldidan so'nggi tahoratni qilib olishi uchun Hoji darhol eshikni ichidan zanjirlab oladi. So'ngra Abbas kirib, sobiq hukmdorning qo'llarini bog'lab, tashqariga olib chiqadi. Ariq bo'yiga cho'kka latib, fonus yorug'ida qilichning bir zarbi bilan boshini tanasidan judo qiladi»¹. Bu fojiali halokat hijriy 853-yil 8 ramazon (1449-yil 27-oktabr)da sodir bo'ladi. Shunday qilib, Samarqand qozisi Miskinning qarshiligiga qaramay ulug' olim, davlat arbobi va ma'rifatparvar inson Ulug'bek Mirzo 56 yoshida fojiali suratda shahid bo'ladi.

Samarqand taxtini egallagan Abdullatif mamlakatda zulm-adovatni avjiga mindiradi. U ota qotili – padarkush sifatida tarix-

¹ Fayziyev T. Mirzo Ulug'bek avlodlari. – T.: «Yozuvchi», 1994, 33–34-bet.

da nom qoldiradi. Ulugʻbekning shahid boʻlgan qonlari hali sovi-
masdan turib, bir necha kundan soʻng, Abdullatif taxt vorislaridan
qutulish niyatida oʻz ukasi Abdulaziz Mirzoni ham oʻldirtiradi.
Movarounnahrda har qanday itoatsizlik va isyonni shafqatsizlik
bilan bostiradi. Abdurazzoq Samarqandiy iboralari bilan aytgan-
da, unda «kattaga hurmat, kichikka shafqat» degan tushunchaning
oʻzi yoʻq edi. Uning siyosatidan norozi boʻlgan kishilar hatto, ovoz
ham chiqara olmasdilar. Movarounnahrda nisbatan osoyishtalik
Abdullatif tomonidan amalga oshirilgan gʻoyatda qattiqqoʻllik siyo-
sati tufayli edi. Ammo bu osoyishtalik tagida Abdullatifga nisbatan
zimdan norozilik va xalq nafrati kuchayib borardi. Darvoqe, unga
qarshi suiqasd uyushtirilmoqda edi. Bu suiqasdga Ulugʻbek Mirzo
va Abdulaziz Mirzoga sodiq kishilar boshchilik qiladilar.

Masʼud ibn Usmon Al-Koʻhisoniyning maʼlumotlariga qara-
ganda, Abdullatif Samarqand shahri chetidagi «Bogʻi maydon»da,
Mirxondning yozishicha, «Bogʻi chinor»da aysh-u ishratga muk-
kasidan ketib uxlab qoladi va tush koʻradi. Tushida nomaʼlum
bir kimsa qoʻlidagi usti yopilgan laganni uning yoniga qoʻyadi.
Abdullatif lagan ustidagi roʻmolni ohista koʻtarganda, unda oʻzining
kesilgan boshini koʻradi. U dahshatdan qichqirib uygʻonib ketadi.
Bu dahshatli tush taʼbirini izlab Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa»
kitobini javonidan olib, toʻgʻri kelgan varagʻini ochib oʻqiydi. Unda
quyidagi jumlar yozilgandi:

Padarkush podshohiro nashoyad,

Va gar shoyad ba shash mohi nashoyad.

Maʼnosi: «Otasini oʻldirgan podshohdikka noloyiqdir, agar
loyiq boʻlganda ham (podshohligi) olti oydan oshmaydir». Bu tush
taʼbiridan yanada dahshatga tushgan Abdullatif Mirzo bexosiyat
bogʻdan tezroq joʻnab ketishga qaror qiladi. Abdullatif Mirzo «Bogʻi
maydon»dan chiqib otga oʻtiradi va Samarqand sari yoʻl oladi.

«Tarixi Abulxayrxoniy» kitobida yozilishicha, Abdullatifning
taqdiri quyidagicha oʻz poyoniga yetadi: «Jang-u jadallarda Rustami
doston va Isfandiyordek boʻlgʻon va Abdulaziz Mirzo tarafidan
martabasi yuqorilatdirilgʻon Bobo Husayn bahodir ikki nomdor
podshoh: Ulugʻbek Koʻragon bilan Mirzo Abdulaziz shahid etil-
ganlaridan soʻngra qasd qilib, badkirdor Abdullatif Mirzoning xiz-

matiga kirdilar va kecha demayin, kunduz demayin anga tirishib xizmat qildi, ammo qalbida anga gina saqlab, ul badkirdorni mahv etish xayoli bilan yurdi. Bobo Husayn bahodir o'sha kuni kamonni yelkaga osub, jonin shu ishga tikdi. Sodiq navkari birlan Abdullatifning yo'lini poyladi. Shahzodaning navkari Chorraha darvozasiidan tashqariga chiqdi va tor ko'cha bo'ylab yo'lga tushdi. Ko'channing bir tarafi jarlik bo'lib, ikkinchi tarafi Bog'i navning baland devori edi. Bobo Husayn bahodir va aning navkari ot ustida yo'l chetidagi katta qayrag'och orqasida poylab turdilar. Abdullatif alarning yonginasidan o'tib ketdi, lekin besh-olti qadam o'tgach, Bobo Husayn bahodir kamonni yelkasidan oldi va ani o'qlab, shahzodani aniq nishonga oldi. Abdullatif faqat «Ollah o'q tegdi», deb aytishga ulgurdi, xolos. U otdan qulab tushdi va shu topdayoq jon berdi. O'q aning chap kuragini teshib o'tib, yuragiga qadalgan erkan. Mirzoning mulozimlari, oldi-orqasiga qaramayin tumtaraqay bo'lib qochdilar. Bobo Husayn bahodirning navkari chopib borib, Abdullatifning boshini kesib oldi va xurjunga soldi. Padarkush Abdullatifning boshini shu paytning o'zidayoq Registonga olib borub, Mirzo Ulug'bek madrasasining peshtoqiga osib qo'ydilar¹. Bu voqea 1450-yil 9-may kuni sodir bo'lgan edi.

Abdullatif Mirzo vafotidan so'ng, temuriy shahzodalar o'rtasida taxt va davlat uchun o'zaro kurash yangi cho'qqiga ko'tariladi. Samarqand taxtiga Ibrohim Sultonning o'g'li Ulug'bekning jiyani va kuyovi Abdullo Mirzo o'tiradi. U Movarounnahrning ilgarigi mavqeyi va shon-shuhratini tiklashga intiladi, turk a'yonlari uni qo'llab-quvvatlaydilar. Ammo Buxoroda podshohlikka ko'tarilgan Mironshohning nabirasi Sulton Abu Sayyid unga raqib sifatida maydonga chiqadi. U ko'chmanchi o'zbeklar xoni Abulxayrxondan yordam so'raydi va juda ko'p o'ljalar berishni va'da qiladi. 1451-yilda Abulxayrxon Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan Yassi va Sabronni egallab olgan Mirzo Abdulloga qarshi Toshkent, Chinoz, Jizzax orqali Samarqand sari yuradi. Yoz oyida Shiroz qishlog'i yaqinida Bulung'ur anhuri yoqasida qattiq jang bo'ladi. Bu jangda Mirzo Abdullo yengiladi va halok bo'ladi. Abulxayrxon yordamida Abu Sayyid Samarqand taxtiga egalik qiladi va Movarounnahr

¹ Fayziyev T. Mirzo Ulug'bek avlodlari. – T.: «Yozuvchi», 1994. 36-bet.

hokimi bo'ladi. Abu Sayyid Hirot taxtini egallay olmaydi. Chunki Hirotni 1452-yilda Abulqosim Bobur qo'lga kiritgan edi. U 1457-yilgacha Xurosonni boshqaradi. Ammo Abulqosim Bobur bilan Abu Sayyid o'rtasidagi munosabatlar juda yomon edi.

Movarounnahrda Abu Sayyidning o'g'illari – dastavval Sulton Ahmad Mirzo (1469–1493), so'ngra Mahmud Mirzo (1493–1494) va nihoyat, Mahmudning o'g'li Sulton Ali Mirzo (1494–1501)lar davrida feodal tarqoqlik va beboshliklar misli qurilmagan darajada kuchayadi. Bu hol Dashti Qipchoq cho'llarida chorvadorlik bilan kun kechirib, yashab kelayotgan ko'chmanchi o'zbek qabilalari-ning O'rta Osiyo hududlaridan temuriylar sulolasi vakillarini quvib chiqarib, o'lkani egallab olishlariga qulay imkoniyatlar yaratadi.

8. HUSAYN BOYQARO HUKMRONLIGI

Xuroson taxtida hukmronlik qilgan so'nggi temuriylardan biri Husayn Boyqarodir (1469 –1506). U 1438-yil iyul oyida Hirotning shimoli sharqidagi Davlatxona saroyida tavallud topadi. Sulton Husayn Boyqaro ham ota, ham ona tomonidan temuriylarga borib taqaladi. Otasi G'iyosiddin Mansur Mirzo temuriyzodalardan bo'lsa-da, u biron-bir yerda hukmronlik qilmagan, to umrining oxirigacha Hirotda oddiy odamlardek o'rtamiyona hayot kechirgan.

Husayn Boyqaro otadan erta yetim qoladi. 1445-yilda otasi vafot etganda u yetti yoshli bola edi. Yosh Husayn 14 yoshga qadar madrasa ta'limini oladi. So'ngra onasi Feruza begim bilan maslahatlashib, temuriyzodalardan bo'lgan Hirot hukmdori Abulqosim Bobur Mirzo xizmatiga kiradi. 1454-yilning kech kuzida Abulqosim Bobur Samarqand hukmdori Sulton Abu Sayyid Mirzoga qarshi muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. Aia shu yurishda 16 yoshli Husayn Boyqaro ham bor edi. Abu Sayyid va Abulqosim Mirzolar o'rtasida sulh tuziladi. Abulqosim Bobur Hirotga qaytadi. Ammo Sulton Husayn Samarqandda qoladi. Sulton Abu Sayyid saroyida Umarshayx Mirzo avlodiga mansub shaxzodalar Sulton Husayn Mirzoga qadar ham bor idi. Husayn Boyqaroning amakivachchasi bo'lgan Sulton Vays Mirzo (Muhammad Mirzoning o'g'li) saroyida Sulton Abu Sayyidga qarshi isyon uyushtiradi. Isyonchi Sulton Vaysdan xavfsiragan Abu

Sayyid Umar Shayx Mirzo avlodiga mansub bo'lgan 13 nafar shahzodani, shu jumladan, Husayn Boyqaroni ham qamoqqa oladi.

Bu voqeadan dahshatga tushgan Feruzabegim Abulqosim Bobur huzuridaga maslahat so'rab boradi va uning ijozati bilan Samarqandga yo'l oladi. Sulton Abu Sayyid xolavachchasini iltifot ila kutib oladi va Sulton Husaynni hibsdan ozod qiladi. Onasi bilan Hirotga qaytib kelgan Husayn Boyqaro yana Abulqosim Bobur saroyida faoliyat ko'rsata boshlaydi. Tarixchi Xondamir bergan ma'lumotlarga qaraganda, Alisher Navoiy ham bu davrda Abulqosim Bobur xizmatida bo'lgan.

Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, 1456-yil oktabr oyining boshida Abulqosim Bobur Hirotidan chiqib 14-oktabrda Mashhad shahriga keladi. Bu safarda Husayn Boyqaro va Alisher Navoiylar ham bo'lishgan va shu yerda birga o'qishgan. Hirot hukmdori qishni Mashhadda o'tkazadi. Tarixchi olim Turg'un Fayziyevning yozishicha, «1457-yilning 22-martida saroyda o'tkazilayotgan bazm asnosida Abulqosim Bobur Mirzo jigar xastaligiga qaramay, me'yoridan ortiq sharob tanovul qilib, olamdan ko'z yumadi»¹. Abu Sayyid Mirzo bunday qulay vaziyatdan foydalanib, 1457-yilda Hirotni egallaydi va Temuriylar davlatining har ikki qismini yana birlashtiradi. Bu davrda Alisher Navoiy Mashhadda qolib o'qishni davom ettiradi. Mansab, davlat va shon-shuhrat orzusida yurgan Husayn Boyqaro saroyini tark etadi, Marv, Jom va Moxan viloyatlarining hukmdori Sanjar Mirzo Marviy huzuridaga boradi. Chunki Sanjar Mirzo Marviy 1455-yildan beri Abulqosim Bobur qo'l ostida bo'lgan. Ammo Abulqosim Boburning vafotini eshitgan Sanjar Mirzo marhumning o'g'li va shahzoda Shoh Mahmudga itoat etmasdan hokimiyatni o'zi mustaqil boshqara boshlaydi. Kuchquvvatga to'lgan 19 yoshli Sulton Husayn Boyqaroni Sanjar Mirzo istiqbolda ezgu niyatlar bilan juda samimiy va iliq kutib oladi, hatto, o'nta o'zining 15 yoshli qizi Beka Sulton begimni nikohlab beradi. Husayn Boyqaro ham o'z navbatida o'zining mardligi, jasorati va qat'iyatligi tufayli qaynotasi Sanjar Mirzoning ishonchi va e'tiborini qozonadi. Lekin shu o'rtada qiziq bir voqea sodir bo'ladi. 1457-yilda Abulqosim Boburning 11 yoshli o'g'li Shoh Mahmud

¹ Fayziyev T. Husayn Boyqaroning sirli olami. 5-bet.

Alouddavlaning o'g'li Ibrohim Mirzo bilan jang qilib, yengiladi va Mashhadga qaytadi. Bu xabarni eshitgan Husayn Boyqaroning qaynotasi Sanjar Mirzo Mashhadni o'z tasarrufiga kiritish uchun yo'lga o'tlanadi va o'rniga kuyovini Marv hokimligiga qoldiradi. Ammo Sanjar Mirzoning vaziri Hasan Arlot Husayn Boyqaroni kelgindi deb yomon ko'rardi. Shu boisdan, u xalq orasiga «Boyqaro qaynotasini ag'darib, Marvda o'z saltanatini barpo etmoqchi» degan gaplarni tarqatadi va uni asirga olish uchun payt poylaydi, fitnadan xabar topgan Husayn Boyqaro Hasan Arlotni ushlatib, zindon qiladi. Biroq voqea bu bilan tinchimaydi. Bir tomondan, yoshlik ikkinchi tomondan, erk-havas ustunlik qilib, Husayn Boyqaro o'z navkarlari bilan ovga o'tlanadi. Saroydagi niyati buzuq kuchlar bu qulay vaziyatdan foydalanmoqchi bo'ladilar. Tarixchi Xondamir o'zining «Xabib us-siyar» asarida yozishicha, Sanjar Mirzoning mulozimlari Muhammadbek Sheroziy, Shayx Zunnun Iroqiy va umarolardan El O'g'li o'zaro til biriktirib Husayn Boyqarodan o'ch olmoqchi bo'ladilar. Ular Husayn Boyqaro O'rdugohdan uzoqlashishi bilan Boyqaro devonida xizmat qilib, turgan uning yaqin kishilaridan bo'lmish Duldoy Shayx Bahodir, Shyer Ali va boshqalarni qo'lga olib qatl etadilar. Shahardan hiyla bilan zo'rg'a qochib chiqqan Shyer Alining birodari Husayn Boyqaroga saroydagi mash'um fitna to'g'risida xabar beradi. Boyqaro Mirzo o'zining 60 nafar navkari bilan shoshilinch suratda Marvga qaytadi. Ikki o'rtada qattiq jang bo'lib, unda Husayn Boyqaro g'olib chiqadi.

Xondamir va Abdurazzoq Samarqandiy asarlaridagi ma'lumotlarning guvohlik berishicha, Sulton Husayn 1458-yilning bahor faslida o'zining uch yuz kishilik suvoriylari bilan Tajan tomon yuradi. Yo'lda u Jurjonda Jahonshoh turkman tazyiqidan qochib kelayotgan Amir Bobo Hasan qo'shinlarini tor-mor qiladi. Bu uning jang maydonidagi birinchi g'alabasi edi. Shundan so'ng, Husayn Boyqaro Niso viloyatini va 1460-yilda Astrobod shahrini egallab, Abu Sayyid Mirzoning g'azabini qo'zg'aydi. Ammo Abu Sayyid Mirzo o'zining xavfli raqibi Jahonshoh turkman bilan orani bir yoqlik qilib olgan-ga qadar Sulton Husayn Boyqaro bilan vaqtincha do'stona munosabatda bo'lib turadi. 1459-yilga kelib Sulton Abu Sayyid Mirzo o'zining hamma raqiblarini bir yoqlik qiladi. Jahonshoh turkman bilan sulh tuzadi. Bungacha u 1458-yilda Saraxs qo'rg'oni ya-

qinidagi jangda Alouddavla, uning o'g'li Ibrohim Mirzo va Sanjar Mirzoning birlashgan qo'shinlarini tor-mor qilgan edi, Husayn Boyqaroning qaynog'asi Sanjar Mirzo asir olinib, qatl etiladi. Endi Abu Sayyid o'zining butun nigohini Husayn Boyqaroga qarata olardi. U 1459-yilning mart oyida Abdurazzoq Samarqandiyini o'z tomonidan Husayn Boyqaro huzuriga elchi qilib yuboradi. Husayn Boyqaro ham o'z navbatida Abdurazzoq Samarqandiyning Hirotga qaytishiga ijozat berarkan, uning yoniga elchisini qo'shib yuboradi. Elchini Abu Sayyid Mirzo yaxshi kutib oladi. Ammo Sulton Husayn Boyqaroning to'dalari Xuroson hududiga kirib, beboshliklar bilan shug'ullanadi, xalqni talon-toroj qiladi, ular hatto, Sabzavor va Nishopurgacha kirib boradilar. Xuroson va Mozandarinni o'z qo'l ostiga kiritishni niyat qilib yurgan Abu Sayyid Mirzo uchun bunday harakatlar ayni muddao va bahona edi. 1460-yilda u Husayn Mirzoga qarshi qo'shin tortadi. Bu voqeadan xabar topgan va vaziyatni to'g'ri baholagan Husayn Boyqaro Astrobodni tashlab chiqib, Amudaryo tomon ketadi. Astrobodga tantanali suratda kirib kelgan Abu Sayyid bu viloyatni o'zining uchinchi o'g'li Sulton Mahmud Mirzoga in'om qilib, o'zi Hirotga qaytib ketadi. Sulton Husayn Boyqaro Shohruxiyada ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirish bilan band bo'lgan Abu Sayyid Mirzoning yo'qligidan foydalanib, Astrobodni ikkinchi marta egallaydi. U hatto, Hirotga ham hujum uyushtiradi. Bu shum xabarni eshitgan Abu Sayyid Mirzo Muhammed Jo'kiy Mirzo (Abdulatif Mirzoning o'g'li) bilan shoshilinch sulh tuzib, Hirotga oshiqadi.

Hirot atrofida biror-bir natijaga erisha olmagan Husayn Boyqaro Abu Sayyid Mirzoning kelayotganligini eshitib, Astrobodga chekinadi. U yerdan esa ikkinchi marta Astrobodni tark etib, Amudaryodan kechib o'tadi va Xorazm sari yo'l oladi. Xorazmni egallagan Husayn Boyqaro bu yerdan turib, Xurosonga bir necha marta yurishlar uyushtiradi. Husayn Boyqaro ko'p umrini Xorazm bilan Buxoro o'rtasida kezib yurib o'tkazadi, unda o'z kuchiga ishonchsizlik va umidsizlik paydo bo'ladi. Shundan so'ng, Husayn Boyqaro 1468-yilda Jo'jixon avlodiga mansub bo'lgan Dashti Qipchoq cho'llarida yashovchi ko'chmanchi chorvador o'zbek qabilalari xoni Abulxayrxon huzuridaga yordam so'rab borishga majbur bo'ladi. Abulxayrxon keksayib, og'ir kasalga muhtalo bo'lib, to'shakda yotardi. Shunga qaramasdan u Husayn Boyqaroga yordam berishga va'da qiladi va qo'shin to'plashga amr-u farmon beradi. Ammo tez orada Abulxayrxon yorug' dunyoni tark etadi. Husayn Boyqaroga

yordam muammosi ham ochiqliciga qoladi. Husayn Boyqaro taqdir o'yiniga bosh egib, Xuroson sari yuzlanadi. Oллоhning irodasi bilan Hirot taxtiga jang-u jadallar bilan erisha olmagan Sulton Husayn Boyqaro 1469-yilda o'z maqsadiga kutilmaganda osonlikcha erishadi. Shu yili Abu Sayyid Mirzo Iroqda oqquyunlu turkmanlarining hokimi Uzun Hasan (1453 –1478) bilan Boyqaro Hirot sari yo'lga chiqadi. Abu Sayyid Mo'g'u cho'lida bolgan jangda halok bo'ladi. Bu habarni eshitgan Husayn Boyqaro Hirot sari yo'lga chiqadi. Abu Sayyid Mirzoning o'g'illari Sulton Ahmad Mirzo va Sulton Mahmud Mirzolar ularga qarshi Ixtiyoriddin qal'asida ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni va tashqaridan kelayotgan Husayn Boyqaro kuchlariga qarshi tura olmaslikka ko'zlari yetib, Hirotni tashlab chiqadilar va Samarqand sari yo'l oladilar. Oradan ikki kun o'tgach, 1469-yil 24-martda Husayn Boyqaro tantanali suratda Hirotga kirib keladi, o'sha kuniyoq Jome' masjidida uning nomiga xutba o'qiladi. Bu xabarni eshitgan Alisher Navoiy ham do'stini muborakbod etish niyati bilan Samarqanddan Hirotga (aprel oyida) yetib keladi. U Husayn Boyqaroni Sultonlik martabasi bilan qutlab, 14-aprelda bayram kuni «Hiloliya» qasidasini hadya qiladi. Ana shu davrdan e'tiboran Navoiy Boyqaro Mirzo davlatining idora ishlarida faol qatnasha boshlaydi.

Husayn Boyqaro Mirzo maktabdosh do'sti Alisher Navoiyni dastlab, muhrdorlik lavozimiga, keyin esa vazirlik mansabiga tayinlaydi. Xuddi shu davrdan boshlab, temuriylar saltanati yana ikki qismga bo'linib ketadi: Sulton Husayn Boyqaro boshchiligida qaror topgan Xuroson yeri va markazi Samarqand bo'lgan Movarounnahr yeri.

Husayn Boyqaro hukmronligi davrida Xuroson Sharqning eng yirik, siyosiy va iqtisodiy mavqeyi yuqori bo'lgan davlatlaridan biriga aylanadi. Boyqaro Mirzo davlati Amudaryoning janubiy tomonida joylashgan edi. Uning tasarrufiga Xuroson, Xorazm, Sharqiy va Shimoliy Eron hududlari kirardi. Husayn Boyqaro 38-yil hukmronlik qiladi. Ana shu davrda ko'z o'ngimizda ikki xil Husayn Boyqaro gavdalanadi. Birinchi Husayn Boyqaro jasoratli, mard, odil va tadbirkor saltanat sohibidir. Uning rahbarligida mamlakat hududi ichki va tashqi dushmanlardan tozalanadi, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan qudratli davlat barpo etiladi. Ikkinchi Husayn Boyqaro saltanatni boshqarish va idora qilishda boqi beg'am, maishatparast, kayf-u safoga mukkasidan ketgan hukmdordir. Tarixchi Turg'un Fayziyev xulosalariga qaraganda, Husayn Boyqaro davrida: «...Mamlakatda adolat barqaror bo'lib, Xuroson fuqarosi birmuncha

osoyishta va farovon hayot kechirgan. Ayniqsa, Alisher Navoiyning sa'y-harakatlari natijasi o'laroq mamlakatda yirik suv inshootlari, ma'muriy va madaniy qurilishlar, madrasalar, masjid, karvonsaroy, rabot, ko'prik va shu kabi qurilish ishlari keng ko'lamda olib borilgan. Ilm-ma'rifat gullab-yashnagan»¹.

Husayn Boyqaro taxtga o'tirgach, o'z qaramog'idagi barcha viloyat va tumanlarda ma'muriy boshliqlarning hammasini yangilaydi, qozilik va dodxohlik lavozimlariga odil va fozil kishilarni qo'yadi, machit, madrasalarni yetuk va o'qimishli ulamo-yu fuzalolar ixtiyoriga beradi va ulardan mamlakatda tartib, adolat o'rnatishda yordam berishni so'raydi. Tartib-intizomni buzgan va adolatsizlik qilgan kishilarni kim bo'lishidan qat'i nazar qattiq jazolaydi. Bu borada u hatto, o'z o'g'lini ham ayamaydi.

Sulton Husayn Boyqaro shahzodalardan biriga qarshi yurishga ketganda, ba'zi amaldorlar qulay vaziyat keldi, deb o'ylab Astrobodni egallab oladilar. Shaharda va uning atrofida yashagan aholini har taraflama eza boshlaydilar. Xo'ja Abdulloh Axtob degan bir kimsa Hirot shahrining mushrifi, Xo'ja Qutbiddin Mous Simnonni tutib olib, oyoq-qo'lga kishan soldiradi va undan 300 ming kepakiy dinorni to'lattirib, o'rniga o'zi o'tiradi. Hirot aholisi boshiga juda ko'p va og'ir soliqlar soladi, ayniqsa, mehnatkash xalq qattiq jabr tortadi. Chorasiz va nochor qolgan mehnatkash xalq qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonchilar Shohrux madrasasiga bostirib kirib, u yerda bekingan Abdulloh Axtobni toshbo'ron qiladilar. Sulton Husayn Boyqaro Mirzo bu voqeadan xabar topgach, Hirotga adolat va tartibni tiklash, gunohkorlarni qonuniy jazolash uchun Alisher Navoiyga vakolat berib, u yerga jo'natadi. Alisher Navoiy Sultonning xalqqa jabr-zulm o'tkazgan amaldorlarni jazolash to'g'risidagi farmonini juma namozida minoradan o'qib eshittiradi, adolatni tiklab xalqning mehr-u muhabbatiga sazovor bo'ladi. Xo'ja Nizomiddin Baxtiyor o'rnidan tushiriladi va ilgarigi mushrif Qutbiddin Mous Simnon o'z o'rniga qo'yiladi. Ana shu voqealar yuz bergan 1470-yilda Yodgor Muhammad Mirzo Hirotni egallab, hatto, Jome' masjidida o'z nomiga xutba ham o'qittiradi. Ammo Alisher Navoiyning g'oyatda puxta o'ylab chiqqan tadbirlari va shaxsan bu tadbirni amalga oshirishdagi ishtiroki tufayli Yodgor Muhammad Mirzo qo'lga olinadi. U 1470-yil 21-avgustda 19 yoshida qatl etiladi. Sulton Husayn Boyqaro Mirzo ikkinchi marta Hirotni egal-

¹ Fayziyev T. Husayn Boyqaroning sirli olami. 23-bet.

laydi. Tartib-intizom va adolat oʻrnatilgan mamlakat har tomonlama yuksaladi, xalq toʻq va farovon hayot kechiradi. Xondamir bergan maʼlumotlarga qaraganda, Sulton Husayn Boyqaro zamonida qirqqa yaqin yirik inshootlar qurilgan. Ayniqsa, Hirot bu davrda dunyoning eng goʻzal va obod shaharlaridan biriga aylangan. Sulton Guzurgoh yaqinida oʻz nomi bilan ataluvchi Madrasa qurdirgan. «Bogʻi jahonoro», «Bogʻi bayt ul-iymon», «Bogʻi hamsa oroyi» deb ataluvchi goʻzal va koʻrkam bogʻlar barpo ettirgan. Sulton Badiuzzamon Mirzo nomi bilan ataluvchi «Madrasayi Badiʼa» oʻz davrining yirik qurilishlaridan biri boʻlgan. Qattiq zilzila oqibatida ancha shikastlangan Hirotidagi eng yirik Jomeʼ masjidi ham shu davrda taʼmirlanadi. Bu ulkan masjidning nechogʻlik katta hashamatini shundan ham bilish mumkinki, uning 403 gumbazi, 130 ta ravoqi va 44 ta ustuni boʻlgan. Bu ulugʻvor ishlarning barchasiga amir Alisher Navoiy rahbarlik qilgan.

Tarixiy manbalarga qaraganda, Sulton Husayn Boyqaroning oʻn bitta xotini boʻlgan va ulardan 25 farzand – 14 oʻgʻil va oʻn bir qiz koʻrgan. Albatta, bu farzandlar Sultonning turli xotinlaridan boʻlganligidan aka-ukalar, opa-singillar oʻzaro bir-biriga kundosh boʻlgan onalar boshchiligida davlat, mol-dunyo va vorislik talashib, fisq-u fasod va jang qilar edilar. Bu kurashning boshida Husayn Boyqaroning erka xotini Hadicha Ogʻo begim turardi. U 1451-yilda tugʻilgan. Sulton Abu Sayyid Mirzo 1457-yilda Hirotni qoʻlga kiritganda unga xos kanizak qilib, hadya etilgan. Hadicha begimni u 1465-yilda nikohlab olgan edi. 1469-yilda Husayn Boyqaro Abu Sayyid Mirzo taxtini egallagach, Hadicha begimni koʻrib, uning husni jamoliga mahliyo boʻlib, sevib qoladi va uch oydan soʻng, oʻz nikohiga oladi.

Hadichabegim husn-latofatda goʻzal, dimogʻdor, yengil tabiat, ichi qora va makr-hiylaga moyil ayol boʻlgan. U tez orada jozibali va makkorona iltifotlari bilan Husayn Boyqaroni oʻziga rom qilib oladi hamda haramda ulugʻ bekalik oʻrnini egallaydi. Hadicha beginning ikkita farzandi boʻlgan. Kattasi Shohgʻarib Mirzo va kichigi Muzaffar Husayn Mirzo edi. Husayn Boyqaro Mirzoning suyuqli erkasi Hadicha begim oʻzining kichik oʻgʻli Muzaffar Husayn Mirzoni valiahd sifatida ota taxtiga oʻtqazish maqsadida, mislsiz qabihlik va qotillik ishlarini amalga oshiradi. Taomilga koʻra, valiahdlik haqqi Sultonning bosh farzandi Badiuzzamonniki edi. Chunki Badiuzzamon valiahd boʻlishga munosib boʻlib,

Sultonning farzandlari orasida eng oqil va tadbirkori edi. U mard, toliqmas jangchi, shariat ihlosmandi, adolatparvar shaxs sifatida tanilgan. Ma'rifatparvar bo'lganligidan o'z saroyiga olimlar, shoirlar, ulamolar, san'atkorlar va hunarmand ahlini yig'ib anjumanlar o'tkazar, she'rxonlikka ruju qo'ygan bo'lib, o'zi ham g'azallar ijod qilardi.

Ayni paytda Alisher Navoiy boshchiligida saroy ahlining ko'pchiligi valiahdlikka Badiuzzamon Mirzoning o'g'li Mo'min Mirzoni munosib deb bilar va bu haqida o'z mulohazalarini Husayn Boyqaroga bildirgan edilar. Bu gaplardan xabardor bo'lgan Hadicha begimning qora ichi oqarmas va muammoni bartaraf etish og'usida qon yutardi. Nihoyat u o'zining jirkanch va qabih niyatini amalga oshiradi. Bu ishda unga vazir Nizom ul-mulk yordam beradi. U Sulton Husayn Boyqaro Murg'ob harbiy o'rdugohida qattiq mast bo'lganligidan foydalanib, Muhammad Mo'min Mirzoni qatl etish to'g'risidagi nihoyatda mudhish farmonga muhr bostirib oladi va Mo'min Mirzo qatl etiladi. Bu mislsiz qatli om Badiuzzamon Mirzoni o'z otasiga nisbatan xundor dushmanga aylantiradi, ikki o'rtada bir necha bor qonli urushlar kelib chiqadi.

Mo'min Mirzo qatl etilganda, Alisher Navoiy Mashhadda edi. U Muhammad Mo'min Mirzoni ustozu buzrukvor bo'lib, juda-juda sevardi va mamlakat, el-yurt va saltanatning kelajak taqdirini uning oqilona sa'y-harakatiga bog'lardi. Xondamirning yozishicha, mudhish voqeadan uch kun o'tgach, ulug' shoir Hirotga qaytib, Muhammad Mo'min Mirzo fojiasini eshitib dahshatga tushgan va zor qaqshab yig'lagan. Alisher Navoiy Mo'min Mirzo fojiasining kelajakda yurt va mamlakat taqdiri uchun qanday asoratlar keltirishi mumkinligi haqida so'zlab bunday degan: «Mo'min Mirzo fojiasi xuddi Shayx Majiddin Bag'dodiy fojiasiga o'xshaydi. Zotan, Shayx Majiddin Bag'dodiy qatlidan so'ng, ko'p o'tmay Turondan Erongacha bo'lgan yerlar Chingizxon otining tuyog'i ostida qolib kultepaga aylandi. Jafokash xalq qatli omga (umumiy qirringa) mahkum qilindi, alhol, Muhammad Mo'min Mirzoning qatli tufayli ulug' bir fitna vujudga kelib, mamlakat vayron bo'lib, fuqaro boshiga cheksiz musibat va qirg'in tushmog'idan qurqadurmen»¹.

Ulug' shoir Muhammad Mo'min Mirzoning vafotini temuriylar xonadonining inqirozi sifatida qaragan. Darvoqe, mazkur fojia mu-

¹ Fayziyev T. Husayn Boyqaroning sirli olami. 44-bet.

nosabati bilan boshlanib ketgan qatli om, o'ch olish, qirg'inbarot urushlar mamlakatni halokat va bo'hron yoqasiga olib keladi, xalq boshiga hisobsiz kulfat va alamlar yog'iladi, ochlik, qashshoqlik avjiga minadi. Bundan shimoldagi Dashti Qipchoqdan bostirib kelgan Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi chorvador o'zbek qabilalari foydalanib qoladilar. Ular dastlab, Movarounnahr hududlarini egallab, so'ngra shitob bilan Xurosonning shahar va viloyatlarini qo'lga kirita boshlaydilar.

Sulton Husayn Boyqaro mamlakat kuchlarini Shayboniyxonga qarshi birlashtirib, kurashga safarbar etish to'g'risidagi Badiuzzamon taklifiga e'tibor bermaydi, vaqt-imkoniyat qo'ldan boy berilgach, foydasiz nadomatlar chekadi. Shayboniyxon 1503–1506-yillarda navbatma-navbat Balx Andxo'y, Shibirg'on, Maymana va Farob viloyatlarini egallaydi. 1502-yilning qishida Balxni qamal qilgan chog'ida Muhammad Shayboniyxon shahar hukmdori Badiuzzamonga o'z elchisi orqali quyidagi mazmunda xat jo'natadi: «Temuriylar saltanatining iqbol oftobi zavol chizig'iga yetgandur. Saltanat navbati temuriylar xonadonidan yana ulug' chingiziylar xonadoniga o'tgandur. Sizlarda xaxira tugagan, alhol, sizlarga munosib uldirkim, xon iltifotiga va xoqon inoyatiga e'tiqod bog'lab, o'jarlikni bas qilib, tobelik qo'li bilan shahar darvozalarini ochingiz»¹.

Vaziyatning nihoyatda og'irligini tushungan shahanshoh o'zining yo'l qo'ygan xatolaridan pushaymon bo'ladi, 1506-yil yanvarda u o'g'li Badiuzzamonnini Murg'ob daryosi sohiliga ilg'or qilib jo'natadi va o'zi orqadan tezda yetib borishini aytadi. Sulton Husayn Boyqaro saroyda barcha viloyatlardagi o'gillariga va beklarga tezda oliy o'rdugohga yetib kelishlarini buyurib, farmon beradi. Shayboniyxonga qarshi birgalashib jang qilish taklifi bilan shahanshoh Zahiriddin Bobur huzuriga Sayyid Afzalni elchi qilib jo'natadi.

Husayn Boyqaro salomatligi yomon bo'lishiga qaramay Xuroson qo'shinlariga bosh bo'lib, Shayboniyxonga qarshi lashkar tortadi. Ammo Bobo Ilohiy mavzeyiga yetganda uning ahvoli og'irlashadi. Shu yerda harakatni to'xtatishga majbur bo'ladi va tezlik bilan Badiuzzamonga chopar jo'natadi. Badiuzzamon Saripulda otasini kutardi. Chopardan xabar olgach, zudlik bilan shahanshoh huzuriga oshiqadi. Otasining og'ir ahvolini ko'rgan Badiuzzamon Mirzo ma'yus bir ahvolda o'z manziliga qaytadi. Arkoni davlat Husayn

¹ Fayziyev T. Husayn Boyqaroning sirli olami. 65-bet.

Boyqaro Mirzoning tang va og'ir ahvolini hisobga olib shahanshohdan so'ng, shahzodalar o'zaro taxt talashmasinlar degan maqsadda Badiuzzamon bilan Muzaffar Mirzolarni taxtga voris qilib tayinlash to'g'risida azm-u qarorga keladi.

1506-yil 2-mayda Badiuzzamon bilan Muzaffar Husayn qo'llarini Qur'on-u Karimga qo'yib, saltanatni bir-birlari bilan inoq ahillik va hamjihatlikda boshqarish o'zaro zimdan adovat va xusumat qilmaslikka arkon-u davlat vakillari oldida ahd-u paymon qiladilar.

Dardi og'irlashib borgan Sul-ton Husayn Boyqaro Mirzo 1506-yil 5-mayda saktayi qalb (appopleksiya) kasali bilan 69 yoshida bu dunyoni tark etadi. Uning jasad-i o'zi hayotlik chog'ida qurdirgan Hirotdagi madrasada dafn etiladi va ta'ziyaning yettinchi kuni odatga ko'ra, yurtga osh beriladi.

Tarixchi olim Turg'un Fayziyev Husayn Boyqaro Mirzoning o'limi bilan bog'liq g'ayritabiiy va munozarali fikrlarni bayon qiladi. Bu fikrlarni bayon qilishda olim 1967-yilda Qobul shahrida bo'lib o'tgan qo'lyozma asarlar yodgorliklarini o'rganishga doir Xalqaro anjuman hujjatlariga asoslangan. Bu hujjatlarda hikoya qilinishicha, Shayboniyxonga qarshi jang qilish niyati bilan yo'lga chiqqan Sul-ton Husayn Boyqaro Mirzoning Bobo Ilohiyda vafot etishi ramziy ma'noda Shayboniyxonning g'alabasidan bashorat edi. Shahanshohning vafoti haqidagi xabar atrofga tarqalib, Muhammad Shayboniyxonga yetib borgunga qadar Husayn Boyqaroni shoshilinch suratda madrasada oddiy qabr qazdirib omonat dafn etadilar va jang tayyorgarligini ko'radilar. Bir necha muddat vaqt o'tgandan so'ng, shahanshoh jasadini haqiqiy qabrga olib qo'yish maqsadida, ilgari qabrni ochadilar va dahshatli hodisaning guvohi bo'ladilar: qabr ichida shahanshoh jasad-i to'ntarilib yotibdi, ustidagi kafanlari tushib ketgan, lahad devorlari qo'l bilan tirlangan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, shahanshohni o'lmasdan dafn etishgan. Gap shundaki, u sakta kasaliga muhtalo bo'lgan edi. Bemor tomirlarining bir necha muddat behol urishi natijasida hayot uchquni sezilmay qolgan. Kasallikning bunday pinhoniylaridan voqif bo'la olmagan tabiblar va Husayn Boyqaro Mirzoning yaqinlari uni olamdan o'tdi, deb hisoblab dafn etganlar. Sovuq lahad-da bir necha muddat yotgach, bemorning tomirlari yana bir me'yorda ura boshlagan, deb taxmin qiladilar. Bemor qorong'u lahad ichida yorug'likka chiqishga jon talvasasida behuda harakat qilgan. Ammo uning barcha harakatlari bekor ketgan.

Xullas, Sulton Husayn Boyqaro Mirzo vafotidan so'ng, mam-lakat og'ir ahvolga tushib qoladi. Shayboniyxon Xurosonni zabt etish taraddudida Badiuzzamon va Muzaffar Husayn Mirzolarga elchisi orqali quyidagi mazmunda xabar yuboradi: «Sizlarning ota-bobolaringiz avvalgi vaqtlarda bizning shonli hukmdor xon ota-bobolarimiz qo'l ostida bo'lganlar. Alhol, sizlar ham o'z bobolaringiz sunnatiga iqtido qilib, ixtilofsiz taslim bo'lmog'ingiz lozim. Toki, qal'a-shaharlar vayron, fuqarolar qirg'inga duchor bo'lmagaylar».

Muhammad Shayboniyxon 1507-yilning may oyida Jayhun dar-yosini kechib o'tadi va Andxuyga yaqinlashadi. Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Husayn Mirzolar dushmanga zarba berish uchun tay-yorgarlik ko'rgan bo'lsalar-da, Xuroson kuchlarida birlik va ahillik yo'q edi. 19-mayda Bodxizda bo'lgan jangda aka-uka temuriylar yengiladi. Shayboniylar lashkariga Muhammad Shayboniyxonning o'g'li Temur Sulton va Ubaydullo Sulton ibn Mahmudxonlar sarkardalik qiladi. Xuroson qo'shinlari yengilgach, shahzoda va ula-molar tartibsiz, xohlagan tomonga qochib ketadilar.

Muhammad Shayboniyxon qo'shinlari 1507-yil 23-mayda Hirot shahrini egallaydi. Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Husayn Mirzo-ning haramlari, barcha mol-mulklari Shayboniyxon ixtiyoriga o'tadi. Muzaffar Husayn Mirzoning Xonzoda begim ismli xotinini yax-shi ko'rib qolgan Muhammad Shayboniyxon uni xotinlikka oladi. Muzaffar Husaynning Xonzoda begimdan tug'ilgan qizi Mehran-gizni Ubaydulla Sulton o'z nikohiga kiritadi. Boshqa malikalar esa Shayboniyxon qo'shinlari sardorlari, amirlar va beklarga tortiq qili-nadi. 27-mayda Muhammad Shayboniyxon nomi Hirotning Jome' masjidida xutbaga qo'shib o'qitiladi. Ana shu tariqa, Xurosonda te-muriylar saltanati barham topadi.

9. TEMURIYLAR DAVLATIDA IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLAR

Sohibqiron Amir Temur davrida asos solingan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar uning avlodlari davrida ham, asosan, davom ettiriladi. Albatta, amir, bek va Sultonlar o'rtasida olib borilgan o'zaro urush-lar o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotiga salbiy ta'sir qila-di. Ammo ijtimoiy hayot to'xtab qolgani yo'q – Yerga egalik qilish avvalgidek to'rt xil: «mulki devoniy» – davlat yerlari; «mulk yerlari» –

xususiy yerlar; «mulki vaqf» – vaqf yerlar va jamoa yerlari shaklida saqlangan. Temur davridagidek davlat yerlarini «suyurg‘ol» qilib, berish davom ettiriladi. «Suyurg‘ol» yerlar oddiy bir qishloqdan tortib tuman, shahar va viloyatlargacha tashkil etgan. Bu yerlar odatda hukmron sulola avlodlari, yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan va u avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tgan. «Suyurg‘ol» egasi o‘z yerida amaldorlarni tayyorlash, soliqlar tizimini belgilash va ularni to‘plash, gunohkorlarni jazolash masalalarini o‘zi mustaqil hal qilgan.

«Suyurg‘ol» egalari nomigagina markaziy hokimiyatga qaram bo‘lib, amalda deyarli mustaqil bo‘lganlar. Mabodo «suyurg‘ol» egalari haddilaridan oshib, markaziy hokimiyatga bo‘ysunmay qo‘ysalar, ularning tasarrufidagi yer maydonlari qisqartirilar yoki ularning ma‘muriy va adliya haq-huquqlari cheklab qo‘yilar edi. Eng oxirgi va og‘ir so‘nggi chora sifatida «suyurg‘ol»dan mahrum etish hollari ham bo‘lar edi. Jumladan, 1414-yilda Shohrux bo‘ysunmagani uchun Mirzo Iskandarni, 1415-yilda esa Mirzo Boyqaroni «suyurg‘ol»dan mahrum qiladi.

Yerga egalik qilishning ikkinchi shakli xususiy yerlar edi. Albatta, katta-kichikligidan qat‘i nazar, yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham, mehnatkash ziroatchilarning mayda paykallari ham xususiy yer mulklari hisoblangan. Mulk yerlarining katta qismi ma‘muriy, harbiy va diniy arboblarga ularning davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun berilgan va ular juda katta hajmdagi yer-mulklarga egalik qilganlar. Masalan, XV asrning ikkinchi yarmida yashagan Xo‘ja Ahrorning 1300 taga yaqin yer-mulki bo‘lib, bu mulklarning ayrimlari 300 qo‘shga teng bo‘lgan. Yoki ulug‘ shoir va davlat arbobi Alisher Navoiyning ham Astrobod, Hirot, Sabzavor va boshqa joylarda juda katta hajmda yer-mulklari bor edi. Zahiriddin Muhammad Bobur bergan ma‘lumotlarga qaraganda, u Sulton Husayn Boyqarodan sovg‘a-salomlar qabul qilmas, aksincha, uning o‘zi Sultonga bunday sovg‘alarni in‘om etar ekan. Xondamirning yozishicha, kunlarning birida Navoiy Sulton Husayn Boyqaroga sovg‘a tariqasida 25 tuman oltin, kumush tangalar, uning qarindosh-urug‘lariga 1000 man ipak mato, 1000 harvor don va 200 ming dinor pul in‘om etgan. Ayni zamonda, Navoiy mamlakat obodonchiligi,

ilm-fan va ma'rifat yo'lida ham katta mablag' sarf etgan, kambag'al, beva-bechora va yetimlarning boshini silagan.

Bu davrda, bosh hukmdor tomonidan yirik mulk egalari alohida xizmatlari uchun tarxon yorlig'i berish tartibi joriy qilingan. Tarxon bilan «suyurg'ol»ni aralastirmaslik kerak. Tarxon olgan shaxs davlat xazinasiga tushadigan turli xildagi soliq o'lpon to'lashdan ozod qilingan. Demak, tarxon – imtiyozga ega bo'lmoq ma'nosini anglatadi. Tarxon yorlig'ini olgan shaxsning gunohi to'qqiz mar-tagacha kechirilgan. O'ninchi marta gunoh ish qilgan taqdirdagina jazoga tortilgan. Albatta, bunday yorliqni birinchi navbatda amirlar, beklar, saroy amaldorlari va sayyidlar olganlar. Tarxon yorlig'ini olgan mulkdor shaxslar ismiga uni ulug'lab «tarxon» so'zi qo'shib aytilgan. Jumladan, Hirot atrofidagi yerlar Darvesh Ali tarxon mulki, Samarqand va Buxoro atrofidagi yerlar Abu Ali tarxon mulklari bo'lgan. Tarxonlar juda katta yer-mulk, boylik va navkarlarning egasi bo'lib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida juda katta nufuzga ega edilar.

Masjid, madrasa, xonaqo, maqbara va mozorlarga qarashli yerlar «vaqf mulki» hisoblangan. Bu mulk Temur va temuriylar davrida ancha katta nufuzga ega bo'ladi va rivoj topadi. Vaqf mulklariga odatda yer-suvlardan tashqari, ko'plab do'kon, korxonalar, tegirmon, objuvoz, bozor, karvonsaroylar ham vaqf qilib kiritilgan. Ulardan tushgan daromadlar asosan, xayriya ishlari uchun sarflangan, ya'ni masjidlar, madrasalar, shifoxonalar va xonaqolarning ta'miri, ji-hozi, mutavalli, mudarris, tabib va talabalarga beriladigan nafaqalar hamda langarxona, (musofirxona) va shifoxonalarning kundalik sarf-harajatlari uchun ishlatilgan.

To'rtinchi guruh yerlar – jamoa yerlari hisoblanib, uncha katta bo'lmagan ulushni tashkil etgan. Bu yerlar qishloq aholisining umumiy tasarrufida bo'lgan. Temur va temuriylar hukmronligi davrida sug'orma dehqonchilik madaniyatini rivojlantirish, ariq va kanallar chiqarish kabi masalalarga katta e'tibor berilgan. Jumladan, eng yirik sug'orish ishlaridan biri Samarqand vohasida, Zarafshon daryosidan bosh olgan Darg'om anhuri suvi bilan ta'minlanuvchi qadimgi Angor kanalining qayta tiklanishi bo'ladi. Bu kanal orqali «Zarafshon daryosi suvi» Qashqadaryoning kam suvli hududlariga oqiziladi va u yerda dehqonchilik madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Mo'g'ullar bosqini davrida batamom vayron etilgan Buxoroning suv xo'jaligi XV asrga kelib to'la tiklanadi, uning dehqonchilik maydoni kengayib, Urg'anjiy dashti tomon qariyb 5–6 km ichkariga kirib boradi. Ulug'bek hukmronligi davrida Buxoro viloyatining janubi sharqiy chegarasiga yondoshgan Somonjuq dashtiga suv chiqariladi va yangi yerlar o'zlashtiriladi.

Mo'g'ullar bosqini davrida vayron etilgan Murg'ob daryosining bosh to'g'oni – Sultonobod Shohrux davrida tiklanadi. Marv shahri va Murg'ob vodiysi suv bilan ta'minlanadi. Sulton Husayn Mirzoning tashabbusi bilan Marviruddan yangi kanal chiqariladi, yangi yerlar o'zlashtiriladi. Hirot va Mashhad tomonlarda Alisher Navoiy tashabbusi bilan juda katta sug'orish inshootlari barpo etiladi. Xususan, Tus viloyatining yuqori qismida joylashgan Chashmag'ul mavzesida Turug'band suv omborining qurilishi g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki bu suv ombori orqali 10 farsax (60–70 km) kanal qazdilib, Mashhad obihayot bilan ta'minlanadi.

Bu davrda, sug'orish texnikasi rivoj topadi. Natijada, mamlakatda dehqonchilik va bog'dorchilikning barcha turlari rivojlanadi, chorvachilik taraqqiy etadi. Bu amalga oshirilgan ishlarning hammasi mehnatkash va zahmatkash xalqning qismatli mehnati natijasida ro'yobga chiqarilgan, albatta. Katta yer egalari o'z yerlarida yirik xo'jalik yuritish ishlarini amalga oshirishga qiziqmaydilar. Ular yerlarni kichik qismlarga bo'lib, chorakorlarga soliq solish hisobiga beradilar. Dehqonlar kimning yeri hisobiga yashashlariga qarab davlat yoki zamindorga soliq to'lar edilar.

Sug'orma dehqonchilik yerlarida alohida olinadigan asosiy soliq Amir Temur davridagidek «xiroj» hisoblangan. Bu soliq ba'zan «mol» deb ham atalgan. Soliq miqdori yetishtirilgan hosilga va yerning unumdorligiga qarab olingan. Shu sababdan, xiroj solig'i asosan, hosil yetilib, unib, yig'ishtirib olish paytida mahsulot shaklida yoki pul bilan to'langan. Xullas, dehqonlar sug'orma yerlardan hosilning 1/3 qismidan tortib yarmigacha xiroj to'lar edilar. Lalmikor yerlarda esa bu ko'rsatkich 1/6–1/8 qismni tashkil etgan. Mulk yerlarining bir qismidan «ushr» solig'i ham undirilgan, u hosilning 1/10 qismiga teng bo'lgan. Jumladan, XV asrning yirik mulkdorlaridan biri hisoblangan Xo'ja Ahror Valiy o'ziga qarashli bo'lgan 1300 yer-mulkdan har yili Samarqand hukmdori Sulton

Ahmad Mirzo xazinasiga g'allaning o'zidan 80 ming mon (1 mon – 20 kgga teng) to'lab turgan.

Bulardan tashqari, bog' va daraxtzorlardan «mol sardaraxt», yaylovlardan – «mol o'tloq va suvloq kabi soliqlar undirilgan. Chorvadorlar esa «zakot» soligi to'laganlar. Bu soliq miqdori qirqdan bir ya'ni 2,5 foizga teng bo'lgan. Bu sanab o'tilgan soliqlar bilan bir qatorda fuqaro soliqlarni undirish va uning hisob-kitobi bilan band bo'lgan turli lavozimlardagi ma'muriy shaxslar xizmatlari uchun ham har xil miqdorda to'lovlar tolashga majbur edi.

Majburiyatning yana bir turi «begar» deb atalgan. «Begar» – tekinga ishlab berish, ya'ni hashar ma'nosini anglatar edi. Aholi odatda shaharlarda devorlar, qo'rg'on, saroy, machit, madrasa, ko'priklar qurish va ularni mustahkamlash, ariq-zovurlar, kanallar, yo'llarni qurish va tozalashda tekinga ishlab berishi kerak edi. Xullas, aholi gardaniga yuk bo'lib tushadigan bunday xilma-xil soliqlar fuqarolarining qismatli hayotiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazardi va soliq zulmi siyosatiga qarshi mehnatkash ommaning norozilik harakatlariga sabab bo'lardi. 1470-yilda Sulton Husayn Boyqaro ma'murlarining o'zboshimchalik bilan olib borgan soliq siyosatiga qarshi Hirot fuqarolarining bosh ko'tarishi bu fikrimizning isbotidir. Alisher Navoiy Muhammad Yodgor boshchiligida ko'tarilgan bu qo'zg'olonning oldini olib shaharda adolat va tinchlik o'rnatadi.

Temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda hunarmandchilik savdo va tovar-pul munosabatlari ham rivojlana-di. Bu davrda xususan, Samarqand, Hirot, Buxoro, Marv, Toshkent, Shohruxiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi va boshqa shaharlar madaniyat va savdo markazlariga aylanadi. Bu shaharlarda hunarmandchilik rivoj topib, kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan mahallalar, ko'chalar, guzarlar, bozor rastalari, timlar, toklar (usti gumbazli bozor) paydo bo'ladi.

Hunarmandchilik sohasida to'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik (metall buyumlar yasash), zargarlik, temirchilik, binokorlik kabi tarmoqlar yetakchi mavqega ega bo'lgan. Samarqand shishalari, qog'ozlari bilan ham shuhrat qozongan. Bundan tashqari, O'rta Osiyo shaharlarida teriga ishlov berish, po'stindo'zlik kabi hunarlar ham keng rivoj topadi. E'tiborli joyi shundaki, kasb-hunar egalari mamlakat aholisining eng madaniyatli va obro'li kishilari hisoblan-

gan. Ularni xalq katta hurmat va e'tibor bilan e'zozlagan. Jumladan, samarqandlik shoirlardan Javhariy – sovungarlar rastasining oqsoqoli, Mavlono Havofiy – tikuvchi, Mavlono Mir Arg'un – Homado'z, ya'ni chodir tikuvchi, Mavlono Qobuliy G'azilfurish – kalava sotuvchi, Mavlono Kamardo'z – tasma tikuvchi, Bisotiy Samarqandiy – bo'yra to'quvchi, Abu Bakr Kalaviy – paxta tituvchilar mahallasining oqsoqoli, Hurdak Buxoriy – hunarmandlardan bo'lgan.

Temuriylar davrida, Movarounnahr va Xuroson savdogarlari nafaqat Osiyo mamlakatlari, ayni zamonda, «Buyuk ipak yo'li» orqali Yevropa mamlakatlari bilan ham savdo munosabatlari olib borganlar. Ayniqsa, Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya, Totoriston, Fransiya, Ispaniya va boshqa davlatlar bilan savdo-sotiq ishlari kuchaygan. Xitoydan, asosan, ipak shoyi matolari, xususan, parcha va atlaslar, chinni, la'li, gavhar va mushk, Hindistondan sifatli choylar, nafis oq rangli ip matolar, nil bo'yoqlar, xushbo'y ziravorlar, Erondan marvarid va durlar, Rossiya va Totoristondan har xil mo'ynalar, teri va mum keltirilgan. Samarqand bozorlarida Fransiya gazmollari, mo'nutlari va Cherkas pichoqlari mashhur edi.

O'z navbatida, O'rta Osiyo shaharlaridan chet mamlakatlarga arzon narxli ip matolar, bo'z, duxoba, shoyi gazlama, qog'oz, quruq meva, guruch, paxta, kalava iplar, pichoq, kulolchilik va misgarlik buyumlari chiqarilgan. Savdo munosabatlarini rivojlantirishda elchilik aloqalari katta ahamiyat kasb etgan. Temuriy hukmdorlarning elchilik va savdo karvonlari Osiyo va Yevropaning juda ko'plab mamlakatlariga borganlar. O'z navbatida, chet mamlakatlarning elchilik savdo karvonlari O'rta Osiyoning turli shaharlarida bo'lganlar. Masalan, 1420-yilda Shohrux va Ulug'bek 530 kishidan iborat elchilik karvon ipi Xitoyga jo'natadi. Shohrux elchilariga Shodihoji va Amir Ko'kcha, Ulug'bek elchilariga esa Sultonshoh bilan Muhammad Baxsh boshchilik qiladilar. Bu karvonga G'iyosiddin Naqqosh kotib etib tayinlangan. Karvon Xitoyda 2 yil bo'lib, 1422-yilda vatanga qaytib keladi. Bu elchilik karvoni 1419-yilda Hirot va Samarqandga tashrif buyurgan Xitoyning Li-di va Jong-ku boshliq elchilik karvoniga javob tariqasida uyushtirilgan edi. Savdo-sotiq aloqalarida Temur va temuriylar tomonidan zarb etilgan kumush, mis tangalar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bunday chaqa tangalar turli davrlarda Samarqand, Hirot, Shohruxiya, Buxoro, Qarshi, Andijon, Termiz, Marv va boshqa shaharlarda zarb qilingan.

Mirzo Ulug‘bek 1428-yilda muomaladagi fulusiy tanga chaqa pullar islohotini amalga oshiradi. U shu davrgacha muomalada bo‘lgan barcha yengil chaqa pullarni man etadi va bir vaqtning o‘zida Samarqand, Buxoro, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruxiya, Andijon shaharlarida bir xil vazndagi salmoqdor fuluslar zarb ettirib, muomalaga kiritadi. Bu pullar qisqa muddatda eski chaqalar o‘rniga almashtiriladi. Ulug‘bek keyinchalik, mis pullar zarbini markazlashtirish maqsadida, faqat Buxorodagi tanga zarbxonasini saqlab qolgani holda boshqa shaharlardagi zarbxonalarga barham beradi. Fuqarolar o‘rtasida Ulug‘bekning «fulusi adliya», ya‘ni «adolatli chaqa» nomi bilan shuhrat topgan bu yangi mis tangalari Movarounnahrda savdo-soliq muomalasini tartibga solishda ijobiy o‘ringa ega bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Amir Temur – buyuk sohibqiron tushunchasiga ta‘rif bera olasizmi?
2. Amir Temurning bolaligi qanday o‘tgan deb o‘ylaysiz?
3. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishdagi xizmati nimada?
4. Amir Temurning Eron, Hindiston, Kichik Osiyoga yurishlari haqida gapirib bering.
5. Amir Temurning ma‘naviy, madaniy merosi nimalardan iborat?
6. «Temur tuzuklari»: mazmuni va mohiyatini gapirib bering.
7. Temur davlatida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayot darajasi nimalarda ko‘rinadi?
8. Shohrux va Ulug‘bek hukmronligi haqida gapiring.
9. Husayn Boyqaro kim va uning islohotlarini bilasizmi?
10. Amir Temur va temuriylar davlati qaysi mamlakatlar bilan tashqi aloqalar qilgan?
11. Amir Temur davrida Buyuk ipak yo‘li.
12. Amir Temur va uning davlati tarixi haqida xorijiy olimlar va ularning qanday asarlarini bilasiz?
13. Lyus‘en Keren kim va uning ijodi haqida nimalarni bilasiz?

X BOB**XIV ASRNING IKKINCHI YARMI – XV ASRDA
MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MADANIY HAYOT****I. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA
MADANIY HAYOT**

Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda madaniyat o'z rivojining yuksak cho'qqisiga chiqadi. Temuriylar sulolasining yalovbardori ulug' Amir Temurni shu paytga qadar o'tgan jahongirlarning birontasi bilan ham qiyoslab bo'lmaydi. Bu fikrni ulug' bobomiz va uning avlodlari qoldirgan ulkan moddiy madaniyat yodgorliklarigina emas, balki jahon fani va madaniyatiga buyuk va salmoqli hissa qo'shgan Ulug'bek, Bobur va boshqalarning temuriylar sulolasidan bo'lganligi ham isbotlaydi. Bunday ulug' va dono allomalar dunyoni larzaga solgan qaysi podsho, imperator yoki jahongir avlodlaridan yetishib chiqdi. Bu savolga na Kir (Kurush), na Aleksandr Zulqarnayn, na Chingizxon, na Yuliy Sezar-u buyuk Napoleondan ijobiy javob topib bo'ladi. Bu faqat Amir Temur shaxsigagina xos xususiyat bo'lib, ul zot shaxsining betakror ulug'vorligi bilan bog'liqdir.

Amir Temur shaxsining ulug'ligi uning Chingizxondan keyin hududining kattaligi jihatidan dunyoda ikkinchi buyuk saltanatga asos solganligida emas, yoki o'zining Sohibqironlik faoliyati davomida 30 marta yurishlar qilib, biror marta bo'lsa-da, yengilmaganligida ham emas, uning mardligi va qahramonligi kabi g'oyatda muhim fazilatlarida ham emas, albatta. Bu fazilat va omillar ham so'zsiz Amir Temur shaxsini ulug'lashda va uni jahonga mashhur qilishda katta o'rin tutgan. Ammo Amir Temurning dunyoda eng ulug' va buyuk shaxs, davlat arbobi, mashhur sarkarda, fan va madaniyat homiysi sifatida nom qozonishiga sabab bo'lgan fazilatlar «Temur tuzuklari» da o'z ifodasini topgan. Bu fazilatlar:

Birinchi va eng asosiysi Islom dini, Qur'oni karim va uning g'oyasiga cheksiz sadoqatda. «...har yerda va har vaqt Islom dinini quvvatladim», – deydi u. «Yana tajribamda ko'rib bildimki, davlat

agar din-u oyin¹ asosida qurulmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'hSharqim, uni ko'rgan har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kas-u nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi.

Shuning uchun ham men o'z saltanatim binosini dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim.

Amir Temur yana davom ettiradi: «Qaysi mamlakatda dindand qaytishlik (ilxod) va zindiklik² kuchaysa va u diyorning aholisi, sipoh-u raiyat turli maslakka kirib ittifoqlari buzilsa, u mamlakatning halokati yaqindir»³.

Ikkinchisi, hayotda, davlat ishlarini boshqarishda odillik, adolat va haqiqatning ustuvorligini ta'minlash uchun kurash. Oddiy xalq manfaatlarini himoya qilish, jabrdiydalarga madadkorlik ig'vogar va tuhmatchilarga ishonmaslikda: «...Adolat va insof bilan tangri-ning yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim... Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohiyilarga in'omlar ulashdim. Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim... Buzuqi va og'zi shaloq g'iybatchi odamlarni majlisimga yo'latmadim, so'zlariga amal qilmadim. Biror kimsaga tuxmat-u g'iybat qilsalar, quloq solmadim»⁴.

Uchinchidan, davlatni boshqarish, idora qilish ishlarini halol, nasl-nasabli, asil, vijdonli, aql-farosatli, sabr-toqatli kishilarga topshirish. Temur davlat arboblari bag'ri keng, og'ir, vazmin, odamlarga nisbatan kek saqlamaydigan, kechirimli va g'oyatda xush axloqlik fazilatlariga ega bo'lishi kerak, deb hisoblar va bu fazilatlarini juda-juda qadrlar edi.

Amir Temurning fikricha, har bir tojdor hukmdor o'z davlatining tayanchi bo'lgan ijtimoiy qatlamlarga tayanishi lozim.

To'rtinchidan, yuksak insoniy axloqiy fazilatlarini ulug'lash, noinsoniy, noaxloqiy va tubanlik ko'rinishlariga qarshi shafqatsiz kurash. Amir Temur yozadiki: «...hozirgi damgacha o'tgan Sultonlarning qonunlari va turish-turmushlarini donolardan so'rab-surishtirdim. Har qaysilarining yo'l-yo'riqlari, turish-turmushlari,

¹ *Oyin* – qoida, rasm, tartib, usul, odat, ravish, tarz

² *Zindiklik* – xudosizlik, dinga ishonmaslik

³ Temur tuzuklari. 53–57–92-bet.

⁴ Temur tuzuklari. 54–55-bet.

qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi axloqlari, ma'qul sifatlaridan mamuna olib, unga amal qildim»¹.

Madaniylilikning bu oliyjanob fazilatlarini Amir Temur hazratlari ulug'labgina qolmagan, balki bu fazilatlarining bajarilishini davlat hududida yashab kelayotgan fuqarolardan, eng avvalo, o'z oila a'zolari tomonidan ham so'zsiz bajarilishini talab qilgan. Hatto, Amir Temurni butun qalbi, vujudi bilan yomon ko'rgan Ibn Arabshohdek muarrix ham buyuk Sohibqironning adolatpesha ulug' fazilatlarini tan olib yozishga majbur bo'lgan: «Temur tamg'asining naqshi «rosti rasti» bo'lib, «bu haqgo'y bo'lsang, najot topasan», demakdir... Ko'pincha uning majlisida uyatsiz so'zlar, qon to'kish, asir olish, nahb-u g'orat qilish va haram haqqiga haqorat gaplar bo'lmasdi. Temur qo'rqmas, shijoatli, botir kishilarni itoat qildiruvchan bo'lib, jasoratli (kishi)larni dovyurak va mardlarni yoqtirar edi... U (birovdan) bir gap eshitganda dalil talab qiladigan, zimdan qarash va ko'z ishoratlarini sezadigan idrokli kishi edi. U sinchkov bo'lib, har bir ishoratdan ogoh kishi bo'lib, yuz beradigan barcha ishni ko'rib-bilib turar edi. Uning nazaridan aldovchining aldovi yashirilib qolmas va fribgarning firibi o'tmas, o'z farosati bilan haqgo'y va yolg'onchini ajratar edi. O'z ziyrakligi, tajribasi bilan chin (hak) nasixatgo'ydan soxta (nasihatgo'y)ni idrok etar, o'z afkori bilan sal bo'lmasa «uchar yulduzni to'g'ri yo'lga boshqarar, o'z farosati, mulohazalari bilan har bir bexato sayyora o'qini o'z orqasidan ergashtirar edi»².

Amir Temur o'ta taqvodor musulmon bo'lgan, islom qonunlari va shariatlari doirasidan chetga chiqmagan. U o'z farzandlari va nabiralariidan axloqiy pok insof-diyonatli va adolatli bo'lishni talab qilgan. Amir Temur o'z o'rniga valiahdlikka katta o'g'li Jahongir Mirzoni loyiq deb topadi. Lekin Jahongir Mirzo bevaqt bu dunyoni tark etadi. Shundan so'ng, ulug' Amir o'z nabirasi Halil Sultonni valiahdlikka birdan bir da'vogar deb hisoblaydi, chunki u jasur, qo'rqmas va mard bahodir edi. Ammo kutilmagan voqea sodir bo'ladi.

Xalil Sultonni ilgari Temurning jiyani, amirzoda Alining qizi Jahona Sulton begimga uylantirib qo'ygan edilar. Halil Sulton o'zining qonuniy xotini bo'la turib, amir Xoji Sayfuddinining cho'risi, sohibjamol Shodimulkni yoqtirib qoladi va uni hojasidan tortib olib, yashirincha o'z nikohiga o'tkazadi. Buni eshitgan Temur g'oyatda

¹ Temur tuzuklari. 54-55-bet.

² *Ibn Arabshoh*. Amir Temur tarixi. 2- kitob. T.: «Mehnat», 1992. 65-66-bet.

g'azablanadi. Yasovulboshini chaqirtirib «shahzodani qayda bo'lsa ham tutib keltirilsun va maxdi ul Bayon og'a turgon qasrga qamab qo'yilsin, behayo Shodimulk esa g'ulomlardan biriga xotin qilib, berib yuborilsin», deb buyruq beradi. Halil Sulton bobosining g'azabidan qo'rqib, mahbusi bilan do'stlaridan birining uyiga yashirinadi. Oradan uch-turt kun o'tgach, Saroymulkxonim, Tukul Xonim, Amir Shohmalik va Shayx Nuriddinlar o'rtaga tushib, shahzodani jazodan qutqazib qolishadi: Temur o'zboshimcha nabirasi-ning gunohidan o'tgan bo'lsa-da, lekin uni valiahd qilish niyatidan qaytgan.

Bu keltirilgan oddiygina dalil-xulosa buyuk davlat arbobi Amir Temurning axloqiy, ichki-ma'naviy dunyosining nechog'lik pok va go'zal bo'lganligidan dalolat beradi. Amir Temur to'g'risida xalq og'zaki ijodida ko'plab turli mavzularda rivoyat va afsonalar tarqalgan. Ana shu rivoyatlardan birida aytilishicha, Amir Temur besh narsaga e'tiqod qo'ygan ekan. Bular: Alloh tafakkur, qilich, iymon va kitob (bitik)dir. Demak, Amir Temurning madaniyat homiysi sifatida ulo'g'ligini belgilovchi omil uning ruhining sofligi, tozaligi va Islom g'oyasi bilan sug'orilganligidadir.

2. QURILISH VA ME'MORCHILIK

Temur va temuriylar davrida qurilish ishlari, me'morchilik misli ko'rilmagan darajada o'sadi va rivojlanadi. V.V. Bartold bunday deb yozadi: «Temur bir vaqtning o'zida ashaddiy buzg'unchi va tashabbuskor quruvchi edi: u buyuk imoratlar barpo etdi va ularni ulkan bog'-u rog'lar bilan o'radi, shahar va qishloqlarni tikladi, suv inshootlari barpo etdi va buzilganlarini tuzatdi. Madaniyat barpo etish mumkii bo'lgan yer maydonlarini bo'sh qoldirmas edi. Temurning ijodkorlik faoliyati ham uning qilgan vayronagarchiliklari kabi kishini hayratda qoldirardi. Musulmon me'morchiligidagi eng yaxshi davr Temur va uning avlodlari nomi bilan bog'liq»¹.

Temur va uning avlodlari davrida Samarqand, Toshkent, (Zangiota qabri), Buxoro, Shahrisabz, Qarshi, Turkistonda, Xurosonning markazi Hirot, Mashhad, Nishopur, Qobul va boshqa shaharlarda

¹ Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч. т. III, ч. 2, стр. 60–61.

buyuk yaratuvchilik ishlari olib boriladi. Sohibqironning buyrug'iga asosan, 1365-yilda Qarshi, 1370-yilda Samarqand, 1380-yilda Kesh shaharlari atrofida mudofaa devorlari barpo etiladi. Temurning o'z ona yurti Keshda, buyuk alloma va mutafakkir Ahmad Yassaviyga atab Turkistonda qurdirgan ajoyib, osmono'par va muhtasham madrasalari o'z davrida Sohibqironning kuch-qudratini jahon uzra ko'z-ko'z qilgan.

Tarixshunos olim Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining «Zafarnoma» asarida Kesh (Shahrisabz) qo'rg'oni va Oqsaroyning qurilishi bayonida quyidagilarni yozgan: «Sichqon yiliga to'g'ri kelgan (hijriy) 781-yilning oxiri (milodiy – mart, 1380), erta bahor fasli edi. O'z quvvati bilan (tabiatni) gullatib yashnatuvchi me'mor ko'katlar va maysazorlar shahrini obod qilishga kirishgan, atirgul butalaridan qasrlar yaratib, la'lgun shohchalar uchini baland ko'targan va ularni feruza rang naqshli barglar bilan bezagan bir vaqtda Oliyhazrat sohibqiron gullaridan mushk-u anbar bo'yi taraluvchi, suvidan gullob ta'mi keluvchi Keshning xushhavo va rom etguvchi zaminida shodlik nash'asini surib, orom olmoq azmi bilan bu yerda saltanat taxtini o'rnattirdi. So'ng, Shahrisabz qo'rg'onini qurish haqida farmon berdi va (ishlarni) amirlar-u lashkar ahli o'rtasida taqsimladi. Qo'rg'on qurilishi uchun munosib keluvchi saodatli soatda uning poydevorini qurdilar. Shahar ichida esa qazo-yu qadardek bajarilishi so'zsiz bo'lgan farmonga binoan bir qasr bunyodiga asos soldilar. She'r:

*Uning kungirasining balandligi shu darajaga yetdiki,
(Hasaddan) osmon ko'zidan yosh (yulduz)lar to'ktirdi.*

*Qora tunda uning devorlari chunonam oppoq
bo'lib ko'rinardiki,*

Hatto, muazzinlar¹ tong otibdi deb gumon qilardilar.

*«Nazar arqonini qanday qilib, uning tepasiga
tashlasam ekan» deb,*

Uzoqni ko'ra oluvchi aql-u donish yuz bor xayolga cho'mdi.

Imorat shu qadar baland va favqulodda jozibali ediki, hatto, keksa muhandis bo'lmish Gardun shuncha yillar jahon atrofida aylangan bo'lishiga qaramay, bunday go'zal binoni ko'rmagan edi.

¹ Muazzin- masjidida azon aytib, namozga chorlovchi shaxs.

She'r:

*Yerdan samoga bosh ko'targan
(bu saroyning)
nomi sharafi «Oqsaroy» deb ataldi»¹.*

1404-yilda Amir Temurning onasi Nekuzbibi sharafiga qurib bitkazilgan, go'zallikda tengsiz Oqsaroy ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo 1403-yili bu yerdan Samarqand tomon o'tayotganda hali bitmagan edi. Ammo shunga qaramasdan, u o'z xotiralarida Oqsaroyning go'zalligidan hayratlanganligi va qoyil qolganligini yozadi: «Zero, butun bino zarhal va lojuvard bilan qoplangan bo'lib, u yerda saroyning shuncha bo'lma va oromgohlarini ko'rsatdilarki, ular haqida juda uzoq so'zlash mumkin. Saroy ziynatlari oltindan va boshqa ranglardan hayratomuz ishlangan edi. Hatto, mohir ustalari bilan jahonga mashhur bo'lgan Parijda ham bu ish juda go'zal hisoblangan bo'lar edi».

Amir Temur tomonidan qurilgan ushbu saroyning eng noyob, o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shunda ediki, saroy tomi tepasida hovuz bo'lib, unga suv Taxtaqaracha dovonidan – tog'dan qo'rg'oshin quvurlar orqali olib kelingan.

Albatta, Amir Temur birinchi navbatda poytaxti Samarqandni dunyoning eng go'zal va obod, ko'rkam va betimsol shaharlaridan biriga aylantirishni o'zining bosh vazifasi deb biladi. U ishni eng avvalo, mo'g'ullar istilosidan so'ng, 150 yil mobaynida vayron va qarovsiz yotgan shaharning mudofaa devorlarini tiklashdan boshlaydi. Osmo suv yo'li («Juyi Arziz»)ning yakson etilishi tufayli suvsiz qolgan Samarqand mahallalariga Zarafshon daryosidan suv keltiradi.

Amir Temur o'z saltanatining qo'rg'oni – Ark qal'a, undagi betakror va go'zal binolarni qurdiradi. Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy deb elda mashhur bo'lgan bu binolar shaharning ko'rki hisoblangan. Shahar arki ichida bu binolardan tashqari, masjid, ulkan kutubxona, shohona uy-joylar, Amir Temurning xazinasi va taxti, pul zarblanadigan ko'ra, aslahasozlik ustaxonalari, hammomlar hamda zindon bo'lib, atrofi qalin va baland devorlar bilan o'ralgan.

Sohibqiron Hindiston safaridan qaytgach, uning farmoni bilan Jome' masjidi (Bibixonim nomi bilan ataluvchi masjid)ning qurilishi boshlanadi. Jome' masjidi qurilishiga Temurning shaxsan o'zi qiziqqan va jang-u jadallar bilan band bo'lsa-da, uni e'tibordan

¹ *Somon yo'li*. Amir Temur hayotiga bag'ishlanadi. 46–47-bet.

qochirmagan. Jome' masjidini belgilangan muddatda bitkaziladi. Biroq Sohobqiron bu paytda safarda edi. Ayni paytda, Temurning sevimli, erka va katta xotini Saroymulkxonim (Bibixonim) bunyod etilgan Jome' masjidini yonida jozibali va ulug'vor muhtasham madrasa qurilishini boshlab yuborgan edi. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, quruvchilar madrasa darvozasi va devorlarini jome' masjidiga nisbatan baland ko'taradilar. Natijada, Madrasa asosi Jome' masjidini asosidan mustahkam, balandlikda ham undan ko'ra yuqori bo'ladi.

1404-yilning kuzida Temur harbiy safardan qaytgach, Madrasa va Jome' masjidini tomosha qilar ekan, uning nazarida masjidning peshtoqi madrasaga nisbatan tor va past ko'rinadi. U g'azabga to'ladi va Jome' masjidini bosh peshtoqini buzib tashlab boshqatdan qurishga farmon beradi. Shu dargohning kengaytirib va baland ko'tarib qurish ishida qusurga yo'l qo'yganligi uchun Xo'ja Mahmud Dovud so'roqqa totilib jazolanadi. Jome' masjidini kengaytiriladi va peshtoqi baland ko'tariladi. Qayta ta'mirlash ishlarini Amir Temurning shaxsan o'zi nazorat ostiga oladi. Jome' masjidini Samarqanddagi eng hashamatli va go'zal obidalarandir. U boshqa binolardan o'ymakor marmardan yasalgan 480 pillapoya ustunlari, darvozaband ulkan ravoqi, masjid binosining bahaybat gumbazi, peshtoqining mahobati va quyosh nurida turli rang ko'rinishda toblanib turuvchi maftunkor, jimjimador, go'zal bezaklari bilan o'zgacha bir tarzda ajralib turardi.

Amir Temur mashhur Shohizinda qabristonini ham o'zining o'tkir zehni va ziyrak e'tiboridan chetda qoldirmaydi («Shohizinda» – «tirik shoh» ma'nosini beradi). Undagi maqbaralarning eng qadimiyisi – Qusam ibn Abbos maqbarasidir. Qusam ibn Abbos islom dinining asoschisi, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning amakivachchasi bo'lgan Abbosning zurriyoti edi. Qusam ibn Abbos islomni targ'ib va tashviq qilishda ishtirok etgan buyuk shaxslardan bolgan. U shu maqsadda, 676-yilda arab istilochilari bilan birgalikda Samarqandga kelgan. Shu yerda, afsonalarda aytilishicha, namoz o'qib turgan paytlarida kofirlar hujum qilib, uni o'ldirgan ekanlar. Amir Temur Qusam ibn Abbos qabri ustiga yangi dahma o'rnatgan. Bu dahma O'rta Osiyo qadimgi kulollari ishlarining eng yaxshi namunalaridan biridir.

Chingizxon to'dalari tomonidan batamom kuli ko'kka sovurilib, vayronaga aylantirilgan Afrosiyob, Temur va temuriylar davriga kelibgina haqiqiy ikkinchi hayotga yuz o'giradi. Amir Temurdan so'ng, uning iste'dodli va ma'rifatparvar nabirasi Ulug'bek davri-


da Samarqand o'z boshidan gullash davrini kechiradi. Ajoyib va muhtasham binolar qad ko'taradi. Afrosiyob atroflari husniga husn qo'shadi. «Bibixonim» masjidi hovlisining o'rtasida marmartoshdan yasalgan lavh bor (Lavh – Qur'on qiroat qilinadigan maxsus kursi). Ushbu lavhni Mirzo Ulug'bek XV asrning o'rtalarida yasattirgan. Unda quyidagi so'zlar bitilgan: «Sulton azizim, oliy himmatli haqon din-diyonat homiysi, xanafiya mazhabining posboni, aslzoda Sulton, ibn Sulton amiri muhin Ulug'bek Gurag'on». Ulug'bek og'li Abdulazizga atab 1434–1435 (xijriy 838)-yillari Shohizinda ansamblining asosiy bosh darvozasi qurdirgan. Unga quyidagi so'zlar bitilgan: «Abdulaziz Bahodir ibn Ulug'bek ibn Shohrux, ibn Temur».

«Shohizinda» ansamblida Temur va temuriylar qurdirgan maqbaralarning soni 20 dan oshadi.

Amir Temurning hayotligi chog'ida qurilgan maqbaralardan biri – Turkon og'a maqbarasidir. Turkon og'a Amir Temurning opasi bo'lgan. Maqbara esa 1370–1371-yillarda vafot etgan. Turkon og'aning qizi uchun qurilgan. 1383-yilda Turkon og'aning o'zi ham vafot etadi va shu yerga dafn etiladi. Bu obidaning ustalari samarqandlik Shamsiddin va Badriddin hamda buxorolik Zayniddin va Shamsiddinlar bo'lganlar. 1376-yilda Amir Temurning sarkardalaridan biri – amir Husaynning onasi Tog'li Tekin, 1385-yilda Amir Temurning singlisi Shirinbika og'a maqbaralari qurilgan.

«Shohizinda» ansamblida Amir Temurning xotinlari tomonidan qurilgan maqbaralar va boshqa binolar ham kattagina o'rinni egallaydi.

Amir Temur davrida qurilgan va dovrug'i olamni tutgan tarixiy obidalardan yana biri bu – Go'ri Amir maqbarasidir. Bu muhtasham binoning o'z qurilish tarixi bor. Amir Temur nabirasi Muhammad Sultonni (Jahongirning og'li) juda sevardi. Muhammad Sulton 1403-yilda, 27 yoshida shamollab vafot etadi. Uni Samarqandga olib kelib dafn marosimi o'tkazadilar. Amir Temur 1404-yilning ko'zida safardan qaytgach, nabirasi Muhammad Sulton xotirasi uchun maqbara qurishga farmon beradi. Ushbu farmonda maqbarani o'n kun mobaynida qurib tugallashga buyruq berilgandi. Haqiqatdan ham, maqbara o'n kunda batamom qurib bitkaziladi. Bunday hashamatli, katta va baland binoni o'n kunda qurib bitkazish aqlga sig'maydigan bir voqea bo'lib, Amir Temurning kuch-qudrati nimalarga qodir ekanligini namoyish etgan. Amir Temur mana shu yerda Muhammad Sulton Mirzo xotirasiga va Alloh yo'lga atab katta xudoyi maro-



Amir Temur maqbarasi.

simi o'tkazadi hamda o'sha davr mashhur din peshvolari tomonidan Qur'oni karimdan oyatlar o'qittiradi. Maqbara devorlaridagi rang-barang koshinlar orasida uni qurgan usta Muhammad ibn Mahmud Isfahoniyni nomi ham yozilgan. 1405-yilda Amir Temur vafot etgach, uning o'zi ham shu yerga, nevarasining yoniga dafn etiladi (va maqbara «Go'ri Amir maqbarasi» deb nom oladi. Shundan so'ng ushbu obida temuriylar sulolasining xilxonasiga aylanadi. Unda Muhammad Sulton Mirzo, Amir Temurdan tashqari, sohibqironning o'g'illari Umarshayx Shohrux va Mironshoh, nabirasi Mirzo Ulug'bek va Temurning piri Sayyid Barakaning ham sag'analari qo'yilgan. Diqqatga sazovor joyi shundaki, Amir Temurdek inson o'z qabrini ustozlari Sayyid Barakaning oyog'i uchlariga qo'yishni vasiyat qilgan ekan. Vasiyat bajo etilgan.

Maqbaraning ichi juda baland. U bezaklarining jilosi bilan har qanday kishini hayratlantiradi. Maqbaraning o'rtasida o'rnatilgan sag'ana toshlarida temuriylarga bag'ishlangan yozuvlar bor. Shular orasida Amir Temur qabri ustiga qo'yilgan to'q yashil rangli mohtobdan yasalgan qabrtosh diqqatga sazovordir. 1425-yilda Ulug'bek Qarshi (Nahshob) shahrini mo'g'ullardan tozalagach, shahardagi

murul xoni saroyidan ana shu to'q yashil mohtobni Samarqandga olib kelib bobosi sohibqiron sag'anasi ustiga qo'ydiradi. Bu toshda yozilgan juda ko'p, uzundan-uzoq 51 satrli jumlar qatorida quyidagilarni o'qiyimiz: «Bu toshni audanlik xoqon Dava Suxonxon Qarshi deb ataladigan poytaxtiga ko'chirib olib ketgan. Jetaga otlanganida Qarshidan Ulug'bek Ko'ragon (bu yerga) ko'chirtirib olib keldi. U nihoyatda mohirdir...»

Amir Temurning moddiy merosi uzoq yillar davomida talon-toroj qilindi, xo'rlandi va toptaldi. Xususan, chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmi va «qizil saltanat» hukmronligi davrida ulug' Sohibqiron tomonidan yaratilgan boyliklar turli yo'llar bilan yurtimizdan olib chiqib ketildi. Ularning ko'plari Rossiyaning Davlat Ermitaj muzeyida saqlanmoqda, kattagina qismi esa boshqa davlatlarga oltinlar hisobiga sotib yuborilgan.

Taqdir taqozosi bilan Amir Temur qabri ikki marotaba bezovta qilingan. Qarangki, go'yo ikki marta ham Amir Temur ruhlari o'z dushmanlaridan ayovsiz o'ch olgan. Birinchisi 1736-yilda sodir bo'ladi. Eron taxtiga chiqqan Nodirshoh Amir Temur sag'anasiga qo'yilgan mohtob qabrtoshni Mashhadga olib kelgan va evaziga ko'p o'tmay, o'z nabirasi shahanshoh Aliqul Mirzo tomonidan o'ldirilgan. Ikkinchisi «qizil saltanat» davrida, 1941-yil 22-iyun soat 5.00 da boshlanadi. Xuddi o'sha yil, o'sha kun va o'sha soatda fashistlar Germaniyasi sobiq urush e'lon qiladi. Har ikki holatda ham biz buni tan olamizmi, yo'qmi, xohlaymizmi - yoki yo'qmi, go'yo allohi Karim xuddi buyuk Temur uchun uning qabrini bezovta qilganlardan qonuniy o'ch olganday tuyuladi kishiga.

Go'ri Amir ansamblining ko'rki va faxri uning maqbaralaridagi gumbazlardir. Gumbazdagi rangdor naqshlar yorqinligi va serjiloligi bilan har qanday kishini hayratga soladi. Xullas, bu go'zal va betakror maqbara Amir Temur xotirasigagina yodgorlik bo'lmasdan, balki, nomsiz me'morlar, mohir rassomlar, xalq ijodi qudratining timsoli naqqoshlar sharafiga ham o'rnatilgan abadiy haykaldir.

Amir Temur Samarqanni dunyoning eng ko'rkam va go'zal shaharlaridan biriga Yer yuzining «sayqali»ga aylantirishni o'zining vazifasi deb biladi. Samarqand Temurning kuch va qudratini jahonga ko'z-ko'z qilib, ko'rsatishi kerak edi. Ko'rkam va go'zal Samarqand oldida dunyoning boshqa davlatlari poytaxtlari bamisoli kichik-kichik qishloqlarga o'xshab ko'rimsiz bo'lib turishi lozim, deb hisob-

lardi Sohibqiron. Ulug' bobomiz ana shu mantiq asosida Samarqand atrofida bir qancha manzilgohlar paydo qilib, ularga jahondagi yirik davlatlariing poytaxtlari nomlarini beradi: Bag'dod, Damashq, Qohira, Sheroz, Sultoniya, Parij va hokazo. Parij keyinchalik, xalq talaffuzida Forish, deb yuritiladigan bo'ldi.

Amir Temur davrida Samarqandning dovrug'i doston bo'ladi. Uning to'rt tomonida to'rtta darvozasi bo'lgan. Shahar atrofi qazilgan xandaqlarda oqib turadigan zilol suvlar bilan o'ralgan edi. Shaharning toza va ozodaligi juda ko'p manbalarda madh etilgan. Jumladan, tarixchi Al-G'azzoliyning yozishicha: «Muhtasiblar ko'chaga tarvuz-qovun po'choqlarini hamda boshqa chiqindilarni tashlab, yo'lovchilar uchun sirg'anish xavfini tug'dirmasligini, oqava suvlar sachrab odamlarning kiyimlarini iflos qilmasligini, qassoblar ko'chalarda yoki do'konlarning oldida mol so'yib atrofni ifloslantirmasliklarini, har kim o'z tomonidan kuragan qorni o'zi tozalashini va boshqa obodonchilik ishlarini qattiq nazorat qilganlar»¹.

220 gektarni egallagan birgina Afrosiyobning o'zida Amir Temur hukmronligi davrida 80 ga yaqin hammom, qulay va gavjum 5 ta bozor bo'lgan. Tarixchi sayyoh Ibn Haldunning hikoya qilishicha, Samarqandda «oqar suv kirmagan biror ko'cha, biror hovli deyarli yo'q edi, faqat ba'zi uylargina bog'siz edi»². Odamlar ko'chalarda ariqlarda oqib o'tadigan toza zilol suvlardan ichimlik suvi o'rnida foydalanganlar. Amir Temur poytaxti Samarqand atrofidagi bog'i – rog'lar bilan o'rab olgan. Sohibqironning buyrug'i bilan bir-biridan go'zal o'ndan ortiq bog' barpo etilgan. Bog'i naqshi jahon, bori behisht, Amirzoda Shohrux bog'i, Bog'i Buldu, Bog'i dilkusho, Bog'i zofoh, Bog'i baland, Davlatobod, Bog'i Chinor, Bog'i nav, Bog'i jahonnamo shular jumlasidandir.

Tarixchi Ibn Arabshoh Amir Temur bog'lari to'g'risida bunday deb yozadi: «Temur Samarqandda ko'pdan ko'p bo'stonlar barpo qilib, baland va mustahkam qasrlar bunyod etdi. Ularning har qaysisi g'arobatli tartibda, ko'rkam va ajib suratda edi. Bo'stonlar asosini mustahkam qilib, fahomatli mevali ko'chatlar bilan ularni bezadi. Ularning birini Eram bog'i, ikkinchisini Dune ziynati, yana boshqasini Firdavs jannati, uchinchisini Shimol bog'i, beshinchisini Oliy jannat deb atadi. Shuningdek, ba'zi joylarni buzdirib, u bo'stonlardan

¹ Berdimurodov A. Amir Temurning Samarqanddagi bog'lari. «Turkiston», 1992-yil. 17-noyabr.

² O'sha joyda.

har biri ichida bir qasr qurdirdi. Bu qasrlarning qay biriga o'z majlislarini, o'z suratini turli shakllarda: birida kulib turgan, ikkinchisida qahrlangan, o'zi qilgan janglar tasvirlarini, rasmiy tantanadagi suratlarini; podshohlar, amirlar, sayyidlar, ulsholar va ulug'lar bilan suhbat qurgan majlislarini; Sultonlarning uning huzurida qo'l qovushtirib turishlarini, xizmat yuzasidan boshqa mamlakatlardan huzuriga kelgan ularning podshohi Sultonlarining vakillarini, o'zining ov xalqalari-yu yashirin hiylalarini, Hind, Dashti (Qipchoq) va Ajam janglarida o'z zafarlari suratini, dushmanlarining qay ahvolda yengilib qochganini, o'z avlodlari, nabiralari, amirlari, qo'shinlari suratlarini; aysh-u ishrat majlislari va sharoblari qadahleri-yu qadahleri soqiylarini, o'z ulfati qo'shiqchilarining turli maqomdagi g'azalxonlik kuychilarining huzuridagi sevgililarini (nikohidagi) pok xonimlarning va bulardan boshqa uning bir-biriga o'xshab, ulanib ketgan, uning butun umri mobaynida o'zga mamlakatlarda voqea bo'lgan hodisalar suratini tasvirlatdi. Bular hammasi hech bir noqissiz va ziyodasiz, qay tarzda yuz bergan bo'lsa, shundayligicha aks ettirildi. Bundan maqsadi o'zining ishlaridan g'oyibona xabarador bo'lib, ularni o'z ko'zi bilan mushohada etmaganlarga yaqqol namoyon qilib ko'rsatish edi»¹.

Amir Temur yaratgan bog'lar go'zalligini ulardagi turli-tuman mevalarni va Yer yuzida mavjud bo'lgan hayvon dunyosini, parrandalar tafsilotini ta'rifga olish uchun qalam o'jizlik qiladi. A. Berdimurodovning «Amir Temurning Samarqanddagi bog'lari» turkum maqolalarida «Dilkusho bog'i» to'g'risida quyidagi satrlarni o'qiyimiz: «Temur hijriy 788-yil (1397)ning kuzida xushmanzara Konigil vohasida yangi bog' barpo etishga buyruq berdikim, u o'zining go'zalligi bilan mamlakatdagi barcha bog'lardan ajralib tursin... Samarqandda yashovchi O'rta Osiyoning eng mohir me'morlari tomonlari bir yarim ming gaz keladigan bog'ning asosiy g'ishtini qo'yidilar. Kirish yo'llarini ajratdilar. Saroyning gumbazlari naqshlar bilan bezaldi, devorlar ustki koshinlar bilan qoplandi. Bog'ning to'rt burchagida katta san'at va yuksak did bilan ishlangan, ajoyib bo'yoqlar berilgan shiyponlar qurildi. Bog' chorqirra xiyobonlarga va turli shakldagi bog'chalarga bo'lindi. Temur xiyobonlarning yo'llari chetiga mevali daraxtlar, ba'zilariga gul o'tkazishni xohlardi. Bog' uning (Temurning) mayliga javob bergani uchun ham

¹ *Ibn Arabshoh*. Amir Temur tarixi. 2-kitob. 82–83-bet.

«Bogʻi Dilkusho» deb ataldi. Bogʻning oʻrtasida baland gumbazli uch oshyonli saroy qurildi.

1404-yilning sentabrida jahongir Temurning qabulida ispaniyalik elchi Klavixo bu bogʻda favvoradan suv otilib turganligini, boqqa kiriladigan darvoza juda keng, yuksak oltin va boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezatilganligini, ustiga taxtiravon oʻrnatilgan oltita fil borligini yozadi»¹.

Amir Temurning muxoliflari uni kamsitishga urinib, Temur bosis olgan mamlakatlardan ustalar, meʼmorlar va olimlarni koʻchirib olib kelmaganda, Samarqandda va boshqa shaharlarda bu darajada hashamatli, goʻzal qurilish va binolar boʻlmas edi, deb isbotlashga bexuda urinadilar. Biz ulugʻ bobomiz Amir Temurning oʻz yurishlari davrida minglab ustalar, meʼmorlar, qurilish ashyolari va boyliklarni Samarqandga olib kelganligini inkor etmaymiz. Jumladan, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi qurilish va meʼmorchilik ishlarida Sheroz, Tabriz, Isfahon, Xorazmdan kelgan koʻplab meʼmorlar, musavvirlar va hunarmandlar ishlaganlar. Lekin asosiy ish boshqaruvchilar, mahalliy ustalar va meʼmorlar boʻlganlar, birinchi galda ularning milliy anʼana sanʼat ijodlari yetakchi oʻrinni egallagan. Darvoqe, Samarqand, Buxoro va Xorazmda hali Temur hukmronligigacha qurilgan va mavjud boʻlgan va shu kunlarga qad saqlanib kelayotgan tarixiy obidalar, oʻlkamizda olib borilgan arxeologik qazilma yodgorliklarining guvohlik berishicha, xalqimiz qadim-qadimdan qurilish va meʼmorchilik sanʼatida hayratomuz va noyob qobiliyat egalari oʻlkasi boʻlganligini koʻramiz.

Buyuk Amir Temurning moddiy madaniyat bobidagi bunyodkorlik faoliyatini uning avlod-ajdodlari, birinchi navbatda Ulugʻbek (1394–1449) davom ettiradi. Taniqli olim Ashraf Ahmedovning «Ulugʻbek» risolasida bunday deyiladi: «Ulugʻbekning eng xayrli ishlaridan biri-bir vaqtning oʻzida uchta shaharda Buxoro (1417), Samarqand (1417–1420) va Gʻijduvonda (1433) madrasa, yaʼni oʻsha davrning oliy oʻquv yurtini barpo etganligidir. Samarqandda buning uchun u bozor maydonini tanlaydi va 1417-yili bu yerda madrasa qurilishini boshlab, uni 1420-yili tugatadi. Samarqanddagi madrasa qurilgan yerni u Registon deb ataydi». Otaxon tarixchimiz Boʻriboy Ahmedovning maʼlumotlariga qaraganda, Gʻijduvondagi madrasa 1433-yilda ishga tushirilgan. Bulardan eng kattasi Samarqanddagi

¹ «Turkiston», 1992-yil, 21-noyabr.

madrasa hisoblangan: «madrasaning togʻ shukuhli xayati ustuxon-band mustahkamligidan falak binosidin tinchlikni olgon, yuksaklik jihati boʻlmish azamatnishon peshtoqi ogirligidan yer-u zaminga zilzila solgon, aning oliy darajalik kungralarini qudrat ustasi falak ayvonining mukarnaskorligi birlan bir xilda yasagʻon, lojuvard koshinlarini kazo naqqosh falakning charogʻon yulduzlari birlan bir tartibda naqd qilub, alarga daxldor qilgʻon; quyosh kabi jilvasi, zarnigor naqshlari goʻzal falak gumbazi birla hamvazi erdi»¹. Madrasa ikki qavatdan iborat boʻlib, ellikta hujrasi bor edi. Ulugʻbek madrasasida yuzdan ortiq talaba istiqomat qilgan va taʼlim olgan.

Mirzo Ulugʻbek dovrugʻini jahonga tanitgan ulkan qurilishlardan yana bittasi 1420–1429-yillarda qurib bitkazilgan ulkan va hashamatli bino – Ulugʻbek rasadxonasidir. Ulugʻbek bu rasadxonaning dunyoda shu paytgacha bor boʻlgan barcha rasadxonalardan ulugʻ va har tomonlama ustun boʻlishini oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan. Boʻriboy Ahmedov bu haqida shunday hikoya qiladi: «Biz quraturgan rasadxona barcha jihatlari bilan ash-Shammosiyadagidan ham, Kasiyundogidin ham, Marogadagidan ham kam boʻlmasligi lozim». Ulugʻbek bu oʻrinda xalifa Maʼmun (813–833) zamonida, Bagʻdod yonida qurilgan, Yahyo ibn Mansur bosh boʻlgan mashhur rasadxonani, Xolid ibn Abdumalik bosh boʻlgan Damashq rasadxonasini, Halokuxon davrida (1256–1265) Marogʻada yirik qomusiy olim Nosiriddin Tusiy (1201–1274) rahbarligida qurilgan rasadxonalarni nazarda tutadi, albatta»².

Darhaqiqat, Ulugʻbek rasadxonasining oʻz davrida qiyosi yoʻq edi. Rasadxona silindr shaklida, uch oshyonali qilib quriladi. Aylanasini 47, balandligi esa 31 metr atrofida edi. Rasadxona qurilishiga Ulugʻbekning shaxsan oʻzi, u yoʻq paytlarda Qozizoda Rumi, Gʻiyosiddin Jamshid va Ali Qushchilar boshchilik qilishadi.

Binoning sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatiladi. Olimlar va xizmatchilar uchun rasadxona atrofida katta-kichik hujralar quriladi.

Rasadxonaning boy kutubxonasi boʻlib, unda qariyb 15 ming kitob saqlangan.

Rasadxona etagida Mirzo Ulugʻbek bobosi Amir Temuranʼanasiga koʻra, ikkita bogʻ qurdiradi. Ularning biri Bogʻi maydon, ikkinchisi Chinnixon nomi bilan ataladi. Bogʻi maydon oʻrtasida

¹ Ahmedov B. Ulugʻbek (esse). Toshkent, 1989, 109-bet.

² Ahmedov B. Ulugʻbek (esse). Toshkent, 1989, 109-bet.

qurilgan bino ikki qavatli bo'lib, devor va ustunlariga marmardan sayqal berilgan. Chinnixonadagi imoratlarning biri toshdan, ikkinchisi chinnidan bo'lgan. Chinni 1422-yilda Xitoydan keltiriladi.

Xullas, Mirzo Ulug'bek ham Amir Temur singari yaratuvchilik, bunyodkorlik bilan shug'ullanadi. Xalq va davlat ehtiyoji uchun juda ko'plab binolar: hammomlar, karvonsaroylar, sardobalar qurdiradi, umuman, Temur va temuriylar o'zlaridan keyin moddiy madaniyat bobida ulkan merosni qoldiradilar. Temuriylar xalqimizning buyuk me'morchilik san'ati durdonalarini dunyoning juda ko'plab qit'alariga tarqatadilar. Shohrux va Husayn Boyqaro avlodlari, Alisher Navoiy hazratlari azm-u qarori bilan Xurosonning turli shaharlarida barpo etilgan ulkan va go'zal tarixiy obidalar, boburiylar sulolasining to 1850-yillarga qadar o'tgan davr mobaynida Afg'oniston, Hindiston va Pokiston hududlarida yaratgan me'morchilik san'ati namunalari o'zining go'zalligi va hashami bilan shu paytga qadar ham har qanday ko'zni o'ziga maftun etib kelmoqda. Bu narsa Temur va temuriylar naslining, siz va bizning qalblarimizda o'z ota-bobo ajlodlarimiz bilan haqli suratda g'ururlanish va faxrlanish his-tuyg'usini uyg'otadi.

3. MA'NAVIY MADANIYAT, ILM-FAN TARAQQIYOTI

Temur va temuriylar davrida ma'naviy madaniyat, ilm-fan g'oyat darajada rivojlanadi. Taniqli filolog olim Ochil Tog'ayev «Oltin daraxt» maqolasida: «O'rta Osiyoda madrasa ta'limi X asrlarda paydo bo'lgan, ammo uning haqiqiy mukammal rivoji Amir Temur davriga to'g'ri keladi. Ba'zi manbalarda, uni Sharqda oliy ta'limning asoschisi, deb ataydilar. Amir Temurning harbiy, nazariy va amaliyot sohasidagi kashfiyotlarining o'zi dorilfunundir»¹, deb ta'kidlaydi.

Milliy madaniyatimiz muxoliflari Temur va temuriylar davrida o'lkamizda fan va madaniyatning ravnaq topganligini Sohibqironning harbiy safarlari chog'ida xorijiy yurtlardan fan, adabiyot namoyandalarini ko'chirib, Samarqandga olib kelganligi bilan bog'laydilar. Albatta, bu narsa hech qanday mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Chunki, birinchidan, Amir Temurga qadar ham Turonzamin-

¹ «Yosh leninchi». 1991, 13-mart.

dan dunyoni o'zlarining qomusiy ilmlari bilan lol qoldirgan buyuk alloma va siymolarning yetishib chiqqanligidir. Bular Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Buxoriy, As-Samarqandiy, Ash-Shoshiy, Al-Javxariy va boshqalardir. Ikkinchidan, Amir Temurgacha ham juda ko'p mamlakatlarni zabt etib, ming-minglab ustalar, olimlarni o'z yurtiga asir qilib, olib ketgan jahongirlar bo'lgan, ammo u erlarda madaniy hayotda o'zgarish deyarli bo'lmagan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, 1221-yilda Mo'g'ullar Buyuk Xorazmshohlar yurtini egalab, shahar va qishloqlarni vayronaga aylantirib, aholini qirg'in qilganlar va yuz minglab eng zo'r ustalar, me'morlar, olim va mutafakkirlarni Chingizxon saltanatining poytaxti Qoraqurumga olib ketganlar. Bo'lib o'tgan voqealardan 30–40 yilcha keyin Qoraqurumda bo'lgan italiyalik sayyohlar bu erda qariyb 2 million turli millatlarga mansub ustalar, olim va donishmandlarni ko'rganlar. Biroq ana shu olimlar, donishmandlar, hunarmand va ustalar o'zlaridan so'ng, Qoraqurumda biror-bir xotira qoldirdilarmiz? Yo'q, albatta.

Unda Temur zamonasida va undan keyingi davrda Turon yurtida ilm-fan, adabiyot va xullas, ma'naviy madaniyatning bu darajada barq urib rivojlanganligining sababi nimadan? Buning sabablari quyidagilardir:

1. Amir Temurning o'zi o'qimishli, savodxon va ma'rifatparvar inson bo'lgan. Faqat o'qimishli, savodli va ma'rifatparvar insongina olim-u ulamo va ziyoning yurt taraqqiyoti va el farovonligi hamda madaniy jabhadagi qadrini biladi.

2. O'z ona tilidan tashqari, fors va mo'g'ul tillarini yaxshi bilgan Amir Temur mamlakati taraqqiyotida, xalqning madaniy va ma'naviy kamolotida ilm-fan va ma'rifatning ahamiyatini juda-juda qadrlardi. Shu bois, ulug' amir o'z yurtida bo'lsin, harbiy yurishlar qilib borgan mamlakatlarida bo'lmasin, ularning millati, irqidan qat'i nazar, kasb-hunar egalari, ustalar, me'morlar, olim-u fuzalolar, adabiyot va san'at arboblarni juda-juda qadrlar, ular bilan doimo maslahatlashar, ularning fikr va xulosalariga doimo quloq solar edi. Ma'naviy madaniyat xodimlarining ishlash, yashash va ijod qilishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berardi. Bu o'rinda «Temur tuzuklari»da quyidagilarni o'qiyimiz: «Yettinchisi – sayyidlar, ulamo-yu mashoyih, oqil-u donolar, muhaddis¹lar, xabarchilar

¹ *Muhaddis* – Muhammad payg'ambar hayoti va faoliyati, diniy va axloqiy ko'rsatmalari (Hadis) haqidagi rivoyatlarni to'plash bilan shug'ullanadigan olimlar.

(tarixchilar)ni tanlangan e'tiborli odamlar hisoblab, izzat-u hurmatlarini joyiga qo'ydim.

Sakkizinchi toifa – hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarlari, ular saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir. Ularni o'z atrofimga to'pladim»¹.

Tarixchi Ibn Arabshoh haqiqatni tan olishga majbur bo'lgan: «Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayyid-u shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamolar va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko'rardi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, o'z ikrom-u hurmatini unga izhor etardi. Ularga nisbatan, o'z muruvvati bisotini yoyardiki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs ham yuritardi.

...Temur tarix (kitob)lari, xudoning rahmati va salomi bo'lg'ur anbiyolar «Qissalarini, podshohlar siyratlari va o'tgan salafklar haqidagi hikoyatlarni doimo – safarda ham, xatarda ham o'qitib, qunt bilan tinglar edi»².

Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» asarida Amir Temurning olim-u ulamolar bilan bo'lgan suhbatlaridan birini keltiradi. Amir Temur yig'ilganlarga qarata murojaat qiladi: «Fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar, sizlar esa menga nisbatan bundan qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o'z maslahatlaringiz bilan ko'maklashishingiz kerak. Mamlakatning ahvoli devonning suiste'mol qilinganligi va qilinayotganligi, oddiy odamlarning joylardagi hokimlar tomonidan qisib qo'yilishi kabi hollar hammadan ko'ra, sizlarga ayondir. Shular haqida ma'lumot bersangizlar, bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat va qonunlarga muvofiq chora-tadbirlarni aytasangizlar yaxshi bo'lurdi». U o'z aytganlariga amal qilib, lavozimlarini suiste'mol qilgan og'li Mironshohni va nabirasi Pirmuhammadni xalq oldida qattiq jazolaydi, so'ngra Mironshohni lavozimidan ham pastlatgan.

Albatta, Amir Temur yurtida ilm-fan ahli, ijodkor uchun yaratilgan bunday shart-sharoit, g'amxo'rlik tufayli Samarqand dunyoning ma'rifat markazlaridan biriga aylanadi va uning dovrug'i doston

¹ Temur tuzuklari. 55–56-betlar.

² *Ibn Arabshoh*. Amir Temur tarixi. 2-kitob. 71-bet.


bo'ladi. Buni eshitgan, ilm-fanga havas qo'ygan ijodkorlar o'z ixtiyor va tashabbuslari bilan ma'rifat markazi Samarqandga kela boshlaganliklari ehtimoldan ko'ra haqiqatga yaqindir. Ashraf Ahmedov XIV asrning o'rtalarida Qozizoda Rumiylar Turkiyaning Bursa shahridan o'z ixtiyori bilan Samarqandga kelganligini hikoya qiladi. Ammo bu bilan biz ilm-ma'rifat va ijod ahllarini Amir Temur o'z poytaxtiga olib kelganligini inkor etmoqchi emasmiz. Chet mamlakatlardan Samarqandga olib kelingan olimlar orasida Xusomiddin Ibrohimshoh Kermoniy singari tabib, mavlono Ahmad kabi falakiyotshunos va boshqalarning bo'lganligi bu fikrimizga dalildir. Ammo Amir Temur bunday ijodkorlarni poytaxtiga olib kelib gunohi azimga botmagan va xato qilmagan demoqchimiz. Buyuk Sohibqiron tufayli, uning e'tibori, saxiyligi va Samarqandda ilm-fan, adabiyot taraqqiyoti uchun shart-sharoit yaratganligi evaziga bunday tafakkur va qobiliyat egalari jahonga tanilib, mashhur bo'lgan bo'lsalar, ne ajab?

Xullas, aytmoqchimizki, Temur va temuriylar zamonasida Turonzamin o'lkasida fanning barcha sohalari gurkirab o'sadi, tabiiy va gumanitar fanlar sohasida bir qator buyuk olimlar etishib chiqadi, ular jahon madaniyati va faniga munosib hissa qo'shadilar. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini rivojlantirish aniq fanlarning rivojlantirishini talab qilgan bo'lsa, jamiyatning ma'naviy ehtiyoji gumanitar fanlarning taraqqiyotini talab etardi.

Temuriylar davrida ayniqsa, falakiyotshunoslik fani yuksaladi. Bu o'rinda Ulug'bek Qozizoda Rumiylar, G'iyosiddin Jamshid va Ali Qushchilar ijodining kamolot cho'qqisiga ko'tarilganligini ta'kidlash joiz.

Gumanitar fanlar sohasida katta yutuqlarga erishiladi. Tarix ilmi bobida sohibqiron Amir Temurning harbiy zafarli yurishlarini o'zining «Zafarnoma» asarida yoritgan Sharafiddin Ali Yazdiy, «Zubdatut tavorix» («Tarixlar qaymog'i») asarining muallifi Hofizi Abro', «Matlaus-sa'dayn» («Ikki baxtning boshlanmasi»)ni yaratgan Abdurazzoq Samarqandiy, 7 jildlik «Ravzat us-safo» («Soflik bog'i») muallifi Mirxond, «Xulosat-ul axbor» («Xabarlar xulosasi»), «Xabib us-siyar» («Yaxshi xulqlar») asarlarining muallifi Xondamir, «Badoyiul-vaqoe» («Go'zal voqealar») asarini yozgan Zayniddin Vosifiy va boshqalar barakali ijod qiladilar.


Badiiy ijod va tilshunoslikda Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Atoullo Husayniy, Koshifiy va boshqalar yuksaklik martabasiga erishadilar.



4. ULUG'BEK AKADEMIYASI

Mirzo Ulug'bek temuriyzodalar ichida fan va madaniyat taraqqiyotiga eng ko'p va salmoqli hissa qo'shgan hukmdordir. U Samarqandda birinchi falakiyotshunoslik akademiyasiga asos solgan siymo sifatida dunyoga nom taratadi. Bu so'zlar rivoyat yoki afsona emas, balki jahonning ulug' allomalari tomonidan tan olingan haqiqatdir.

Ulug'bek akademiyasini tan olgan va dunyoga taratgan kishi – bu fransuz yozuvchisi, faylasufi va tarixchisi Volter (1694–1778)dir. Bo'riboy Ahmedov o'zining «Ulug'bek» kitobida Volterning quyidagi so'zlarini keltiradi. «Transoksianada uning (Amir Temurning o'rniga taxtga chiqqan mashhur Ulug'bek Samarqandda birinchi akademiyaga asos soldi, yer kurrasini o'lchashni buyurdi va falakiyotshunoslik jadvallarini tuzishda ishtirok etdi»¹.



Ulug'bek rasadxonasi tarhi.

Chindan ham Ulug'bek tomonidan qurdirilgan rasadxona o'z davrining akademiyasi bo'lgan. Tarixchi olim, professor G. A. Hidoyatov bu haqida haq gapni aytgan «Samarqandda barpo etilgan Ulug'bek rasadxonasi ulkan madaniy yutuq bo'lgan ediki, jihozi va ilmiy yutuqlari jihatidan unga teng keladigan rasadxona o'sha davrda ham, undan ancha keyin ham yaratilmadi.

¹ Ahmedov B. Ulug'bek (esse). Toshkent, 1989, 112-bet.

Rasadxonada 1018 ta yulduz tasvirlangan katalog tuzildi, yulduzlarning belgisi o'ndan to'qqizigacha aniq bo'lgan turi burchaklari sinuslari va tangenslari natural qiymatlarining jadvallari, shuningdek yer hududidagi ko'p sonli nuqtalar koordinatalari (kenglik va uzunlik)ni qamrab olgan jadvallar ishlab chiqildi. Rasadxonada Ulug'bekning bevosita rahbarligida o'tkazilgan ishlar uning matematika, geometriya va falakiyotshunoslik sohasida chuqur bilimlar sohibi ekanligidan guvohlik berar hamda bir qancha amaliy vazifalar yechimi uchun katta ahamiyat kasb etardi».¹

Ulug'bekning bilimdonligi va mahorati to'g'risida G'iyosiddin Jamshid Koshiy 1417-yili Samarqanddan otasiga yozgan xatida quyidagilarni ta'riflagan: «Allohgga va Ne'matlariga ko'p shukurlar bo'lsinkim, yetti iqlimning farmonbardori islom podshohi donishmand kishidurlar. Men bu narsani odob rasmi yuzasidan aytayotganim yo'q. Haqiqat shuki, avvalo, u kishim Qur'oni karimning aksariyat qismini yoddan biladilar. ... Arab tilining naxv va sarfini yaxshi biladilar va arabchadan g'oyat yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishi fiqhdan ancha xabardorlar: mantiq, ma'nolarning bayoni va usullaridan ham xabardorlar.

U kishim riyoziyot (matematika) fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy mahorat ko'rsatganlarki, kunlardan bir kun otda ketayotib, 818 rajab oyining o'ninchi va o'n beshinchi kunlari orasidagi (milodiy 1415-yil 15–20-sentabr) dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini aniqlashni istadilar. Shunga ko'ra, otda ketayotib, xayoliy hisob bilan Quyoshning taqvimini (o'sha kuni) bir daraja va ikki daqiqa ekanligini topdilar. Keyin otdan tushgach (hisob to'g'riligini), bu bandan bechoradan so'rab oldilar...

...Inson bino bo'lganidan beri shu kungacha hali hech kimsa bu qadar aniq hisoblay olmagan edi.

Qisqa qilib aytmoqchimanki, u kishi bu fan sohasida g'oyat katta mahoratga erishganlar, yulduzshunoslikda Tallum amallarni yaxshi bajaradilar va chuqur dalillar bilan xuddi keragidek isbotlaydilar. «Tazkira» va «Tuhfa»dan shu qadar zo'r dars o'tadilarki, ularga hech qanday qo'shimcha qilishning hojati qolmaydi»².

Ulug'bek akademiyasida 1417-yilda dunyoning turli mamlakatlardan kelgan olimlarning soni 100 dan oshib ketadi. Ular orasi-

¹ *Hidoyatov G.A.* Mening jonajon tarixim. 184-bet.

² *Ahmedov B.* Ulug'bek (esse). Toshkent, 1989, 50–51-bet.

da adiblar, muarrixlar, xattotlar, musavvirlar, geograflar bor edi. Xususan, falakiyot va matematika sohalari olimlari sharafliroq va obro'liroq hisoblanganlar. Ayniqsa, bu borada Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ulug'bekning sodiq shogirdi Ali Qushchi, Mavlono Muhammad Havofiylar eng salobatli va nufuzli bo'lganlar.

Ulug'bek madrasasi darsxonalarida o'quv mashg'ulotlarining boshlanishi 1420-yilga to'g'ri keladi. Vosifiyning bergan ma'lumotlariga qaraganda, madrasaning birinchi mudarrisligiga Mavlono Muhammad Havofiy tayinlangan. Madrasa bitishga yaqin qolganda, qurilishda mehnat qilayotganlar bu erga tashrif buyurgan. Ulug'bekdan kim madrasaga mudarris etib tayinlanadi deb so'rashgan. Savolga javoban Ulug'bek mudarrislikka barcha ilmlardan xabardor kishini topajakligini aytadi. Shunda oddiy xizmatkorlar qatorida gishtlar orasida eski kiyimda o'tirgan Mavlono Muhammad bu lavozimga men munosibman, deb o'zini tanishtiradi. Ulug'bek Mavlono Muhammadni imtihon qiladi. Mavlono Muhammadning javoblaridan to'la qoniqish hosil qilgan Ulug'bek uni hammomga olib borib yuvintirib, kiyintirishga farmon beradi. Madrasa ochilishidagi birinchi ma'ruzani Mavlono Muhammad o'qiydi, Ma'ruzaning mohiyati shu qadar ilmiy va murakkab bo'lganki, uni hozir bo'lgan 90 olimdan faqat Mirzo Ulug'bek bilan Qozizoda Rumiy tushungan, xolos.

Madrasada ilohiyot ilmlaridan (Qur'on, hadis, tafsir.) tashqari, riyoziyot (matematika), xandasa (geometriya), ilmi hay'at (falakiyotshunoslik), tibbiyot (meditsina), tarix, geografiya, ilmi aruz (poeziya) singari dunyoviy ilmlar ham o'qitilgan.

Mirzo Ulug'bekning avlodlariga qoldirgan ilmiy merosi – asarlariga kelsak, ular son jihatidan ko'p emas. Ularning eng asosiysi «Zij»i bo'lib, bu asar «Ziji Ulug'bek», «Ziji Ko'ragoniy» nomlari bilan mashhur. Undan tashqari, Ulug'bek matematikaga oid «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», falakiyotshunoslikka oid «Risolayi Ulug'bek» (yagona nusxasi Hindistonda, Aligarx universiteti kutubxonasida saqlanadi), tarix ilmiga bag'ishlangan «Tarixi arba' ulus» («To'rt ulus tarixi») va musiqiy ilmlarni o'z ichiga olgan «Risolayi dar ilmi musiqa» («Musiqa ilmi haqida risola») kabi risolalarini yozgan.

Ulug'bek «Zij»i o'zining tarkibiga ko'ra, VIII–XI asrlarda boshlangan falakiyot ilmiga oid an'anani davom ettirgan bo'lsa-da,

uning ilmiy saviyasi va pog'onasi ilgarigi «Zij»lardan ancha yuqori bo'lgan. Bu asar kirish qism, muqaddima va to'rt maqoladan iborat. Ulug'bek asarning kirish qismida Qur'ondan oyatlar keltirib, falakiyotga oid kuzatishlarning zarurligini nazariy jihatdan asoslamoqchi bo'ladi.

«Zij»ning birinchi kitobi yetti bobdan iborat bo'lib, u eralar va kalendarlar masalalariga bag'ishlangan.

Ikkinchi kitob 22 bobdan iborat. Unda matematika va sferik falakiyotshunoslik muammolari ustida so'z boradi. Undan tashqari, ana shu ikkinchi kitobda va uchinchi kitobda sinuslar va tangenslar jadvallari keltiriladi. Kitobning to'rtinchi bobida Ulug'bek ekleptikaning (falakul buruj osmon ekvatoriga og'ish burchagining) mits-dorini keltiradi.

«Zij»ning uchinchi kitobi 13 bobdan iborat bo'lib, faqat falakiyotshunoslik masalalariga bag'ishlangan. Bunda Quyosh, Oy va besh sayyoraning harakatlari haqida so'z boradi.

Ulug'bek asarining oxirgi – to'rtinchi kitobi ikki bobdan iborat bo'lib, u asosan, ilmi nujumga bag'ishlangan. Tarixchi olim Abdulahad Muhammadjonov Ulug'bek jadvallari to'g'risida bunday deb yozadi: «Ulug'bekning astronomik jadvali o'sha zamon-dagi shunga o'xshash jadvallar orasida yuksak darajada aniqligi bilan ajralib turadi. Masalan, falak alburj tekisligining xatti istivoga og'maligi Ulug'bek jadvalida 23 daraja, 30 daqiqa, 17 soniyaga teng bo'lib, hozirgi hisob bo'yicha u 23 daraja, 30 daqiqa, va 49 soniyani tashkil etadi. Bu ikki raqam o'rtasidagi tafovut hammasi bo'lib, minus 32 soniyaga teng, xolos. Shunindek, Ulug'bekning yil hisobini hozirgi aniq hisob-kitoblarga solishtirgudek bo'lsak u bor-yo'g'i 1 daqiqa-yu 2 soniyaga farq qiladi. Bular XV asr uchun g'oyat yuksak aniqlik bo'lib, hozirgi zamon o'lchovlariga juda yaqindir»¹.

Ulug'bekning «Risolayi Ulug'bek» asari hali o'rganilmagan. Bu noyob asarning o'rganilishi ulug' bir ijodiy ish, yangi qirralarini ochishga yordam beradi. Buyuk olimning «Tarixi arba' ulus» («To'rt ulus tarixi») asarida turklarning avlod-ajdodlari, mo'g'ul qabilalari hamda Chingizxon vafotidan keyin tashkil topgan Ulug' yurt, Juchi, Chig'atoy va Elxoniyalar ulusining tarixi berilgan.

Ulug'bek akademiyasining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri – G'iyosiddin Jamshiddir. «Ulug'bek bilan hamnafas ijod qil-

¹ Muhammadjonov A. Ulug'bek Akademiyasi. «O'zbek adabiyoti va san'ati», 1993, 29-yanvar.

gan Jamshid «Ziji xoqoniy», «Bog'lar sayri» va «Osmon narvonini», matematikaga bag'ishlangan «Xorda va sinuslar haqida risola», «Hisob kaliti» va «Doira haqida risola» asarlarini yozgan.

Mirzo Ulug'bekning yana bir safdoshi Qozizoda Rumiydir. Ulug'bek uni ustozim, deb e'zozlaydi. Zero, Rumiy 1360-yilga yaqin tug'ilgan bo'lib, 20–25 yoshlar atrofida, ya'ni Ulug'bek tug'ilmasdan ilgari Samarqandga kelgan va Temur safiga o'tgan. Shu bois, Ulug'bek Qozizoda Rumiy, Mavlono Ahmad kabi zamonasining buyuk falakiyotshunoslari ta'sirida shakllanadi va uning bu fanlarga qiziqishi ortib boradi.

Ulug'bek akademiyasining iste'dodli vakillaridan yana biri Ulug'bekning ishonchli va sodiq shogirdi Ali Qushchidir (1403 – 1474). Ulug'bek Ali Qushchi Samarqandiyni o'z o'g'illari Abdulatif va Abdulazizlardan azizroq va qadrliroq hisoblar va uni «farzandi anjumand», der edi. Ali Qushchi zamonasining Ptolomeyi deb nom olgan. Uning falakiyot, arifmetika va algebraga oid oltita asari bor, Ali Qushchi falsafa ilmining katta bilimdoni bo'lib, butun dunyo moddiy zarrachalardan tashkil topgan deb hisoblaydi.

1449-yilda Ulug'bekning fojiali o'limidan so'ng, u tuzgan akademiya ham tarqalib ketadi. Ali Qushchi yana Samarqanddan Tabrizga boradi, u yerdan 1473-yilda Istanbulga o'tadi. Turkiya Sultoni Muhammad Fotih uni katta hurmat bilan qarshi oladi. Ali Qushchini As-Sofiya madrasasiga bosh mudarris etib tayinlaydi. Ali Qushchi bu yerda rasadxona qurdiradi, «Zij»ini Turkiyada tarqatadi. Turkiya orqali «Ziji» Yevropaga tarqaladi. Bugungi kunda «Zij»ning dunyoda 120 ga yaqin forsiy va 15 dan ortiq arabiy nusxalari mavjud.

Ulug' olim Ali Qushchi 1474-yil 17 dekabrda olamdan o'tadi. Uning qabri Ayyub Sulton qabristonidir.

Shunday qilib, Mirzo Ulug'bek jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shadi. Tarixchi olim Bo'riboy Ahmedov aytganidek, Mirzo Ulug'bek «...tirikligidayoq o'z iga haykal o'rnatib ketdi»¹. Ulug'bek «Zij»i buyuk bir falakiyotshunoslikka oid asar bo'lib, u o'rta asrlarda va undan ancha keyin ham Hindistondan to Atlantika okeanigacha bo'lgan hududda falakiyotshunoslikning rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Ulug'bek to'g'risida uning zamonadoshi Abdurazzoq Samarqandiy:

– *Chun Ulug'mirzo har ilmi handasa,
Natavon aft har hazoron madrasa.*

¹ Ahmedov B. Ulug'bek (esse). Toshkent, 1989, 229-bet.

(geometriya ilmida minglarcha madrasalardan ham Ulug'bekdek olimni topolmaysan) desa, Hazrat Alisher Navoiy Ulug'bekka quyidagicha ta'rif beradi:

*Temurxon naslidan Sulton Ulug'bek,
Ki olam ko'rmadi Sulton aningdek.
Aning abnoyi jinsi bo'ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.
Valek ul ilm sori topti chun dast,
Ko'zi olinda bo'ldi osmon past.
Rasadkim bog'lamish zebi jahondir,
Jahon ichra yana bir osmondir.
Bilib bu nav' ilmi osmoniy,
Ki andin yozdi «Zichi Ko'ragoniy».
Qiyomatga deganda ahli ayon,
Yozarlar oning ahkomidin ahkom.*

Xullas, millatimiz fahri hisoblanmish Mirzo Ulug'bekning nomi asrlar osha avlodlarimizning dunyoqarashini shakllantirishda faxrlanish, vatanparvarlik g'oyasining ma'naviy ozuqasi bo'lib, xizmat qilaverishga ishonchimiz komildir.

5. TARIXSHUNOSLIK

Temuriylar sulolasi hukmronligi davrida tarixshunoslik fanining ham buyuk namoyandalari yetishib chiqadi. Bunga shaxsan sohibqiron Amir Temurning tarix faniga bo'lgan katta hurmat va e'tiqodi sabab bo'lgan bo'lsa ajab emas.

XV asrda tarix ilmi sohasida yozilgan asarlarni sanab ko'rsatishning o'zi temuriylar davrida bu tarmoqning nechog'lik taraqqiy etganligidan guvohlik beradi. Ana shunday tarixiy manbalar ichida hozirgacha yetib kelgan, fors tilida yozilgan Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Hofizi Abro'ning «Zubdat at-tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiyning – «Zafarnoma», Fasih Ahmad Havofiyning «Mujmali Fasihiy», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla us-sa'dayn», Mirxondning «Ravzat us-safo», Xondamirning «Habib us-siyar» va ibn Arabshohning arab tilida yozilgan «Ajoyib al-mavdur fi tarixi Taymur» asarlaridir. Bu ro'yxatga yana 1404-yilda Samarqandga, Amir Temur huzuriga tashrif buyurgan ispan

sayyohi Ryui Gonzales de Klavixoning safar xotiralarini ham kiritish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida ismlari sanab o'tilgan asarlar orasida Dofizi Abruning «Zubdat at-tavorix» (1423–1427) va Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»si (1424–1425) tarixiy kechinma va voqealar bayonining izchilligi va batafsilligi bilan ajralib turadi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida sohibqiron Amir Temur tarixiga oid ma'lumotlardan tashqari, Temurdan oldingi o'tgan davr tarixi haqida ham bag'oyat qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Muallif bu asarni temuriylardan Shohruxning o'g'li Ibrohim Sultonning tashabbusi bilan yozgan. Ibrohim Sulton bobosi Temur haqida maxsus kitob yozdirishni niyat qilgan va 1419–1420-yillarda turli kotiblar – baxshi va munislar tomonidan Temur haqida turkiy hamda forsiy tilda yozilgan mavjud ma'lumotlarni to'plash haqida farmon bergan. To'plangan ma'lumotlar bo'lgan voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishilar hikoyasi bilan taqqoslangan so'ngra Sharafiddin Ali Yazdiyga bu hujjatlar bilan tanishish va Ibrohim Sultonga axborot berish topshirilgan.

Taniqli sharqshunos olim Asomiddin O'rinboyev «Sharq yulduzi» jurnalining 1992-yil 3-sonida bosilgan «Temuriylar davri-ning nodir yodgorligi» maqolasida quyidagilarni hikoya qiladi: «Zafarnoma»ning Temur tarixidan bahs etuvchi asosiy qismida Sharafiddin Ali Yazdiy shunday yozadi: «Podshohlikning barcha tomonlarida Temur haqidagi turkiy va forsiy tillarda bayon etilgan hikoyalarning hamma she'riy hamda nasriy nusxalari to'plab bo'lgach, ular bilan tanishish uchun uchta guruh tuzilgan, turkiy va forsiy tillarning bilimdonlari ikki guruhni, voqealarni. o'z ko'zlari bilan ko'rganlar esa bir guruhni tashkil etgan. Dastlab, Temur haqidagi har bir hikoya o'qilgan, agar u voqea bayoni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishining talqiniga to'g'ri kelmay qolsa, Ibrohim Sulton haqiqatni topish uchun turli shaharlarga choparlar yuborib, mazkur voqeani Temurning boshqa zamondoshlaridan surishtirib ham qo'shimcha ma'lumotlar to'plagan. Ibrohim Sulton aytib turgan va asarning dastlabki xomakisi qalamga olingan. Ana shu asosda Sharafiddin Ali «Zafarnoma» asarini yozgan. Ibrohim Sultonning buyrug'iga muvofiq kitobni bitish vaqtida sanalar, joy nomlari, ularning oraliq masofa haqidagi barcha ma'lumotlar juda sinchiklab tekshirilishi shart bo'lgan».

«Zafarnoma» asarini yozishda Sharafiddin Ali Yazdiyning shaxsiy kuzatishlaridan ham keng foydalanilgan. Muallifning rejasi va niyatiga ko'ra, asar muqaddima va uch maqoladan iborat bo'lishi

lozim edi. Birinchi maqolani Temurga, ikkinchisini Shohruxga va uchinchi Ibrohim Sultonga bag'ishlashga mo'ljallangan. «Zafarnoma»ning faqat birinchi qismi bizgacha yetib kelgan, xolos. Boshqa ikki maqola esa yo'q – ular Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan yozilmagan yoxud yozilgan bo'lsa-da, yo'qolib ketgan bo'lishi mumkin.

«Zafarnoma» xalq ommasi o'rtasida zo'r qiziqish o'yg'otdi va katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Bu haqida Sharafiddin Ali Yazdiyning zamondoshi, tarixshunos olim Abdurazzoq Samarqandiy bunday deb yozgan edi: «Qutli (fol) bu-yilning (828) (1424–1425) nodir voqealaridan (biri) «Zafarnoma» nomli ajoyib kitobning bitilishidir. Bu kitobni qalami husni xat bituvchi jahon xushta'blarining nozik so'zlisi, Eronning eng fazilatli kishisi, oqillik burjining ravshan yulduzi, matonat qutichasining duri, Ollohning rahmatiga cho'milgur mavlono Sharafiddin Ali Yazdiy yozib tamomlagan hamda mushkin raqam bilan xosu omning dimog'iga anbaq bo'y nasim yetkazgan, so'z ulug'ligini javza cho'qqisidan yuqori o'tkazgan».

«Zafarnoma» XV va XVI asrlarda qahramonlik qissasi janrida o'zbek tilida ikki marta – shoir Lutfiy va fors tilida mashhur shoir Abdurahmon Jomiyning jiyani Xotifiylar (vafoti 1521) tomonidan nazm etilgan. Undan keyin ham bu tarixiy asar bir necha marta turli tillarga ko'chirilgan.

Endi mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy shaxsi haqida to'xtaladigan bo'lsak, u Eronning Yazd shahridan uncha uzoq bo'lmagan Taft mavzeyida tug'ilgan (tug'ilgan yili noma'lum). 1415 va 1435-yillar orasida temuriylardan bo'lgan Ibrohim Sulton xizmatida bo'lgan. Bu yillarda Ibrohim Sulton Eronning Fors o'lkasining hukmroni edi. 1442–1446-yillarda esa Yazdiy Sultoniya, Qazvin, Ray va Ko'mni o'z ichiga olgan viloyatning hokimi bo'lmish Mirzo Muhammad Sulton saroyida xizmat qilgan. 1446-yilda temuriylar saltanatining oliy hukmdori Shohrux o'ziga bo'ysunishdan bosh tortgan nabirasi Mirzo Muhammad Sultonga qarshi qo'shin tortib boradi va uni isyonkorlikka undagan maslahatchilarini va tarafdorlarini qatl ettiradi. Gunohkorlar qatorida Sharafiddin Ali Yazdiy ham bor edi. Shohrux huzurida bo'lgan uning sevimli nabirasi Abdullatif (Ulug'bekning o'g'li) Ali Yazdiyning qattiq so'roq qiladi. Bundan qoniqish hosil qilgan Shohrux Yazdiyning jazolashni o'z nabirasiga topshiradi. Abdullatif esa Sharafiddin Ali Yazdiyning tezda Hirotga jo'natib yuboradi va o'limdan saqlab qoladi. Ammo manbalarga qaraganda, u tezda yana o'z ona shahriga qaytib keladi. Bu voqea

1447-yilda sodir bo'lgan: mo'ysafid, mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan 6 yoshdagi kelajak allomasi Alisher Navoiy Taft shahriga otasi G'iyosiddin bilan tashrif buyurganda uchrashgan. Filolog olim Aziz Qayumov qayd etganidek: «Alisherning Sharafiddin Ali Yazdiy bilan bo'lgan bu uchrashuvi ramziy ma'no kasb etardi... Bolaligida Ali Yazdiy tavajjuhiga sazovor bo'lgan Navoiy keyinchalik, o'z zamonasining zukko tarixchilariga homiy va ustoz bo'ldi. Chunonchi, balxlik Said Xonshohning og'li Mirxond Navoiyning taklifiga binoan umumiy tarix bo'yicha, katta asar yaratdi. Bu haqida Navoiy bunday deb yozgan: «Bu faqir iltimosi bilan ofariniydin bu kungacha tarixi jomiy bitibdurkim, tasifiga etibdur, inshoolloh tugaturga tavfiq topgaykim, tavorix orasida andin muayyanroq tarix bo'lmagusidir»¹.

Xullas, Alisher Navoiy homiyligida, Mirxondan tashqari, Xondamir, Vosifiy va boshqa tarixchilar kamolot shohsupasining yuqorisiga ko'tariladilar.

Alisher Navoiyning bu qadar yuksak bahosiga musharraf bo'lgan tarixshunos olim Mirxondning asari yetti jildli bo'lib, (so'nggi yettinchi jildi musavvada tarzida qolgan va nabirasi Xondamir tomonidan poyoniga yetkazilgan), u «Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo va-l-muluk va-xulafo» («Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimayi hollari haqida poklik bog'i») deb nomlanadi. Oltinchi jildi 1494–1496-yillari, yettinchi jildi 1521-yilda yozib tamomlangan. Xondamir nomi bilan shuhrat qozongan G'iyosiddin ibn Xumomuddin ibn xoja Jaloliddin ibn xo'ja Burxonuddin (880 – 1475/76–941/1534) Alisher Navoiyning zamondoshi, yoshligidan to Navoiy vafotigacha uning kutubxonasida xizmat qilgan va uning topshirig'iga binoan Sharq xalqlari tarixiga oid asarlar qoldirgan.

Alisher Navoiy vafot etgach, Xondamir (909) 1503-yildan e'tiboran, Xurosondagi siyosiy voqealar girdobiga tushib qoladi. U dastlab, Balxda Sulton Husayn Boyqaroning to'ng'ich og'li Badiuzzamon saroyida xizmatda bo'ladi. Shu paytda, Badiuzzamon Qunduz hokimi Xusravshoh (1500/01–1510)ga elchi yuborib, uni Shayboniyxon hujumidan ogohlantiradi va birgalikda Xurosonni himoya qilishga chaqiradi. Xondamir shaxsan Badiuzzamonning topshirig'iga binoan Xusravshoh huzuriga borgan elchilar safida bo'lgan. Bundan tashqari, Xondamir Badiuzzamonning topshirig'iga

¹ *Alisher Navoiy*. – T.: «Kamalak» 1991, 17- bet.

binoan Shayboniyxonga qarshi ittifoqni tashkil etish maqsadida Qandahor hokimi huzuriga ham jo'natilgan. Ammo Badiuzzamon qizining to'satdan vafot etishi bu safar rejasiga to'sqinlik qiladi va Xondamir Hirotga qaytadi. U 1506-yilda Shayboniyxon tomonidan Hirotning egallanishining shaxsan ishtirokchisi bo'lgan va Hirotni topshirishda shartlar ishlab chiqishda bevosita qatnashgan.

Temuriylar sulolasining qizg'in himoyachisi va tarafdori bo'lgan Xondamir Shayboniyxon hukmronligi o'rnatilgan Hirotda qola olmas edi. 1507–1510-yillarda u Shimoliy Afg'onistonda joylashgan Basht qishlog'ida badiiy ijod bilan shug'ullanadi. Hirotni safaviylar sulolasidan bo'lgan Shoh Ismoil egallagach, (1510), Xondamir Hirotga qaytib keladi. Shoh Ismoil vafotidan so'ng, (1527) u butunlay Hirot dan ketadi va Qandahorga, u yerdan Hindistonga – Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga (1528) boradi.

Xondamir Agrada Boburning eng yaqin odamlari qatoridan joy oladi va uning 1529-yilda Bengaliya va Gang daryosi sohil-lari bo'ylab uyushtirgan harbiy yurishlarida qatnashadi. Bobur vafoti (1530)dan so'ng, uning o'g'li Humoyun xizmatida bo'ladi (1530–1556). Xondamir Humoyun saroyida bo'lgan chog'ida «Humoyun-noma» asarini yozadi va bu xizmatlari evaziga u «Amir al-muarrixin» («Tarixchilar amiri») unvonini oladi. 1534-yilda Xondamir Humoyun bilan Manduga qaytib kelayotganda vafot etadi. Xondamirning o'z vasiyatiga binoan u Dehlidagi mashhur qabriston-ga, Nizomiddin Avliyo va Xusrav Dehlaviylar yoniga dafn etiladi.

Sharqshunos olim D. Yu. Yusupovning ma'lumotlariga qara-ganda, tarixchi olim Xondamir o'zining 63 yillik umri davomida taxminan o'n uchta asar yozgan bo'lib, ulardan bizgacha sakkiztasi yetib kelgan. Bular quyidagilardir: «Ma'osir ul-muluk» («Hamasr podshohlarining tarixi»). U Alisher Navoiyning iltimosiga ko'ra, va unga minnatdorchilik izhor etish tariqasida 904 (1498–1499)-yilda yozilgan. Bu asar podshoh hamda qadimgi donishmandlar-ning xayrli ishlari haqida aytilgan hikmatnoma gaplarni o'z ichiga oladi. Jumladan, Qayumarsdan Anushiravongacha, Odam Atodan Buzurgmehrgacha bulgan hamda Muhammad payg'ambar va imom-lar haqida bitilgan naqllardan iborat. So'ngra muallif ummaviylar, abbosiy-lar, somoniylar, g'aznaviylar va boshqa sulolalarga tegishli hukmdorlar tarixi va shular qatorida Qurd podshohlari va turk xo-

qonlari tarixini yoritgan. Asarning Oxirgi qismida Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyga zamondosh bo'lgan hukmdorlar, olimlar va donishmandlar haqida ma'lumotlar yoritilgan.

«Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-ahyor» («Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi») 904 (1498–1499) va 905 (1499–1500)-yillar orasida yozilgan va Alisher Navoiyga bag'ishlangan asar. Unda Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy zamonda Hirot va uning atroflarida olib borilgan ulkan qurilishlar (madrasalar, hammomlar, rabotlar, bog'lar, ko'priklar va boshqalar), shuningdek, o'sha zamonda o'tgan shoirlar, olimlar, donishmandlar, san'atkorlar haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

«Makorim ul-axloq» («Oliyjanob xulqlar») asari Alisher Navoiyga minnatdorchilik ramzida yozilgan, lekin Navoiy vafot etib, Xondamir unga kitobni taqdim etishga ulgurmaydi. Unda olim Navoiyning yuksak insoniy fazilatlari, oliyjanob axloqi, asarlari, uning tashabbusi bilan qurilgan binolar, shoirning zamondoshlari bo'lgan shoir, olim va fozil kishilar, shuningdek, Xurosonning o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Navoiy bilan Husayn Boyqaro orasidagi munosabatlar xususida hikoya qiladi.

«Dastur al-vuzaro» («Vazirlar uchun qo'llanma») Alisher Navoiy iltimosiga muvofiq 906 (1500–1501)-yilda yozilgan. Husayn Boyqaro va uning vaziri Amir Kamoliddin Mahmudga bag'ishlangan asar. Oradam to'qqiz yil o'tgach, 916 (1509)-yili qayta ishlangan va kengaytirilgan. Unda Sharq mamlakatlarining VII–XVI asrlardagi tarixi, jumladan, Movarounnahr va Xurosonda temuriylar sulolasi inqiroziga qadar o'tgan vazirlar, Chingizxonning vaziri, keyinroq mo'g'ullarning Xitoydagi noibi, xorazmlik Mahmud Yalavach hamda uning o'g'li Chig'atoy xonlarining Movarounnhrdagi vaziri Mas'udbek to'g'risida ma'lumotlar bor.

«Noman nomi» («Atoqli nomalar»)da 928 (1521–1522)-yilgacha kechgan voqealar bayon qilinadi. Bunday asar 929 (1523)-yilgacha yozilgan deyish mumkin, Boshqa nomlari «Insho-i G'iyosiddin» yoki «Insho-i G'iyosiy». Kitob insho ilmiga oid, («statistika: turli maktub va farmonlarni yozish qoidalarini o'rgatuvchi fan») Sharq mamlakatlarida o'tgan turli tabaqadagi tarixiy shaxslarga (shohlar, amirlar, sadrlar, qozilar, shayxlar, shoirlar) mansub maktublar namunalarini o'z ichiga oladi. Unda yana podsho va xonlarning yorliq hamda farmonlaridan namunalar va farmonlarni bitish tartiblari ham bayon etilgan. Asarning qimmatligi yana shundaki, u ba'zi bir

muhim mansablarning (muhtasib, parvonachi, munshiy, mustafiy, ihtisob (muhtasib), qalantar, mubashshir, hofizlar) kelib chiqishi hada bunday mansab egalarining haq-huquqlari, vazifalari xususida ma'lumotlar beradi.

Manbadagi ma'lumotlarga ko'ra, Mirxondning «Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo val-muluk val-xulafo» («Xalifalar, podsholar, avliyolar hayotiga oid musaffolik bog'ii») nomli asarining tugallanmay qolgan yettinchi jildini Xondamir 929 (1522–1523)-yilda yozib tamomlagan. Xondamirning eng yirik asari «Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar» («Inson zoti xabarlarini va do'stning tarjimai holi»)dir. Bu asar 927 (1520–1521) – 930 (1523–1524)-yillar davomida yozilgan va vazir Karimuddin Xoja Habibulloh Sovajiyga bag'ishlangan. Ushbu asarda qadim zamonlardan to 1524-yilga qadar Sharq mamlakatlari, Jumladan, Eron, Afg'oniston, Iroq va O'rta Osiyo mamlakatlarida bo'lib, o'tgan voqealar hikoya qilingan.

Xondamirning yana bir asari – «Humoyunnoma»dir. Bu asar «Qonuni Humoyun» nomi bilan ham mashhur bo'lib, Hindiston podshohi, Boburning o'g'li Humoyunga bag'ishlangan, «Humoyunnoma» 941 (1534–1535)-yilda yozib tamomlangan. Asarda Humoyun podshohlik qilgan davrda Hindistonda joriy etilgan yangiliklar, aholining uch tabaqaga, hokimiyatning esa turt idora usuliga bo'linishi va Humoyun tomonidan amalga oshirilgan me'morchilik qurilishga oid ma'lumotlar o'rin olgan. Xondamirning boshqa beshta asarining faqat nomlarigina ma'lum, xolos. Bular: «Osor ul-muluk val-anbiyo» («Podshoh va payg'ambarlar haqida hikoyalar»), «Axbor ul-axyor» («Yaxshi insonlar haqida xabarlar»), «Muntahibi tarixi vassof» («Vassof tarixidan saylanma»), «Javohir ul-axbor» («Xabarlar gavharlari») va «G'aroyib ul-asror» («Qiziqarli sirlar») dir. Xondamir o'z zamonasining yetuk vakillaridan biri bo'lgan. U nafaqat mashhur tarixshunos olim, ayni zamonda, «Noqiy» taxallusi bilan yaxshigina she'rlar ham ijod etganligini Alisher Navoiy alohida ta'kidlab o'tgan.

Xullas, temuriylar sulolasi homiyligida fan va madaniyatning barcha sohaları qatorida o'lkamizda tarixshunoslik fani sohasida ham kattagina muvaffaqiyatlarga erishiladi. Ana shu davrda yaratilgan ulkan tarixiy merosni chuqur va atroflicha o'rganib, uni hozirgi va kelgusi avlodlarga yetkazish O'zbekiston tarixshunos va sharqshunoslarining oliyjanob burchidir.

6. XALQ OG'ZAKI IJODI. BADIY ADABIYOT RAVNAQI

Qadimdan xalqimiz o'zining boy og'zaki ijod durdonalari bilan mashhur. Temur va temuriylar sulolasi davri bundan mustasno emas. Bu davrda xalq yangidan yangi dostonlar, qissalar, ertaklar, afsona va rivoyatlar, latifalar, qo'shiqlar, maqollar yaratadi. Bu ijod sarchashmalarida tun bilan kun, issiq bilan sovuq, o't bilan suv, adolat bilan adolatsizlik yaxshilik bilan yomonlik, mardlik bilan nomardlik, sezgirlik bilan loqaydlik kabi bir-biriga mutlaqo zid va qarama-qarshi kuch va g'oyalar to'qnashadi va oqibatda ijobiy kuch va g'oyalar tantana qiladi. Albatta, bu yerda xalq ommasining istak-xohishi, orzu-armoni o'z ifodasini topadi. Yaqin-yaqin kunlarga qadar kommunistik mafkura ta'siri va siquvi ostida xalq og'zaki ijodi namunalari zamon zayliga mos bir tarzda buzib xalqqa yetkazildi, haqiqiy xalq og'zaki ijodi mevalarini qanday bo'lsa, shundayligicha avlodlarga yetkazishda ziyolilarimizda jur'at va jasorat yetishmadi. Bunday noto'g'ri, bir tomonlama yondashuvni ulug' bobomiz Amir Temur faoliyatiga berilgan bahoda ham ko'ramiz. Buyuk sohibqiron obrazi shu paytga qadar faqat qora bo'yoqlarda: bosqinchi, kallakesar, qaroqchi, jallod, o'g'ri timsolida talqin etildi. Ulug' va yengilmas sarkarda, buyuk va donishmand davlat arbobi, ma'rifatparvar va elsevar amir, madaniyat va islom dinining himoyachisi Amir Temurning beqiyos, oliyjanob insoniy fazilatlari va xislatlari, uning dono aql-farosati va uddaburonligini tarannum etuvchi xalq og'zaki ijodi namunalari ommadan sir saqlandi. Adolat va haqiqatga, insof va diyonatga tashna ona xalqimizga avlodlar tomonidan yaratilgan ma'naviy meros boyliklarini qanday yaratilgan bo'lsa, xuddi shunday yetkazib berish bizning vijdoniy burchimizdir.

Quyida Sohibqiron Amir Temurning shaxsiy fazilatlaridan hikoya qiluvchi xalq og'zaki ijodidan ba'zi namunalar keltiramiz.

Amir Temur yoshlik chog'lari oz sonli qo'shini bilan Shahrisabzni olmoq bo'bdi, ammo uni ololmay qo'shini yengilibdi. Ortga qaytishga majbur bo'lgan Temur Qizil daryodan kechib o'tib, bir qishloqda kelib qo'nibdi. Qishloqda bir kampir yashar va uning bir echkisi bo'lib, faqat o'sha echkining suti bilan tirikchilik qilgan ekan. Amir Temur shu momoning uyiga kelib hol-ahvol so'rashgach, momodan ovqat qilib berishni so'rabdi. Kampir echki sutidan atala qil-

ib, yog'och tovoqda suzib beribdi. Temur och emasmi, shoshilib yog'och qoshiqda ataladan ichgan ekan, og'zi kuyib qolibdi. Shunda momo «sen ham Amir Temurga o'xshab shoshqaloq ekansan, bolam», debdi.

– Temurning shoshqaloqligini qayerdan bildingiz, momo? – deb so'rabdi bo'lajak Sohibqiron.

– Eshitishimcha, Temur oldin kichik-kichik qishloqlarni egallab kuch to'plagach, Shahrisabz bekligiga hujum qilsa g'olib kelardi. U esa bir yo'la bekligni olmoqchi bo'ldi-yu, yengildi. Shunga o'xshab sen ham shoshding va og'zingni kuydirding, Atalani avval tovoqning girdidan olib sekin-sekin yalab kuradi va so'ngra soviganini bil-gach, qoshiqni to'ldirib ichadi-da, – debdi kampir.

Shundan so'ng, Amir Temur: – Darxon momo, siz bilan ona-bola bo'layin, tilagingizni tilang, men o'sha Amir Temurman, – debdi.

Momo odamlar uchun ariq qazib, suv chiqarib berishni so'rabdi. Amir Temur momoning aytganini bajo keltirib, Tanxoz daryosidan ariq qazdirib, suv chiqarib beribdi. Shundan buyon bu qishloqning nomi Darxon bo'lib, odamlari dehlonchilik qilib, yashar ekan.

Yana bir misol:

Yosh Amir Temur oqsoq bo'lsa ham, boshqalardan baquvvat, epchil, yurakli ekan. U oqsoqligini tan olmay chopish poygalarida ham qatnasharkan. Bir kuni o'n-o'n besh bola poyga qo'yibdi va ular safidagi Amir Temur orqaroqda qolibdi, ammo belgilangan marraga yaqinlashganida boshidan do'ppisini olib ilgariga irg'itibdi. Do'ppi marraga birinchi tushibdi. Bolalar kim birinchi kelgani haqida bahslashib ketibdilar-u, hal etisha olmay bir donishmand huzuriga borishibdi.

Shunda Amir Temur donishmandga savol beribdi:

– Donishmand otaxon, ayting-chi, bosh ulug'mi yoxud oyoq

– Albatta, bosh ulug' bolam, – debdi donishmand.

Donishmandning javobidan so'ng, bosh kiyimi oldin marraga yetgani uchun Temur g'olib deb topilibdi.

Shuningdek, ajoyib og'zaki ijod durdonalarining Alisher Navoiy va boshqa ulug' zotlar to'g'risida ham to'qilgan namunalari ko'p.

Xalq og'zaki ijodining bu xilda tildan tilga o'tib bizgacha yetib kelgan turlaridan tashqari, yozma manbalar: «Ravzat us-safo», «Badoe' ul-vaqoe» kabi tarixiy asarlar va memuarlar hamda

«Muhokamatul-lugʻatayn» va «Mezonul-avzon» kabi ilmiy asarlarda ham oʻz aksini topgan xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan kerakli va gʻoyatda zarur maʼlumotlarni olamiz.

Xullas, xalq ogzaki ijodi har bir oʻrganilayotgan davrning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatini atroflicha oʻrganishda gʻoyatda qimmatli xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

Temur va temuriylar davrida fan va madaniyatning barcha tarmoqlari qatorida badiiy adabiyot ham rivojlanadi. Bu davrda dunyoviy adabiyotning gʻoyaviy doirasi kengayib, oʻz ijod mahsullari bilan xalqimiz nomini ulugʻlagan soʻz sanʼatining mohir ustalari yetishib chiqadi. Ular tomonidan yaratilgan badiiy asarlarda xalq hayoti tarannum etiladi, hayot illatlari satira oʻti ostiga olinadi, inson va adolat gʻoyasi ilgari suriladi, vafo, sadoqat, oliy himmatlilik, saxovatpeshalik marhamat va muruvvat kabi oliyjanob insoniy fazilatlar ulugʻlanadi. Zolimlik, zoʻrlik oʻzaro feodal urushlar, axloqiy va maishiy buzqlik illatlari qoralanadi va markazlashgan davlat barpo qilish gʻoyalari ilgari suriladi. Oʻzbek dunyoviy adabiyotining namoyandalari bu davrda oʻzbek adabiy tilining shakllanishi uchun jonbozlik koʻrsatadilar. Adabiy-badiiy ijodning gʻazal, ruboiy, qitʼa, tuyuq, qasida, noma, munozara, doston kabi janrlari rivoj topadi.

Temur va temuriylar davri maʼnaviy madaniyatining ulkan muvaffaqiyatlaridan biri – bu badiiy ijodning katta odimlar bilan rivojlanib borganligidir. Bu davrga kelib eski oʻzbek adabiy tilining shakllanish jarayoni, asosan, tugallanadi, dunyoviy adabiyot adabiy hayotning yetakchi yoʻnalishi boʻlib qoladi.

Oʻzlarining barakali va serqirra ijod durdonalari bilan Qutb Xorazmiy, Xoʻjandiy, Sayfi Saroyi, Durbek, Haydar Xorazmiy, Amiriy, Yaqiniy, Ahmadiy, Atoyi, Sakkokiy, Tugʻlixoʻja, Mavlono Imod Mavlaviy, Mavlono Qozi Muhsin, Mavlono Isʼhoq Lutfiy, Husayn Boyqaro va boshqalar bu davrda jahon madaniyati taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshadilar. Va nihoyat, biz bu davrda eski oʻzbek adabiy tilining asoschilaridan biri, oʻzbek mumtoz adabiyotining choʻqqisi, sheʼriyat mulkining Sultoni, buyuk davlat arbobi Alisher Navoiyning ijod gulshani maydonida parvoz etganligi bilan haqli suratda faxrlanamiz. Shunisi diqqatga loyiqki, bu davrda yozma badiiy adabiyot bilan bir qatorda xalq ogʻzaki ijodi ham ravnaq topadi. Xalq yozma va ogʻzaki badiiy ijodiyoti reaksiyon saroy adabiyoti va ijodiga qarama-qarshi oʻlaroq rivojlanadi va kamolotga yetadi.

SAYFI SAROYI (XIV asr)

Lirik va epik shoir, noshir va tarjimon Sayfi Saroyi XIV asr dunyoviy adabiyotining yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. Sayfi Saroyi to'g'risida bizgacha juda o'z ma'lumotlar yetib kelgan. Uning tarjimayi holi to'g'risida o'zining yozgan asarlaridan ba'zi ma'lumotlarni topish mumkin. Jumladan, Sayfi Saroyi bunday deb yozadi:

*Qamishli yurt manim tuvgon elimdi,
Bilik g'urbatga kelturg'on belimdi.
Kelib o'ldim saroyda she'r fidoyi,
Saroyning shoiri, elining gadoyi.*

Bu misralardan ko'rinadiki, Sayfi Saroyi «Qamishli yurt»da (bu Xorazm viloyatining hozirgi Sariqamish qishlog'i deb taxmin qilinadi) tug'ilgan, bilim olish, g'urbatga-musofirlikka yo'l tutadi va Saroyga¹ kelib she'r yozish bilan shug'ullanadi. Shoir taxallusni ham «Saroy»dan oladi. Shu bone uni «Saroyning shoiri» – hukmronlar saroyida bo'lgan deb faraz qilishga asos bo'ladi. Ammo nima bo'lganda ham Sayfi Saroyi xalqparvar va ma'rifatparvar bo'lib, elning gadoyi sifatida yashagan. U iste'dodli, qobiliyatli shoirlarni maqtagan, shaklbozlarni, ijod o'g'rilarini esa tanqid qilib, ularning ustidan kulib masxaralagan. Yuksak qobiliyat sohibi Saroyi fors-tojik, arab va yana boshqa tillarni yaxshi bilgan.

Sayfi Saroyi og'ir bir sharoitda yashab ijod etadi. Muttasil davom etib turgan feodal urushlar, qirg'inliklar, bosqinchiliklar va jabr-zulmning kuchayuvi ko'plar qatori shoirni ham o'z yurtini tark etib, o'zga yurtlarni makon etib, daydib yurishga majbur etadi. Buni biz shoirning hasrat va nadomat to'la quyidagi misrlarida ochiq ko'ramiz:

*O'sub tuprog'im uzra nayzalar, men evdin ayrildim,
Vatandin benishon o'ldim-da, o'zga yurtga evrildim.
Nechun menga falak javr ayladi, qanday gunohim bor,
Iloho ayla kam javring, man elga sodiq ul² erdim.*

Bir necha mamlakatlarni kezgan Sayfi Saroyi umrining so'nggi yillarini Misrda o'tkazadi. Bu erda Turonzamin yurtidan boshpana izlab kelgan juda ko'plab kishilar qatorida ilm-fan muxlislari ham

¹ Saroy nomi bilan Oltin O'rdada bir necha shahar bo'lgan. Saroyning shulardan qaysi birida bo'lganligi noma'lum.

² Ul – o'g'il.

bo'lganlar. Ular o'rtasida turkiy tillarga qiziqish kuchayadi, bu tillarda ilmiy-tadqiqot ishlari, lug'atlar va tarjima asarlari yaratiladi. Shular qatorida Sayfi Saroyi ham hijriy 793-yilda (1390/91) atoqli fors-tojik adibi Shayx Sa'diyning «Guliston» asarini o'zbek tiliga tarjima qiladi. Bu tarjima asari «Gulistoni bit-turkiy» deb nomlanadi.

Sayfi Saroyi hijriy 796-yilda (1394) «Suhayl va Guldursin» dostonini yozadi. Shoirning qachon vafot etganligi ma'lum emas. Sayfi Saroyini XIV asrning oxirlarida dunyodan o'tgan deb taxmin qiladilar.

Sayfi Saroyining ijod durdonalaridan bizgacha yetib kelgan birgina «Suhayl va Guldursin» dostonining o'ziyoq shoirning buyuk san'atkor bo'lganligidan dalolat beradi. Bu dostonda sevgi va sadoqat, mardlik va jasorat bosh mavzudir. Dostonda sahibqiron Amir Temur bilan To'xtamish o'rtasidagi tarixiy jang voqealari hikoya qilinadi. Bu jangda To'xtamish yengiladi, ko'p askarlar, shu jumladan, To'xtamishning o'zi va o'g'li Suhayl asir olinadi. Temurning qizi Guldursin juda bahodir va go'zal yigit Suhaylni sevib qoladi. Zindonga tushib uni qutqaradi. Sevishganlar sahroga qochadilar. Ochlik va suvsizlik, qumlik sahroda ularni toliqtiradi. Guldursin holdan toyib yiqiladi. Suhayl suv va yegulik izlab uzoq qishloqqa ketadi. Qaytib kelsa, Guldursin hayotdan ko'z yumgan bo'ladi. Bu fojiani ko'rgan Suhayl:

*Menga yaxshi bu kun yor bilan o'lmak,
Na lozim g'am bilan dunyoda qolmak.*

deydi va o'zining ko'kragiga pichoq sanchib sevgilisi jasadi ustida jon beradi.

HAYDAR XORAZMIY (XIV asr oxiri – XV asr boshi)

XIV asrning oxiri – XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan Haydar Xorazmiy o'zbek dunyoviy adabiyotining iste'dodli siymolaridan hisoblanadi. Haydar Xorazmiy o'z lirikasi va «Mahzanul-asror» dostoni bilan tilimiz va adabiyotimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan shoirdir.

Haydar Xorazmiyning hayot yo'li va ijodiy faoliyati to'g'risida ma'lumotlar juda oz. Faqat Navoiy «Majolis un-nafois» va «Muhokamatul-lug'atayn» asarlarida, Davlatshoh Samarqandiy «Tazkirat ush-shuaro» kitobida ba'zi bir ma'lumotlarni berganlar.

Navoiy Haydar Xorazmiyni Amiriy, Atoiy, Yaqiniy, Sakkokiy va boshqalar qatorida sanab, uni «xush ta'bb» shoirlardan deb hisoblaydi va «turkigo'y» bo'lganligiga ishora qiladi. Bu fikrni Davlatshoh Samarqandiy ham tasdiqlagan va Haydar Xorazmiy forsiyda ham go'zal va diqqatga sazovor she'rlar yozganligini qayd etadi. Haydar Xorazmiy Nizomiy Ganjaviy (1141–1209) ning «Panj Ganji»ga kiritilgan dostoni «Mahzan ul-asror»dan ilhomlanib, shu nomda va unga javoban doston yozgan. Bu dostonning ayrim satrlarida shoirning tarjimai holiga aloqador bo'lgan ba'zi ma'lumotlar bor. Ana shu ma'lumotlar suyanadigan bo'lsak Haydar Xorazmiy asli Xorazm yurtidan. So'ng, Fors viloyatiga kelib qolgan, Sulton Aleksandr ma'rifatparvar amirzodalardan bo'lganligidan o'z atrofiga ilm, san'at va adabiyot ahllarini to'plagan, o'zi ham elga manzur bo'ladigan she'rlar bitgan. Haydar Xorazmiy 1409–1414-yillar orasida «Mahzan ul-asror» dostonini yozgan deb taxmin qilinadi. Bu asarning bir necha qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, London, Parij, Vena, Qozon va boshqa shaharlarning kitob fondlarida saqlanadi.

Ozarbayjon xalqining ulug' shoiri Nizomiy Ganjaviy «Panj Ganji» bilan Sharq xalqlari epik poeziyasida yangi an'anani boshlab, beradi. «Xamsa» yozish yoki Nizomiyning «Xamsa»siga kirgan biror dostonga javob yozish katta an'ana bo'lish bilan birga ijodiy yetuklik va barkamollikning o'lchovi hisoblangan. Shu ma'noda Qutb XIV asrda «Hisrav va Shirin»ni erkin tarjima asosida yaratgan bo'lsa, XV asrda Haydar Xorazmiy Nizomiyning «Mahzanul-asror»iga javoban shu nomda doston yozadi.

Haydar Xorazmiyning dostoni ham Nizomiyning dostoni kabi falsafiy-ta'limiy asardir. U janr xususiyatlari, tuzilishi va shu kabi jihatlari bilan Nizomiy dostoniga yaqin turadi. Haydar Xorazmiy dostonining 16 bobdan (jami 23 bob, Nizomiyda 59 bob) iborat asosiy qismida, Nizomiydan farqli o'laroq, kiritilgan mav'izat hajm jihatidan juda mo'jazdir va hikmatli so'zlar tarzida yozilgan. Maqolatlar esa matn jihatdan xilma-xil bo'lib, mazmunan, Nizomiy maqolatlariga yaqinlari ham bor, tamomila yangilari ham bor. Hikoyalarda ham ayrim o'xshashliklar va yangi originallar mavjuddir.

Haydar Xorazmiyning «Mahzanul-asror» dostoni uni taraqqiy-parvar murabbiy va iste'dodli shoir sifatida ulug'laydi. Unda estetik-axloqiy qarashlar, hikmatli so'zlar misralarda o'ziga xos mohirona bir tarzda ifodalanadi. Haydar Xorazmiy insoniy fazilat-larni ulug'laydi, jamiyatga foyda keltirish, muruvvatli va himmatli bo'lishga da'vat etadi, yomon xulq-odobni, himmatsizlik va sahovat-

sizlikni qoralaydi. Shoir yoshi ulug' va tajribali kishilarning hayot yo'lidan o'rnak olish va xulosa chiqarish, o'z hayotiy faoliyatiga tanqidiy qarab, xato va kamchiliklarni tuzatishga alohida e'tibor beradi va tajribaga murabbiy sifatida qaraydi. Haydar Xorazmiy mehnatni va mehnat ahlini ulug'laydi, kasb-hunar va san'at egalariga o'z hurmat-e'tiqodini izhor etadi. U mohirlik bilan yozilgan kichik-kichik hikoyalarda katta va muhim bo'lgan muammoni yoritadi, xarakterli obraz va portretlar yaratadi.

Xullas, Haydar Xorazmiyning Sulton Aleksandr madhini ulug'lashga bag'ishlangan «Mahzan ul-asror» asari o'zbek she'riyatida epik adabiy tilda ijod durdonalari yaratish bobida katta tajriba bo'ldi. Bu doston bilan Haydar Xorazmiy o'zbek va ozarbayjon adabiyotining aloqalarini mustahkamlabgina qolmadi, balki o'zbek adabiy tilining taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shdi va ulug' Navoiydek buyuk so'z san'ati ustasining yetishib chiqishiga mustahkam zamin tayyorladi.

ATOIY (XV asr)

XV asriing birinchi yarmida yetishib chiqqan iste'dodli lirik shoirlardan biri Atoiydir. Uning tarjimaiy holiga oid ma'lumotlar deyarli yo'q. Faqat shoirning she'riy devoni va Alisher Navoiyning ba'zi asarlarida ayrim ma'lumotlar bor, xolos.

Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» asarida: «Mavlono Atoiy Balxda bo'lur erdi. Ismoil ota farzandlaridindur, darveshvash va xushxulq munbasit¹ kishi erdi. O'z zamonida she'ri atroq² orasida ko'p shuhrat tutdi.

Bu matla' aningdurkim:

*U sanamkim suv yaqosinda paritek o'lturur,
G'oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo'lur.*

qofiyasida abg'inasi bor. Ammo Mavlono ko'p turkona³ aytur erdi. Qofiya ehtiyojiga mukayyad emas erdi. Qabri Balx navosidadur», – deydi.

Yuqorida nomi tilga olingan Ismoil ota haqida Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida bunday deb yozadi: «...Ismoil ota...

¹ *Munbasit* – shod, xursand, ochiq chehrali.

² *Atroq* – turkey tilda so'zlovchilar.

³ *Turkona* – soda, ravon.

zohiran Xo'ja Ahmad Yassaviy...ning Ibrohim ota otlig' inisining o'g'lidir... Yoshi yuzga yaqin va avlodi o'n yetti yo o'n sakkiz bor erdi. Avlodi orasidan Is'hoq otani o'z qoyim maqomi qilib, olamdan o'tubtur...» Qoshiriy esa «Rashahot» asarida Ismoil otaning Xuzuyonda (Toshkent bilan Sayram o'rtasidagi qadimgi viloyat) tug'ilgani va Ahmad Yassaviyning tasavvuf oqimini davom ettiruvchilardan bo'lganligini aytadi.

Xullas, Ahmad Yassaviy shajarasiga mansub bo'lgan Atoiy o'z davrining yetuk olim va fozillaridan bo'lib yetishadi. Uning ijod darsxonasining mavzusi nihoyatda keng va rang-barangdir. Biz ularda fanning turli sohalariga oid xilma-xil ma'lumotlarni, Iskandar, Jamshid va Kaykovus singari tarixiy jahongirlar nomlarini, turli geografik atamalarni, ko'pgina badiiy asarlar va Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Yusuf, Zulayho, Gul va Navro'zlar kabi qahramonlarning nomlarini uchratamiz. Atoiy o'zbek va fors-tojik adabiyotining an'ana va tajribalaridan mohirlik bilan foydalanadi, xalq poeziyasi, turli qissalarni sevib o'rganadi va uni o'z ijodida qo'llaydi. Buni biz «Qissasin» radifli she'rida yaqqol ko'ramiz.

Atoiy faqirona hayot kechirsa-da, minnatli saroy hayotini havas qilmaydi. Balxdami, Hirotdami, qayerda bo'lmasin, ilm-ma'rifat, ijod bilan shug'ullanadi va uni har qanday boylik oltin-u durlardan ustun qo'yadi:

*Quloq solsang Atoiy so'zlariga
Nisori etkay sanga bu durri manzum.*

Shoir hayotni sevadi, undan zavqlanadi, shodlik va quvonchga to'ladi. Insofsiz va diyonatsiz zolimlarning noinsoniy va jirkanch qiyofalaridan nafratlanadi va g'azabga keladi, o'z g'am-alamlaridan taskin topish uchun shaharma-shahar kezadi. Hayot jumboqlari, kulfat va mashaqqatlar jo'shqin shoir qalbini bukolmaydi, uning ovozini bo'g'olmaydi, Atoiy ko'plab ajoyib she'rlar va 260 ta lirik g'azalni o'z ichiga olgan devon yaratib avlodlarga tortiq qiladi. Bu g'azallarda u dunyoviy sevgini ulug'laydi, go'zal tabiat ko'rki va ajoyib insoniy fazilatlarini tarannum etadi, xudbinlik, jirkanch va yaramas noaxloqiy illat va ko'rinishlarni masxaralab kuladi. Shoir badiiy ijodda va mahoratda ajoyib natijalarga erishadi, o'z davrining peshqadam, zukko san'atkorlaridan bo'lib yetishadi. Alisher Navoiydek so'z mulki sultonining diqqat-e'tibori va ijobiy bahosiga sazovor bo'ladi.

ALISHER NAVOIY (1441–1501)



Alisher Navoiy o'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri, olim va davlat arbobi, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Amir Xisrav Dehlaviy, Firdavsiy, Abdurahmon Jomiy singari ulug' siymolaridan biridir. U 1441-yil 9-fevralda Hirotda tug'ilgan. Alisherning otasi G'iyosiddin Kichkina va bir necha qarindoshlari temuriylarga yaqin amaldorlardan, buvilari esa temuriy shahzodalarning enagaridan bo'lgan. Atoqli muarrix Mirxond o'zining «Ravzat us-safo» asarida «Amir Alisherning bobosi Amir Temurning o'g'li Umarshayx bilan ko'kaltosh edi», deb yozadi. Navoiy go'dakligidan boshlab, temuriy shahzodalar bilan birga tarbiya topadi. Uni to'rt yoshidayoq o'qishga beradilar. Alisher Husayn Boyqaro bilan birga o'qiydi. Yoshlik chog'idan boshlab, san'at va adabiyotga mehr qo'yib, Farididdin Attor, Qosim Anvar va boshqa mashhur shoirlarning she'rlarini yod olishni mashq qiladi. Husayn Boyqaro bilan birga o'qishlik uzoqqa bormaydi. 1447-yilda Shohrux vafotidan so'ng, boshlanib ketgan toj-u taxt kurashi natijasida Navoiylar oilasi Iroqning Taft shahriga ko'chib ketadi. U yerda yosh Alisher mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy suhbatida bo'ladi. Ali Yazdiy Alisherning aqli, zehni va fahm-farosatidan hayratlanadi. 1452-yilda Abulqosim Bobur Hirotni egallagach, mamlakatda osoyishtalik va tartib o'rnatiladi. G'iyosiddin oilasi bilan Hirotga qaytadi va Sabzavor hokimligiga tayinlanadi. Yetti yoshligidan she'riyat ishqiga muhtalo bo'lgan Alisher o'qishni davom ettiradi. U o'qib yurgan kezlarda adabiyotdan tashqari, musiqa, rasm, xattotlikka ham qiziqadi. O'zbek va fors-tojik shoirlarining ijodlarini zo'r havas bilan o'rgangan Alisher Farididdin Attor, Xisrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy, Yassaviy, Lutfiy va Abdurahmon Jomiy singari ulug' siymolarni ustoz deb biladi. Zahiriddin Bobur, Davlatshoh Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Sulton Husayn Boyqaro, Kamoliddin Begzod va boshqalarni faxr bilan zamondoshim deb ataydi.

1456–1464-yillarda Alisher Navoiy Mashhadda yashaydi va Xuroson podshosi Abulqosim Boburning xizmatida bo'ladi. Bu erda

uning shoirlik qobiliyati ko'zga yorqin tashlanadi. O'zi shoir bo'lgan Abulqosim Bobur va uning saroyidagi atoqli shoirlar Alisherning yuksak va noyob zehni va qobiliyatiga yuqori baho beradilar. Tarixchi Xondamirning guvohlik berishicha, yosh Alisherning:

*Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bulur yulduz, nihon bo'lgach, quyosh,*

deb boshlanadigan g'azalini Mavlono Lutfiy quyidagicha baholagan ekan: «...Agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiydagi baytlarimni birgina shu g'azalga almashtirardim va bu ishning yuzaga chiqishini zo'r muvaffaqiyat hisoblardim».

Alisher otadan yosh yetim qoladi. Abulqosim Bobur yosh Alisherga ota o'rniga otalik qiladi. 15 yoshidan boshlab, Alisher maktabdosh do'sti Husayn Boyqaro bilan birga Abulqosim Bobur saroyida xizmatda bo'ladi. 1457-yilda Abulqosim Bobur vafot etadi. Navoiy Mashhadda qolib, o'qishni davom ettiradi, mantiq (logika), falsafa, riyoziyot (matematika) va boshqa fanlarni qunt bilan o'rganadi.

Navoiy Mashhadda ikki tilda she'rlar ijod qilishni davom ettiradi va «zullisonayn» (ikki til egasi) nomi bilan shuhrat qozonadi. O'zbek tilida ijod etgan she'rlariga «Navoiy» («navo» so'zidan), fors-tojik tilidagi she'rlariga esa «Foniy» («fano» so'zidan) taxallusini beradi.

Abulqosim Bobur vafotidan so'ng, Xuroson Abusaid hukmronligiga o'tadi. Mansab va davlat orzusida yurgan Husayn Boyqaro Marvga ketadi va taxt da'vogarligi uchun bu erda kuch to'plashga kirishadi.

Yoshlikdan Husayn Boyqaro bilan qadrdon do'st bo'lgan Alisher Hirot hukmdori Abusaidga qarshi bosh ko'targan badaxshoniyarlarga xayrixohlik izhor qiladi. Bundan g'azablangan Abusaid Alisher Navoiyni 1466-yilda Hirotidan Samarqandga badarg'a qiladi. Navoiy Samarqandda uch-yil g'oyat og'ir moddiy sharoitda ilim oladi. Vafoiy taxallusi bilan yaxshigina she'rlar yozib elga taniladi. Samarqandning ma'rifatparvar hokimi Ahmad Hojibek olim Fazlulloh Abullays va boshqalar Alisher Navoiyga homiylik qiladilar va katta yordam ko'rsatadilar. Ayniqsa, o'z zamonasining mashhur olimlaridan hisoblangan Fazlulloh Abullays Alisherning zehni va qobiliyatiga tan berib, unga katta yordam beradi, mudarrislik qiladi va Navoiyni o'ziga farzand deb biladi. Tarixchi Xondamir «Makorimul-axloq» asarida Fazlulloh Abullaysning Navoiyga ayri-cha munosabatini quyidagi jummalarda bitgan edi: «...Xoja janoblari

Oliy Hazratning o'tkir zehnlilik ekanini har vaqt maqtar edi va boshqa o'quvchilardan uni ortiq ko'rar edi». Botir Valixo'jayev «Alisher Navoiyning Samarqanddagi qadamjolari» maqolasida Xoja Fazlulloh Abullays haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi: «Zamonasining Abu Xanifasi (fiqh olimi), obni Hojibi (arab tilshunosi), Abu Ali ibn Sinosi deb e'tirof etilgan Xoja Fazlulloh Abullays haqida hozircha ma'lum bo'lgan ma'lumotlar shular. Alisher Navoiy ana shu alloma qoshida ikki yil huquqshunoslik arab tili va adabiyoti, she'rshunoslikdan saboq oldi...»¹

Temuriylar sulolasining ma'muriy va yirik madaniy markazlaridan biri bo'lgan Samarqand Alisher Navoiy faoliyatining shakllanishida g'oyat katta ro'l o'ynaydi. Bu erda u atoqli olimlar, san'atkorlar va Mirzo Xoja Sug'diy, Sayid Qutb Samarqandiy, Yusuf Safoiy, Shayxim Suhayliy kabi o'sha davrning mashhur shoirlari bilan uchrashadi, ulardan ko'p narsalarni o'rganadi va o'rni kelganda o'zi ham ularga saboqlar beradi. Samarqandda boy madaniy va ilmiy meros, ayniqsa, Ulug'bek madrasasi va Ulug'bek rasadxonasi Navoiy hayotida o'chmas iz qoldiradi. Navoiy o'zining bu taassurotlarini «Xamsa»sida ifoda etadi. Ayni zamonda, Navoiy siyosat ishlariga aralashadi, ko'plab gunohsiz kishilarni o'lim hukmidan saqlab qoladi, zolim amaldorlarni qoralaydi va ularga qarshi kurashadi. U tarixchi olim Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Muhammad Olim Samarqandiy va boshqalarga homiylik qiladi. Navoiy Xoja Ubaydulloh Xoja Ahrori Vali suhbatlaridan bahramand bo'ladi.

Xullas, Samarqand Alisher Navoiyning shakllanishida buyuk bir davrni tashkil etganidek Samarqand, Movarounnahr taraqqiyotida ham Alisher Navoiy o'ziga xos o'chmas iz qoldiradi. Samarqandda ilm-fan, san'at va adabiyotning yuksak kamolotida Alisherning hissasi kattadir.

1469-yilda Navoiyning do'sti Husayn Boyqaro Hirot taxtiga o'tiradi. Shu yili Alisher Navoiy ham Hirotga qaytadi. U maktabdosh do'sti Husayn Boyqaroni tabriklab, mashhur «Hiloliya» qasidasini yozadi.

Alisher Navoiy singari obro'li va tadbirli kishilarga muhtoj Husayn Boyqaro maktabdosh do'stining Hirotga tashrif buyurganligidan xursand bo'ladi, uni saroyga chaqirib muhrdorlik vazifasiga qo'yadi. Bu katta lavozim edi, albatta.

Navoiyning xalq orasida obro'-e'tibori osha boradi. U oddiy xalq manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadi, zolim amir-amal-

¹ «Muloqot», 1991, 2- son.

dorlar va mamlakatni bo'lib yuborishga intilayotgan shahzodalarga qarshi kurashadi. Navoiy do'sti Husayn Boyqaroga qarshi uyushtirilgan Yodgor Muhammad fitnasini fosh qiladi va uni bartaraf etadi. Navoiyning talabi bilan xalq gardaniga haddan tashqari, soliqlarni oshirib, zulmlarni kuchaytirayotgan amaldorlar o'z vazifalaridan chetlatiladi. Bunga 1470-yilda mamlakat poytaxtida ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni misol bo'la oladi. Alisher Navoiy xalq tomonida bo'ladi. Xuroson xalqini xo'rlagan bek va amaldorlar qattiq jazolanadi. Xususan, ana shu voqeadan so'ng, Alisherning shuhrati xalq orasida keng tarqaladi. O'z hokimligining dastlabki yillarida ancha sezgir va ziyrak bo'lgan Husayn Boyqaro 1472-yilda Navoiyni amirlik (vazirlik) lavozimiga tayinlaydi. Navoiy o'z vazirlik faoliyati davomida xalq va mamlakat manfaati yo'lida juda ko'plab foydali va ibratli ishlarni amalga oshiradi. Tarixchi Xondamirning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Navoiy mamlakatda madaniyat, qurilish va obodonchilik ishlarini rivojlantirishda Husayn Boyqaro tomonidan ajratilgan davlat xazinasini mablag'laridan tashqari, bevosita o'zining shaxsiy boyliklarini ham sarf qilgan. Buyuk shoirning zamondoshi, taniqli forsiy zabon shoir Mavlono Binoiy o'zining Navoiyga bag'ishlab yozgan qasidasida quyidagilarni qayd etadi: «Sulton davridagi Amir Alisherning vasfini aytmoqchiman Men uning barcha fazilatlarini tasvir etmoqchiman. Uning davrida Hirot eng go'zal, obod bo'lib, tikanzorlar ham bog'ga aylandi. Olim-u fozillar, shoir-u san'atkorlar shahriga aylandi. Adabiy muhit va madaniy hayot yuksaldi. Hirotidagi imoratlar uni jahondagi barcha shaharlardan chiroyli qildi»¹.

Zero, Samarqandda og'ir iqtisodiy qiyinchilikda yashagan Navoiy Hirotga qaytgach, otasidan qolgan juda katta mol-mulk va davlatga egalik qiladi. Uning nafaqat Hirotida, balki Sabzavor, Mashhad va boshqa viloyatlarda ham juda ko'plab mol-mulki va yerlari bor edi. Navoiy bu mulkda ishlovchi mehnatkashlarga himmat va marhamat bilan qarardi, oliq-soliqlarni ancha yengillashtirardi, yetim-yesirlarga, musofirlarga, ilm-fan, san'at va adabiyot ahlilariga in'om-ehsonlar qilardi. Taniqli filolog olim Aziz Qayumov «Alisher Navoiy» risolasida bergan ma'lumotlarga qaraganda, Navoiy jamg'armasi hisobiga Hirotida va butun Xuroson mamlakatida juda ko'p binolar, Madrasa, shifoxona, karvonsaroy, ariq, ko'priklar, yo'llar barpo etadi. Hirotidagi «Ihlosiya» madrasasi, uning qar-

¹ *Abduazizov A. Jahonaro. «Xalq so'zi», 1991-yil, 29 -may.*

shisidagi «Xalosiya» xonaqohi, Injil arig'i bo'yidagi masjid jome, tib ilmi o'qitiladigan «Shifoiya» madrasasi, «Nizomiya» madrasasi, Marzdagi «Xisraviya» madrasasi, Hirot dan tashqaridagi «Raboti ishq», «Raboti sang», shoir Attor qabridagi maqbara, Nishopur atrofidagi joylardan biridagi «Raboti Yazdbod», Gulast bulog'idan Mashhadga tortilgan ariq (uzunligi 70–80 km) va boshqa juda ko'p inshootlarni Navoiy bino qildirgan. Tarixchi Xondamir shulardan 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko'prik 8 hammom, ko'pgina to'g'on va masjidlarni nomma-nom keltiradi. Bunday inshootlarning soni 300 dan ortiqroqdir. Navoiy yana podshoh saroyiga, ilim va fazl ahliga ehson-sovg'alar yuborib turar edi. Aholiga solingan soliqlarni o'zi to'lagan paytlari ham bo'lgan. 1500-yili Hirot shahri va uning atrofidagi aholidan 100 ming kepakiy solig'i yig'iladigan bo'ladi. 50 ming kepakiyni Hirot xalqidan undirib olish kerak edi. Bu maslahat Navoiyga xabar qilinganda u hozirgi fursatda xalqqa o'rinsiz soliq solish Sohibqiron davlatiga munosib bo'lmas, elda norozilik uyg'otar, deb shuncha pulni o'zi to'lab yuborganligi, xalq esa bundan g'oyat minnatdor bo'lib, uni duo qilganligi haqida ma'lumot bor.

Alisher Navoiyning butun yer-suvi, mol-mulkidan har kuni 18 ming shohruxiy dinor miqdorida daromad kelar, bu pullar yuqoridagi kabi xayrli ishlarga sarf etilar edi.

Alisher Navoiyning ibratomuz bunday xayrli va savob ishlari saroydagi g'animga yoqmaydi va ularning g'azabini uyg'otadi. Navoiyga qarshi ig'vo, fitna va bo'hton avj oladi. Navoiy 1476–1477-yillarda saroy fitnalariga javoban vazirlik mansabidan iste'fo beradi va 11 yil mobaynida davlat ishlariga aralashmaydi. U, Xondamir aytganidek: «...Bir soatlik adolat oltmish yillik ibodatdan afzal», degan naqlga amal qiladi.

Navoiy saroydan ketgan bo'lsa-da, siyosatdan uzoqlashmaydi. Do'sti Husayn Boyqaroga ishonch his-tuyg'ulari bilan yashaydi. Vazirlik mansabidan ketgan Alisher Navoiy ilmiy, badiiy ijod ishlariga sho'ng'ib ketadi. U o'zbek adabiy tilini taraqqiy ettirish, bu tilda katta badiiy durdonalarini ochib, uning katta imkoniyatlarini ko'z-ko'z qilish va turkiy xalqlar birligini mustahkamlash g'oyalarini ilgari suradi. Buyuk shoirning bu o'rinda:

*Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.*

degan so'zlari goyatda ibratlidir.

Ayni zamonda, Alisher Navoiy fors-tojik tilini hm o'z ona tilidek sevadi, uni tinmay o'rganadi va bu tilda g'oyat go'zal ijod durdona-

larini yaratadi. 1476-yilda mashhur «Tuxfatul-afkor» nomli forscha asarini yozadi.

Alisher Navoiyning shakllanishi va kamolotida fors-tojik adabiyotining buyuk vakili, shoir va olim Abdurahmon Jomiy (1414–1492)ning xizmati kattadir. Navoiy Jomiyning Maxdumi Nuron (Nurli Maxdum) deb ataydi. Har ikki ulug' zot bir-birlari bilan do'st, hamfikir, ustoz va shogird bo'lgan. Bu yaqinlik, birodarlik va do'stlik o'zbek va tojik xalqlarining qadim-qadimdan birodarligi, qon-u qarindoshligi va do'stligining yorqin namunasidir. Jomiy «Xamsa»dan oshirib yetti doston yozgan va ularni birlashtirib, «Haft avrang» deb atagan. Undan tashqari, «Bahoriston» kitobi, uch she'rlar devoni, Jomiy yozgan o'ttiz sakkiz asarning ro'yxatini o'z ichiga olgan «Xamsa-tul muta-hayyirin» («Besh hayratda qolganlar») kabi asarlar bu ulug' siymoning daho kuchiga guvohdir. Jomiy bilan Navoiyning birlashtirgan va do'stlashtirgan narsa faqat ular o'rtasidagi hamfikrlik falsafiy qarashlar birligigina emas, balki ularning tabiati, kishilarga munosabatlari, dunyoqarashlari, insoniy fazilatlarining ham yaqinligi va deyarli bir xilda bo'lganligidir. Navoiy tug'ilganda Jomiy 27 yoshli yetuk shoir bo'lgan. Yosh farqi shu darajada katta bo'lsa-da, Jomiy va Navoiy bir-birlariga juda yaqin bo'lganlar. Jomiyning Navoiyga yozgan 337 xati¹ bu fikrimizning yorqin dalilidir. Navoiy

Jomiyning ulug'lab yozadi:

*Ey yaratuvchi, bu ma'no durlarining dengizi,
Bu bilim, fazilat gavharlarining koni.
Sen uni olam ahlining joni qilib, yaratding,
Olam eliga bu jonni hamisha kasib etgil.*

1483-yilda Navoiy o'zining shoh asari «Xamsa»ni yozishga kirishadi. Bu asarni Navoiy ikki yildayoq yozib tamomlaydi. «Xamsa» besh dostonni o'z ichiga oladi. 1483-yilda «Xamsaning birinchi dostoni «Hayratul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi»), 1484-yilda «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ayi sayyor» («Yetti sayyora»), 1485-yilda «Saddi Iskandariy» («Aleksandr devori») dostonlarini yozib nihoyasiga yetkazadi. Bu dostonlarda Alisher Navoiy o'zi yashagan davrning juda muhim muammolarini falsafiy tarzda talqin etadi, ilg'or va ijobiy fikr yurituvchi ulug' bir mutafakkir sifatida bu muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatib beradi. Ulug' shoir dostonlaridagi asosiy g'oya va mavzu

¹ «Fan va turmush», 1989. 11-son 20-bet.


mehnatkash xalq manfaatlarini har narsadan ustun qo'yish, adolat va insof, mardlik va qahramonlik, sof sevgi va muhabbat, halollik va rostgo'ylik, go'zallik va nafosatni ulug'lash, mehnatni butun borliqning boshlang'ich ibtidosi va asosi deb bilishdir. Navoiy dostonlaridagi asosiy qahramonlar – Farhod, Shirin, Layli va Majnun kabi obrazlar insonlardagi barcha ulug' va oliyjanob fazilatlarini o'zlarida mujassamlashtirgan. Navoiy o'z «Xamsa»si bilan o'zbek tilining qudratli kuchini namoyish qiladi. Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviylar bilan «Xamsa»chilikda ijodiy musobaqada katta muvaffaqiyatlarga erishadi.

Alisher Navoiy «Xamsa» asarini yozib tugatib, Husayn Boyqaroga taqdim etganda podsho shoirga ta'zim qilib: «Siz mening pirimsiz», deb so'ng, oq otga o'tkazib o'zlari o'zangidan ushlagan holda piyoda yurib Hirot ko'chalarini aylantirgan ekan. Bu ulug' shoirga nisbatan, dono, aqlli va farosatli podshohning insoniy munosabatidan bir lavhadir, xolos.

Alisher Navoiy «Xamsa»dan tashqari, lirik she'riyatning ulug' bir vakili sifatida ham dunyoda nom qoldirgan. Uning o'zbek tilida yaratgan she'rlaridan uch marta devon tuzilgan; Bulardan birinchisi (1466–1482) «Badoe' ul-bidoya» («Badiiylik ibtidosi»), ikkinchisi (1482–1492) «Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar»), uchinchisi va eng mukammali (1492–1499) «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasini») devonidir. Bu lirik xazina Alisher Navoiyning o'zbek tilida yozgan 45 ming misraga yaqin she'rlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Navoiy «Foniy» taxallusi bilan fors-tojik tilida 12 ming misradan ziyod she'rlar yozadi. U «Devoni Foniy» nomi bilan chop etilgan.

Alisher Navoiyning «Xazoyinul-maoniy» devoni o'z ichiga 16 lirik janrni oladi va unda 3130 she'r mujassamlangan. Ulug' shoir «Xazoyinul-maoniy»ga kirgan she'rlarini o'z hayotining to'rt davriga moslashtirib, shartli ravishda to'rt devonga bo'ladi. Bu devonlar quyidagicha nomlangan: «G'aroyib us-sig'ar», «Navodir ush-shabbob», «Badoyi ul-vasat» va «Favoyid ul-kibar». Bu xalq orasida «Chor devon» nomi bilan mashhurdir.

Navoiyning xalqchil asarlari uning obro'siga yana obro' qo'shadi. Husayn Boyqaro saroyidagi Majididdin boshliq ig'vogar kuchlar bundan g'oyatda tashvishda edilar va ular Navoiyning Hirotida qolishini o'zlari uchun g'oyatda xavfli deb bilardilar. Bu davrda Husayn Boyqaro aysh-u ishrat va kayf-safoga ruju qo'ygan, davlat moddiy jihatdan og'ir ahvolga tushib qolgan edi. Saroydagi



Navoiy Devoni qo'lyozmasining sahifalari.

g'animlar bu vaziyatdan ustalik bilan foydalanmoqchi bo'ladilar. Navoiyning talabi bilan saroydan chetlashtirilgan Majididdin biror-bir katta mansabni egallash maqsadida, bir necha tuman aqchaga muhtoj bo'lgan Husayn Boyqaro xazinasiga bir yo'la 2000 tuman aqcha keltirib topshiradi. Shu pul bilan u saroy ishonchini qozonadi va vazirlik lavozimiga tayinlanadi. Ammo Husayn Boyqaro bu ishni Navoiy ma'qullamaganligidan tashvishlanadi. Nihoyat, Alisher Navoiy dushmanlarining talabi bilan 1487-yilda Astrobodga hokim etib tayinlash niqobi ostida poytaxt Hirotidan surgun qilinadi. Astrobodda Navoiy adolat o'rnatadi, tartib-intizomni yo'lga qo'yadi, xalqda jabr va sitam qilgan amaldorlarni jazolaydi, obodonchilik ishlari bilan shug'ullanadi, adabiy ijod ustida ishlaydi, fan, madaniyat xodimlariga murabbiylik va homiylik qiladi. Navoiyning dushmanlari uni Astrobodda ham tinch qo'ymaydilar. Bir necha bor uning joniga qasd qiladilar. Navoiy bir necha bor Hirotga qaytishga Husayn Boyqarodan ijozat so'raydi. Uning iltimoslari javobsiz qoldiriladi. 1488-yilda Navoiyni zaharlab o'ldirishga qasd qilingan fitna fosh bo'lgach, Husayn Boyqaro uning Hirotga qaytishiga ijozat beradi.

Navoiy Hirotida hech qanday rasmiy lavozimni qabul qilmaydi, «janobi oliyning yaqini» sifatida siyosat ishlariga aralashadi va umrining oxiriga qadar ilmiy, adabiy ijod bilan mashg'ul bo'ladi. Ulug' shoir bu davrda o'zining asosiy diqqat-e'tiborini Sulton Husayn

Boyqaro bilan uning farzandlari o'rtasidagi toj-u taxt va davlat talash mojarolarini bartaraf etishga qaratadi. Albatta, bu ishlar Navoiyning tinka-madorini quritadi. Buning ustiga shu yillar davomida Navoiy uchun g'oyatda musibatli voqealar birin-ketin sodir bo'ladi. 1492-yilda Abdurahmon Jomiy vafot etadi. Bu voqea Navoiyni g'oyat qattiq iztirobga soladi.

Balx hokimi lavozimini bajaruvchi Darvesh Ali o'z akasi Navoiyga nisbatan, Majididdin tomonidan uyushtirilayotgan ig'voldan g'azablanib, Husayn Boyqaroga qarshi isyon ko'taradi. Husayn Boyqaro Majididdinni vazirlikdan chetlashtiradi. Biroq Majididdin Navoiyga nisbatan, ig'vo va bo'htonni davom ettiradi. U Darvesh Ali isyonida Navoiyning qo'li borligiga Husayn Boyqaroni ishontiradi. Husayn Boyqaro Balxga Darvesh Aliga qarshi qo'shin tortganda Navoiy u bilan birga borishga majbur bo'ladi. Darvesh Ali isyoni bostirilgach, Navoiyning bu isyonga aloqasi yo'qligi ma'lum bo'ladi. Husayn Boyqaro Darvesh Ali bilan yarashadi. Ammo ko'p o'tmay u vadasidan qaytib, Darvesh Alini zindonga soladi. Majididdin saroydan chetlatilgan bo'lsa-da, Husayn Boyqaro saroyida ijobiy o'zgarishlar yuz bermaydi. Sulton Husayn kayf-u safoni avjga mindiradi. Majididdin saroydagi ziddiyat va qarama-qarshiliklarni yanada cho'g'lantiradi. U Husayn Boyqaroning mastligidan foydalanib, shohning sevikli xotini Xadichabegim bilan birga fitna uyushtiradi. Husayn Boyqaro og'li Badiuzzamonning og'li – nabirasi Mo'min mirzoning qatl etilishi to'g'risidagi buyruqda imzo chekadi. Bu ota-bola o'rtasida qattiq mojaroning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. 1499-yilda esa Husayn Boyqaro yana bir ig'voning domiga tushadi va Navoiyning qarindoshi va sevikli shogirdi shoir Mirhaydar Sabuhiyni o'ldirtiradi. Bunday voqea va hodisalar ulug' shoirning ruhiy holati va salomatligiga albatta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ammo shunga qaramasdan Alisher Navoiy buyuk ijodiy ishlarini davom ettiradi. 1488–1501-yillar davomida u Hirotda bir qator shoxona asarlar yaratadi. Navoiy «Tarixi muluki ajam» («Ajam shohlari tarixi») asarini tarixiy manbalardan keng foydalangan holda yaratadi. Qadimgi xalq afsonalarini qayta ishlaydi. 1490-yilda yozilgan «Holoti Sayid Hasan Ardasher» nomli asar shoir va ma'rifatparvar inson Sayid Hasan Ardasher haqidadir. Navoiyning «Risolayi Muammo» kitobi 1491-yilda yozilgan bo'lib, u muammo janriga bag'ishlangan. Xuddi shu yili ulug' shoir «Majolisunnafois» nomli tazkirasini yozishga kirishadi. Unda XV asrda yashab ijod qilgan 450 dan ortiq shoir va yozuvchilarning hayoti va faoli-

yati to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beradi, ularning asarlari-dan ayrim parchalarni keltiradi. Navoiy 1491-yildan keyingi davrda Husayn Boyqaro va boshqalarga yozgan maktublarini to'plab, «Munshaot» nomi bilan kitob qilib, chop ettiradi. Ayni paytda, u fors-tojik tilida yozgan maktublarini ham alohida kitob xoliga keltiradi. Bu xatlar Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati, uning g'oyaviy va ilmiy dunyoqarashi hamda ulug' shoir yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini o'rganishda g'oyat qimmatli manba hisoblanadi. Navoiyning 1492-yildan keyin yozilgan «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi») asari sher tuzilishi, aruz vazni haqida ham nazariy, ham amaliy ma'lumotlar beruvchi asardir, XV asrda yashab ijod etgan falsafiy shoir va mutafakkir Pahlavon Muhammad haqida Alisher Navoiy o'zining «Holoti Pahlavon Muhammad» badiiy-biografik asarini, 1496-yilda so'fiylar haqida «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabadasi») asarini yozib tamomlaydi. 1498–1499-yillarda shoir o'zining «Lison ut-tayr» falsafiy dostonini yozadi. Ana shu asar bilan deyarli bir vaqtda Navoiy o'zining mashhur lingvistik asari «Muhokamat ul-lug'atayn» («Ikki til haqida muhokama») deb nomlangan asarini yozib tugatadi. Bu asar ulug' shoirning uzoq yillar davomida olib borgan ilmiy ishlari va tajribalari natijasi o'laroq, o'zbek tilining hayotdagi o'rni va badiiy ijoddagi mavqeyiga bag'ishlangandir. 1500-yilda Navoiyning «Mahbub ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») deb ataluvchi yirik asari e'lon qilinadi. Bulardan tashqari, Alisher Navoiy o'zi yashagan davrning iqtisodiy va ijtimoiy tuzumi, o'z mulklari hamda qoldirgan imoratlari to'g'risida ma'lumot beruvchi «Vaqfiya» (1482), diniy va odob-axloq masalalariga oid «Nazmul-javohir» («Gavharlar tizmasi», 1485), «Tarixi anbiyo va hukamo» («Anbiyolar va hakimlar tarixi»), «Sirojul-muslimin» («Musulmonlik nuri», 1488) va boshqa bir qancha asarlar yaratadi. Navoiy yaratgan ijod durdonalarining deyarli barchasi bizgacha yetib kelgan.

Ammo shu narsani alohida qayd qilmoq kerakki, bu dunyo bir kam to'qqiz» deganlaridek ulug' shoir, buyuk davlat arbobi va mutafakkir Alisher Navoiyning ham ushalmay qolgan orzu-armonlari bo'lgan. Eng avvalo, bu orzularni Navoiyning o'zi uchta deb ko'rsatgan: Yusuf va Zulayho, Navoiyning o'z sevgilisi haqida dostonlar va Husayn Boyqaro tarixi haqida kitob yozishdan iborat edi. Nachora, ulug' bobomizning bu orzulari ushalmagan orzuligicha qoldi.

Alisher Navoiyning vafoti, bir tomondan, dahshat bo'lsa, ikkinchi tomondan, hayot sabog'i, tarbiya maktabi sifatida odamlarni insofqa, diyonat va farosatga chorlaydi. Ulug' Navoiy jo'shqin ijod bilan band. Uning maktabdosh do'sti Husayn Boyqaro esa o'z farzandlari, amir va amirzodalar bilan toj-u taxt, yer-mulk va davlat talashib jang-u jadaldan bo'shamaydi. Husayn Boyqaro 1500-yilning yozida otaga qarshi isyon ko'targan o'z og'li Muhammad Husaynga qarshi qo'shin tortadi. 28-dekabrda Husayn Boyqaro bu urushda g'alaba qozonib og'li Muhammad bilan yarashib, Hirotga qaytadi va yo'lda Xo'ja Abbos qishilog'ida to'xtaydi. Bu xushxabarni eshitgan Alisher Navoiy do'sti Husayn Boyqaroni tabriklash uchun yo'lga otlanadi. Xo'ja Abbos qishlog'iga etib kelgan Navoiy ko'zda yosh ila do'sti Husayn Boyqaroga talpinganicha otdan tushar chog'ida bandalikni bajo keltiradi. 1501-yil 3-yanvarda buyuk davlat arbobi, she'riyat mulkining dahosi, ulug' mutafakkir inson Alisher Navoiy bu dunyoni tark etadi. Turkiylar dunyosi motam to'nini kiyadi. Podsho Husayn Boyqaro Navoiyning ma'rakasida o'zi bosh bo'ladi. U uch kungacha Navoiyning uyida aza tutib yotadi. Butun Xuroson va Movarounnahr g'am va qayg'u-alamga botadi. Juda ko'plab shoir-u yozuvchilar, adiblar va tarixchilar ulug' Navoiy to'g'risida asarlar, dostonlar, she'rlar va tarixiy kitoblar yozadilar. Tarixchi Xondamir hazrat Alisher Navoiyning o'limi butun mamlakat va xalq uchun nechog'lik og'ir va musibatli bo'lganligini quyidagicha yozgan edi:

*Az mavti o' nashast ba har xona motame,
Vaz mehnat favti o' behest zi har go'sha shevane.
Buni sahmgin musibatu z-ni sahmnok marg,
Otash fitod dar dili har sangu ohane.
Ma'nos i:
O'limdan har bir uyga tushdi motam,
Mamlakatning har burchidan chiqdi fig'on.
Temir yurak tosh yurakli kishilar ham
Bu dahshatli musibatdan yutdilar qon.*

Navoiy bu bevafo dunyoni tark etgan bo'lsa-da, u xalqning, oddiy mehnatkashlar ommasining qalbida butun bir umrga abadiy muhrlanib qoldi. Xalq, millat manfaat, baxt-saodati uchun, haqiqat va adolat tantanasi uchun kurashda Alisher Navoiy siymosi bamisoli yo'lchi yulduzdir. U xalq orasida ulug' inson, betakror va mo'jizakor bir siymoga aylandi va har bir o'zbek turkiy xonadonining eng ulug' va mo'tabar zotidir. Alisher Navoiy haqida juda ko'plab xalq rivoyatlari to'qilgan. Ularda ulug' Navoiyning oliyanob insoniy fazilat-lari hikoya qilinadi. «Turkiston» gazetasining 1993-yil 9-fevral

sonida «Ikki rivoyat» deb nomlangan maqolasida Nurilla Ahmad quyidagicha hikoya qiladi: «Alisher bilan Husayn Boyqaro yoshligidan tanishib katta bo'lishgan qalin do'stlar edi. Birga o'ynab yurganlarida odamlar hazillashib, «Husaynning o'jarligi, qaysarligidan Sul-tonlikka ishtiyoqi, Alisherning o'ychanligi-yu mulohazali gap-laridan shoirlikka havasi bor» deb yurishardi. Shunday bo'ldi ham Husayn Bayqaro jang-u jadallar bilan taxtga chiqdi. Alisher esa ne-ne zahmatlar chekib, katta shoir bo'lib tanildi.

Navoiy Mashhad va Samarqand tahsillaridan qaytib kelgan kuni xalq shod-u xurramlik bilan kutib olibdi. Lekin Sul-ton uni kutib olmoqda chiqmabdi... «Yumushlar ko'p bo'lsa, yaxshisi, o'zim huzuriga borib kelay» deb suyuqli ma'shuqasi Guli bilan saroyga yo'l olibdi. Ammo u yo'qligida Sul-tonning shaharning o'rtasida katta bir bog' barpo ettirib, unga tutash ko'chalardan o'tgan odamlarni jazolashidan bexabar edi. Qorovullar ikkalasini tutib olib to'g'ri saroyga olib boribdilar. Husayn Boyqaro Alisherni tanibdi-yu, o'zi chiqarib qo'ygan farmoniga qarshi borsa» el-ulus, qolaversa, a'yonlari oldida beburd bo'lib, qolishdan cho'chib oxiri:

– Hoy Alisher, «Bog' ko'chadan» yurib gunohkor bo'lib, sizlar. Men sizlarni endi jazolashga majburman. Lekin bitta savolimizga to'g'ri javob bersanglar har ikkovlaringizning ham gunohingizdan o'taman. Bir so'z degilki, unda ma'shuqangning ismi va ne sababdan, bog' ko'chaga kirganlaring anglashilsin. Javoblaring avvalo, menga, so'ng a'yonlarimizga manzur bo'lsun. Navoiy bir lahza o'ylanib turibdi-yu, ushbu baytni aytibdi:

*Navoiy o'tdi ko'changdan piyoda yori bilan
Kishi baloga qolurmi o'z ixtiyori bilan,
Bog'bonni do'st debon keldim ko'cha bog'i bilan,
Avf etsalar, ketgumdir Guli yorim bilan.*

– Ming bor uzr, do'stim, gunohingizdan o'tdim, – deb Alisher Navoiyni mahkam quchoqlab olibdi.

Xullas, Mir Alisher Navoiy o'zbek xalqining, barcha turkiy xalqlarning milliy g'ururi va iftihoridir. Uning nomi yosh avlodni millat, yurt va Vatan baxt-u saodati va istiqloli uchun kurashga chorlovchi bir siymo sifatida asrdan asrga osha xalqlarimizning qalbida abadulabad yashayveradi, chunki Navoiy dunyo miqyosida tan olingan. Uning ijodiy dahosi va kalami siriga man-man degan ulug' siymolar, shoir-u dono mutafakkirlar qoyil qolganlar. Abdurahmon Jomiy Navoiyning ham ustoz, ham do'sti va hamkori edi. Navoiyga bag'ishlab u «Xamsat ul-mutahayyirin» («Besh hay-

ratda qolganlar») asarini yozgan. Bu asarida u Jumladan, Navoiy haqida: «Kel, Jomiy umr bo'yi mashaqqat tortib, ko'nglingdan shu «besh ganj»ni dunyoga chiqarding. Sening bu «Besh»ing («Xamsa») shunday kuchli panja bo'ldiki, daryokaflar qo'li buralib ketdi. Biroq har xazina o'lchovli (ya'ni yetuk shoir) qalamidan bu o'tar dunyo «Besh xazina» bilan boyigandir. U «Besh»liklarga sening «Besh»ing qachon tenglashardi? Ularning bir xazinasi sening yuz xazinangdan yaxshidir. Xususan, u panjaki, ganjadan sarpanja urganga sher kabi o'z sarpanjasini urdi, turkiy tilda bir ajoyib qo'shiq kuyladiki, jodu nafaslilar og'zi muhrlandi. Bu qalamga falakdan ofarinlar yog'ilsin. Chunki bu yoqimli naqshni o'sha qalam yaratdi va forsiy til egalari, forsha nazm durlarini tizuvchilarga rahm qildi: u ham shu forsiy tilda yozganda, boshqalarga so'z aytishga majol qolmasdi. Bu mo'jizakor nazm tarozisi qarshisida Nizomiy kim-u Xisrav kim bo'ldi? U boshqa tilda so'z yuritganida aqlga oradagi farqni axtarish uchun yo'l qolmadi.

Ey (Navoiy), sening ta'bing so'z ustodidir. Qalaming ochkichi bilan so'z eshigini ochding. Ravnaqdan qolib ketgan va xorlik burchagidan o'rin olgan (turkiy) so'zga sen yangidan obro' berding. Uni ijod maydoniga olib chiqding. U sening ra'ying nuridan safoli bo'ldi, lutfing navosi (boyligi)dan navoli (baxramand) bo'ldi»¹.

Ingliz sharqshunos olimi E. Broun «Fors adabiyoti tarixi» kitobida Navoiyga yuksak baho beradi: «...Navoiy turkiy nazmning rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi, turk shoirlari ungacha butunlay noma'lum yoki nihoyatda kamsitilgan edilar»².

Ulug' Alisher Navoiyning buyuk davlat arbobi, bosh vazir sifatidagi shaxsiy sifatlarini AQSh olimlari Tomas Lente va Glenn Louvrilar quyidagicha ta'riflaganlar: «XV asrning oxirida temuriylar saltanatining madaniy hayotiga juda muhim ta'sirini o'tkazgan inson Mir Alisher Navoiy bo'lib, u yangi siyosiy va iqtisodiy sharoitni yaratishda g'oyat katta yordam berdi. Sulton Husaynning «ko'kaltoshi» («birga usgani») va yaqin do'sti Mir Alisher muhtojlarga xayr-u ehson qiluvchilarning mashhuri shoir va olim edi»³².

O'zbekistan milliy istiqlol va mustaqillik yo'lidan og'ishmay olg'a tomon borayotgan bugungi kunda avlodlarimiz ongida milliy ong, mustaqillik tafakkuri va milliy birlik kabi g'oyalarni shakllan-

¹ «Xalq so'zi», 1991-yil, 29-may.

² Navoiy zamonoshlari xotirasida. (to'plam) – T.: «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1985, 13-bet.

³ «Xalq so'zi», 1991-yil, 29-may.

tirishda Mir Alisher Navoiyning bosib o'tgan boy, jo'shqin hayot va ijod yo'li hammamiz uchun ibrat va namunadir. Alisher Navoiy har bir o'zbek va turkiyning xonadoni uchun eng aziz va mo'tabardir. 1991-yilning Navoiy yili deb e'lon qilinishi, O'zbekistonda xalqimiz uchun eng aziz va mo'tabar qadamjolarining, madaniy-ma'rifiy muassasalar, maktablar, oliy o'quv yurtlarining uning ulug' va tabaruk nomi bilan atalishi, Navoiyga bag'ishlab buyuk san'at asarlarining yaratilishi va boshqalar xalqimizning o'z sevikli va buyuk farzandiga mehr-muhabbat ko'rinishining ramziy ifodasidir.

HUSAYNIY (HUSAYN BOYQARO) (1438–1506)

Temuriylar sulolasining atoqli vakillaridan biri, yirik davlat arbobi, Husayniy laqabi bilan qalam tebratgan lirik shoir Husayn Boyqarodir. Uning davrida (1469–1506) Hirot dunyoning eng go'zal shaharlaridan biriga aylanadi. Xurosonning xalqaro obro'-e'tibori va nufuzi oshadi. Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha: «Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamona edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, batahsis Hirot shahri mamdu edi. Har kishining kim bir ishga mashg'ullugi bor erdi, himmati va g'arazi ul erdikim, ul ishni kamolga yetkurgay»¹.

Xuroson hokimi Husayn Boyqaro o'zining maktabdosh do'sti Alisher Navoiy bilan birga turkiy til va adabiyoti muammolariga katta e'tibor beradi, turkiy tilda qalam tebratgan va ijod qilgan shoir-u olimlarni o'z himoyasiga oladi, ularga xomiylik qilib, mansab va martabalarini oshiradi. Husayn Boyqaro saroyida uning bevosita ishtirokida «Oliy majlis»lar bo'lib, turardi, unda badiiy asarlar tez-tez muhokama qilinar, qizg'in muloqot kechalari va she'rxonlik davralari tashkil qilinardi. Husayn Boyqaro bilan Alisher Navoiyning do'stligi bir umrlik samimiy va beg'araz do'stlik edi. Ishonchli manbalar bundan yaqqol dalolat beradi, ya'ni 51230 misra hajmli «Xamsa»da ham, 42400 misrali boshqa she'riy xazinada ham Husayn Boyqaroni u yoki bu tarzda yomonlovchi yoki undan norozilik ohangda biror bir satrni uchratmaymiz. Aksincha, Navoiy do'sti

¹ *Boyqaro Husayn*. Jamolingdin ko'zim ravshan. – T., 1991. 3-bet.

Husayn Boyqaroni juda ko'plab asarlarida ijobiy baholaydi. Uning adolatli, diyonatli, insofli va xalqparvar podsho bo'lib yetishishiga ishonadi. Hatto, 1469-yilda Husayn Boyqaro hokimiyat tepasiga kelganda unga bag'ishlab 90 baytdan iborat «Hiloliya» qasidasini yozadi. Bu qasidaning dastlabki misralarida osmon gumbazida paydo bo'lgan yangi oy (hilol) tasviri berilgan. Bu hilolning egilgan shaklini shoir sevgili yorining qoshiga yoki o'zining ta'zim bilan egilgan qomatiga o'xshatadi:

*O'yla zohir bo'ldikim, kelgan ani ko'rgan kishi,
Dilbarim qoshiga-u, mening qadimga nisbatan
Hilol osmonda yangi paydo bo'lgan uch kunlik oydir.*

Shoir bu qasidasida dastlab, yangi oy, yangi davr, yangi hokimiyat boshlanganini shu yangi oyingning paydo bo'lishiga nisbat beradi.

Alisher Navoiy o'zining «Majolisun-nafois» tazkirasining sakkizinchi majlisini maxsus Husayn Boyqaroga – shoir Husayniyga bag'ishlaydi. Bunda shoir g'azallaridagi mavzu rang-barangligi, badiiyatdagi kashfiyotlar, noyob tashbehtar, dilrabo adolar haqida atroflicha fikrlaydi. Husayniy kuylagan ishqning qudrati va oshiqning iztiroblari, intilishlari, ruhiyatiga yuzlangam holatlari ajib bir tarzda dilbarlik bilan tarannum etilganini ko'rsatib beradi.

Shoir Husayniy she'riyatida dunyoviy adabiyot lirikasi an'analari, Alisher Navoiy lirikasining ta'siri yorqin bir tarzda o'z aksini topgan. Quyidagi satrlar bu fikrinizning yaqqol dalilidir:

*O'tga yondir sarvni, ul qaddi ra'no bo'lmasa,
Elga bergin gulli, ul Ruhsori zebo bo'lmasa.
El Husayniy, boda ichsam yor alidin teng durur,
Bo'lsa obi Xizru umri jovidon yo bo'lmasa.*

Husayniy ijodiga Zahiriddin Muhammad Bobur ham baho bergan: «Tab'i nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib, erdi. Turkiy aytur erdi. Taxallusi «Husayniy» erdi. Ba'zi baytlari yomon emastur, vale Mirzoning devoni tamom bir vazndadur».

Xullas, Husayn Boyqaro qadimiy Sharq an'alarini davom ettiradi, ulkan davlat arbobi bo'lish bilan birga nafaqat ilm-ma'rifat va madaniyat homiysi, ayni choqda o'zi ham binoyidek go'zal va nafis lirik g'azallar bitgan. Shoir sifatida ona tariximizdan munosib o'rin olgan.

7. NAFIS KITOB VA XATTOTLIK SAN'ATI

Temur va temuriylar davrida nafis kitob va xattotlik san'ati ham rivoj topadi. Uzoq tarixiy o'tmishda bos-maxona bo'lmagan. Kitoblar qo'lda ko'chirilgan. Qo'lda ko'chirilgan kitoblar nafaqat mazmunan, balki tashqi ko'rinishi va bezagi jihatidan ham kitobxonlarning talab-ehhtiyojlari va didiga javob berishi, odamlarda ma'naniy va estetik dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilishi lozim edi. Shu boisdan, ham Temur va temuriylar davrida nafis kitob va xattotlik buyuk san'at darajasiga ko'tariladi. Bu nafis kitob yaratish jarayoning mislsiz darajada murakkab va og'irligi turli xil kasb-hunar egalari mehnatining ma'lum bir dasta singari jamlanishi bilan belgilanadi. Chunki kitob yaratish jarayonida qog'oz kesuvchi xattot (kalligraf), musavvir, lavvoh (lavha chizuvchi), sahhof (muqovachi) ishtirok etadi.

Ota-bobolarimiz tomonidan nafis kitob yaratishda ishlatilgan Samarqand, Buxoro qog'ozlarining dovrug'i doston bo'lgan. Kitoblarni yaratishda unga turli xil suyuqlik moddalar va ranglar ishlatilgan. Kitobdan yoqimli va xushbo'y hid kelib turishi uchun juda sifatli gulob yoki anbar siyohga qo'shib yozilgan. Musavvirlar ishlatadigan bo'yoqlarda oltin va kumush eritmaları aralashtirilgan, sahhof esa muqovaning go'zal bo'lishi uchun charmlardan ustalik bilan foydalangan.

Og'ir va mashaqqatli mehnatlar evaziga yaratilgan har bir kitobning o'zi shubhasiz katta bir san'at asari edi. Bunday kitoblar asosan, shohlar, amirlar, xon-u Sultonlar buyurtmalar asosida yaratilgan va maxsus kutubxonalarda e'zozlab saqlangan.

XIV–XVI asrlarda nafis kitob va xattotlik san'atining buyuk namoyandalari o'sib yetishadi. Bular Mir Ali Tabriziy, Abdurahmon



Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Qilqalam, Sulton Ali Xandon, Halvoiy, Rafiqiy, Mirak Naqqosh, Behzod, Shoh Muzaffar va boshqalardir.

SULTON ALI MASHHADIY (1432 – 1520)

Xattotlik san'atining buyuk namoyandalaridan biri Sulton Ali Mashhadiydir. U 1432-yilda Mashhadda tug'ilgan. Yoshlikdan husnixatga qiziqqan. Sulton Ali husnixat Sultoni darajasiga ko'tariladi va «Qiblatul-kuttob» («Kotiblar qiblasini») va «Sultonun-xattotin» («Xattotlar Sultoni») deb elda nom taratadi.

Sulton Ali 1461-yilda Nizomiyning «Mahzanul-asror» dostonini, 1464-yilda Hofiz devonini va 1465–1466-yillarda Alisher Navoiyning devonini ko'chirgan.

Sulton Ali Mashhadiyning ijodiy faoliyatida Husayn Boyqaro va Alisher Navoiylarning salmoqli o'rni bor. U Husayn Boyqaro kutubxonasi ishlagan va Hirot xattotlariga rahbarlik qilgan. Sulton Ali shaxsan Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy topshiriqlarini bajargan va ularning asarlarini ko'chirgan. U har kuni Husayn Boyqaro uchun 50, Navoiy uchun 20 bayt ko'chirar edi. Bundan tashqari, Sulton Ali Nizomiy, Farididdin Attor, Hofiz Sheroziy, Dehlaviy, Jomiy asarlarini ham ko'chirish bilan shug'ullangan. Mashhur xattot ko'chirgan 50 dan ortiq asar bizgacha etib kelgan. Bu asarlar Toshkent, Sankt-Peterburg, Parij, Berlin, Qohira va dunyodagi boshqa shaharlarda saqlanmoqda. Sulton Ali Mashhadiy ko'chirgan kitoblar orasida Navoiyning mashhur «Xamsa»si ham munosib o'rin olgan.

Sulton Ali Mashhadiy xattotlik san'atidan tashqari, o'ymakorlik san'atining ham mohir ustasi bo'lgan. Husayn Boyqaro qabr toshidagi o'yib yozilgan matn parchasi ham u tomonidan yozilgan.

Sulton Ali Mashhadiy she'riyat bobida ham qalam tebratgan. Navoiy uning ijodiga katta baho beradi va uning ijodidan quyidagi baytlarni keltiradi:

*Gul dar bahor e-on ruhi gulgul namunaest,
Chun ashki man, ki az dili purxun namunaest.*

Ma'nosi: Mening ko'z yoshim qonga to'la yuragimdan namuna bo'lganidek, bahor guli uning gulgun yuzidan bir namunadir.

Sulton Ali umrining so'nggi yillarini Mashhadda o'tkazadi va shu erda 1520-yilda vafot etadi.

8. TASVIRIY SAN'AT

Temur va temuriylar sulolasi davrining ulkan muvaffaqiyatlaridan biri tasviriy san'atning gurkirab o'sganligi bo'ldi. XIV va XVI asrlarda tasviriy san'atda Behzod, Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Maqsud Muzahhib, Xoja Muhammad Naqqosh, Shoh Muzaffar va boshqalar barakali ijod qildilar.

Xalqimizning ajoyib tasviriy san'at ustalari yaratgan asarlar o'ziga xos uslubga ega bo'lish bilan birga u fantastik mavhumlikdan hayotiylikka, aniqlikka tomon o'sib borgan. Bizgacha etib kelgan va ma'naviy meros boyliklariga qarab xulosa qiladigan bo'lsak tasviriy san'at yodgorliklarini yo'nalishlariga qarab quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: portretlar, hayotiy lavhalar, peyzaj, binolarga solingan suratlar, badiiy asarlarga ishlangan rasmlar va hokazo.

Biz fikr yuritayotgan davrda tasviriy san'at ijodkorlari tomonidan hayotiy va aniq bo'yoqlarda ishlangan Jomiy, Navoiy, Abdulla Xatifiy, Behzod, Husayn Boyqaro, Bobur, Shayboniyxon va boshqalarning portret-suratlarini ko'ramiz.

Rassomlar tomonidan yaratilgan asarlarda, rasm-portretlarda haqiqiy hayot voqeligi o'z aksini topgan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tub mohiyati mohirlik bilan ko'rsatilgan.



KAMOLIDDIN BEHZOD

(1455 – 1533/37)



O‘z zamonasining mohir rassomi va o‘ta noyob qobiliyat egasi Kamoliddin Behzod 1455-yilga yaqin Hirotda tug‘ilgan. Ota-onadan yoshlikdan etim qolgan Behzodni Husayn Boyqaro kitobdori Mirak Naqqosh o‘z tarbiyasiga olib, unga homiylik ko‘rsatadi. O‘zining qobiliyati va iqtidorligi bilan boshqalardan ajralib turadigan Behzod yoshlikdan rassomlik san‘atiga qiziqadi. Ko‘p o‘tmay u ilmfan, san‘at va adabiyot ahllari orasidan o‘ziga munosib o‘rin topadi. Ma‘rifat va madaniyat homiysi Alisher Navoiy

noyob iste‘dod va qobiliyat egasi bo‘lgan Kamoliddin Behzodga alohida e‘tibor beradi va unga har tomonlama yordam qo‘lini cho‘zadi. 1510-yilgacha bo‘lgan umrini Hirotda o‘tkazgan Behzod, keyinchalik, Ozarbayjonga – Tabrizga ketadi. U erda Behzodni safaviyalar poytaxti kutubxonasi va san‘atkorlarining boshlig‘i etib tayinlaydilar. Kamoliddin Behzod shu yerda taxminan 1533–1537-yillar orasida vafot etadi.

Kamoliddin Behzod o‘zining hayratomuz rassomchilik san‘ati bilan «Moniyi soniy» (ikkinchi Moniy¹) va «Sharq Rafaeli» nomi bilan jahonga mashhur bo‘lgan. U rassomlikda Hirot maktabiga asos soladi va ustoz san‘atkor sifatida Turkiston o‘lkasi, Eron, Ozor yurti va boshqa o‘lkalarda tasviriy san‘atning rivojiga katta hissa qo‘shadi.

Xondamir «Habib us-siyar» asarida Behzod ijodiga quyidagicha baho beradi:

*Mo‘yi qalamash zi ustodi,
Jon doda ba surati jamodi.*

(Ma‘nosi: Ustozligi tufayli uning mo‘yqalami tuklari toshga – jonsiz suratga jon bag‘ishlar edi.)

Kamoliddin Behzodning san‘atkorlik mahorati va asarlarining ta‘sir kuchini ko‘rsatuvchi quyidagi bir voqea Vasifiyning «Badoyi ul-vaqoe» kitobida keltiriladi: «Kunlarning birida Behzod yangi

¹ Moniy – afsonaviy Xitoy rassomi.

ishlagan bir suratini Navoiyning oldiga olib keladi: ajoyib bogʻ, daraxtlar, daraxtlar shoxida qushlar... gullar qulf urib ochilib yotibdi, ariqlarda zilol suvlar. Bogʻda nuroniy Alisher Navoiy. U bir qoʻli bilan hassaga tayangan, ikkinchi qoʻlida bir tovoq, tovoqda oltinlar. Navoiyning atrofida ilm-fan, sanʼat va adabiyot ahllari. Goʻyo Navoiy ularning ijodiy ishlaridan shod boʻlib, boshlaridan oltin sochmoqchi... Suratdan zavqlangan Navoiy bunday bayt aytadi:

*Naqqosh, ajab sahora munaqqash kardi,
Ey vaqti tu xush, ki vaqti mo xush kardi.*

(Maʼnosi: Naqqosh, ajoyib sahifani naqshlabsan, vaqting xush boʻlsin, zero ki, bizni xushvaqt qilding.)

Behzod bu suratni olib kelganda Navoiy Mavlono Fasehiddin, Sohob Dorob, Mavlono Burxon va Mavlono Muhammad Badaxshiyalar bilan suhbatlashib oʻtirgan ekan. Navoiy ulardan bu surat haqidagi taassurotlarini soʻzlab berishni soʻraydi. Shirin va hazilomuz suhbat boshlanadi. Mavlono Fasehiddin:

– Mahdumlar, men bu ochilgan gullarni koʻrishim bilam qoʻl choʻzib, ulardan birini uzib, sallamga qoʻndirmoqchi boʻldim, – deydi.

Sohob Dorob:

– Menda ham shunday istak bor edi, ammo qoʻl choʻzsam, daraxtlardagi qushlar qoʻrqib uchib ketmasin deb andisha qildim, – deydi.

Mavlono Burxon:

– Men mulohaza bilan qoʻlimni tortib, tilimni tiymoqchiman, agar soʻz qotsam, Mir ranjisalar, yuzlarini burishtirib, qoshlarini chirmisalar, suratdagi ochiq chehralari oʻzgarib ketadi, – deydi.

Mavlono Muhammad Badaxshiy:

– Ey mavlono Burxon, agar beodoblik va gustoxlik boʻlmaganda edi (suratdagi) Mirning qoʻllaridagi hassani olib, sening boshingga solar edim, – deydi.

Navoiy suhbatni yakunlab:

– Azizlar yaxshi soʻzlar aytishdi. Agar Mavlono Burxon dagʻalik qilmaganlarida, men (suratda tasvirlangan) tovoqdagi oltinlarni doʻstlarning boshidan sochmoqchi edim, deydi va Behzodga bir oʻt bilan chopon inʼom qiladi, suhbatdoshlariga libos kiygizadi».

Atoqli va mashhur rassom Kamoliddin Behzod tomonidan yaratilgan Shoir Abdullo Xotifiy, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon portretlari, Saʼdiyning «Boʻston» kitobi va Nizomiyning «Xamsa»siga ishlangan rasmlar bizgacha yetib kelgan va u hozir xalqning nodir

yodgorliklari sifatida Toshkent, Sankt-Peterburg, London, Tehron, Kobul va boshqa shaharlarning muzey va kutubxonalarida saqlanmoqda. Kamoliddin Behzod juda ko'plab nomdor va qobiliyatli shogirdlar etishtiradi. Sulton Muhammad Kamoliddin, Qosim Ali, Shoh Muzaffar, Mahmud Muzahhib kabi musavvirilar shular jumlasidandir.

9. MUSIQA SAN'ATI

Temur va temuriylar davri madaniyatining yuksak rivojlanganligidan dalolat beruvchi yana bir soha – bu musiqa san'atidir. Buyuk Sohibqiron Amir Temur haqidagi manbalarda va xalq rivoyatlarida uning musiqa san'atiga juda katta e'tibor bilan qaraganligi, turli mamlakatlardan poytaxti Samarqandga ko'plab san'at shina-vandalarini to'plab, bazmi jamshid davralarini musiqa va qo'shiq ixlosmandlari bilan ko'rganligi hikoya qilinadi. Ibn Arabshoh Temur saroyida juda ko'plab musiqashunoslar, hofiz va qo'shiqchi san'atkorlar ham bo'lganligini yozadi: «... (Yana) Xoja Muhammad az-Zohid Buxoriy, ulug' tafsirchi, hadischi, hofiz bo'lib, Qur'on ulkarimni yuz jildda tafsir qilgan... Qorilardan mana shular ikkalasi va (yana) mavlono Faxruddin bor edi. Qur'onni qiroatda ham, savtda ham tajvid bilan yod olgan kishilardan Abdullatif ad-Domg'oni, mavlono Asaduddin, Sharif Hofiz Husayniy, Mahmud Muhriq al-Xorazmiy va Jamoliddin Ahmad al-Xorazmiy va musiqa ilmida ustoz bo'lgan Abdulqodir al Marog'iy edi»¹.

Bu davrda musiqa san'atining rivoj topganligini shu narsadan ham bilsa bo'ladiki, A. Navoiy «Mezon ul-avzon» asarida xalq qo'shiqchiligining 8 turi bo'lganligini yozadi. Bu – tuyuq, changi, turkiy, orzuvoriy (yoki oruzvoriy), muhabbatnoma, mustazod va boshqalardir. Ayrim miniatyuralar, badiiy obrazlar va boshqalar xalq san'atining ham rivojlanganligidan dalolat beradi. Xalq kuylari va qo'shiqlari musiqa san'atining rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

X va XII asrlarda vujudga kela boshlagan musiqa san'atining yangi o'n ikki maqom turi bu davrga kelib yuksak bosqichga ko'tariladi, yangi kuylar bilan boyiydi. O'n ikki maqom ko'pgina kuylar birikmasidan tashkil topgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: Rost, Isfahon, Iroq, Zirafkan, Buzruk, Hijoz, Busliq, Ushshoq,

¹ *Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 2-kitob. 85–86-betlar.*

Husayniy, Zangula, Navo, Rahoviy. Bu maqomlarning har biri ikki shuba (qism)dan iborat bo'lib, jami 24 shubani tashkil etadi: Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgon, Muxayyar, Xisor, Muboraki, Nayrez, Nishopurak, Royi Iroq, Mag'lub, Rakb, Bayot, Zabul, Avj, Navro'zi xora, Ma'mur, Ashiron, Navro'zi sabo, Xumoyun) Nuhuft, G'azal, Arabon va Ajam. Xalq o'rtasida «Shashmaqom» (olti maqom) nomi bilan kuylanib kelinayotgan musiqa asarlari yuqorida sanab keltirilgan o'n ikki maqom zaminida shakllangandir.

Musiqa san'atining taraqqiyotini she'riyat olamidani tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi. Musiqa va she'riyat doimo bir-birini to'ldirib kelgan. Musiqa bilan she'riyat o'rtasidagi aloqani XV asrda yashab ijod qilgan shoir Ahmadiy «Sozlar munozarasi» asarida ajoyib badiiy bo'yoqlarda tarannum etadi. Ahmadiy majoziy xarakterda yozilgan o'zining bu asarida sozlar munozarasini beradi. Munozarada ishtirok etgan barcha sozlar: Tanbur, Ud, Chang, Qubo'z, Rubob va boshqalar o'zlaricha kerilib maqtanadilar. Nihoyat ularning munozarasiga Piri xarobot (soqiy) aralashadi va sozlarining har biriga nasihatlar qiladi, ularning har birining o'ziga xos fazilatlarini borligini ta'kidlaydi. Bu asar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan didaktik ijod mahsuli hamdir. Shoir maqtanchoq, mutakabbir va xudbin kishilarni tanqid qiladi, ularni insofqa, kamtarlikka va ahillikka chaqiradi.

Xullas, musiqa san'ati taraqqiyotida Temur va temuriylar zamonida erishilgan muvaffaqiyatlar xalqimizning ma'naviy meros boyligi bo'lib, avlodlar ongida badiiy estetik qarashlar va oliyjanob insoniy fazilatlarini shakllantirishning muhim vositasidir.

10. BAHOUDDIN NAHSHBAND (1319–1389) VA NAQSHBANDIYA TARIQATI

Sohibqiron Amir Temurning islom himoyachisi sifatida yurgizgan siyosati soyasida so'fiylik tariqati o'lka hayotida katta mavqega ega bo'ladi. Buni biz Temur va temuriylar davrida Bahouddin Naqshband va uning izdoshlari faoliyatida yorqin ko'ramiz.

Oллоhning muruvvatiga muyassar bo'lgan, komil inson, ulug' avliyo va vali – Xoja Bahouddin ismlari Sayid Muhammad Sayid Jamoliddindir. Xoja Bahouddin Naqshband Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon qishlog'ida tavallud topgan. Bahouddinning o'zi ham temir va boshqa narsalarga gul soluvchi bo'lgan. Shu sababdan u kishining laqabi «Naqshband» bo'lgan.



Bahouddin Naqshband o'zidan ikki asr oldin o'tgan Abdulxoliq G'ijduvoniylar ruhlaridan madad olgan, uni o'ziga pir va ustod deb bilgan.

Bahodddin Naqshband Abdulxoliq G'ijduvoniylar ta'limotini yanada rivojlantiradi, uni yangi mazmun, xulosalar bilan boyitadi va u naqshbandiylar tariqati nomini oladi.

Bahouddin Naqshband G'ijduvoniylar asos solgan tariqatning sakkiz moddadan iborat talabiga uch talabini qo'shdi: 1. Vuqufi zamoniylar; 2. Vuqufi adadiylar va 3. Vuqufi qalbiylar.

Naqshbandiylarlikning asosiy mohiyati qo'yidagi shiorlarda o'z ifodasini toptan: «Dast ba koru, dil ba yor!» («Qo'l ishda, Olloh dilda») bo'lsin, deb hammani ishlashga chaqiradi.

Bahouddin shaxs, oila va jamiyat ravnaqi uchun «Kam xo'r, kam xob va kam guftor bud!» («Kam yegil, kam uxla va kam gapir!») deb ta'kidlagan. Davlat rahbarlariga esa «Zohiran xalq bilan, botinan Haq bilan!» («Sirtidan xalq bilan, dildan xudo bilan!»), deb nasihat qilgan. Hazrati Sohibqiron Amir Temurdek ulug' zot ham Naqshband tariqatiga amal qilgan. Temurning o'zi bu haqida shunday degan: «Pir-u komil Shayx Bahouddin Naqshbandiylar: «Kam yegin, kam uxla, kam gapir», degan pand-u nasihatlariga amal qildim. Arkon-u davlatga, barcha mulozimlarga ham aytar so'zim shu bo'ldi. «Kam yenglar – ocharchilik ko'rmasdan boy-badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar – mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar – dono bo'lasizlar!»¹.

Bahouddin Naqshbandiylariga Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar ham juda katta ixlos bilan qaragan. Jumladan, Jomiyning «Nafahotul-uis», Alisher Navoiylarning «Nasoyimul-muhabbat» va boshqa asarlarida bu haqida kerakli ma'lumotlarni olish mumkin.

Alisher Navoiylarning:

Ayladi avroq munaqqash base

Naqsh raqam ayladi dilkash base –

baytidan shu narsa anglashiladiki, Naqshband o'z hayoti davomida juda ko'p varaqlarni naqshlagan, ya'ni ko'p ajoyib asarlar yozgan va shu bilan bir qatorda narsalarga, imoratlarga naqshlar ham ishlagan.

¹ Amir Temur o'g'itlari. 58-bet.

*Sobit aning ko'ngli aro naqshi jud,
Mahv o'lub ul sahfada naqshi vujud –*

degan baytda Navoiy Naqshband ulug' naqqosh bo'lsa ham lekin uning ko'nglini sahovat («jud») naqshi egallagan va bezagan edi, deydi.

Naqshbandsiz Navoiy ijodini tasavvur etish mumkin emas. Chunki naqshbandiya ta'limoti Navoiy ijodining g'oyaviy asosini – mafkurasini tashkil etadi. Shoir ijodida komil inson timsolining naqshbandiya tariqasida targ'ib qilingan yo'l-yo'riqlari, shior-u qoidalari, aqidalari insoniy timsollar, hayotiy voqealar asosida dalillanadi.

Bahouddin Naqshbandning dinni mustahkamlash va taraqqiy ettirish uchun qilgan xizmatlari ulug' bo'lganligi sababli uni «Bahouddin» – dinning faxri, bebahosi deb atashgan.

Bahouddin Naqshband karomatli inson bo'lganligi uchun unga Balogardon, deb nom berishgan.

Xullas, Bahouddin Naqshband Temur hukmronlik qilgan davrning eng buyuk avliyolaridan bo'lib, u ishlab chiqqan va targ'ibot qilgan tariqatning mavqeyi ko'tarilgandan ko'tarilib boradi.

11. XOJA UBAYDULLOH AHROR (1404–1490)

XV asrda naqshbandiya tariqatini samarali davom ettirgan ulug' shayxlardan biri – Xoja Ubaydulloh Ahrordir. Xoja Ubaydulloh Shosh viloyatining Tog'li Bog'iston (hozirgi Bo'stonliq) qishlog'ida dunyoga kelgan.

Xoja Ubaydullohning otasi Mahmud bo'lib, uning ajdodi Muhammad Nomiy Bag'dodiyga borib yetadi. Xoja Ubaydullohning yoshligi Shoshda kechgan. Uning tarbiyasi va o'qish bilan tog'asi Xoja Ibrohim shaxsan shug'ullangan 1427-yilda Xoja Ubaydulloh ilm va ma'rifat markazi Samarqandga o'qishni davom ettirish uchun borgan. 1428-yil Hirotga borib to 1433-yilga qadar bu yerda bo'lgan mashhur shayxlar Bahoviddin Umar Zayniddin Xavofiylar suhbatini olgan. 1433-yilda Ubaydulloh Chag'oniyonni hozirgi (Surxondaryo va qisman Qashqadaryo viloyatlari bo'lgan) hududidagi Xulug'utti mavzeyida turuvchi Bahovuddin Naqshbandiyning shogirdi Mavlono Yaqub Charxiy huzuriga kelib u bilan tanishadi va Yaqub Charxiyni pir murshid sifatida tan oladi. Shundan so'ng,

u Shoshga qaytadi. Taxminan 1451–1452-yilga qadar u bu yerda bo'ladi. Shu nuqtayi nazarda Xoja Ubaydulloh Mirzo Ulug'bekning o'ldirilishida qo'li bor, degan uydirma haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Bu uydirmalar yoshlarimiz ongida milliy qadriyatlarimizga nisbatan his-tuyg'usini shakllantirish maqsadida ataylab o'ylab topilgan bir usuldir. Ulug'bek o'ldirilgan 1449-yil 25 (27) oktabrda hali Xoja Ubaydulloh Samarqandda hech qanday nufuzga ega emas edi. Agar bu fitnada «qo'li» bo'lganida Temuriy Sulton Abu Saidni shunchalik yuksak martabaga ko'tarmas Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Boburlar pir atab, uning etagidan tutmas edilar.

Xoja Ubaydulloh 1451-1452-yillarda Samarqandga ko'chib kelgach, uning obro'-e'tibori kuchayib ketadi, uni fuqaro va akobirlar pushti panoh deb biladilar. Buning sabablari shundan iborat ediki, birinchidan, Xoja Ubaydulloh o'sha davrda xalq ommasi orasida e'tibor qozongan naqshbandiya Xojagon tariqatining asosiy yo'nalishi shunday belgilagan edi: «Xojagon tariqati darveshlarining udumi shundan iboratki, ular o'zlarining barcha himmatlarini biror-bir ish bilan mashg'ul bo'lishga sarf qilsinlar... Aytibdurlarkim, xaloyiqdan Haq subxonahuga erishish vositasi uni eslashi darajasiga bog'liq bo'lsa-da, ammo uning eng yaxshi yo'li bir musulmon ko'nglini xursand qilishdan iboratdir. Xojai jahon Abdulxoliq G'ijduvoniyning tabarruk so'zlaridan biri budur:

Dari xilvat bandu dari suhbatro kushoy,

Dari shayxiro bandu dari yorira kushoy.

Mazmuni: Xilvat eshigin yopg'il-u suhbat eshigin och!

Shayxlik eshigin yopg'il-u yorliq eshigin och!'

Xoja Ahrorning quyidagi so'zlari ham uning hayotiy dasturi yo'nalishini belgilab beradi: «Agar biz shayxlikni bo'ynimizga olsak edi, unda bironta shayx murid topa olmasdi. Ammo bizga boshqa mas'uliyat, ya'ni musulmonlarni zolimlar zulmidan himoya qilish vazifasi yuklatilgan. Ana shuni amalga oshirish va musulmonlar manfaatini himoya qilish maqsadida, podshohlar bilan muloqotda bo'lib turish, ularning ishonchini qozonish lozim... Agar mashoyixlar o'z vaqtlarini ayab, bu ishga e'tibor qilmagan bo'lsalar, biz fuqaro uchun o'z vaqtimizni ayamaymiz»¹.

Taniqli yozuvchi Yevgeniy Berezikovning hikoya qilishicha, umrining oxirlarida Xoja Ahrorning Samarqand viloyatida 35 ming,

¹ Valixo 'javev B. Xoja Ahror. Uydirma va haqiqat. «Muloqot», 1991, 4-son, 68-bet.

Qarshida 23 ming gektar yerlari, bog‘-rog‘lari, ekinzor dalalari bo‘lgan. U kishining millionga yaqin suruv-suruv qo‘y-echkilari, poda-poda sigir-buzoqlari, ot va yilqilari bo‘lgan. Shuncha boylikka qaramasdan u kishi oddiy bir hujrada faqirona hayot kechirgan¹. Barcha topgan davlat va boyliklarini komil inson sifatida Haq yo‘liga, Oллоh yo‘liga deb beva-bechora va kambag‘allarga, ularni og‘ir soliqlardan ozod qilishga, masjid, madrasalar va xonaqohlar qurilishiga sarf qilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da bunday deb yozadi: «Hazrati Xoja Ubaydullohning mutaalliklarigakim, burun xarj va tajmillarda ko‘p faqir va miskin alarning himoyati bila zulm va taaddidin xalos bo‘lurlar edi». Masalan, manbalarda yozilishicha, Umarshayx Mirzo Shosh aholisidan 250 ming dinor hajmida soliq to‘lashni talab qilganda Xoja Ahror bu soliqning hammasini o‘zi to‘lab yuborgan va yana qo‘shimcha tarzda 70 ming dinorni soliq to‘plovchilarga hadya qilgan ekan. Bularning hammasi albatta Xoja Ahrorning xalq o‘rtasidagi obro‘si va mavqeyining beqiyos darajada oshuviga sabab bo‘ladi. Darhaqiqat, afg‘onistonlik mashhur olim Abdulhay Habibiy aytganidek: «Xoja Ahrorning so‘zlaridan ma‘lum bo‘ladiki, naqshbandiyalar odamlarga ijtimoiy jihatdan foydali bo‘lgan rohat va xursandchilik bag‘ishlash kabi oliyjanoblikni go‘zal axloq deb bilardilar»².

Xoja Ahror Valiy turli ijtimoiy faoliyatdan tashqari, ijodkorlik ilmi bilan ham mashg‘ul bo‘lgan. U kishining mo‘yqalamlariga mansub quyidagi asarlar el aro shuhrat topgan:

1. «Fikrot ul-orifin» yoki ayrim nusxalarda «Voridot» deb ataladi. Bu Xoja Ahrorning tasavvuf ilmiga oid fikrlarini o‘zida aks ettirgan asar bo‘lib, tojik tilida yozilgan.

2. «Risolayi volidiya» yoki «Muxtasar». Asar Xoja Ahror otasining xohishi bilan yozilgan bo‘lib, odob-axloq va insonning o‘zini tanishiga bag‘ishlangan. Bu nodir asar odamlar o‘rtasida katta shuhrat qozongan. Uni Bobur 1528–1529 -yillarda o‘zbek tiliga o‘girib, 245 baytlik nazmiy risolaga aylantirgan.

3. «Risolayi xuroiya». Bu asarni Xoja Ahror mashhur shoir Abu Sa‘id Abulxayrning bir ruboiysi sharhiga bag‘ishlab yozgan.

4. «Ruqaot». Bu maktublardan iborat.

¹ Berezikov E. Xoja Ahror sirr-u asrori. «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati», 1991-yil 25-yanvar.

² Valixo‘jayev B. Xoja Ahror. Uydirma va haqiqat. «Muloqot», 1991, 4-son, 67-bet.

Yuqoridagi qisqacha yuritilgan fikr-xulosalardan ma'lumki, Xoja Ubaydulloh Ahror tasavvuf ilmining buyuk vakillaridan biridir. Shul bois, uni o'zlariga ma'naviy pir deb hisoblagan buyuk shaxslar orasida Abduramon Jomiy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburlar bordir. Alisher Navoiy Xoja Ahrorni ulug'lab, bunday deb yozadi:

*Ulki, bu ofoq ichida toq erur,
Tok nekim, murshidi ofoq erur.*

Navoiy uni dunyo miqyosidagi odamlarga yo'l ko'rsatuvchi ulug' bir murshid, hatto, shohlar ham uning xizmatiga tayyor der ekan, u bilan muloqotda bo'lgan gadolar ham o'zlarini ma'naviy jihatdan shoh deb his etishini ta'kidlaydi.

Xullas, ulug' Movarounnahr tuprog'ida komili inson darajasiga ko'tarila olgan Xoja Ubaydulloh Ahror o'z davrining ma'naviy-ijtimoiy hayotida katta va o'chmas iz qoldiradi. Chex olimi Feliks Tauer so'zlari bilan aytganda, «Turkistonning bu yorug' mash'ali» o'zining fuqaroparvarlik g'oyalari nurlari bilan hamon porlab turmoqda.

Shunday qilib, Temur va temuriylar davrida o'lkamizda fan va madaniyat barq urib o'sadi, rivojlanadi va kamol topadi. Fan, madaniyatning qaysi bir sohasi, qaysi bir tarmog'ini ko'zdan kechirmayliq ona diyorumiz XIV va XV asrlarda jahon sivilizatsiyasining eng oldingi saflaridan joy olganligining guvohi bo'lamiz. Temuriylar sulolasi davri jahon fani va madaniyatining Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ubaydulloh Ahror kabi ulug' vakillarini yetishtirib berdi. Ular o'z faoliyatlari, yozgan asarlari bilan jahon sivilizatsiyasi xazinasiga munosib hissa qo'shdilar. XIV–XV asrlardagi Movarounnahr va Xurosonda moddiy va ma'naviy taraqqiyotining tamal toshini ulug' bobomiz sohibqiron Amir Temur qo'ygan edi. O'zi pok, dili pok, islom g'oyasi bilan sug'orilgan ma'naviyati pok, yurt va millat birligi bilan butun qalbi, vujudi to'lib-toshgan Amir Temursiz bu davr madaniy taraqqiyotini tasavvur etish mumkin emas. Bu jihatdan ulug' bobomiz Amir Temurni shu paytgacha o'tgan jahongirlarning biron-tasi bilan qiyoslay olmaymiz. Shu ma'noda «Ipak yo'li – muloqot yo'li» Xalqaro ilmiy safar koordinatori senegallik doktor Dudu Dvenning quyidagi so'zlari diqqatga loyiqdir: «Temur nihoyatda serqirra, faoliyati murakkab siymo, ulug' zot. U, bir tomondan, dunyoni titratgan jahongir, ikkinchi tomondan, dunyo avlodlarini ma'naviy, moddiy qarzdor qilgan buyuk inson! Tarixda buyuk sarkardalar ko'p

bo'lgan. Bordi-yu fransuz sarkardasi Napoleon bilan Temurni qiyoslaydigan bo'lsak, ikkinchisi birinchisidan o'n chandon ustun turadi. Napoleon jahongir bo'lib, borgan joylarini vayron etib, qurilishlarga kam e'tibor bergan bo'lsa, Temur o'z davrining buyuk sarkardasi, fотиhi sifatida eng yaxshi ustalarni, olim-u fozillarni o'zi bilan birga olib yurib, ko'pgina go'zal shaharlarni bebaho binolar bilan bezagiga bezak, ko'rkiga ko'rk qo'shdi»¹.

Mustaqillik sharofati tufayli Amir Temur sohibqiron o'zining tarixda tutgan munosib o'rniga ega bo'lmoqda. 1996-yil O'zbekistonda «Amir Temur yili» deb e'lon qilindi, YUNESKO Bosh konferensiyasi 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro maydonda nishonlashga qaror qildi. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 1995-yil 29-dekabr sonida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «1996-yilni «Amir Temur yili» deb e'lon qilish to'g'risida»gi farmonida quyidagilarni o'qiyimiz: «O'zbekiston fuqarolarining yosh avlodning milliy iftihar va vatanparvarlik tuyg'ularini yanada rivojlantirish maqsadida, 1996-yil «Amir Temur yili» deb e'lon qilinsin». Bu ulug' Sohibqironning tarix oldidagi o'rniga berilgan yuksak va qonuniy bahodir.

Nazorat savollari

1. Amir Temurning «Kuch adolatda» shiorini ta'riflab bering.
2. Amir Temur qurdirgan tarixiy obidalar va ularning ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Amir Temurning ma'naviy hayot va ilm-fan homiysi ekanligini ochib bering?
4. Ulug'bek shaxsiyati va uning akademiyasiga ta'rif bering.
5. Tarix va tarixshunoslik tushunchalarini ta'riflay olasizmi?
6. Bu davrda badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodi qay darajada taraqqiy topdi?
7. Kitobat san'ati, xattotlik va tasviriy san'at. Mashhur xattotlardan kimlarni bilasiz?
8. Bahouddin Naqshband va naqshdandiya tariqatining ilmiy, diniy, ma'naviy ahamiyati nimadan iborat?
9. Xoja Ubaydulloh Ahror ta'limotidan misollar keltira olasizmi?
10. Shaxsan o'zingizda ushbu davr ma'naviy merosidan namuna bo'lgan qanday manbalaringiz bor?
11. Prezidentimiz Islom Karimovning Amir Temur va uning merosi haqida nimalar aytganini bilasizmi?
12. Amir Temur va uning merosiga sovetlarning munosabati qanday edi?
13. Mustaqillik yillarida Amir Temur va uning hayoti va faoliyati, qadr-qimmatini qanday baholanmoqda?. Bu sohada shaxsan Islom Karimovning xizmatlarini tavsiflab bering.

¹ Malik Murod. Jahongir va «Buyuk ipak yo'li». «Yosh leninchi», 1991-yil 31-iyul.

QISQACHA ATAMALAR LUG'ATI

- Ajam** – Eron mamlakati va xalqi. Umuman – arabmaslar.
- Azarhurra** – otashparastlar topinadigan muqaddas olov o't.
- Azata** – erkin shaxs; ozod ma'nosida. «Avesto»ga ko'ra, o'sha zamon jamoasining a'zolari asosan, «azata»lardan tashkil topgan.
- Ayl** – Amir Temur askariy qismlarining o'n nafarlik bo'linmasi.
- Akkor** – noranda; qishloqning ziroatkor aholisi.
- Amid ul-mulk** – davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri.
- Amir** – farmon beruvchi, boshliq, hokim, qo'shin boshlig'i, sarkarda, hukmdor.
- Amirlik** – musulmon mamlakatlarida amir tomonidan boshqarilgan mamlakat yoki viloyat.
- Amir ul-umaro** – amirlar amiri, bosh amir, bosh hukmdor.
- Aninizm** – ruh va jonga ishonosh, ota-bobolar ruhiga sig'inish.
- Anqo** – Sharq mamlakatlarida zikr qilinishicha, Qo'hi Qof tog'ida yashagan afsonaviy qushning nomi.
- Araz** – qo'shin ta'minoti bilan shug'ullanuvchi vazir.
- Arbob** – Buxoro amirligida qishloq yoki shaharlarda mahalla boshlig'i, oqsoqol.
- Ark** – ichki qal'a, podshohning shahar ichidagi qo'rg'on – saroyi, qarorgohi.
- Arxeolog** – arxeologiya mutaxassisi, arxeolog olim.
- Arxeologiya** – qadimdan qolgan, qadimiy yodgorliklar haqidagi tushuncha, qadimgi zamonlar haqidagi fan.
- Arxiv** – davlat yoki ayrim shaxslarga tegishli muhim qadimiy hujjatlarni saqlaydigan maxsus tashkilot.
- Atrok** – turklar.
- Axriman** – Zardushtiylilik dinining zulmat, ochlik, urush, o'lim, gunoh va qabihlik tangrisi.
- Axuramazda** – zardushtiy va mazdaklarda oliy tangri, yorug'lik, farovonlik, sihat– salomatlik, tinchlik va barcha ezguliklar xudosi.
- A'lo hazrat** – hazrati oliylar, janobi oliy.
- Badaviy** – yovvoyi, qo'pol, dag'al, dashtlik – cho'l odami, ko'chmanchi, arab ko'chmanchilari.
- Band** – toshlardan bino qilingan suv omborining to'g'oni, suv ombori, to'g'on.

- Barzikor** – qoʻshchi, ziroatkor, qishloqning mehnatkash aholisi.
- Barot** – 1. Hijriy yil hisobi bilan sakkizinchi oy (Shaʼbon), 2. Oqlik qogʻozi – hukmdor tomonidan berilgan ozodlik xati, yorugʻlik, 3. Ijaraga olish, 4. Barqondon, ilgari barot oyining oxirida qilinadigan bazm va suhbat.
- Begar** – jamoat ishlariga safarbar etish, hashar.
- Bibliya** – Tavrot, yahudiylar va xristianlarning «muqaddas» kitobi
- Biy** – urugʻ va qabila oqsoqoli.
- Boj** – savdogarlardan olinadigan oʻlpon, soliq, tovon
- Borgoh** – makon, dargoh, dunyoga keladigan va unga qaytadigan azaliy muqaddas maskan (joy).
- Botmon** – ogʻirlik oʻlchovi (XII–XV asrlarda 20 kg ga teng boʻlgan)
- Burongʻor** – qoʻshinning oʻng tomoni
- Burgʻu** – karnay.
- But** – but, sanam, yakka xudoli dinlar kelib chiqquncha urugʻchilik va qabilachilik davrida keng tarqalgan majusiylilik, butparaslik dini.
- Buxorxudot** – VII asrning 80-yillaridan VIII asrning birinchi choragigacha Buxoroda hukmronlik qilgan sulola.
- Boʻdun** – chorvador aholi. qora boʻdun – qora xalq.
- Vazir** – devonxona boshligʻi, ministr.
- Valiahd** – toj-u taxt vorisi, oʻrinbosar.
- Valiy** – avliyo, aziz, ega, sohib.
- Varvar** – yunonlar oʻzlaridan boshqa barcha xalqlarni kamsitib, «varvar» soʻzini ishlatganlar, bu soʻz madaniyatsiz, johil, qoʻpol, yovvoyi maʼnosini anglatadi.
- Vaqf** – musulmon mamlakatlarni masjid, madrasa va boshqa diniy masalalarga qarashli boʻlgan yer-mulklar.
- Vahiy** – ilohiy habar.
- Vaqfnoma** – vaqf yerlarini ixtiyoriy ravishda berilganligi yoki vasiyat qilinganligini tasdiqlovchi hujjat.
- Gurxon** – qabila birlashmasi; xon unvoni.
- Davlat** – bir sinf ustidan ikkinchi sinfning hukmronligini taʼminlovchi, zoʻrlikka tayanuvchi mashina, apparat.
- Darvish** – kambagʻal, soʻfi, qalandar, faqir.
- Darra** – charm va qayishdan toʻqilgan yoʻgʻon va ogʻir zarb beruvchi qurol.
- Darxon** – XII–XIII asrlarda moʻgʻul qabilalari orasida qoʻllanilgan unvon. Darxonlar har qanday soliq va majburiyatlardan ozod qilinganlar, ulugʻ xon huzurida boʻlish huzuridan ham foydalanganlar.
- Dargʻacha** – moʻgʻullarda chorva xoʻjaligini idora qiluvchi boshliq.

- Dahma** – maqbara, yer osti va yer usti sagʻanasi, qabr ustiga qoʻyilgan yodgorlik.
- Dashti qipchoq** – qipchoq dashti.
- Devon** – vazirlar mahkamasi.
- Devonbegi** – vazirlar mahkamasini bosh maʼmuri.
- Dehqon** – «qishloq hokimi», yer egasi, feodal.
- Dinor** – oltin, kumush tanga (bir misqol – 4,8 gr.ga teng boʻlgan).
- Dovul** – katta nogʻora.
- Dorugʻa** – harbiy maʼmur.
- Dudang** – hosilning oltidan ikki hisobida olinadigan dehqonchilik soligʻi.
- Enichar** – turklarning piyoda askari.
- Yom–jom** – savdo yoʻllaridagi qoʻnoq.
- Jaloyir** – oʻzbek-turk qabilalaridan biri
- Jamoa** – kishilar birlashmalari shakllaridan biri, asosan, iqtisodiy ibtidoiy jamoa tuzumi davriga xosdir.
- Jarib** – 958 km. m yer maydoni.
- Jarchi** – feodalizm davrida hukmdorlarning xalqqa qarata chaqirgan farmoni, ayrim shaxslarni taqdirlash yoki jazolash haqidagi amrini, urush eʼlon qilish yoki tugagani haqidagi xabarni va shu kabi xabarlarini bozor maydoni yoki jamoa toʻplangan boshqa yerda baland ovoz bilan eʼlon qiladigan shaxs.
- Jayhun** – Amudaryoning qadimgi nomlaridan biri.
- Jahongir** – jahonni oluvchi, jahonni boʻysundiruvchi.
- Jeta** – qaroqchi, qoloq.
- Jiyba, Jeva** – qadimgi temir yoki poʻlatdan yasalgan harbiy kiyim.
- Jilovdor** – xonni yoki boshqa oliy martabali kishini otga mindirib va tushirib qoʻyuvchi xizmatkor.
- Jomeʼ masjidi** – juma kunlari jamoat namozi oʻqiladigan katta masjid.
- Juvongʻor** – qoʻshinning soʻl qanoti.
- Juzʻya** – islom dini qoidasiga koʻra, gʻayridinlardan olinadigan soliq.
- Joʻji ulusi** – Chingizxon saltanatining 1224-yildagi boʻlinishida uning katta oʻgʻli Joʻjixonga tekkan ulus.
- Zakot** – tozalash, 1. Musulmon mamlakatlarda aholi umumiy boyligining 1/40 miqdorida har yili olinadigan diniy soliq, 2. Musulmonlarda «Tozalovchi» diniy soliq boʻlib, bu haqida «Qurʻon»da oyat bor.
- Zarbxona** – chaqa va tangalar soʻqiladigan ustaxona.

- Zardushtiylik** – miloddan avvalgi VI asrda Oʻrta Osiyo, Ozarbayjon va Eron xalqlarining qadimiy otashparastlik dini, uning nomi shu dinga asos solgan payʼambar Zardusht yoki Zardoʻst nomi bilan bogʻliq (yunoncha zoroastr).
- Zindiqlik** – xudosizlik, dinga ishonmaslik.
- Zindon** – qorongʻilik, oʻtmishda yer ostidagi qamoqxona, yertoʻla.
- Zulqarnayn** – Iskandarning laqabi, ikki shoxli maʼnosida.
- Ilekxon** – Qoraxoniylar sulolasiga mansub boʻlgan kichik hukmdorning unvoni.
- Ilmi aruz** – sheʼriyat.
- Ilmi hayʼat** – astronomiya.
- Imom** – 1. Diniy oliy rahbar, hukmdor (xalifa, Yaman viloyatining boshqaruvchisi, turklarda sulton, forslarda Alining avlodi), 2. Shialarning oliy boshligʻi. 3. Toʻrt asosli mazhabdan oyi, islom dini rivoyatlarga koʻra, shu oyda Qurʼoni karim Ollohu taolo tomonidan yerga yuborilgan.
- Rasul** – elchi paygʻambar.
- Registon** – qum toʻshalgan maydon; sahn.
- Riyozot** – matematika.
- Sadoq** – oʻqdon.
- Sadr** – diniy va dunyoviy hokimiyat hukmdori.
- Said** – 1. Muhammad paygʻambar avlodlarining faxriy unvoni 2. Baʼzi musulmon mamlakatlarida hukmdor unvoni.
- Saltanat** – hokimiyat, Sultonlik, podsholik, hukmronlik, boshqarish imperiyasi.
- Sarbador** – boshini dorga tikuvchi, dor ostiga boruvchi.
- Sarboz** – oddiy jangchi.
- Sardor** – boshliq, yetakchi, yoʻlboshchi, rahbar.
- Sipoh** – Askar, qoʻshin.
- Sohibqiron** – jahon egasi, jahongir.
- Suvoriy** – otliq askar.
- Sulton** – podshoh, hukmdor.
- Sultonlik** – tepasida Sulton turgan monarxiya davlati, Sulton hokimiyati.
- Sunniylar** – sunniy mazhabidagilar, sunnatga amal qiluvchi musulmonlar.
- Suyurgʻol** – oliy tabaqa zodagonlarga inʼom qilingan yer-mulk
- Tavorix** – tarixlar.
- Tavrot** – besh kitob, yahudiylarning «muqaddas» besh kitobi, qadimgi vaziyat.
- Talant** – soliq miqdori, bir talant 34 kg teng

- Talmud** – ta’limot, Ta’lud. Injilni izohlash maqsadida miloddan avvalgi IV asrdan milodning V asri o’rtalarigacha qadimgi yahudiy tili va aramey shevasida yozilgan diniy kitob.
- Tamg’a** – savdo boji, savdogarlardan olinadigan soliq.
- Tanob** – yer o’lchovi, taxminan 41 sotix yer maydoni.
- Tarxon** – ozod etilgan. 1. O’rta asrlarda feodalning unvoni. 2. Soliqlar to’lashdan ozod etilgan yer va mulklar. 3. O’zbek–turk urug’larining birining nomi.
- Taxt** – muayyan balandlikda o’rnatilgan serhasham, ziynatli tayanma kursi, podsho (monarx) o’tiradigan joy, podsholik, saltanat.
- Taxt vorisi** – valiahd, saltanat vorisi, toj-u taxt merosxo’ri, merosxo’r shahzoda, bo’lajak hukmdor.
- Toj** – toj-taxt, saltanat, mustabid hokimiyat belgisi.
- Totem** –urug’ yoki qabila ibtidosi, urug’ asoschisi, ajdod, urug’ jamoalari topinadigan hayvon, o’simlik yoki jism.
- Totemizm** – totemlarga sig’inish.
- Tuman** – 1. O’n minglik harbiy qism. 2. Uyezd, rayon. 3. O’n ming. 4. Eron tilla puli.
- Tuman og’asi** – o’n minglik askariy qism amiri, qo’mondon.
- Tug’ro** – davlat nishonasi, gerb.
- Ulamo** – olimlar, musulmon davlatlarida qozilar, musulmon ruho-niylarining yuqori tabaqasi.
- Ulus** – el, xalq, qabila.
- Umaro** – amirlar.
- Ummat** – bir tilda so’zlashuvchi kishilar, bir payg’ambarga tobe in-sonlar.
- Usturlob** – astronomiya asbobi, astrolobiya.
- Ushur** – hosildan 10 foiz hisobida olinadigan deqqonchilik solig’i.
- Farmondo** – boshqaruvchi.
- Fulus** – mayda mis chaqa.
- Fiqh** – diniy huquq ilmi.
- Xabargir** – xabarchi, kuzatuvchi, ayg’oqchi.
- Xazara** – minglik askariy bo’linma.
- Xalifa** – o’rinbosar; xulafo – xalifalar.
- Xalifalik** – xalifa hokimiyati.
- Xandasa** – geometriya.
- Xandaq** – mudofaa inshooti.
- Xatib** – din peshvosi.
- Xattot** – kitob va risolalar ko’chiruvchi kotib.
- Xiroj** – soliqning bir turi; hosilning 20–25 foizi hisobidan olinadigan qishloq xo’jalik solig’i.

Xoja	– ega, boshliq, uy egasi, oila boshligʻi.
Xonaqoh	– machit ibodatxonasi, gʻaribxona, musofirxona.
Xutba	– juma kunlari va hayitlarda oʻqiladigan namoz (unga davlat boshligʻining nomi qoʻshib oʻqilgan).
Xoʻja, xoja, xoʻjayno, xoʻjayin.	– yer-suv xoʻjasi.
Charxpalak	– suv koʻtartish inshooti.
Cherik	– qoʻshin, askar.
Chiqir	– tuya yoki hoʻkiz qoʻshib aylantiriladigan suv koʻtargich inshoot.
Chokar	– harbiy drujina, qurollangan guruh, koʻngillilar toʻdasi.
Chorakor	– oʻzgalar yerida ishlab, hosilning 25 foizini oʻziga olib ishlaydigan yollanma qoʻshchi, ziroatkor.
Choʻr	– lashkarning sharqiy qanot amiri.
Shayx	– islom dinida oliy Ruhoniylar vakili, diniy aqidalarni biluvchi, vaʼz-nasihat qiluvchi baʼzan oliy, diniy oʻquv yurti talabasi.
Shayxul-islam	– din va islom ilmi peshvosi, islom dini oqsoqoli, diniy arbob.
Shariat	– Qurʻoni karimda bayon qilingan islom dinining huquqiy va urf-odat qoidalari.
Shahriston	– ichki shahar.
Shialar	– shia mazhabidagilar, shiaga amal qiluvchi musulmonlar.
Shoh	– podsho, monarxlik unvoni.
Eloqxon	– elning oq xoni; yurtning kichik hukmdori, viloyat hokimi.
Etnogenez	– xalq va elatning kelib chiqishi.
Yabgʻu yoki jabgʻu	– el-yurt hokimi.
Yalavoch	– xabar yetkazuvchi.
Yasovul	– soqchi.
Yasoq	– soliq, jarima, toʻlov.
Oʻlpon	– yer soligʻi.
Oʻrdugoh	– qoʻshin lageri, toʻxtaydigan qoʻnoq; podsho qarorgohi.
Oʻtloq va suvloq	– yaylovlardan olinadigan soliq.
Qavm	– bir mahalla, qishloq kishilari, bir urugʻ vakillari.
Qaysar	– podshoh; Rim va Yunon podsholarining qadimiy laqabi.
Qalandar	– dunyodan koʻngli sovib oʻzini chekkaga olgan kishi, tarki dunyo qilgan odam, uzlatga ketgan kishi; elma-el tentirab yuruvchi darvesh.
Qalʼa, qasar	– saroy, qoʻrgʻon.
Qasida	– sheʼriy madh, maqtov yoki marsiya.

- Qiron** – ikki sayyoraning bir burchagiga yaqin kelishi.
- Qozi** – ijrochi, amalga oshuruvchi, hukm qiluvchi.
- Qoziul quvvat** – bosh qozi, oliy sudya.
- Qoraxon** – buyuk xoqon
- Qul** – xo'jayinining, quldorning xususiy mulki bo'lib qolgan kishisi.
- Quldor** – qulga egalik qiluvchi ekspluatator.
- Qurultoy** – turkiy va mo'g'ul xalqlarida umumiy yig'ilish, s'yezd
- Qur'on** – islom dinining muqaddas kitobi.
- Qo'rg'on** – atrofi baland devor bilan o'ralgan darvozali turar joy.
- G'azavot** – harbiy yurish, bosqin, hujum. Islom dinini yoyish maqsadida va g'ayridinlar, kofirlarga qarshi qurol kuchi bilan amalga oshiriladigan «muqaddas» urush.
- G'oziy** 1. Musulmonlarning g'ayridin, kofirlarga qarishi olib borgan urushlari. 2. G'ayridinlarga qarshi kurashga rahbarlik bilan yoki alohida mahorat bilan urushgan jangchiga beriladigan faxriy unvon.
- G'ulomlar** – qarollar, qullar, yosh xizmatkorlar.
- G'usa** – cho'milish.
- Hazrati oliylari** – podsholar va hukmdorlarni ulug'lash maqsadida ularning nomiga qo'shib aytiladigan so'z.
- Hijr** – 622-yilda payg'ambar Muhammad alayhissalom va musulmonlarning Makkadan Madinaga ko'chib borishlari: Hijr musulmon yilining boshlanishi hisoblanadi.
- Hojib** – harbiy boshliq.
- Hojibul** – hujob; qo'mondon.
- Hojir ul-asvod** – Makkadan hojilar tavof qiladigan katta qora tosh.
- Hokim** – Viloyat hokimi; 2. hukmdorning viloyatdagi noibi; 3. Shahar, uyezd hokimi.
- Horun** – posbon, kuzatuvchi; Muso payg'ambar akasining ismi.
- Hoqon yoki qon** – hukmdor, podsho.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Karimov Islom.** O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: «O'zbekiston», 1996.
- Karimov Islom.** Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: «O'zbekiston», 1996.
- Karimov Islom.** Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – T.: «O'zbekiston», 1996.
- Karimov Islom.** Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. – T.: «O'zbekiston», 1996.
- Karimov Islom.** Yangicha fikrlash va ishlar – davr talabi. 5-jild – T.: «O'zbekiston», 1996.
- Karimov Islom.** Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. – T.: «O'zbekiston», 1998.
- Karimov Islom.** Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. 7-jild. – T.: «O'zbekiston», 1999.
- Karimov Islom.** Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: «O'zbekiston», 2000.
- Karimov Islom.** Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. – T.: «O'zbekiston», 2001.
- Karimov Islom.** Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. – T.: «O'zbekiston», 2002.
- Karimov Islom.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat» 2008.
- Karimov Islom.** O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O'zbekiston», 2011.
- Karimov Islom.** Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi qoshida «O'zbekistonning yangi tarixi Markazini tashkil etish» to'g'risida 1996-yil, 18-sentabrdagi Farmoyishi.*
- «O'zbekistonning yangi tarixini»ni tayyorlash va nashr etish to'g'risida.* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 1996-yil 16-dekabr. «Xalq so'zi», 1996-yil, 17-dekabr.
- «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida».* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-iyuldagi qarori. «Xalq so'zi», 1998-yil, 2-iyul.
- Abdullayev I.** Abu Mansur Abdumalik as-Saolibiy. Tatimmat al-Yatima. – T.: «Fan», 1990.
- Abdullayev I., Xikmatullayev X.** Samarqandlik olimlar. – T.: «Fan», 1969.
- Abu Ali Ibn Sino.** Tib qonunlari. Uch jildlik saylanma. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1992.
- Abdurahmonov A.** Ulug'bek akademiyasi. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1993.

- Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy.* Buxoro tarixi. – T.: «Fan», 1966.
- Abulg'oziy.* Shajarayi turk. – T.: «Cho'lpon», 1992.
- Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil – al Buxoriy.* Hadis. 1-kitob. Al-jomi as-sahih (ishonarli to'plam). – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991.
- Abu Iso Termiziy.* Sahihiy Termiziy. Tanlangan hadislar. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1993.
- Abu Nasr Forobiy.* Fozil odamlar shahri. – T., 1993.
- Abu Rayhon Beruniy.* Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T., «Fan», 1968
- Abulgosim Firdavsiy.* Shohnoma. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1984.
- Абусаитова М.Х и др.* История Казахстана и Центральной Азии. Алматы, 2001.
- Alimova D.A.,* Filanovich M.I. Toshkent tarixi (qadimgi davrlardan bugungi kungacha). Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri. –T.: «ART FLEX», 2009.
- Alimova D.A. Buryakov Y.F., Rahmatullayev SH.M.* Samarqand tarixi. (qadimgi davrlardan bugungi kungacha) – T.: «ART FLEX», 2009.
- Amir Temur Ko'ragon.* Zafar yo'li. Nashrga tayyorlovchi Ashraf Ahmad. – T.: «Nur», 1992.
- Amir Temur o'g'itlari.* – T.: «Navro'z», 1992.
- Асанканов А.А.* История Кыргызстана (С древнейших времен до наших дней) Учебник для высших учебных заведений. (Издания третье, дополненное). Бишкек, 2009.
- Asqarov A.* O'zbekiston tarixi (eng qadimgi davrlardan eramizning V asrigacha). – T.: «O'qituvchi», 1994.
- Asqarov A.* O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarkibi. – T.: «Universitet», 2007
- Asqarov A.* Bir kitob haqida ming e'tiroz. – T., 2013
- Asqarov A.* O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – T.: «O'zbekiston», 2015.
- Ahmad Yassaviy.* Hikmatlar. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1991.
- Ahmedov B.* Ulug'bek (Esse) – T.: «Yosh gvardiya», 1989.
- Ahmedov B.* Tarixdan saboqlar. – T.: «O'qituvchi» 1994.
- Ahmedov B.* Amir Temur (tarixiy roman). – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti.
- Ahmedov B.* Sohbiqiron Temur (Hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati) – T., 1996 (O'zb, rus, ing. tillarida)
- Ashrab Ahmedov.* Ulug'bek Muhammad Tarag'ay (1394–1449). – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994.
- Abdulloh Ismatulloh hoji.* Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – T.: «Sharq», 2005.
- Boynazarova Fayzulla.* Antik dunyo. – T.: «Mehnat», 1989.
- Boqirg'oniy Sulaymon.* Boqirg'on kitobi. – T.: «Yozuvchi», 1991.
- Buxoro ochiq osmon ostidagi muzey.* – T.: «G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti», 1991.
- Буниётов З.Н.* «Государство Хорезмшахов – Ануштегинидов (1097-1231) – М.: «Наука», 1986.
- Бартольд В.В.* Туркестан в эпоху мангольского нашествия. ч. II. С. Р. 1900.
- Бартольд В.В.* Улугбек и его время. В кн: Бартолд. соч. Т. II. ч. 2. – М.: «Наука», 1964.

- Бернес Ф.** История последних политических переворотов в господстве Великого Могола. – М., 1936.
- Boyqaro Husayn.** Jamolindan ko'zim ravshan. – Т.: G'afur G'ulom nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
- Boboyev H.** O'zbek davlatchiligi tarixi. 1-kitob. – Т.: «Fan», 2004.
- Boboyev H., Xidirov Z., Shodiev J., Ahmedova M.** O'zbek davlatchiligi tarixi. 2-kitob. – Т.: «Fan va texnologiya». 2009.
- Valixo'jayev B.** Xo'ja Ahror tarixi. – Т., «Yozuvchi», 1994.
- Гиясиддин Али.** Дневник похода Темура в Индию. – М.: ИВЛ, 1958.
- Sagdu llayev A, Kostetskiy.** TARIX. Qadimgi dunyo. 6-sinf o'quvchilari uchun darslik. To'ldirilgan ikkinchi nashr. – Т.: «Sharq», 2005-y.
- Sagdu llayev A, Kostetskiy.** TARIX. Qadimgi dunyo. 6-sinf o'quvchilari uchun darslik. To'ldirilgan uchinchi nashr. – Т., 2009.
- Samarqand tarixi.** 1-jild. – Т.: «Fan». 1971.
- Samarqand sivilizatsiyalar chorrahasida// Fan va Turmush (Nauka I jizn Uzbekistana).** № 3–4, 2007.
- Sagdu llayev A., Aminov B., Mavlonov., Norqulov N.** O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. 1-qism. – Т.: «Akademiya», 2009.
- Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni.** – Т., S.: «FAN», 2007.
- Somon yo'li.** Abadiy-tarixiy majmua. Amir Temur hayotiga bag'ishlanadi. – Т.: «Kamalak», 1992.
- Sulaymonova F.** Sharq va G'arb. – Т.: «Fan», 1991.
- Ibodov J.** Matievskaya, Ulug'bek shogirdi – Ali qushchi. – Т.: «Fan», 1994.
- Ivanin M.** Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur – Т.: «Xazina», 1994.
- Irisov A.** Abu Rayhon Beruniy. – Т.: «Fan», 1960.
- Irisov A.** Beruniy va Hindiston. – Т.: «Fan», 1963.
- Irisov A.** Hakim Ibn Sino. – Т.: «O'zbekiston», 1992.
- Is'hoqov M.** Sug'diyona- tarix chorrahasida. – Т.: «Fan», 1990.
- Is'hoqov M.** Unutilgan podsholikdan xatlar. – Т.: «Fan», 1992.
- Isamididinov M. X.** Istoki gorodskoy kulg'turiy Samarkandskogo Sogda. – Т.: 2002
- Ibn Arabshoh.** Amir Temur tarixi. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Ubaydulla Uvatov. – Т.: «Mehnat», 1992.
- Ziyo Ko'kali.** Turkchilik asoslari. – Т., 1994.
- Ziyo A.** O'zbek davlatchiligi tarixi. – Т.: «Sharq» 2000.
- Ziyoyev H.** O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. – Т.: «Sharq» 2001.
- Karimov Sh., Shamsutdinov R. T.** Vatan tarixi (Birinci kitob). Andijon, «Meros», 1995, 548-bet.

Костетский В.А., Прохорова Л. Л. История Узбекистана Словар исторических терминов и понятий. Издание второе, исправленное, дополненное. – Т.: «Консаудитинформ Нашр», 2007.

Каукадаря. – Т.: «Узбекистон», 1995.

Ko'hna Samarqand arxeologiyasi. Т., 2002.

Козыбаев М. Ата тарихы туралы сыр. «Егемен Казахстан», 1992.

Козыбаев М. Отечественная история XX века: мифы и реальность. «Казахстанская правда». 2000, 25 мая: Абдиакимов Абдужапар. История Казахстана (с древнейших времен до наших дней). Изд. четвертое переработанное и дополненное «Казахстан», Алматы.

Qayumov Aziz. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino. – T.: «Yosh gvardiya», 1987.

Qoshg'ariy Mahmud. Devoni lug'otit turk. I–III jildlar. – T.: «Fan», 1960–1963-yillar.

Qayumov Aziz. Ahmad al-Farg'oniy. – T.: «Fan», 1990.

Qayumov Aziz. Alisher Navoiy. – T.: «Kamalak», 1991.

Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. Terma parchalar. – T.: «Yurist-Media Markazi», 2008.

Qodirov A.A. O'rta Osiyoda meditsinaning paydo bo'lishi. – T.: «Ibn Sino», 1990.

Qoriyev Maqsud. Spitamen. Tarixiy roman. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1989.

Qoriniyozov T.N. Sovet O'zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar. O'zbekiston SSR FA nashriyoti. – T.: 1996

Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima. – T.: «Cho'lpon», 1992.

Лунев Ю.Ф. Государство и право Узбекских ханств с XIV по XIX века. Москва, 2004.

Madrayimov Abdumajid, Fuzailova Gavhar. MANBASHUNOSLIK. Bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008.

Mallayev N.M. Abulqosim Firdavsiy. – T.: 1962.

Mamadazimov Mamadmuso. Ulug'bek va uning rasadxonasi. – T.: «O'zbekiston», 1994.

Масанов Н. Е. ва б. История Казахстана, народы и культуры. Алматы, 2001.

Mahkam Mahmud, Qutiboyev Zokir. Hoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning ma'rifat maktabi. Badi'a – qissa. (Tavalludining 900 yilligiga). – T.: «O'qituvchi», 2003.

Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – T.: «Cho'lpon», 1994

Mirkarim Osim. Jayhun ustida bulutlar. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1975.

Mirkarim Osim. Ajdodlarimiz fojiasi. Tarixiy qissalar. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1983.

Mirmuhsin. Xo'jand qal'asi. Roman. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1991.

Mulla Mir Ahzam ibn Sulton (A'zam Toshkandiy). Iskandarnoma. – T.: G'ulom Hasan Orifjonov bosmaxonasi, 1912.

Mulla Salohiddin ibn Mullo Aloiddin xoja eshon (Salohiddin Toshkandiy). Temurnoma. Nashrga tayyorlovchi Poyon Ravshanov. – T.: «Cho'lpon», 1990.

Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rmi va roli. – T.: «Fan», 1968.

Muhammadjonov A. Qadimgi Toshkent. – T.: «Fan», 1968.

Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi (V asrdan XIV asr boshlarigacha). – T.: «O'qituvchi», 1994.

Мухаммеджанов А. Р. и др. Городихе Пойкент. – T.: «Фан», 1988.

Muhammad payg'ambar qissasi. Hadislar. – T.: «Kamalak», 1991.

- Nabiyev R.N.* XIV asrda O'rta Osiyoda sarbadorlar qo'zg'oloni. – T., 1948.
- Navoiy zamondoshlari xotirasida* (To'plam). – T.: «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1989.
- Narshaxiy.* Buxoro tarixi. – T.: «Kamalak», 1991.
- Nasafiy.* Hazrat Bahouddin Naqshband. – T.: «Meros», «Nur», 1992.
- Nasafiy.* Xo'ja Ahmad Yassaviy. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1993.
- Нафасов Т.* Топонимы Кашкадарьинской области. АКД. – T., 1968.
- Nasimxon Rahmon.* Turk haqonligi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.
- Norqulov N.* Kamoliddin Behzod. – T.: «Fan». 1964.
- Norqulov N., Nizomiddinov I.* Miniatyura tarixidan lavhalar. – T., 1970.
- Nasriddin Burhoniddin Rabg'o'ziy.* Qissai Rabg'o'ziy. – T.: «Yozuvchi», 1990.
- Nosirov A.* Ali qushchi. – T., 1964.
- Nosirov A., Hikmatullayev A.* Ahmad Farg'oniy. – T.: «Fan», 1966.
- Nosirov O'.* O'zbeklar shajarasi. Etnik tarixga xolis nazar (qayta ishlangan uchinchi nashr). – T., 2010.
- Ravshanov Poyon.* Adabiy sahifalar. – T.: «O'qituvchi», 1980.
- Рувеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С.* Современные мифы о далеком прошлом народов Центральной Азии. – T.: «O'zbekiston», 2006.
- Rustamov A.* Mahmud Zamaxshariy. – T.: «Fan», 1979.
- Termiziy Adib.* Saylanma. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1982.
- Temur tuzuklari.* – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1991.
- Tolstov S.* Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – T.: «Fan», 1964.
- Tursunov I., Karimov Sh., Shamsutdinov R.* O'zbekiston tarixi fani dasturi. Universitetlar va pedagogika oliy O'quv yurtlarining tarix fakultetlari uchun. – T., 1996, 62-bet.
- Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev B., Pardayev T.* Surxondaryo tarixi. T.: «Sharq», 2004.
- Ubaydulla Uvatov.* – T.: «Mehnat», 1992.
- Ubaydulla Uvatov.* Donolardan saboqlar. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994.
- Usmon Orif.* Bahouddin Naqshband va uning ta'limoti haqida. – T.: «Universitet», 1993.
- Usmonov O.* Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. – T.: «Fan». 1977
- Fayziyev T.* Temuriy malikalar. – T., 1994.
- Fayziyev Turg'un.* Mirzo Ulug'bek avlodlar. – T.: «Yozuvchi», 1994.
- Fayziyev Turg'un.* Husayn Boyqaroning sirli o'limi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999.
- Fayziyev Turg'un.* Temuriylar shajarasi. – T.: «Yozuvchi» nashriyoti, 1996.
- Fish Radiy.* Jaloliddin Rumiy. Tarixiy – biografik roman. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1986.
- Sharafiddin Aliy Yazdiy.* Zafarnoma. – T.: «Kamalak», 1994.
- Shamsutdinov R.T.* Boburni izlab. Andijon, 1993, 196-bet.
- Shamsutdinov R.T.* Buyuk Boburiylar sulolasi. Andijon, 1993, 80-bet.,
- Shamsutdinov R.T., Abdullayev. F., Abdullayev. M.* Buyuk Boburiylar saltanati. Andijon, «Meros», 1995, 306-bet.
- Shamsutdinov R.T., Karimov. Sh.* Sohibqiron Amir Temur va uning saltanati. Andijon, 1995, 190-bet.

Shamsutdinov R.T. O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishning yagona konsepsiyasi. – T.: 1996, 40-bet.

Shamsutdinov R.T., Isroilov P. Islohotlar, yangilanish taraqqiyot dasturi. Andijon, 1996, 32-bet.

Shamsutdinov R.T. Andijonda Sohibqironni xotirlab. Andijon, 1996, 130-bet.

Shamsutdinov R.T., Karimov Sh. Vatan tarixi (Birinchi kitob). – T.: «O'qituvchi», 1997, 527-bet.

Shamsutdinov R.T., Karimov Sh. Vatan tarixi (Birinchi kitob) – T.: «Sharq» 2010, 512-bet.

Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. (Oliy o'quv yurtlarining notarix fakultetlari uchun o'quv qo'llanma). T.: «Sharq», 2013, 671-bet.

Шахобиддин ан-Насафий. Жизнеописание Султана Джелаладина Манк-буры. – Баку. ФЕН, 1979.

Shahrisabz 2700 yillar merosi. – T.: «Sharq», 2002.

Шошиязов К. Узбеки-карлуки. (историко-этнографический очерк). – T.: «Наука», 1964.

Shoniyo'zov sh.K. Qang' davlati va qang'lilar (O'zbek xalqining siyosiy va etnik tarixidan). – T.: «Fan», 1990.

Shokirov Yusufjon. Islom shariati asoslari. – T.: «Mehnat», 1992.

Шаймерденова М.Д. История Казахстана с древнейших времен до середины XX века. Учебное пособие. Часть II. Издание третье переработанное и дополненное. Алматы. 2000

Hamidov Homidjon. O'lis-yaqin yulduzlar. – T.: «Cho'lpon», 1990.

Hasanov A. Makka va Madina tarixi. – T.: «Mehnat», 1992.

Hidoyatov G.A. Mening jonajon tarixim. – T.: «O'qituvchi», 1992.

Hasanov X. Mahmud Qoshg'ariy. (hayoti va geografik merosi). – T.: «Fan», 1969.

Hasanov A. Qadimgi Arabiston va ilk islom Johiliya asri. – T.: «Toshkent islom universiteti», 2001.

Eshov B. O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. (Oliy o'quv yurtlari talabalar uchun darslik) – T.: «Fan va texnologiya», 2008.

Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. I-qism. – T.: «Ma'rifat», 2009.

www.centasia.ru Э. Хасанов. История таджиков и её современные фальсификаторы. 01: 4409. 02.2010.

Bulardan tashqari ishda O'zbekiston vaqtlı mathuoti: jurnallar, gazetalar materiallaridan ham keng foydalanildi.

MUNDARIJA

<i>Kirish O'zbekiston tarixi fanning predmeti, maqsadi, vazifalari, manba va asoslari</i>	3
I bob. O'rta Osiyo ibtidoiy tarixining davri va bosqichlari. Ibtidoiy tarixni davrlashtirish	
1. O'zbekiston hududida eng qadimgi odamlarning izlari	20
2. O'rta va yangi tosh asri	28
3. Mis-tosh va bronza asri	33
II bob. O'zbekiston hududidagi eng qadimgi davlat tuzilmalari. Chet el bosqinchilariga qarshi kurash (miloddan avvalgi birinchi mingyillik)	
1. Urug'chilik jamoasining yemirilishi va uning sabablari	38
2. O'zbekiston hududidagi Eng qadimgi davlat tuzilmalari	41
3. O'rta Osiyo xalqlarining Eron ahamoniyilariga qarshi ozodlik kurashlari	52
4. O'rta Osiyo xalqlarining Aleksandr Zulqarnaynga qarshi erk va ozodlik uchun kurashlari	59
III bob. O'rta Osiyodagi qadimgi davlatlar (miloddan avvalgi IV asrdan milodning IV asrigacha)	
1. O'rta Osiyo salavkiylar hukmronligi ostida	72
2. Parfiya davlati. Yunon–Baqtriya podsholigi	74
3. Qang' davlati	81
4. Qadimgi Farg'ona davlati (Parkana, Dovon)	90
5. Kushon davlati	93
6. Buyuk Ipak yo'li	99
7. «Avesto» – muqaddas kitob	106
8. Moniylik dini	115
9. Qadimgi yozuvlar	117
IV bob. O'rta asrlar davri. O'rta Osiyo xalqlari ilk o'rta asrlar davrida (V–VIII asrlar). Yerga egalik munosabatlarining shakllanishi. Eftalitlar va Turk xoqonligi davri (V–VII asrlar)	
1. Eftalitlar davlati	120
2. Turk xoqonligi	127
3. Turk xoqonligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot	133
V bob. Arab xalifaligi davrida Movaraunnahr va Xuroson	
1. Arab xalifaligining tashkil topishi	140
2. O'rta Osiyoda arablar bosqini	145
3. Qur'oni karim	150
4. Movarounnahrda arablar zulmining kuchayishi	155

5. Arablarga qarshi xalq ozodlik kurashlari	159
6. Abu musulim qo'zg'oloni	163
7. Muqqanna qo'zg'oloni	170

VI bob. Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlatlarning tashkil topishi

1. Tohiriylar va Somoniylar davlatlari	178
2. Somoniylar davrida ijtimoiy-siyosiy va xo'jalik hayoti	187
3. Qoraxoniylar davlati	192
4. Qoraxoniylar davrida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot	200
5. G'aznaviylar davlati	203
6. Saljuqiylar saltanati	214
7. Xorazmshohlar davlati	219

VII bob. IX–XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda madaniy hayot

1. Madaniyatning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni	236
2. Sharq dunyosining buyuk allomalari	239
3. Islom madaniyati. Hadislar	277
4. Tasavvuf – so'fiylik ta'limoti	284
5. Me'morchilik san'at va musiqa	297
6. O'zbek xalqining etnogenezi	301

VIII bob. Movarounnahr va Xorazm mo'g'ullar bosqini davrida (XIII asrning boshi – XIV asrning birinchi yarmi)

1. Chingizxon boshliq Mo'g'ul davlatining tashkil topishi	314
2. Chingizxonning xorazmshoh Muhammad bilan munosabatlari	319
3. Mog'ullar bosqini arafasida Xorazm davlatida siyosiy vaziyat	326
4. Chingizxon bosqinchilik yurishlarining boshlanishi	329
5. Urganch fojiasi	341
6. Jaloliddin Manguberdi jasorati	345
7. Mo'g'ullar istilosidan keyingi davrdagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat	353
8. XIII asr – XIV asrning birinchi yarmida madaniy hayot	359

IX bob. Amir Temur va temuriylar davri (XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr)

1. Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi	367
2. Amir Temurning Samarqand taxti uchun kurashi	372
3. Buyuk Amir Temur saltanati	379
4. Eron, Hindiston va Kichik Osiyoga yurishlar	393
5. Amir Temur davlatida ichki hayot	408
6. Amir Temurning harbiy san'ati	413
7. Amir Temur saltanatining parchalanishi. Shohrux va Ulug'bek hukmronligi	420
8. Husayn Boyqaro hukmronligi	437
9. Temuriylar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar	447

**X bob. XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asrda Movarounnahr
va Xurosonda madaniy hayot**

1. Amir Temur va temuriylar davrida madaniy hayot	454
2. Qurilish va me'morchilik	457
3. Ma'naviy madaniyat, ilm-fan taraqqiyoti	468
4. Ulug'bek akademiyasi	472
5. Tarixshunoslik	477
6. Xalq og'zaki ijodi. Badiiy adabiyot ravnaqi	484
7. Nafis kitob va xattotlik san'ati	507
8. Tasviriy san'at	509
9. Musiqa san'ati	512
10. Bahouddin Naqshband (1319–1389) va Naqshbandiya tariqati	513
11. Xo'ja Ubaydulloh Ahror	515
<i>Qisqacha atamalar lug'ati</i>	520
<i>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</i>	527

O'quv nashr

R. SHAMSUTDINOV, SH. KARIMOV,
S. XOSHIMOVA

VATAN TARIXI

Birinchi kitob

Qayta tayyorlangan uchinchi nashri


«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2016

Muharrir *Barnobek Eshpo'latov*
Badiiy muharrir *Feruz Basharova*
Texnik muharrir *Diana Gabdraxmanova*
Sahifalovchi *E'zoza Yo'ldosheva*
Musahhih *Guli Shukurova*

Nashr litsenziyasi AI № 201 28.08.2011.

Bosishga ruxsat etildi 26.07.2016. Bichimi 60x90^{1/16}. Times New Roman garniturası.
Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 33,5. Nashriyot-hisob tabog'i 36,5.
Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 4442.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.**



VATAN TARIXI

1

ISBN 978-9943-26-492-2



9 789943 264922

